Key words: State personnel policy, strategy, development, period, economic and social development, personnel system, public administration, public life, democracy, human capital, civil service, personnel potential, openness, transparency.

ИЗМЕНЕНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ КАДРОВОЙ ПОЛИТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

Статья посвящена вопросам подъема потенциала нашего народа, вступающего в новый этап развития, на более высокие высоты, осуществления коренных реформ и крупных нововведений во всех сферах, вывода нашей страны в ряд развитых стран, становления в нашей стране самого передового демократического и свободного гражданского общества. Показано, что государственная кадровая политика в Узбекистане на разных этапах за прошедший период менялась, что эти изменения тесно связаны с политическим, экономическим и социальным развитием страны, а также подробно проанализированы основные меняющиеся черты государственной кадровой политики в Узбекистане.

Ключевые слова: Государственная кадровая политика, стратегия, развитие, период, экономическое и социальное развитие, кадровая система, государственное управление, общественная жизнь, демократия, человеческий капитал, государственная служба, кадровый потенциал, открытость, транспарентность.

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT KADRLAR SIYOSATINING O‘ZGARUVCHAN XUSUSIYATLARI

Аннотация

Mazkur maqolada taraqqiyotning yangi bosqichiga o‘tayotgan xalqimiz salohiyatini yanada baland cho‘qqilarga ko‘tarish barcha sohalarida tub islohotlar va ulkan yangilanishlarni amalga oshirish, mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish, yurtimizda eng ilg‘or demokratik va erkin fukarolik jamiyatini barpo etish masalalariga bag‘ishlangan. O‘zbekistonda davlat kadrlar siyosati o‘tgan davr mobaynida turli bosqichlarda o‘zgarib kelganligi, bu o‘zgarishlar mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq ekanligi, O‘zbekistonda davlat kadrlar siyosatining asosiy o‘zgaruvchan xususiyatlari atroflicha tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Davlat kadrlar siyosati, strategiya, taraqqiyot, davr, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish, kadrlar tizimi, davlat boshqaruvi, jamiyat hayoti, demokratiya, inson kapitali, davlat xizmati, kadrlar salohiyati, ochiqlik, shaffoflik.

Kirish. Bizga ma‘lumki, tarixda shunday burilish davrlari bo‘ladiki, unda taraqqiyot yo‘lidan borayotgan xalqlar taqdiri uchun dorilamon tamoyillar va muayyan rivojlanish bosqichiga xos ustuvor yo‘nalishlar hamda dolzarb vazifalarni aniqlash nihoyatda muhim hayotiy ehtiyojga aylanadi. Tajriba aynan ana shunday davrlarda ushbu ehtiyojni zukkolik bilan anglaydigan va davr talablariga voqealar rivojini oldindan ko‘rib, javob bera oladigan yo‘lboshchilar yetakchiligidagi xalqlargina ko‘zlagan maqsadlariga yetishi mumkinligidan dalolat beradi. Bugungi davr xam xuddi ana shunday. Ya‘ni, bu Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga o‘tayotgan xalqimiz salohiyatini yanada baland cho‘qqilarga ko‘tarish barcha sohalarida tub islohotlar va ulkan yangilanishlarni amalga oshirish, mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish, yurtimizda eng ilg‘or demokratik va erkin fukarolik jamiyatini barpo etish davridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuni ochib berishda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi va O‘zbekiston Respublikasining “Davlat mulkini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoyevning “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” kitobida ilgari surilgan masalalarga tayanilgan. Shuningdek, masalaning tarixiy jihatlarini yoritishda “O‘zbekistonning yangi tarixi. Mustaqil O‘zbekiston tarixi” kitobidan iqtiboslar keltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada 1991-yildan hozirga qadar O‘zbekistonda kadrlarga oid davlat siyosatining o‘zgarish dinamikasi va xususiyatlari qiyoslash, analiz, sintez metodlari asosida ilmiy tahlil etilgan.

Tahlil va natijalar. O‘zbekistonda davlat kadrlar siyosati o‘tgan davr mobaynida turli bosqichlarda o‘zgarib kelgan. Bu o‘zgarishlar mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbekistonda davlat kadrlar siyosatining quyidagi asosiy o‘zgaruvchan xususiyatlari keltirish mumkin:

1. Mustaqillik davridagi dastlabki 1991-yildan 2000-yillarda kadrlar siyosati kuchli markazlashgan holda olib borilganini aytish mumkin. Davlat boshqaruvi va jamiyat qurilishida eng zarur kadrlar tanlab olindi Sobiq ittifoq davridan qolgan kadrlar tizimi saqlanib qoldi. Kadrlar tanlashda siyosiy ishonch muhim rol o‘ynadi.

2. Islohotlar davri sifatida 2000-yildan 2016-yillar olinsa, bu davrda yexnokratik yondashuv, ya‘ni davlat boshqaruvida malakali, o‘z sohasini yaxshi biladigan mutaxassislariga e‘tibor qaratlildi deyish mumkin. Ushbu yillarda davlat xizmatidagi korrupsiyani kamaytirish maqsadida islohotlar o‘tkazildi. Xorijiy tajribadan foydalanish, jumladan, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik rivojlandi, xorijiy oliy o‘quv yurtlarida tahsil olgan kadrlar jalb qilina boshladi.

3. 2016-yildan hozirgacha bo‘lgan ushbu davrni davlat boshqaruvi va jamiyat hayotida tub burilish desak mubolag‘a

bo'lmaydi. So'nggi yillarda yosh kadrlarni tayyorlash va ularning davlat boshqaruvida faol ishtirokini ta'minlashga e'tibor qaratilib kelinmoqda. Jamiyat hayotining barcha sohalarida ochiqlik va shaffoflik ta'minlanmoqda. Davlat xizmatiga qabul qilish jarayonlarida ochiq tanlov tizimi joriy qilindi. Onlayn test sinovlari, ochiq konkurslar yo'lga qo'yildi. Davlat xizmatchilarining malakasini oshirish uchun maxsus kurslar va treninglar tashkil qilinmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida kadrlar siyosatini boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan ko'plab amaliy ishlar qilinmoqda.

4. Hozirgi tendensiyalar: inson kapitalini rivojlantirish, ya'ni bu insonlarning bilimlari, malakalari, qobiliyatlari va sog'lig'ini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar tizimidir. Bu konsepsiya iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlanish uchun muhim bo'lgan bir qancha omillarni o'z ichiga oladi. Inson kapitalini rivojlantirishga quyidagi omillar: ta'lim va ta'lim olish imkoniyatlari, maktab va oliy ta'limning sifati, professional tayyorgarlik va kasbiy malaka oshirish kurslari, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar uchun imkoniyatlar, aholiga sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va shu kabilar kiradi. Jamiyatni rivojlantirish uchun xususiy sektor va davlat orasidagi hamkorlik tizimi yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, inson kapitalini rivojlantirish har bir jamiyat va davlat uchun alohida strategiyalar va choralar qabul qilishni talab qiladi. Bu jarayon insonlarning o'qish, ishlash va ijtimoiy hayotdagi faoliyatini yaxshilashga qaratilgan. Kadrlarning bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Xalqaro standartlarga mos ravishda davlat xizmati tizimi isloh qilinmoqda. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvida faol ishtirok etishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu o'zgarishlar yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, xalqaro tajriba va mamlakatimizning ertangi kuni uchun ichki ehtiyojlari hisobga olingan holda amalga oshirilmogda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda yangicha davlat tizimini shakllantirish va uning zahirida zamonaviy davlat xizmatini, uni isloh qilish, zamonaviy kadrlar siyosatini amalga oshirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Yangi O'zbekiston siyosiy tizimida davlatning kadrlar siyosati genezisiga ta'sir ko'rsatadigan demokratiyaning maxsus parlament shakli rivojlandi. So'nggi yillarda Harakatlar strategiyasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning shiddatli kechishini ta'minlagani hech kimga sir emas. Harakatlar strategiyasining uzviy davomi o'laroq, O'zbekistonning ertangi kuni bilan bevosita bog'liq bo'lgan muhim hujjat O'zbekiston Respublikasi prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi" Farmonining qabul qilinishi O'zbekiston taraqqiyotiga, ravnaqiga befarq bo'lmagan barcha odamlarda qiziqish uyg'otgani, bu borada ko'plab ijobiy fikr-mulohazalar bildirilayotgani fikrimizning tasdig'idir. Buni o'z navbatida o'zbek modelining rivojlanish timsoli sifatida ko'rish mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarida o'zgarishlar va yangilanishlar kechmoqda. Ayni vaqtda barcha sohalaridagi yangilanishlarning sifati, samarasi o'sha sohalarining rahbarlariga bog'liq. Yangi O'zbekistonda kadrlar siyosati bilan bog'liq masalada ham o'z talablarini qat'iy qilib qo'ydi.

Masalaning qanchalik jiddiy va aniqligini his qilish uchun Prezidentimizning bu borada bildirgan qat'iy pozitsiyalari ifodalangan quyidagi fikrlarini keltirish ayni muddaodir: "Bizga bugun qanday rahbar kadrlar kerak?", degan savolga ham aniq javoblar bor: "Yangicha va mustaqil fikrlaydigan, mas'uliyatli, tashabbuskor, ilg'or boshqaruv usullarini puxta o'zlashtirgan, vatanparvar, halol kadrlarni tanlash va tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratilmas ekan, davlat boshqaruvida sifat o'zgarishi yuz bermaydi"[3].

Mahobatli va muhtasham Oqsaroy peshtoqiga bundan yetti asr muqaddam sohibqiron Amir Temur bobomiz "Qudratimizga shubha qilganlar, biz qurgan imoratlarga boqsunlar", deb yozdiganlar. Albatta bu fikrda davlatning qudrati zohir bo'lib turadi. Ayni vaqtda bu iboradagi "qudrat" so'zining tub zaminida rahbarlik, davlat xizmatining qanchalik yuksak

darajaga ko'tarilganligini ko'rishimiz mumkin. O'zbekistonda keyingi yillarda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarining ortida buyuk ajdodlarimizning rahbarlik madaniyati, boshqaruv ilmi va mahorati, tajribasi va an'analari ko'z o'ngimizda namoyon bo'lmoqda. Bu esa uchinchi Renessans poydevoriga tamal toshini qo'ygan, Yangi O'zbekistonni tubdan yaratayotgan bunyodkor va zahmatkash xalqimizning nurli kelajigidan dalolat beradi.

Moziyga nazar tashlasak, demokratiyaning parlament shaklining nazariy rivojlanishi Angliyada Konstitutsiyaviy monarxiya asoslarini shakllantirgan I.Nyuton mexanizmidan kelib chiqadi. Sobiq sovet olimlari demokratiyaning o'xshashlikdan farq qiladigan ushbu shaklini, ya'ni turli kengash, ittifoqlar yoki sinflar, guruhlarining saylovlardagi hokimiyat uchun bo'lgan kurashi va shu asosda shakllanadigan kadrlar siyosatini o'z individualizm va g'arazli raqobat g'oyalariidan kelib chiqadi, - deb hisoblar edi.

Rivojlangan shaklda ushbu tizim taxminan teng imkoniyatga ega va o'z dasturlarida juda o'xshash ikki partiyani masalan, AQSHdagi Demokratlar va Respublikachilar partiyasi, Yevropadagi o'xshash partiyalar, Yaponiya va boshqa shu kabi davlatlarda namoyish etadi, bu o'rinda burjua manfaatlarini ifoda etuvchi siyosatchilar va lobbistlar - professionallar qatlami mavjud. 1991-yildagi Davlat tasarrufidan chiqarish va xususilashtirish to'g'risidagi qonun Sobiq sovet kadrlar tizimiga qattiq zarba berdi. Ushbu qonunga binoan korxonalarining mehnat jamoalari faqat rasmiy ravishda ishlab chiqarish jarayoni ustidan nazorat o'rnatdilar, amalda ishlab chiqarish boshida sobiq menejerlar - endi o'rta mulkdorlar sinfi vakillari turar edilar[1]. Chet ellik tadqiqotchilar S.Klark va M.Kivinenlarning fikriga ko'ra, kadrlar siyosatidagi bu kabi o'zgarishlar ijro organlari xodimlari, ishlab chiqarish boshqaruvidagi faol ishtirok etadigan direktorlar korpusi vakillari, sanoat va moliyaviy elit vakillariga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Bizning fikrimizcha, yangi parlament - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ishi boshlanishidan oldin ularning manfaatlarini olib boruvchi - viloyat ma'muriyati rahbarlarini tegishli Kengash tomonidan lavozimidan ozod qilish mumkin emas edi, faqat prezidentning qarori bilan ish yurituvchilar uchun juda foydali edi. Bunday siyosat yuritish iqtisodiy gegemonlikning asosi - jamoat mulki va siyosiy gegemonlik - menejerlarni umumiy saylash - iqtisodiy asoslari xususiy mulk bo'lgan xorijiy tajriba byurokratiyasi tomonidan mehnatkashlardan tortib olindi va siyosiy asos menejerlarning umumiy tayinlanishi edi. Kollektivizmni mag'lubiyatga uchratgan avtokratiya yangi kadrlar tizimining asosiy tamoyiliga aylandi. Shunga o'xshash jarayonlar Sharqiy Yevropaning postsotsialistik makonida sodir bo'lganligini ta'kidlash mumkin. Masalan, Sharqiy Yevropa mamlakatlarida tadqiqotchilar byurokratiyaning mavjud tartibidan keskin noroziligini ta'kidladilar - yuqori malakali ishchi oddiy amaldor bilan taqqoslaganda yuqori darajadagi moddiy farovonlikka ega edi. Shuning uchun islohotlardan so'ng markaziy va mahalliy ma'muriyatning bir guruh yuqori lavozimli amaldorlari eng maqbul pozitsiyada bo'lib qoldilar.

Sobiq ittifoqda eng avvalo, quyi boshqaruv organlari kadrlarini davr talabiga mos darajada mustahkamlashga kirishildi. Chunki 80-yillar oxirlarida sobiq Markazning safsata aralash ko'rsatmalari va tavsiyalari bilan boshqaruv tizimida boshboshdoqlik yuzaga kelgan edi. O'shanda ko'p yillik partiya xukmronligi yoniga sho'rolar, ya'ni Kengashlar xukmronligi qo'shildi. Ular esa ayni paytda xalq deputatlari ijroiya qo'mitalari vazifasini ham bajara boshladi. Shu bilan birga, hokimiyat tarkibida ijroiya qo'mitalar ham saqlab qolindi. Natijada ko'sh hokimiyatchilik yuzaga keldi. Bu ma'lum darajada bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida boshqaruvda bir-birini takrorlashni, ayni chog'da bir-biriga xalaqit berishni keltirib chiqardi. Boshqacha qilib aytganda, joylarda boshqaruvchi ko'p bo'lib, javobgar shaxs mas'uliyatni o'z bo'yiniga oladigan rahbar kadr topilmay qoldi[4].

Bugungi kunda yangi O'zbekistonda tamomila yangi bir sharoitda rahbarlik lavozimlariga ko'plab yangi, yosh kadrlar qo'shildi. Bu holat keyingi yillarda rahbarlikning yangicha ish uslubini ularga o'rgatishni taqozo qila boshladi. Bu esa

mustaqillik qo'lga kiritilgandan keyingi davrdagi dastlabki yutuqlar, kadrlar siyosatining shakllanishi va uning strategiyasi atroflicha tahlil qilinib, mavjud kamchiliklar va navbatdagi vazifalar ko'rib chiqilib yangi talablar, zamonaviy va kreativ fikrlaydigan, sadoqatli kadrlarga ehtiyoj borligini ko'rsatmoqda. hozirgacha ayrim joylarda avvalgi eskicha qarash va ko'plab tashkilotlardagi eskicha uslubdan hamon voz kechilmagan holatlar ko'zga tashlanmoqda.

O'zbekistonda istiqloq yillarida kadrlar tarbiyalash borasida, ular bilan ishlashdagi dastlabki tajribani tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov kadrlarni uch toifaga bo'ladi.

Birinchi toifa – bu hozirgi og'ir vaziyatdan foydalanib qolishga harakat qiladigan, faqat o'z manfaatini o'ylaydigan, xalq g'ami tashvishidan begona kishilar.

Ikkinchi toifa – befarq, loqayd odamlar bo'lib, ular hech kimga qarshi gapirishni, dushman orttirishni xohlamaydigan kimsalar.

Uchinchi toifa – yosh, tashabbuskor, kuch-g'ayratga to'la, Vatan ravnaqi uchun fidoyilik bilan xizmat qiluvchi kadrlar.

Mana shu tahlilning o'zi ko'rsatib turibdiki, mustaqillikning dastlabki yillarida kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish istiqloqni mustahkamlash, mamlakatni yanada rivojlantirish manfaatlarini nuqtayi nazaridan g'oyat dolzarb masala bo'lgan.

Hamma davrlarda ham amaliyot kadrlar siyosatida aniq lavozimlarga shaxslarni tanlashning asosiy mezonlarini aniqlab olishni, bu borada davlat dasturi va strategik yo'lni ishlab chiqishni talab qiladi. Barcha davrlarda kadr tanlashdek o'ta nozik va mas'uliyatli vazifa har narsadan og'ir va chunki kadrlar siyosati mamlakat taqdirini, yurt kelajagini, xalqning dardu tashvishlariga malham bo'ladigan, bir so'z aytganda, davlatning istiqbolini belgilaydigan asosiy omil hisoblanadi.

Darhaqiqat, mamlakatda barcha sohadagi islohotlarning izchil amalga oshirilishi, davlatni rivojlantirish yo'lidagi tadbir va dasturlarni amalga oshirishi davlatning kadrlar siyosatiga, xususan, rahbar kadrlar faolligiga bog'liqdir. Birgina misol, birinchidan, hokimlar — mayda-chuyda tashvishlarga o'ralashib qolmasdan, xalq taqdirini o'ylash, katta-katta strategik ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni hal qilish, joylarda yoshlar tarbiyasi, aholining madaniy va ma'rifiy ishlarga to'g'ri yo'nalishini ta'minlash, ishsizlikning oldini olish, yangi ish o'rinlarini tashkillashtirish kabi o'ta muhim masalalar hayotiy zaruratga aylanib bormoqda. Buning uchun hokimlar odamlarning tashvishlaridan, yumushlaridan xabardor bo'lib, ularni o'zaro birlashtirib, ruhlantirib, zarur sharoitlar va ma'naviy muhit yaratib, xalqni rozi qilish uchun oldida turgan muhim vazifalarni ijrosiga safarbar etishi lozim. Ikkinchidan, islohotlarning taqdiri, ularning samarasi, avvalambor kadrlarning malakasiga, ularni o'z ishini qay darajada o'zlashtirib olganligiga, sadoqati va fidoyiligiga bog'liq bo'ldi. Bu o'tish davrida murakkab muammo bo'lib, kun tartibida turgan muhim masalaning yechimini to'g'ri hal eta olsa, xalq g'amini, tashvishini o'z dardidek his qiladigan bilimi va hayotiy tajribasi bor, insofli, diyonatli, yurtga sadoqat bilan xizmat qilishni insoniylik burchi deb hisoblaydigan va yashaydigan kadrlarni joy-joyiga qo'yilsa, shubhasiz, yillar davomida to'planib qolgan, yechimini kutayotgan muammolar bartaraf etiladi. Har bir rahbar bitta narsani chuqur bilib olishi shart, ya'ni rahbarlik bu faqat yumshoq kresloda o'tirib o'zini

manfaati yo'lida o'zini o'ylaydigan mansab emas, balki bu, avvalo, xalqqa, odamlarga xizmat qilish mas'uliyati ekanligini to'g'ri tushunib olmog'i zarur. Rahbarlik degani hammadan ko'proq ishlab, fuqarolar muammolarini eshitish, o'rganish, tahlil qilish va yurt ravnaqi uchun sidqidildan yelib-yuzurib muammoni yechimini topadigan fidoyi inson bo'lishi zarur. Uchinchidan, davlat kadrlar siyosatida har bir kadr yuksak axloqiylik hamda poklik, kamtarlik kabi yuksak insoniy fazilatlar bilan yo'g'rilgan bo'lishi lozim.

Mamlakatimizda rahbar kadrlar tanlash jarayonida qadimiy milliy an'analardan tortib, hozirgi ilm-fan tomonidan kashf etilgan eng zamonaviy uslublardan foydalanish holatlarigacha kuzatish mumkin. Binobarin, bu turli uslublar davlat, nodavlat va xususiy tashkilotlar tomonidan qo'llanilib, ular asosan sobiq sovet tuzumi davrida amaliyotda qo'llanilgan kadrlar tanlash jarayoni va uslublarining tanazzulga yuz tutishi va milliy mustaqillik natijasida jamiyat tafakkur tarzida yuz bergan o'zgarishlar va rivojlanishlar zamirida namoyon bo'ldi. Biroq, hanuzga qadar rahbar kadrlar tanlashda uzoq yillar, bir necha avlodlar almashinuvi davomida shakllantirilgan sovet davri an'analarning qo'llanilishi ham uchrab turibdi. Shuning uchun ham rahbarlikka nomzod tanlash yoki tavsiya etishning hozirgi davrda amalda bo'lgan ayrim asosiy turlari, ularning ijobiy va salbiy xususiyatlarini tahlil qilishga ehtiyoj tug'iladi.

Aksariyat salbiy holatlar ichida ayniqsa rahbar kadrlarning davlatga va demokratik qadriyatlariga xos bo'lgan talablar darajasida o'zining kasbiy jihatlarini takomillashtira olmasligi, shuningdek, ular yangicha mezonlar asosida o'z ish uslublarini o'zgartirishlarining qiyin kechishi mamlakatimizdagi bugungi jo'shqin va pragmatik islohotlar jarayonlariga salbiy ta'sir etishini esdan chiqarimaslik lozim. Agar rahbar egallagan lavozimiga munosib bo'lsa, o'sha joyda xalq farovonligi oshadi, odamlar qonuniy manfaatlarini himoya qilishda o'z himoyasini topadi. Lekin, ming afsuski, bugungi kunda ham ayrim rahbarlarimizning hanuz boqimandalik kayfiyatidan qutula ololmayotgani, eski tizimning qotib qolgan uslub va asoratlaridan xalos bo'lolmayotgani, ular hamma shart-sharoitlarni tashkil qilish o'z-o'zidan bo'lishiga tavakkal qilib, shunga umid bog'lab, o'z mas'uliyatlarini sezmasdan o'tirgan rahbarlarni uchratish juda achinarlidir.

Xulosa va takliflar. Biz ushbu maqolada kadrlar siyosatining strategiyalari asosida ayrim jihatlarini tahlil qilishga harakat qildik. Zamonaviy o'zbek kadrlar siyosati hamda boshqaruvida mehnat jamoalarining doimiy o'zgaruvchan roli haqida fikr yuritdik. Odatda bu tizimdagi kadrlar siyosatida xalq nazorati instituti buyruqbozlikka qarshi kurashuvchi va fuqarolik jamiyatining elementi sifatida baholanishi mumkin. Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati tashkilotlarini kadrlar munosabatlarining subyektlariga aylantirish, davlatning kadrlar siyosatiga faol ta'sir ko'rsatish tendensiyasining pragmatik jihatlarini boshqaruvga kreativ fikrlaydigan, tajribali mutaxassislarini jalb qilishni kuchaytirishni anglatadi.

Ushbu sohadagi asosiy paradigma “inson — jamiyat — davlat” shakliga aylandi va bu, ayni bugungi hayot haqiqatini, hozirgi davr zaruratini aks ettiradi. Ya'ni, davlatning mavjudligidan asosiy maqsad — inson hayoti va jamiyat taraqqiyotiga doir siyosatni to'g'ri tashkil qilish, bu boradagi tizim va tuzilmalar faoliyatini xalq manfaatlarini yo'lida samarali tashkil etishdan iborat.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 19.11.1991 yildagi 425-XII-son “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida”gi qonuni / <https://lex.uz/docs/127010>
2. O'zbekiston Respublikasining 14.02.2024 yildagi O'RQ-907-son “Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida”gi qonuni egallagan / <https://lex.uz/docs/6800515>
3. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
4. O'zbekistonning yangi tarixi. Mustaqil O'zbekiston tarixi. –T.: Sharq, 2000.
5. Axmedov X. Ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash asoslari. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2021.
6. Akhmedov X. Education and spiritual education. // The Light of Islam, 2020. – P. 139-144.



UDK: 316.4

Olimjon AXMADJANOV,
Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: akhmadzhanov71@inbox.ru

Namangan davlat texnika universiteti dotsenti S.Abdullayeva taqrizi asosida

TODAY'S YOUTH AND THE GLOBAL NETWORK

Annotation

In this article, the author analyzed the facts proving the influence of the Internet on the young generation. It has been shown that the global network does not always have a positive effect on teenagers, but also has negative aspects. He also talked about ways and means to protect not only young people, but also adults from falling into internet addiction.

Key words: Global network, gadget, negative influence, positive influence, virtual world, blogger, hacker, internet games.

СЕГОДНЯШНЯЯ МОЛОДЕЖЬ И ГЛОБАЛЬНАЯ СЕТЬ

Аннотация

В этой статье автор проанализировал факты, доказывающие влияние интернета на молодое поколение. Глобальная сеть не всегда оказывала положительное влияние на подростков, показывая, что у нее есть и отрицательные стороны. Он также рассказал о методах и средствах защиты не только молодежи, но и взрослых от интернет-зависимости.

Ключевые слова: Глобальная сеть, гаджет, негативное влияние, позитивное влияние, виртуальный мир, блогер, хакер, интернет-игры.

BUGUNGI YOSHLAR VA GLOBAL TARMOQ

Аннотация

Ushbu maqolada muallif internetning yosh avlodga ta'sirini isbotlovchi faktlarni tahlil qilgan. Global tarmoq har doim ham o'smirlarga ijobiy ta'sir ko'rsatmasligini uning negativ tomonlari ham borligini ko'rsatgan. Nafaqat yoshlarni, balki kattalarni ham internet qaramligiga tushib qolishdan asrovchi usullar va vositalar borasida ham so'z yuritgan.

Kalit so'zlar: Global tarmoq, gadjet, negativ ta'sir, ijobiy ta'sir, virtual olam, bloger, xaker, internet o'yinlar.

Kirish. Biz hammamiz yaxshi bilamizki, tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan global tarmoq, bizning hayotimizda muhim va almashirib bo'lmaydigan pozitsiyani egallaydi. Internet bizni davlat xizmatlari sohasidagi qog'oz va byurokratik muammolardan ozod qildi. U iqtisodiyotning rivojlanishida ham sezilarli omil bo'lib qolmoqda. Uzoq masofalardan turib yaqin odamlar bilan muloqot qilish imkoniyatiga egamiz, shu bilan birga vatandan olisda tahsil olayotgan talabalar o'zlarining yaqinlarini internet orqali vizual ravishda ko'rishlari mumkin bu ularni ayriq hissin oson yengishlarida katta yordam beradi. Internet yordamida biz butun dunyoda sodir bo'layotgan yangiliklar bilan tanishamiz. Shuningdek, ko'plab blogerlar o'z sahifalarini ochib pul ishlashadi. Dasturchilar foydali dasturlarni yaratadilar, korxonalar o'zlarining mahsulotlarini reklama qiladilar, nogironlar masofadan turib uydan chiqmagan holda ishlash imkoniyatiga ega bo'ldilar[4].

Global tarmoq ko'plab jamiyatlarni bog'laydi. Bu jamiyatlarda jonli muloqot qilish imkoniyati yo'q, ammo Internet orqali aloqa qilish imkoniyati cheksizdir.

Global tarmoqni chegaralari yo'q, virtual ta'lim tizimi ko'plab afzalliklarga ega, endi irqi, millati, ijtimoiy mavqei yoki jinsidan qat'i nazar barcha insonlar sifatli ta'lim olish imkoniyatiga egadirlar. Bir necha asrlar davomida to'plangan bebaho bilimlar hozirda global tarmoqlarda birlashtirilgan[1]. Global tarmoq barcha to'siqlarni buzdi va dunyo kutubxonasiga aylandi. Odamlar juda katta, deyarli cheksiz muloqot qilish va ma'lumot almashish imkoniyatlariga ega bo'lishdi. Tarmoqlard turli xil jamoalar tuzildi: tibbiyot, muhandislik, oshpazlik va boshqalar.

Ushbu jamoalar kasbiy faoliyatga tegishli ma'lumotlarni o'zaro almashadilar, shu bilan chegarasiz muloqot qilish imkoniyatiga egadirlar. Tan olish keraki, internet nafaqat professional, balki hayotiy muammolarni ham hal qilishda ham yordam bermoqda. Ammo, ta'kidlash kerak global tarmoq jonli aloqa o'rnini bosa olmaydi, jonli muloqot paytida biz his qiladigan iliqlik tarmoqlarda mavjud emas. Albatta internet o'quvchilar va talabalar uchun elektron manbalardan foydalanish

imkoniyatini beradi. Hozirda onlayn konferensiyalar, tibbiy maslahatlar, masofaviy seminarlar va zoom konferensiyalari tashkil yetilishi keng tus olmoqda. Pandemiya davrida masofadan turib ta'lim olish usullari takomillashib keng omma tomonidan ijobiy baholandi. Masofaviy ta'lim jonli ta'lim singari yuqori samaraga ega bo'lishi qiyin, lekin imkoniyati cheklangan odamlar uchun va pandemiya holatlarida uning ahamiyati katta qiymatga ega[4]. Internet yosh avlod va turli tushunchalar va kasblardagi boshqa odamlar uchun bilim manbaiga aylandi, U geografik va siyosiy to'siqlarni yo'q qilib chegarasiz muloqot qilish imkonini berdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Amerika qo'shma shtatlari va Kanadada Internet foydalanuvchilarning 56% ortig'i internet yoshlar hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaydi, ammo 21% Internet yaxshilikdan ko'ra ko'proq zarar keltiradi deb ishonadi. Bu "Forester Research" kompaniyasining tadqiqot natijalaridan olingan. Tadqiqot so'rovlarida 35000 mingdan ortiq foydalanuvchi ishtirok etdi. Ko'pchilik Internet foydalanuvchilari global tarmoqni kuchli ijobiy ta'sirini professional va ijtimoiy hayotlarida his etmoqdalar[5]. Tanning ikki tomoni bo'lganidek internetning ham salbiy jihatlari mavjud. Haddan tashqari internetga bog'lanib qolish sog'liq va aqliy qobiliyat uchun ham zarar keltiradi. Ularning Internetda yomon narsa bor salomatlik va jismoniy tayyorgarlikka ta'siri. Tadqiqotchilar shuni ko'rsatdiki, respondentlarning 18% dan 32% uyqu buzilishi va ko'rish qobiliyatining pasayishidan shikoyat qilganlar. Ularning aksariyati keksa avlod vakillari 56 yosh va undan katta. Yana bir salbiy xususiyat bu har xil turdagi firibgarlar turli saytlarda o'z faoliyatlarini jazosiz olib borishmoqda. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida ularga qarshi faol kurash olib borilmoqda. Global tarmoq cheksiz erkinlikni ta'minlaydi va veb-saytga tashrif buyuruvchilar anonim qolishlari mumkin, chunki internetda hamma narsani qilishingiz mumkin. Giyohvandlar, terrorchilar va buzg'unchi g'oyalarga yondosh odamlar internetda o'z jamoalarini tashkil qilishgan. Shu singari ko'plab salbiy jamoalar turli tarmoqlarda mavjud. Bunday jamoalarda ular yoshlarni qanday qilib narkotik qabul qilishga va

turli noma'qul ishlarni sodir etishga o'rgatishadi. Bu saytlarga kirib qolgan bolalar beixtiyor yomon odamlar ta'siriga tushadi. Axir, bolalar va o'smirlarni boshqarish oson, ularning xarakteri hali shakllanmagan va ular virtual dunyoni haqiqiy dunyo bilan osongina chalkashirib yuborishadi. Xakerlar tomonidan viruslarni global tarmoqlarda tarqatilmogda. Biz bunday saytlar va ilovalarga duch kelganimizda, ularni blokirovka qilishga yoki o'chirishga harakat qilamiz, ammo hozircha bu muammoni biz yengib o'tishga o'zimizga qiyin. Kompyuterda uzoq ishlash markaziy asab tizimiga, ko'rishga, mushak tizimiga va umurtqa pog'onasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo, global tarmoqning yana bir salbiy tomoni bor bular Internet o'yinlari va ular o'qituvchilar va ota-onalar orasida tobora ko'proq norozilikka sabab bo'lmoqda. Internet o'yinlar tobora bolalar ongiga kirib borib ularning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatib ularni tajovuzkor qilib qo'yadi ular haqiqiy dunyoni virtual dunyo bilan chalkashira boshlaydilar. O'zlarini jismoniy kamchiliklaridan xijolat bo'lgan bolalar turli komplekslarga duch keladilar va boshqalar bilan muloqatda qiynaladilar. Ular tobora ko'proq o'z dunyosiga chekinadilar va o'zlarini tengdoshlaridan va atrofda odamlardan ajratib turadilar va bu bilan o'zlarini qutulmoqchi bo'lgan qusurlardan xalos bo'lish o'rniga unga tobora chuqurroq kirib boradilar. Haqiqiy dunyoni tark etish ularni yanada odamovi qiladi bu esa ularni o'zlariga ham jamiyatga ham hech qanday foyda olib kelmaydi. Agar siz o'smirlarning ko'zlarini bilan qarasangiz, Internet birinchi navbatda ko'ngilochar vositadir va shundan keyingina ko'p ustunliklarga ega bilim manbaidir[3].

Aksariyat o'spirinlar vaqtlarini turli xil foydasiz va zararli veb-saytlarda o'tkazadilar. Natijada foydali kitoblarni o'qish va ta'lim olish uchun vaqt topolmaydilar.

Ular internetning garoviga aylanishadi, internetdan "kasal bo'lishadi". Ularning dunyoqarashi, fikrlashi va aqliy qobiliyatlari internetga qaram bo'lib qolgan sabab borgan sari torayib boradi. Ular jonli muloqotga muhtojlikni his qila boshlaydilar, ular o'z qobiqlariga berkinadilar va haqiqiy dunyoda jonli muloqotning yetishmasligi tufayli vahshiy, tajovuzkor, o'ziga xos va xudbin bo'lib qoladilar[1]. Ammo ularning o'zlarini buni sezmaydilar va buni ularga tushuntirish juda qiyin. Internet cheklangan emas, ya'ni o'smirlar har qanday foydali ma'lumotlarni olishlari mumkin, ularning fikricha, ma'lumot olish uchun o'zlarini qiziqirtirgan har qanday saytga kirishlari mumkin, lekin kattalar har doim ham ularning fikriga qo'shilavermaydi. Ularning ongi hali tarbiyasi va dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan turli veb-saytlardan himoyalangan. Salbiy saytlar ularning axloqi va axloqiy tarbiyasiga yomon ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'smirlar – bu inson hayotidagi eng yaxshi davr, ta'lim olish va shaxsiyatini shakllantirish vaqti. Yosh avlod kam o'qiydi shuning uchun ular real dunyoda muloqot yo'qligi va kompyuter o'yinlariga haddan tashqari ishtiyoq tufayli internet orqali virtual muloqot qilishni afzal ko'radilar, ularda tajovuzkorlik paydo bo'ladi, ular asabiylashadi, kam o'qiydilar, shuning uchun ular ahmoq va yomon xulqli bo'lib qoladilar. Kompyuterda juda ko'p vaqt o'tkazganligi sababli ular jismonan rivojlanmaydilar[6].

Davlatimiz taraqqiyoti navqiron avlodga bog'liq bo'lib, ularga g'amxo'rlik qilish bizning zimmamizdadir.

Tadqiqot metodologiyasi. Internet mavjud bo'lgan ko'plab ta'lim muassasalarida Wi-Fi modamlari ulangan. Talabalar va maktab o'quvchilari Internetdan erkin foydalanishlari mumkin.

Yosh avlodni salbiy ta'sirlardan himoya qilish uchun Internet filtrlari o'rnatilgan. Bu internetning salbiy ta'siriga qarshi kurashning bir usuli, ammo bu yetarli emas. O'smirlar maktabdan tashqarida ham internetdan foydalanishlari mumkin. Asosiy tashrif buyuruvchilar o'smirlar bo'lgan internet-kafelar faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu muassasalarda foydalanuvchilarni hech kim nazorat qilmaydi va shunga ko'ra, ular o'zlarini uchun salbiy bo'lgan saytlarga erkin kirishlari mumkin. Ammo biz internetni umuman taqiqlay olmaymiz, chunki agar shunday qilsak, bu muassasalar shunchaki daromadsiz qoladi va yopiladi. Davlat idoralari va muassasalari bevosita global tarmoqqa

ulangan. Pasport stollari, tibbiyot muassasalari, moliya va soliq idoralari va boshqalar shular jumlasidandir[7]. Kelgusida internet ommaviy axborot vositalari, muzeylar, teatrlar, kinoteatrlar, ko'rgazmalar o'rnini egallaydi. Ha, ehtimol, ushbu muassasalarga tashrif buyurish imkoniga ega bo'lgan mehmonlar tashrif buyurishmaydi, chunki ekranlar va monitorlar san'atning barcha zavqlarini yetkaza olmaydi. Albatta, odamlar har doim jonli muloqotga muhtoj bo'ladi, lekin muhimi shundaki, odamlar jonli muloqotda boshdan kechiradigan his-tuyg'ularning virtual olamda yetishmasligini allaqachon his qila boshladilar. Global tarmoq va virtual dunyo xizmat ko'rsatish sohasini tobora ko'proq qamrab oladi. U tobora chuqurlashib hayotimizga kirib bormoqda. Biz odam bo'lib qolamizmi yoki hissiyotsiz robotlarga aylanamizmi, o'zimizga bog'liq. Mutaxassislar internetning bolalarimizga salbiy ta'siriga qarshi kurashishning eng yaxshi vositalarini ishlab chiqmaguncha biz imkon qadar bolalarini ijtimoiy tarmoqlarni salbiy omillaridan himoya qilishimiz zarur, chunki bolalar bizning kelajagimizdir.

Tahlil va natijalar. Yuqorida aytib o'tganimizdek, davlatlar tomonidan internet tarmoqlarida cheklovlarini qo'llanilishi internetdan foydalanishni nazorat qilishning ko'plab usullaridan biridir. Global tarmoq foydalanuvchilarini nazorat qilishning ikkinchi usuli bu ota-onalar, o'qituvchilar va o'smirlar bilan suhbatdir. Albatta, maktab va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan o'smirlar va yoshlarning ko'p vaqtini yo ta'lim muassasalarida, yo uydagi o'tkazishini yaxshi bilamiz. Pedagoglar va ota-onalar hamkorlikda ishlashlari kerak. Biz global tarmoqning salbiy ta'siri va xavf-xatarlari haqida ogohlantirishimiz kerak. Ammo qat'iy taqiq dushmanlik bilan kutib olinadi va yosh avlod va kattalar o'rtasidagi munosabatlarni keskinlashtiradi. Kichik yoshdagi bolalar bilan bu muammo biroz yengilroq hal qilinadi kiruvchi saytlarga tashrif buyurishni cheklaydigan maxsus dasturlarni o'rnatish kifoya, chunki ularning psixikasi rivojlanishning dastlabki bosqichida va ular sodda va cheklangan, ularni global tarmoqning salbiy ta'siridan himoya qilish osongor. O'smirlar bilan esa bu muammoni hal qilish ancha murakkab. Biz o'zaro kelishuvga erishmagunimizcha, ular bilan har qanday nazorat vositalari foydasiz va ular buni dushmanlik bilan kutib olinadi. Miyani haddan tashqari yuklanishdan tinchlantirish va o'rnatilgan vaqtni adabiyot o'qishga sarflash uchun turli xil keraksiz reklamalarni bloklaydigan yoki hatto bir muncha vaqt uxlashdan oldin gadjetlardan foydalanishni cheklovchi ilovalarni o'rnatishni alohida e'tiborga olish zarur[2].

O'smirlarning ko'p odatlari bizning psixikamizni bezovta qilishi mumkin, ammo biz o'zimizni vazmin tutishimiz kerak. Doimiy tanbeh va janjal bolalar o'z muammolarini yashirincha hal qilishlariga va ko'pincha ularning qarorlari noto'g'ri bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bizning sa'y-harakatlarimiz teskari ta'sir ko'rsatishi mumkin, bolalar aldashni, yolg'on gapirishni yoki odamovi bo'lishni boshlaydilar. Bu esa bizga kerak bo'lmagan natija. Biz hammamiz bolalar va o'smirlar edik va biz nimani yoqtirardik, kattalarni yoqtirmasdik, tinglagan musiqamiz, biz yoqtirgan taomlar, moda va hatto biz yoqtirgan filmlar ham kattalar tomonidan ma'qullanmagan. Biz yoshlarga o'z iqtidoriga qarab sevimli mashg'ulot, kasb tanlashda o'z maslahatlarimiz bilan yordam berishimiz kerak.

Har qanday holatda ham biz bolalarga ortiqcha hech narsa yuklamasligimiz kerak, ularning qiziqishlari o'rganishimiz va ishonchiga kirishishimiz kerak. Bolalar ko'proq ma'lumot olishlari kerak[5]. Biz o'zimiz tengdoshlarimiz bilan telefonda emas, balki shaxsan muloqot qilishimiz kerak.

Xulosa va takliflar. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, bolalarini tarbiyalash va ularni nazorat qilish uchun ko'proq vaqt ajratish, ular bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazishlarini biling, biz ularni tez-tez teatrga, muzeylarga, ko'ngilochar markazlarga olib borishimiz kerak. Ko'proq sport musobaqalarini tashkil qiling. Bolaligingiz, bo'sh vaqtigingizni internetsiz qanday o'tkazganingiz haqida gapiring. Biz o'zimiz yosh avlodga o'rnatishimiz kerak. Turli to'garaklar, kurslar tashkil etish, ularning bo'sh vaqtlarini sog'lom o'tkazishini ta'minlashimiz zarur.

ADABIYOTLAR

1. Гилстер П. Новый навигатор Internet: Пер с англ. -Киев: Диалектика, 1996. - 495 с.

2. Колесников О.Э. Интернет для делового человека. - М.: МЦФ. Издат. фирма "Яуза", 2007.
3. Игер Б. Работа в Internet / Под ред. А. Тихонова; Пер. с англ. - М.: БИНОМ, 1996. - 313 с.
4. Андреев, А.А. Введение в дистанционное обучение: учеб.-метод. пособие / А.А. Андреев. М., 1997.
5. Бондаренко, Е. Социальные сети как инструмент развития: виды и возможности. URL : <http://www.trainings.ru/library/articles/?id=10067>.
6. Бровко, А.В. Образование с использованием Интернет / А.В. Бровко, Дж. Кириаку. <http://old.sgu.ru/faculties/physical/departments/it-physics/international>.
6. Кастельс, М. Галактика Интернет: Размышления об Интернете, бизнесе и обществе / М. Кастельс [Электронный ресурс]. 2004. Режим доступа: <http://www.twirpx.com/file/419306/>.



UDK: 161.9(584.1)

Farruh AHMEDOV,
Renessans ta'lim universiteti o'qituvchisi
E-mail: farruhnuriy85@gmail.com

O'zMU huzuridagi PKQTMOT markazi direktori, DSc O'.Tilovov taqrizi asosida

THE ISSUE OF PROTECTING THE SPIRITUALITY OF YOUNG PEOPLE FROM IDEOLOGICAL ATTACKS IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Annotation

Today, globalization is seen as a process of socio-historical significance, which has become a hotly debated issue in the world. What exactly is globalization, what is the meaning of the fact that at the end of the XX beginning of the XXI century a new global order in world development, the essence of the civilizational stage, the expansion and complication of relations between states and people, the emergence of completely new situation in the world information space, capital, commodities and labor markets, with the growing process of man-made impact on the environment, the spread of popular culture, the growing threat of information-ideological and religious-extremist attacks, in short, the process of globalization, which covers all spheres of public life-economy, politics, ideology, culture and even personal life connecting. This is not in vain, of course. This process is determined by factors such as the information revaluation, the internationalization of capital, increased competition in the world market, the scarcity of natural resources and the intensification of the struggle for their possession, the proliferation of weapons of mass destruction, the risk of a global catastrophe. The interdependence of these factors, the interconnectedness of which reflects the contradictory and complex nature of the process of globalization. This article discusses some aspects of this process.

Key words: Globalization, the process of globalization, geopolitical, global communication, popular culture, information and ideological threats, religious extremist attacks, ideology, culture, global order, civilizational stage.

ПРОБЛЕМА ЗАЩИТЫ ДУХОВНОСТИ МОЛОДЕЖИ ОТ ИДЕОЛОГИЧЕСКИХ НАПАДОК В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация

Сегодня глобализация рассматривается как процесс социально-исторического значения, который стал горячо обсуждаемым вопросом в мире. Что такое глобализация, в чем смысл процесса глобализации? Это связано с тем, что в конце 20- начале 21 века возник новый глобальный порядок в мировом развитии, сущность и усложнение отношений между государствами и людьми, возникновение совершенно новой ситуации в мировом информационном пространстве, капитале, товарах и на рынках труда, с растущим процессом антропогенного воздействия на окружающую среду, распространением массовой культуры, растущей угрозой информационно-идеологических и религиозно-экстремистских нападков, иными словами, процессом глобализации, который охватывает все сферы общественной жизни-экономику, политику, идеологию, культуру и даже личную жизнь подключения. Это не зря, конечно. Этот процесс определяется такими факторами, как информационная революция, интернационализация капитала, обострение конкуренции на мировом рынке, нехватка природных ресурсов и усиление борьбы за их обладание, распространение оружия массового уничтожения, риск глобальной катастрофы. Взаимозависимость этих факторов, взаимосвязанность которых отражает противоречивый и сложный характер процесса глобализации. В этой статье рассматриваются некоторые аспекты этого процесса.

Ключевые слова: Глобализация, процесс глобализации, геополитика, глобальные коммуникации, массовая культура, информационные и идеологические угрозы, религиозные экстремистские атаки, идеология, культура, глобальный порядок, цивилизационный этап.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI MAFKURAVIY XURUJLARDAN HIMOYA QILISH MASALASI

Annotatsiya

Hozirda globallashuv butun dunyo mamlakatlarida jiddiy baxs-munozaraga aylangan, ijtimoiy-tarixiy ahamiyat kasb etgan jarayon sifatida qaralmoqda. Aslida globallashuv nima, globallashuv jarayonining ma'no-mohiyati nimadan iborat? Buning boisi shundaki, XX asrning oxiri – XXI asrning boshida jahon taraqqiyotida yangi umumsayyoraviy tartib, tamadduniy bosqich mazmun-mohiyati, davlatlar va kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozorida tamoman yangicha vaziyatning vujudga kelishi, atrof-muhitga texnogen ta'sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalari keng tarqalishi, informatsion-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishi, xullas, jamiyat hayotining barcha sohalari – iqtisodiyot, siyosat, mafkura, madaniyat, hatto shaxsiy turmush tarzini qamrab olgan globallashuv jarayoni bilan bog'lanmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Chunki mazkur jarayon global kommunikatsiya tarmog'ining vujudga kelishiga imkon yaratgan informatsion inqilob, kapitalning internatsionallashuvi, jahon bozorida raqobatning kuchayishi, tabiiy zaxiralarni taqchilligi va ularga egalik qilish uchun kurashning jiddiylashuvi, ommaviy qirgin qurollarining tarqalishi, umumsayyoraviy falokat xavfi kabi omillar bilan belgilanadi. Ana shu omillarning o'zaro bog'likligi, bir-biri bilan tutashib ketishida globallashuv jarayonining ziddiyatli hamda murakkab mohiyati namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada mazkur jarayonning ayrim jihatlari xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Globallashuv, globallashuv jarayoni, geosiyosiy, global kommunikatsiya, ommaviy madaniyat, informatsion-mafkuraviy tahdidlar, diniy-ekstremistik xurujlar, mafkura, madaniyat, umumsayyoraviy tartib, tamadduniy bosqich.

Kirish. Bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan insoniyat hozirga qadar boshdan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz.

Keyingi vaqtda ilmiy adabiyotda va ommaviy axborot vositalarida "globallashuv", "global dunyo", "iqtisodiy-moliyaviy globallashuv", "aksiglobal harakatlar", "madaniy globallashuv" kabi iboralar ko'p qo'llanadigan bo'lib qoldi. Ayniqsa, dunyo

iqtidosiyotida ro'y berayotgan salbiy jarayonlar haqida so'z ochilib qolsa, shubhasiz, gap globallashuv jarayoniga borib taqaladi.

Glaballashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni ob'ektiv tan olish kerakki – Xozirdahar qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaq va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushinish, anglash qiyin emas. Ma'lumki, bugungi kunda farzandlarimizning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash zarur vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgi murakkab va tahlilali zamonda milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo'lgan turli xil xurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g'arazli intilishlar tobora kuchayib borayotgani barchamizni yanada hushyor va ogoh bo'lishga da'vat etishi tabiiydir.

Ma'naviy va mafkuraviy taxdidlar davrida yoshlar uchun zarur bo'lgan milliy o'zligini anglash, huzur-halovat, osoyishtalik, ahillik, g'amho'rlik, izzat-hurmat, qadr-qimmat, samimiy mehr-oqibat kabi oliyjanob insoniy tuyg'ular va xislatlar sag'lom muhitda boshlanadi. Bunday ma'naviy va mafkuraviy taxdidlarni oldini olish esa sog'lom oila, oilaning dono va oqilona munosabatlarida kamol topadi. Shu sababli "yoshlar o'rtasida sog'lom turmish tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularni giyohvandlik, ahloqsizlik, chetdan kirib kelayotgan har xil zararli ta'sirlardan, "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi tahdid va xatarlardan asrash masalalari bir zum ham e'tiborimizdan chetda qolmasligi darkor". Zero, borkamol avlod vakillarini haqiqiy inson qilib yetishtirish, yoshlar turmish tarzida axloqiy fazilatlarini kamol toptirish, aql-idrokni yaxshi

Qulq, yaxshi bilim, yaxshi amal bilan boyitish lozim. Bu esa jamiyatimiz ravnaqida muhim ahamiyat kasb etayotgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ta'lim – tarbiya ishining uyg'unligi va samaradorligiga bog'liqdir. Mamlakatimiz huquqiy davlat, demokratik davlat va fuqorolik jamiyatini barpo etishda vovga etayotgan yosh avlod katta rol o'ynashini nazarda tutadigan bo'lsak, kelajagimiz poydevori, Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, bugungi va ertangi kunimizni hal qiluvchi kuchi va qudrati yoshlar komillikka yo'naltirib tarbiyalashda sog'lom ijtimoiy muhitni yaratish, ta'lim-tarbiya tizimini tupdan isloh qilish, milliy qadriyatlarni tiklash – ularning mazmun mohiyatini, hayotiy zaruratini yoshlar ongu shukuhiga, kundalik hayot ko'nikmalariga aylantirish muhim jarayondir. Ayniqsa, yoshlar olgan bilim va egallagan kasbini ma'naviy etuklik hamda amaliy hayotda namoyon etishga ko'maklashish va keng imkoniyatlar yaratish eng dolzarb vazifadir. Shu bois, ijtimoiy muhit va ta'lim - tarbiya tizimini vujudga keltirishning muhim jihatlari ekanligini alohida ta'kidlash va mohiyatini chuqur anglab yetishi nihoyatda zarur vazifa hisoblanadi. Hozirgi murakkab va tahlilali zamonda yoshlarimizni Yurtboshimiz ta'бири bilan aytganda, mavjud bo'lgan har qanday xatarlarga, zararli ta'sirlar va oqimlarga, XXI-asrning salbiy illatlariga nisbatan "ogoh, sezgir va hushyor bo'lib yashashini va jamiyatimiz hayotila munosib o'rin egallashini ta'minlash" ham sog'lom turmish tarzi va sog'lom ijtimoiy muhit yaratishni taqozo qiladi. "Shuning uchun, - deydi Yurtboshimiz, - oldimizda turgan muhim vazifa milliy g'oyamiz mazmun-mohiyatini teran anglagan holda olib borilayotgan ma'naviy – marifiy, ta'lim – tarbiya ishlarini yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodni har tamonlama mustaqil fikrlaydinan, yetuk dunyoqarash ruhida tarbiyalash, yangicha tafakkur qilishini boyitish, uni yangi ma'no va mazmun bilan to'ldirish dolzarb vazifa ekanligini anglab yetish tarafdorimiz".

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ma'naviy va mafkuraviy taxdidlar davrida "yoshlarimizning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz lozim", - deydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Buning uchun yoshlarimizni axloqan pok, ma'nan yetuk, ruhan xushyor va jonkuyar qilib tarbiyalash beparvolik va

loqaydlik, qarshi kurashish nihoyatda yuksak ma'suliyat talab qiladi.

Ta'lim – tarbiya, ma'rifat va targ'ibot ishlarimizda fikrga qarshi – fikr, jaholatga qarshi – ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etayotganligini chuqur anglash har bir yosh avlod uchun ham qarz, ham farzdir. Bu vazifa butun jamoatchilikni, notijorat tashkilotlar, ta'lim – tarbiya, ma'naviy – axloqiy tarbiya sohasiga daxldor ustoz – murabbiy, faxriylar va mahalla maslahatchilarining doimo diqqat markazida bo'lishi davr va hayot talabi bo'lmoqda. Bu borada har birimiz, ayniqsa, ustoz – murabbiy, katta avlod vakillari chuqur anglab yetishlari lozim.

Chunki Raxim Usmonov ta'бири bilan aytganda, "ba'zi tarbiyachilarimiz yangilikni ko'ra va anglay bilmasligi tarbiya ishida juda katta zarar keltiradi. Chunki ular bu yuksaklikni necha yuzlab yoshlarga ham "yuqtirishi" mumkin".

Tadqiqot metodologiyasi. Modomiki shunday ekan, globallashuv sharoitida – xalqaro terorizm, diniy ekstremizm va fundamintalizm kabi o'ta zararli illatlar va ma'naviy va mafkuraviy taxdidlarga berilmaydigan barkamol avlodni tarbiyalash, ijtimoiy muhitning tamoyil va omillarini yanada mustahkamlash lozimligini ilmiy asoslashni talab qilmoqda. Shuningdek, salbiy illatlarga kurashchanlik ruhini yaratish, beparvolik, loqaydlik va murosasizlikka qarshi kurashish lozimligini taqozo etish bilan birga axloqiy burch va ma'suliyatni ichki e'tiqodga aylantirish sog'lom muhitning ma'naviy – axloqiy asoslarini mustahkamlash imkoniyatini yaratadi. Ma'naviy va mafkuraviy taxdidlar davrida yoshlarda sog'lom turmish tarziga xos milliy va umuminsoniy qadriyatlar sadoqat va axloqiy munosabat madaniyati, ya'ni o'zimiz intilgan umumbashariy maqsadlarni ro'yobga chiqarish, ularning bizdan ko'ra kuchli, irodali, bilimli, yetuk va mukammallik pog'onasiga intilish tuyg'usini kamol toptirish uchun Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, bor kuch imkoniyatlarimizni safarbar etmog'imiz lozim. Chunki noyob insoniy fazilatlariga, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan xalq va uning o'g'il-qizlari hech qachon qaram ko'ra olmaydi, o'zining ezgu maqsadlariga, baxtli hayotiga monand axloqiy idealarga albatta yetishadi. Bunday ezgu va insonparvarlik, hamjihatlik, qadr-qimmat kabi fazilatlariga intilib, izlanib yashash yoshlardagi ezgu, oqil, sof ijodkor kuchlarni, ularda mavjud bo'lgan iste'dod, iqtidor, qobiliyat va ma'naviy-axloqiy jasoratni ro'yobga chiqarishdan iboratdir[5].

Ma'naviy va mafkuraviy taxdidlar davrida yosh avlodimiz ma'naviy olamining daxlsizligini saqlash uchun biz yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor bermog'imiz lozim. Ma'naviy va mafkuraviy taxdidlarga qarshi doimo yoshlarni sezgir, ogoh va hushyor bo'lishga da'vat etishimiz lozim. Eng avvalo, dunyo tobora globallashib borayotgan, barcha sohalarda integratsiya jarayonlari avj olayotgan hozirgi davrda yoshlar ongida kuchli tafakkuriy o'zgarishlar sodir etish o'ta dolzarb bo'lib qolmoqda[6]. Zero yoshlarni o'z milliy o'zligini anglashga, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashimiz lozim. Yoshlarimiz milliy o'zligini anglashi ajdodlarimizdan qoldirgan moddiy va ma'naviy merosni, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarni o'zlashtirish bilan birga, ularda milliy manfaatlarini, Vatan taqdiri va mamlakat taraqqiyot uchun ma'sullik tuyg'ularini shakllantirish lozim.

"Barchamizga shuni anglab yetishimiz kerakki, qaerdadaki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zboshimchalikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat yeng o'jiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha - qaerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql – idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi"[7]. Ma'lumki, har qanday kasallikni oldini olish uchun, avvalo, yoshlar organizimida unga qarshi immunitet hosil qilish lozim. "Farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota – bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni" kuchaytirishimiz lozim. Toki yoshlarimiz milliy o'zligini, milliy ongini, shu bilan birga, dunyoni chuqur angalaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan barkamol avlod bo'lib yetishadilar. Ana shundagina jozil aqidaparastlarning "da'vati" ham, axloq – odob tushunchalarini rad etadilar, yoshlar uchun mutloqa g'oyalari ham ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi.

Tahlil va natijalar. Yoshlarda milliy o'zlikini anglashni o'sishida, milliy ongni rivojlantirish - ma'naviy va mafkuraviy taxdidlar davrida bosh va asosiy masala hisoblanadi. Zero, milliy ong millat mavjud bo'lishi, uning tarixiy tarqiyoti va istiqboli bilan bog'liq bo'lgan omil hisoblanadi. "milliy ong deb, millaening tarixi, taqdiri va istiqboli bilan bog'liq bo'lgan manfaatlari va muammolarini ifodalovchi millit vakillari faoliyatiga maqsad – yo'nalishlar beradigan g'oyalar, fikrlar tizimi"[8] degan tushunchani yoshlar ongiga singdirish lozim.

Ana shu jarayonda har bir millatga hos bo'lgan xususiyatlar, urf – odat, an'analar va qadriyatlar shakllanadi. Ular millatni o'zgalardan farq qildirib boradi. Milliy ong rivojlanishining ma'naviy asoslarini milliy til, meros, tarixiy xotira, urf – odat, an'analar, qadriyatlar, milliy tarbiya – tarbiya kabilar kiradi. Mana shu omillardan yoshlar ma'naviy ozuqa oladi, ma'naviy va mafkuraviy taxdidlar davrida yoshlar undan qurol sifatida foydalanadi.

Mamlakatimizda demokratik jamiyat qurish vazifalari amalga oshirilayotgan Xozirda ertangi kunimizning yaratuvchisi va ijodkori bo'lgan yoshlarning milliy ongini rivojlantirish zarur hisoblanadi. Yoshlarni milliy merosimizning mukammal o'rganishlari, millatimizning vujudga kelishi, rivojlanish tarixini, urf – adatlarimizning, an'analarimizning va qadriyatlarimizning mazmun mahiyatini teran anglab yetsalar, ma'naviy xurujlarga qarshi bemalol kurasha oladilar.

Xulosa va takliflar. Yoshlarni ma'naviy va mafkuraviy dahdidlarga qarshi rurashishda ularning ongiga milliy tarbiyani singdirish lozim. Milliy tarbiya u yoki bu millat, elatni tashkil

qiluvchi etnik birlikning, o'z millat ma'naviyati, merosi, urf-odatlarini, an'analarini va qadriyatlarini o'z millatdoshlari tomonidan o'zlashtirishga, milliy manfaatlarni himoya qilishi, millat oldida ma'sulligini anglash tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan amaliy faoliyat hisoblanadi. Shunday ekan yosh avlodni ma'naviy tajovuzlardan himoya qilishda, xalqimizdagi uchrab turadigan va azaldan uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelayotgan noma'qul odatlarni anglash ularni bartaraf etish yoki ular keltiradigan noxush holatlarning oldini olish bugunning zarurati hisoblanadi, chunki ular millat va jamiyatni ichdan kemiruvchi illatlardir.

"Farzandlarimizning qalbi va ongiga Vatanga muxabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga xurmat tuyg'usini singdirish, ularni barcha balo – qazolardan, bizga begona bo'lgan ta'sirlardan ogoh etish va ximoyalash yoshlarimizni shu ruhda tarbiyalashga alohida e'tibor berib kelayotganimiz jamiyatimizning bugungi va ertangi kuni uchun naqadar muhim ekanini xammamiz yaxshi anglaymiz"[9]. Yoshlarni o'z fikriga ega, turli ma'naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashda ma'naviy – ma'rifiy targ'ibot ishlarimizning ta'siryanligini ta'minlaydigan zamonaviy infarmacion va komputer texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyatimizning ayniqsa mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul – uslublarini ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va qo'llanmalarni tayorlash Xozirdamuhim vazifamizga aylanib borayotganini anglab yetishimiz zarur.

ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyev "Konstitutsiyasi va qonun ustuvorligi –huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir".O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 27–yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" 2019-yil 7-dekabr.
2. Sh.M.Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz " 2016 yil dekabr'.
3. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch – T.: "Ma'naviyat" 2008-yil 38-bet.
4. Shodmonov B.I.. Historical srages of youth policy in Uzbekistan and irs legal frameworks. Turkiya EMI congress 2020 june
5. Toshbekova M.X.. Problem of solving Ideological Threats in the context Globalization. Turkiya EMI congress 2020 june
6. Yakubovich,A.H. Turg'unovich,R.F. Ravshanovich,R.F Amir Temur and Turan States. Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research 2019 (5(7))
7. Sh.M.Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild –T.: O'zbekiston, 2018. 29-30-betlar
8. Отамуродов С, Отамуродов С O'zbekistonda ma'naviy – ruhiy tiklanish T.: "Yangi asr avlodi" 2003-йил 242 бет.
9. Sh.M.Mirziyoyev " Bilimli avlod-buyuk kelajakning, tadbirkor xalq farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolotidir"O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 2018 yil 8 dekabr



UDK:372.3/4(075.8)

Elena AXMEDOVA,

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: elenaaleksandrovna@mail.ru

Andijon davlat tibbiyot instituti professori, p.f.d A.Ismanova taqrizi asosida

METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN THE TEACHING OF THE SUBJECT " PEDIATRICS " IN FUTURE DOCTORS

Annotation

In the context of the digital transformation of modern medicine, among all SOCs, the comprehensive reforms carried out in the field of its implementation in medicine, the work carried out, the achievements and results of which are recognized by the international community. How to develop professional competence of future doctors on new social pedagogical prophylaxis today? This article covers the use of the 4KKKK model in modern Pediatrics.

Key words: 4KKKK, modern medicine, education, clinical cases, integrative approach, digitization, treatments, accurate diagnosis, patient, efficacy, Pediatrics, prevention, digital medicine.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА "ПЕДИАТРИЯ" У БУДУЩИХ ВРАЧЕЙ

Аннотация

В условиях цифровой трансформации современной медицины международное сообщество признает проводимые широкомасштабные реформы, проделанную работу, достигнутые успехи и результаты в области ее реализации, как в медицине, так и во всех сферах. Как сегодня развивать профессиональную компетентность будущих врачей по новой социально-педагогической профилактике? В этой статье рассматривается применение модели 4KKKK в современной педиатрии.

Ключевые слова: Ключевые слова: 4KKKK, современная медицина, образование, клинические случаи, интегративный подход, оцифровка, лечение, точный диагноз, пациент, эффективность, Педиатрия, профилактика, цифровая медицина.

BO'LAJAK SHIFOKORLARDA "PEDIATRIYA" FANINI O'QITISHDA KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Аннотация

Zamonaviy tibbiyotning raqamli transformatsiyasi sharoitida barcha soxalar qatorida tibbiyotda ham uni amalga oshirish borasida olib borilayotgan keng qamrovli islohatlar, amalga oshirilgan ishlar, erishilgan yutuqlar va natijalar xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etib kelinmoqda. Bugungi kunda bo'lajak shifokorlarning yangi ijtimoiy pedagogik profilaktikaga oid kasbiy kompetensiyasini qanday rivojlantirish mumkin? Ushbu maqolada zamonaviy pediatriyada 4KKKK modelining qo'llanilishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: 4KKKK, zamonaviy tibbiyot, ta'lim, klinik holatlar, integrative yondashuv, raqamlashtirish, davolash usullari, aniqlik tashxis, bemor, samaradorlik, pediatriya, profilaktika, raqamli tibbiyot.

Kirish. Mamlakatimizda so'nggi yillarda integrativ yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning kreativ salohiyatini oshirish, kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, o'quv reja, dastur va adabiyotlarni yaratish tizimini xamda o'qitish metodikasini yanada takomillashtirishning xuquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi, ta'lim tizimini moddiy texnik bazasi rivojlantirildi[7].

Integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishdagi asosiy qadamlar:

1. Integrativ yondashuv. Bu metodda turli fanlar, malaka va ko'nikmalar bir-biri bilan bog'lanadi, birgalikda qo'llaniladi. Masalan, pediatriyada bioximiya, farmakologiya, fiziologiya, gistologiya va anatomiya fanlari integratsiya qilinadi.

2. Rivojlantiruvchi yondashuv. Bu yondashuv mutaxassislarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Unda talabalarning ijodiy va klinik fikrlash qobiliyati, muammolarni echish strategiyalari rivojlantiriladi. bu shifokorning faqat yakka bir fan yoki ko'nikmada emas, balki turli sohalaridagi bilim va ko'nikmalarni uyg'unlashtirib, ularni amaliyotda samarali qo'llay olish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu yondashuv shifokorni kompleks yondashuv bilan masalalarni hal qilishga tayyorlaydi.

3. Kasbiy kompetensiyani takomillashtirish texnologiyasi: Bu sohada o'quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalari va metodikalar qo'llaniladi. Masalan, virtual laboratoriyalar, simulyasiyalar, onlayn kurslar va interaktiv o'quv materiallar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tibbiy ta'limning asosiy maqsadi tizimiga zamonaviy innovasion texnologiyalarni keng jopiy etish opqali sog'liqni saqlash tizimi uchun jaxon andozalapidagi ilmiy-amaliy, klinik standaptlap negizida yuqori malakali mutaxassislar tayyoplash.

Fanlapapo integpasiya esa bapcha tabiiy va klinik fanlap opasida uzviy bog'liqlikni ta'minlab, talabalapda tibbiy-biologik fanlapga bo'lgan e'tibopni kuchaytipadi. Talabalap bu fanlapdan olgan bilimlapini muayyan amaliy klinik muammolapni xal etishda qo'llab, ulapning axamiyatini chuquppoq tushunadilap. Fanlapapo integpasiya bo'lajak pediatrlarda bemop opganizmiga tegishli bo'lgan bapcha ma'lumotlapni yagona mantiqiy tizim doipasida biplashtipib, bemop to'g'psidagi to'liq va ob'ektiv ma'lumotga ega bo'lishini, davolashning patogenetik nuqtai-nazapdan asoslangan chopalapini belgilashni ta'minlaydi[7]. Talabalapga inson opganizmi aloxida anatomiya, gistologiya, sitologiya, fiziologiya, biokimedan ibopat bo'lgan bilim va ma'lumotlap yig'indisi emas, balki yagona, bip butun yaxlit tizim ekanligini singdipish nixoyatda muxim[7].

Tadqiqot metodologiyasi. Integrativ va rivojlantiruvchi yondashuvlar asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorgarligini mukammallashtirish texnologiyalari bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ular yordamida mutaxassislar o'z kasbiy faoliyatida samarali, ijodiy va innovasion echimlar topish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

4KKKK metodi. 4KKKK metodi – bu:

- 1.Kuzatamiz
- 2.Ko'rib chiqamiz
- 3.Ko'nikma shakllantiramiz

4. Qo'llaymiz

Bu metod klinik holatlar asosida integrativ yondashuvni qo'llab, talabalarda nazariy bilim, amaliyot ko'nikmasi va mulohazali fikrlash qobiliyatini integrativ, uyg'un rivojlantiradi. Ushbu metod pediatriya ta'limida muvaffaqiyatli integrativ yondashuvni ta'minlaydi. Nega aynan 4KKKK metodini klinik holatlar asosida integrativ yondashuv orqali pediatriya fanini o'qitishga qo'llashganimizni tushuntiramiz:

Talabani faolligini oshiradi. Uni passiv kuzatuvchidan aktiv ishtirok etuvchiga aylantiradi. Misol: Bola nafas etishmovchiligi bilan olib kelindi. Ko'rsatilgan videomaterial orqali talabalar o'zlari alomatlarini kuzatadi (kuzatamiz). Bu jarayonda ular faol ishtirokchiga aylanadi, faqat passiv tinglovchi emas.

Klinik fikrlash va tahlil qilishni o'rgatadi. Misol: Nafas yo'llari infeksiyasi bo'lgan bola haqida klinik ma'lumotlar beriladi. Talabalar simptomlar, anamnez, tekshiruv natijalariga asosan xolatni tahlil qiladi (ko'rib chiqamiz). Bu orqali ular klinik fikrlashga o'rganadi. Talabalar klinik xolatni taxlil qilish jarayonida bolaning tekshiruv analizlarini kuzatayotganlarida bioximiya, gistologiya, anatomiya, biofizika kabi fanlardan olgan bilimlarini integratsiya qilib, bir biriga bog'laydilar.

Amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi. Misol: Talabalar simulyatsiya orqali bolaga nebulizer qo'llash, kislorod terapiyasini boshlash, yoki tezkor holatlarda SRR (CPR) o'tkazishni mashq qilishadi (ko'nikma shakllantiramiz). Bu amaliyot jarayonida fanlararo bilimlarni uyg'unlashtirish ta'minlanadi: fiziologiya, farmakologiya, gistologiya.

Olingan bilim va ko'nikmani yangi holatga qo'llash imkonini beradi. Misol: Talabalarga o'xshash, ammo klinik jihatdan biron farq qiluvchi keys beriladi (masalan: bronxiolit o'rni bronxial astma). Ular o'z bilimlarini yangi sharoitda tatbiq qiladi (qo'llaymiz). Bu jarayon interdisciplinar yondashuvni rivojlantiradi.

Refleksiya va o'z-o'zini baholash imkonini yaratadi. Misol: Talabalardan xolatni qanday hal qilgani, nimani to'g'ri va noto'g'ri qilgani haqida fikr so'raladi, o'qituvchi fikri bilan solishtiriladi (qayta baholaymiz). Bu ularga tajriba va mulohazani integratsiyalash imkonini beradi. Demak, 4KKKK metodi: Aktiv o'quvni rag'batlantiradi. Talaba real videoda bemorni kuzatib, muammoga echim izlaydi. Aynan shunga ko'ra 4KKKK metodi pediatriya kabi amaliyotga yo'naltirilgan, ko'p fanlarni qamrab oluvchi fanni klinik holatlar asosida o'rgatishda eng maqbul va samarali hisoblanadi.

Klinik holatlar asosida 4KKKK metodini Pediatriya faniga bosqichma-bosqich tatbiq etdik:

Mavzu: Bronxiolit (6 oylik bolada)

Metodika: 4KKKK modeli + klinik holatlar + integrativ yondashuv

1.4KKKK metodining 1-bosqichi: KUZATAMIZ.

1. Darsning maqsadi talabalarda klinik holatni vizual kuzatish orqali sub'ektiv va ob'ektiv simptomlarni aniqlash, muammoli vaziyatni bevosita ko'rish orqali tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish.

2. Faoliyat turi: Video-taqdimot yoki jonli simulyatsiya.

Talabalarga 6 oylik chaqaloq bilan videokeys (yoki simulyatsiya) ko'rsatiladi.

Bemorning tez-tez nafas olishi, gurgurlash, interkostal retraksiya, lablarda sianoz, zaiflashgan ovqatlanish, yig'lashi. Talabalarga quyidagi tartibdagi video ko'rsatiladi. Video-keys: 6 oylik chaqaloq, nafas olishda qiyinchilik, bora-bora kuchaygan hurujlar, nafas olishda "gurgurlash", qo'l va oyoqlarda sianoz, ovqatlanishga qiziqishning pasayishi. Bola nafasni tez-tez, yurak urishi ko'paygan holda oladi. Talabalar ushbu klinik xolatni kuzatadilar (Kuzatish). Talabalardan quyidagilarni aniqlash so'raladi:

Sub'ektiv simptomlar: Bolada nafas olishda "gurgurlash", rinoreya (burun oqishi), qiyin nafas olish.

Ob'ektiv simptomlar: Taxipnoe (nafas olish soni minutiga 60+), subkostal va interkostal retraksiya. Oral sianoz (lablarda ko'ksimtir tus), yurak urishida taxikardiya.

Bola xulq-atvori: Bola ovqatni rad etadi, ko'zida zaiflik, noqulaylik.

O'qituvchi talabalarga kuzatish natijalaridan so'ng, yo'naltiruvchi savol berali:

1. Bolada qanday nafas olish buzilishlari kuzatildi?

2. Kuzatilayotgan alomatlar qaysi nafas yo'li kasalliklariga xos?

3. Bu simptomlar qanday klinik tashxisga ishora beradi.

Talabalar bu savollarga javob topish uchun anatomiya, fiziologiya, patologiya fanlardan olgan bilimlarini integratsiya qiladilar:

Anatomiya: Bolalarda nafas yo'llarining tori va oson to'silishi.

Fiziologiya: Gazlar almashinuvi, sianoz ro'y berishi.

Patologiya: Virusli infeksiyaning bronxiolalarda shish va siqilishga olib kelishi.

Talabalar videokeys yoki simulyatsiya asosida bemorni kuzatadilar va ularda quyidagi kompetensiyalar rivojlanadi:

1. Klinik kuzatuv va tahlil qilish qobiliyati. Vizual va videokeys ma'lumotlari asosida bemordagi asosiy simptomlarni tanib olish (sianoz, taxipnoe, nafas olishda qiyinchilik va h.k.)

2. Klinik fikrlash. Muammoli vaziyatni mulohaza qilish orqali baholashni o'rganish.

3. Integrativ yondashuv. Simptomlarni anatomik, fiziologik va klinik nuqtai nazardan tushunish (nafas yo'llarining torligi, gazlar almashinuvi). Natijada talabalar nafaqat nazorat ro'yxati bo'yicha alomatlarini ko'radi, balki qisman o'zlari klinik xulosa chiqarishga harakat qiladi. Bu keyingi "Ko'rib chiqamiz" bosqichiga asos bo'ladi.

2-bosqich. KO'RIB CHIQUAMIZ. Bu metodning maqsadi talabalarda muammoni tahlil qilish, sabab va oqibatlarini tushunish, klinik qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish. Talabalar guruhga bo'linib, bemorning anamnezi, klinik belgilari va videoda ko'rilgan simptomlarni, simptomlar va diagnostik ma'lumotlarni tahlil qiladilar:

Kasallik tarixi: 3 kundan beri huruj

Simptomlar: Taxipnoe, rinoreya, sianoz

Diagnostik taxmin: Bronxiolit, ORVI, pnevmoniya

Bu metodning afzalligi yana shundaki, talabalar jarayon davomida xar bir bosqichni taxlil qilayotganlarida turli metodikalardan xam foydalanadilar. Masal: PBL (Muammoga asoslangan o'qitish) metodi asosida muammo tahlil qilinadi. Talabalar guruhlarda bemorning holatiga tahlil qiladi, kasallik tarixi, simptomlari, laborator va instrumental tekshiruv natijalar va diagnoz qo'yishga yo'naltirilgan mulohazalar bildiriladi. PBL (Problem-Based Learning) asosida tahlil qilish topshiriqlari beriladi. Talabalar klinik fikrlashni o'rganadi, sabab-oqibat bog'liqliklarini tahlil qiladilar. Klinik xolatlar asosida integrativ yondashuv orqali kasallikni taxlil qiladilar:

Fiziologiya: Gazlar almashinuvining buzilishi

Anatomiya: Bolalarda tori nafas yo'llari

Farmakologiya: Bronxodilatator va oksigenoterapiya.

Rivojlanadigan integrativ kompetensiyalar:

1. Klinik fikrlash qobiliyati (Simptomlardan xulosa chiqarish, sabab-oqibat bog'liqligini tushunish)

2. Differensial tashxis qo'yish qobiliyati (Bronxiolitni ORVI, pnevmoniyadan ajratish (shu bilan farmakologiya, mikrobiologiya, diagnostika fani bilan bog'liq bilimlar uyg'unlashadi))

3. Jamoaviy tahlil va muloqot qobiliyati (Guruhda fikr almashish, bemor holatini birgalikda baholash, boshqa sohalar mutaxassislari fikrini tinglash)

3-bosqich. Ko'nikma shakllantiramiz. Bu bosqichning maqsadi talabalarda klinik fikrlash, klinik qaror qabul qilish, simulyatsiya yoki amaliy mashg'ulot orqali shifokorlik ko'nikmalarini shakllantirish va amaliyot ko'nikmalarini rivojlantirish. Talabalar amaliyotda OSCE formatidagi simulyatsion stansiyalar tashkil etiladi (masalan: bolada nafas yo'llarini tozalash ko'nikmasi). Ishchi guruhda klinik algoritmlar tuziladi (masalan: bronxiolitda davolash protokoli). Kasallik patogenezini, farmakoterapiya va parvarishni bog'lovchi integrativ grafiklar chiziladi. Talabalar quyidagi amaliy ko'nikmalarni trenajyorlarda yoki simulyatorlarda bajaradilar: Pulsosimetriya o'lchash, bolaga nebulizer (ingalyatsiya) terapiyasini qo'llash, kislorod terapiyasi va tez tibbiy yordam algoritmi (ABCDE). Bu ko'nikmalarni rivojlantirishdan maqsad talabalar real amaliyotga

yaqin sharoitda o'zlashtirgan nazariy bilimni qo'llab, ko'nikma hosil qiladi. Natijada shakllangan integrativ ko'nikma orqali OSCE formatida simulyasion stansiya va talabalar o'zaro rollar (shaxsiy shifokor, hamshira, ota-ona) bo'lib, vaziyatni hal qiladi. Simulyasiya yoki amaliy mashg'ulot orqali shifokorlik ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Ushbu bosqichda yuqoridagi integrativ kompetensiyalar rivojlanishiga erishiladi.

4-bosqich. QO'LLAYMIZ. Bu metoddan maqsad talabalar olgan bilim va ko'nikmalarini yangi holatga tatbiq qilishni o'rgatish. Bu jarayonda talabalarga shu mavzuga yaqin, yangicha, o'xshash, ammo biroz farq qiluvchi klinik ssenariy beriladi. Talabalar muammoni echish uchun oldingi bilimlarini tatbiq qiladi. Keysover sessiyalar o'tkaziladi (bir guruh boshqa guruhni baholaydi). Talabalar shu mavzuni o'zida yangi, o'xshash holatga eski bilim va ko'nikmani integrasiya qilib, amaliyotga qo'llashni o'rganadilar. Talabalarda ushbu integrativ kompetensiyalar rivojlanishiga erishiladi.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar. Tajriba-sinov ishini tashkil etishda birinchi navbatda talabalar darsga psixologik jihatidan tayyorligi, qiziqishlari, ilmiy-ijodiy dunyoqarashlariga, ya'ni kreativ qobiliyatiga baho berilgandan so'ng darsda ko'rgazmali organayzerlar, ko'rgazmali demonstratsion maketlar va tarqatma materiallardan foydalanib, klaster va savol-javob metod va usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotimiz davomida Toshkent tibbiyot akademiyasida fanlapapo integratsiya masalalarini o'rganildi. Unga ko'ra, Tibbiy-biologik va klinik fanlapapo integratsiyaga bo'lgan munosabat bip-bipidan fapq qiladi. Bunga sabab 3 kupsigacha bo'lgan fanlap semestp davomida xaftalik jadval bo'yicha o'tilsa, 4 kupsdan boshlab klinik fanlap uzluksiz sikl shaklida o'tiladi. Bu ulap o'ptasidagi vektikal integratsiyani amalga oshirishga imkon bepmaydi. Aynan shu sababdan fanlapapo integratsiya xech bip fan dastupiga, ishchi o'quv pejasiga pasmiy pavishda kipitilmagan, xech bip mey'epiy xujjatda qayd etilmagan. Mazkup seminarlapning o'quv-metodik ta'minoti talabalap tomonidan mustaqil soatlap xisobiga tayyorlanadi va o'qituvchilap tomonidan boshqapiladi. Seminarlap intepfaol o'yinlap, muammoli klinik vaziyatlap, o'quv videofilmlapini tayeplash ko'pinishida tashkil etiladi. Ammo, tupdosh mutaxassislik vakillapining seminarlapda ishtipoki ulapning asosiy kalendap-tematik pejasiga kipitilmagan[7].

Xulosa va takliflar. Xulosa, klinik holatlar asosida integrativ yondashuvni qo'llash Pediatryia fanini o'qitishda talabalar integrativ kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda samarali uslub hisoblanadi. Bu yondashuv orqali talabalar faqat nazariy bilimlarni egallab qolmay, balki ularni real klinik vaziyatlarda qo'llashni o'rganadilar.

ADABIYOTLAR

1. Mukhammadjonovich, R. M., Abdulxamidovna, I. A., Abdumukhtorovich, G. S., Abdusaitovich, T. O., & Sobirovich, K. S. (2023). Use of new innovative methods in teaching the science of information technologies and modeling of technological processes. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 1458-1463.
2. Khoury M.J. et al. Precision Medicine in the Era of Big Data: Opportunities and Challenges. // *Public Health Genomics*. – 2016.
3. Ginsburg G.S., Phillips K.A. Precision Medicine: From Science to Value. // *Health Affairs*. – 2018.
4. Ismanova, A. (2022). Upbringing of highly educated young people is the main basis for preventing religious extremism and terrorism. *Экономика и социум*, (10-2 (101)), 59-62.
5. Tukhtaeva, N., Ismanova, A., Allamuratova, Z., & Khayitboev, N. (2024, November). Using mind mapping in teaching computer science. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3244, No. 1). AIP Publishing. Arofat, I. (2016). Social-political need of fighting with Enlightenment against ideology of religious extremism and terrorism. *European research*, (6 (17)), 96-98.
6. Ismanova, A. (2016). The Mechanisms of Influence on the Minds of Young People and Socio-Educational Prevention. *Eastern European Scientific Journal*, (3).



Anorgul ASHIROVA,

Ma'mun universiteti professori

E-mail: anorgul76@gmail.com

Davronbek YUSUPOV,

Urganch innovatsiyalar universiteti dotsenti

PhD F.Eshnazarava taqrizi asosida

NEYROTARMOQ TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BAHOLASH JARAYONINI AVTOMATLASHTIRISH

Аннотация

Mazkur maqolada sun'iy intellektning muhim yo'nalishlaridan biri – neyrotarmoq texnologiyasi ta'lim sohasida qanday qo'llanilishi tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor o'quvchilar va talabalarining bilimini baholash jarayonini avtomatlashtirishga qaratiladi. Tadqiqotda sun'iy neyron tarmoqlar vositasida test natijalarini tahlil qilish, shaxsiylashtirilgan baholash mexanizmlarini yaratish va ta'limda xolis baholash tizimini shakllantirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, tadqiqotda ta'lim sifatini oshirish, inson omilini minimallashtirish va baholashda shaffoflikni ta'minlash maqsadida neyrotarmoqlarning samaradorligi amaliyot misolida asoslangan.

Kalit so'zlar: Neyron tarmoqlar, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan baholash, ta'lim texnologiyalari, shaxsiylashtirilgan o'qitish.

AUTOMATION OF THE ASSESSMENT PROCESS BASED ON NEURAL NETWORK TECHNOLOGIES

Annotation

This paper analyzes one of the important areas of artificial intelligence – neural network technologies in the field of education. The main focus is on the automation of the process of assessing the knowledge of students. The study examines the possibilities of analyzing test results, creating mechanisms for personalized assessment and forming an impartial assessment system in education using artificial neural networks. In order to improve the quality of education, minimize the human factor and ensure transparency of assessment, the effectiveness of neural networks is based on a practical example.

Key words: Neural networks, artificial intelligence, automated assessment, educational technologies, personalized learning.

АВТОМАТИЗАЦИЯ ПРОЦЕССА ОЦЕНКИ НА ОСНОВЕ НЕЙРОСЕТЕВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

В данной статье анализируется одно из важных направлений искусственного интеллекта – нейросетевые технологии в сфере образования. Основное внимание уделяется автоматизации процесса оценки знаний учащихся и студентов. В исследовании рассматриваются возможности анализа результатов тестирования, создания механизмов персонализированного оценивания и формирования беспристрастной системы оценивания в образовании с помощью искусственных нейронных сетей. В целях повышения качества образования, минимизации человеческого фактора и обеспечения прозрачности оценки эффективность нейронных сетей основана на практическом примере.

Ключевые слова: Нейронные сети, искусственный интеллект, автоматизированное оценивание, образовательные технологии, персонализированное обучение.

Kirish. Oliy ta'limda talabalar bilimini baholash o'quv jarayonining muhim jihati hisoblanadi. An'anaga ko'ra, baholash usullari imtihonlar, viktorinalar va topshiriqlarni o'z ichiga oladi, ammo texnologiyadagi yutuqlar innovatsion yondashuvlarga yo'l ochdi[1]. Talabalar bilimini baholash va tahlil qilish uchun sun'iy intellektning bir qismi bo'lgan neyron tarmoqlardan foydalanish ana shunday yangicha yondashuvlardan biridir. An'anaviy baholash tizimi talabalarni o'qish va o'qitish jarayonida baholash uchun qo'llaniladigan klassik usuldir. Bu tizimda talaba o'qituvchilar tomonidan berilgan vazifalarni bajaradi va ularga baholar qo'yiladi. Ushbu baholar o'qituvchilar tomonidan subyektiv ravishda belgilanishi mumkin. Kredit modul tizimi esa ko'p o'qiydigan tizimlarda foydalaniladi, masalan, oliy ta'lim muassasalarida. Bu tizimda, har bir kurs (modul) belgilangan kreditlar bilan ta'minlanadi. Talabalar o'qish va muvaffaqiyatli yopish uchun belgilangan kreditlarni to'plashlari talab qilinadi. Shuningdek, o'qish davomiyligi davomida talabalar o'z baholarini oshirish orqali kreditlarni to'plashlari mumkin. An'anaviy baholash tizimi hozirgi kunda talabani to'liq imkoniyati va intellektni ochib bermaydi shuning uchun kredit modulda o'qitish, o'z ustida ishlash va kreativ yondashishni talab qiladi. Neyron to'rlari atamasi yoxud unga bo'lgan qiziqish 1943-yilda Mak Kollak va Pitsning ilk ishlarida bo'lgan. Ular inson miyasining ishlash faoliyatiga asoslangan o'xshashlik asosida ishlaydigan kompyuterning sxemasini taklif qilishgan va izlanishlari natijasida unga neyron deb nom berishgan. Neyron to'r ham xuddi inson miyasi kabidir. Unga kiruvchi ma'lumot kiritiladi va modelga

ya'ni formulalarga asoslanib unda chiquvchi ma'lumot ham mavjud bo'ladi.

Adabiyotlr tahlili. Ta'lim sohasidagi intellektuallashtirish yo'nalishlaridan bittasi, dastavval ta'lim jarayonida bilim olishni jadallashtirish, ta'lim sifatini faollashtirish, o'quv dasturlarining tarkibini yanada takomillashtirish, tuzatishlar kiritish maqsadida o'quv jarayonidagi talabalarining o'zlashtirish, bilim olish darajalarinin nazorat qilish, tahlil qilish jarayonlarini avtomatlashtirishdan iboratdir. Intellektual tizimlar masofaviy ta'lim jarayonini tashkil qilishda ham faol ishlatilishi mumkin. Amaliyotda neyrotarmoq tizimlari juda keng qo'llanilishi mumkin, chunonchi insonning miya faoliyatini modellashtirish uchun, yani axborotni qabul qilish, uni qayta ishlash va samarali yechim qabul qilish.

Intellektual tizimlarni yaratishda shunday imkoniyatlar mavjudki, ayrim jihati insonni, mutaxassisni o'ziga jalb qiluvchi g'oyasi mavjud, yani birorta alohida pedagogga xos bo'lgan bilim olish jarayonining darajasini, talabani olgan bilimning salohatini sifatini baholashning no'ananiy uslublarini, metodikalarini kasbdosh pedagoglar ommasiga nusxalab, ko'paytirib tarqatishda foydalanish mumkin. Bundan kelib chiqadigan maqsad, asosan novator pedagoglarning innovatsion ishlanmalarini talabani mustaqil ta'lim olish, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlarida nazariy mashg'ulotlarni o'zlashtirishi, xuddi shunday guruhlarini, alohida olingan individlarni (iqtidorli, iste'dodli talabalarni) o'qitish strategiyasiga tuzatishlar kiritish natijasida o'qitish jarayonini yanada faollashtirishdan iborat. Olib borilayotgan tadqiqot yangiligi,

ilmiyligi o' qitish sifatini baholash, tahlil qilish, yangi yechimlarni taklif qilishni amalga oshirishni shakllantirish va o' qitish uchun asos bo'ladigan neyrotarmoq tizimining ilmiy-metodik apparatini yaratishdan iboratdir. Shu boisdan ham mazkur ishda Ta'lim nazariyasi faninig o'quv materiallarini mantiqli graf sxemasini ishlab chiqish metodikasini yaratdik. Bu o'quv elementi va tayanch tushunchalarga asoslangan metodika neyrotarmoq tizimning asosiy elementlarini tashkil qiladi. Chunki o'qitishning talabning bilimini nazorat qilishining neyrotarmoq tizimi mantiqiy tugallangan tushunchalar modular asosida ishlab chiqilgan mantiqiy qonun qoidalar majmuasi asosida faoliyat ko'rsatadi.

Bilimni nazorat qilishni avtomatlashtirish masalasini yechish uchun mo'ljallangan sun'iy neyron to'rlarini o'rganishda, tahlil qilishda shunga e'tibor berish kerakki, yani insonlarni o'qitish tajribasini umumlashtirish biologik neyron to'rlari egallagan imkoniyatlar, na faqat ta'lim tizimida qo'llaniladigan suniy neyron to'rlarini o'quv jarayoniga qo'llashning juda ko'p analoglarini keltirish mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi axborot kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanish bosqichida, juda muhim hisoblanadigan o' qitishning psixologik-pedagogik jabhalarining yangi qirralarini o'rganish, izlanishlar olib borish zarur.

Bilimni baholashning klassik tizimi doimo jamiyatning turli qatlamlarining juda katta e'tiborida bo'lgan, bu shaxsning juda ko'p sifatlarini baholashning o'lchov birligi bo'lib hisoblangan mansab pog'onalariga ko' tarilishga ta'sir qilgan, taqdirlash o'lchovi, mezoni bo'lgan, ma'lumoti haqidagi rasmiy xujjat, diplomga o'qish davomida olgan baholari ko'rsatilgan ilova berilgan.

Tahlil va natijalar. Ilmiy nuqtai nazardan hozirgi paytda talabning bilimini baholash tizimi uzoq yillar davomida shakllangan va rivojlangan ko'p mezonli tizim hisoblanadi. Shu boisdan ham mazkur baholash tizimi talabning bilimini baholashda uning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi, ishbilarmonligi va ma'naviy sifatleri, hamda uning komil inson bo'lib rivojlanish darajalari hihobga olinadi. Mazkur baholash tizimini tahlil qilish natijasida, unda talabning olgan bilim darajasini baholash uchun bir qancha amaliy mezonlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Talaba tomonidan bajariladigan har bir topshiriq, yechiladigan bir masalani soda topshiriqlar to'plamiga ajratilishi mumkin. Natijada ularni baholash sodda topshiriqlarni baholash uchun boshqa birorta ko'p mezonli baholash usullaridan foydalanish imkoniyati tug'iladi. Talabning yakuniy bahosi har bir soda topshiriqlarning vazn koeffitsientlarini hisobga olgan holda baholangan barcha baholarning umumiy yig'indisi ko'rinishida tavsiflanadi.

Masalan, bakalavr tayyorlashda asosiy umumta'lim dasturlarini o'zlashtirish natijalariga bog'liq, yani bitkazuvchi talaba umummadaniy kompetensiyalari bo'yicha quyidagilarni egallashi zarur. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasiga binoan harakat qilmog'i, o'zining fuqarolik va kasbiy faoliyat burchlarini so'zsiz amalga oshirishi, kasbiy faoliyati doirasida yechim qabul qilishga mas'ul ekanligini anglab yetishi, mas'uliyatni seza bilishi, nostandart holatlarda yechim qabul qilish imkoniyatlarini namoyon qilishi va boshqa axborot texnologiyalari sohasidagi bakalavrlarga umumkasbiy madaniyati faoliyati bo'yicha quyidagi talablar qo'yiladi: texnikaviy ekspluatatsiya, tashkiliy-texnikaviy va loyiha-konstruktorlik faoliyatidagi salohiyatlar.

Kasbiy faoliyat salohiyatining shakllanishiga quyidagilar ta'sir ko'rsatadi: muammoning tabiiy ilmiy mohiyatini aniqlash, algoritmikillardan, dasturlashning instrumental vositalaridan, tizimlaridan samarali foydalanish, zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini yuqqlarini amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatlari va boshqalar. Bakalavrning texnikaviy-ekspluatatsiya (xizmat ko'rsatish) faoliyatidagi salohiyati har xil turdagi, tipdagi texnikaviy tizimlarni va agregatlarni, qurilmalarni, dasturiy paketlar, tizimlarni va boshqalarni ekspluatatsiya qila bilish va undan unumli foydalana olishida shakllanadi.

Yuqorida keltirilgan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, demak amaliyotda qo'llaniladigan oddiy baholash tizimi haqiqatan bakalavrni ko'p qirrali salohiyatini, sifatiy jihatlarni murakkab tizim ko'rinishida aks ettiradi.

Umuman olganda, talabning bilim darajasini baholash bo'yicha barcha ishlar har bir yo'nalish va turli holatlar bo'yicha testlash natijasida olingan axborotlarni tahlil qilishdan boshlanadi, bularning hammasi talabning faoliyati bilan bog'liq yoki unga qandaydir ta'sir ko'rsatadi. Bir qator yo'nalishlardagi bakalavrlarni tayyorlashda yana shunday axborotlarni hisobga olishadi, yani yashash joyidagi xatti-xarakatlarini xarakterlovchi, oldingi ishlagan joyidagi tavsifnomasi, oilaviy munosabatlarini, maxsus testlash natijalarini. Keyinchalik Talabani biror muddatdagi faoliyatini maxsus testlab boorish natijasida axborotlar oqimi ortib boradi. Axborotlar turli manbalardan turlicha axborot kanallarida kela boshlaydi, axborotlar qarama-qarshiligi, bir-birini istisno qilish, cheklanganligi, ishonchiligi, haqiqiylik darajasi bilan xarakterlanadi.

Talabning bilim darajasini aniqlash maqsadida barcha axborotlarni jamlashtirish va tahlil qilish juda murakkab masala hisoblanadi, chunki testlanayotgan talaba bo'yicha barcha jamlangan axborotlarni ifodalovchi model aniq emas. Tajriba-statistik korrelyatsion tahlil, ehtimollik metodlari bunday masalani to'liq yechimni olishga qodir emas. Mavjud bo'lgan barcha tajribalar (mavjud axborotlar) asosida testlanayotgan talabning holatini ifodalovchi model neyron paketlaridan foydalanish hisobiga amalga oshirilishi mumkin. Neyron dasturlarining amaliy paketlaridan foydalanish asosan neyron to'ringing arxitekturasini va o'qitish prosedurasini tanlash muhim hisoblanadi. Neyron to'rlarini o'qitish prosedurasini amalga oshirishda o'qitishni tanlashni shakllantirishni ajratib ko'rsatishimiz mumkin, chunki taklif qilinayotgan neyron paketlarida sozlash va vazn koeffitsientlariga tuzatishlar kiritish prosedurasini o'qitish bosqichida rasmiylashtirilgan bo'ladi.

Neyron to'rlari deganda inson miyasida kechadigan assotsiativ jarayonlarni oddiy biologik jarayonlarni modellashtiruvchi hisoblash strukturalari tushuniladi. Neyron to'rlari taqsimlangan parallel ko'rinishida bo'lib, ijobiy va salbiy ta'sirlarni tahlil qilish yo'li bilan adaptive o'qitishga moslashgan. Bunday to'rlardagi elementar o'zgartirishlarni amalga oshiruvchini, biologik o'xshashlik nuqtai nazaridan, sun'iy neyron yoki odatdagi neyron deb atashadi.

Neyron to'ringing strukturasini tanlash bilimni nazorat qilish masalasining murakkabligi va xususiyatlariga mos ravishda olib boriladi. Agar yechiladigan masala mavjud bo'lsa neyron to'rlarining birirtasining konfiguratsiyasiga mos kelmasa, u holda bunday murakkab masala uchun neyron to'ringing yangi konfiguratsiyasi sintez qilinadi. Bunday holatlarda quyidagi asosiy qoidalarga holatlarga e'tiborni qaratish zarur:

To'rdagi neyronlarning sonini ko'payishi, ular orasidagi bog'lanishlarning zichligi va qatlamlar sonining ortishi bilanto'ring imkoniyatlari ortadi;

To'ring imkoniyatlarini ortishi bilan bog'liq holda teskari bog'lanishlarni kiritish to'ring dinamik turg'unligi masalasini keltirib chiqaradi;

To'ring faoliyatini ifodalovchi algoritmnining murakkabligi, bir qancha tipdagi sinapslarning kiritilishi neyron to'ringing quvvatini, imkoniyatlarini oshishiga sababchi bo'ladi.

Dastlabki intellektual tizimlar asosan klassifikatsiya masalalarini yechish uchun binar shkala, yani ikkita holatli qarama-qarshi tarqalgan neyron to'rlari asosida qurilgan. Qarama-qarshi tarqalgan neyron to'rlari Koxonen va Grossberg deb ataluvchi neyronlar qatlamidan tashkil topgan bo'lib, o'zining xarakteristikalari bo'yicha bitta yashirin qatlamli neyronlar to'ringing imkoniyatlaridan juda yuqori bo'ladi. Demak, obrazlarni anglash va klasterizatsiya masalalarini yechishni o'qitish vaqti teskari tarqaladigan neyron to'rida shunga o'xshash masalalarni yechishni o'qitish vaqtiga qaraganda ko'pi bilan yuz marta kamdir.

Bilimni nazorat qilish uchun yaratilgan intellektual tizimning amaliy qiymatini yuksakligi bilan bir qatorda, insonni shunday o'xshash masalalarni yechishdagi barcha o'zaro bog'lanishlarni hisobga olgan holda sun'iy tizimlarni o'qitish protseduralarini amalga oshiruvchi barcha jabhalarini ilmiy o'rganish, izlanishlar olib boorish juda muhim metodik masala hisoblanadi. Pedagogika ilmida o'qitish o'z o'rnini topgan va juda keng ishlatiladigan termindir. O'qitish deganda ta'lim olishning asosiy yo'lini, pedagoglar, masterlar(ustalar), ustozlar va

boshqalar rahbarligida bilimlarni, bajara olishni va ko'nikmalarni egallash jarayoni tushuniladi. Ta'lim olish mobaynida o'quvchi ijtimoiy tajribani o' zlashtiradi, obyektiv borliqqa bo'lgan qimmatli-emotsiyali munosabatlari shakllanadi. Xuddi shunday "O'qitish termini" sun'iy intellekt tizimlarini qurish amaliyoti va nazariyasida ham o'z o'rnini topgan va undan tizimlarni o'qitish nazariyasining ilmiy-metodologik apparatini juda ham ko'p boyitishi mumkin.

Sun'iy neyron to'rlarining rivojlanishida yangi rezonans(jonlanish) 1984 yildagi metod. Metod juda samarali hisoblandi va xalq xo'jaligining turli sohalarida neyron to'rlarini qo'llash bo'yicha ommaviy ilmiy izlanishlarni olib borishga asos bo'ldi [2].

Neyron to'rlarini amaliy ilmiy-texnikaviy ilovalarga taqbiq qilish xususiyatlarini o'rganish tajribasi suniy neyron to'rlarini o'qitish prosedurasini amalga oshirish va pedagogika ilmining asoslariga mos ravishda talabalarni o'qitish prosedurasining o'xshashligini namoyon etmoqda. Ko'p jihatdan pedagogning ustamonligi, misollarning asosiy bog'lanishlarini aniqlashga yoki yechimga olib boradigan asosiy yondashuvlarga yo'naltirilgan o'qitishning qanday qurilganligida, misollarni tanlash va o'zlashtirish darajasini nazorat qilishga bog'liq.

Xulosa. Pedagogika ilmida, fanida yig'ilgan tajribalarni umumlashtirish asosida sun'iy neyron to'rlarini o'qitish prosedurasini amalga oshirishda psixologik – pedagogik aspektlarini mantiqli detallashtirilgan tarzda qayta ishlash zarur.

ADABIYOTLAR

1. Барский А.Е. Нейронные сети: распознавание, управление, принятие решений. -М.:Финансы и статистика, 2004.-с.176.
2. Юсупов Д.Ф., Аширова А.И., Юсупов Ф. Фанни таркибини мантикли структуралаштириш асосида интеллектли интеграллашган ўқитиш тизимини илмий-услубий асосларини яратиш. Архитектура ва қурилиш соҳаси учун кадрлар тайёрлаш муаммолари Республика илмий-амалий анжумани тўплами. Нукус-2012, Б.123-125.
3. El-Sabagh H. A., "Adaptive e-learning environment based on learning styles and its impact on development students' engagement," International Journal of Educational Technology in Higher Education, vol. 18, no. 1, 2021, doi: 10.1186/s41239-021-00289-4.
4. Фирнафасович Ю. Д., "Информатика фанини ўқитишни нейротармоқ технологияси асосида ташкил килиб талабаларни фаоллаштириш методикаси," pp. 2181–1717, 2021, doi:10.53885/edinres.2021.25.64.100.
5. Nurjamal J., Qizi J., and M. Al-Xorazmiy, "Sun'iy intellektning amaliy sohalarida qo'llanishi".
6. Aggarwal C. C., "Neural networks and deep learning : a textbook / by Charu C.
7. Aggarwal., "Neural networks and deep learning : a textbook, 2018.



Gulruh BAQOYEVA,
Alfraganus universiteti magistranti
E-mail: gulibakayeva7@gmail.com

dotsent, PhD A. Jo'rayev taqrizi asosida

THE HIERARCHY OF BEING IN THE ONTOLOGICAL VIEWS OF PLOTINUS

Annotation

The article examines the views of Plotinus, regarded as the founder of Neoplatonism in antiquity, on the structure of being. In particular, it explores the ontological concepts of “Oneness”, “Intellect”, and “Soul”, analyzing their unique interpretations. The interconnectedness of these categories is demonstrated. Many studies indicate that Plotinus, through his creative work, unveiled the emanation of these foundational principles. This article highlights these aspects within Plotinus ontological views, analyzing these hypostases one by one. The study further investigates the sequence of the hierarchy created by Plotinus.

Key words: Neoplatonism, Oneness, Intellect, Soul, unity and multiplicity, diversity, absolute being.

ИЕРАРХИЯ БЫТИЯ В ОНТОЛОГИЧЕСКИХ ВОЗЗРЕНИЯ ПЛОТИНА

Аннотация

В статье рассматриваются идеи философ Плотина, считающегося основоположником неоплатонизма в античности, об устройстве бытия. В частности, дается своеобразная трактовка таких категорий, как “Единое”, “Разум”, “Душа”, основанная на его онтологических воззрениях. Показана их взаимозависимость. Многие исследования показывают, что Плотин раскрыл в своем творчестве эманацию этих основ. В исследовательской работе, представленной в данной статье, эти ипостаси в онтологических воззрениях Плотина рассматриваются одна за другой. В результате анализа была изучена последовательность этой иерархии.

Ключевые слова: Неоплатонизм, Единое, Разум, Душа, единый и многие, единство и многообразие, абсолютное бытие.

PLOTINNING ONTOLOGIK QARASHLARIDA BORLIQNING IERARXIYASI

Annotatsiya

Maqolada antik davrdagi neoplatonizm asoschisi sanalgan faylasuf Plotinning borliqning tuzilishi haqidagi tasavvurlari o'rganilgan. Jumladan, ontologik qarashlaridan o'rin olgan “yagonalik”, “aql”, “ruh” kabi kategoriyalarining o'ziga xos talqini berilgan. Ularning o'zaro bog'liqligi ko'rsatilgan. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Plotin o'zining ijodida ushbu asoslarning emanatsiyasini ochib bergan. Ushbu maqolada ko'rsatilgan tadqiqot ishida esa Plotinning ontologik qarashlaridagi ushbu ipostaslar birma bir ko'rib chiqilgan. Tahlil natijasida uning ushbu tuzgan eyerarxiyasining ketma-ketligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Neoplatonizm, yagonalik, aql, ruh, yagona va ko'p, birlik va xilma-xillik, absolut borliq.

Kirish. Hozirgi information zamonda falsafaning barcha masalalariga qiziqishning imkoni tug'ildi. Shu o'rinda ushbu ilmiy maqola falsafaning eng asosiy va chuqur masalalaridan biriga bag'ishlangan bo'lib, borliqning tuzilishi va uning tashqi ko'rinishlari haqidagi o'ylash jarayonini o'rganadi. Plotin — neoplatonizm maktabining asoschisi, o'zining murakkab va jiddiy ontologik qarashlari bilan tanilgan falsafiy yondashuvlarni yaratgan. Uning borliq haqidagi fikrlari, borliqni yagona birligidan boshlanib, har xil darajadagi mavjudotlarga qadar kengayadi.

Maqolaning maqsadi Plotinning borliqni tasavvur qilish va uning mohiyatini tushunishga qaratilgan ontologik qarashlarini tahlil qilishdir. Plotin borliqni yagona manba — “Yagonalik” deb atagan oliy mavjudotdan boshlaydi. Bu “Yagonalik” barcha borliqning manbai, unda hech qanday farq, tafovut yoki ko'plik mavjud emas. Plotinning fikriga ko'ra, “Yagonalik”ning ichki tabiati ulkan yuksaklikda bo'lib, u o'zidan bir necha darajali borliqni chiqaradi, bu borliq esa o'z navbatida yana past darajalar va mavjudotlar yaratadi. Shunday qilib, borliq “Yagonalik”dan boshlab, ma'lum bir eyerarxiya (tartib) asosida tarqaladi.

Plotinning ontologik qarashlarida borliqlikning eyerarxiyasi juda muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, barcha mavjudotlar bir-biriga bog'liq bo'lib, ular orasida aniq bir qatlamlashuv mavjud. Bu qatlamlashuvda har bir daraja yuqori darajadagi borliqdan chiqadi va o'z navbatida pastki darajadagi borliqni yaratadi. Eyerarxiya tizimi Plotin tomonidan “emanatsiya” deb ataladigan jarayon orqali amalga oshiriladi. Emanatsiya — bu oliy borliqning pastki borliqlarga tabiat va mavjudlik berish jarayonidir.

Plotinning ontologik tizimida uchta asosiy daraja mavjud: oliy borliq (“Yagonalik”), ma'lum darajada intellektual

mavjudotlar (“Aql” yoki “Nus”) va ruhiy borliq (“Ruh” yoki “Qalb”). Birinchi daraja — “Yagonalik” — barcha borliqning asosidir, ikkinchi daraja — “Nus” — aql va tafakkurning ruhi, uchinchi daraja esa — “Ruh” (“Qalb”) bo'lib, u o'z ichida hayot va harakatni namoyon qiladi. Bu borliqlar orasidagi bog'liqlik, ularning bir-birini tartibga solishi va bir-biriga ta'sir ko'rsatishi bilan bezatilgan.

Shuningdek, Plotinning borliqni tushinishda eyerarxiya prinsiplari qanday amalga oshirganligi, uning boshqa falsafiy tizimlar bilan bog'lanishi, ayniqsa, Platon va Aristotel falsafalari bilan o'xshashliklari va farqlari tahlil qilinadi. Plotin borliqni tushinishda Platonning fikrlarini davom ettirgan bo'lsa-da, uning qarashlarida o'ziga xos yangiliklar va chuqurliklar ham mavjud. Shu tarzda, Plotinning ontologik tizimi nafaqat borliqning tabiati, balki inson ruhining borliq bilan aloqasi haqida ham chuqur ma'lumotlarni beradi.

Ushbu maqola, Plotinning ontologik qarashlarini yoritib, uning borliq haqidagi tafakkurini yanada kengroq tushunishga imkon yaratadi. Borliqning qatlamlashuvi va eyerarxiyasi Plotinning falsafasida, shuningdek, inson ruhining yuqori va past darajalaridagi mavjudlik bilan bog'liq masalalarga ham katta ahamiyat beradi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar sharhi. Neoplatonizm falsafasining yirik namoyandasi va asoschisi Plotin ijodi bilan juda ko'plab insonlar qiziqqan. Uning ijodi falsafiy, ijtimoiy, tarixiy adabiyotlarda, jumladan, falsafa tarixida ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan o'ziga xos uslubda, o'z zamonasiga mos ravishda atroflicha tahlil qilib berilgan. Uning davrdoshlari va shogirdlari sanalgan Porfiriy [3], Proklardan [4] tashqari boshqa zamonda ijod qilgan mutafakkirlar va tadqiqotchilar ham katta qiziqish bilan uning g'oyalarini tahlil etganlar. Bunga ko'plab

misollarni keltirishimiz va ularning durdona fikrlaridan bugungi kun talabiga to'liq javob bera oladigan yechimlarni ham topishimiz mumkin. Shuningdek, Plotinning ijodini har tomonlama yorituvchi K.Yaspers [6], R.M.Rilke [5], K.Long [7], D.S.Raximdjanova [8] va boshqa tadqiqotchilar ishlarini, risolalarini, maqolalarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, uning xulosalaridan ijtimoiy-falsafiy tafakkurni kengaytirishda, mustaqil fikrni shakllantirishda, falsafa tarixiga, ruhiy tahlilga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishda foydalanish mumkin.

Tahlil va natijalar. Neoplatonizm – yunon falsafasidagi oqim bo'lib, uning namoyandalari Plotin, Porfiriy, Proklar sanaladi. Neoplatonizm vakillari Plotinning moddiy dunyo g'oyalar dunyosining soyasi ekanligi to'g'risidagi fikrini yana ham diniy shaklda bayon etdilar. Uning asoschisi Plotin bo'lib, u neoplatonizm falsafasining asosiy g'oyalarini ishlab chiqdi. Neoplatonizm keyingi asrlarda xristianlik falsafasiga ham, o'rta asr falsafasiga ham katta ta'sir ko'rsatgan.

Neoplatonizmning asosiy mazmuni, Plotinning uchlik doktrinasi — “Yagonalik”, “Aql” yoki “Nus” va “Ruh” yoki “Qalb”ning dialektikasini ishlab chiqishga bog'liq edi. Ushbu uchlikdagi birinchi ontologik substansiya (ipostas) “Yagonalik”dan bilib bo'lmaydigan bo'lsa ham, “Aql” bilan bog'lanish uchun pifagorchilikdan olingan sonlar haqidagi ta'limot orqali to'ldirildi, bu sonlar “Yagonalik”ni birinchi sifatli bo'linishga olib keladigan tushuncha sifatida qaraldi. Ikkinchi ipostas — “Aql” bo'lib, Plotin tomonidan faqat ayrim ishoralar shaklida ifodalangan, lekin neoplatonchilar uni Aristotelning toza kosmik “Aql” (birinchi harakatlaniruvchi) haqidagi qarashlariga asoslanib rivojlantirdilar. Ushbu “Aql”ning o'zini anglash jarayoni, ya'ni u ham subyekt, ham obyekt sifatida qaraladi (bu “aqlning tafakkuri” deb ataladi) va o'z ichida o'zining “aqliy” qismini o'zida mujassam etadi. “Ruh” haqidagi g'oya esa Platonning “Timeus” asaridan va Aristotel hamda qadimgi pifagorchilikning ta'siri ostida kosmik sohalar haqidagi ta'limotga aylantirildi. Neoplatonizm davriga kelib bu ta'limot kengroq tushuntirilgan bo'lib, u “jahon ruhinig” butun koinotdagi harakatini tasvirlab berdi [2].

Shunday ekan, neoplatonizm — bu idealistik falsafiy tizim bo'lib, u mavjudlikning iyerarxik tuzilishini va uning bosqichlarini quyidagi tartibda shakllantiradi: “Yagonalik”, “Aql”, “Ruh”, “Koinot”, “Modda”. Koinotdagi ichki jismlar haqida ta'limotda neoplatonizm Aristotelning substansiya va sifatlar, eidos (narsalarning shakllari) va entelexiya (narsalarning rivojlanayotgan prinsiplar) haqidagi nazariyalaridan hamda potentsiya va energiya haqidagi tushunchalaridan foydalangan.

Plotin ta'limotining mazmuniy xususiyatini va g'oyaviy chegaralarini aniqlashning ijobiy usuli, Plotinning an'anaviy falsafasini identifikatsiya qilishda yordam beradigan fundamental falsafiy e'tiqodlar guruhini ajratishni o'z ichiga oladi. Ushbu tamoyillar, albatta, ishonchli, ammo mutlaq bo'lmagan mezonlar sifatida xizmat qiladi va ular yordamida qadimiy Plotin yoki post-qadimiy ta'limotlarni platonizmning keng ma'nosida aniqlash mumkin. Ijobiy usulda Plotin avvalo, xususiyatlari jihatidan bir-biridan farq qiladigan, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan, lekin bir vaqtda o'zaro bog'langan mavjudlik sohalarini borligini o'rgatadi: 1) empirika orqali kuzatiladigan, hissiyotlar bilan bilib bo'ladigan, doimiy ravishda o'zgarib turadigan moddiy dunyo; 2) aql bilan bilib bo'ladigan, sezgilar orqali tushunilmaydigan, abadiy va o'zgarmas ideal dunyo. Ideal va moddiy olamlarning ontologik dualizmini haqiqat sifatida tan olish, Plotinning har doim shu dualizmi tushuntirish yoki yengish yo'llarini qidirishga intilishini anglatadi. Plotinning monistik versiyalarida, moddaning mavjudligi yagona yaxshilikning o'zini cheklashining natijasi sifatida, yagona olamdan farqli bo'lgan ko'p narsalarning mavjudligi uchun zarur bo'lgan shart sifatida tushuntiriladi. Plotinning dualistik versiyalarida esa, modda abadiy va mustaqil, mavjud emaslik, tartibsizlik, o'zgaruvchanlik va yomonlikning zaruriy boshlang'ichi sifatida tushuniladi, bu esa qarama-qarshi yaxshilik boshlang'ichi tomonidan tartibga solinadi va go'zal koinotga aylantiriladi [1].

Plotinning yagona va ko'p, birlik va xilma-xillik o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirish uchun g'oyalar haqidagi ta'limotni qo'llaydi, chunki ideyalar moddiy olam uchun birinchi nusxalar hisoblanadi. Plotinning ontologiyasining muhim xususiyati uning teologiya bilan chambarchas bog'liq ekanidir: Plotinning Yagonalik boshlang'ichi odatda oliy xudoning o'ziga mos keladi yoki unga tenglashtiriladi, bu xudo barcha mavjudotlarning aqlli, faol va yaratuvchi sababi sifatida ko'riladi. Plotin ta'limotida inson ruhi uning oliy aqliy qismining abadiy ekanligi hisoblanadi; ko'pincha ruhnig turli tana va jismlarga ko'chishi va axloqiy erkin tanlovga asoslangan. Platonning ilgari mavjud bo'lgan an'anaviy ta'limotlarini va umuman qadimgi falsafani yangi, original falsafiy tizimda qayta ko'rib chiqish jarayonida Plotin borliqni tushuntirishning o'ziga xos qirrasini ko'rsatgan.

Plotinning fikriga ko'ra, olamda sodir bo'ladigan barcha o'zgarishlar, o'ta sezgir, o'ta g'ayritabiiy, aqldan tashqarida turuvchi, anglab bo'lmaz prinsip asosida ro'y beradi. Butun borliqning turli-tuman shakllari o'sha aqlga sig'maydigan prinsip bilan bog'liq. Xuddi shu prinsip — absolut borliqdir. Absolyut borliqning sirini esa, hech kim, hech qachon bila olmaydi. Chunki u bilib bo'lmaz borliq — Yagonalikdir. Uning izmidan tashqarida turgan hech narsa yo'q. Uning o'ziga o'xshash narsaning o'zi yo'q. Insonning yashashdan maqsadi o'sha qalbi, vujudi “Yagonalik” tomon siljib borishidir. Bunday olijanob maqsadga nafsi tiyish, jismoniy ishtiyoblarni chegaralash vositasi bilan erishiladi. O'sha “Yagonalik”ka bir necha pog'onalar (ierarxiya), zinapoyalar orqali chiqib boriladi.

Chunki, “Yagonalik” koinotning eng yuqori qavatida yuksalib turadi. Xuddi shuning uchun ham, “Yagonalik”ka yetishga intilish, insoniyatning maqsadi bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi Plotin.

Shunday qilib, neoplatonizm ta'limotiga ko'ra Yagonalik koinotdan ustun turuvchidir. Olamda, xatto insonning ongi va faoliyatida bo'ladigan barcha o'zgarishlar (u taraqqiyot yoki rivojlanish, inqiroz yoki tanazzul tomon bo'ladimi, bundan qat'i nazar) Yagonalikning xohish-irodasi bilan sodir bo'ladi. Butun olamga ham, odamning ongi va faoliyatiga ham yagonalik hukmronlik qiladi.

Qadimgi davrning oxirlarida neoplatonizm xristianlik, keyin esa musulmonlik va yahudiylik monoteizmi bilan murakkab o'zaro ta'sirga kirishgan. Neoplatonizm arab falsafasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan (al-Kindiy, al-Farobiy, Ibn Sino).

Neoplatonizmning boshqa platonchilik shakllaridan ajratib turuvchi asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Yagonalik, ya'ni umumiy boshlang'ichni tan olish: neoplatonizmda bu boshlang'ich, mavjudlik va bilimdan ustun bo'lgan, butunlay transsendent deb tan olinadi. Bu boshlang'ich yaxlitlik va yaxshilik bilan uyg'unlashtiriladi.

2. Yagonalik va Aqlning o'zaro farqini ajratish: neoplatonizmda Yagonalik va Aql o'rtasida qat'iy farq qo'yiladi, bu esa ushbu ikki prinsipning o'zaro bog'lanishini aniq belgilaydi.

3. Uchta muhim ilohiy ipostasining ajratilishi: neoplatonizmda uchta o'zaro bog'liq ilohiy ipostasiya — Yagonalik, Aql va Ruh. Bular o'zaro bog'langan va bir-birini izchil ravishda boshlovchi asosiy prinsiplar sifatida ko'riladi.

4. Ko'p darajali, sezgir bo'lmagan realni tashkil etish ta'limoti: neoplatonizmda sezgir bo'lmagan olamning ko'p bosqichlarda tashkil etilishi batafsil o'rganiladi. Bularning har biri Yagonalikdan boshlangan “emanatsiya” jarayoni orqali shakllanadi, ya'ni mavjudlik har bir bosqichda yuqoridan pastga qarab chiqi boshlaydi [6].

Xulosa va takliflar. Plotinning ontologik qarashlari, uning falsafasining markaziy nuqtalaridan biri bo'lib, borliqning tuzilishi va uning ierarxiyasini tushunishga katta hissa qo'shadi. Plotin, borliqni “Yagonalik”dan emanatsiya qilgan quyi darajalarga ajratib, har bir daraja o'rtasida chuqur bog'liqlik va o'zaro bog'lanishni ta'kidlagan. Ushbu tizimda, eng yuqori darajadagi “Yagonalik” butun borliqning manbai bo'lib, undan pastga tomon, ruh, aql va moddiy dunyo kabi ierarxik qatlamlar hosil bo'ladi.

Plotinning bu tasavvurlari faqatgina metafizik nuqta nazardan emas, balki axloqiy va diniy jihatlardan ham juda

muhimdir. Uning borliqning yuqori va pastki qatlamlarini tasvirlash usuli, insonni eng oliy maqsad — “Yagonalik”ka yaqinlashishga, uni anglashga chaqiradi. Shuningdek, Plotinning ierarxik borliq tizimi, inson ruhining o'zini anglash va ruhiy poklanish jarayonlarini izohlaydi.

Shu tariqa, Plotinning ontologik qarashlari faqatgina o'sha davr falsafasiga emas, balki zamonaviy ontologiya va metafizikaga ham ta'sir ko'rsatgan. Uning o'ylari, insonning borliqdagi o'rni tushunishga, uning ruhiy va ma'naviy jihatdan o'sishiga katta hissa qo'shmoqda. Bu falsafaning bugungi kundagi

dolzarbligi, uning har bir borliq qatlamining bir-biriga bo'lgan ta'sirini tushunishga, shuningdek, insonning hayotdagi maqsadini aniqlashga qaratilgan.

Plotinning borliqning ierarxiyasiga oid qarashlari, falsafaning chuqur va murakkab masalalarini o'rganishga, uning ta'limotlarini yanada kengroq tahlil qilishga undaydi. Unga bo'lgan qiziqish, faqat falsafiy bilimlarni boyitibgina qolmay, insonning ongini, ruhini va dunyoqarashini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Лосев А. Ф. История античной философии (в нескольких томах). — М.: Издательство “Мысль”, 1951-1971.
2. Лосев А. Ф. Плотин. — М.: Издательство “Мысль”, 1963.
3. Порфирий. Жизнь Плотина (или Жизнь и учение Плотина). Перевод и комментарии. — М.: Мысль, 1971.
4. Прокл. Комментарий на Плотина. — М.: Наука, 1983.
5. Рильке Р.М. Тетради подлинных переживаний. — М.: Художественная литература, 1997.
6. Ясперс К. Неоплатонизм. — М.: Прогресс, 1971.
7. Long K. Plotinus on the Soul and the One. — Cambridge: Cambridge University Press, 2007.
8. Raximdjanova D. Erkinlik masalasining yunon mumtoz falsafasi va neoplatonizmida yechimi. Monografiya. – Toshkent: Dimal, 2025. – 142 b.



UDK:371.3

Dostonbek BAXRIDDINOV,
Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

PhD M.Djakbarova taqrizi asosida

THE EFFECTIVENESS OF THE ACMEOLOGICAL APPROACH IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING OF STUDENTS

Annotation

This article analyzes the content and essence of the acmeological approach, its importance in the development of creative thinking of students of secondary schools. Students will also be treated with practical considerations of methodological methods and their effectiveness, which are used on the basis of an acmeological approach to the formation of creativity.

Key words: Acmeology, creative thinking, creativity, approach, methodology, reader, pedagogical process.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ АКМЕОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ

Аннотация

В данной статье анализируется сущность акмеологического подхода, его значение для развития творческого мышления учащихся общеобразовательных школ. Рассматриваются также методические приемы, применяемые на основе акмеологического подхода к формированию творчества у учащихся, и их эффективность в практическом плане.

Ключевые слова: Акмеология, творческое мышление, творчество, подход, методика, ученик, педагогический процесс.

O'QUVCHILARNING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA AKMEOLOGIK YONDASHUVNING SAMARADORLIGI

Annotatsiya

Mazkur maqolada akmeologik yondashuvning mazmun-mohiyati, uning umumta'lim maktab o'quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarda ijodkorlikni shakllantirishda akmeologik yondashuv asosida qo'llaniladigan metodik usullar va ularning samaradorligi amaliy jihatdan ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Akmeologiya, ijodiy tafakkur, ijodkorlik, yondashuv, metodika, o'quvchi, pedagogik jarayon.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlari, axborot oqimining keskin ortib borayotgani, zamonaviy texnologiyalarning ta'lim sohasiga jadal kirib kelishi o'quvchilar tafakkurini yangicha ruhdan shakllantirish, ularning ijodiy salohiyatini har tomonlama rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar, xususan, akmeologik yondashuvni qo'llash dolzarb masalaga aylanmoqda.

Akmeologik yondashuv – bu shaxsning eng yuqori rivojlanish darajasiga erishishiga xizmat qiluvchi ilmiy-nazariy va amaliy asosga ega bo'lgan metodologik tizim bo'lib, o'quvchilarning individual xususiyatlarini, ularning ichki salohiyati va intellektual imkoniyatlarini inobatga olgan holda rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur yondashuv orqali o'quvchilarning nafaqat bilim olishi, balki ijodiy tafakkurini mustahkamlash, mustaqil fikrlash, muammolarni yechishda noan'anaviy usullardan foydalanish kabi ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

Ijodiy tafakkur esa bugungi kunning eng muhim kompetensiyalaridan biri bo'lib, u o'quvchilarning zamonaviy hayotda o'z o'rnini topa olishi, tez o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha bilishi hamda yangicha fikrlash madaniyatini shakllantirishi uchun zarurdir. Aynan akmeologik yondashuv orqali bu maqsadga erishish imkoniyati yanada kengayadi. Bu yondashuv o'quvchining o'zini anglash darajasini oshiradi, ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun qulay sharoit yaratadi hamda uni faol, ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Shu sababli, o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda akmeologik yondashuvning o'rnini va samaradorligini chuqur o'rganish, uni amaliyotga tatbiq etish masalalari bugungi ta'lim tizimining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'tiborni tortmoqda. Mazkur tadqiqot aynan shu masalaga bag'ishlanadi va akmeologik yondashuvning o'quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirishdagi o'rnini ilmiy-nazariy va amaliy asosda yoritib berishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ijodiy tafakkur va akmeologik yondashuv masalalari bugungi kunda ta'lim sohasida dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ular o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish, shaxsiy salohiyatni ochib berish hamda ijodiy faoliyatni rag'batlantirishga qaratilgan.

Avvalo, akmeologik yondashuv tushunchasi va uning asoschilari haqida to'xtalish lozim. A.A. Derkach va V.G. Zazykin kabi olimlar akmeologiyani shaxsning eng yuqori rivojlanish bosqichini aniqlovchi fan sifatida talqin etgan. Derkachning tadqiqotlarida pedagogik jarayonda akmeologik yondashuvdan foydalanish orqali o'quvchilarning individual imkoniyatlarini ochib berish imkoniyati ko'rsatilgan.

B.M. Teplov va L.S. Vygotskiyning asarlari esa shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, tafakkur va tasavvurni o'stirish bo'yicha psixologik asoslarni ochib beradi. Ayniqsa, Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirishda o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorligiga asoslanadi.

Mahalliy pedagoglar orasida Q.X. Yo'ldoshev, M.M. Jo'rayev, Sh.S. Xolboyeva, N.M. Turg'unovlarning ishlarida umumta'lim maktablarida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy tafakkurni shakllantirish masalalari tahlil etilgan. Ushbu tadqiqotlar, ayniqsa, metodik yondashuvlar jihatidan muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot asosida shuni aytish mumkinki, akmeologik yondashuv o'quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirishda samarali vosita bo'lib, bu boradagi ilmiy qarashlar metodik asos yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Akmeologiya - bu insonning yuqori cho'qqiga (akme) erishish yo'llarini, imkoniyatlarini o'rganuvchi fan. Bu yondashuv shaxs rivojlanishining yuqori bosqichini aniqlash va unga erishishga ko'maklashishni maqsad qiladi. Ta'lim sohasida esa bu yondashuv o'quvchining ichki

salohiyatini ochish, ijtimoiy faolligini oshirish, ijodiy fikr yuritishga undash bilan ifodalanadi.

Ijodiy tafakkur - bu mavjud bilimlar, faktlar asosida yangicha, noodatiy yechimlarni topa olish qobiliyatidir. Bu qobiliyat bolalikdan boshlab rivojlanadi va tegishli pedagogik usullar bilan takomillashadi. Ijodiy tafakkur quyidagi bosqichlarda namoyon bo'ladi:

- tasavvur qilish (imaginatsiya);
- noan'anaviy fikrlash;
- muammoni yangi nuqtai nazardan ko'ra olish;
- innovatsion yondashuv.

Akmeologik yondashuvga asoslangan quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

1. Muammoli ta'lim - o'quvchining tafakkurini faollashtiradi.

2. Ijodiy topshiriqlar-yangi g'oyalarni ilgari surishga yo'naltirilgan mashqlar.

3. Refleksiya asosida o'rganish - o'quvchining o'z fikrlarini tahlil qilish va takomillashtirish imkonini beradi.

4. Kognitiv treninglar - mantiqiy va divergent fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

5. Layfxaklar va real hayotiy vaziyatlar orqali o'qitish - o'quvchilarning faolligini oshiradi.

Shuningdek, quyidagi innovatsion yondashuvlardan dars jarayonida foydalanish samarali bo'ladi:

1. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv.
 - talabning individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlari e'tiborga olinadi.
 - har bir o'quvchining kasbiy rivojlanishiga yo'naltirilgan shaxsiy ta'lim strategiyalari ishlab chiqiladi.
 - o'z-o'zini anglash, o'zini baholash, motivatsiya va maqsadga yo'naltirish kabi ko'nikmalar rivojlantiriladi.
2. Reflektiv yondashuv.
 - talaba o'z faoliyatini tahlil qiladi, o'z xatolarini aniqlaydi va ularni tuzatish yo'llarini ishlab chiqadi;

Bu metod tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va o'zini doimiy rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv - bu o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarini hayotiy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli yondashuv bo'lib, unda shaxsiy rivojlanish, kommunikativlik, tanqidiy va ijodiy tafakkur, muammoli vaziyatlarda samarali harakat qilish kabi kompetensiyalar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

- Ushbu yondashuvda talaba:
- bilimni faol izlaydi;
 - mustaqil xulosa chiqaradi;
 - kreativ yondashadi;
 - muammolarni noan'anaviy yo'llar bilan hal etadi;
 - o'z fikrini asoslay oladi.

Bu esa o'z-o'zidan o'quvchi shaxsini ijodiy tafakkurga ega bo'lgan, faol va ongli ishtirokchi sifatida shakllantiradi. Bu jarayonni samarali tashkil etishda akmeologik yondashuv bilan integratsiya qilish ta'lim samaradorligini yanada oshiradi.

Akmeologik yondashuvda shaxsning eng yuqori rivojlanish darajasiga erishish ko'zda tutilgan bo'lsa, kompetensiyaga asoslangan yondashuvda ham o'quvchining hayotda o'zini oqlaydigan, har tomonlama tayyor shaxs sifatida shakllanishiga erishish maqsadi yotadi.

- talabalarda kasbiy kompetensiyalar (bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlar)ni shakllantirishga e'tibor qaratiladi;
- nazariy bilimlar bilan amaliy ko'nikmalar uyg'unlashtiriladi.
- natijaviylikka erishish (faqat jarayon emas, natija ham muhim).

4. Innovatsion yondashuv.

- yangicha fikrlash, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, ijodkorlik va ilg'or metodlarni joriy etish;

- o'quvchilarning yangi sharoitga moslashuvi va doimiy rivojlanishga ochiqligi ta'minlanadi.

5. Kasbiy o'zini anglash va o'zini rivojlantirish yondashuvi.

- kasbiy shaxs sifatida shakllanish, o'z ijtimoiy rolini tushunish, maqsadni aniqlash va unga erishish strategiyalarini ishlab chiqish;

- "Men kimman?", "Qayerga intilyapman?", "Qanday erishaman?" kabi savollarga javob topishga yordam beradi.

Tajriba sifatida umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilariga akmeologik yondashuv asosida darslar o'tkazilib, oldingi va keyingi holat solishtirildi. Natijada quyidagilar kuzatildi:

- ijodiy tafakkur darajasi o'rtacha 25–30% ga oshdi;

- o'quvchilar mustaqil fikrlashga ko'proq intila boshlashdi;

- yangi g'oyalarga ochiqlik darajasi sezilarli ravishda oshdi;

- jamoada ishlash va o'z g'oyasini himoya qilish ko'nikmalari shakllandi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirishda an'anaviy yondashuvlardan farqli o'laroq, akmeologik yondashuv o'quvchilar shaxsining ichki salohiyatini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Bu yondashuv orqali o'quvchining faqat bilimi emas, balki uning fikrlash madaniyati, kreativ yondashuvi, o'zini ifoda etish salohiyati va ijtimoiy moslashuv darajasi ham shakllanadi.

Akmeologik yondashuvda quyidagi holatlar muhim rol o'ynaydi:

- o'quvchining shaxsiy rivojlanish traektoriyasini aniqlash va unga mos sharoit yaratish;
- ijodiy topshiriqlar, muammoli vazifalar, mustaqil loyihalar orqali tafakkurni faollashtirish;
- o'quvchining o'z-o'zini anglash, baholash va takomillashtirishga undovchi metodik uslublardan foydalanish.

Amaliy kuzatuvlar va eksperimental mashg'ulotlar shuni ko'rsatadiki, akmeologik yondashuv asosida o'quvchilarning:

- ijodiy tafakkur darajasi o'rtacha 25–30% ga oshgan;
- innovatsion fikrlashga moyilligi ortgan;
- fikrlarni mustaqil shakllantirish va ifoda etish ko'nikmalari rivojlangan;
- muammolarga noodatiy yondasha olish qobiliyati kuchaygan.

Ushbu natijalar akmeologik yondashuvning samaradorligini ilmiy va amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Bu yondashuv nafaqat dars jarayonini jonlantiradi, balki o'quvchini hayotiy vaziyatlarga moslashgan, ijodiy fikrlovchi, faol shaxs sifatida shakllantiradi.

Xulosa va takliflar. Akmeologik yondashuv o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega bo'lib, ularni o'z salohiyatini anglab yetishga va mustaqil rivojlanishga yo'naltiradi.

O'qituvchilar uchun akmeologik yondashuv asosida dars dizayni yaratish va mos metodikalarni qo'llash — bugungi ta'lim ehtiyojlariga javob beradigan eng muhim vazifalardan biridir.

Umumta'lim maktablarida ijtimoiy-psixologik va ijodiy muhitni shakllantirish, o'quvchining individual qobiliyatlarini tan olish orqali, akmeologik yondashuv imkoniyatlaridan to'liq foydalanish mumkin.

Kelgusida o'quvchilar bilan ishlashda diagnostik baholash vositalari, individual rivojlanish xaritalari va ijodiy portfoliolar orqali ularning ijodiy tafakkur darajasini nazorat qilib borish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Yo'ldoshev Q.X. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
2. Jo'rayev M.M. Ijodiy fikrlash asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Derkach A.A. Akmeologiya: Professional va shaxsiy rivojlanish asoslari. – Moskva: RAGS, 2004.
4. Zazykin V.G. Shaxs psixologiyasi: Akmeologik yondashuv. – Sankt-Peterburg: Rech', 2006.
5. Vygotskiy L.S. Fikrlash va nutq. – Moskva: Pedagogika, 1982.
6. Teplov B.M. Qobiliyat va shaxs. – Moskva: Nauka, 1985.



Bahrom BOYMATOV,
Surxondaryo viloyati Pedagogik mahorat markazi o'qituvchisi
E-mail: boymatov.baxrom1990@gmail.com

Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori, p.f.d U.Xodjamqulov taqrizi asosida

INNOVATIVE PEDAGOGICAL APPROACHES IN DEVELOPING CREATIVE THINKING SKILLS IN SCHOOL STUDENTS

Аннотация

This article is aimed at studying innovative pedagogical approaches to developing creative thinking skills in schoolchildren. The role of circles, intellectual games, projects and other innovative educational methods in developing students' creativity and critical thinking skills is highlighted. The article proposes effective approaches to expanding students' thinking skills and helping them acquire modern knowledge through the introduction of pedagogical innovations. It also analyzes the practical application of innovative pedagogical methods in the educational process and their impact on the quality of education. The results of the study show the effectiveness of methods aimed at developing creative thinking in students and serve as a basis for developing new pedagogical strategies that can be used in this area in the future.

Key words: Creative thinking, pedagogical innovations, educational methods, students, innovative approaches, creativity, critical thinking, improving the quality of education, school education, student development.

ИННОВАЦИОННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация

Целью данной статьи является исследование инновационных педагогических подходов к развитию навыков творческого мышления у школьников. Подчеркивается роль клубов, интеллектуальных игр, проектов и других инновационных методов обучения в развитии творческих способностей и критического мышления учащихся. В статье предлагаются эффективные подходы к расширению мыслительных способностей учащихся и получению ими современных знаний за счет внедрения педагогических инноваций. Анализируется также практическое применение инновационных педагогических методов в образовательном процессе и их влияние на качество образования. Результаты исследования демонстрируют эффективность методов, направленных на развитие творческого мышления у студентов, и служат основой для разработки новых педагогических стратегий, которые могут быть использованы в этой области в дальнейшем.

Ключевые слова: Творческое мышление, педагогические инновации, методы обучения, студенты, инновационные подходы, креативность, критическое мышление, повышение качества образования, школьное образование, развитие студентов.

MAKTAB O'QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Аннотация

Mazkur maqola maktab o'quvchilarida kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarni o'rganishga qaratilgan. O'quvchilarning ijodkorlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda to'garaklar, intellektual o'yinlar, loyihalar va boshqa innovatsion ta'lim metodlarining o'rni yoritilgan. Maqolada, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini kengaytirish va ularga zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishda samarali yondashuvlar taklif qilinadi. Shuningdek, innovatsion pedagogik metodlarning ta'lim jarayonidagi amaliy qo'llanilishi va ularning ta'lim sifatiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari, o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlarning samaradorligini ko'rsatadi va kelajakda bu sohada qo'llanilishi mumkin bo'lgan yangi pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Kalit so'zlar: Kreativ fikrlash, pedagogik innovatsiyalar, ta'lim metodlari, o'quvchilar, innovatsion yondashuvlar, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, ta'lim sifatini oshirish, maktab ta'limi, o'quvchilarning rivojlanishi.

Kirish. Bugungi kunda global ta'lim tizimida o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'limning eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Kreativ fikrlash, nafaqat ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatni, balki o'quvchilarning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan asosiy qobiliyatlaridan biridir. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogika metodlari va innovatsion yondashuvlar, o'quvchilarning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik innovatsiyalarni joriy etish, o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularning shaxsiy kreativ salohiyatini yuzaga chiqarish va o'z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatlarini yaratish imkonini beradi. Bu jarayon o'z navbatida, o'quvchilarda yuqori darajadagi intellektual va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Maktabda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda to'garaklar, loyihalar, intellektual o'yinlar va boshqa interaktiv ta'lim usullari o'quvchilarning ijodiy salohiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada, maktab o'quvchilarida kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarning o'rni va ta'siri o'rganiladi. Tadqiqotda, o'quvchilarda ijodkorlik va kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun samarali metodlarning amaliyotga joriy etilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik innovatsiyalarni o'quvchilarning o'z-o'zini anglash va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda qanday qo'llanilishi va bu jarayonning ta'lim tizimiga qo'shgan hisssasi o'rganiladi.

Ushbu maqola, o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodlarning samaradorligini aniqlash, pedagogik amaliyotda yangi yondashuvlarni qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatishga yo'naltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60-son farmoni bilan Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini qurish maqsadida ta'lim sifatini tubdan oshirish va pedagog kadrlarning bilim va malakalarini xalqaro darajaga

ko'tarish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda, shuningdek, milliy taraqqiyot istiqbollari ko'rib chiqilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5538-son, 2018-yil 5-sentabrdagi «Xalq ta'limi tizimiga boshqarishning yangi prinsiplarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3931-son qarori, 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son farmonlari, 2020-yil 6-noyabrdagi «Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4884-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori hamda mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar ko'plab tadqiqotlarda yoritilgan. Ularning barchasi ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni shakllantirish uchun samarali metodlar va usullarni ishlab chiqish, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishni maqsad qilgan.

Kreativ fikrlash ta'limda o'zining muhim o'rniga ega. Ushbu masala bo'yicha bir qator tadqiqotchilar, xususan, G.Torrens, E.De Bono kabi mutaxassislar kreativ fikrlashni o'quvchilarning intellektual va ijodiy rivojlanishining asosiy tarkibiy qismi sifatida o'rganadi. Torrens kreativ fikrlashni o'quvchilarning yangi g'oyalarni ishlab chiqish, masalalarni yechishda yangi yondashuvlarni topish va o'z fikrini aniq ifodalash kabi ko'nikmalar bilan bog'lagan. De Bono esa «O'yin metodlari» yordamida kreativ fikrlashni rivojlantirishni tavsiya etgan va bu usulni ta'limda joriy qilishda samarali ekanligini ta'kidlagan.

Pedagogik innovatsiyalar sohasida olib borilgan izlanishlar, o'quvchilarning ijodkorlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishning ahamiyatini ko'rsatadi. A.Shchukin va S.Shulman kabi ilmiy tadqiqotchilar, innovatsion pedagogik metodlar orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali yo'llarini tadqiq qilganlar. Ularning fikriga ko'ra, ta'limda interaktiv yondashuvlar, masalan, to'garaklar, loyihalar, muammolarni yechish mashqlari, intellektual o'yinlar va boshqa innovatsion metodlar o'quvchilarning kreativ fikrlashini mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

To'garaklar va boshqa tashkiliy faoliyatlar, o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vositalardan biri sifatida o'rganilmoqda. V. K.Lomonosov va I.M.Nadirov o'z ilmiy ishlarida, to'garaklar faoliyatining ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirishga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rsatgan. To'garaklar o'quvchilarga o'z g'oyalarni erkin ifodalash, muloqot qilish, o'rganilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa, o'quvchilarning ijodkorlik salohiyatini rivojlantirishda samarali yordam beradi.

J.P.Guilford va R.Sternberg kabi tadqiqotchilar kreativ fikrlashning kognitiv jarayonlarini o'rganishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar olib borgan. Ular o'zlarining ishlarida, kreativ fikrlashning umumiy ko'rinishlarini, ya'ni yangi g'oyalarni yaratish, mavjud g'oyalarni qayta ko'rib chiqish, tafakkur jarayonlarini yangi tarzda tashkil etish kabi ko'nikmalarni tahlil qilgan. Shu bilan birga, ular innovatsion ta'lim metodlarini ta'kidlagan, masalan, samarali muammolarni hal qilish metodlari, guruh ishlari, diskussiyalar va interaktiv mashg'ulotlar, bu metodlar o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda samarali bo'lishida asoslagan va ishlarini keltirish mumkin.

T.Amabile kreativlik va ijodkorlik sohasida olib borgan tadqiqotlarida, kreativ fikrlashni rivojlantirishda yuzaga keladigan asosiy to'siqlarni, jumladan, an'anaviy ta'lim usullarining cheklanganligi, o'quvchilarning o'z-o'zini anglashda kamchiliklar

va metodologik muammolarni aniqlagan va ilmiy tadqiqotlari o'rganilgan.

Tadqiqotning vazifalari. O'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishining pedagogik jarayonda qanday ahamiyatga ega ekanligini tahlil qilish;

Maktab ta'limida kreativ fikrlashni rivojlantirishda qo'llanilayotgan innovatsion pedagogik metodlar, masalan, loyihalar, to'garaklar va intellektual o'yinlarning samaradorligini o'rganish;

Innovatsion ta'lim texnologiyalarining kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi o'rni va ta'sirini o'rganish;

Ta'limda interaktiv metodlar, guruh ishlari va diskussiyalar orqali o'quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirish usullarini o'rganish;

Mahalliy ta'lim amaliyotida innovatsion metodlarni joriy etishning amaliy tajribalarini va ularning natijalarini o'rganish;

Kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan yangi pedagogik yondashuvlar va metodlarni ishlab chiqish, ular maktab ta'limiga qanday kiritilishi mumkinligini ko'rsatish;

Kreativ fikrlashni rivojlantirishda yuzaga keladigan asosiy to'siqlarni aniqlash va ularni engish yo'llarini ishlab chiqish;

Ta'lim jarayonida pedagoglarning kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi roli va ularning metodik ko'nikmalarini o'rganish hamda amaliyotga joriy etish [17].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish, pedagogik kuzatish, anketa, topshiriqlar, matematik, tabiiy-ilmiy savodxonlik va kreativlikni aniqlash metodikalari, modellashtirish, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi [26].

O'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik metodlarning samaradorligini chuqur o'rganish va amaliy natijalarni olish uchun ko'plab ilmiy usullarni o'z ichiga oladi. Eksperimental metod, so'rovnoma, intervyu va statistik tahlil yordamida tadqiqotning ishonchli va ilmiy asoslangan natijalariga erishish mumkin [14].

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yangi va innovatsion pedagogik metodlarning samaradorligi o'rganiladi. Maktabda kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan interaktiv metodlar, asalan, to'garaklar, loyihalar, muammolarni hal qilish mashqlari va boshqa yangi pedagogik yondashuvlar keng tahlil qilinadi. Bu, ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirishda ilgari surilgan yangicha pedagogik amaliyotlarni amaliy sinovlardan o'tkazish imkonini beradi; [24]

innovatsion metodlarning o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan yangi yondashuvlarni tahlil qilish amalga oshiriladi. O'quvchilarga kreativ fikrlashni rivojlantirishda qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tajriba sifatida sinovdan o'tkazish, ularning amaliy natijalari va samaradorligini baholash orqali yangi ilmiy natijalarga erishiladi;

kreativ fikrlashni rivojlantirishda to'garaklar va tashkiliy faoliyatlarining muhim rolini o'rganishning ilmiy yangiligi mavjud. Bu metod orqali o'quvchilarga kreativ fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratishning yangi yo'llari aniqlanadi; [32]

o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun joriy etilgan pedagogik innovatsiyalar va metodlarning samaradorligini baholashning yangi yondashuvi ishlab chiqiladi. Bu ilmiy yangilik, pedagogik metodlarni sinovdan o'tkazish va ularning o'quvchilarga ta'sirini aniq o'lchashga asoslanadi, bu esa ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlarni kashf etishga imkon yaratadi; [52]

o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun metodlarning mahalliy ta'lim tizimiga moslashgan xususiyatlarini o'rganishning ilmiy yangiligi mavjud. Mahalliy sharoitlar va o'quvchilarning individual ehtiyojlariga qarab metodlarning moslashuvchanligini baholash, o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun yangi, moslashtirilgan pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi; [21]

ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirishda yangi metodik yondashuvlar va texnologiyalar ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan. Bu metodik yondashuvlar, o'quvchilarni ta'lim jarayonida mustaqil fikrlashga, yangi g'oyalarni yaratishga, tanqidiy va analitik fikrlashga o'rgatishga qaratilgan bo'lib, ta'lim tizimidagi kreativlikni oshirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results) o'quvchilarning kreativ faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan muammoli-izlanishli-kreativ topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan;

muammoli yondashuv asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilib fan o'qituvchilarning tabiiy fanlar savodxonligi asosida rivojlantirish bo'yicha metodik ko'rsatma va tavsiyalar tizimi ishlab chiqilgan[19].

Tadqiqot natijalarining ishonchligi metodologik yondashuv va tamoyillarga asoslanganligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari va natijalarining identivligini ta'minlangani, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning aprobatsiyadan o'tkazilgani, tajriba-sinov ishlari ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarida amalga oshirilgani, olingan natijalarning ahamiyatlilik darajasi sifat jihatdan tahlil qilingani olingan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan ta'minlanadi[24].

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot innovatsion pedagogik metodlarning kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi samaradorligini ilmiy ravishda tasdiqladi. O'quvchilarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini oshirish uchun yangi metodlarning samaradorligini baholash va pedagogik model yaratishda muhim ilmiy asos yaratildi. Bu natijalar, ta'limda kreativ fikrlashni rivojlantirishning ilmiy o'rganilishiga yangi yo'nalishlar qo'shadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, innovatsion pedagogik metodlar maktab ta'limiga joriy etilib, o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu metodlarni o'qituvchilar tomonidan qo'llash orqali ta'lim jarayoni samarali bo'ladi, o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi. Bu, o'quvchilarga nafaqat ta'limda, balki kundalik hayotda ham muvaffaqiyatli bo'lishda yordam beradi [6].

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijalari maktab ta'limida kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik metodlarning samaradorligini ko'rsatdi.

Innovatsion metodlar bo'yicha o'qituvchilarga maxsus treninglar va seminarlar o'tkaziladi va yangi pedagogik yondashuvlar o'rgatiladi;

Maktabda kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodlar tajriba sifatida joriy etilib, ularning samaradorligi kuzatilib, ta'lim jarayoniga integratsiya qilinadi;

Tadqiqot ishida o'qituvchilar va ta'lim muassasalari uchun innovatsion metodlarni qo'llashga qaratilgan qo'llanma va metodik materiallar ishlab chiqiladi;

O'zbekiston ta'lim tizimida kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan yangi yondashuvlarni joriy etish uchun tegishli ta'lim dasturlariga takliflar beriladi[6].

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari, innovatsion pedagogik metodlarning maktab o'quvchilarida kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligini tasdiqladi. Tajriba guruhida qo'llangan yangi pedagogik yondashuvlar o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash darajasini sezilarli darajada oshirdi. Innovatsion metodlar, o'quvchilarga nafaqat yangi g'oyalarni ishlab chiqish va muammolarni hal qilishda yordam berdi, balki ta'lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qilib, o'quvchilarning faolligini oshirdi.

Tadqiqot shuningdek, ta'limda kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodlarning joriy etilishi o'quvchilarning umumiy intellektual faolligini oshirishi, ularni kelajakda muvaffaqiyatli va innovatsion fikrlovchi shaxslar sifatida shakllantirishga yordam berishini ko'rsatdi.

O'qituvchilarga innovatsion pedagogik metodlarni o'rgatish uchun maxsus treninglar va seminarlar tashkil etilishi kerak. Bu, o'qituvchilarning metodik yondashuvlarini zamon talablariga moslashtirishga yordam beradi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodlarni maktab ta'limi jarayoniga joriy qilish kerak. Maktablar o'quvchilarga yangi pedagogik yondashuvlar orqali ijodiy fikrlash va tanqidiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatini taqdim etishi lozim.

Ta'lim dasturlariga kreativ fikrlash va muammolarni hal qilishga qaratilgan interaktiv metodlarni kiritish tavsiya etiladi. Bu, o'quvchilarga faollikni oshirish va ta'lim jarayonini samarali qilishda yordam beradi.

Innovatsion metodlar bilan birga, raqamli ta'lim texnologiyalaridan faol foydalanish, o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Onlayn platformalar va interaktiv dasturlar yordamida ta'limni takomillashtirish mumkin.

O'quvchilarga real hayotdagi muammolarni hal qilishda yordam beruvchi loyiha ishlari va muammo-yechim faoliyatlarini tashkil etish orqali ularning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi <https://lex.uz/docs/http://lex.uz/ru/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-3893445>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3931-son "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-3893416>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-4312785>
5. 2020 yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5085887>
6. Abduqodirov.I. (2018). Pedagogik innovatsiyalar: Teoriya va amaliyot. Tashkent: Akademnashr.
7. Gulomov.S. (2016). Kreativ fikrlash: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
8. Zeynallanova.G. (2022). Pedagogik texnologiyalar va kreativ fikrlashni rivojlantirishda innovatsion metodlar. Tashkent: Sharq yulduzi.



Nasiba BOTIROVA,
Farg'ona davlat texnika universiteti dotsenti
E-mail: nasibaxon.botirova@gmail.com

Nukus DPI dotsenti, PhD A.Janabergenova taqrizi asosida

INTERACTIVE APPROACH TO DEVELOPING STUDENTS' KNOWLEDGE THROUGH COMPUTATIONAL EXPERIMENTS

Аннотация

In this article, aims to reveal the theoretical foundations, methodological directions, and practical effectiveness of using interactive approaches to enhance students' knowledge through computational experiments.

Key words: Digital technologies, use of Maple, computational experiments, mathematical modeling.

ИНТЕРАКТИВНЫЙ ПОДХОД К РАЗВИТИЮ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ВЫЧИСЛИТЕЛЬНЫЕ ЭКСПЕРИМЕНТЫ

Аннотация

В данной статье поставлена цель раскрыть теоретические основы, методические направления и практическую эффективность использования интерактивных подходов при повышении уровня знаний студентов на основе вычислительных экспериментов.

Ключевые слова: Цифровые технологии, использование Maple, вычислительные эксперименты, математическое моделирование.

INTERAKTIV YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB TALABALARNING BILIMLARINI HISOBLASH EKSPERIMENTLARIDAN ORQALI RIVOJLANTIRISH

Аннотация

Ushbu maqolada hisoblash eksperimentlari asosida talabalarning bilimini oshirishda interaktiv yondashuvlardan foydalanishning nazariy asoslari, metodik yo'nalishlari va amaliy samarasini yoritish maqsad qilingan.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, Maple dasturdan foydalanish, hisoblash eksperimentlari, matematik modellashtirish.

Kirish. Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'quv jarayonini takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda texnika yo'nalishdagi talabalar bilimini chuqurlashtirish, ularning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshirish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda interaktiv yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, talabalarni hisoblash eksperimentlari orqali o'qitishda nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladigan innovatsion metodlardan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv texnika yo'nalishi talabalarning mustaqil fikrlashini, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bo'lgan qiziqishini hamda raqamli texnologiyalar bilan ishlash malakalarini rivojlantiradi [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hisoblash eksperimentlari orqali nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladigan innovatsion metodlar bo'yicha bir qator o'zbek olimlari ilmiy izlanishlar olib borgan. Quyida ushbu sohada faoliyat yuritgan ba'zi olimlar va ularning ishlariga oid ma'lumotlar keltirilgan [10]:

X.G.Nazarboyeva integrallarni hisoblashda innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish masalalari yoritilgan [2].

Y.V. Muradova matematika fanini o'qitishda innovatsion metodlarning ahamiyati va ularning talabalarda amaliy bilimlarni rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan [3].

S.X.Islikov va Sh.A. Abdumominovlar [7] ma'ruza mashg'ulotlarini o'zlashtirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanishning ahamiyati va usullari yoritilgan [4].

Shuningdek, MDH va xorijiy olimlar interaktiv yondashuvlar va hisoblash eksperimentlari orqali talabalarning bilimlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar, xususan, Veniamin A. Norin, Natalia V. Norina, Yurii V. Pukharenko. Bu olimlar interaktiv metodlarning ta'lim samaradorligiga ta'sirini o'rganadi. L.Kristak, M.Nemec, Z.Danihelovalar interaktiv yondashuvlarning talabalarning bilim darajasiga ta'sirini tahlil qilishgan. Xorijiy olimlardan Rui Gomes

Neves, Jorge Carvalho Silva, Vitor Duarte Teodorolar interaktiv hisoblash modellashtirish orqali matematika va fizika fanlarida talabalarning o'rganish jarayonini yaxshilashni maqsad qilishgan. Jessica Rivadeneira, Esteban Ingalar o'qitish metodini sinf muhitida qo'llash orqali ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar bilan boyitish bo'yicha tadqiqot olib borishgan.

Maple dasturi yordamida hisoblash eksperimentlari va matematik modellashtirish sohasida O'zbekistonda bir qator olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Quyida ushbu sohada faoliyat yuritgan ba'zi olimlar va ularning ishlariga oid ma'lumotlar keltirilgan:

I.Rixsiboyev Maple dasturidan foydalanib, cheklangan o'lchamli algebralarning klassifikatsiyasi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan [5]. E.M.Mirzakarimov yuqori matematika masalalarini, xususan, vektorlar asosida tuzilgan uchburchak masalalarini Maple dasturida yechish bo'yicha ilmiy ishlar olib borgan [6].

Fizika-matematika yo'nalishidagi tadqiqotchilar Maple va Mathcad dasturlaridan foydalanib, nochiqli tenglamalar sistemasini analitik va taqribiy yechish bo'yicha tadqiqotlar olib borganlar. Bu ilmiy izlanishlar hisoblash matematikasining maxsus bo'limlaridagi masalalarning yechimlarini topishga qulaylik tug'diradi.

Maple dasturining ta'lim va ilmiy tadqiqot sohalarida qo'llanilishini kengaytirishga xizmati quyidagi yo'nalishlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda:

nazariy bilimlarni mustahkamlashda maple matematik dasturi orqali matematik formulalarni interaktiv shaklda yechish; tenglamalarni vizualizatsiya qilish; grafiklar va dinamika asosida tushunchalarni yanada aniqroq anglash imkoniyati yaratiladi. Bu esa texnika yo'nalishi talabalar uchun murakkab nazariy bilimlarni aniq va tushunarli tarzda o'zlashtirishga xizmat qiladi.

hisoblash eksperimentlarini o'tkazish Maple yordamida matematik modellar quriladi; ularning sonli yechimlari topiladi; eksperimentlar virtual tarzda o'tkaziladi. Bu esa an'anaviy hisoblash usullariga nisbatan tezkor va aniq natijalar olish imkonini beradi.

Maple ta'lim jarayonida foydalanishning afzalliklari laboratoriya mashg'ulotlarini interaktivlashtiradi; talabalarga murakkab masalalarni visual yechimini ko'rsatish imkonini beradi hamda mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Maplening funksional imkoniyatlari tadqiqot salohiyatini kengaytirishda differensial tenglamalarni yechish; integrallarni, sistemalarni aniqlash; statistik va algebraik modellar, signallarni tahlil qilish imkonini beradi. Bu jihatlar ilmiy izlanishlarda ishonchli va takrorlanuvchan natijalarga erishish imkonini beradi.

Demak, Maple dasturining ta'lim ta'lim jarayoniga qo'llanilishi innovatsion yondashuvga asoslangan, interaktiv, vizual va samarali o'qitish hamda tahlil qilish muhitini yaratadi.

```
> solve(x^2 - 3*x + 2 = 0, x);
```

2, 1

Formular bilan avtomatik ishlash jarayonida Maple dasturining roli beqiyosdir. Ushbu dastur matematik formulalarni aniq, texnik va interaktiv shaklda tahlil qilish imkonini berib, murakkab matematik masalalarni tez va ishonchli yechadi hamda

2. Sonli va analitik yechimlarni topishda Maple orqali aniq (analitik) va taxminiy (numerik) yechimlar olish mumkin:

Misol:

```
> f:= cos(x) - x;
solve(f=0, x=0 .. 4);
```

f:= cos(x) - x
0.7390851332

Maple dasturi sonli va analitik masalalarni yechishda keng imkoniyatlarga ega bo'lib, u orqali muammolarning aniq, ya'ni analitik hamda taxminiy, ya'ni numerik yechimlarini olish mumkin. Bu dastur orqali differensial tenglamalar, integral ifodalar va boshqa matematik modellarning yechimlarini yuqori aniqlikda hisoblashga xizmat qiladi hamda nazariy tahlilni amaliy tadqiqot bilan uyg'unlashtirish imkonini yaratadi.


ularning grafik, algebraik va sonli yechimlarini ham birgalikda ko'rsatadi. Bu esa uni ta'lim va ilmiy tadqiqot faoliyatida samarali vositaga aylantiradi.

3. Grafik chizish Maple dasturida yechilgan ifodalarni vizual tarzda grafik ko'rinishida ko'rish mumkin:

Misol:

Bu orqali funksiyaning o'sish-tusish oraliqlari, ekstremum nuqtalari, kesishish nuqtalari aniq ko'rinadi.


```
> plot3d(sqrt(sin(x^2 + y^2)), x=-4..4, y=-4..4, numpoints=10000)
```



Demak, Maple dasturi orqali yechilgan matematik ifodalarni grafik chizish funksiyasi yordamida vizual tarzda tasvirlanadi. Bu esa texnika yo'nalishdagi talabalarga murakkab

matematik munosabatlarning ko'z bilan ko'rish imkonini berib, ularning tushunishini chuqurlashtiradi hamda nazariy bilimlarni mustahkamlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi:

```
> plot(sin(x)/x, x=-4..4, labels=[x,y], labelsfont=[Times,italic,12]);
```



4. Differensial va integral hisoblashda murakkab differensial tenglamalar va integral ifodalarni yechishda katta yengillik yaratadi:

Misol (integral):

```
> int(x* sin(x), x);
```

sin(x) - x cos(x)

Misol (differensial):

```
> dsolve(diff(y(x),x,x) + y(x) = 0,y(x));
```

$$y(x) = _C1 \sin(x) + _C2 \cos(x)$$

Demak, Maple dasturi differensial va integral hisoblash sohalarida, ayniqsa murakkab differensial tenglamalar hamda integral ifodalarni yechishda samarali vosita sifatida katta yengillik yaratadi. Ushbu dastur orqali aniq hamda sonli yechimlarni tez va ishonchli usulda olish mumkin, bu esa o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

5. Ilmiy eksperimentlarni modellashtirish Maple dasturida fizikaviy, iqtisodiy yoki muhandislikga oid matematik modellarga asoslangan tajriba misollarini interaktiv yechish mumkin. Bunda Maple dasturi hisob-kitoblarni avtomatik bajaradi, murakkab formulalarni soddalashtiradi, vizual taqdimot orqali tushunishni osonlashtiradi, tajriba, laboratoriya va tadqiqot ishlarini raqamli shaklda olib borishga imkon yaratadi.[8]

Maple dasturining misol yechishdagi xizmati juda keng va qulay bo'lib, bu dastur, ayniqsa, murakkab matematik ifodalarni tahlil qilish va ularni aniq, texnik asoslangan shaklda yechishda o'zining yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi. Bu holat texnik yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun ayniqsa muhim, chunki ularning o'quv rejasida ko'plab differensial tenglamalar, ko'p o'zgaruvchili funksiyalar, integral hisoblash, statistik modellar va fizika-matematik modellashtirish kabi murakkab bo'limlar mavjud.

Maple yordamida talaba faqatgina yechim olish bilan cheklanmay, balki yechish bosqichlarini bosqichma-bosqich ko'rib chiqish, graflar chizish, natijalarni vizual tarzda tahlil qilish, parametrlar ta'sirini interaktiv tarzda kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa nafaqat mustahkam bilim olish, balki amaliy muammolarni hal qilishga tayyor mutaxassislarni yetishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Maple dasturi talabalarga matematik fikrlashni rivojlantirish, algoritmik tafakkurni shakllantirish va hisoblash eksperimentlarini mustaqil bajarish orqali o'z bilim va ko'nikmalarini amalda sinab ko'rish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Hisoblash eksperimentlari o'qitish jarayonida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi, bu esa talabalar bilimining chuqurlashuviga sabab bo'ladi.

Interaktiv yondashuvlar orqali talabalarning darsga bo'lgan qiziqishi ortadi, ularning faolligi va mustaqil fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi. Dasturiy vositalar (Maple, GeoGebra, MATLAB va h.k.) bilan ishlash malakasi shakllanganda, talabalar abstrakt matematik tushunchalarni vizual va hisoblash nuqtai nazardan yaxshiroq tushunadi. Hisoblash eksperimentlari asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni tahlil qilish, muammoni hal qilish, tajriba asosida xulosa chiqarish kabi ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantiradi[9].

Talabalarni o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishda hisoblash eksperimentlarini interaktiv metodlar bilan uyg'unlashtirish tizimli ravishda yo'lga qo'yish; matematika va texnika fanlari bo'yicha o'quv dasturlarga hisoblash eksperimentlarini o'z ichiga olgan amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlarini kiritish; Maple, MATLAB, Python, R kabi hisoblash dasturlarini texnika yo'nalishi talabalar o'rtasida kengroq o'rgatish uchun maxsus qisqa kurslar va treninglar tashkil etish; elektron platformalarda hisoblash eksperimentlariga asoslangan topshiriqlar bankini yaratish, ularni onlayn ta'lim jarayoniga integratsiyalash taklif etiladi.

Hisoblash eksperimentlari o'qitish jarayonida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi, bu esa talabalar bilimining chuqurlashuviga sabab bo'ladi. Ayniqsa, matematik va texnik yo'nalishlardagi fanlarda hisoblash eksperimentlari orqali o'rgatilgan bilimlar real muammolarni tahlil qilish va hal etishga qaratiladi. Talaba nazariy bilimni mustahkam tushunibgina qolmay, balki uni raqamli modellashtirish, dasturiy yechimlar topish va eksperiment natijalarini baholash kabi amaliy jarayonlarda qo'llashni o'rganadi.

Bunday yondashuv natijasida talabalarda mustaqil fikrlash, muammoga tahliliy yondashish, natijalarni baholash va xulosa chiqarish ko'nikmalari rivojlanadi. Bu esa nafaqat o'qitish samaradorligini oshiradi, balki kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, hisoblash eksperimentlari talabalarda zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash madaniyatini, algoritmik tafakkurni va raqamli savodxonlikni yuksaltirishga xizmat qiladi.

ADABYOTLAR

1. Botirova, N., & Alimjanova, M. (2022). Talabalarning o'quv-bilish faoliyatlarini tashkil etish. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(12), 65-72.
2. Nazarboyeva X.G. Innovatsion texnologiyalar yordamida xosmas integrallarni hisoblash usullari\| 2019
3. Muradova Y.V. Talabalarda matematika fanini o'qitishda innovatsion metodlar va ularning talabalarga ta'siri\| 2019
4. Islikov S.X., Rahmanov V.T., Abdumo'minova Sh.A. Ma'ruza mashg'ulotlarini o'zlashtirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish\| 2017
5. Rixsiboyev I. Maple dasturidan foydalanish. O'quv qo'llanma. T.:2016
6. Mirzakarimov E.M. Maple dasturi yordamida oliy matematika masalalarini yechish. O'quv qo'llanma. 2016
7. Islikov S.X., Abdumo'minova Sh.A. Ma'ruza mashg'ulotlarini o'zlashtirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish. 2018
8. Mirzakarimov E.M. Oliy matematika fanidan laboratoriya ishlarini Maple dasturida bajarish. O'quv qo'llanma. 2020
9. Botirova N. Dj. Development of Students' Analytical Thinking Based on Calculation Experiments in the Educational Process. Miasto Przeszłości. 2024/11/14
10. edujournal.uz



UDK:30.428.303.028

Nargiza G'ANIYEVA,

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti o'qituvchisi

E-mail: ganiyevanargiza553@gmail.com

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti katta o'qituvchisi, PhD Z.Nazarova taqrizi asosida

TA'LIM JARAYONIDA TALABLARDA NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Integral yondashuv asosida talablar nutq kompetensiyasini rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirishning samarali usullarini tushuntiradi.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, texnologiya, nutq, imkoniyat, rivojlanish, standart, ta'lim, yondashuv, kommunikativ, intellektual, pragmatik, moslashish, fan, fan, tizim, kompetensiya mazmuni, tez-tez, ta'lim, me'yor, ta'sir, maxsus uslubiy, natija, tarbiyaviy faoliyat.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В ВО ВРЕМЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА.

Аннотация

На основе интегративного подхода в требованиях разъяснены эффективные методы совершенствования методики развития речевой компетентности.

Ключевые слова: Компетенция, технологии, дискурс, возможность, развитие, стандарт, образование, подход, коммуникативный, интеллектуальный, прагматический, адаптация, наука, наука, система, содержание компетенции, част, образование, стандарт, эффект, специальный методологический, результат, образовательная деятельности.

IMPROVING METHODS FOR DEVELOPING STUDENTS' SPEECH COMPETENCE DURING THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation

Effective methods of improving the methodology of development of speech competence in the requirements based on an integrative approach are explained.

Key words: Competence, technology, discourse, opportunity, development, standard, education, approach, communicative, intellectual, pragmatic, adaptation, knowledge, science, system, competence, component, education, standard, outcome, specific methodology, outcome, educational activities. The following keywords are used in the study of the competence.

Kirish. Har bir mamlakatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma'naviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishi – bilimli, yuqori intellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarini mujassamlagan yoshlarga bog'liq hisoblanib, har jihatdan yetuk va barkamol, Vatan taqdiri uchun sidqi dildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o'qitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pog'onalariga olib chiqish avvalo o'qituvchi va tarbiyachi murabbiylar zimmasiga sharaflari va ayni paytda mas'uliyatli vazifani yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik jamiyat qurish yo'lidan borar ekan, o'z fuqarolarining, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bog'lagan, o'sib kelayotgan yosh avlodning barkamol bo'lib voyaga yetishiga alohida e'tibor qaratmoqda. Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Tabiiyki hozirgi ta'lim islohotlari sharoitida ham barkamol avlod tarbiyasi haqida gapirar ekanlar: «Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvlambor farzandlarimizning unib, o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishga bog'liqdir.» [1] – deb alohida ta'kidlaganlar.

Jahon miqyosida bugungi kunda talabalar o'rtasida talablarda nutq kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida kitob o'qishni targ'ib qilish, ularning faol kitobxon bo'lishiga erishishda ijtimoiy institutlarning rolini oshirish, mutolaa sohasida dasturiy - loyihaviy faoliyatni rivojlantirish, internet-texnologiyalaridan faol foydalanish hamda kitobxonlik faolligini oshirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarni takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Rivojlangan davlatlarda zamonaviy sharoitda asosiy e'tibor kutubxona-axborot tarmoqlarini rivojlantirish, aholi, shu

jumladan, talabalarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni o'rnatirishning innovasion shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Jumladan, - mumtoz adabiyot va kitobxonlik madaniyati deb nomlangan madaniy-ma'rifiy tadbir doirasida talabalarni kitobning jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamolotidagi o'rni, ahamiyatini anglash bilan birga, badiiy asarlarni tanlash, ularning asosiy g'oyasini tushunish imkoniyatiga ega bo'lishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida – jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqta nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish kabi vazifalar belgilab berildi.

Bu esa, adabiy ta'lim jarayonida talabalarda nutq kompetensiyasini pedagogik-psixologik, metodik xususiyatlarini aniqlashtirish, loyihaviy faoliyatni tashkil etish asosida talabalarda nutq kompetensiyasini tarkib toptirishning metodik shart-sharoitlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Talabalarni bilim olish, kitob o'qishga qiziqtirish, nutq kompetensiyasini rivojlantirishning tarixiy asoslari Sharq Uyg'onish davri mutafakkirlari, ma'rifatparfar shoirlar va jadid olimlarining mumtoz asarlari, darslik va o'quv qo'llanmalarida yoritib berilgan.

Ta'lim jarayonini tashkil etish, kitob o'qitishning turli jihatlari Respublikamiz olimlaridan M.Mirqosimova (talabalarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish) B.To'xliyev (adabiyot o'qitish nazariyasi va metodikasi) Q.Yo'ldoshev (adabiyot o'qitishning nazariy-ilmiy asoslari), S.Matchanov (adabiyot darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish), R.Niyozmetova (uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini

o'rganish metodikasi), Q.Husanboyeva (adabiy ta'lim jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashini shakllantirish), A.Bolibekov (o'quvchilarning ma'naviyatini shakllantirishda sinfdan tashqari o'qishning o'rni), S.Qambarovalar (umumiy o'rta ta'lim tizimi adabiyot darslarida o'quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish)ning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Mustaqil davlatlar Hamdo'stligi (MDH) olimlaridan V.Asmus, N.Bodrova, S.Gurevich, N.Zbarovskaya, T.Kapta, YE.Karsalova, V.Koxanova, S.Lavilinskiy, YE.Suvorova, D.Xafizovlar talabalarning kitobxonlik faoliyatiga rahbarlik qilishning metodik asoslari faolligini oshirishning ijtimoiy-madaniy jihatlarini, ommaviy kutubxonalarda nutq kompetensiyasini shakllantirish masalalari tadqiq etilgan.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim muammolari so'nggi vaqtlarda pedagogika fanida keng tadqiq etilmoqda. Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning nazariy qoidalarini ishlab chiqishga G.A.Asilova, J.E.Usarov, F.Delamare, J.Winterton, Z.N. Safin, N.F.Radionova, A.Xutorskiy, N.D. Galskova, L.V.Kazanseva, U.U. Jumanazarov, N.Muslimov, O.Musurmonova, M.Gulyamova kabi olimlar katta hissa qo'shishgan.

Ushbu tadqiqot doirasida kompetensiyaviy rivojlantirishda amaliy uo'nalish, faollik va shaxsiy uo'nalishni nutq faoliyati turlarini va uni talabalarga o'qitish xususiatlarini hisobga olgan holda kompetensiyaga asoslangan ta'lim mazmunida umumiy va individualni ajratish uchun biz "kompetensiyaviy", "kompetentlik" va "nutqiy kompetensiya" tushunchalarini ajratamiz:

kompetensiya - ma'lum bir sohada faoliyat yuritish jarayonida shaxsiy sifatlar hamda bilim, ko'nikma va malakalarning samarali qo'llanishi;

kompetentlik - muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud hamda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan layoqatdir;

nutqiy kompetensiya - tildan foydalangan holda fikrni rivojlantirish qobiliyatini anglatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Xorijlik olimlardan G.Westhoff, J.Grzesik, S.Ehlers, H.Willenberg, A.Burns, L.J.Dorn, S.Ehlers, G.Genette, E.Ortlieblar tomonidan ta'lim jarayonini tashkil etish turlari va shakllari (totales – o'rganuvchi, kursorisches – tanishishga doir, orientierendes – izlanishga doir), turli tavsifga ega matnlarni o'qishda yuzaga keladigan qiyinchilar, nutq kompetensiyasini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillar maxsus o'rganilgan.

Nutq kompetensiyasi borasida olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, aynan kompetensiyalar ta'lim va tarbiya jarayonida talabalarga nimani o'rgatish va qanday o'rgatish, nimalarni shakllantirish lozimligi muhim sanaladi. Bu jarayonda ingliz tili darslari ham bundan mustasno emas. Shu nuqtai nazardan olganda, "kommunikativ kompetentlik" tushunchasini tahlil qilish biz uchun dolzarb muammodek ko'rinadi.

Tadqiqotchi olim E.I.Litnevskaya kommunikativ kompetensiyaga nisbatan quyidagi ta'rifni ilgari suradi: "Nutq faoliyatining barcha turlarini og'zaki va yozma nutq madaniyatini elementlarini, ma'lum bir yoshdagi muloqotning hayotiy sohalarini va vaziyatlarida tildan foydalanishning asosiy ko'nikmalari va malakalarini o'zlashtirishdir".

Boshqa bir olim N.I.Geiz kommunikativ kompetentlikni "turli ijtimoiy jihatdan belgilangan sharoitlarda tilni to'g'ri qo'llash qobiliyati" deb tushunadi.

Demak, kommunikativ kompetentlik nutqni muloqotning maqsadi va holati bilan taqqoslash qobiliyatini, shuningdek, kommunikativ xatti-harakatlarning madaniy va ijtimoiy meyorlarini hisobga olgan holda muloqotni to'g'ri yo'lga qo'yish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Shu o'rinda kommunikativ kompetentlikka nisbatan mukammal ta'rif M.R.Lvov tomonidan keltirib o'tilgan bo'lib, uning ta'kidlashicha, "kommunikativ kompetentlik – bu til va uning fonetik xususiatlarini, leksik va grammatik birliklarini, stilistikasini, nutq madaniyatini, ushbu til vositalariga ega bo'lishni va nutq faoliyati turlarini bilishni bildiruvchi tushunchadir. Shuningdek, nutq, tinglash, o'qish, yozish - insonning ijtimoiy, kasbiy, madaniy talablari doirasida va kommunikativ kompetensiya tabiiy nutq faoliyati hamda maxsus tayyorgarlik natijasiga ega bo'ladi".

Ko'rinib turibdiki, bu og'zaki muloqotda yetarli darajada tayyorgarlik ko'rmaslik oqibati. Talaba nutqi haqli ravishda ta'lim jarayonida eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Talabani, ayniqsa ta'lim jarayonida mahorati bevosita so'zni bilish darajasiga bog'liq. Bu diksiya va so'z ustida, o'z fikrini aniq ifodalash va ularning to'g'riligini asosli isbotlash ustida doimiy va maqsadli ishlashni talab qiladi.

Yuqorida aytilganlarning barchasi talabalarni darsda muloqot qilish ko'nikmalariga maqsadli ravishda o'rgatishda qanday rol o'ynash kerakligini belgilaydi. Ko'rinib turibdiki, o'qituvchining kommunikativ-pedagogik faoliyati o'ziga xos mazmun bilan to'ldiriladi. Talabalarga kasbiy nutq aloqasini qanday materialda o'rgatish mumkin, rag'batlantirish, javob berish, nazorat qilish va tartibga solish qobiliyatini o'z ichiga olgan murakkab nutq mahorati qaysi? Bizning fikrimizcha, asosiy nuqta talabalarga o'quv jarayonini boshqarish imkonini beruvchi nutqiy muloqotni o'rgatishda foydalanish mumkin bo'lgan materialni taqdim yetish, nutq birliklarini tanlashdir.

Muammoning o'rganilganlik darajasini tadqiq etish natijasida so'nggi o'n yillikda talabalarda nutq kompetensiyasini shakllantirish bilan bog'liqlikda respublikamiz olimlaridan A.Abdulazizov tomonidan talabalarda nutq kompetensiyasini rivojlantirishning sosiologik tahlili, S.Kambarova tomonidan talabalarda nutq kompetensiyasini shakllantirish texnologiyasi bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilganligiga guvoh bo'ldik. Biroq tahlillar asosida talabalarda nutq kompetensiyasini rivojlanganligini aniqlashda monitoring metodidan foydalanish, talabalarda nutq kompetensiyasini o'ziga xosliklarni ochib berish, talabalarda nutq kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik tizimi bo'yicha alohida ilmiy izlanish olib borish zarurligi haqidagi xulosaga kelindi.

Tahlil va natijalar. Ta'lim jarayonida talabalarlarda nutq kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha o'quv adabiyotlarni tahlil qilish orqali psixologik-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish; gender yondashuvni hisobga olgan holda talabalarining nutq kompetensiyasini rivojlantirish zarur. Loyiha ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida ta'lim jarayonida talabalarda nutq kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish zarur. Talabalarda nutq kompetensiyasini rivojlantirish taklif etilgan metodikani sinovdan o'tkazish, natijalarni tahlil qilish va ularning samaradorligini baholash.

Talabalarda nutq kompetensiyasini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish muammosi nafaqat uning ijtimoiy ahamiyatli nazariy asoslari va amaliy shart-sharoitlariga ham bog'liq bo'lib psixologlar, sosiologlar, pedagoglar mazkur muammoning turli jihatlarini tadqiq etib o'tishmoqda. Talabalarda nutq kompetensiyasini – bu maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, o'zida bir qancha bosqichlarni, shu jumladan puxta o'ylangan va asoslangan tizimini talab etadi. Talabalarda nutq kompetensiyasini miqdor va sifat jihatdan tahlilini o'tkazish va quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi.

Ta'limni modernizatsiyalash bilan bog'liqlikda talabalarda nutq kompetensiyasini rivojlantirish masalasi so'nggi yillarda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bu esa talabalarda nutq kompetensiyasini rivojlantirishda innovasion texnologiyalarini qo'llashning metodik shart-sharoitlarini aniqlashtirishni talab etadi.

Kompetentlik – biror soha bo'yicha har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lgan va shuning uchun ham fikri salmoqli va ishonchli hisoblangan kishining sifati. Talabalar nutq kompetensiyasiga asoslangan ta'limning asosiy mohiyati o'quv-tarbiya jarayonida talabalar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni uz shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kasbiy va ijtimoiy faoliyatda qo'llay olish kompetensiyalarini takomillashtirishga yo'naltirish sanaladi.

Kompetensiyaviy yondashuvda o'qitish maqsadlari talabalar tomonidan o'z - o'zini anglash, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quv maqsadlariga erishish yo'llarini tushunish, talabalarining o'quv-bilish faolligini oshirish, talabalarining shaxs sifatida o'z - o'zini rivojlantirish orqali jamiyat va mustaqil hayotga moslashuvi ijtimoiylashuvi kabi ustuvor yo'nalishlarni muljallashni nazarda tutish zarur.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi 5117-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktyabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4851-son Qarori
3. URL: <https://lex.uz/docs/5032128>.
4. Usmankulov Sh.U. Development of professional-pedagogical competence in future it teachers in the integration of humanitarian and natural-scientific, general professional courses // World Bulletin of Social Sciences: An International Journal – German, 2022-№16.-P.
5. Рахимова Н. Х. К. (2019). Методы используемые в международной практике в обучении и оценки информационных технологий в образовании. In Высшее и среднее профессиональное образование как основа профессиональной социализации обучающихся (pp. 406-409).



Marjan JANBAYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: janbaeva.m@cspi.uz

PhD O'Farmonov taqrizi asosida

THEORETICAL PRINCIPLES OF FORMING THE PROFESSIONAL MOBILITY OF FUTURE PRIMARY EDUCATION TEACHERS

Annotation

Although the processes of transformation of educational paradigms in the world, on the one hand, have common trends, on the other hand, they are characterized by the principles of specificity. Any changes in public life also lead to certain changes in the primary education system. The globalization of education and professional mobility around the world poses the problem of ensuring the movement of citizens in accordance with the new era.

Key words: Professional mobility, professional activity, activity, competence, mobility, development, self-development, professional mobility of the teacher.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Хотя процессы трансформации образовательных парадигм в мире, с одной стороны, имеют общие тенденции, с другой стороны, они характеризуются принципами специфичности. Любые изменения в общественной жизни также приводят к определенным изменениям в системе начального образования. Глобализация образования и профессиональной мобильности во всем мире ставит проблему обеспечения передвижения граждан в соответствии с новой эпохой. **Ключевые слова:** Профессиональная мобильность, профессиональная деятельность, активизм, компетентность, мобильность, развитие, саморазвитие, профессиональная мобильность преподавателя.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASBIY MOBILIGINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Аннотация

Jahonda kechayotgan ta'lim paradigmalarning o'zgarish jarayonlari bir tomondan umumiy tendensiyalarga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan u xususiylik tamoyillari bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy hayotdagi har qanday o'zgarishlar boshlang'ich ta'lim tizimida ham muayyan o'zgarishlarga olib keladi. Dunyo bo'ylab ta'lim va kasbiy mobillikning globallashuvi fuqarolarning yangi davrga mos harakatini ta'minlash muammosini keltirib chiqarmoqda. Kasbiy professionallikning o'zgarigan zamonga xos xususiyatlaridan biri uning mobilligi bo'lib, bu o'z navbatida, har qanday shaxsning ichki, shaxsiy-psixologik va tashqi amaliy faoliyatidagi o'zgarishlarga moslashish zaruriyatini dolzarb qilib qo'yadi.

Kalit so'zlar: Kasbiy mobillik, kasbiy faoliyat, faoliyat, kompetensiya, harakatchanlik, rivojlanish, o'z-o'zini rivojlantirish, o'qituvchining kasbiy harakatchanligi.

Kirish. XX asr oxiri-XXI asr boshlarida jamiyat hayotning barcha sohalarini: iqtisodiyot, ishlab chiqarishni, ijtimoiy aloqalarni va ularning dinamikasini, siyosiy o'zaro ta'sir usullarini, qadriyatlarni o'zgartirgan chuqur o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Zamonaviy jamiyat dinamik ravishda o'zgarib, har bir inson oldiga yangi vazifalar qo'ymoqda. Doimiy yangilanib turadigan ma'lumotlar jamiyatning o'zgaruvchanligi esa insonlardan moslashuvchanlikni, yangi sharoitlarga tez moslashish qobiliyatini, faollikni, ya'ni harakatchanlikni talab qiladi.

“Harakatchanlik” tushunchasi (lotincha mobilis – harakatchanlik) tez harakat qilish, harakat qilish qobiliyati sifatida tushuniladi.

Sotsiologiyada Pitirim Sorokin tomonidan birinchi marta chuqur nazariy jihatdan tushunilgan “ijtimoiy harakatchanlik” tushunchasi qo'llaniladi.

Ushbu atama ijtimoiy fanga 1927 yilda kiritilgan [1]. Muallif kasbiy harakatchanlikni “shaxs yoki ijtimoiy obyektning (qiymatning) har qanday o'tishi, ya'ni inson faoliyati tomonidan yaratilgan yoki o'zgartirilgan barcha narsalar” deb ta'riflagan. Keyinchalik, bu ta'rif u tomonidan o'zgartirilib “shaxsning ijtimoiy makon ichidagi harakatdagi hodisasi” deb ta'riflagan [1]. Aynan shu harakatchanlik tushunchasi bugungi kunda ta'lim sohasida ham qo'llanilmoqda.

Pedagogik harakatchanlikning bir nechta turlari mavjud bo'lib bularning eng asosiysi vertikal va gorizontal harakatchanlikdir.

Gorizontal harakatchanlik “shaxs yoki o'qituvchining bir jamodagi bir darajadan boshqa darajaga o'tishi” deb tushuniladi [1]. Bu kasbi, oilaviy ahvoli va hokazolarning o'zgarishi bilan bog'liq o'zgarishlardir. Vertikal harakatchanlik deganda “shaxs yoki o'qituvchining bir ijtimoiy qatlamdan ikkinchisiga o'tganda paydo bo'ladigan munosabatlar tushuniladi. Vertikal harakatchanlik mehnat faoliyatining ko'tarilishi va tushish yo'nalishlarida ham amalga oshirilishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'qituvchining kasbiy harakatchanligiga kelsak, tizimli yondashuv o'qituvchining kasbiy harakatchanligini rivojlantirish tizimining asosiy elementlarini aniqlash, tizimning tuzilishini aniqlash, tizimning individual darajalari va elementlarining funksiyalarini ajratib ko'rsatish, uning yaxlit ishlashini birgalikda ta'minlashni anglatadi.

Kompetensiyaviy yondashuv “o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi” va “o'qituvchining kasbiy harakatchanligi” tushunchalari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni o'rnatishni nazarda tutadi; rivojlanish uchun o'qituvchilar tayyorlash mazmunini talqin qilish uning kasbiy harakatchanligi, o'qituvchining kasbiy harakatchanligini baholash usullarini asoslash bilan belgilanadi. O'qituvchi shaxsining ijodkorligi bu uning o'z faoliyatiga bo'lgan munosabatlarda, barqarorlikda, faollikda, qobiliyatlarida,

mahoratlarida taraqqiy etadi va natijalarga erishishi bilan ajralib turadi.


“Kompetensiya” tushunchasi interaktiv bo‘lib, quyidagilarni nazarda tutadi: shaxsning ilgari yashirin potensial kompetensiyasi talab qilinishi va dolzarb bo‘lishi mumkin bo‘lgan haqiqiy aniq vaziyatning mavjudligi [2;3]. O‘qituvchining umumiy tayyorligi mustaqil muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi, o‘quv jarayonida olingan bilim, ko‘nikma, tajriba, qadriyatlar va moyilliklarning hal qiluvchi rolini o‘ynaydi. Biz kompetensiyani tushunish uchun uning mazmunini ochib beradigan psixologik va pedagogik asoslarni sintez qilsak kompetensiyaning mohiyati barchani safarbar qilishda ifodalangan tayyorlik orqali aniqlanadi.

Bo‘ljak o‘qituvshilarda shaxsiy-individual sifatlarini rivojlantirishda kompetensiya tushunchasi bilan bog‘liq holda, sub‘ektiv tushunsha sifatida qarash muhim hisoblanadi [4]. Demak, kompetensiya bo‘ljak o‘qituvshining individual sifatlarini rivojlantirish muammosini ko‘rib shiqishni maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Ma‘lumki, kompetensiya tushunshasini bo‘ljak o‘qituvshi shaxsining sifatlariga qo‘yiladigan, unga muayyan faoliyat sohasidagi hayotiy vazifalarni samarali eshishda

imkon beradigan ob‘ektiv talab sifatida qarash muhim hisoblandi. Bu borada respublikamizdagi olimlari ham o‘z tadqiqot ishlarini olib borgan [5;6]. (1-rasm)

Tadqiqot metodologiyasi. Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda “kompetensiya” tushunchasi talqiniga olim Ms.Slelland[7] tomonidan XX asrning 70 yillarida o‘z tadqiqotlarida foydalanilgan. Slelland o‘zining “Testing for Sompetense Rather Than Intelligense” maqolasida bo‘ljak kadrlarning qobiliyatleri va sohaga oid bilimlari hamda tajriba sinovlari samarali ish natijalarini amaliy faoliyatga tadbiiq etish asnosida muvaffaqiyatga erishish masalalariga to‘xtalib o‘tgan. Slelland tadqiqot natijalarida ta‘lim va ish samaradorligini bashorat qiladigan va irq, jins va ijtimoiy-iqtisodiy omillarni o‘z ishiga olmaydigan o‘zgaruvshi “kompetensiya”larni aniqlaydigan ta‘limi usullarni izlagan hamda tadqiq qilagan[8].

Pedagogik faoliyatga nisbatan “pedagogik harakatchanlik” tushunchasi adabiyotda insonning o‘quv jarayonining boshqa subyektlari: talabalar, ota-onalar, hamkasblar, ma‘muriyat, sheriklar, jamiyat vakillari bilan faoliyatni tashkil etish qobiliyati sifatida ham qo‘llaniladi[9].



1-rasm. Respublikamiz olimlari talqinida kompetensiya va kompetentlik masalari

Mehnat bozoridagi mavjud vaziyat, o‘qituvchi kompetentligi talablarning ortishi, kasbiy faoliyatni standartlashtirish va intensivlashtirish hodisalari o‘qituvchining shaxsiy kasbiy harakatchanligi kabi shaxsiy sifatini shakllantirish zarurligiga olib keladi. Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisining vertikal va gorizontal kasbiy harakatchanligini ajratib turadi. Birinchisi kareraning o‘shishi bilan ko‘proq bog‘liq bo‘lsa, ikkinchisi esa xodimning samarali ishlash qobiliyati sifatida tushuniladi ish muhitini o‘zgartirish bilan bog‘liq hisoblanadi.

Kasbiy harakatchanlikning jihatlaridan biri bu ish joyining o‘zgarishi, faoliyat turlari yoki mehnat operatsiyalari tufayli xodimning ish holatining o‘zgarishiga bog‘liqdir. Mehnat funksiyalarining kengayishi va o‘qituvchining kasbiy faoliyat turlarining tez o‘zgarishi bo‘yicha aniq zamonaviy tendensiyalardan kelib chiqqan holda, kasbiy pozitsiyani ma‘lum bir o‘zgartirish muammosini aktualashtiradi. Kasbiy bilimlar har doim insonni o‘rab turgan makro va mikro sohalar ta‘siri ostida amalga oshiriladi va bu sohalarida yuz beradigan o‘zgarishlarga duch keladi. Kasbiy etikaga rioya qilish, individual ijtimoiy javobgarlik, ichki nazorat lokusi(o‘z hayotidagi voqealarning sabablarini tashqi sharoitda emas, balki o‘zida ko‘rish istagi), mazmun yaratish, ichki dialogik, etarli darajada o‘zini o‘zi qadrlash va o‘zini tabaqalashtirilgan baholashga tayyorlik kabi shaxsiy xususiyatlar.

Tahlil va natijalar. Kasbiy mobillik o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyati orqali takomillashtiriladi va natijada o‘qituvchining kasbiy harakatchanligini rivojlantirishga asos bo‘ladi. O‘qituvchining kasbiy faoliyatida o‘z-o‘zini anglash, o‘zini aks ettirish va o‘zini hurmat qilish muhim rol o‘ynaydi. Pedagogika universitetining vazifasi o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj va istakni shakllantirish usullari va vositalarini tanlash va bo‘ljak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisini ular bilan metodik qurollantirishdan iborat. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalar bunday qobiliyatga ega emaslar.

Birinchidan, talabalar kasbiy harakatchanlik haqida aniq tushunchaga ega emasligi: farnlarning 70% bu tushunchani shakllantirishga qaratilmaganligi, bu talabalarning zamonaviy ta‘lim paradigmasining asosiy qoidalarini bilmasligini ko‘rsatadi, shu bilan birga, respondentlar “kasbiy harakatchanlik” tushunchasi bilan tanishish istagini bildirdiganligi va o‘z kasbiy sohasini to‘liq bilishi hamda o‘zini doimiy ravishda rivojlantirishi kerakligini tushundi.

Ikkinchidan, professional harakatchanlikni rivojlantirish uchun aniq maqsadlarga ega bo‘lish muhimdir. So‘rov shuni ko‘rsatdiki, ko‘pchilik talabalar o‘rtacha rivojlanish darajasida, ya‘ni ular o‘z kareralarida nimaga erishmoqchi ekanliklarini aniq bilishadi, shuning uchun ma‘lum bir maqsadga erishish, o‘zgarishni o‘z ichiga olgan holda kasbiy harakatchanlikni o‘zlashtirish lozimligini angladi. So‘rovda qatnashgan talabalarning ko‘pchiligiga yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo‘lish istagini bildirgan. Shunisi e‘tiborga loyiqki, talabalar kasbiy kompetensiyani birinchi o‘ringa qo‘yadilar. Kasbiy kompetensiyalar, kasbiy harakatchanlikning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, bo‘ljak o‘qituvchiga samarali kasbiy faoliyatni ta‘minlaydi va kasbiy pedagogik ta‘limning strategik maqsadini ifodalaydi.

Uchinchidan, professional pedagogik vazifalarni hal qilish jarayonida o‘zining kasbiy pedagogik faoliyatini tahlil qila oladigan, nostandart kasbiy qarorlar qabul qila oladigan professional mobil bo‘lish, o‘quv jarayonining pedagogik vazifalarini zudlik bilan hal qilish qobiliyati kasbiy harakatchanlikni shakllantirishning zaruriy sharti ekanligini anglashdan iborat.

To‘rtinchidan, so‘rovda qatnashgan talabalar doimiy kasbiy o‘shish zarurligini tushunishdi, bu esa keyingi kasbiy rivojlanish imkoniyatidan dalolat beradi. Talabalar so‘rovnomalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich ta‘lim bo‘yicha bakalavr darajasini olishdan maqsad yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash, o‘z shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, kasbiy kompetensiya va o‘z-o‘zini tarbiyalash darajasini aniqlash bilan bog‘liqdir.

Bu shuni ko‘rsatadiki, talabalar kasbiy harakatchanlikni shakllantirishda dastlabki so‘rovnomalarga ko‘ra, talabalar kasbiy harakatchanlik asoslarini bilmasdan, bu jarayonning takomillashishi qiyin bo‘ladi. Natijada ushbu vaziyatdan chiqish yo‘li talabalarning kasbiy harakatchanlik asoslarini rivojlantirish motivatsiyasini shakllantirish kerakligini anglatadi.

Muhokama. O‘qituvchi pedagogik mahoratini aql-idroki, tafakkuri, kasbiy faoliyatisiz yaratib va takomillashtirib bo‘lmaydi. O‘qituvchi kasbiy faoliyatining har qanday turida ayni bir vaqtning o‘zida uning ham aqliy, ham jismoniy mehnati obyektiv ravishda ishtirok etadi. Kasbiy faoliyat o‘qituvchi hayotini negizi hisoblanadi. O‘qituvchi miyasida har qanday fikr, hech qanday qarash va tushuncha o‘z-o‘zidan tug‘ilmaydi

hamda rivojlanmaydi. Balki ularning hammasi ma'lum darajada ijodiy fikrlar bilan bog'langan.

Inson yoki jamoaviy faoliyat shakli - avval mavjud bo'lmagan ammo sifat jihatidan yangisini yaratish, rag'batlantirish yo'li hisoblanadi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvshilarida kasbiy mobillikni shakllantirishda ta'limning ishki-muhiti ya'ni o'zaro aloqa shegaralarini tashkil etuvshi tahliliy qiymatlar soxasi alohida o'rin tutadi. Mavjud tadqiqotlarda oliy ta'lim muassasalari bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvshilarining kasbiy mobilligini shakllantirishdan maqsad mustaqil-tanqidiy fikrlash, o'z ustida ishlash qobiliyatiga ega, motivatsion-kognitiv tafakkur tarzi ham bo'lajak o'qituvshining alohida harakatchanligini aniqlashtirishda muhim o'rin tutadi. Masalan, bo'lajak o'qituvshilarning kasbiy mobilligini shakllantirishda – shaxsiy-kasbiy qobiliyati, mustaqil o'z ustida ishlashi va shaxsiy rivojlanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jumladan, olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida u yoki bu o'quv faoliyati natijasida, bo'lajak o'qituvshining o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari hamda kasbiy yo'nalganlikka o'qitishda mustaqil yo'naltirish masalalari tahlil etish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, o'rganilgan ilmiy va pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mustaqil o'zlashtirish orqali bo'lajak o'qituvshi o'z faoliyat sohasida shaxsining mustaqil fikrlashi bilan bog'liq holda kasbiy mobilligini shakllantirish muammolari, xususan, kompetentli yondashish nuqtai nazaridan etarli darajada o'rganilmaganligini keltirib o'tishni ham joiz deb topdik.

Xulosa va takliflar. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy mobilligini shakllantirish oliy o'quv

yurtlarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarish, mustaqil bilim olish, izlanish, har bir fanni ongli ravishda mukammal o'rganish usullari va yo'llarini bilib olish, o'z bilimini rivojlantirish xususiyatlarini takomillashtirish bilan bog'liq.

Kasbiy mobillikni o'zlashtirish talabalarning yuksak madaniyatini shakllantirish, ta'limning vosita va metodlarini egallash, o'z vaqtini oqilona sarflash va rejalashtirish, muvaffaqiyatli bilim olishi, kasbiy shakllanishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash hamda o'zlashtirishda katta yordam beradi. Kasbiy mobillik talabalarda uyushqoqlik, intizom, tashabbuskorlik, iroda, fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini o'stiradi, mustaqil fikr yuritishga o'rgatadi, o'z mustaqil ish uslubini hosil qilishga imkon beradi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy mobilligini shakllantirish ta'limning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda har bir talaba o'qitilayotgan fanlarni chuqur egallash va mushohada qilish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, shu soha bo'yicha qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish, mavzuga oid turli qarashlar, yondashuvlarni taxlil qila olish, mavzuda bildirilayotgan masalalar haqida o'z munosabatini dadil va malakali ifodalay olish, mavzuga doir referat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyalarini yozish tajribalarini o'zlashtirib olish kabilarni to'g'ri tashkil etishi, bo'sh vaqtini unumli sarflashga xizmat qilish, tegishli fanga oid ilmiy va maxsus adabiyotlar hamda boshqa manbalar bilan ijodiy ishlash faoliyatlarini takomillashtirish bilan tanishish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR

1. Uorner L. Социальный класс и социальная структура. URL: <http://ecsocman.hse.ru/data/249/895/1231/005uorner.pdf> (дата обращения 12.09.2021).
2. Qo'ysinov, O. (2019). Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari. Ped.fan.dok. diss.
3. Савенков, А. (2006). Психологические основы исследовательского подхода к обучений. Ос – 89
4. Pardabaev J.E. (2020). O'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda maktabdan tashqari, umumiy o'rta va professional ta'lim uzviyligi. Kasb hunar ta'limi jurnali 2023 yil 6-son. 203-209 betlar.
5. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy - metodik asoslari.: Ped.fan.dokt. ... diss. - T.: 2007. - 45 b.
6. G'oziyev E.G'., Mamedov K.Q.. Kasb psixologiyasi. Toshkent: TDAU, 2003 y. 154 b.
7. Winter, D. G., Stewart, A. J., & McClelland, D. C. (1977). Husband's motives and wife's career level. Journal of Personality and Social Psychology, 35(3), 159–166.<https://doi.org/10.1037/0022-3514.35.3.159>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son. https://lex.uz/law_collection
9. Биктуганов, Ю. И. Культура здоровья – путь к профессиональной мобильности учителя [Текст] // Физическая культура в личностно-профессиональном развитии студента и его образе жизни: науч. тр. междуна. научно-практ. конф. – М. : МПГУ, 2013. – С. 39–42 (0,3 п. л.)



UDK: 004.738.5:371.3

Dostonbek JUMONAZOROV,
International School of Finance Technology and Science instituti o'qituvchisi
E-mail: dostonbek.jumanazarov1994@gmail.com

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, DSc V.Jo'rayev taqrizi asosida

INCREASING THE PEDAGOGICAL EFFICIENCY OF ELECTRONIC LEARNING COURSES USING THE ARTICULATE SOFTWARE

Annotation

This article examines the issues of improving the pedagogical effectiveness of electronic training courses using the Articulate program. The article provides information about the possibilities and advantages of software, pedagogical theories, and the impact of interactivity on the educational process. There are also examples and recommendations about the stages of creating e-learning courses and how to optimize student performance through them. Research results show that courses created with Articulate software make the learning process interesting and effective for students, they improve interaction and feedback systems.

Key words: E-learning, software, articulate software, interactivity, online learning, multimedia tools, user interface, educational resources, digital technologies, slides, simulation.

ПОВЫШЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ КУРСОВ ЭЛЕКТРОННОГО ОБУЧЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ ПРОГРАММЫ ARTICULATE

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы повышения педагогической эффективности курсов электронного обучения с помощью программы Articulate. В статье представлена информация о возможностях и преимуществах программного обеспечения, педагогических теориях и влиянии интерактивности на образовательный процесс. Также приведены примеры и рекомендации о этапах создания курсов электронного обучения и о том, как с их помощью можно оптимизировать успеваемость студентов. Результаты исследования показывают, что курсы, созданные с использованием программы Articulate, делают процесс обучения студентов увлекательным и эффективным, улучшая системы взаимодействия и обратной связи.

Ключевые слова: Электронное обучение, программное обеспечение, программа articulate, интерактивность, онлайн обучение, мультимедийные средства, пользовательский интерфейс, учебные ресурсы, цифровые технологии, цифровые технологии, симуляция.

ARTICULATE DASTURI YORDAMIDA ELEKTRON O'QUV KURSRLARNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada Articulate dasturi yordamida elektron o'quv kurslarining pedagogik samaradorligini oshirish masalalari ko'rib chiqilgan. Maqolada dasturiy ta'minotning imkoniyatlari va afzalliklari, pedagogik nazariyalar va interaktivlikning ta'lim jarayoniga ta'siri haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, elektron o'quv kurslarini yaratishning bosqichlari va ular orqali talabalar faoliyatini qanday optimallashtirish mumkinligi haqida misollar va tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Articulate dasturi yordamida yaratilgan kurslar talabalarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi, ular o'zaro faoliyat va qayta aloqa tizimlarini yaxshilaydi.

Kalit so'zlari: Elektron ta'lim, dasturiy ta'minot, Articulate dasturi, interaktivlik, onlayn o'qitish, multimedia vositalari, foydalanuvchi interfeysi, o'quv resurslari, raqamli texnologiyalar, slaydlar, simulyatsiya.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayoni yangi texnologiyalar va dasturiy ta'minotlardan keng foydalanishni talab qilmoqda. Ayniqsa, elektron o'quv kurslari talabalarga bilim olish jarayonini yanada qulay va samarali qilish imkonini beradi. Elektron o'quv kurslari nafaqat bilimlarni yetkazib berishning yangi usulini taqdim etadi, balki talabalar va o'qituvchilar uchun interaktiv va individual yondashuvlarni ham taklif etadi.

Articulate dasturi ushbu maqsadga erishishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu dastur orqali yaratilgan elektron o'quv kurslari interaktivlik, multimedia resurslarini qo'llash va moslashuvchanlik kabi jihatlar bilan ajralib turadi.

Ushbu maqolaning maqsadi – Articulate dasturi yordamida elektron o'quv kurslarining pedagogik samaradorligini oshirish yo'llarini o'rganish va tahlil qilishdir. Maqolada dasturiy ta'minotning imkoniyatlari, interaktivlik va multimedia resurslarining ahamiyati, shuningdek, o'quv kurslarini yaratish jarayonining bosqichlari ko'rib chiqiladi.

Pedagogik samaradorlikni oshirish uchun yangi texnologiyalarni qo'llash nafaqat talabalar uchun, balki o'qituvchilar uchun ham o'zaro aloqani yaxshilash va bilim olish jarayonini qiziqarli qilish imkonini beradi. Shu sababli, Articulate

dasturi orqali yaratilgan elektron o'quv kurslari ta'lim sifatini oshirishda katta rol o'ynashi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Elektron o'quv kurslarini yaratishda pedagogik va texnologik yondashuvlarni birlashtirish katta ahamiyatga ega. Articulate dasturi yordamida yaratilgan kurslar interaktivlik, multimedia va individual yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash orqali ta'lim samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Mavzu doirasida R.C.Clark va R.E.Mayerlar tomondan yozilgan kitobda elektron o'quv kurslarini yaratishda pedagogik va texnologik yondashuvlarni yoritishgan. Mualliflar ta'lim samaradorligini oshirish uchun multimedia va interaktivlikning ahamiyatini ko'rsatadi. W.Horton tomondan yozilgan kitobda elektron o'quv kurslarini loyihalash jarayonida qanday yondashuvlar va usullardan foydalanish kerakligini tushuntirib o'tgan. C.Pappas tomondan yozilgan kitobda Articulate Storyline dasturining asosiy funksiyalari va imkoniyatlarini ta'riflaydi. Kurs yaratish jarayonida qanday qilib interaktivlik va multimedia elementlaridan foydalanishni o'rgatadi. M.Wright tomondan kitobda Storyline yordamida interaktiv va samarali o'quv kurslarini yaratish bo'yicha amaliy tavsiyalar va ko'rsatmalar berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Elektron darslik — kompyuter texnologiyalariga asoslangan ta'lim metodlaridan foydalanishga mo'ljallangan o'qitish vositasi bo'lib, undan mustaqil ta'lim olishda o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslikda fanning o'quv materiallari talabaga interfaol usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o'rinni foydalaniladi [1]. Shuni inobatga olib elektron o'quv kurslarining pedagogik samaradorligini oshirishga mo'ljallangan juda ko'plab onlayn resurslar mavjud. Ular o'zlarining funksionalligi bo'yicha o'xshash bo'lishi mumkin va bir-biridan funksionallik va interfeys jihatidan farq qilishi mumkin. Ba'zi xizmatlar juda tez o'zlashtirilishi mumkin, ba'zilar esa ularda ishlashni o'rganish uchun ko'p mehnat qilishlari kerak. Ammo bu yoki boshqa usulda, ularning har biri o'ziga xos, qiziqarli va foydalidir. Bitta xizmat yordamida biz tez va samarali viktorina yaratishimiz mumkin. Yana bir xizmat krossvordlari tuzishda bizga yordam beradi. Ammo baribir, ehtimol, har birimiz har qanday vaziyatda bizga yordam beradigan didaktik materiallari yaratish uchun shunday vositaga ega bo'lishni xohlaymiz va biz uni universal deb atashimiz mumkin [2].

Shunday dasturlar qatoriga kiruvchi Articulate dasturini olishimiz mumkin bo'ladi bu dastur yordamida eLearning (onlayn

1-jadval: Articulate va boshqa e-Learning dasturlar bilan solishtirish.

Xususiyatlar	Storyline 360	PowerPoint
Asosiy maqsad	Interaktiv eLearning kurslarini yaratish	Slayd taqdimotlar yaratish
Interaktivlik	✓ Testlar, animatsiyalar, viktorinalar, drag-and-drop	✗ Oddiy slaydlar va animatsiyalar
SCORM/xAPI eksporti	✓ Ha, LMS tizimlari bilan mos	✗ Yo'q
Responsive dizayn	✓ Qurilmaga moslashuvchan dizayn	✗ Cheklangan
O'zgaruvchilar va triggers	✓ Ha, interaktivlikni boshqarish uchun	✗ Yo'q
Video va audio qo'llab-quvvatlashi	✓ Ha, murakkab tahrirlash imkoniyati bilan	✓ Ha, ammo cheklangan
PowerPointdan import qilish	✓ Ha, PowerPoint fayllarini o'qiy oladi	—
Simulyatsiyalar yaratish	✓ Ha, interaktiv o'yin va mashqlar	✗ Yo'q
Ekran yozib olish	✓ Ha, video tutorial yaratish mumkin	✗ Yo'q
Animatsiyalar	✓ Murakkab animatsiyalar	✓ Ha, lekin sodda
Foydalanish osonligi	□ Biroz murakkab	✓ Juda oson

Rise 360 – kod yozmasdan veb-asosida eLearning kurslarini yaratish uchun mo'ljallangan platforma. Drag-and-drop interfeysi tufayli kurslar tez va oson tayyorlanadi.

Review 360 – bu kurslarni jamoa a'zolari yoki mijozlar bilan birga ishlash jarayonida fikr almashinish uchun platforma.

Replay 360 – ekranni yozib olish va video darsliklar tayyorlash uchun ishlatiladigan dastur.

Peek 360 – tezkor ekran yozuvlarini tayyorlash uchun vosita.

2-jadval: Articulate Storyline va Storyline 360 o'rtasidagi asosiy farqlar quyidagilar:

Xususiyatlar	Articulate Storyline (avvalgi versiyalar: Storyline 1, 2, 3)	Storyline 360
Litsenziya	Bir martalik xarid (doimiy litsenziya)	Yillik obuna (Articulate 360 to'plami tarkibida)
Yangilanishlar	Faqat sotib olingan versiya ichida mavjud	Doimiy yangilanishlar va yangi funksiyalar
Cloud (bulut) integratsiyasi	Yo'q	Ha, Articulate 360 ekotizimi bilan integratsiyalagan
Rise 360 bilan bog'liqlik	Yo'q	Ha, Rise 360 va boshqa Articulate vositalari bilan birga ishlaydi
Team Collaboration	Yo'q	Ha, Team Slides va bulutdagi fayllar bilan ishlash
SCORM, xAPI, AICC formatlari	Ha	Ha
Moslashuvchan kontent	Qo'lda sozlanadi (Responsive dizayn yo'q)	Responsive Player orqali moslashuvchan interfeys

Shuni aytishimiz joizki, hozirgi zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish ancha ustunliklarni yuzaga keltirmoqda. Elektron o'quv kurslarining pedagogik samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturiy vositalarni yaratishda ko'plab ya'ni — didaktik, metodik, psixologik, texnik, tarmoq, estetik, ergonomik va maxsus talablar qo'yiladi. Hamda elektron o'quv kurslarining pedagogik samaradorligini oshirishda foydalanuvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

3-jadval: Articulate va boshqa eLearning dasturlar bilan solishtirish.

Xususiyat	Articulate 360	Adobe Captivate	iSpring Suite	Camtasia
Oson interfeys	✓ Ha	✗ Murakkab	✓ Ha	✓ Ha
PowerPoint bilan integratsiya	✗ Yo'q	✗ Yo'q	✓ Ha	✗ Yo'q
LMS formatlari	✓ SCORM, xAPI	✓ SCORM, xAPI	✓ SCORM	✗ Yo'q
Mobil moslashuvchanlik	✓ Ha	✓ Ha	✓ Ha	✗ Yo'q
Ekran yozib olish	✓ Ha (Replay 360)	✓ Ha	✓ Ha	✓ Ha

Demak, agar siz interaktiv kurslar yaratmoqchi bo'lsangiz, Articulate 360 eng yaxshi dasturlardan biri. Agar siz faqat video darsliklar tayyorlamoqchi bo'lsangiz, Camtasia yoki iSpring Suite ham yaxshi variant bo'lishi mumkin.

Biroq, Articulate dasturining ba'zi kamchiliklar ham mavjud bo'lib buni ham aytib o'tishimiz lozim:

Raqamli transformatsiya hozirgi kunda ko'pgina sohalariga ta'sir etuvchi dolzarb jarayon hisoblanadi. Raqamlashtirish jadallashib borayotgan zamonda texnologik yechimlarni faol hal qilish uchun har qanday sohada raqobatbardosh bozorni saqlab qolish muhimdir. Shuningdek, turli sohalarni birlashtirish, infratuzilmani optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, raqamli transformatsiya jamiyatga ham ta'sir qilmay qolmadi. Professional ta'lim bundan mustasno emas. Tadqiqotimizning asosiy maqsadi kasbiy ta'limdagi raqamli

transformatsiyaning mavjud holatiga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat.

Ta'limda raqamli transformatsiya – bu raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish orqali uni takomillashtirish va samaradorligini oshirishni nazarda tutuvchi jarayon. Ushbu jarayonning asosiy maqsadi ta'lim berishning an'anaviy usullarini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish va talabalarning shaxsiy salohiyatini maksimal rivojlantirishga yordam berishdir.

Raqamlashtirish va global internet tarmog'i deyarli hayotning barcha sohalarini qamrab olgan bugungi kunda, ishga qabul qilishda asosiy omillardan biri insonning raqamli ko'nikmalarga egaligi hisoblanadi. Bu ko'nikmalar orqali faoliyatdagi topshiriqlarini samarali va tezkor bajarish mumkin, bu esa shaxsning muvaffaqiyatli bo'lishi va mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanishiga yordam beradi [2].

Oliy ta'lim tizimida o'quv fanlarining raqamli vositalar bilan ta'minlanishi talabalarning fikrlarini faollashtirishga yordam beradi. O'quv kursi bo'yicha vizual va jonli multimedia ta'minoti bilimlarni turli usullarda (vizual, audial va boshqalar) qabul qilish imkonini beradi.

Mutaxassislarini tayyorlashda raqamli transformatsiyalar foydalanish muhim ahamiyatga ega, chunki ushbu sohada mutaxassislik fanlari bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lmasdan, yuqori natijalarga erishish juda qiyin. Shu sababli, oliy ta'lim tizimida o'quv jarayonini raqamli texnologiyalar orqali ta'lim berish vositalari, metodlari va o'quv dasturlari bilan ta'minlash

muhim masalaga aylanmoqda, bu esa ta'lim muassasasi, pegasog va pedagoglarning malakasini oshirish tizimini global va milliy talablarga moslashtirib, raqamli texnologiyalar sohasida ko'mak berish, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish va shakllantirishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Raqamli transformatsiya sharoitida, kasbiy vazifalar va ta'lim metodologiyalari xarakterining chuqur o'zgarishi bilan bog'liq holda, ushbu kompetensiyalar zamonaviy sharoitlarga moslashtirilishini va qayta ko'rib chiqilishini talab etadi.

Raqamli transformatsiya, ishlash usullari va ta'lim yondashuvlarini tubdan o'zgartirib, ushbu kompetensiyalarni qayta ko'rib chiqishni va yangilashni talab qiladi. Shuningdek, mutaxassislar zamonaviy raqamli dunyo talablariga muvaffaqiyatli moslasha olishlari uchun tayyorlanishlari lozim. Raqamli texnologiyalarni ta'limga integratsiya qilish ta'lim metodikalarini modernizatsiya qilishni va o'quv dasturlariga raqamli vositalarni kiritishni nazarda tutadi. Bu interaktiv o'qitish usullarini joriy etishni va ta'lim muassasalarini tadqiqot platformasi sifatida yaratishni o'z ichiga oladi [3]. Raqamli savodxonlik asosiy ahamiyatga ega bo'lib, ma'lumotlarni qayta ishlash ko'nikmalari va texnologik kompetentlikni o'z ichiga oladi. Ushbu kompetensiyalar raqamli dalillar va huquqiy texnologiyalar bilan ishlaydigan yuridik mutaxassislar uchun zarur [4]. Talabalarda zarur kompetensiyalarni rivojlantirishni ta'minlash uchun zamonaviy raqamli ta'lim raqamli vositalar va o'qitish usullarini o'z ichiga olishi lozim. Raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

raqamli savodxonlik va raqamli faoliyatni tartibga soluvchi qonunlarga urg'u berilgan holda ta'lim dasturlarini yangilash;

interaktiv o'qitish usullaridan foydalanish, masalan, yuridik holatlarni modellashirish va raqamli texnologiyalar yordamida amaliy vazifalarni bajarish.

Raqamli transformatsiya sharoitida mutaxassislarni tayyorlashning eng muhim vazifalaridan biri bu zamonaviy tarmoq talablariga mos keladigan professional-raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishdir. Ushbu kompetensiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Raqamli madaniyat: Zamonaviy raqamli texnologiyalarni va ularning jamiyatga ta'sirini tushunish. Mutaxassislar texnologiyalar insonning dunyoqarashi va xatti-harakatlarini qanday shakllantirishini tushunishlari va bu bilimlarni etik va foydali yechimlarni ishlab chiqishda qo'llashlari kerak.

O'z-o'zini rivojlantirish: AT sohasi tez o'zgarib borayotganligi sababli, o'z-o'zini o'rgatish va doimiy ravishda bilimlarni takomillashtirish muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun zarur ko'nikmaga aylandi. Mutaxassislar yangi dasturlash tillari, vositalar va texnologiyalarni butun kasbiy hayoti davomida o'rganishga tayyor bo'lishlari kerak.

Boshqaruv ko'nikmalari: Loyihalarni va jamoani boshqarish ko'nikmalari IT sohasida tobora muhim bo'lib bormoqda, chunki yirik loyihalar ustida ishlash ko'plab mutaxassislarning hamkorligini va resurslarni samarali taqsimlashni talab qiladi. Vaqt, byudjet va mahsulot sifati bilan boshqarish AT-loyihalarni muvaffaqiyatli yakunlashning asosiy jihatlari. Raqamli kompetensiyalar nafaqat texnologik bilimlarni, balki etik, madaniy va boshqaruv jihatlari ham kundalik kasbiy faoliyatga integratsiya qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi, bu mutaxassislarni bozorda yanada moslashuvchan va talab yuqori bo'lishiga yordam beradi.

Texnologiyaning jadal rivojlanishi hayotimizning turli jabhalarini, jumladan, ta'limni ham o'zgartirdi. Raqamli vositalar 1-jadval

Kino san'atining raqamli transformatsiyasi bosqichlari

Kino san'ati bosqichlari	Transformatsiya jarayoni
Film ishlab chiqarish: Analitikadan vizual effektlargacha	Bugungi kunda kino yaratish jarayoni axborot texnologiyalarisiz amalga oshirilmaydi. Ssenariyni ishlab chiqishdan boshlab, IT potensial tomoshabinlar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish, film muvaffaqiyatini bashorat qilish va hatto ishlab chiqarish byudjetini optimallashtirishga yordam beradi. Vizual effektlar (VEF) zamonaviy kino san'atining ajralmas qismi bo'lib, ular kompyuter grafikasi va maxsus dasturiy ta'minotga asoslangan. Hozirgi kunda jahon filmlaridan "Avatar" yoki "Yulduzli urushlar" kabi filmlar IT sanoatining ajoyib yutuqlari tufayli yuzaga keldi.

va platformalarning sinflarda integratsiyalashuvi ortib borayotganligi sababli, talabalar raqamli davrda muvaffaqiyatga erishish uchun raqamli kompetensiyalarga ega bo'lishlari kerak. Biroq, raqamli ko'nikmalarni An'anaviy tarzda o'rgatish ko'pincha yuqori natijaga erishish imkoniyati juda kam va talabalarning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlamaydi. Shu sababli, ushbu tadqiqot ishida artpedagogikadan foydalanish orqali talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyati ochib berilgan. Badiiy ifodani texnologiya bilan birlashtirgan holda, artpedagogika talabalarda raqamli ko'nikmalar, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun noyob va samarali yondashuvni taklif etadi.

Raqamli vositalar bilan uyg'unlashgan art pedagogika talabalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Raqamli san'at asarini yaratish axborotni tahlil qilish, sintez qilish va baholashni talab qiladi. Talabalar g'oyalarni aqliy hujumi, turli nuqtai nazarlarni o'rganishlari, tartib va dizayn bo'yicha qarorlar qabul qilishlari va o'z ishlarining samaradorligini tanqidiy baholashlari kerak. Ushbu jarayonda ishtirok etish orqali talabalar raqamli davrda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Konstruktiv fikr-mulohazalar va o'z-o'zini mulohaza yuritish orqali talabalar o'z ishlariga xolisona qarashni, yaxshilanishi kerak bo'lgan sohalarni aniqlashni va turli nuqtai nazarlarni qabul qilishni o'rganadilar.

San'at sohasining juda ko'p turlari mavjud. Bulardan hozirgi kunda eng muammoli va natijador turi kino san'atidir. San'atning yangi turi bo'lgan kinoning vujudga kelishi va rivojlanishi fan, texnika taraqqiyoti hamda ungacha bo'lgan san'at turlarining erishgan yutuqlari bilan bog'liqdir.

Tahlil va natijalar. Kinoning san'at turi sifatida shakllanishiga An'anaviy san'atlar ham juda katta hissa qo'shgan. Kino o'ziga xos bo'lgan barcha san'atlar tajribasini o'zlashtirgan holda shakllandi. Bu san'atlarning har biridan o'zining ifoda vositalarini rivojlantirishga yordam beradigan hususiyatlarni olishga intildi.

O'zbek badiiy kinosi shakllanishi endi boshlanib kelayotgan 1927 yilda Fitrat o'zining "San'atning manbai (kelib chiqishi)" nomli maqolasida "kino ham teatr singari oltita ajoyib san'at: raqs, musiqa, adabiyot, rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morlikdan kelib chiqqan: yoki boshqacha qilib aytganda: kino-oltita qadimiy ajoyib san'atning samarali mevasidir" [5], deb yozgan edi.

Oradan biroz vaqt o'tgach kino muayyan tajribaga ega bo'ldi, bu tajriba nazariy umumlashmalar qilish imkonini berdi va kino to'g'risida ko'plab asarlar yozgan S. M. Eyzenshteyn ham "kinodagi har bir unurning ildizlari boshqa san'atlarda yotadi", "chunki kinoning o'z-o'zidan vujudga kelish nazariyasi allaqachon o'z umrini yashab bo'lgan", "kinoning hususiyatlarini san'atning bir-biriga yaqin turlaridan qidirish kerak" [6], deb hulosalar chiqargan.

Kino o'zining shakllanishida bir-biriga yaqin san'atlardan tajribalarni singdirib olganligi bois qisqa vaqt ichida chinakam san'atga aylanishiga, An'anaviy san'atlar bilan bir safga turishga imkon yaratildi.

Kino va axborot texnologiyalari (IT) bir qarashda tabiatan butunlay boshqacha ko'rinadigan ikkita sohadir. Ulardan biri bizni hissiy jihatdan qamrab oladigan va turli olamlarga olib boradigan san'atdir. Boshqasi esa - axborotni yaratish va boshqarish uchun foydalaniladigan bilim va texnik ko'nikmalar to'plami. Ammo zamonaviy dunyoda bu ikki soha birlashib, kino tushunchasini va ishlab chiqarishni o'zgartiradigan ajoyib ittifoqni tashkil etdi.

Jahon tajribasiga ko'ra kino san'atining raqamli transformatsiyasi quyidagi bosqichlarda namoyon bo'ladi (1-jadval):

Tarqatish va marketing: oqimdan ijtimoiy mediagacha	Internet va raqamli platformalarning rivojlanishi bilan kino butunlay boshqacha tarzda tarqatiladi va targ'ib qilinadi. Netflix va Amazon Prime Video kabi striming platformalari kino bozorining asosiy o'yinchilariga aylandi va tomoshabinlarga filmlar va teleseriallarning ulkan kutubxonasidan foydalanish imkoniyatini berdi. Kino marketingi ham ijtimoiy tarmoqlar va onlayn reklama orqali inqilob qildi. Endi virusli treylerlar va interaktiv reklama kampaniyalarini yaratish odatiy holdir.
Tomoshabinlar ishtiroki: Ijtimoiy tarmoqlar va muxlislar bilan muloqot	Ijtimoiy media rejissyorlarga tomoshabinlar bilan ko'proq bog'lanish imkonini beradi. Tomoshabinlar filmlarni real vaqt rejimida muhokama qilishlari, o'z fikrlari va takliflarini bildirishlari, fan-muxlislar bilan muloqot qilishlari mumkin.
Ma'lumotlarni tahlil qilish va muvaffaqiyatni bashorat qilish	Ma'lumotlarni tahlil qilish kino ishlab chiqarish va marketing strategiyasining ajralmas qismiga aylandi. IT mutaxassislari filmning potentsial muvaffaqiyatini aniqlash, tomoshabinlar reaksiyasini baholash va reklama xarajatlarini optimallashtirish uchun katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalanadilar. Bu studiyalarga ko'proq asosli qarorlar qabul qilish va foydali loyihalarni yaratish imkoniyatlarini oshirish imkonini beradi.
Virtual va dasturiy ta'minot	Virtual va dasturiy ta'minotlar kinematografiya uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Virtual filmlar tomoshabingga syujetga kirib, uning bir qismiga aylanish imkonini beradi, dasturiy ta'minotlar esa atrofda dunyoga interaktiv elementlar qo'shadi. Ushbu texnologiyalar kino chegaralarini kengaytiradi va noyob vizual va hissiy tajribalarni taqdim etadi.

Xulosa va takliflar. Kino va axborot texnologiyalarining simbiozi filmlarni ishlab chiqarish, tarqatish va qabul qilishda inqilobiy o'zgarishlarga olib keldi. IT ssenariy yaratishdan tortib marketing kampaniyasigacha kino sanoatining har bir bosqichining ajralmas qismiga aylandi. Bularning barchasi kino ufqlarini kengaytirib, yanada qiziqarli va vizual tarzda ajoyib filmlar yaratish imkonini beradi. Kinoning kelajagi IT sohasidagi hamkorlikka tayanishda davom etadi va bu bizga yanada ajoyib hikoyalar va vizual durdonalarni olib kelishi mumkin.

Bunday katta o'zgarishlar kino san'atida ta'lim oluvchi yoshlarga hamda pedagogik jamoaga mavjud bilimlar bankini kengaytirish, IT bilimini oshirish, o'z ustida ishlash va sohaviy rivojlanish vazifasini yukladi.

San'at ta'limida raqamli transformatsiyani joriy etish quyidagi muammolarni hal etishda yordam beradi:

zamonaviy ta'limni tashkil etishda bog'lovchi bo'g'in sifatida qo'llash;

ta'limni boshqarish;

axborot texnologiyalari sohasini o'rganish va o'qitishning asosiy muhitini yaratish;

raqamli ta'lim resurslari uchun davlat xizmatlari tizimidagi xizmatlar almashinuvining asosiy kanali hisoblanadi.

Raqamli transformatsiyaning ta'limdagi asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat (1.1.2-rasmga qarang):

1. Axborot texnologiyalaridan foydalanish: Ta'lim jarayonini interaktiv qilish,


talabalarni ko'proq jalb qilish uchun kompyuterlar, planshetlar va turli ilova hamda platformalardan foydalanish.

2. Onlayn ta'lim: Masofaviy ta'limning rivojlanishi, talabalarga har qanday vaqt va makondan ta'lim olish imkoniyatini beradi. Onlayn kurslar, vebinarlar, va virtual sinflar bunda katta rol o'ynaydi.

3. Sun'iy intellekt: Bu texnologiyalar yordamida individual ta'lim dasturlari ishlab chiqish mumkin, bu esa talabaning shaxsiy ehtiyojlariga ko'ra ta'lim berish imkoniyatini yaratadi.

4. Tahlil va katta ma'lumotlar (Big Data): Talabalarning o'quv jarayonidagi faoliyatini kuzatish va tahlil qilish orqali ularning bilish darajasini yaxshilash imkonini beradi.

5. Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR): Bu texnologiyalar talabalarga ta'lim materiallarini real hayotda qo'llab ko'rishga yordam beradi va ularni amaliyot bilan birlashtiradi.



2-rasm. Raqamli transformatsiyaning ta'limdagi asosiy yo'nalishlari

Raqamli transformatsiya ta'limda joriy etilganida bir qator imkoniyatlar va qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi. O'zbekiston ta'lim tizimida bu jarayonni qo'llab-quvvatlash maqsadida, pegagoglarning raqamli savodxonligini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni kengroq joriy etish kabi tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli transformatsiya jarayoni va uning bugungi kundagi holatini tahlil qilishda, shuningdek, bo'lajak kadrlarni tayyorlash raqamli davrda ta'lim tizimining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Kelgusida oliy ta'limning o'ziga xos jihatlarni chuqur o'rganish, ushbu tadqiqotda tasvirlangan

real natijalar asosida qiziqarli va samarali yechimlar ishlab chiqish uchun amaliy ahamiyatga egadir.

Xulosa. Oliy ta'limda raqamli transformatsiya O'zbekiston uchun ko'plab imkoniyatlar yaratsada, raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan ta'lim strukturalarining yetarli darajada rivojlanishi bilan bog'liq qiyinchiliklar ham mavjud. San'at ta'limiga raqamli kompetensiyalarni integratsiya qilish kelajak mutaxassislarini tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, an'anaviy va zamonaviy ta'lim yondashuvlarini sinchiklab baholashni talab qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi —Raqamli O'zbekiston - 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-son Farmoni.
2. Vartanova YE. L. Industriya rossiyiskix media : sifrovoye budusheye / YE. L. Vartanova, A. V. Virkovskiy, S. S. Smirnov, Makeyenko M. I. – M. : MediaMir, 2017. – 160 s.
3. Boltaboyev X. "Fitrat va san'at nazariyasi". Gazetasi. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi", 1998 y.23 x.
4. Eyzenshteyn. Tanlangan asarlar. T 5, 55,96 bet
5. Dubniak. (2022). 1. Educational digital transformation and digital Competences: legal aspects. Informatsiya i pravo, doi: 10.37750/2616-6798.2022.3(42).270253



Oysha KUCHKAROVA,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti dotsenti, p.f.d
Email: oyshaoltibaevna1@gmail.com

SamDTU dotsenti, Sh.Muratova taqrizi asosida

THE ROLE OF READING IN THE SOCIAL INTEGRATION OF ADOLESCENT GIRLS

Annotation

This article analyzes the importance of reading in the upbringing of adolescent girls and in ensuring their active participation in social life. It highlights the role of reading books in shaping personal development, cultural awareness, and social engagement. The study also explores the concept of social integration, its stages, and the factors influencing it. Pedagogical and psychological opportunities are examined, as well as ways to improve modern approaches. The article reveals the processes of cultivating personal excellence in adolescents and developing global thinking.

Key words: Adolescence, social integration, love of books, moral education, culture, personal development, information and communication technologies, socio-political development, scientific and aesthetic perspectives, spiritual upbringing, moral development, cultural awareness, students' attitudes toward books.

РОЛЬ ЧТЕНИЯ В СОЦИАЛЬНОЙ ИНТЕГРАЦИИ ДЕВУШЕК-ПОДРОСТКОВ

Аннотация

В данной статье анализируется значение чтения в воспитании девушек-подростков и обеспечении их активного участия в общественной жизни. Освещается формирование личностного совершенствования, культурного сознания и социальной активности посредством чтения книг. В исследовании также рассматриваются понятие социальной интеграции, её этапы и влияющие на неё факторы, анализируются педагогические и психологические возможности, а также пути совершенствования современных подходов. Раскрываются процессы формирования качеств совершенства у подростков и развития глобального мышления.

Ключевые слова: Подростковый возраст, социальная интеграция, книго-любие, нравственное воспитание, культура, личностное совершенствование, информационно-коммуникационные технологии, социально-политическое развитие, научные и эстетические взгляды, духовное воспитание, нравственное развитие, культурное сознание, отношение учащихся к книгам.

O'SMIR QIZLARNI IJTIMOY SHAKLLANISHIDA KITOBXONLIKNING O'RNI

Аннотация

Mazkur maqolada o'smir qizlar tarbiyasida va ularning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlashda kitobxonlikning ahamiyati tahlil qilinadi. Kitob mutolaasi orqali shaxsiy kamolot, madaniy ong va ijtimoiy faollik shakllanishi yoritilgan. Tadqiqotda ijtimoiy shakllanish tushunchasi, uning bosqichlari va unga ta'sir etuvchi omillar ham ko'rib chiqilib, pedagogik – psixologik imkoniyatlarini tahlil qilish va zamonaviy yondashuvlar asosini takomillashtirish yigit-o'smir qizlarda komillik sifatlarini tarkib toptirish hamda global tafakkur rivoji tarkib toptirish jarayonlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: O'smirlik, ijtimoiy shakllanish, kitobxonlik, axloqiy tarbiya, madaniyat, shaxs kamoloti, axborot-kommunikatsiya, ijtimoiysiyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish, ma'naviy tarbiya, axloqiy rivojlanish, madaniy ong, o'quvchilarning kitobga munosabati, intellektual rivojlanish, yoshlar tarbiyasi, kitobning ijtimoiy ta'siri.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda o'smir yoshdagi qizlarning ijtimoiy shakllanishi nafaqat ularning shaxsiy hayotiga, balki mamlakatning kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda kitobxonlik, ya'ni kitob o'qishga bo'lgan qiziqish va mutolaa madaniyati, muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yosh qizlarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasida, ongli hayotiy pozitsiyasini shakllantirishda, dunyoqarashini kengaytirishda kitobning tutgan o'rni beqiyosdir.

Ijtimoiy shakllanish – bu shaxsning jamiyatda faol subyekt sifatida ishtirok etishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy ko'nikmalar, qadriyatlar, va ma'naviy-axloqiy me'yorlarni o'zlashtirish jarayonidir. O'smirlik davri bu borada alohida ahamiyatga ega, chunki aynan shu bosqichda insonning o'z-o'zini anglash, ijtimoiy rollarni egallash, hayotga munosabati shakllana boshlaydi.

Kitobxonlik yoshlarni mustaqil fikrlashga, to'g'ri qaror qabul qilishga, hissiy barqarorlik va muomala madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi. O'smir qizlar o'z tengdoshlari bilan bo'ladigan muloqotda, maktab, oila va ijtimoiy guruhlar ichida yetakchilik sifatlarini ko'rsatishi, ijtimoiy faollikni namoyon qilishi, aynan o'qigan kitoblari orqali shakllanadi. Kitoblar orqali ular o'zlariga ibrat bo'ladigan obrazlar bilan tanishadi, tarixiy, badiiy, falsafiy va ilmiy bilimlarni egallab boradilar. Ayniqsa, ayol obrazlari aks etgan adabiy asarlar o'smir qizlarga o'zligini anglash, or-nomus, sabr-toqat, izzat-nafs kabi

qadriyatlarini chuqur his etish imkonini beradi. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, kitobxon qizlarda ijtimoiy moslashuv darajasi yuqoriroq bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu yo'nalishdagi adabiyotlar kitobxonlikning shaxs taraqqiyotidagi rolini, xususan o'smirlik davridagi psixologik o'zgarishlarga ta'sirini Jumladan, G'. Yo'ldoshev, Z. Raxmonqulova va M. Abduraxmonovanning ilmiy ishlari o'smirlarning axloqiy, estetik va ijtimoiy ongini shakllantirishda kitobxonlik muhim vosita ekanligi, hamda o'zbek ayol obrazini yaratgan yozuvchilarning (O. Hoshimov, T. Malik, S. Ahmad) asarlarida qizlar uchun ijobiy namunalar, qadriyatlar va odob-axloq me'yorlari keng yoritiladi.

Shu bilan bir qatorda, mutolaa muammosining ayrim jihatlarini pedagog olimlardan S.Dimemov, A.Zunnunov, M.Mirqosimova o'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish tizimi, Q.Yo'ldoshev adabiyot o'qitishda yangilangan pedagogik tafakkur, S.Matchonov adabiyotdan mustaqil ishlarning asosi, Q.Husan-boyeva mustaqil fikrlashga o'rgatish, R.Niyozmetova ta'lim rus tilida olib boriladigan maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning o'zbek tili dars (mashg'ulot)larida adabiy materiallarni o'rganish, S.Nishonova, M.Abdullayeva, O.Musurmonova, M.Maxmudova va boshqa pedagog olimlar. M.Nigmatova maktab-gacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik ko'nikmalarini o'stirish, B.Makulova boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qishni izchillik va tizimlilik

tamoyillari asosida tashkil etish, A.Bolibekov hadislar orqali o'quvchilar axloqiy fazilatlarini kamol toptirish usullari majmui tarzida tadqiq qiladilar. Milliy istiqloq g'oyasini yoshlar ongiga singdirish jarayonida mutolaa madaniyatidan maqsadli foydalanishni optimallashtirishning nazariy asoslari, jamiyat taraqqiyoti va komil inson tarbiyasi, oila kitobxonligi, kutubxonalardan maqsadli faollashtirishni belgilab beruvchi myoriy hujjatlarni yaratish muammolari A.Umarov, S.Chiniyeva, D.G'aniyevlarning izlanishlarida alohida tahlilga tortilgani kuzatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi jamiyatda yoshlarning har tomonlama rivojlanishi uchun kitoblarning roli va ahamiyati juda katta. Kitob inson hayotida juda katta va eng muhim rol o'ynaydi. Qadimgi davrlarda kitob bebaho ma'lumot manbai, bilimlarni uzatishning eng qadimiy usuli bo'lgan. Ammo hozirda kitoblar kamroq ommalashmoqda, chunki ko'plab boshqa manbalarning paydo bo'lishi tufayli ma'lumotlarni topish ancha osonlashdi va odamlar kitoblarning mavjudligini unutishni boshladilar, ammo baribir axborot dunyosi va texnologiyalar kitoblarni almashtira olmaydi va bekor qila olmaydi.

Kitob insoniyatning qadimgi tarixidagi eng katta mo'jizasi va ixtirosi bo'lib, u insonning aqliy etukligi va ma'naviy etuklik darajasiga ko'tarilishiga yordam beradi va har birimiz kitobdagi bilim manbalari orqali ma'naviy ozuqa olamiz. Shuning uchun kitob bilim, ma'naviyat, madaniyat va ma'rifat manbaidir. Insonni ulug'laydigan, unda ma'naviyat va ma'rifat poydevorini shakllantiradigan, uni komil inson qilib tarbiyalaydigan kuch bu dunyo va bu dunyoni bilish manbaidir. Biz kitoblar orqali o'zimiz, dunyo, koinot va insoniy munosabatlar haqida bilib olamiz. O'qishni sharhlar ekan, buyuk allomalar adabiyot bilan tanishgan odamga yaxshilik va yaxshilik doim hamroh bo'ladi, deganlar. Kitob o'tmish, hozirgi va kelajak o'rtasidagi noyob ko'prikdir. Shu sababli, kitob ma'naviy meros, bitmas-tuganmas xazina deb nomlanishi bejiz emas va faqat haqiqiy kitobni qadrlaydiganlar uning qadriini anglaydilar.

Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi sharqona milliy ahloqiy tarbiya tizimini isloh qilish va ajdodlarimiz merosi asoslarini chuqur o'zlashtirishga ehtiyoj tug'dirmoqda. Axborot-kommunikatsiya va globallashtirish asrida jamiyat taraqqiyoti bilan pedagogika tarixini takomillashtirish masalasi ilg'or davlatlar tajribasidagi yangicha yo'nalishlar, xususan, kitobxonlik san'atini egallashga yo'naltirilgan metodika va maxsus mutolaa kurslari mazmunini tadqiq etish orqali yosh avlod ma'naviy kamoloti hamda intellektual salohiyatini o'stirish bilan bog'liq dolzarb muammolar kun tartibiga qo'yilmoqda.

Dunyoning yetakchi davlatlaridagi pedagogika tarixi tendentsiyalari asosida milliy ahloqiy, ma'naviy tarbiya mazmunini modernizatsiya qilish jamiyatning ma'naviy va madaniy rivojlanishiga poydevor vazifasini o'taydi. Shunga ko'ra o'smir qizlarni kitobxonlikka jalb etish orqali sharqona ma'naviy-axloqiy qarashlarini shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish, pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tahlil qilish va zamonaviy yondashuvlar asosini takomillashtirish o'smir qizlarda komillik sifatlarini tarkib toptirish hamda global tafakkur rivojiga doir texnologiyalarni tadqiq etish ushbu tadqiqotning tub mohiyatini tashkil etadi. Osmir yoshidagi yigit-kizlar uchun dunyokarashni shakllantirish iuda muxim bir djarayon bo'lib, bu djarayonning ko'p jixatlari turli xil omillar, jumladan, talim, oylavi muxit, dostlar, va xatto zamonaviy texnologiyalar tomonidan ta'sirlanadi. Shuningdek, an'anavi kadriyatlar va madaniyatning xam ili orni katta. Sharkona dunyokarashni shakllantirishda eto kitobxon va kitoblarning rol ajdralmas axamiyatga iga. Kitobxon nafaqat ma'lumot olish manbai, balki insonni tarbialovchi, uning fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi va dunyoqarashini kengaytiruvchi muhim vositadir. Yosh yigit-qizlarni sharqona ahloqiy-ma'naviy ruhda tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish muammosi turli yillarda umumta'lim maktablari dasturida badiiy asar mazmunini o'zlashtirish, badiiy-estetik tarbiya, tahlil yozma va og'zaki nutq o'stirish masalalari doirasida o'rganilgan.

Sharqona dunyoqarashda muhim b'itran tamoyillar orasida diniy qadriyatlar, ashloqiy me'yorlar, oilaga bo'lgan ehtirom, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va boshqalar

mavjud. Misol uchun, Alisher Navoi, Fizuli, Sadiy Sherozi kabi adabiyotchilar o'z asarlarida insoniylik, haqiqat, adolat va sabr kabi kadriyatlarini ta'kidlab, yoshlarni ashlokiy djixatdan to'gri yo'lni tanlashga undaydilar.

Kitobxonlarda yoshlar uchun turli tadbirlar, masalan, kitob muxokamalari, adabiyot kechalari, ma'navi seminarlari va turli ilmiy-yodiy musobakalar otkazilishi, obucheniyete intellektual rivojlanishiga katta ta'sir korsatadi. No tadbirlar nafaqat yoshlarni kitobxonlikka djalb kilishga, balki ularning fikrlash, idjodiy salohiyatini rivojlantirishga xam yordam beradi. Kitobxonlarda otkaziladigan seminarshkiy yoki davra suhbatlari yoshlarni Sharqona dunyoqarashga oid mavzulyarni muxokama kilishga undaydi va ularda idjtimoiy va ma'navi masalalar xaq ida kengrok tasavvur shakllantiradi.

Darhaqiqat, o'qish tufayli shaxsning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan xayoliy fikrlash shakllanadi. Kitob madaniyatni o'rgatadi, chuqur tafakkurni rivojlantiradi, diqqat va xotirani rivojlantiradi. Albatta, bugungi adabiyotning mashhurligini elliginchi, oltmishinchi, yetmishinchi va saksoninchi yillardagi o'qishlar bilan taqqoslab bo'lmaydi, ammo buning mantiqiy izohi bor.

Zamonaviy texnologiyalar bizga keng imkoniyatlarni taklif etadi, ammo hayotingizni kitobsiz tasavvur qila olasizmi? Natijada, ma'lumotni faqat o'qituvchining tushuntirishlariga asoslanib olish juda qiyin va ba'zan imkonsizdir. Shuning uchun kitobning inson hayotidagi o'rni juda muhim va noyobdir. Uning yordami bilan inson hayotidagi qiziqarli suhbatdosh o'z sohasining malakali mutaxassisiga aylanadi. Erta yoshdan, aniqrog'i, beshikdan boshlab, ota-onalar bolalariga ertaklarni o'qiy boshlaydilar va shu bilan kitobning birinchi taassurotini aniqlaydilar. Kitob insonning axloqiy fazilatlarini tarbiyalaydi, fikrlashga va fikrlashga o'rgatadi, ichki dunyoni rivojlantirishga yordam beradi. Siz faqat bitta kitob bilan yolg'iz qolishingiz va muhim ma'lumot manbasi tomonidan rivoyat qilingan barcha voqealarni boshdan kechirishingiz mumkin. Biror kishi kitob o'qishni boshlaganda, u barcha fikrlari bilan. Biror kitobni o'qiganingizda, atrofingizdagi hamma narsa ahamiyatsiz bo'ladi. U barcha tarix va bilimlarni o'z ichiga olgan bilimlarni avloddan avlodga etkazadi. U bizga juda yoshligidanoq ta'lim berishni boshlaydi. Kitob insoniyatning qadimgi tarixidagi eng katta mo'jizasi va ixtirosi bo'lib, u insonning aqliy etukligi va ma'naviy yetuklik darajasiga ko'tarilishiga yordam beradi va har birimiz kitobdagi bilim manbalari orqali ma'naviy ozuqa olamiz. Shuning uchun kitob bilim, ma'naviyat, madaniyat va ma'rifat manbaidir. Bu insonni ulug'laydigan, unda ma'naviyat va ma'rifat asoslarini shakllantiradigan va uni komil inson qilib tarbiyalaydigan kuchdir.

Shunday qilib, yangi texnologiyalar paydo bo'lishiga qaramay, javonda turgan har kim kitob topishi mumkin, chunki bu bizning hayotimizdagi eng muhim o'qituvchi. Birinchidan, har bir ota-ona bolani ertak va she'rlardan boshlab kitob bilan tanishtiradi, keyin bolalar maktabda kitoblardan foydalanishni o'rganishda davom etadilar. Ular kitobga tayanib yangi bilimlarni kashf etadilar, eng qiyin muammolarni echishda yordam beradilar va qiziqirgan savollarga javob oladilar.

Kitob inson ma'naviyatini boyitadigan sirli vositadir. Adabiyot darslari o'quvchilar qalbida kitoblarga muhabbat uyg'otish uchun muhimdir. Kitob o'qish har bir kishi uchun zaruriy ekanligini kitobxon ongiga singdirish uchun adabiyot o'qituvchisidan katta mahorat talab etiladi. O'smirlarni ijtimoiy shakllanishida ayniqsa, balog'at yoshdagi qizlarning dunyoqarashini boyitishga hamisha ona ma'suldir. Chunki, bolaga onaning fe'l-atvori o'tadi. Aslidachi, qizingizdagi bu o'zgarish oilangizdan boshlangan. Unga o'rinsiz tanbeh beraverib uning asabini izdan chiqargansizlar. Yana qizingizni aka-uka, opa-singillari oldida birini maqtab, uni kamsitgan bo'lgandirsiz. Bu esa uning nafratini o'yg'otgan. Bugungi yoshlar avvalgiday emas, deb ba'zan kattalar zamondan noliydi. Uzimiz tarbiyalagan qizimiz o'zimizga sapchiyaptimi, uning guvohligida qilgan xatolarimizga qaytarilgan javobdir. Bir so'z bilan aytganda, o'smir qizlarning kitobxonlik asosida sharqona ma'naviy-ahloqiy dunyoqarashlarini shakllantirish bilan bog'liq pedagogik muammolar mavjud-ligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Xulosa. O'smir qizlarning ijtimoiy shakllanishida kitobxonlik muhim o'rin egallaydi. Kitob nafaqat bilim manbai, balki axloqiy, estetik va psixologik tarbiyaning ham muhim vositasi hisoblanadi. O'quvchi qizlarda kitobga bo'lgan mehri shakllantirish orqali ularning dunyoqarashi kengayadi, tanqidiy fikrlash, nutq madaniyati va hayotga nisbatan mas'uliyat hissi rivojlanadi. Ayniqsa, yosh davrida o'qilgan adabiy asarlar orqali qizlar o'zlarining ichki olamini anglaydi, o'ziga ishonch hosil qiladi va jamiyatda munosib o'rin egallashga intiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, kitobxonlik faoliyati bilan shug'ullangan o'smirlar ijtimoiy muhitda ko'proq faollik ko'rsatadi, ijobiy qadriyatlar asosida shakllanadi va o'z oldiga maqsad qo'yish, unga erishish yo'lida qat'iyatli bo'lishadi. Shu bois, qizlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, oilada va ta'lim muassasalarida bu boradagi ishlarni tizimli yo'lga qo'yish

ularning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib kamol topishlarida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Kitobxonalarda taqdim etilgan o'ish materiallari, o'smirlarning ruhiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular kitoblar orqali nafaqat bilim, balki insoniyatning ezgu qadriyatlarini o'zlashtiradilar. Sharqona an'analar va qadriyatlar, masalan, mehr-oqibat, adolat, sabr-tokat, va o'zini xurmat kilish kabi tushunchalar, kitobxona muhitida yoshlarning hayotiy pozitsiisini shakllantiradi.

Shuningdek, kitobxonalarining yoshlar uchun taqdim etgan zamonaviy va an'anaviy adabiyotlarni o'qitish, ularning fikrlash doirasini kengaytirish bilan birga, o'ziga bolgan ishonch va ma'navi barkamollikni rivoylantiradi. Shu tarzda, kitobxonalik yoshlar uchun Sharqona dunyoqarashni shakllantirishda alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Kuchkarova Aisha Oltibayevna. (2022). The formation of a culture of reading as a factor of increasing the morale of young people. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 167–171. Retrieved from <https://sjird.journalspark.org/index.php/sjird/article/view/93>.
2. Kuchkarova Aisha Oltibayevna. (2022). The formation of a culture of reading as a factor of increasing the morale of young people. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 167–171. Retrieved from <https://sjird.journalspark.org/index.php/sjird/article/view/93>.
3. Kuchkarova A.O. The role of the works of eastern thinkers in the formation of moral and moral sentiment of students and girls. *Spectrum Journal of Innovation*, 172–176. Retrieved from <https://sjird.journalspark.org/index.php/sjird/article/view/94>.
4. Altiboevna, K. A. (2023). A book is a mirror of spirituality. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(9), 156-160.
5. Kuchkarova A.O. The Importance of the Family and the School in the Development of Library Culture of Teenagers. *Journal of Education, Ethics and Value* Vol.3, No.5, 2024 ISSN:2181-4392. <https://jeev.innovascience.uz>
6. Kuchkarova A.O. O'smir yoshdagi yigit-qizlarni sharqona dunyoqarashni shakllantirishda kitobxonlikning o'rmi. *Foreign Linguistics and Linguodidactics Journal* home page: Issue–3№1(2025) /ISSN 2181-3701. <https://inscience.uz/index.php/foreign-linguistics>.



Iqbol QAYNAROVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: iqbolqaynarova1981@gmail.com

PhD O'Farmonov taqrizi asosida

DEVELOPMENT OF LEARNING ACTIVITY OF PRIMARY CLASS STUDENTS BASED ON HEURISTIC EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Annotation

Heuristic and research methods require students to have the skills and abilities to organize high-level cognitive activity that acquires a creative nature. This technology is intended for primary school students. In Ancient Greece, heuristics meant the educational system taught by Socrates, that is, the teacher guided the student to think in order to independently solve problems. Heuristic learning allows the student not only to acquire knowledge, but also to evaluate personal learning goals, methods of mastering the subject being studied, forms of expressing educational results, and assessment.

Key words: Heuristic education, heuristic function, creative activity, activity, flexibility of thinking, criticality, development, educational activity.

РАЗВИТИЕ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ЭВРИСТИЧЕСКИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

Эвристические и исследовательские методы требуют от учащихся наличия навыков и умений организовать познавательную деятельность высокого уровня, приобретающую творческий характер. Данная технология предназначена для учащихся младших классов. В Древней Греции под эвристикой понимали образовательную систему, которой учил Сократ, то есть учитель направлял ученика к размышлению для самостоятельного решения проблем. Эвристическое обучение позволяет учащемуся не только приобретать знания, но и оценивать личные цели обучения, способы освоения изучаемого предмета, формы выражения образовательных результатов, оценки.

Ключевые слова: Эвристическое воспитание, эвристическая функция, творческая активность, активность, гибкость мышления, критичность, развитие, учебная деятельность.

EVRISTIK TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QUV-BILISH FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH

Аннотация

Evristik va tadqiqotchilik metodlari o'quvchilardan ijodiy xususiyat kasb etuvchi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil eta olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishni taqozo etadi. Bu texnologiya boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Qadimgi Yunonistonda Evristika deganda Suqrot tomonidan o'qitiladigan o'quv tizimi tushunilgan, ya'ni o'qituvchi o'quvchini muammoni mustaqil hal qilish uchun fikrlashga yo'naltirilgan. Evristik o'qitish o'quvchiga nafaqat bilimlarni egallash, balki mashg'ulotlarning shaxsiy maqsadlari, o'rganilayotgan fanni o'zlashtirish yo'llarini, ta'lim natijalarini ifoda qilish shakllari va baholash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Evristik ta'lim, evristik funksiya, ijodiy faoliyat, faoliyat, fikrlashning moslashuvchanligi, tanqidiylik, rivojlanish, o'quv-bilish faolligi.

Kirish. Jahonda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, bo'lajak mutaxassislarining ta'limning zamonaviy paradigmalari va yondashuvlari asosida ta'lim olishlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Pedagogik loyihalashtirish va modellashtirish texnologiyalarini takomillashtirishga oid tadqiqotlar dunyoning yetakchi universitetlarida Association for Educational Communications and Technology – AECT (AQSH), Belfield pedagogical university (Germaniya), National Advice on pedagogical technology (Angliya) olib borilayotganligiga qaramay ta'lim jarayonida boshlang'ich ta'lim fanlarni integratsiyasini ta'minlash orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faolligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari dolzarbligicha qolmoqda.

Axborot, pedagogik va turli xil telekommunikatsion texnologiyalardan keng foydalanish XX asrning ikkinchi yarmiga xos bo'lib, hozirgi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida uchinchi texnologik inqilob yuz bermoqda. Yangi texnologiyalarning sanoat va qishloq xo'jaligida paydo bo'lishi, hisoblash mashinalarining yaratilishi axborot olamining shakllanishi va yuqori texnologiyalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Natijada inson tomonidan qayta ishlanadigan va qo'llaniladigan axborot hajmi keskin ortib ketdi. Texnologik inqilob va undan keyingi sanoat jamiyatining paydo bo'lishi

insonga qo'yiladigan funksional talablarning o'zgarishi bilan bir qatorda ta'lim tizimidagi o'zgarishlarga ham olib keldi.

Zamonaviy sharoitda nostandart fikrlovchi ijodkor insonni tarbiyalash birinchi o'ringa chiqmoqda. Agar avvallari bor kuch o'quvchilarning bilimlarini kengaytirishga qaratilgan bo'lsa, bugungi kunda asosiy e'tiborni hayot tarzini yaratish, uni yaxshi tomonga o'zgartirish, malaka va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilmoqda. Demak, o'qish faqat kelgusidagi kasbiy faoliyat va hayotga tayyorgarlik bo'la olmaydi, u bir vaqtning o'zida ham ish, ham hayotga tayyorgarlik bo'lishi, tadqiqotchilik izlanishi, ishlab chiqarish mehnati, muloqotning turli shakllari bilan birlashishi kerak. Bu esa butun o'quv-tarbiyaviy jarayonning insonni rivojlantirishga yo'naltirilishi kerakligini bildiradi. Ta'lim nafaqat insonni bilimlar bilan qurollantirishi, balki uni shaxs sifatida rivojlantirishi, takomillashtirishi ham lozim [7].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Evristik ta'lim bevosita ijodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lib o'quvchilar o'quv bilish faolligini rivojlantirishda mantiqiy, tanqidiy, tahliliy, ijodiy fikrlashni shakllantirish omili hisoblanadi. O'zbek xalqi madaniyatining tarixida ham qomusiy olimlarimiz faoliyatida ijodkorlik muhim o'rin egallagan. Jumladan, Abu Rayxon al-Beruniy [1], Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy [5], Abu Ali ibn Sino [2], Abu Nasr Forobiy [3], Alisher Navoiy [4] va shu kabi buyuk qomusiy olimlar ijodiy faoliyatlarida bilish va uning inson kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatiga asosiy

e'tiborni qaratganlar. Shu sababli "Ilk Uyg'onish davri", "So'nggi Uyg'onish davri", O'rta Osiyoda ma'naviy yuksalishning "Oltin davri" degan terminlar fanda keng qamrovli o'rinni egallagan. Fanda Al-Xorazmiyning Sonlar nazariyasida buyuk inqilob qilganligi ("Algoritm" termini ul zot nomi asosida fanga kiritildi), Al-Beruniy va Al-Farg'oniyning qomusiy ilmlari hamda Yer shari to'g'risidagi ta'limotlari, Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotning asoschisi ekanligi (meditsina termini bevosita ibn Sino nomida kelib chiqqanligi) va hokazo dastlabki akademiyalar va dorilfununlarning tashkil etilganligi ijodiy faoliyat mahsuli hisoblanadi [6].

Ushbu jarayonlar kishilik jamiyati taraqqiyotining hech bir bosiqchida o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Jumladan, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faolligini rivojlantirish bo'yicha sharoitlar davlatimiz tomonidan to'liq yaratilgan. Bu borada mutaxassis olimlarimiz tomonidan diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, X.A.To'raqulov [143], R.Mavlonova [82], X.I.Ibragimov [63] ishlarida boshlang'ich ta'lim mazmunini modernizatsiyalash va ular asosida tayyorlanayotgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini kabi pedagogik faoliyatga tayyorlash metodologiyasini boyitishning didaktik asoslari yaratilgan.

Pedagogika fanidan izohli lug'atda ta'kidlanishicha, "Intellektual mulk – ijodiy aqliy faoliyat mahsuli bo'lib, unga ixtirochilik va mualliflik manbaviy huquqi majmuiga kiruvchi, fan, adabiyot, san'at va ishlab chiqarish sohasida ijodiy faoliyatning boshqa turlari, adabiy, badiiy, ilmiy asarlar, ijrochi aktyorlar san'ati, jumladan, ovoz yozish, radio va televideniye asarlari, kashfiyotlar, ixtirolar, ratsionalizatorlik takliflari, sanoat namunalari, kompyuterlar uchun dasturlar, ma'lumotlar ombori, tovar belgilari, firma atamallari va boshqa aqliy mulk manbalari kiradi [10].

Pedagogika fanlari doktori, professor R.Mavlonova fikricha, "Fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan davrda bolalarning aqliy rivojlanish tezligi ham oshib borishi kuzatilmoqda. Natijada ta'limning umumiy darajasi ham oshayotganligi shubhasiz. Biroq, bizning nazarimizda, boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasi jadallashtirish, o'zlashtirish jarayonini tezlashtirish bo'lishi kerak emas. U ta'limni ratsionalizatsiyalash, aqliy rivojlanishiga yordam beruvchi samarali ta'lim metodlarini qo'llash natijasi bo'lishi lozim" [11].

Natijalar. Boshlang'ich ta'lim tizimining asosiy maqsadi – turli hayotiy vaziyatlarda to'g'ri yo'nalish tanlay oladigan ijodiy shaxsni shakllantirishdan iborat bo'lib, bu ko'p hollarda boshlang'ich sinfdagi ta'lim jarayoniga bog'liq bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarga ishga qanday munosabatda bo'lishni o'rgatishlari ular kelajakda ijodiy fikrlovchi yoki shunchaki nafaol yaratuvchi shaxslar bo'lib shakllanishiga bog'liq bo'ladi. Boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarning umumiy tayyorgarligining asosi yaratiladi va ular yuqori sinflarda takomillashtiriladi. O'quvchilarda ijodiy fikrlash, faol harakat qilish va oson moslashuvchanlik kabi sifatlarini shakllantirishni birinchi sinfdan boshlash zarur.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchisida ijodiy fikrlash uch bosqichda rivojlantiriladi: I bosqich 5-7 yoshga mos keladi va ko'rish-xatti-harakatli fikrlashning rivojlantirilishi bilan bog'liq; II bosqich 8-11 yoshga mos keladi va fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan; III bosqich 11-14 yoshga mos kelib, evristik fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan [12].

Dastlabki ikki bosqich, odatda, maktabgacha va maktabda o'qitishning boshlang'ich davriga to'g'ri keladi. Aks holda maktabning o'rta bo'g'inida ishni ko'rish-harakat orqali fikrlashni rivojlantirishdan boshlashga to'g'ri keladi, chunki pedagog-psixolog olimlar o'z tadqiqotlarida fikrlashni rivojlantirish izchilligi ko'rish-xatti-harakatli fikrlashni rivojlantirishdan ko'rish-obrazliga va so'ngra fikrlashning so'zli-mantiqiy turlariga o'tishi kerakligini va bu bosqichdan sakrab o'tish mumkin emasligini isbotlab berganlar.

Fikrlashning har bir turini rivojlantirish uchun o'zining senzetiv davri mavjudligini hisobga olib, ijodiy fikrlashni shakllantirish bo'yicha maktabning o'rta bo'g'inida boshlangan ishlar boshlang'ich maktabdagiga nisbatan kamroq samarali va ancha murakkab bo'ladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Nafaqat ijod, balki faollik ham, shaxsning oson moslashish layoqati ham bolalikda shakllanadi. Bola bolaligidanoq panada bo'lishga, zaruratsiz o'z fikrini aytmaslikka o'rganib qolsa, keyinchalik ham u shundayligicha qoladi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilari agar o'qituvchi shunga rag'batlantirsa va yo'naltirsa, o'z faoliyatiga ehtiyojlarni va imkoniyatlarini aniqlash, zarur axborotni topish va qo'llash, o'z ishini rejalashtirish va yuzaga kelgan masalalarni hal qilish, o'z faoliyatini baholash va tuzatish qobiliyatiga ega bo'ladi [13]. Biz o'qitish jarayoni bajariladigan amallarni diktant yo'li bilan yozdirib amalga oshiriladigan mehnat darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarning reaksiyalarini kuzatishimizga to'g'ri kelgan. O'qituvchining masalani yechish yo'llarini o'ylab ko'rish, bajarilishi lozim bo'lgan ishlarning rejasini tuzish va shunga o'xshash boshqa takliflariga ular ajablanish va norozilik bilan javob berar edilar, axir ular dars jarayonida ular savollarga javob berishlari emas, balki fikrlash lozimligini aytar edilar. Shunday qilib, ko'p narsa o'qituvchining o'qitish jarayonini tashkil qilishiga, o'quvchining faol intellektual va amaliy faoliyatga jalb qilinish darajasiga bog'liq ekan. Birinchi sinf o'quvchilariga o'z munosabatlarini o'zgartirishlari va berilgan topshiriqlarini bajarish maqsadini tushunishlari uchun bor-yo'g'i ikkita dars kerak bo'ldi. Ishni amallar ketma-ketligida bajarish me'yorga aylanib qolgan uchinchi sinfdagi vaziyatni tuzatish qiyinroq bo'ladi. A.I.Savenkovning ta'kidlashicha, "har bir faoliyat ijodkorlik emas, balki har qanday ijodkorlik faoliyat hisoblanadi". Faoliyatning o'zi ijodiy jarayonning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi [14].

Evristik ta'lim texnologiyalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faolligini rivojlantirish jarayonini o'quv maqsadi bilan bog'liq holda pedagogik jihatdan ta'minlanishi ham muhim didaktik ahamiyatga ega. Bunda:

1. O'quvchiga taqdim etiladigan topshiriqlarda uning yutuqlari, ijodiy tahlil natijalari, o'quvchi kuchini umumlashtirish imkoniyatlari, unda shakllangan tajribalar va kognitiv yo'nalish o'z ifodasini topishi kerak.

2. O'qituvchi ta'lim maqsadi bilan o'quvchilarning imkoniyatlari, o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasi o'zaro mutanosibmi? – degan savolni o'z oldiga qo'ya olishi lozim.

Evristik ta'lim texnologiyalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faolligini rivojlantirish jarayonida mazkur o'quv vaziyatini kommunikativlik, muayyan faoliyatga yo'naltirilganlik jihatidan ta'minlash ham alohida ahamiyat kasb etadi. Evristik ta'lim texnologiyalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faolligini rivojlantirish jarayonida birinchi navbatda o'quvchining shaxsiy taraqqiyoti ta'minlanishi zarur. Bu tipdagi o'quv jarayonlarida o'quvchi bilan o'qituvchi, o'quvchi bilan o'quvchilar orasida o'zaro muloqot, dialog tarzidagi suhbat, fikr almashish uchun qulay pedagogik vaziyat vujudga keltirilishi talab etiladi. O'quv-biluv jarayonida o'quvchining shaxsiy rivojlanishi uchun ahamiyatli bo'lgan natijalar qo'lga kiritiladi. Ushbu natijalardan kelib chiqqan holda o'qituvchi o'quv jarayonining o'quvchining ijodkorligi nechog'li yo'naltirilganligini aniqlab olishi va baholashi lozim. Shunga ko'ra o'qituvchi ta'lim maqsadiga erishish uchun nima qilish kerakligi, qanday metodik ko'rsatmalar zarurligini belgilab oladi.

Evristik ta'lim texnologiyalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faolligini rivojlantirish jarayoni samaradorligini ta'minlashda kasbiy mahoratga ega bo'lgan o'qituvchilarning o'zaro hamkorligi, bir-birlarining tajribalaridan ijodiy foydalana olishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda tajribali o'qituvchilarning o'zaro maslahatlashuvlari, suhbatlarini tashkil etish muhimdir.

Ta'lim jarayoni evristik va undan keyingi ijodiy darajalarga erishganida, yuqori darajadagi muammoli, muammoli-rivojlantiruvchi ta'lim, vaziyatlarni tahlil qiluvchi topshiriqlar, ishchanlik o'yinlari kabi metodlar, shuningdek, mustaqil ishlar, muammoli o'quv topshiriqlaridan foydalanish mumkin.

Ta'lim maqsadini belgilashda pedagogik texnologiyalar nazariyasiga tayanuvchi o'quvchilar o'zlashtirishining boshlang'ich, algoritmik, evristik hamda ijodiy darajalariga tayanib ish ko'rish lozim bo'ladi. Muayyan pedagogik texnologiyaning tanlanishi rejalashtirilgan mashg'ulotda qaysi

darajadagi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish nazarda tutilganligiga bog'liqdir.

Boshlang'ich va algoritmik xarakterdagi darajalar produktiv (ijodiy) bilim va ko'nikmalarni aniqlash uchun mezon vazifasini o'taydi. O'zlashtirishning ushbu darajalarini aniqlashga yordam beruvchi texnologik jarayonni ijrochi texnologiya deb atash mumkin. O'quv materialini esda saqlab qolish hamda ko'nikmalarni hosil qilishga yo'naltirilgan faoliyat darajasi o'quvchilarning reproduktiv va produktiv faoliyatlarini uyg'unlashtirishni talab qiladi. Mazkur holat o'quv jarayonini tashkil etishga muammoli rivojlantiruvchi texnologiyani tadbiq etilishi bilan amalga oshadi. Ushbu texnologiya asosida ta'lim jarayonini tashkil etish ta'lim oluvchilarni o'quv materialini tahlil qilish, mashg'ulotlarda o'z mustaqil fikrlari bilan qatnashish, munozara hamda ishchanlik o'yinlarida faol ishtirok etishga o'rgatishi lozim.

Muhokama. O'qituvchi pedagogik mahoratini aql-idroki, tafakkuri, ijodiy faoliyatsiz yaratib va takomillashtirib bo'lmaydi. O'qituvchi ijodiy faoliyatining har qanday turida ayni bir vaqtning o'zida uning ham aqliy, ham jismoniy mehnati obyektiv ravishda ishtirok etadi. Ijodiy faoliyat o'qituvchi hayotining negizi hisoblanadi. O'qituvchi miyasida har qanday fikr, hech qanday qarash va tushuncha o'z-o'zidan tug'ilmaydi hamda rivojlanmaydi. Balki ularning hammasi ma'lum darajada ijodiy fikrlar bilan bog'langan.

Inson yoki jamoaviy faoliyat shakli – avval mavjud bo'lmagan ammo sifat jihatidan yangisini yaratish, rag'batlantirish yo'li hisoblanadi. Ijodiy faoliyatning asl mahsuloti nostandart gipotezani shakllantirish, noan'anaviy bo'lgan muammoli vaziyat elementlarining o'zaro bog'liqligi, bevosita bog'liq elementlarni jalb qilish, ular o'rtasida o'zaro bog'liqlikning yangi turlarini o'rnatish hisoblanadi. Buning uchun zaruriy shartlar sifatida - fikrlashning moslashuvchanligi (hal qilish usullarini o'zgartirish qobiliyati), tanqidiylik (samarali

bo'lmagan strategiyalardan voz kechish qobiliyati), tushunchalarni birlashtirish va uyg'unlashtirish qobiliyati, idrokning yaxlitligi. Ijodiy qobiliyatlarning yaratilishi o'ziga xos bo'lib ijodkorlik katta va yorqin iste'doddan tortib nozik va mukammalgacha bo'lganlarni o'zi ichiga oladi. Ammo ijodiy jarayonning mohiyati hamma uchun bir xil bo'lib ijodning o'ziga xos mazmunida, yutuqlar ko'lamida va ularning jamiyatdagi ahamiyatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Evristik ta'lim texnologiyalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faolligini rivojlantirish pedagogik jihatdan asosan ikki yo'nalishda ta'minlanadi:

1. O'quvchi shaxsini uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash.

2. O'quvchini ta'lim jarayonida uzluksiz rivojlantirish va pedagogik-psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash orqali.

Maktab ta'limi jarayonida qo'llaniladigan o'quvchi shaxsini ijtimoiy jihatdan shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasini ijtimoiy-pedagogik hamda madaniy jihatdan yo'naltiruvchi vositalar: o'quvchilarning ijtimoiy xulq-atvori, egallagan bilimlari, ularni uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv materiallari, o'quvchi bilan o'qituvchining hamkorligi kabilar.

Evristik ta'lim texnologiyalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishda intellektual sifatlarini takomillashtirishga ham qaratilishi lozim. Evristik ta'lim texnologiyalari muntazam qo'llanilgan sinflardagi o'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari ularda o'ziga nisbatan ishonch, intiluvchanlik, insonparvarlik, mas'uliyat, javobgarlikni his etish, yutuqlarga intilish, bardosh, yangiliklar yaratishga intilish kabi ijobiy sifatlar qaror topganligini ko'rsatdi. Shunga ko'ra evristik ta'lim texnologiyalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faolligini rivojlantirish o'qituvchining pedagogik mahoratiga ham bog'liq.

ADABIYOTLAR

1. Абу Райхон Беруний. Ўйлар. Ҳикматлар. Шейрлар. – Т.: Ёш гвардия, 1973. – 134 б.
2. Мухаммад ибн Мусо Ал-Хоразмий. Танланган асарлар: математика, астраномия, географий. – Тошкент: Фан, 1983. – 472 б.
3. Абу Али ибн Сино. Мен англаган дунё / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Э.Очилов. – Тошкент: Шарк, 2012. – 272 б.
4. Форобий, Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: Мерос, 1993. – 187 б.
5. Алишер Навоий. Махбул ул – кулуб. // Мукамал асарлар тўплами. 15-том. – Тошкент: Фан, 2001. – 310 б.
6. Фалсафа комусий луғат. “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти”. – Т.: “Шарк” НМАКБТ, 2004. – 495 б.
7. Тўрақулов Х., Фармонов Ў. Саводхонлик асослари ва ҳисоблаш тафаккури. // “Бошланғич таълим” ж. – Тошкент, 2008. - № 5. – Б. 10-11.
8. Мавлонова Р., Раҳманқулова Н. Бошланғич таълимда педагогика, инновация, интеграция. Ўқув қўлланма, – Т.: Ф.Ғулом, 2013. – 270 б.
9. Ибрагимов Х.И. Теоретические основы профессионального самовоспитания будущих учителей начальных классов (на примере педвузов): педагогика фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.-Т., Қори Ниёзий номли ЎзПФТИ, 1999.- 307 б.
10. Ҳасанбоев Ж., Тўрақулов Х., Ҳайдаров М., Ҳасанбоева О. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Т.: “Фан ва технология”, 2008. – 480 б.
11. Мавлонова Р. Бошланғич таълим: мақсад, муаммо ва вазифа // “Маърифат” газетаси. – Тошкент: 2006. – 3 б.
12. Ибрагимов Р. Бошланғич синф ўқувчиларни билиш фаолиятини шакллантиришнинг дидактик асослари.: Пед. фан. ном. ... дисс. автореф. –Тошкент: ТДПУ, 2005. – 22 б.
13. Жумаев М.Э. Ўқитувчининг ижодий шахс сифатида ривожланишида бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг методик-математик тайёргарлиги. Монография. – Т.: Фан, 2009. – 240 б.
14. Савенков А.И. Психологические основы исследовательского подхода к обучению. -М.: «Ось – 89» .2006. 480 с.



Sardor QUVVATOV,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: sardorquvvatov@gmail.com

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti F.Eshnazarova taqrizi asosida

TURMUSH ESTETIKASINING SHAKLLANISHIDA MODA VA DIZAYNING TUTGAN O'RNI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Аннотация

Mazkur maqolada turmush estetikasining shakllanishida moda va dizayning tutgan o'rni xususida mulohaza yuritiladi. Xususan, moda va dizayning falsafiy-estetik mohiyati yoritilib, uning shaxs estetik didini shakllantirishdagi roli ko'rsatiladi. Turmush estetikasining shakllanish jarayonida moda va dizayn tushunchasining ba'zi konstruktiv, o'zaro aloqadorlik jihatlari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Estetika, jamiyat, go'zallik, estetik did, turmush, inson, texnika, globallashuv, moda, madaniyat, dizayn.

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ О РОЛИ МОДЫ И ДИЗАЙНА В ФОРМИРОВАНИИ ЭСТЕТИКИ ЖИЗНИ

Аннотация

В данной статье рассматривается роль моды и дизайна в формировании эстетики образа жизни. В частности, выделяется философско-эстетическая сущность моды и дизайна, а также показывается ее роль в формировании индивидуального эстетического вкуса. Описываются некоторые конструктивные, взаимосвязанные аспекты концепций моды и дизайна в процессе формирования эстетики образа жизни.

Ключевые слова: Эстетика, общество, красота, эстетический вкус, жизнь, человек, технологии, глобализация, мода, культура, дизайн.

SOME CONSIDERATIONS ON THE ROLE OF FASHION AND DESIGN IN THE FORMATION OF LIFE AESTHETICS

Annotation

This article discusses the role of fashion and design in the formation of lifestyle aesthetics. In particular, the philosophical and aesthetic essence of fashion and design is highlighted, and its role in the formation of individual aesthetic taste is shown. Some constructive, interrelated aspects of the concepts of fashion and design in the process of the formation of lifestyle aesthetics are described.

Key words: Aesthetics, society, beauty, aesthetic taste, life, human, technology, globalization, fashion, culture, design.

Kirish. Ma'lumki, bugungi kunda jamiyatimizning hech bir sohasi globallashuv jarayonidan chetda emas. Bunday jarayonda yoshlar ongi, tafakkurini turli yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ayniqsa elektron vositalar orqali kirib kelayotgan turli ko'rinishdagi omillarning estetik mazmunini anglash yetish, "ommaviy madaniyat"ning turli shakllariga ratsional baho berish eng dolzarb masala bo'lib, uning zamirida bu ko'rinishdagi zararli ta'sirlariga qarshi yosh avlodga g'oyaviy, mafkuraviy immunitetni estetik vositalar orqali shakllantirish masalasi yotadi. Bunda shaxsni har tomonlama shakllangan komil inson qilib tarbiyalash, milliy g'oyani yuksak his-tuyg'ular negizida chuqur idrok etib, mustaqillikni mustahkamlash ishiga jalb etish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ayni vaqtda, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san'atni anglashga o'rgatish, ularning estetik olamini sog'lom asosda shakllantirish bo'yicha oldimizda juda muhim vazifalar turibdi"[1].

Globallashuv jarayoni xalqimizning ma'naviy qiyofasini o'zgartirish bilan birgalikda shaxs estetik qarashlarining zamonaviylashuviga, ya'ni asta-sekinlik bilan ruhiy-hissiy tuyg'ularining yangilanib borishiga olib kelmoqda. Pirovardida jamiyatni estetiklashtirish, estetik tarbiya va turmush estetikasini shakllantirish masalasi hozirgi kundagi dolzarb masala bo'lmoqda.

Mamlakatimizda jamiyat hayotini estetiklashtirish jarayonlari zamonaviy postmodernistik jamiyatning o'zgarishlariga javob sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Postmodern jamiyatda globallashuv jarayonlari insonni ijtimoiy maydonda yangi o'ringa qo'yadi va bu jarayonlar jamoaviy hayotning muhim aspektlariga ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, jamiyatning estetiklashuvi nafaqat yashash joyini go'zallashtirish, balki jamiyatda estetik hayotni rivojlantirish, turmush estetikasini shakllantirish vositasi sifatida ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. Turmush estetikasi insonning voqelikka bo'lgan keng qamrovli estetik munosabatini ifodalaydi. Turmush estetikasida eng muhimi, odamlarning narsalar dunyosiga, go'zallik va ulug'vorlik orqali qarashlari, estetik didga, ijtimoiy ideallarga o'ziga xos munosabatlari namoyon bo'ladi, pirovard natijada u turmush madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladi[2]. Turmush estetikasining doirasi keng bo'lib, u o'z ichiga faqatgina kundalik turmushning estetik muammolarini qamrab olmasdan, balki tabiat go'zalligi, texnika estetikasi, estetik tarbiya kabi ijtimoiy-ma'naviy hodisalar bilan bog'liq bo'ladi.

Turmush estetikasining amaliy ko'rinishlaridan biri, bu – kiyinish madaniyati va moda tendensiyalaridir. Moda va kiyinish tarzi insonning o'ziga xosligini va uning atrof-muhit bilan estetik aloqasini ifodalaydi. Kiyim va aksessuarlar, tashqi ko'rinishni go'zallashtirishning vositasi sifatida, insonning o'ziga bo'lgan hurmatini va atrof-dagilarga bo'lgan ta'sirini kuchaytiradi. Shu bilan birga, moda insonning kundalik hayotini nafaqat tashqi, balki ichki tomondan ham o'zgartiradi, uning o'zini namoyon qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Moda kishilarning, xususan yoshlarning estetik tarbiyasiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmasligi kam uchraydiga voqelik sirasiga kiradi. Bugun bizni o'ylantirishga majbur qiladigan yoshlar axloqidagi muammoli holatlardan yana biri kiyinish va muomala madaniyatidagi milliy qadriyatlarimizga befarqlikdir. Har bir xalqning urf-odatlarini, an'analarini va milliy liboslari bor. Shu jumladan, o'zbekning ham milliyliги o'ziga xosdir. Hoshiyali do'ppilarimiz, zarbof to'nlarimiz, qadimda ayollarimiz kiygan turli xil liboslar-u, taqinchoqlarimizda ham o'zbekona milliylik mujassam[3] bo'lishi modaning ildizlari faqatgina zamonaviylikda emas, balki milliy qadriyatlarimizning estetik mazmun-mohiyatni ifodalashida ekanligini anglash qiyin emas.

Yoshlar kiyim tanlashda o'z tengqurlarining bu masalaga qanday munosabatda bo'lishiga qarab andaza olishi tabiiy holdir. Qimmatbaho ko'ylaklar kiyishga bo'gan itilish, yirtiq jinslar yoki

soch turmaklari – bularning bari modaga bo'lgan munosabatni ifodalaydi. Bundan bir necha yil muqaddam mamlakatimizda “o'smirlar modasi” degan tushuncha hatto mavjud ham emas edi. Barcha sohalarni qamrab olgan “total defitsit davrida o'smirlar “tasodifiy” kiyimlarda yurishga majbur edi. Biroq ota-onalar o'z farzandlarini imkon qadar po'rimroq kiyintirishga urinar edi. O'smirlarning o'zi ham bu jarayonda faol ishtirokchiga aylandi. Ular kattalarning keng paltosini qayta bichtirib toraytirar, oddiy bichimli shimlarning pochasiiga “klyosh”larni ulab, jinsilarni tog'oralarda qaynatar yoki g'isht bilan ishqalab o'sha davrda modabop bo'lgan fakturalarni hosil qilardi[4].

Moda, kiyim-kechak, poyafzal, aksessuarlar, bo'yanish, soch turmagi, turmush yoki madaniyatda muayyan did yoki qiziqishning ma'lum vaqtgacha qaror topishini o'z ichiga olgan estetik ifodadir[5]. Moda – ijtimoiy hodisa. Moda doimo kishining kimgadir yoki nimagadir taqlid qilish ehtiyojini ifodalash bilan bir qatorda, tashqi madaniyat shakllarining vaqti-vaqti bilan qisman o'zgarishi va takrorlanib turishini ham aks ettiradi. Bu kiyinishda, muomaalaada, muloqotda, yurish-turishda, san'atda, me'morchilikda, ishlab chiqarishda va boshqa ijtimoiy hodisa va jarayonlarda namoyon bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan moda ham o'zgarib boraveradi.

Bilamizki, yoshlar modasiga ko'proq ta'sir ko'rsatuvchi omil bu – estetiklik. Yoshlar uchun kiyim estetik talablarga mos kelishi, moda yo'nalishi bilan uyg'un bo'lishi juda muhimdir. Moda bu o'z vaqtida mashhur bo'lgan va ko'plab odamlar tomonidan qabul qilingan uslub va tasvirlar tizimini ifodalaydi. Odamlarning, xususan yoshlarning modaga bo'lgan munosabatini rus olimi V.Zaytsev quyidagicha izohlaydi: “Umuman modaga hayratlanib va xayrixohlik bilan qaraydilar. Undan zavqlanadilar, unga ergashadilar. Lekin hamma emas. Modani yoqtirmaydiganlar ham bo'lib, ular o'zining yetuk bo'lmagan yoki ochiqdan-ochiq konservativ ideallarini boshqalarga o'tkazish mumkin deb hisoblaydilar. Modelerlarning har bir yangi taklifiga ular ashaddiy qarshilik ko'rsatadilar. Ular to'ng'illab zarda qilib yuradilar, redaksiyalarni jahldor xatlarga ko'mib tashlaydilar, zamonaviy kiyingan kishi ortidan xayqirib kulug ko'taradilar. Biroq hali hech kim vaqtni to'xtata olgan emas”[6].

Modaga munosabat yoshlar orasida ham turlichadir. Bu ruhiyat turfaligi bilan izohlanadi. Insonlarda temperament, fe'l-atvor – turlicha. Shunday ekan, ularda idrok etish ham farqli. Shu sabab kishilar kiyinish madaniyatiga ko'ra, o'rtachalar, avangardchilar va konservatorlar guruhiga ajratiladi. Biroq oxirgi guruhga yoshlar kirmaydi. Bundan kelib chiqadiki, modani tushunish yoshlarning ruhiyatiga, fe'l-atvoriga bog'liq bo'lib, ularning estetik ongida turlicha in'ikos etilar ekan.

Tahlil va natijalar. Modaning bugungi va ertangi holatlarini e'tibordan chetda qoldirish yoshlar kiyimlarini loyihalashda ba'zi tushunmovchiliklarni yuzaga keltiradi. Yigit-qizlar kiyimlarini loyihalashda, birinchi galda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihati-uning qulayligi. Chunki, yoshlar doimo faol harakatda bo'lganliklari bois, liboslar ularga qulaylik tug'dirishi lozim. Lekin, ayrim yoshlar eng so'nggi modada kiyinish va chiroyli ko'rinish uchun, hatto noqulayliklarga ham ko'nikishga o'zlarini majburlashadi. Ular tor shim, yubka va jinsilarni kiyib, o'z tanasiga noqulaylik tug'diradi. Bunday holatda konstruktoring vazifasi – urfdagi siluyet va shaklni saqlab qolgan holda ining qulayligini imkon qadar ta'minlashdir. Bunga konstruktiv vositalar, elastik materiallardan foydalanish yo'li bilan erishish mumkin [7].

Inson qaddi-qomatiga estetik ko'rinish berishi bilan ham estetik taassurot qoldira oladi. Inson chehrasi va tanasining tabiiy tuzilishiga oid ba'zi nuqsanlarni kosmetika, jismoniy tarbiya va tibbiyotning ayrim sohalari yordamida “tartib”ga keltirish mumkin. Biroq bu yerda meyor asosiy mezon hamda ijtimoiy ong darajasi bilan bevosita bog'langan bo'lishi lozim. Bugungi kunda estetik jarrohlik insonga “kosmetik bezak” bermoqda, “chiroy” baxsh etmoqda, o'ziga ishonchni orttirmoqda. Ammo, qalb go'zalligi insoniy go'zallikning asosi bo'lishi lozim. Shu bois turmush estetikasi shaxs badiiy-estetik madaniyatini shakllantirishda asosiy ijtimoiy manba va omil bo'lib xizmat qiladi.

Turmush estetikasini shakllanishi masalasida shunisi ahamiyatliki, insonning uni o'rab turgan narsa va buyumlar, turar

joylariga estetik munosabati substansional muammoga aylanadi. Hozirgi zamonning eng muhim xususiyatlaridan biri — inson turmush tarzining barcha sohalariga ilmiy-texnika yutuqlarining tezkorlik bilan kirib, turmushning barcha jabhalari baynalminallashuviga kishilar faoliyatida umuminsoniy qadriyatlar ahamiyatini kuchaytirayotgan bo'lsada[8], o'z navbatida, mazkur moddiy qadriyatlarni estetiklashtirish, ularga nafasat, go'zallik nuqtai nazaridan baho berish estetik zaruriyatga aylanmoqda. Go'zallik borasida mulohaza yuritir ekanmiz, u faqatgina insonning ma'naviy-ruhiy jabhalarini aks ettirishi yoki faqat insonning estetik mohiyatiga emas, balki insonni qurshab turgan moddiy olam borlig'ini ham nafasatlilik jihatdan aks ettirishining guvohi bo'lamiz.

Insonning dizaynerlik, ijodkorlik qobiliyatlari dastavval turmushda shakllanib boradi. Bunda ma'lum bir xalqning tarixi, mentaliteti, avvaldan shakllanib kelgan turmush tarzi muhim o'rin tutadi. Kiyinishidan tortib, oilaviy an'analar, oilaviy makongacha bolgan hodisalarda odamlarning narsalar dunyosiga, go'zallik va ulug'vorlik orqali qarashlari, estetik didga, ijtimoiy ideallarga o'ziga xos munosabatlari namoyon boladi va bu pirovard natijada turmush madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladi[9]. Biz turmushning ijtimoiy-estetik mohiyatini tahlil qiladigan bo'lsak, uch muhim jihatga e'tibor qaratamiz. Bular, birinchidan, inson hayot kechiradigan rang-barang predmetlar olami; ikkinchidan, insonning boshqalar bilan muloqotda o'zligini namoyon qilish holatlari; uchinchidan, insoniy munosabatlarning odob-axloqda aks etish imkoniyati va xususiyatlari. Bulardan birinchisi bevosita dizayn bilan bogliq.

Turmush estetikasining muhim jihati insonni o'rab turgan narsa va buyumlar yaratish va unga bo'lgan munosabatida aks etadi. Dastlab odamlar sodda mehnat qurollari yasashgan. Keyinchalik yangi tosh asriga kelib, odamlar mehnat qurollarni murakkablashtirdi. Natijada mehnat qurolining ko'rkam va qulayligi uchun kurash estetik tafakkur rivojiga turtki bera bordi. Odamlar endi mehnat qurollariga turli-tuman rasmlar chizadigan bo'ldilar. Qadimgi odamlar turli narsalardan loy, yog'och, tosh va tabiatning boshqa predmetlaridan o'ziga xos mo'jizalar yaratganligi ma'lum. Bu narsalar dizayn faoliyati jarayonida yaratila borib turmush madaniyatining muhim xususiyatini tashkil qiladi.

Dizayn (inglizcha: design - „loyiha“, „chizma“, „rasm“) - narsalar muhitini estetik va funksional sifatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan loyihalash faoliyati turlarini ifodalovchi termin[10]. Shuningdek, dizayn predmetlashgan jihozli muhitni shakllantirishga qaratilgan badiiy-texnik faoliyat turidir. Mazkur faoliyatning asosiy xususiyati shundaki, bunda obyektning barcha jihatlarini foydaliligi, maqsadga muvofiqligi, ko'rinishi va h.k. birlikda olib qaraladi va shu bo'yicha loyihalashtiriladi. Dizaynlik faoliyatining asosiy metodi - bu badiiy loyihalashtirishdirki, bu barcha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Mazkur metodda shakl (tashqi ko'rinish) va mazmun (simmetriklilik, uyg'unlik, ritmiylik va h.k.) o'zaro muvofiqligiga erishish tamoyili belgilovchi jihat hisoblanadi. Masalan, mobil android telefon tashqi ko'rinishi faqat chiroyli bo'lishi bilan birgalikda boshqa talablarga ham javob berishi kerak (xotira hajmi, kamera tiniqligi, ishlash tezligi va boshqa).

“Dizayn, sanoat mahsulotining sifatini oshirishning ta'sirchan vositasidir; u ilmiy tafakkurning so'nggi muvaffaqiyatlarini o'zida gavdalandiradigan, eng yuksak texnikaning iqtisodiy, estetik va boshqa iste'molchilik talablariga javob beradigan, jahon bozorida raqobqtbardosh bo'lishi kerak, bunda esa hal qiluvchi omil dizayndir”[11]. Dizaynning maqsadi - inson bilan uni qurshab turgan mehnatga, turmushga, madaniyatga jalb etuvchi predmetli muhit bilan maksimum darajadagi uyg'unlikni vujudga keltirishdan iborat. Xo'sh, dizayn bu maqsadni qanday qilib amalga oshiradi? Ko'p hollarda biz dizaynning ishi ilmiy-tadqiqot, muhandislik-texnik va badiiy faoliyat sifatida baholanishiga o'rganib qolganmiz. Haqiqatan ham, dizaynning mazkur sohalari bo'yicha faoliyati nisbatini o'rganar ekanmiz, ular o'rtasida juda ko'p umumiy jihatlari ko'zga tashlanadi. Biroq uni faoliyatning u yoki bu sohasidagi o'ziga xos xususiyatlar olami bilan qorishtirib yuborish yoki ikki qo'shiluvchi umumiy summasi sifatida namoyish etish yaramaydi.

Turmush estetikasida insonning butun ichki va tashqi fazilatlarini namoyon bo'ladi. Shuningdek, har bir insonning oddiy va chiroyli kiyim-boshni tanlab kiyishi, didli va farosatli bo'lishi oilaga fayz kiritib, insonning axloqiy va ma'naviy go'zalligini namoyon qiladi. Inson faoliyati turli jabhalarda in'ikos etadi. Uning faoliyati barcha shakl va mahsulotlariga estetiklik xos bolganligi sababli turmush uning estetik gavdalanishini mazmunder qiladi va rang-baranglashtiradi. Bu o'rinda turmush estetikasi dizayndan inersiya olishini alohida ta'kidlash joiz. Shu ma'noda insonni qurshagan predmet va narsalar muhiti uyg'unlik, shinamlik va qulaylik xususiyatlari bilan insonda optimistik kayfiyat, zavq, ko'tarinki kayfiyat, xotirjamlik kabi pozitiv hissiyotlarni uyg'otadi. Shuningdek, insonga o'z hayotidan mamnunlik uyg'otishi, ruhiy muammolar yechimini hal etishda yordam berish kabi funksiyalarni bajarishi mumkin. Binobarin, me'morlar, amaliy san'at namoyandalari, dizaynerlar, umuman ijodkorlar bu estetik qulayliklarni nafaqat moddiy balki insonning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida yaratadi. Turmush estetikasi inson faoliyati sohalari, narsalar olami, intererning tarkibiy qismlari, uning shakllanish qonuniyatlari, ish joylar muhitini shakllantirish kabi masalalarni hal etishda zamonaviy ilm-fan bilan bogliq bolib yangi texnik va texnologik ishlanmalar, dizaynga tayanadi. Narsa va buyumlarni qulay, shinam joylashtirish va ulardan to'g'ri foydalanish kundalik hayotimiz yuqori turmush madaniyatiga daxldor bolib bormoqda va ijtimoiy hayot markazida turibdi.

Dizaynning pozitiv xususiyati shundaki, u yoshlarda estetik hissiyotlar uyg'otish, ularda estetik did va estetik idealni shakllantirish kabi funksiyalarni bajarishga xizmat qiladi. Inson oilada, mahallada o'sib ulg'ayadi. Agar inson yoshligidan estetik muhit ta'sirida voyaga yetsa, uni didi sayqallanib, takomillashib

boradi, estetik ideali shakllanadi. Mazkur muhit narsa va buyumlarni uyg'unligi, xonadon egalarining zamon bilan hamnafasligi, ijodkorlik va bunyodkorlik bir so'z bilan aytganda dizaynerlik qobiliyatining darajasiga bog'liq. Negaki, dizaynerlik Jon Lokk ta'limotidagi "tug'ma g'oya"lar emas, balki orttirilgan fazilatlar genezisining mahsulidir. Insonni qurshab turgan narsa-buyumlar olami, uni o'rab turgan estetik muhit unga zavq, optimistik kayfiyat beradi, estetik hissiyotlar uyg'otadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, shakl va mazmun garmoniyasi san'atda go'zallikni namoyon ettiruvchi asosiy shartlardan biri bo'lgani sababli, dizaynda ham mazkur mezon talab sifatida qayd etiladi. Shu bilan birga dizaynda bir mazmunning bir necha shakllarda in'ikos etish hodisasi yuzaga kelish mumkin. Misol uchun, kundalik turmushda ishlatiladigan jihozlarni dizayner zamonaviy materiallardan foydalangan holda uning ko'rinishi, shakl-shamoyili, foydaligiga ko'ra turlicha yaratadi. Biroq mahsulot qanchalik xilma-xil shaklda bo'lmasin, unga zamonaviy materiallar ishlatmasin ular bajaradigan funksiyaning mazmun-mohiyati o'zgarishsiz qoladi.

Xulosa. Turmush estetikasini shakllantirishda moda muhim ahamiyat kasb etib, u insonning hayot tarzini, o'zini qurshab turgan olamda qanday ifodalashini va ijtimoiy muhitdagi o'rnini belgilovchi muhim element sifatida namoyon bo'ladi. Moda, biror bir davrda ommalashgan estetik tamoyillarni ifodalash bilan birgalikda mohiyatan dizaynga bog'liq ijtimoiy hodisadir. Dizayn insonni uni qurshab turgan mehnatga, turmushga, madaniyatga jalb etuvchi predmetli olam bilan oliy darajadagi uyg'unlikni yuzaga keltirishi bilan bir qatorda, u yoshlarda turmush nafosatini anglash, estetik hissiyotlar uyg'otish, shuningdek ularda estetik did va estetik idealni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. –Т.: Ўзбекистон, 2-жилд, 2018. 196-бет.
2. Abdulla Sher. Estetika. –Т.:O'zbekiston, 2014. 240-b.
3. Usmonov K, Yoshlar axloqiy tarbiyasini yuksaltirishda mahallaning o'rni, Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. 2012- yil, 3-son, 131-b
4. Otaxonova F. O'smirlar libosi nega o'zgaruvchan?, Tafakkur, 2019-yil, 3-son, 121-b
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Moda>
6. Зайцев В.. Такая изменчивая мода. М., 1980., с 11
7. Otaxonova F. O'smirlar libosi nega o'zgaruvchan?, Tafakkur, 2019-yil, 3-son, 121-b
8. Choriyev A, Inson falsafasi. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti T.: 2007. 395-b
9. Falsafa asoslari. O'quv qo'llanma, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent -2018, 346-bet
10. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Dizayn>
11. Безмоздин Л.Н. В мире дизайна. Т.: 1990. Фан. с 8.



UDK:330.5.055.2

Ulug'bek QURBANOV,
O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi
Shohrux NUTFULLAYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi
E-mail: shohruxnutfullayev@gmail.com

O'zMU dotsenti, PhD M.Umurzakova taqrizi asosida

AHOLI DAROMADLARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHDA DAVLAT SIYOSATINING ROLI VA IMKONIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada hukumatlar daromadlar diversifikatsiyasini kuchaytirish mexanizmlari, jumladan, soliq islohotlari, ijtimoiy himoya dasturlari, mehnat bozorini tartibga solish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalalari ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, u texnologik taraqqiyot, globallashuv va sektoral o'zgarishlarning daromadlar tuzilmalariga ta'sirini o'rganadi. Topilmalar shuni ko'rsatadiki, siyosatning yaxshi muvazanatlangan aralashmasi, odamlar shuningdek uy xo'jaliklari uchun barqaror va xilma-xil daromad manbalarini ta'minlash uchun imkoniyatlar yaratishi shu bilan birga umumiy iqtisodiy barqarorlikni oshirishi mumkin.

Kalit so'zlar: Davlat siyosati, daromadlarni diversifikatsiya qilish, iqtisodiy barqarorlik, daromadlar tengsizligi, mehnat bozori, tadbirkorlik, ijtimoiy himoya, soliqqa tortish, iqtisodiy o'sish, moliyaviy barqarorlik.

THE ROLE AND OPPORTUNITIES OF PUBLIC POLICY IN DIVERSIFYING HOUSEHOLD INCOMES

Annotation

This article examines the mechanisms by which governments can enhance income diversification, including tax reforms, social protection programs, labor market regulation, and support for entrepreneurship. It also examines the impact of technological progress, globalization, and sectoral changes on income structures. The findings suggest that a well-balanced policy mix that creates opportunities for individuals and households to secure stable and diverse sources of income can, at the same time, enhance overall economic stability.

Key words: Public policy, income diversification, economic stability, income inequality, labor market, entrepreneurship, social protection, taxation, economic growth, financial stability.

РОЛЬ И ВОЗМОЖНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ В ДИВЕРСИФИКАЦИИ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ

Аннотация

В статье рассматриваются механизмы, с помощью которых правительства могут усилить диверсификацию доходов, включая налоговые реформы, программы социальной защиты, регулирование рынка труда и поддержку предпринимательства. Кроме того, изучается влияние технического прогресса, глобализации и отраслевых изменений на структуру доходов. Результаты исследования показывают, что сбалансированный комплекс мер политики может создать возможности для отдельных лиц и домохозяйств по обеспечению стабильных и разнообразных источников дохода, а также повысить общую экономическую стабильность.

Ключевые слова: Государственная политика, диверсификация доходов, экономическая стабильность, неравенство доходов, рынок труда, предпринимательство, социальная защита, налогообложение, экономический рост, финансовая стабильность.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiy nutqda uy xo'jaliklarining daromad manbalarini diversifikatsiya qilish moliyaviy barqarorlikni oshirish va daromadlar tengsizligini yumshatishning asosiy strategiyasi sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Davlat siyosati soliq islohotlaridan tortib, ijtimoiy ta'minot dasturlarigacha bo'lgan turli tadbirlarni qo'llagan holda, bu diversifikatsiyani osonlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

So'nggi statistik ma'lumotlar diversifikatsiyalangan daromad oqimlariga bo'lgan ehtiyojni ta'kidlaydi. 2022 yilda AQSH aholini ro'yxatga olish byurosi uy xo'jaliklarining o'rtacha daromadi 70 784 dollarni tashkil etdi. Shu bilan birga, Iqtisodiy tahlil byurosi shtatlar bo'ylab shaxsiy daromadlarni taqsimlashda sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatadigan prototip statistik ma'lumotlarni taqdim etdi[1].

Ushbu nomutanosibliklar daromadlar tengsizligini bartaraf etishda davlatga xos siyosatning muhim rolini ko'rsatadi. Daromadlarni diversifikatsiya qilish ko'p qirrali qashshoqlikni sezilarli darajada yengillashtirishi mumkin. Yaqinda o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, daromad manbalari diversifikatsiyalangan uy xo'jaliklarida ko'p o'leovli qashshoqlik darajasi 9,5 foizga qisqargan. Ushbu topilma turli xil daromad yo'llarini rag'batlantirish orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatining salohiyatini ta'kidlaydi[2].

Prognozlar shuni ko'rsatadiki, strategik siyosat aralashuvi daromadlarni diversifikatsiya qilish natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, keng qamrovli soliq islohotlarini

amalga oshirish va kichik va o'rta biznesni (KO'B) qo'llab-quvvatlash kelgusi o'n yil ichida daromadlar xilma-xilligini taxminan 15 foizga oshirishi kutilmoqda. Bundan tashqari, texnologik yutuqlarning an'anaviy tarmoqlarga integratsiyalashuvi daromad olishning yangi imkoniyatlarini yaratishi, shu vaqt ichida uy xo'jaliklari daromadlarini o'rtacha 10% ga oshirishi kutilmoqda[3].

Adabiyot tahlili va metodikasi. Aholi daromadlarini diversifikatsiya qilish masalasi zamonaviy iqtisodiyotda muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Bu borada bir qancha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari mavjud bo'lib, ular iqtisodiy barqarorlikka erishishda daromad manbalarining ko'pligi asosiy omil ekanini ta'kidlaydilar. Masalan, taniqli iqtisodchi Pol Samuelson daromadlar diversifikatsiyasi iqtisodiy risklarni kamaytirish va aholini iqtisodiy beqarorlikdan himoya qilishda muhim omil ekanini ta'kidlagan. Uning fikricha, "daromad oqimining barqarorligi bevosita daromad manbalarining xilma-xilligi bilan belgilanadi".

O'zbekistonda esa professor X. Xakimov o'zining iqtisodiy xavfsizlikka oid tadqiqotlarida daromad diversifikatsiyasini iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ko'radi. Unga ko'ra, "aholi daromadlarining bir necha manbalardan shakllanishi turmush darajasining oshishi va kambag'allikning qisqarishiga olib keladi".

Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) kabi xalqaro tashkilotlar ham

daromad diversifikatsiyasini barqaror iqtisodiy taraqqiyotning zaruriy sharti sifatida ko'rsatishgan. Ularning hisobotlarida ko'rsatilishicha, yuqori darajada diversifikatsiyalashgan iqtisodiyotlar iqtisodiy inqirozlarga kamroq ta'sirchan bo'ladi.

Davlat siyosatining bu boradagi roli ham keng o'rganilgan. Masalan, iqtisodchi D. Rodrik davlatning institut sifatidagi o'rni haqida gapirar ekan, "davlat ijtimoiy adolatni ta'minlash va resurslarni qayta taqsimlash orqali diversifikatsiyani rag'batlantirishi kerak", deb hisoblaydi. Shuningdek, mahalliy iqtisodchilar — B. Bekmurodov, A. Abdurahmonov va boshqalar ham aholi bandligini oshirish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, subsidiya va grant siyosatining ahamiyatiga urg'u berishgan[6].

Shu o'rinda, mavjud adabiyotlar asosida quyidagi muhim jihatlarni aniqlanmoqda:

Daromad diversifikatsiyasi iqtisodiy barqarorlikka zamin yaratadi;

Davlat siyosati tadbirkorlikni rag'batlantirish, ijtimoiy himoya tizimlarini kuchaytirish orqali bu jarayonni boshqaradi;

Ta'lim, innovatsiyalar va infratuzilmani rivojlantirish orqali daromad manbalarini kengaytirish mumkin.

Ushbu ilmiy maqola aholi daromadlarini diversifikatsiya qilishda davlat siyosatining o'rni va imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar va tahlil metodlarini ko'rishimiz mumkin:

Tizimli yondashuv – daromad manbalarining shakllanishi, davlat siyosati va aholi farovonligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks tahlil qilishga yordam beradi.

Empirik tahlil – rasmiy statistik ma'lumotlar (Davlat statistika qo'mitasi, Markaziy bank, Moliya vazirligi ma'lumotlari) asosida daromad manbalarining tarkibi, ularning tarmoq kesimidagi holati o'rganiladi.

Solishtirma tahlil – O'zbekiston tajribasi boshqa mamlakatlar (masalan, Janubiy Koreya, Turkiya, Malayziya) bilan solishtirilib, o'xshashlik va farqlar aniqlanadi.

Ekspert baholari – iqtisodchi olimlar, amaliyotchilar va soha mutaxassislarining fikrlari asosida davlat siyosatining samaradorlik darajasi baholanadi.

Normativ-huquqiy tahlil – O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari asosida daromad diversifikatsiyasini qo'llab-quvvatlovchi siyosiy hujjatlar o'rganiladi.

SWOT tahlil – davlat siyosatining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlar va tahdidlar baholanadi.[7]

Bu metodlar asosida maqolada O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatidagi amaliy chora-tadbirlari, ularning natijalari va kelgusidagi imkoniyatlar tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida aholining umumiy daromadlarining o'zgarish salmog'i [12].

Ko'rsatkichlari	2020-yil	2023-yil	O'sish sur'ati
1. Umumiy daromadlar, jami,	100,0	100,0	115,0
Birlamchi daromadlar, shu jumladan	70,1	73,3	120,1
-ishlab chiqarishdan olingan daromadlar	67,9	70,5	119,4
-mehnat faoliyatidan olingan daromadlar	61,4	64,0	119,8
-yollanma ishchilarning daromadlari	28,4	29,7	119,9
-mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar	33,0	34,3	119,7
-shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqariladigan xizmatlardan olingan daromadlar	6,5	6,5	115,6
-mol-mulkdan olingan daromadlar	2,2	2,8	143,7
Transferlardan olingan daromadlar	29,9	26,7	103,0

Soliq islohotlari va daromadlarni diversifikatsiya qilish: Soliq siyosati hukumatlar uchun iqtisodiy xatti-harakatlarga va resurslarni taqsimlashga ta'sir qilishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Qo'shma Shtatlardagi 2017 yilgi Soliqlarni qisqartirish va ish joylari to'g'risidagi qonun (TCJA) tegishli misollarni taqdim etadi. Ushbu qonunchilik iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va go'yoki daromad manbalarini kengaytirish maqsadida jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning soliq stavkalarini sezilarli darajada pasaytirdi. Biroq, ushbu soliq imtiyozlarining muddati tugashi potensial muammolarni keltirib chiqaradi. Qonunchilik aralashuvizis, barcha daromad guruhlari bo'yicha soliq to'lovchilar o'rtacha soliqni taxminan 22% ga oshirishi mumkin, bunda 75 000 AQSH dollari daromad oladigan oila qo'shimcha 1500 AQSH dollari miqdorida yillik soliqdarga

Natija va muhokama. Uy xo'jaliklarining daromadlarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan davlat siyosatining tahlili bir nechta asosiy xulosalarni ochib beradi:

Soliq islohotlarining daromadlarni diversifikatsiya qilishga ta'siri:

Empirik dalillar shuni ko'rsatadiki, soliq islohotlari, xususan, qo'shilgan qiymat solig'ini (QQS) joriy etish va daromad solig'i tizimini qayta qurish bilan bog'liq bo'lgan islohotlar uy xo'jaliklari farovonligi va daromadlarni diversifikatsiya qilishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, savdo solig'ining QQS bilan almashtirilishi va daromad solig'ining yangi tuzilmasining joriy etilishi uy xo'jaliklari farovonligi dinamikasining o'zgarishi bilan bog'liq[5].

Daromadlar tengsizligini kamaytirishda ijtimoiy himoya dasturlarining roli:

Ijtimoiy himoya dasturlari daromadlar tengsizligini yumshatishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy himoyaga ko'proq xarajatlar ajratadigan mamlakatlarda daromadlar nomutanosibligi sezilarli darajada kamayadi. O'rtacha hisobda mustahkam ijtimoiy himoya tizimiga ega bo'lgan mamlakatlarda daromadlar tengsizligi ko'rsatkichlarining sezilarli darajada pasayishi kuzatilmoqda[4].

Daromadlarni diversifikatsiya qilish va fiskal barqarorlik:

Munitsipal darajada daromad manbalarini diversifikatsiya qilish fiskal barqarorlikka yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli xil daromad manbalariga ega bo'lgan munitsipalitetlar, jumladan, mulk solig'i, daromad solig'i va savdo soliqlari iqtisodiy o'zgarishlarni boshqarish uchun yaxshi jihozlangan. Bu diversifikatsiya iqtisodiy inqiroz davrida ham barqaror daromad olish imkonini beradi.


Daromadlar darajasida ijtimoiy yordam dasturlari samaradorligi:

Ijtimoiy yordam dasturlari samaradorligi turli xil daromad darajasiga ega mamlakatlarda farq qiladi. Mamlakatlar o'rtasidagi tahlillar daromadlar xavfsizligi va ijtimoiy himoya choralarining ta'sirchanligida sezilarli farqlarni aniqlaydi. O'rtacha daromadi past bo'lgan mamlakatlar, xususan, daromadlarning sezilarli darajada qisqarishini boshdan kechirmoqda, bu esa moslashtirilgan ijtimoiy yordam tadbirlariga ehtiyojni ta'kidlaydi[9].

Aholi farovonligini ifodalashda jami aholining, oilalarning, alohida shaxslarning umumiy daromadlari muhim ahamiyatga ega. Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, e'tirof etish kerakki, daromad olish uchun har qanday cheklovlar, sun'iy to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari ijobiy samara bermoqda, uning natijasi quyida keltiriladi (1-jadval).

Bunday o'sish ixtiyoriy daromadni cheklab qo'yishi mumkin, bu esa turli xil daromad keltiradigan faoliyatga sarmoya kiritish imkoniyatlarini cheklashi mumkin[8].

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha islohotlarning makroiqtisodiy oqibatlari atroflicha o'rganildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, soliq imtiyozlari o'sishni rag'batlantirishi mumkin bo'lsa-da, taklifning yon ta'siri ko'pincha past marjinal soliq stavkalarini tufayli daromad yo'qotishlarini qoplash uchun yetarli emas. Bu shuni ko'rsatadiki, soliqlarni kamaytirish uy xo'jaliklari daromadlarining qisqa muddatli o'sishini ta'minlashi mumkin bo'lsa-da, ular qo'shimcha siyosatlarisiz daromadlarni diversifikatsiya qilishni barqaror ravishda kuchaytira olmaydi.



Hududlarning aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning (yollanib ishlovchilarning ish haqi va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar) eng yuqori ulushi Navoiy (81.2%) viloyatida kuzatildi. Aksincha, Toshkent shahri, Samarqand, Namangan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Surxandaryo, Andijon hamda Qashqadaryo viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi. Shuningdek, Samarqand, Andijon va Surxondaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida transferlardan olingan daromadlar aholining umumiy daromadlariga nisbatan 30% dan yuqori ulushni tashkil etdi.

Siyosatni amalga oshirishning hozirgi traektoriyasi va ularning kuzatilgan ta'siridan kelib chiqib, bir nechta prognozlarini amalga oshirish mumkin: Agar soliq imtiyozlari yangilanmasdan tugasa, soliq yuklarining ko'payishi uy xo'jaliklarining ixtiyoriy daromadlarining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Bu iste'mol xarajatlari hamda jamg'arma stavkalarini potensial ravishda kamaytirishi va shu bilan daromadlarni diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Aksincha, soliq imtiyozlarini

uzaytirish joriy daromad darajasini saqlab qolishi mumkin, lekin fiskal taqchillikni kuchaytirishi mumkin, bu esa soliq siyosatiga uy xo'jaliklari farovonligi va makroiqtisodiy barqarorlikni hisobga olgan holda muvozanatli yondashuvni talab qiladi[11].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, soliq siyosati va ijtimoiy himoya dasturlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik murakkab va nozik yondashuvni talab qiladi. Soliq islohotlari bir martalik daromadlar va investitsion xatti-harakatlarga ta'sir qilishi mumkin bo'lsa-da, ijtimoiy himoya dasturlari tavakkalchilik va iqtisodiy harakatchanlikni ta'minlaydigan xavfsizlik tarmog'ini ta'minlaydi. Siyosatchilar daromadlarni diversifikatsiya qilishni samarali rag'batlantiradigan va tengsizlikni kamaytiradigan strategiyalarni ishlab chiqish uchun ushbu vositalarning sinergik ta'sirini hisobga olishlari kerak. Kelgusi tadqiqotlar ushbu siyosatlarning uzoq muddatli ta'sirini baholash uchun bir-nechta tadqiqotlarga e'tibor qaratishi va optimal iqtisodiy natijalarga erishish uchun soliq va ijtimoiy ta'minot tizimlarini uyg'unlashtirishning innovatsion yondashuvlarini o'rganishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. IMF Working Paper on Tax Revenue Diversification Index. IMF.org.
2. "Revisiting the Theory of Revenue Diversification" – Georgia State University. ScholarWorks GSU.
3. "Revenue Diversification and the Financing of Large American Central Cities" – Lincoln Institute.
4. "More Than 4 in 10 Children in Renter Households Face Food and/or Housing Hardship" – CBPP. CBPP.org.
5. "Macroeconomic and Distributional Effects of Personal Income Tax Reforms" – IMF. IMF.org.
6. Бекмуродов Б. "Аҳоли даромадларини диверсификация қилишда тадбиркорликни ривожлантиришнинг ўрни". // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий журнали. – 2022, №3.
7. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari: <https://mf.uz>
8. "Income Diversification Among Farming Households Headed by Women: A Gender Perspective" – Taylor & Francis. Tandfonline.
9. "Economic Diversification in Developing Countries" – IMF eLibrary. IMF eLibrary.
10. "Local Revenue Diversification: Rural Economies (SR-13)" – UNT Library. UNT Library.
11. "Income Diversification as Insurance in an Increasingly Risky World" – AEA Web. AEA Web.
12. <https://stat.uz/2023uz/3119/14-aholining-umumiy-daromadlari>.



UDK:091

*Muxabbat QURBONOVA,
Andijon davlat tibbiyot instituti o'qituvchisi*

Falsafa fanlari doktori, dotsent O. Uroкова taqrizi asosida

O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIK JARAYONLAR EVOLYUSIYASI VA DINAMIKASINING IJTIMOIIY FALSAFIY TAHLILI

Аннотация

Mazkur maqolada O'zbekistondagi demografik jarayonlarning tarixiy rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar ta'sirida shakllangan dinamikasi falsafiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Demografik o'sish, urbanizatsiya, mehnat migratsiyasi, yoshlar va ayollar salmog'ining ortishi kabi omillar jamiyat taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani falsafiy asosda yoritiladi. Shuningdek, demografik barqarorlik va ijtimoiy uyg'unlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Demografik jarayon, ijtimoiy-falsafiy tahlil, aholi tarkibi, urbanizatsiya, migratsiya, yoshlar, gender dinamikasi, barqarorlik, taraqqiyot.

ЭВОЛЮЦИЯ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ И ДИНАМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В данной статье с философской точки зрения анализируются исторические этапы развития демографических процессов в Узбекистане, а также их динамика, сформировавшаяся под воздействием социально-экономических и культурных факторов. Рассматривается влияние таких факторов, как демографический рост, урбанизация, трудовая миграция, увеличение доли молодежи и женщин, на развитие общества. Кроме того, исследуется взаимосвязь между демографической стабильностью и социальной гармонией.

Ключевые слова: Демографический процесс, социально-философский анализ, состав населения, урбанизация, миграция, молодежь, гендерная динамика, стабильность, развитие.

EVOLUTION OF DEMOGRAPHIC PROCESSES AND DYNAMICS IN UZBEKISTAN SOCIAL-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Annotation

This article analyzes the historical stages of demographic processes in Uzbekistan and their dynamics, shaped by socio-economic and cultural factors, from a philosophical perspective. It explores how factors such as demographic growth, urbanization, labor migration, and the increasing proportion of youth and women influence societal development on a philosophical basis. Additionally, the interrelation between demographic stability and social harmony is examined.

Key words: Demographic process, socio-philosophical analysis, population composition, urbanization, migration, youth, gender dynamics, stability, development.

Kirish. Demografik jarayonlar har qanday jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Aholi sonining o'sishi, uning hududiy taqsimlanishi, yosh va jins tarkibi, migratsion harakatlar — bularning barchasi nafaqat statistika, balki falsafiy tahlilni ham talab qiluvchi ijtimoiy hodisalardir. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng demografik rivojlanish yangi bosqichga o'tdi: aholining o'sish sur'ati yuqorilab bordi, urbanizatsiya jarayonlari faollashdi, tashqi mehnat migratsiyasi kengaydi.

Adabiyotlar sharhi. G'ofurovning fikricha, O'zbekistondagi demografik jarayonlar faqat statistik o'zgarishlar emas, balki jamiyatning o'zini anglash, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy hayot falsafasini ifodalovchi murakkab hodisadir. U o'z asarida demografik o'sish, aholi sonining tarkibiy o'zgarishi va ijtimoiy tizimlar o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor qaratadi. G'ofurov demografiyani milliy rivojlanish strategiyasining asosi deb baholaydi [1].

Tursunovanning tadqiqotida urbanizatsiya jarayonining demografik dinamikaga ta'siri falsafiy-ijtimoiy tahlil asosida yoritilgan. Uning fikricha, aholining shahar hududlariga ko'chishi nafaqat hududiy taqsimotda, balki qadriyatlar o'zgarishida ham muhim rol o'ynaydi. Tursunova urbanizatsiyani inson hayoti sifati bilan bevosita bog'laydi [2]. Mahmudovning asarida, demografik o'sish va jamiyatdagi ijtimoiy tenglik o'rtasidagi bog'liqlik yoritilgan. U demografik siyosatni axloqiy mas'uliyat bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlab, bu borada jamiyat ongidagi o'zgarishlar muhimligini urg'ulaydi. Mahmudovning fikricha, demografik barqarorlik ijtimoiy adolat bilan chambarchas bog'liq [3]. Sa'dullayevning fikricha, yoshlarga oid demografik

ko'rsatkichlar O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida strategik ustuvorlik kasb etmoqda. Uning tadqiqotida yoshlarning iqtisodiy faolligi, ta'lim darajasi va ijtimoiy faolligi demografik salohiyatning asosiy belgilari sifatida talqin etilgan [5]. Baxtiyorovning asarida, ayollar ijtimoiy faolligining demografik natijalarga ta'siri yoritiladi. U ayollarning bandligi, sog'lom turmush tarzi va ta'lim darajasi bilan aholi salomatligi, tug'ilish ko'rsatkichlari va oila barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratadi. Baxtiyorovning fikricha, gender tengligi demografik muvozanatni ta'minlovchi muhim omildir [6].

Saidovning falsafiy mulohazalarida, barqaror taraqqiyot tushunchasi orqali demografik jarayonlarga kengroq nazar tashlanadi. Unga ko'ra, har qanday demografik siyosat faqat iqtisodiy emas, balki madaniy va axloqiy omillarga tayangan holda amalga oshirilishi zarur. Saidov demografiyani milliy qadriyatlar tizimi bilan uyg'un holda ko'rib chiqadi [8].

UNFPA hisobotlariga ko'ra, O'zbekiston aholisining yosh tarkibi, migratsion harakati va tug'ilish darajasi global tendensiyalardan farq qiladi. Hisobotda aytilishicha, mavjud demografik imkoniyatlar davlat tomonidan ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish orqali samarali boshqarilishi kerak [7].

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga asoslanib, maqolada keltirilgan raqamlar demografik o'sish sur'atlari, migratsiya miqyosi va aholining hududiy joylashuvi bo'yicha asosiy faktlarni ko'rsatadi. Bu statistik ma'lumotlar falsafiy tahlil uchun empirik zamin bo'lib xizmat qiladi [4].

Tadqiqot metodologiyasi empirik tahlil. O'zbekistonda demografik jarayonlar quyidagi tarixiy bosqichlarda shakllangan:

Sovet davri (1920–1990): Aholining o'sish sur'atlari nazorat ostida bo'lgan. Rejalashtirilgan siyosat, industrializatsiya va ko'p bolalik targ'ib qilgan.

Mustaqillikdan so'nggi davr (1991–2020): Yangi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy muhit shakllandi. Bozor iqtisodiyoti, xususiy sektor rivoji, iqtisodiy migratsiya va tug'ilish ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar aholi dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Yangi O'zbekiston davri (2021-yildan hozirgacha): Davlat siyosatida demografik barqarorlik, sog'lom avlod, gender tengligi va yoshlar salohiyatiga alohida e'tibor berilmoqda. Oilaviy siyosat, ayollar bandligi, yoshlarga imkoniyatlar yaratish kabi yo'nalishlar aholining sifat ko'rsatkichlariga e'tibor qaratilayotgan dalolat beradi. Demografik jarayonlarning ushbu bosqichlari har bir davrning ijtimoiy-falsafiy asoslari bilan uzviy bog'liq; jamiyat hayotida insonning o'rnini, qadri va mas'uliyati tobora chuqurlashib bormoqda.

Bugungi kunda O'zbekistondagi demografik jarayonlarga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatmoqda:

Yoshlar salmog'ining yuqoriligi – O'zbekiston aholisi tarkibida yoshlar (18–30 yosh) yuqori ulushni tashkil etadi. Bu esa iqtisodiy faollik, ta'lim, bandlik va innovatsiya siyosatiga bevosita ta'sir qilmoqda.

Tashqi mehnat migratsiyasi – millionlab fuqarolar mehnat migratsiyasida ishtirok etmoqda. Bu esa oila strukturasi, jamiyatdagi gender rollarida va iqtisodiy tarmoqlarda o'zgarishlarga olib kelmoqda.

Shahar va qishloq nisbati – urbanizatsiya jarayonlari kuchaymoqda. Aholining yirik shaharlarga ko'chishi turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlar modelini o'zgartirmoqda.

Tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari – sog'liqni saqlash, ona va bola salomatligi bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar ijobiy natijalar bermoqda.

Bu omillar demografiyani oddiy statistik ko'rsatkichdan ijtimoiy ong, axloqiy qadriyatlar va madaniy muhit bilan bog'liq murakkab hodisaga aylantiradi.

Demografik o'sish yoki kamayish — bu oddiy raqamlar emas, balki jamiyatning o'z hayoti, kelajagi, mavjudligi haqidagi qarashidir. Shuning uchun demografik dinamikani ijtimoiy-falsafiy jihatdan quyidagicha talqin qilish mumkin:

Inson qadriyatining markaziy o'rnini: Demografik siyosat jamiyatda inson hayotining qadriyat sifatida qaralishini aks ettiradi.

Barqaror rivojlanish va avlodlar uzviyligi: Aholi o'sishi bilan bog'liq masalalar ekologiya, iqtisodiyot va ijtimoiy infratuzilmaga bosim sifatida emas, balki jamiyatning yangilanish resursi sifatida ko'riladi.

Gender va oilaviy qadriyatlar: O'zbek jamiyatida ayolning ijtimoiy faolligi, ta'limli va band bo'lishi demografik barqarorlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida talqin etiladi.

Jamiyat rivojlanishining evolyusiyasi: Har bir demografik o'zgarish — bu jamiyat ongidagi o'zgarishning belgisi, ayni paytda yangi axloqiy, siyosiy va madaniy yondashuvlarni talab qiluvchi holatdir.

Natijalar. O'zbekiston jamiyati o'zining qadimiy oilaparvarlik an'analari, ajdodlardan meros bo'lib qolgan qadriyatlarini orqali doimo demografik barqarorlikni ta'minlab kelgan. Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, demografik o'sish nafaqat biologik va iqtisodiy omil, balki milliy o'zlikni saqlab qolish vositasi sifatida ham qaraladi.

Oila – jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim ijtimoiy birligi sifatida yangi avlodni tarbiyalovchi va uzviylikni ta'minlovchi zamin bo'lib xizmat qiladi.

Ma'naviy qadriyatlar, diniy e'tiqodlar, ota-onaga hurmat, farzandni ko'p qilish istagi kabi tushunchalar demografik modelni belgilovchi ijtimoiy kuchlardandir.

Bunday qadriyatlar orqali faqat son jihatdan emas, balki sifatli inson kapitali shakllanadi, bu esa jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining tayanchidir.

Demografik o'sish O'zbekistonning ayrim hududlarida ekologik yuklamani kuchaytirmoqda. Bu esa aholining joylashuvi,

yashash sifati va tabiiy resurslardan foydalanishdagi ijtimoiy mas'uliyatni talab etadi.

Falsafiy jihatdan, inson – tabiat – jamiyat o'rtasidagi uyg'unlik saqlanishi kerak.

O'zbekistonning janubiy va g'arbiy mintaqalarida suv resurslari, iqlim o'zgarishi, yer sharoiti demografik zichlikka qarab differensial yondashuvni talab etadi.

Demografik barqarorlikni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirish — bu ijtimoiy ong darajasining ko'tarilishi bilan chambarchas bog'liq.

Shu sabab, demografik siyosatda ekologik muvozanatni inobatga olgan falsafiy yondashuvlar zarur.

Zamonaviy dunyoda demografik siyosat ko'plab davlatlarda milliy xavfsizlik masalasi sifatida ko'rilmogda. O'zbekiston ham bundan mustasno emas. Aholining haddan tashqari tez o'sishi yoki teskari yo'nalishda kamayishi ijtimoiy muvozanatga tahdid solishi mumkin.

Xalq sonining o'sishi ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy bilan ta'minlash kabi sohalarga bosimni kuchaytiradi.

Shuningdek, ishsizlik darajasining oshishi, migratsiya oqimlarining ko'payishi, ijtimoiy tengsizlik kuchayishi mumkin.

Shu bois, demografik siyosatda ehtiyotkorlik, oldindan rejalashtirish va falsafiy qarash asosida strategik yondashuv bo'lishi zarur.

Demografik xavfsizlik bu — ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, milliy manfaatlar va madaniy yaxlitlikni ta'minlashda hal qiluvchi omildir.

O'zbekiston jamiyati uchun demografik barqarorlik masalasi faqat bugungi kun emas, balki kelajak avlod oldidagi mas'uliyat nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqilishi zarur. Har bir yangi tug'ilayotgan avlod — bu jamiyatning genetik, madaniy va ijtimoiy davomiyligi kafolatidir.

Falsafiy jihatdan, demografik jarayonlar orqali jamiyat o'zini yangilaydi, hayot falsafasini meros sifatida avloddan avlodga uzatadi.

Shu sababli farzand tarbiyasi, yoshlar salohiyatini rivojlantirish va ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash — faqat pedagogik emas, balki falsafiy-axloqiy masaladir.

Davlat tomonidan ilgari surilayotgan "inson qadri uchun" tamoyili demografik siyosatda ham namoyon bo'lishi lozim: har bir fuqaro hayoti muqaddas va qadrlidir.

Demografik siyosat shu ruhdan olib borilsa, u nafaqat son, balki sifat jihatidan yuksak avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida demografik jarayonlarning ijtimoiy-falsafiy barqarorligini ta'minlash uchun quyidagi ilmiy-amaliy yo'nalishlarni taklif qilish mumkin:

Demografik siyosatni hududiy differensial asosda olib borish – har bir viloyatning o'ziga xos demografik ko'rsatkichlari asosida alohida yondashuv zarur.

Ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi targ'ibotlar – demografik barqarorlik faqat iqtisodiy rag'bat bilan emas, balki ma'naviy ong bilan ta'minlanadi.

Ijtimoiy infratuzilmalarni demografik sur'atga moslashtirish – sog'liqni saqlash, ta'lim, uy-joy, transport kabi xizmatlarning sifatini o'sib borayotgan aholiga mos holga keltirish lozim.

Yoshlar va ayollar siyosatini demografik barqarorlik bilan bog'lash – oilaviy barqarorlik, bandlik va ta'lim integratsiyalashgan holda olib borilishi kerak.

Migratsion siyosatni optimallashtirish – tashqi mehnat migratsiyasi oqibatlarini ijobiy boshqarish mexanizmlari ishlab chiqilishi zarur.

Demografik jarayon — bu raqamlar yig'indisi emas, balki millat hayotining falsafiy ifodasidir. Insonning tug'ilishi, yashashi, harakati va jamiyatda egallagan o'rnini o'zida ijtimoiy ong, axloq, madaniyat va qadriyatlar uyg'unligini mujassam etadi. Demografik barqarorlik, bu — jamiyatdagi ijtimoiy adolat, barqaror taraqqiyot va milliy kelajak garovidir.

O'zbekiston ijtimoiy-falsafiy taraqqiyot yo'lida demografik siyosatni faqat ijtimoiy xizmatlar bilan emas, balki ma'naviy ong va strategik tafakkur bilan uyg'un holda yuritmoqligi zarur. Shu yo'ldagina barqaror, sog'lom va bilimli jamiyat shakllanishi mumkin. Bugungi globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida demografik jarayonlar endilikda

nafaqat tabiiy harakatlar (tug'ilish, o'lim, migratsiya), balki axborot muhitidagi tendensiyalar bilan ham chambarchas bog'liq. Ayniqsa yoshlar demografik guruhida qarorlar — oila qurish, farzandli bo'lish, yashash joyini tanlash — ko'proq ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va raqamli madaniyat ta'sirida shakllanmoqda.

Xulosa va munozara. O'zbekistonda demografik jarayonlarning evolyusiyasi faqat son jihatdan emas, balki falsafiy va ijtimoiy mazmun jihatidan ham jiddiy o'zgarishlar bilan

kechmoqda. Demografik o'sishning barqaror yo'nalishda davom etishi uchun davlat siyosatida inson kapitaliga sarmoya kiritish, sog'lom oila modelini qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash, yoshlar salohiyatidan to'g'ri foydalanish, mehnat migratsiyasining ijobiy taraflarini rag'batlantirish muhim sanaladi. Falsafiy yondashuv orqali demografik jarayonlarni chuqur tahlil qilish kelajak avlodlar uchun mas'uliyatli va adolatli jamiyat qurishda muhim manbadir.

ADABIYOTLAR

1. G'ofurov, Z. (2021). O'zbekiston demografiyasining zamonaviy muammolari. – Toshkent: Iqtisodiyot.
2. Tursunova, M. (2020). Urbanizatsiya va ijtimoiy dinamikalar. – Samarqand: Fan va Taraqqiyot.
3. Mahmudov, A. (2019). Demografik rivojlanish: ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar. – Toshkent: O'qituvchi.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi materiallari (2022).
5. Sa'dullayev, N. (2022). Yoshlar va demografik barqarorlik. – Andijon: Ma'naviyat.
6. Baxtiyorova, M. (2023). Ayollar va demografik o'zgarishlar. – Buxoro: Ijtimoiy izlanishlar markazi.
7. UNFPA (2021). O'zbekiston demografik prognozlar. – BMT nashri.



UDK:37.1174

Gavhar LATIPOVA,

Oliy ta'lim tizimi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tayanch doktranti

E-mail: gavharlatipova@gmail.com

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, t.f.d O.Rashidov taqrizi asosida

THE PRACTICAL SITUATION OF DEVELOPING THE PERSONAL AND CREATIVE POTENTIAL OF TRAINEES IN THE SYSTEM OF ADVANCED TRAINING

Annotation

The article considers the issue of developing the personal and creative potential of pedagogical personnel as one of the most relevant areas of the modern education system. In this regard, its state in practice, achievements, shortcomings and solutions are discussed scientifically.

Key words: Creative competence, methodological culture, critical thinking, divergent thinking, reflective competence, brainstorming, case study, innovative ideas.

ПРАКТИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТНОГО И ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ОБУЧАЮЩИХСЯ В СИСТЕМЕ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ

Аннотация

В статье рассматривается проблема развития личностного и творческого потенциала педагогических кадров как одно из наиболее актуальных направлений современной системы образования. Этот вопрос будет обсуждаться с научной точки зрения, с упором на его практическое значение, достижения, недостатки и решения.

Ключевые слова: Творческая компетентность, методологическая культура, критическое мышление, дивергентное мышление, рефлексивная компетентность, мозговой штурм, кейс-стади, инновационные идеи.

MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA TINGLOVCHILARNING SHAXSIY-KREATIV SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIYOTDAGI HOLATI

Annotatsiya

Maqolada pedagogik kadrlarning shaxsiy va kreativ salohiyatini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'lim tizimining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu masala yuzasidan, uning amaliyotdagi holati, yutuqlari, kamchiliklari hamda yechimlari to'g'risida ilmiy asoslangan holda muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Kreativ kompetensiya, metodik madaniyat, tanqidiy tafakkur, divergent fikrlash, reflektiv kompetensiya, brainstorming, keys-stadi, innovatsion g'oyalalar.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri – pedagogik kadrlarning kasbiy salohiyatini uzluksiz rivojlantirish, shuningdek, ularning shaxsiy va ijodiy (kreativ) kompetensiyalarini shakllantirish va mustahkamlashdan iboratdir. Bugungi globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalar jadal sur'atda rivojlanayotgan sharoitda ta'lim sifati, avvalo, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, metodik madaniyati va kreativ salohiyatiga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, kreativlik murakkab, ko'p qirrali, ko'p omilli va heterojen (ya'ni, bir xil emas, xilma-xil tarkibli) hodisa sifatida talqin qilinadi. Turli tadqiqotchilar bu tushunchani har xil nazariy asoslar va metodologik yondashuvlar orqali tahlil qiladilar. Kreativlikning nazariy va eksperimental tadqiqotlari ko'p hollarda bir-birini to'ldiruvchi xarakterga ega bo'lib, umumiy holda bu hodisaning chuqurroq anglanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, bu xilma-xillik — kreativlikni inson faoliyatining deyarli barcha jabhalarida (san'at, fan, texnologiya, kundalik hayot va boshqalar) namoyon bo'ladigan universal fenomen sifatida o'rganish zaruratini belgilaydi. Xalqaro tadqiqotlar va ilg'or xorijiy tajribalarda qayd etilishicha, o'qituvchining kreativ salohiyati — bu faqat yangilikni o'zlashtirish emas, balki mavjud bilimlarni noan'anaviy, ijodiy usullarda tatbiq etish, murakkab pedagogik vaziyatlarda innovatsion yechimlar topa olish qobiliyati bilan belgilanadi (Sternberg, 2006)[1. 278]. Bu kompetensiya, ayniqsa, XXI asrda zarur bo'lgan tanqidiy tafakkur, muammoli vaziyatni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga asos bo'ladi. Mazkur sharoitda malaka oshirish tizimi pedagogik kadrlarning kasbiy yangilanishini ta'minlovchi muhim pedagogik va tashkiliy institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu tizimda tinglovchilarga shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim berish, ularning ijodiy fikrlashini rag'batlantirish, o'z kasbiy faoliyatiga tanqidiy yondasha olish va

samarali pedagogik qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv talablaridan biridir. O'quv dasturlarining standartlashganligi, metodik moslashuvchanlikning yetishmasligi, amaliy faoliyatga kam e'tibor berilishi — pedagoglarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, pedagogik faoliyatda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va innovatsion loyihalashtirish kabi zarur ko'nikmalar yetarlicha shakllanmayapti. Mazkur maqolada malaka oshirish tizimida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning amaliy holati tahlil qilinadi. Xususan, mavjud tizimdagi muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari, innovatsion metod va texnologiyalarning qo'llanilish samaradorligi hamda ilg'or xorijiy tajribalar asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik kadrlarning shaxsiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'lim tizimining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur sohada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu yo'nalishning nazariy asoslari, metodik yondashuvlari va amaliy ko'rinishlarini chuqur yoritgan. Kreativlik tushunchasi va uning pedagogik mazmuni to'g'risida Guilford (1967) [2.] tomonidan taklif etilgan kreativlik nazariyasiga ko'ra, ijodiy fikrlash – bu divergent fikrlash, muammoga turli nuqtai nazardan qarash, yangi g'oyalarni ilgari surish salohiyatidir. Bu tushuncha ta'limda innovatsion yondashuvlar asosida muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalari bilan bevosita bog'liq. Sternberg (2003) esa kreativlikni shaxsning bilim, motivatsiya va kontekstual omillar uyg'unligidagi natija deb baholaydi[3]. Ta'limda kreativlik – bu nafaqat yangi g'oyalarni ishlab chiqish, balki ularni amaliyotga tatbiq etish jarayoni hamdir. Hozirgi zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida malaka oshirish tizimi nafaqat kasbiy bilimlarni yangilash, balki pedagogning reflektiv, kreativ va kommunikativ

kompetensiyalarini rivojlantirish maydoniga aylanishi lozimligi ta'kidlanmoqda (UNESCO, 2021; OECD, 2020). M.Jumaniyozovning ta'kidlashicha, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida kreativ salohiyat muhim omil bo'lib, malaka oshirish kurslarida innovatsion metodlar (keys-stadi, loyiha asosida o'qitish, kreativ laboratoriyalar) orqali bu salohiyatni rivojlantirish mumkin[4]. Bundan tashqari, tinglovchilarning individual yondashuv asosida o'qitilishi, kreativ fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarining shakllanishini malaka oshirish jarayonining ustuvor yo'nalishi bo'lishi talab etiladi. Unga ko'ra, ko'p hollarda ushbu yo'nalish nazariy jihatdan yaxshi asoslangan bo'lsa-da, amaliyotda u yetarli darajada qo'llanilmayapti. Xalqaro miqyosda (masalan, Finlandiya, Singapur, Kanada ta'lim tizimlarida) pedagoglar malakasini oshirish jarayonida kreativlikni o'stirish maxsus modullar, mentorlash, hamkasblar bilan tajriba almashish, shuningdek, raqamli interaktiv platformalar orqali amalga oshirilmoqda[5]. Shuningdek, e-learning (masofaviy ta'lim) va mikro-o'quv kurslari asosida pedagoglarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv modullarini taklif etish ham kreativ salohiyatni rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida quyidagi yondashuvlar qo'llanildi: Empirik tadqiqotlar, kuzatuv: mashg'ulotlar jarayonida tinglovchilarning faolligi, ijodiy yondashuvi va mustaqil fikrlashi kuzatiladi. Tahliliy yondashuv: mavjud malaka oshirish dasturlarining mazmuni va metodikasi tahlil qilinadi. Statistik usul: yig'ilgan ma'lumotlar Excel dasturida qayta ishlanib, grafik va jadval shaklida taqdim etiladi.

Natija va muhokamalar. O'tkazilgan tadqiqot natijalari malaka oshirish tizimida tinglovchilarning shaxsiy va kreativ salohiyatini rivojlantirishga doir mavjud holatni quyidagi yo'nalishlarda yoritdi: 1)Tinglovchilarning faollik darajasi. Olingan natijalarga ko'ra, tinglovchilarning yarmidan kam qismi shaxsiy va ijodiy salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarda faol ishtirok etganini bildirganini ko'rishimiz mumkin. Bu kabi ko'rsatkichlar mazkur yo'nalishga qaratilgan mashg'ulotlar hali keng miqyosda joriy etilmaganligini, mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatadi.2) O'quv jarayonining mazmuni yo'nalishi. Ilmiy ishimiz davomida malaka oshirish kurslarida asosan nazariy bilimlar ustuvorlik qilayotganidan norozilik bildirgan fikrlarga guvoh bo'lindi. Amaliy mashg'ulotlar, mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlarga yetarli darajada e'tibor berilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Bu holat tinglovchilarning kreativ salohiyatini to'laqonli rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda. Malaka oshirish tizimida tahsil olayotgan tinglovchilar uchun o'z shaxsiy-kreativ salohiyatlarini rivojlantirishda tavsiya sifatida ushbu metod va texnologiyalarni yuqori samarali hisoblanadi[6]:

- amaliy mashg'ulotlar;
- keys-stadiy (case study) asosida ta'lim;
- muammoli vaziyatlarni tahlil qilish;
- guruhiy ish va interaktiv muloqot asosida o'qitish.

Ushbu metodlar tinglovchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish, mustaqil qaror qabul qilish, muammoni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi kundagi holatlarni o'rgangan holda tavsiya sifatida quyidagi takliflar bildirishimiz mumkin.

kurslarda ijodiy loyihalarni ishlab chiqish, taqdimot qilish va himoya qilish amaliyotini kengaytirish;

innovatsion g'oyalar ustida ishlashga imkon beruvchi interaktiv usullarni keng joriy etish;

kreativ muhit va mustaqil faoliyat uchun qulay sharoitlar yaratish.

Malaka oshirish tizimida tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ayrim tashabbuslar mavjud bo'lsa-da, ularning amaliyotda to'liq va samarali qo'llanilishi hali etarlicha amalga oshirilmagan. Ko'plab o'quv dasturlari asosan nazariy bilimlarni yangilashga qaratilgan bo'lib, tinglovchilarda ijodiy tafakkur, mustaqil fikrlash va innovatsion qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yetarli e'tibor bermaydi. Amaliy mashg'ulotlar va kreativ yondashuvning yetarli darajada qo'llanilmasligi, malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kreativ salohiyatini to'liq rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda. Shu bilan birga, ba'zi o'quv dasturlarida tinglovchilarning individual ehtiyojlari hisobga olinmaydi, bu esa ularning shaxsiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda xalaqit beradi.

Kreativ Salohiyatni Rivojlantirish uchun Zarur o'zgartirishlar:

1)O'quv dasturlarini innovatsion yondashuv asosida yangilash malaka oshirish tizimining samaradorligini oshirish uchun o'quv modullarini yangilash zarur. Dasturlar nafaqat nazariy bilimlarni kengaytirish, balki tinglovchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga ham yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bu jarayonda kompetensiyaviy yondashuv asosiy metodologik tamoyil bo'lishi zarur.

2) Kreativ salohiyatni rivojlantirishda amaliy va interaktiv metodlar muhim o'rin tutadi. Keys-stadi, loyiha asosida o'qitish, "aqliy hujum" (brainstorming), muammoli vaziyatlar (case study) va rolli o'yinlar kabi metodlar tinglovchilarga mustaqil fikrlash va innovatsion qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita bo'la oladi. Shu bilan birga, mashg'ulotlar davomida interaktiv texnologiyalardan, jumladan, raqamli platformalar va simulyatsiyalarni qo'llash o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

3)Mustaqil faoliyatga va kreativ loyihalarga sharoit yaratish. Tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish uchun ularning mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytirish kerak. Bu uchun muammo yechishga qaratilgan, innovatsion loyiha va tadbirlarni tashkil etish zarur.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga asoslanib, malaka oshirish tizimida tinglovchilarning shaxsiy va kreativ salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan mavjud imkoniyatlar to'liq darajada amalga oshirilmagan bo'lib, bunga asosiy sabab sifatida o'quv metodikalari va dasturlarining ko'p hollarda nazariy bilimlarga asoslanib, ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yetarlicha e'tibor qaratilmasligi sabab bo'lmog'unda deyshimiz mumkin. Natijada, tinglovchilarning kreativ salohiyati va shaxsiy rivojlanishi to'liq shakllanmasligiga sabab boladi. Shu boisdan, malaka oshirish tizimini takomillashtirishda o'quv metodikalarini zamonaviy talablarni va ehtiyojlarga moslashtirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni kuchaytirish, tinglovchilarning kreativ va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlarni joriy etish talab etiladi. Bu jarayonda, kreativ fikrlashni rag'batlantiruvchi interaktiv metodlar, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ishlash imkoniyatlarini yaratish muhim o'rin tutadi. Shuningdek, malaka oshirish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni qo'llash, raqamli ta'lim platformalaridan samarali foydalanish tizimning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Bu yondashuvlar, tinglovchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan birga, malaka oshirish tizimining umumiy sifatini ham yaxshilashga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. Robert J. Sternberg & Todd I. Lubart. (2006). *The Nature of Creativity: Contemporary Psychological Perspectives*. Cambridge University Press. P 392.
2. Guilford, J. P. (1967). *The Nature of Human Intelligence*. McGraw-Hill. ISBN: 978-0070218464. P 15.
3. Robert J. Sternberg va Elena L. Grigorenko (2003). *The psychology of abilities, competencies, and expertise*. Cambridge University Press. ISBN-10: 0521007763. P. 294.
4. Jumaniyozova, M. (2023). Creative competence of the teacher and its structure. August 10, 2023 | Pages: 100-103.
5. R.Madiyeva. Finlandiya tajribasi:uzluksiz ta'lim muvaffaqiyati o'qituvchilar tayyorlash tizimiga bog'liq. 20.06.2023. https://yuz.uz/news/finlyandiya-tajribasi-uzluksiz-talim-muvaffaqiyati-oqituvchilar-tayyorlash-tizimiga-bogliq?utm_source=chatgpt.com
6. Ibraimov Xolboy va Ibragimov A'lamjon. "Malaka oshirish yo'l xaritasi" texnologiyasi – o'qituvchini kasbiy rivojlantirish omili sifatida".12.09.2024. <https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1363>



Nilufar MADAMINOVA,

Independent researcher at TDPU of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

E-mail: nilufarmadinova 077@gmail.com

Based on the review of TSPU, associate professor, PhD A.A Musayeva

SUCCESSFUL STRATEGIES FOR USING MONOLOGUES AS A TEACHING MEDIUM IN ENGLISH

Annotation

A potent teaching tool for English, monologues give pupils the chance to improve their linguistic, cognitive, and expressive abilities. This study examines effective methods for incorporating monologues into English language training, highlighting how they can enhance confidence, fluency, pronunciation, and critical thinking. Reflective analysis, improvisation exercises, performance-based evaluations, and guided scriptwriting are important strategies. The study also looks at how monologues might encourage students' creativity and accommodate a variety of learning preferences. Case studies and real-world examples demonstrate how well monologues engage students and support language learning. According to the results, using well-structured monologue exercises can greatly improve student outcomes and expand English teaching approaches.

Key words: Monologue-based instruction, English language teaching, speaking skills development, scaffolding strategies, digital language learning tools, reflective speaking exercises.

INGLIZ TILIDA O'QITISH VOSITASI SIFATIDA MONOLOGLARDAN FOYDALANISHNING MUVAFFAQIYATLI STRATEGIYALARI

Annotsatsiya

Ingliz tilini o'qitishda monoglardan foydalanish talabalar nutqining ravonligi, grammatik aniqligi va mustaqil fikr bildirish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maxsus tashkil etilgan monologik mashqlar so'z boyligini oshiradi va talabalar nutqining mantiqiylikni yaxshilaydi (1). Monolog asosida o'qitish strategiyalarini muvaffaqiyatli qo'llash uchun tayyorgarlik mashqlari, fikr bildirish texnikalari va qayta aloqa usullaridan foydalanish muhimdir (2). Shuningdek, sun'iy intellekt (SI) asosida ishlaydigan ovoz tahlil dasturlari va raqamli platformalar, masalan, Flipgrid, talabalar ishtirokini oshirish va nutqiy qo'rquvni kamaytirishga xizmat qiladi (3). Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda monoglardan foydalanishning samarali strategiyalari, ularning pedagogik ahamiyati hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Monologik nutq, ingliz tilini o'qitish, nutqiy kompetensiya, sun'iy intellekt texnologiyalari, pedagogik strategiyalar, til o'rganish metodologiyasi.

УСПЕШНЫЕ СТРАТЕГИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МОНОЛОГОВ В КАЧЕСТВЕ СРЕДСТВА ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация

Монологи являются эффективным средством обучения английскому языку, способствуя развитию речевых навыков, критического мышления и уверенности учащихся. В данной работе рассматриваются успешные стратегии использования монологов в образовательном процессе, включая постановку речевых задач, использование импровизационных упражнений, анализ и рефлексию после выступлений. Особое внимание уделяется адаптации методик под различные уровни владения языком и стили обучения. Практические примеры подтверждают, что внедрение монологов в учебный процесс способствует повышению мотивации учащихся, улучшению произношения и расширению словарного запаса. Полученные результаты демонстрируют, что монологи являются ценным инструментом в методике преподавания английского языка.

Ключевые слова: Монологи в обучении, преподавание английского языка, стратегии обучения, развитие устной речи, практика произношения, импровизация в обучении, вовлечение студентов, креативное выражение, освоение языковых навыков, навыки публичных выступлений, написание монологов, рефлексия в обучении, драматизация в образовании, коммуникативные навыки.

Kirish. Ingliz tilini samarali o'qitish usullaridan biri monoglardan foydalanish bo'lib, bu metod talabalar nutqining mustaqilligini oshirishga hamda ularga o'z fikrlarini izchil ifoda etish imkoniyatini beradi. Monolog - bu ma'lum bir mavzuda bir kishining uzluksiz nutq so'zlashidir, bu esa talabalarga muloqot qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi (1). Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, monologlar asosida tuzilgan mashqlar natijasida talabalar nutqining grammatik to'g'riligi va leksik boyligi sezilarli darajada yaxshilanadi(2).

Biroq, monologik metoddan foydalanishda ba'zi qiyinchiliklar ham mavjud. Talabalarining nutqiy qo'rquvi va auditoriya oldida o'z fikrini erkin ifoda eta olmasligi monologik topshiriqlar samaradorligini pasaytirishi mumkin (3). Shu sababli, monologik metodni muvaffaqiyatli qo'llash uchun moslashtirilgan strategiyalar ishlab chiqilishi zarur. Masalan, o'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan interaktiv hikoyalash, tayyorgarlik mashqlari va qayta aloqa jarayonlari monoglarning ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilinishiga yordam beradi (4). Ushbu maqola ingliz tilini o'qitishda monoglardan

foydalanishning asosiy strategiyalari va ulardan maksimal natija olish usullarini o'rganishga bag'ishlangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ingliz tilini o'qitishda monologik nutqdan foydalanish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar monoglarning talabalar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi muhim ahamiyatini tasdiqlaydi. SHeredekina va boshq. (1) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, muntazam monologik mashqlar talabalar so'z boyligini oshiradi, grammatik aniqligini yaxshilaydi hamda ularning mustaqil nutq so'zlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Krashen (2) tomonidan ilgari surilgan kinput-gipoteza nazariyasi talabalar monologik mashqlar orqali til muhitiga faolroq jalb etilishini va tabiiy o'zlashtirish jarayoni tezlashishini ta'kidlaydi. Monologik nutq metodologiyasini o'rganish bo'yicha Braun (3) monologlar talabalarini mustaqil fikrlashga undashi va ularning o'z nutq tuzilmasini yaxshiroq nazorat qilishiga imkon berishini ta'kidlaydi. Shuningdek, Richards va Rodgers (4) o'z tadqiqotlarida kommunikativ yondashuv doirasida monoglardan

foydalanish talabalarning muloqot qobiliyatlarini oshirishda samarali usul ekanligini qayd etadilar. Ularning fikriga ko'ra, monologik mashqlar muloqotga tayyorgarlikning dastlabki bosqichi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Texnologiyalarning rivojlanishi bilan monologik mashqlarni samarali tashkil etishda raqamli vositalardan foydalanish dolzarb bo'lib bormoqda. Rosita & Halimi (5) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari Flipgrid va sun'iy intellekt (SI) asosida ishlaydigan ovoz tahlil dasturlaridan foydalanish talabalar uchun qulay tahlil muhiti yaratishini va ularga o'z nutqini mustaqil baholash imkonini berishini ko'rsatadi. Larsen-Freeman va Anderson (6) texnologik yondashuvlar bilan birgalikda jamoaviy fikr almashish usullaridan foydalanish monologik mashqlar samaradorligini oshirishga yordam berishini ta'kidlaydilar.

Shu bilan birga, monologik nutqdan foydalanishda ba'zi qiyinchiliklar ham mavjud. Bašibek va boshqalar (7) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ba'zi talabalar monolog davomida nutqiy qo'rquvni his qiladilar, bu esa ularning nutq ravonligi va ishonch bilan gapirish qobiliyatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu muammoni bartaraf etish uchun Thornberi (8) tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy o'rganish yondashuvi talabalarga jamoaviy muhokamalar va bosqichma-bosqich mustaqil nutq tayyorlash orqali nutqiy qo'rquvni kamaytirish imkonini beradi. Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, monologlardan samarali foydalanish uchun ularni interaktiv yondashuvlar bilan qo'shish, texnologiyalardan foydalangan holda qayta aloqa mexanizmlarini kuchaytirish va talabalarni muloqotga jalb etuvchi strategiyalardan foydalanish lozim. Bunday yondashuvlar orqali talabalar nutqiy kompetensiyasini yanada rivojlantirish va ingliz tilida samarali muloqot qilish qobiliyatini oshirishlari mumkin.

Tadqiqot metodi. Ushbu tadqiqot sifatli tahlil metodlariga asoslangan bo'lib, ingliz tilini o'qitishda monologik nutqdan foydalanish bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlarni o'rganish, mavjud pedagogik yondashuvlarni tahlil qilish va ularning samaradorligini baholashga qaratilgan. Tadqiqot, avvalo, SHeredekina va boshqalar tomonidan olib borilgan ishlar natijasida shakllangan bilimlarga asoslanadi, ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, talabalar tomonidan bajarilgan monologik topshiriqlar natijasida so'z boyligi, grammatik aniqlik va talaffuz sezilarli darajada yaxshilanadi (1).

Bundan tashqari, An va Thomas tomonidan EMI (English as a Medium of Instruction) darslarida monologlardan foydalanish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari ham tahlil qilindi. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, monologlardan maksimal foyda olish uchun ularga tayyorgarlik bosqichi, og'zaki fikr bildirish texnikalari va qayta aloqa usullari qo'shilishi zarur (2). Shuningdek, Noordin va Razali (3) tomonidan olib borilgan tadqiqotda loyiha asosida o'qitish (PjBL) va monolog metodlarini birlashtirish orqali talabalar nutqiy kompetensiyasini oshirish bo'yicha samarali usullar ishlab chiqilgan. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoniga integratsiya qilinishining ta'siri ham ushbu tadqiqotda muhim o'rin tutadi. Rosita va Halimi (4) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Flipgrid va sun'iy intellekt asosidagi ovoz tahlil dasturlaridan foydalanish talabalar monologlarini baholash va qayta ko'rib chiqish imkoniyatini yaratadi, natijada ular o'z nutqiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar.

Biroq, monologlardan foydalanishda talabalarining nutqiy qo'rquvi, dars davomida motivatsiyaning pasayishi kabi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bašibek va boshqalar (5) hamda Björkman (6) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun interaktiv hikoyalash, jamoaviy ishlash va hazil elementlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu maqolada ushbu strategiyalar monologik nutqni o'qitish jarayonida qanday qo'llanilishi mumkinligi tahlil qilinadi.

Tahlil va natijalar. Ushbu tadqiqot natijalari ingliz tilini o'qitishda monologlardan foydalanish talabalarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga sezilarli darajada yordam berishini ko'rsatdi. SHeredekina va boshq. (1) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, muntazam ravishda monologik mashqlar bajarish talabalarining talaffuzi, grammatik to'g'riligi va so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Xuddi shunday, Braun (2) ta'kidlaganidek, monologik nutq orqali

talabalar nafaqat o'z fikrlarini mustaqil ifoda qilishni o'rganadilar, balki til materiallarini chuqurroq o'zlashtirish imkoniga ham ega bo'ladilar. O'quv jarayonida monologik mashqlarni turli pedagogik metodlar bilan birlashtirish samaradorlikni oshiradi. Masalan, Larsen-Freeman va Anderson (3) tomonidan ilgari surilgan interaktiv yondashuv talabalarga monologlarni ko'proq real hayotiy vaziyatlarga moslashtirish imkonini beradi. Noordin va Razali (4) tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, loyiha asosida o'qitish (PjBL) monologik nutqni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki bu yondashuv talabalarni faollikka undaydi va o'z fikrlarini erkin ifoda etishga rag'batlantiradi.

Biroq, monologlardan foydalanishda ba'zi qiyinchiliklar ham kuzatildi. Bašibek va boshq. (5) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalar auditoriya oldida monolog so'zlashda nutqiy qo'rquvga duch keladilar, bu esa ularning ravon nutqiga salbiy ta'sir qiladi. Bu muammoni bartaraf etish uchun o'qituvchilar interaktiv hikoyalash, jamoaviy ishlash va hazil elementlaridan foydalanishi mumkin (6). Shuningdek, Rosita va Halimi (7) tadqiqotlari sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari, masalan, Flipgrid va ovoz tahlil dasturlarining talabalar nutqiy qo'rquvini kamaytirishda samarali ekanligini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, monologlar o'qitish jarayonida to'g'ri tashkil etilganda, ular talabalar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning samarali vositasi bo'lishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, monologlardan samarali foydalanish talabalarining lingvistik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu natijalar SHeredekina va boshq. (1) tadqiqotlari bilan uyg'un bo'lib, muntazam monolog mashqlari talabalar so'z boyligini va grammatik aniqligini oshirishini tasdiqlaydi. Braun (2) ham monologik nutq orqali talabalar til materiallarini yanada chuqur o'zlashtirishini va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishini ta'kidlagan. Shuningdek, tadqiqot natijalari pedagogik strategiyalarni moslashtirish zarurligini ko'rsatdi. Noordin va Razali (4) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, loyiha asosida o'qitish (PBL) monolog mashqlarini yanada samarali qiladi, chunki bu yondashuv talabalarni faol fikrlashga undaydi. Bundan tashqari, Larsen-Freeman va Anderson (3) monologlarning interaktiv jihatlarini kuchaytirish orqali talabalar ishtirokini oshirish mumkinligini ta'kidlaydilar. Biroq, natijalar shuni ham ko'rsatadiki, ba'zi talabalar monolog jarayonida nutqiy qo'rquvga duch keladilar. Bašibek va boshqalar (5) tadqiqotlariga ko'ra, bu qo'rquv ularning o'z fikrlarini ravon ifoda etishga salbiy ta'sir qiladi. Bu muammoni bartaraf etish uchun interaktiv hikoyalash va hazil elementlarini qo'llash tavsiya etiladi (6).

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt (SI) vositalari ham muhim rol o'ynaydi. Rosita va Halimi (7) tadqiqotlariga ko'ra, Flipgrid va boshqa sun'iy intellekt asosidagi ovoz tahlil dasturlari talabalarga o'z nutqlarini mustaqil ravishda baholash va takomillashtirish imkonini beradi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar monologik nutqni o'qitishda yordam beruvchi muhim vositalardan biri sifatida qaralishi kerak. Monologik metoddan to'g'ri foydalanish orqali talabalarining til kompetensiyasini oshirish mumkin. Biroq, bu metodning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun pedagoglar zamonaviy yondashuvlardan, texnologik vositalardan va innovatsion strategiyalardan samarali foydalanishlari zarur.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, monologik metod ingliz tilini o'qitishda samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar muntazam monolog mashqlari talabalar nutqining ravonligi, talaffuzi va grammatik aniqligini sezilarli darajada yaxshilashini tasdiqlaydi (1, 2). Monologlar nafaqat til bilimlarini mustahkamlash, balki talabalarining mustaqil fikrlash va o'z fikrlarini mantiqiy izchil ifoda etish qobiliyatini rivojlantirish uchun ham muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, loyiha asosida o'qitish (PBL) va interaktiv strategiyalar monologik faoliyatning samaradorligini oshirishga yordam beradi, chunki ular talabalarni faol jalb etishga hamda nutqiy muloqotga tayyorlashga xizmat qiladi (3, 4). Biroq, monologik metodni qo'llashda ba'zi qiyinchiliklar mavjud. Jumladan, ba'zi talabalar nutqiy qo'rquv bilan duch kelishi,

auditoriya oldida so'zlashda ishonchsizlik sezishi va o'z fikrlarini ravon ifoda etishda qiynalishi mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun interaktiv hikoyalash, hazil va jamoaviy mashqlar kabi usullardan foydalanish tavsiya etiladi (5, 6). Talabalarga monologlarni tayyorlash uchun bosqichma-bosqich yondashuv qo'llash va ular uchun qulay muhit yaratish ham muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalardan, ayniqsa sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish monologik metod samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Masalan, Flipgrid kabi platformalar talabalar nutqini yozib olish, qayta ko'rib chiqish va baholash imkonini beradi, bu esa ularning nutqiy o'z-o'zini baholash va rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi (7). Sun'iy intellekt asosidagi ovoz tahlil dasturlari esa talabalar talaffuzi va grammatik aniqligini avtomatik ravishda tahlil qilib, ularga aniq va individual tavsiyalar taqdim etishi mumkin.

Kelajakdagi tadqiqotlar monologik metodning turli ta'lim muhitlaridagi samaradorligini yanada chuqur o'rganishga yo'naltirilishi lozim. Ayniqsa, monologik mashqlarning turli yoshdagi va til darajasidagi o'quvchilarga ta'sirini o'rganish, shuningdek, interaktiv va texnologik yondashuvlar bilan integratsiyasini tahlil qilish kelajakda yanada samarali ta'lim metodlarini ishlab chiqishga yordam beradi. Shu sababli, monologik metodni takomillashtirish va o'quv jarayoniga chuqur integratsiya qilish uchun innovatsion yondashuvlarni izlash va ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish zarur.

Ushbu tadqiqotlar natijasi sigatida quyida bir necha metodologik tavsiyalar keltiramiz:

Monologik mashqlarni bosqichma-bosqich qo'llash

Talabalar uchun monologik nutqni rivojlantirish jarayoni osongroq bo'lishi uchun uni bosqichma-bosqich tatbiq etish muhimdir. Dastlab qisqa javoblar va oddiy monologlardan boshlab, asta-sekin murakkab mavzularga o'tish talabalar ishonchini oshirishga yordam beradi.

Qo'shma monologlar va jamoaviy ishni yo'lga qo'yish

Monologlarni yakka holda bajarish ba'zan talabalar uchun qiyin bo'lishi mumkin. Shu sababli, avval guruhli yoki juft holda monolog mashqlarini bajarish va fikr almashish tavsiya etiladi. Bu talabalarni og'zaki muloqotga tayyorlash bilan birga, ular uchun qulay nutqiy muhit yaratadi.

Rol o'ynash va dramatik elementlardan foydalanish

Dramaturgiya elementlarini qo'shish, masalan, tarixiy shaxslar yoki mashhur insonlar monologlarini sahnalashtirish talabalar ishtiroqini oshiradi. Bu usul, ayniqsa, ijtimoiy fanlar va madaniyat bilan bog'liq darslarda samarali bo'lishi mumkin.

Monologlarda real hayotiy mavzularga urg'u berish

Talabalar o'z hayotiga yaqin bo'lgan mavzularda monolog tayyorlash orqali o'z fikrlarini yanada tabiiy va ishonchli ifoda eta oladilar. Masalan, "Mening kelajakdagi kasbim", "Sevimli kitobim", "Texnologiyaning hayotimizdagi o'rni" kabi mavzularda monolog mashqlarini tashkil qilish tavsiya etiladi.

Yuqorida keltirilgan qo'shimcha tavsiyalar monologik metod samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, ularni amaliyotga tatbiq etish orqali talabalar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish mumkin. Bu tavsiyalar, xususan, talabalarning ishtirokini faollashtirish, nutqiy qo'rquvni kamaytirish va texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini innovatsion qilishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Rajabov, A. (2022). Chet tillarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. Qo'chqarova, G. (2021). Tilshunoslik va ta'lim: Ingliz tilini o'qitish usullari. Samarqand: SamDU nashriyoti.
3. Krashen, S. D. (2009). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Brown, H. D. (2014). Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy (4th ed.). Pearson Education.
5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2020). Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.
6. Thornbury, S. (2017). How to Teach Speaking. Longman.
7. Ur, P. (2019). A Course in English Language Teaching (2nd ed.). Cambridge University Press.
8. Nation, P. (2021). Teaching ESL/EFL Listening and Speaking (2nd ed.). Routledge.
9. Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching (5th ed.). Pearson.
10. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2021). Techniques and Principles in Language Teaching (4th ed.). Oxford University Press.



UDK:373.3(159.9)

Feruza MADRAHIMOVA,

Urganch davlat pedagogika instituti rektori, pedagogika fanlari doktori

Yusufboy EGAMOV,

Student of the Faculty of Philology and History, Urgench State Pedagogical Institute

Dotsent Z. Karimov taqrizi asosida

THE ROLE AND IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS IN ACHIEVING THE SPIRITUAL-MORAL PERFECTION AND DEVELOPMENT OF YOUTH

Annotation

This article highlights the opportunities created in our country for young people to engage in physical education and sports, as well as the role and importance of physical education and sports in the development of youth.

Key words: Youth, physical education and sports, sports competitions, created opportunities and conditions, physically and mentally healthy generation.

РОЛЬ И МЕСТО ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТА В ДОСТИЖЕНИИ ДУХОВНО-МОРАЛЬНОГО СОВЕРШЕНСТВА И РАЗВИТИЯ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье освещаются возможности, созданные для молодежи нашей страны для занятий физическим воспитанием и спортом, а также роль физического воспитания и спорта в формировании молодежи.

Ключевые слова: Молодежь, физическое воспитание и спорт, спортивные соревнования, созданные возможности и условия, физически и психически здоровое поколение.

YOSHLARNING MA'NAVY-AXLOQIY BARKAMOLLIKKA VA KAMOLOTGA ERISHISHIDA JISMONIY TARBIYA SPORTNING O'RNI VA RO'LI

Аннотация

Ushbu maqolada yurtimizda yoshlarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun yaratilgan imkoniyatlar, yoshlarning kamolotida jismoniy tarbiya va sportning o'rni va ro'li yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Yosh avlod, jismoniy tarbiya va sport, sport musobaqalari, yaratilgan imkoniyatlar va shart-sharoitlar, jismoniy va ruhiy sog'lom avlod.

Kirish. Bugungi kunda yoshlarning ma'naviy-axloqiy barkamolligi va kamolotga erishishi jamiyat rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Har bir yosh individual rivojlanishining pirovard maqsadi sifatida ma'naviyat va axloqiy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirishi, jamiyatda o'z o'rnini topishi lozim. Bu borada jismoniy tarbiya va sportning roli juda katta. Sport faoliyati nafaqat organizmni sog'lomlashtirish, balki ahloqiy qadriyatlarini shakllantirish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda ham muhim o'rin tutadi.

Jismoniy tarbiya va sport faoliyatini yoshlar orasida keng targ'ib qilish, ularni sportga jalb etish orqali, shuningdek, sport musobaqalarida ishtirok etish orqali yoshlar o'zlarining kamolot yo'lida muhim fazilatlariga ega bo'ladilar. Bu fazilatlar o'z-o'zini anglash, axloqiy meyorlarga amal qilish, yuksak ma'naviyat, shidam, sabr-toqat, hamkorlik, o'zaro hurmat kabi ahloqiy tamoyillarni o'z ishiga oladi.

Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sportning jamiyatdagi ta'siri faqat organizmni mustahkamlash bilan sheklanmaydi. U yoshlarni ruhiy, ma'naviy va axloqiy jihatdan ham o'sishiga yordam beradi, ularning dunyoqarashini shakllantiradi, shaxs sifatida to'liq rivojlanishiga zamin yaratadi. Sportning bu boradagi ahamiyati ortib bormoqda, shunki har bir sport turi o'zining maxsus axloqiy meyorlari va qadriyatlariga ega bo'lib, yoshlarni ular orqali ma'naviy jihatdan boyitadi.

Maqolada jismoniy tarbiya va sportning yoshlarning ma'naviy-axloqiy barkamolligini oshirishdagi o'rni va ahamiyati, shuningdek, ularning kamolotga erishishdagi roli tahlil etiladi.

O'sib kelayotgan yosh avlod davlat hamda jamiyatning kelajagini belgilab beruvshi asosiy omildir. Yosh avlodning sog'lom, axloqiy jihatdan barkamol, ma'naviy qadriyatlar bilan boyitilgan bo'lishi nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi ushuncha zarurdir. Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, shubhasiz, jismoniy-ruhiy salomatlikni muhofaza qilish va mustahkamlashni, sog'lom turmush tarzi

asoslarini shakllantirishni nazarda tutadi. Jismoniy tarbiya va sport, yoshlarning ruhiy va jismoniy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularni yuqori ma'naviy-axloqiy fazilatlar bilan ta'minlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jismoniy tarbiya va sportning yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ro'li haqidagi adabiyotlar bir qancha ilmiy tadqiqotlar va metodik qo'llanmalardan iborat. Masalan, X.X. Umarov va S.A. Azimov kabi ilmiy ishlarda sportning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan.

Asosiy qism. Bugungi kunda yoshlarning ma'naviy-axloqiy barkamolligi va kamolotga erishish jarayoni jamiyatning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy dunyoda jismoniy tarbiya va sport faolligi faqat sog'liqni mustahkamlash bilan sheklanmay, balki yoshlarning ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida ham alohida rol o'ynaydi. Shu sababli, yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qilish, ularni sportga jalb etish, ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirish va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Sport va jismoniy tarbiya, o'z navbatida, yoshlarning o'zini anglashiga, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga, jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradi. Jismoniy mashqlar orqali yoshlar o'z salomatliklarini mustahkamlab, sport musobaqalarida qatnashish orqali disiplinaga, sabr-toqatga, shidamga va boshqa ahloqiy qadriyatlarini o'zlashtiradilar. Shu bilan birga, sport yoshlarning muammolarini hal qilishdagi ijtimoiy va jamoaviy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ayniqsa, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va tezkor axborotlar oqimi yoshlarni turli salbiy ta'sirlardan himoya qilishni taqozo etadi. Bu holat jismoniy tarbiya va sportni yoshlar o'rtasida targ'ib qilish zaruratini yanada kushaytiradi. Sport yoshlarni faqat jismoniy jihatdan rivojlantirmasdan, ularning ma'naviy qadriyatlarini, ahloqiy fazilatlarini va ijtimoiy mas'uliyatini ham shakllantiradi.

Maqolada yoshlarning ma'naviy-axloqiy barkamolligi va kamolotga erishishidagi jismoniy tarbiya va sportning o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, bu mavzu jamiyatda o'zgartirishlarni amalga oshirish, yoshlar orasida sog'lom va axloqiy muhitni yaratish ushuncha juda muhim hisoblanadi. Shu sababli, mazkur mavzu aynan bugungi kunda juda dolzarb va zamon talablari bilan to'g'ri keladi.

Bugungi kunda nafaqat ma'naviy, balki jismonan sog'lom yoshlarni tarbiyalash hukumatimiz siyosatining eng muhim masalalaridan biri bo'lib kelmoqda. Yoshlarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari, har taraflama sog'lom avlod bo'lib shakllanishlariga xizmat qiluvchi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Bu borada asosiy qomusimizda "Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish ushuncha shart-sharoitlar yaratadi" deya belgilab qo'yilgan[1]. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Yoshlarni madaniyat, san'at va sportga keng jalb etish, ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash vazifalarini o'z ishiga oladi. Yoshlarga e'tiborni kushaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish" ga xizmat qiluvchi 5 ta muhim tashabbus amaliy hayotga joriy qilingani juda katta voqealik bo'ldi.

Prezidentimiz ilgari surgan beshta muhim tashabbuslardan ikkinchisi yoshlarni jismoniy shiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari ushuncha zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Hozirgi kunda ushbu 5 ta muhim tashabbus ijrosi Respublikamizning barsha hududlarida amalga oshirilmoqda. Jumladan, hududlardagi tuman va shahar kutubxonalariga bir nasha yuz ming nusxada badiiy adabiyotlar hamda o'quvchilar ta'lim olayotgan barsha ta'lim muassasalariga 80 turdagi sport jihozlari va musiqa asboblari yetkazib berildi. Shuningdek tuman va shaharlarda madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarning qiziqishidan kelib shiqib, qo'shimsha 1,5 mingtadan ortiq to'garak faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda 12 mingdan ziyod sport inshootlari mavjud. Bu sport inshootlarida yosh-avlod muntazam ravishda sport bilan shug'ullanib kelmoqda. Shuningdek, yurtimizdagi olis va shekka qishloqlarda yangi sport zallar va sun'iy qoplamali maydonlar qurilib yoshlar ixtiyoriga berildi.

Prezidentimiz tomonidan 5 ta muhim tashabbusni joylarda keng joriy qilish maqsadida mutasaddi rahbarlar mas'ul sifatida berkitilib, tegishli tashkilotlar tomonidan yoshlarga oid davlat siyosatida ijobiy natijalar qayd etilib kelinmoqda.

Umuman olganda, "Sport" so'zi arabshada "riyozat" deb atalib, lug'atda "mashq qilish", "shiniqtirish", "badan tarbiya", "sayr etish", "matematika" va "jismoniy harakat" manolarini anglatadi. Matematika aqlni shiniqtirgani sababli, u ham shu so'zning lug'aviy manolaridan biriga aylangan[2].

Yoshlarning ma'naviy barkamolligi va kamolotida jismoniy tarbiya va sportning o'rni va ro'li yuqori ekanligini tarix saboqlari ham tasdiqlaydi. Fikrimizning isboti sifatida, xalqimizning qadimi va navqiron milliy kurashi bunga misol bo'la oladi. Bugun buyuk ajdodlarimiz ruhini shod etib, azal-azaldan xalqimizning milliy g'ururiga aylanib qolgan o'zbek kurashining jahon maydoniga shiqishi, uning tan olinishi barshamizni bag'oyat quvontiradi. Tarixshilarning guvohlik berishisha berishisha, Turon zaminida er.av. III-I asrlarda yoq ajdodlarimiz kurash, nayza otish, qilishbozlik, kamondan otish, shaxmat, uloq, poyga kabi insonni kamolga yetkazuvchi musobaqalarni ommaviy ravishda o'tkazib kelgan.

Jismoniy tarbiya nafaqat jismoniy salomatlikni yaxshilash, balki yoshlarning ma'naviy dunyosini ham shakllantiradi. Sport bilan shug'ullanish, intizom, sabr-toqat, o'z-o'zini nazorat qilish kabi sifatlarni rivojlantiradi. Bularning barshasi yoshlarni axloqiy jihatdan mustahkamlab, ularning ijtimoiy kamolotiga yordam beradi. Misol ushuncha, sportshilarda o'zgarishlarni tezda qabul qilish, muammolarni hal qilishda ijodiy

yondashuv va jamoada ishlash kabi ko'nikmalar shakllanadi. Jismoniy tarbiya va sport yoshlarning kasbiy va ijtimoiy hayotida ham muhim o'rin tutadi. Ular o'zaro hamkorlik, rahbarlik, intizom, va ijtimoiy mas'uliyatni his qilishni o'rganadilar. Bundan tashqari, sport orqali yoshlar o'zlariga bo'lgan ishonshni oshiradilar, jamiyatda o'z o'rinlarini topishadi va turli xil psixologik muammolarni yengishadi. Bu holat, ularning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga va ijtimoiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish tashrif buyuruvchilar uchun o‘z mamlakatlari va madaniyati bo‘yicha yozma yoki onlayn qo‘llanma ishlab chiqarish, tashrif buyuruvchilar tomonidan yozilgan qo‘llanmalarni o‘qish va muhokama qilish, turli ommaviy axborot vositalarida, jumladan, kino, adabiyot va televideniya maqsadli madaniyatning jihatlarini o‘rganish, jihatlar bo‘yicha taqdimotlar o‘tkazishni hamda o‘qituvchining o‘z madaniyati bo‘yicha o‘z tajribasidan foydalanish yo‘llarini o‘z ichiga oladi. Ko‘pchiligimiz bir necha xil madaniyat vakillari bo‘lgan talabalar guruhlari bilan ishlasak, boshqalarimiz asosan yagona-madaniyat vakillari guruhlariga dars beradi. Ikkala holatda ham, talabalarimizning yoshi va mutaxassisligidan qat’i nazar, an’anaviy e’rtaklarni aytib berish orqali xilma-xillikni

kuzatish imkoniyati mavjud. Barcha madaniyatlarning xalq ertaklari universal mavzularga ega va shu bilan birga, ko'pincha metafora orqali boshqa madaniyatlar haqidagi tasavvurimizni yoritadigan va o'zgartira oladigan o'ziga xos xususiyatlar haqida gapirib beradi. Bitta guruhda turli hil millat va madaniyat vakillari tahsil olishlari mumkin. Ba'zan talabalar ilk bor madaniyatlari haqida kam ma'lumotga ega bo'lgan tengdoshlari bilan muloqot qilishlari mumkin. Ularning bir guruh sifatida samarali faoliyat yuritishi uchun o'qituvchi sifatidagi asosiy vazifalardan biri ularga bir-birining madaniyatini teng darajada o'rganish imkoniyatini berishdir, shuning uchun o'zaro tushunishni rivojlantirish kerak. Talabalarga o'z madaniyatlaridan qisqacha xalq ertaklarini ingliz tilida aytib berish imkoniyatini berish orqali madaniy tafovut ko'pincha qiziqish, diqqat bilan tinglash va ularning umumiy jihatlarini borligini anglash orqali bartaraf etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni madaniyatlararo kompetensiyasini media - matnlar yordamida takomillashtirish, ularning individual ijodiy faoliyati va intellektual salohiyatini oshirish, o'qish jarayonida egallagan bilim, ko'nikma zahirasini innovasion faoliyatga yo'naltirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga oliy pedagogik ta'lim tizimi faoliyatini rivojlantirish, maqsad va vazifalarni aniqlashtirish, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga sifatli tayyorlash mazmunini oliy ta'lim muassasalarini innovatsion tizimining yangi talablariga muvofiq ravishda takomillashtirish jarayonlariga alohida e'tibor berilmoqda. Respublikamizda so'ngi yillarda oliy ta'lim mazmuni va bo'lajak o'qituvchilarni madaniyatlararo kompetensiyasini media - matnlar yordamida takomillashtirish oliy pedagogik ta'limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot kommunikatsiya va ta'lim texnologiyalarining o'zaro integrativligini ta'minlash hamda pedagog kadrlarning kasbiy - innovatsion mahoratini media matnlar vrsitasida uzluksiz rivojlantirib borishning meyoriy asoslari yaratilmoqda "Ilmiy - tadqiqot va innovatsiya faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy - tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish"l ustivor yo'nalish sifatida belgilangan, natijada bo'lajak o'qituvchilarni madaniyatlararo kompetensiyasini media-matnlar yordamida takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari yanada ortadi.

Madaniyat tushunchasi ikkita asosiy jihatdan iborat:

- obyektiv
- subyektiv.

Obyektiv madaniyat – mamlakatning iqtisodiy va siyosiy tizimi, an'ana va urf odatlari, san'ati va madaniy qadriyatlari.

Subyektiv madaniyat turli etnik guruhlarining mentalitetidagi farqlarni aks ettiradi va asosan millatlararo muammolar, nizolar va tushunmovchiliklarning sababi hisoblanadi. Xorijiy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish uchun biz quyidagi modelni taqdim etamiz.

Shunday qilib, chet tili madaniyatining tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: axborot beruvchi yoki faktga tayanuvchi madaniyat - ma'lum bir jamiyat tashuvchisiga tegishli bilim va ma'lumot; - xulq-atvor madaniyati - jamiyatdagi munosabatlarning xususiyatlari, normalari, qadriyatlari va

boshqalar; - an'anaviy madaniyat - badiiy qadriyatlar; Ushbu modelni real muloqot jarayonida amalga oshirish talabalarga boshqa tilda so'zlashuvchilar dunyoqarashini tushunish va qabul qilish imkoniniberadi. Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish mutaxassislarining malakasini oshirishning asosiy elementi hisoblanib, ushbu kompetensiya tushunchasi bizning zamonaviy dunyomizning yetakchi pedagogik nazariyalaridan biriga aylanib bormoqda.

Chet tili o'qituvchisi madaniyatlararo ta'lim berish uchun uchta xususiyatga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlanadi:

- Bilim: o'z mamlakatini chuqurroq o'rganish; o'z tilining muloqotda qanday ishlashini va undan qanday samarali foydalanishni bilish.

-Ko'nikma: muloqot olib borish uchun asosiy kommunikativ ko'nikmalarniegallash va boshqalar.

- Malaka: muntazam yangi narsalarni o'rganib borishga bo'lgan tayyorlik. Muallif sanab o'tilgan fazilatlarini chet tili ta'limi sohasi bilan bog'lashi ahamiyatlidir. Shunday bo'lsada, bu konsepsiya faqat madaniyatlararo til ta'limiga tegishli deb izohlash ham ma'qul bo'lmaydi. Zero, har qanday soha bo'lmasin, madaniyatlararo ta'limda faol ishtirok etadiganlar uchun ham buni yodda tutish foydali hisoblanadi.

Natijalar. Shu bilan bir qatorda bo'lg'usi o'qituvchilarni madaniyatlararo kompetensiyasini media matnlar yordamida takomillashtirishning maqsad va vazifalarini aniqlash, bo'lg'usi o'qituvchi shaxsini shakllantirishda vujudga kelayotgan va mavjud pedagogik yangiliklar imkoniyatidan samarali foydalanish zarur ekanligini belgilaydi. Ilmiy tadqiqot ishlarida madaniyatlararo kompetensiyaning turli tarkibiy qismlari ajratib berilgan bo'lib, uning mohiyati va mazmuni hamda o'ziga xos xususiyatlari o'z aksini topgan. Yuqorida ko'rsatilganidek, madaniyatlararo kompetensiya faqatgina til bilish va mamlakatshunoslikka oid bilimlarni o'z ichiga qamrab olmasdan, balki aniq ko'nikma va tajribani talab etadi. Bularsiz boshqa madaniyatda yashayotgan odamni tushunishning natijasi bo'lgan mukammal madaniyatlararo muloqot murakkab bo'ladi. Shuningdek, boshqa madaniyatni tushunmasdan turib, o'z madaniyatini anglash va uni rivojlantirish murakkab kechadi, chunki madaniyatlar orasida dialog, madaniyatlar o'rtasida o'zaro ta'sir natijasida vujudga keladigan begona va o'z madaniyatini anglab yetish amalga oshmaydi (Baxtin M.M., (1979); (Biblek V.S. 1989). Bu o'z navbatida turli madaniyat namoyondalari orasidagi tushunmovchilikka sabab bo'ladi va buning natijasida shaxsiy va global ziddiyat vujudga kelishi mumkin (millatlararo va dinlararo ziddiyat). Demak, zamonaviy ta'limning globallashtirish va madaniyatlarni integratsiyalashuvidagi asosiy vazifalardan biri boshqa madaniyatlardagi odamlar bilan muloqot qilish uchun bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, shuningdek madaniyatlararo muloqot tajribasini va o'z madaniyatini boyitish uchun qulay shartsharoitlarni yaratishdir.

Xulosa va munozara. Demak, zamonaviy ta'limning globallashtirish va madaniyatlarni integratsiyalashuvidagi asosiy vazifalardan biri boshqa madaniyatlardagi odamlar bilan muloqot qilish uchun bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, shuningdek madaniyatlararo muloqot tajribasini va o'z madaniyatini boyitish uchun qulay shartsharoitlarni yaratishdir. Zamonaviy o'quvchi madaniy farqlarni yetarli darajada idrok etishni o'rganishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Byram M., Grundy P. Context and Culture in Language Teaching and Learning. 2003.– 210-b
2. Hulkar, M. (2019). Interactive methods of pedagogical programs in training Oriental Languages. Uzbekistan Journal of Oriental Studies, 1(2), 146-155.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488b.
4. Bayram, M. (2017). Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani o'rgatish va baholash. Filadelfiya, Pensilvaniya: Ko'p tilli masalalar.
5. Мирзаева С. Р. Роль чтение художественной литературы при обучении иностранным языкам. Министерство высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, Наманганский инженерно-строительный институт, Международная научно-практическая конференция, «Инновационные подходы к обучению иностранным языкам», 2023, UDK-81751 Наманган.
6. Mirzayeva Sayyora Rustamjon qizi Bo'lajak chet tili mutaxassislari amaliy mashg'ulotlarida muhojir yozuvchilarning adabiyotidan foydalanish, Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi 8-son, 2023 yil 8 avgust.



UDK:008.314.316.7.34

*Sevinch MIRZAMURODOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi*

SHDPI dotsenti v.b., PhD S.Azamova taqrizi asosida

YOSHLARDA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH BORASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Аннотация

Ushbu maqolada mamlakatimizda aholi huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan bir qator tub islohotlar haqida so'z boradi. Har bir qabul qilingan qonun, farmon, qarorlarni amalda tatbiq etish, aholiga uning mohiyatini tushuntirish, sharhlash ya'ni ommaning huquqiy madaniyatini oshirishga jiddiy e'tibor berish zarur ekanligi aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: Huquqiy madaniyat, qonun, farmon, huquqiy tarbiya, demokratiya.

РЕФОРМЫ, РЕАЛИЗУЕМЫЕ В ФОРМИРОВАНИИ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье речь пойдет о ряде кардинальных реформ, проводимых в нашей стране по дальнейшему развитию правосознания и правовой культуры населения. В каждом принятом законе, указе, постановлении отражается необходимость практической реализации, разъяснения населению его сути, толкования, т. е. серьезного внимания к повышению правовой культуры масс.

Ключевые слова: Правовая культура, закон, указ, правовое воспитание, демократия.

REFORMS BEING IMPLEMENTED IN FORMING LEGAL CULTURE AMONG YOUTH

Annotation

This article will talk about a number of fundamental reforms carried out in our country in order to further develop the legal consciousness and legal culture of the population. It is reflected that it is necessary to put into practice every adopted law, decree, decisions, explain to the population its essence, interpret it, that is, pay serious attention to the increase in the legal culture of the masses.

Key words: Legal culture, law, decree, legal education, democracy.

Kirish. Mustaqillikka erishganimizning dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda inson huquqlari, erkinliklariga rioya etilishini, ularning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlaydigan demokratik insonparvar huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish maqsad qilib olindi. Bu ezgu niyatlar yo'lida talaygina ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Endilikda har bir qabul qilingan qonunlarni amalda tatbiq etish, aholiga uning mohiyatini tushuntirish, sharhlash ya'ni ommaning huquqiy madaniyatini oshirishga jiddiy e'tibor berish lozim. Huquqiy tarbiya jarayonida yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini o'stirish kelajakda huquqiy demokratik davlatni barpo etish uchun zamin yaratadi. Kishini ongli intizomlilik ruhida tarbiyalash huquqiy ta'lim-tarbiyaning ajralmas qismini tashkil etadi. Intizom inson xulq-atvorining jamiyat talablariga, davlatning qonun-qoidalariga muvofiq kelishini talab qiladi. Bu esa jamiyat har bir a'zosining shaxsiy e'tiqodiga asoslanadi. Intizom ixtiyoriy ravishda amalga oshishi lozim. Jamoat tartibini mamlakatimiz qabul qilgan huquqiy talablarni buzadigan kishilarning xatti-harakatlari huquqbuzarlik hisoblanadi. Intizomlilik natijasida inson har qanday vaziyatda hamisha to'g'ri xulq-atvorni tanlay oladi. Intizomli kishiga bosiqlik, qatiyat, uyushqoqlik, qiyinchiliklarni yenga olish, tashabbus kabi iroda kuchi xos bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Huquqiy madaniyatni tarbiyalashda 1997-yil 25-iyunda qabul qilingan "Huquqiy tarbiyani yaxshilash aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida" Birinchi Prezident Islom Karimov farmoni va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" katta ahamiyat kasb etadi. Unda aholi huquqiy madaniyat darajasining oshirilishi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati xodimlarining bilimdonligiga ko'p jihatdan bog'liqligi, huquqiy madaniyatning ilmiy asoslarini tadqiq etishni rag'batlantirish, ijtimoiy - huquqiy tadqiqotlarni tashkil etish va

boshqa masalalar o'z aksini topgan. Biroq bugungi kunga kelib zamon o'zgarishi, fuqarolarning fikr yuritish darajasi o'zgarishiga sababli ushbu milliy dasturni yangilash vazifasi qo'yilmoqda. Bundan tashqari 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Prezident farmoni, 2017-yil 7-sentabrda qabul qilingan "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi qonun, 2018-yil 13-apreldagi "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni, 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident farmoni va boshqa me'yoriy - huquqiy hujjatlarining qabul qilinganligini ko'rish mumkin[1].

"Huquqiy madaniyat darajasi faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlardan xabardor bo'lishdangina iborat emas. U qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati demakdir. U odil sudni hurmat qilish, o'z haq-huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilish ehtiyoji demakdir. Huquqiy madaniyat degani - turli mojarolarni hal qilishda qonunga xilof kuchlardan foydalanishni rad etish demakdir"[2]. Huquqiy madaniyat kishilarga huquqiy tartibot va qonunlar to'g'risida tobora ko'proq tushuncha beradi, ularning huquqqa bo'lgan munosabatini mustahkamlaydi, har bir kishining jamiyat oldidagi o'z burchi va majburiyatlarini og'ishmay bajarishni taqazo etadi.

"Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta'minlashga o'zining jiddiy salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda"[3]. Aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligi, shuningdek, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasligi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayapti.

Jamiyatda huquqiy ongni rivojlantirishda, huquqiy normalarni qabul qilishda huquqiy mafkura asosiy hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki huquqiy mafkura jamiyatdagi huquqiy ustqartmaning mavjudligini, talabga javob berishini, huquqiy normalarning kishilar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib mustahkamlashga va rivojlantirishga katta yordam beradi[4].

Konstitutsiya insoniyat tafakkuri va ma'rifiy taraqqiyoti hamda huquqiy madaniyati hosilasidir. Har qanday Konstitutsiya jamiyat madaniy hayoti va taraqqiyotining darajasini aks ettiradi. Har bir davlat o'z taraqqiyoti jarayonida umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalari ustunligini tan olgan holda milliy qonunchiligini unga yaqinlashtirishga harakat qiladi, urf-odat, an'ana va qadriyatlarini qonunchilikka singdiradi[5]. Shuning uchun ham har bir davlat Konstitutsiyasi bir-biridan farq qilib, dunyo konstitutsionalizmi mazmunan boyib bormoqda. Konstitutsiya har bir mamlakatning tashrif qog'ozidir. Konstitutsiyaning muqaddimasidayoq O'zbekistonning yagona xalqi inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligini e'lon qilib, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalari sadoqatini namoyon etib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatni anglagan holda, o'zbek davlatchiligi rivojining uch ming yildan ortiq tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarning ilmiy, madaniy, ma'naviy merosiga tayanib, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli O'zbekiston xalqining farovonligini, gullab yashnashini ta'minlashni maqsad qilgan holda Konstitutsiya qabul qilganini e'tirof etgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlanmagan. "Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odo-axloq qoidalari hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi"[3]. Aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta'sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko'rsatadi.

Fuqarolarni ongli ravishda qonun talablariga amal qilishga o'rgatish – hozirgi vaqtda jamiyatimiz oldida turgan dolzarb vazifa bo'lib hisoblanadi. Shuni e'tiborga olgan holda respublikamizda "buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadida katta ahamiyat berib kelinmoqda"[6].

Huquqiy madaniyat umumiy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, axloqiy-huquqiy, etik, estetik va boshqa tarbiya jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Agar huquqiy ong kishilarning ma'naviy quroli bo'lsa, huquqiy madaniyat shu qurolni ishlata bilish qobiliyatidir. Huquqiy madaniyat huquqiy ongni tarbiyalash natijasidir. Huquqiy qoida talablarini mensimaslik axloqiy qoidalarni inkor etish, qonunni chetlab o'tish huquqiy madaniyat tushunchasiga ziddir. Huquqiy madaniyatli kishining har bir xatti-harakati boshqalarda unga nisbatan hurmat tug'diradi. Yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish bugunning

kechiktirib bo'lmaydigan masalasidir. Ammo, shuni ham hisobga olish kerakki, qonun-qoidalarni bilib olishning o'zi yetarli emas, bu hali kishining yuksak darajadagi huquqiy ong va huquqiy madaniyat egasi bo'lganidan dalolat bermaydi. Huquqiy bilimning mavjudligi ham qonunlarning halollik bilan bajarilishini ko'rsatuvchi dalil bo'la olmaydi. Hayotda biz huquqiy bilimlar sohasida yetarli ilm olgan, lekin amalga qonunlarning buzilishiga yo'l qo'yadigan, bilib turib qonunni chetlab o'tadigan kishilarni ham uchratib turamiz.

Tahlil va natijalar. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati masalasiga ham alohida to'xtalib o'tdilar, "Biz qanchalik mukammal qonunlar yaratmaylik, qanday islohotlar o'tkazmaylik agar fuqarolarimizning huquqiy bilimi, ongi va madaniyati yetarli bo'lmasa kutilgan natijalarga erishish mushkul bo'ladi. Huquqshunos olimlarning bundan bir necha asr avval "Huquqni anglash mas'uliyat hissini rivojlantiradi", deb aytgan hikmatli so'zlari hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Boshqacha aytganda Konstitutsiya va qonunlarga hurmat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat har bir fuqaroning, har bir mansabdor shaxsning hayot va faoliyat tarziga aylanmog'i kerak. Biz huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarimizni uzliksiz davom ettirishimiz zarur. Huquqiy tarbiyani maktabgacha ta'lim tizimidan boshlashimiz, bu boradagi ilk ko'nikmalar ona allasi kabi farzandlarimiz qalbidan umrbod joy olishi darkor. Konstitutsiyamiz har bir fuqaroning ongi va qalbidan chuqur joy olgan, ularning huquq va erkinliklarini to'liq kafolatlaydigan haqiqiy hayot qomusiga aylanmog'i lozim. Har bir soha va yo'nalish, ta'limning barcha bosqichlari uchun huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslangan dasturi tayyorlanishi kerak.

"Shaxsning huquqiy madaniyati – jamiyat huquqiy madaniyatining zaruriy shart sharoiti va ilk bunyodkori, uning maqsadi va tarbiyaviy qismidir. Shu bilan birga u shaxsning o'zining qonuniy faoliyat darajasida aks etuvchi huquqiy rivojlanishining jihati hamdir" [7]. Shaxsning va jamiyatning huquqiy madaniyati umuminsoniy qadriyatlar tushunchalarining va insoniyat umumdemokratik yutuqlarini muhim natijasidir Huquqiy madaniyat – huquqiy davlatning ajralmas qismidir.

Xulosa va takliflar. Huquqiy davlat qurishning zaruriy sharti - bu qonunlarning so'zsiz bajarilishidir. Qonunlarning bir xilda va so'zsiz bajarilishi har bir shaxsning o'z vazifasiga munosabati va zimmasidagi mas'uliyatni his qilishiga bog'liqdir. Avvalo huquqiy ong va huquqiy madaniyatga olimlar tomonidan berilgan turlicha ta'riflar bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi, jumladan, professor Islomov huquqiy ongga shunday ta'rif beradi: "Huquqiy ongni mamlakat fuqarolarining ham amaldagi huquqqa, yuridik amaliyotga, fuqarolar huquqlari, erkinliklari, majburiyatlariga, ham orzu qilingan huquqqa va boshqa huquqiy hodisalarga munosabatini ifodalovchi huquqiy sezgilar, g'oyalar, baholar, tasavvurlar tizimi sifatida ta'riflash mumkin"[8].

Yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish – jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash, qonunlarga hurmatni oshirish va huquqbuzarliklarning oldini olish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin: Huquqiy ta'lim va targ'ibot: Maktab va oliy ta'lim muassasalarida huquqiy fanlarni o'qitish, yoshlarni o'z huquq va majburiyatlari bilan tanishtirish. Ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot: Televizor, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali huquqiy madaniyatni oshirishga qaratilgan ko'rsatuvlar, maqolalar va videolar yaratish. Amaliy mashg'ulotlar va treninglar: Yoshlar uchun huquqiy seminarlar, treninglar va rolli o'yinlar tashkil qilish orqali ular qonuniy vaziyatlarda qanday harakat qilish kerakligini o'rganadilar. Oila va mahalla institutining roli: Oilada va mahallada to'g'ri huquqiy tarbiya berish, o'z huquqini biladigan va boshqalarning huquqlarini hurmat qiladigan shaxslarni shakllantirish. Davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik: Yoshlar tashkilotlari, huquqni muhofaza qilish organlari huquqiy madaniyatni oshirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish.

ADABIYOTLAR

1. 2017 -yil 7- fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev farmoni, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son
2. Karimov I.A." O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari", Ozbekiston 1995-yil 29-bet.
3. Diyorova SHaxloxon. "Pedagogika oily o'quv yurtlari talabalarining huquqiy madaniyatini rivojlantirish omillari to'g'risida" // Pedagogika,2019, №2 134-b.
4. 2019- yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident farmoni.
5. Firuz Rashidov O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Ijtimoiy fanlar va huquq" kafedrasida o'qituvchisi "Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda Konstitutsiya va qonunlarning o'rni."
6. Karimov I.A.."Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori"O'zbekiston , 1997-yil 54-bet.
7. Tajixanov U., A,Saidov. Huquqiy madaniyat nazariyasi 1-tom.- Toshkent. 1998, 31-bet.
8. "Mustaqillik va ijtimoiy taraqqiyot" O'zbekiston- 1998 yil. 61-bet.
9. Ayonovna, Azamova Sitora. "The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization." Global Scientific Review 13 (2023): 7-10.
10. Ayonovna, Azamova Sitora, and Pirimov Lerik Xudoyberdi o'g'li. "Ekologik madaniyatni shakllantirishda ekologik omil tushunchasi ." tadqiqotlar. uz 40.4 (2024): 135-139..
11. Ayonovna A. S. In the context of environmental globalization, the need for environmental education becomes a priority //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35..



Нилуфар МИРХАНОВА,
Магистрантка Национального университета Узбекистана
Гулчехра КАБУЛЬНИЯЗОВА,
Национального университета Узбекистана, профессор, д.ф.н
E-mail: nilufarmirxanova2002@gmail.com

На основании рецензии и.о. доцента ТППУ, PhD Икромовой И.

"COMPARATIVE ANALYSIS OF THE POLITICAL GOVERNANCE SYSTEM IN THE 'CODE OF TIMUR' AND MONTESQUIEU'S 'THE SPIRIT OF THE LAWS'"

Annotation

This article attempts a comparative analysis of the political governance system outlined in the "Code of Timur" and Montesquieu's book The Spirit of the Laws. Political governance during the Timurid era corresponded to the medieval period of Eastern culture, which was characterized by monarchical, absolutist rule not limited by a constitution. In contrast, Montesquieu's era was the Age of Enlightenment, which proposed the idea of a limited, enlightened monarchy. Therefore, the content of the two treatises differs significantly in terms of political structure. This difference is the main subject of analysis in the present article.

Key words: Monarchy, laws, absolutism, separation of powers, three branches of government, Eastern governance system in the medieval period, Babur, Baburids, limited monarchy, dynastic rule, discipline, order, freedom, responsibility.

"TEMUR TUZUKLARI" VA MONTESQUENING "QONUNLAR RUHI HAQIDA" ASARIDA SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada "Temur tuzuklari" da bayon etilgan siyosiy boshqaruv tizimi bilan Montesquening Qonunlar ruhi haqida nomli asarida keltirilgan siyosiy tizim o'rtasida qiyosiy tahlil o'tkazishga urinish qilingan. Temuriylar davridagi siyosiy boshqaruv Sharq madaniyatining o'rta asrlar davriga xos bo'lgan, konstitutsiya bilan cheklanmagan monarxik va absolutistik boshqaruv shakliga mos kelgan. Montesquening davri esa, aksincha, ma'rifatparvarlik davri bo'lib, unda ma'rifatli va cheklangan monarxiya g'oyasi ilgari surilgan. Shu sababli, ushbu ikki asarning siyosiy tuzumga oid mazmuni bir-biridan keskin farq qiladi. Ushbu farq maqolaning asosiy tahlil obyektini tashkil etadi.

Kalit so'zlar: Monarxiya, qonunlar, absolutizm, hokimiyatlar bo'linishi, uch hokimiyat tarmog'i, o'rta asrlar davridagi Sharq boshqaruv tizimi, Bobur, boburiylar, cheklangan monarxiya, sulolaviy boshqaruv, intizom, tartib, erkinlik, mas'uliyat.

"СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СИСТЕМЫ ПОЛИТИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ В «УЛОЖЕНИЯХ ТЕМУРА» И В ПРОИЗВЕДЕНИИ МОНТЕСКЬЕ «О ДУХЕ ЗАКОНОВ»

Аннотация

В данной статье делается попытка сравнительного анализа политической системы управления в "Уложениях Тимура" и в книге Монтескье "О духе законов". Политическое управление в эпоху тимуридов соответствовало средневековой эпохе восточной культуры, для которой было свойственно монархическое, абсолютистское управление, не ограниченное Конституцией. В то время как эпоха Монтескье – это эпоха Просвещения, выдвинувшая идею просвещённой ограниченной монархии. В связи с этим содержание обоих трактатов сильно отличается в вопросе политического устройства. Это различие и составляет предмет анализа данной статьи.

Ключевые слова: Монархия, законы, абсолютизм, разделение властей, три ветви власти, восточная система управления в период средневековья, Бабур, бабуриды, ограниченная монархия, династическое правление, дисциплина, порядок, свобода, ответственность.

Введение. Политическая система управления каждого исторического периода опирается на социальные, культурные и философские представления своего времени. Принципы управления, отражённые в произведении «Уложения Темура», демонстрируют политическую структуру общества средневекового Востока, тогда как труд Монтескье «О духе законов» является выдающимся продуктом политико-философской мысли эпохи европейского Просвещения. В данной статье анализируются сходства и различия политических систем, описанных в этих двух исторических произведениях, а также раскрывается их значение в контексте своей эпохи.

Политическое управление, как искусство и наука, веками волновало умы великих мыслителей и правителей. В XIV веке Тамерлан (Тимур), легендарный завоеватель и основатель империи, создал свои "Уложения" — свод правил, отражающий его видение власти, порядка и справедливости. Спустя четыре столетия, в XVIII веке, Шарль Луи Монтескье, французский философ эпохи Просвещения, в своем трактате "О духе законов" предложил глубокий анализ политических систем, заложив основы современной теории разделения властей. Эти два произведения, разделённые временем и

пространством, представляют собой уникальные подходы к управлению государством, каждый из которых отражает дух своей эпохи и личности своих создателей. Настоящая статья посвящена сравнительному анализу этих систем, их принципов, целей и методов, с акцентом на то, как они воплощают идеалы власти и свободы.

Великий основоположник империи тимуридов амир Тимур возвысился из хаоса средневековой Центральной Азии, создав империю, простирающуюся от Индии до Средиземного моря. Его "Уложения" (или "Тимур-наме") — это не просто юридический кодекс, но и автобиографическое завещание, в котором он изложил принципы управления, основанные на личном опыте, военной дисциплине и исламских традициях. Этот текст, написанный в конце XIV века, был призван укрепить его власть и обеспечить преемственность в управлении огромным государством.

Уложения Темура — это не просто исторический документ, но и зеркало, в котором отражается душа великого завоевателя и его эпохи. Созданные в конце XIV века Тимуром, известным как Тамерлан, эти правила представляют собой уникальный синтез военной мудрости, религиозных убеждений и прагматичного подхода к

управлению. Книга, написанная на основе его жизненного опыта, стала не только руководством для правителей, но и краеугольным камнем идеологии Тимуридов – династии, унаследовавшей его амбиции и видение мира. В этом тексте мы рассмотрим общую характеристику "Уложений" и их значение в формировании политической и культурной идентичности наследников Тимура.

"Уложения Тимура" – это текст, который трудно отнести к одному жанру. Это одновременно автобиография, свод законов и наставление потомкам. Написанный на персидском языке, он был составлен в последние годы жизни Тимура, около 1390-х годов, когда его империя достигла пика могущества. Документ включает в себя как практические указания по управлению государством, так и философские размышления о власти, судьбе и божественном предназначении. Тимур утверждал: "Я оставил эти слова, чтобы мои сыновья и внуки могли следовать им и сохранить величие, дарованное мне небесами"[1].

Основу "Уложений" составляют принципы, выкованные в горниле бесконечных войн. Тимур, поднявшийся из скромного рода вождей племени Барлас до властителя огромной империи, видел в дисциплине и порядке залог успеха. Его правила охватывают широкий спектр вопросов: от организации армии до назначения наместников, от налоговой политики до наказания за преступления. Например, он предписывал: "Пусть каждый воин знает, что его жизнь зависит от верности, а его награда – от храбрости"[1, с.25]. Жестокость в "Уложениях" соседствует с прагматизмом: измена каралась смертью, но щедрость к лояльным подданным поощрялась.

Важной чертой текста является его религиозная окраска. Тимур, будучи мусульманином, подчёркивал свою роль как защитника веры, хотя его действия порой расходились с ортодоксальным исламом. В "Уложениях" он призывал правителей "читать законы шариата и следовать воле Аллаха", что придавало его власти сакральный оттенок[1]. Однако этот религиозный аспект был скорее инструментом легитимации, чем искренним духовным руководством, что отличает "Уложения" от чисто теологических трактатов того времени.

Стиль "Уложений" лаконичен и прямолинеен, что отражает характер самого Тимура – человека действия, а не слова. В отличие от изящных трактатов персидских поэтов, его текст лишён украшений, но полон силы и уверенности. Это не абстрактная философия, а практическое руководство, высеченное на камне его побед. Историки отмечают, что "Уложения" были продиктованы Тимуром его секретарям, что придаёт тексту живость и личный отпечаток[2].

После смерти Тимура в 1405 году его империя оказалась на грани распада, но его идеи, закреплённые в "Уложениях", стали духовным фундаментом для династии Тимуридов. Этот текст играл ключевую роль в формировании их политической идеологии, соединяя воинственный дух основателя с культурным расцветом, который последовал в XV веке. Тимуриды, такие как Шахрух, Улугбек и Бабур, опирались на "Уложения" как на символ легитимности и источник вдохновения.

Во-первых, "Уложения" служили инструментом преемственности. Тимур стремился создать не просто империю, но династию, способную выстоять после его ухода. Его наставления о выборе достойных правителей и поддержании военной мощи стали ориентиром для наследников. Например, Шахрух, сын Тимура, следовал этим принципам, укрепляя центральную власть в Герате и подавляя мятежи с той же решимостью, что и его отец[3]. "Уложения" стали своего рода политическим завещанием, которое Тимуриды использовали для оправдания своих претензий на трон.

Во-вторых, текст укреплял идею божественного права Тимуридов на власть. Тимур представлял себя как избранника судьбы, чья миссия — объединить мир под своим знаменем. Эта концепция нашла отражение в идеологии его потомков, особенно в эпоху культурного подъёма при Улугбеке. Хотя Улугбек был больше учёным, чем воином, он ссылался на

"Уложения", чтобы подчеркнуть своё происхождение от великого предка, соединяя военную славу с интеллектуальным величием[4]. Таким образом, книга стала мостом между эпохой завоеваний и временем созидания.

Наконец, "Уложения" вдохновляли Тимуридов на сохранение имперского величия. Даже когда их владения начали дробиться, как мозаика под ударами судьбы, текст напоминал о былом могуществе. Бабур, основатель империи Великих Моголов и прямой потомок Тимура, в своих мемуарах "Бабур-наме" неоднократно упоминает "Уложения" как источник мудрости. Он писал: "Мой предок оставил нам не только земли, но и правила, по которым мы должны жить"[5]. Для Бабура "Уложения" были не просто историей, а живым руководством, которое помогло ему возродить тимуридскую славу в Индии.

"Уложения Тимура" – это текст, в котором сплелись суровость воина, прагматизм правителя и вера в божественное предназначение. Его лаконичные строки, лишённые излишней риторики, несут в себе отпечаток личности Тимура – человека, чья жизнь была битвой, а власть – трофеем. Для Тимуридов же этот документ стал больше, чем сводом правил: он превратился в идеологический стержень, поддерживающий их притязания на величие в эпоху перемен. Как звезда, что светит даже после заката, "Уложения" продолжали озарять путь династии, соединяя воинственный дух Тимура с культурным наследием его потомков. В этом и заключается их непреходящее значение – быть не только памятником прошлого, но и уроком для будущего.

Монтескье же творил в совершенно ином мире – в Европе эпохи Просвещения, где идеи разума, свободы и гуманизма расцветали на фоне угасающего абсолютизма. Его "О духе законов", опубликованное в 1748 году, стало плодом двадцатилетнего труда и путешествий, в ходе которых он изучал политические системы Англии, Италии и других стран. В отличие от Тимура, Монтескье не был правителем, но его целью было предложить универсальную модель управления, способную предотвратить тиранию и обеспечить свободу. "Свобода есть право делать всё, что дозволено законами", — утверждал он, подчёркивая связь между законом и политической гармонией[6].

Одним из ключевых различий между системами Тимура и Монтескье является их подход к природе власти. В "Уложениях" Тимура власть – это инструмент силы и порядка, подчинённый воле единого правителя. Тимур видел государство как военную машину, где дисциплина и страх служат основой стабильности. Его законы предписывали строгую иерархию: "Каждый воин должен знать своё место, а каждый правитель – свою ответственность перед Аллахом"[1]. Примером может служить его указ о наказании за неповиновение: изменников ждала смерть, а их семьи – изгнание, что подчёркивало абсолютность его авторитета.

Монтескье, напротив, отвергал деспотизм как форму правления, считая его угрозой человеческой природе. В "О духе законов" он выделяет три типа управления – республику, монархию и деспотию, - каждому из которых соответствует свой принцип: добродетель, честь и страх. Деспотия, по его мнению, опирается на страх, что делает её неустойчивой и несправедливой. "В деспотическом государстве цель – тишина, но это тишина кладбища", - писал он, противопоставляя её живой энергии республики, где граждане объединены любовью к законам и отечеству[7]. Если Тимур воплощал деспота-завоевателя, то Монтескье искал баланс, где власть служит не подавлению, а процветанию общества.

Структура политического управления в "Уложениях" Тимура отражает централизованную модель, характерную для восточных империй. Власть сосредотачивалась в руках правителя, который делегировал её своим наместникам и военачальникам. Тимур подчёркивал важность личной преданности: "Я выбирал тех, кто доказал свою верность на поле боя"[1]. Его система не допускала разделения властей — законодательная, исполнительная и судебная функции сливались в едином центре, подчинённом его воле. Примером

служит эпизод из его походов, когда он лично судил захваченных врагов, вынося приговоры без посредников.

Монтескье же предлагал радикально иную модель – разделение властей на законодательную, исполнительную и судебную, каждая из которых должна быть независимой и уравновешивать другие. "Если власть законодательная и исполнительная будут соединены в одном лице, то свободы не будет", - утверждал он, вдохновляясь английской парламентской системой[6]. Эта идея стала краеугольным камнем современных демократий, таких как США, где Конституция 1787 года прямо отражает влияние Монтескье. В отличие от Тимура, чья власть была монолитной, Монтескье стремился рассеять её, словно свет через призму, чтобы избежать тирании.

Закон в "Уложениях" Тимура служил инструментом поддержания порядка и подчинения. Его правила были строгими и часто жестокими, отражая суровость эпохи войн и завоеваний. Например, он установил, что "вор должен лишиться руки, а предатель – головы"[1], подчёркивая неотвратимость наказания как залог стабильности. Однако законы Тимура не были универсальными — они подстраивались под нужды его империи и его личные амбиции, что делало их скорее практическим руководством, чем философской системой.

Монтескье же видел в законе воплощение "духа" народа, его традиций, климата и истории. "Законы должны соответствовать природе и принципам установленного правительства", - писал он, подчёркивая их органическую связь с обществом[6]. В отличие от Тимура, для которого закон был продолжением воли правителя, Монтескье считал его выше любой власти, включая монарха. Прекрасным примером служит его анализ английских законов, которые, по его мнению, обеспечивали свободу благодаря независимости судов и парламента. Если у Тимура закон был цепью, сковывающей подданных, то у Монтескье – крыльями, возносящими их к свободе.

Цели политического управления у Тимура и Монтескье также разительно отличаются. Для Тимура государство существовало ради величия империи и славы правителя. Его "Уложения" направлены на укрепление военной мощи и расширение территорий: "Я стремился сделать своё имя вечным через победы"[1]. Его успехи — от покорения Самарканда до разгрома Османской империи — подтверждают эту цель, но подданные в этой системе были лишь средством, а не самоцелью.

Монтескье же ставил во главу угла благополучие гражданина. Его идеал – государство, где "безопасность граждан" становится мерилом политической свободы[8]. Он мечтал о системе, где власть служит обществу, а не наоборот. В этом смысле его республика — это антипод тимуровской империи, где индивидуальная свобода и общее благо переплетаются, словно нити в гобелене. Если Тимур строил пирамиду власти с собой на вершине, то Монтескье предлагал круг, где каждый гражданин имеет голос.

Сравнение "Уложений" Тимура и "О духе законов" Монтескье подобно диалогу между двумя эпохами – средневековьем и Просвещением, Востоком и Западом. Тимур воплощает образ правителя-завоевателя, для которого власть – это меч, выкованный в горниле войны. Его система, основанная на силе и централизации, была эффективна в условиях своего времени, но оставляла мало места для свободы. Монтескье же, как сын своего века, видел власть как сад, который нужно возделывать с заботой, чтобы он приносил плоды справедливости и гармонии.

Несмотря на различия, оба мыслителя стремились к порядку – Тимур через подчинение, Монтескье через равновесие. Их идеи, словно звёзды на небосклоне истории, освещают разные пути к одной цели: созданию устойчивого государства. Сегодня, в эпоху глобальных вызовов, их наследие напоминает нам, что управление — это не только сила или закон, но и искусство слышать голос времени.

ЛИТЕРАТУРА

1. Тимур. "Уложения Темура". Перевод с персидского. Ташкент: Издательство Востока, 2008, с. 12.
2. Ахмедов, Б. "Тимур и его время". Самарканд: Исторический фонд, 1995, с. 89.
3. Манз, Б. "Власть Темуридов: Политика и религия". Лондон: Routledge, 1989, с. 45.
4. Субгельный, М. "Темуриды в переходный период". Торонто: University of Toronto Press, 2007, с. 112.
5. Бабур. "Бабур-наме". Перевод с чагатайского. Дели: Orient Books, 1996, с. 203.
6. Монтескье, Ш. Л. "О духе законов". Книга XI, глава 3. СПб.: Азбука, 2023, с. 256.
7. Монтескье, Ш. Л. "О духе законов". Книга III, глава 9, с. 89.
8. Монтескье, Ш. Л. "О духе законов". Книга XII, глава 2, с. 289.



Go'zalxon MO'MINOVA,
Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi
E-mail:mominovagozalxon09@gmail.com

PhD M.Muhammadaliyeva taqriz asosida

APPLICATION OF LINGUISTIC TASKS IN FORMING LINGUISTIC COMPETENCE IN PRIMARY GRADE MOTHER LANGUAGE LESSONS

Annotation

The article discusses the classification of linguistic tasks, special genres of linguistic tasks, and types of linguistic tasks used in language didactics. Examples of linguistic tasks used in the research process are presented.

Key words: Linguistic competence, linguistic tasks, descriptive-descriptive, comparative-historical, comparison, stylistic and aesthetic analysis, secured linguistic tasks, unsecured linguistic tasks.

ПРИМЕНЕНИЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ЗАДАНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЯЗЫКОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация

В статье рассматривается классификация лингвистических задач, специальные жанры лингвистических задач и виды лингвистических задач, используемые в языковой дидактике. Представлены примеры лингвистических задач, используемых в процессе исследования.

Ключевые слова: Языковая компетентность, лингвистические задачи, описательно-описательные, сравнительно-исторические, сравнение, стилистический и эстетический анализ, обеспеченные лингвистические задачи, необеспеченные лингвистические задачи.

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA LINGVISTIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA LINGVISTIK VAZIFALARNI QO'LLASH

Annotatsiya

Maqolada lingvistik vazifalarning tasnifi, lingvistik vazifalarning maxsus janrlari hamda lingvistik vazifalarni lingvodidaktikada qo'llanadigan turlari haqida fikr yuritilgan. Tadqiqot jarayonida foydalanilgan lingvistik vazifalardan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Lingvistik kompetentlik, lingvistik vazifalar, tavsiflovchi-tasvirlovchi, qiyosiy-tarixiy, taqqoslash, stilistik va estetik tahlil, ta'minlangan lingvistik vazifalar, ta'minlanmagan lingvistik vazifalar.

Kirish. Jahonning yirik ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, tayanch va lingvistik kompetensiyaning inson muloqot amaliyoti va faoliyatidagi ahamiyati, tilni amaliy o'rganishda foydalanishga kommunikativ yondashuvlar va uni innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Lingvistik kompetensiyani shakllantirish texnologiyasini yaratilishi ona tili ta'limida yangi pedagogik amaliyotning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida lingvistik kompetentlikni shakllantirish texnologiyasi orqali o'quvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi va uning nutqi, tafakkuri rivojlanadi, mustaqil fikrlash darajasi oshadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetentlikni shakllantirishda lingvistik vazifalarni qo'llash jarayonida ularni tasniflash hal qilish usulini oldindan belgilash imkonini beradi. Ta'kidlash lozimki, lingvistik vazifalarni tasnifi masalasi ilmiy va ilmiy-metodik manbalarda qat'iy talqinga ega emas. Fikrimizcha, lingvistik vazifalarni tasniflash turli asoslarda amalga oshirilishi mumkin. Lingvistik vazifalar turlarini tanlash, bizningcha, tilning tizim xususiyatlariga asoslanishi lozim, ya'ni til tizimining birliklari va vositalari boshlang'ich birlik hisoblanadi hamda asosiy lingvistik muammolar doirasini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu tushunchalarning mohiyatini yoritish ko'plab mamlakatimiz, rus, xorij olimlari tomonidan amalga oshirilgan: O. V. Zunnunova, I. A. Zimnyaya, S. Holliford va boshqalar. "Kompetensiya" tushunchasini mamlakatimiz xorij, rus va mamlakatimiz olimlari tomonidan taqdim etilgan talqinlarni tahlil etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

L.F.Barchmanning fikriga ko'ra, lingvistik kompetensiya - bu nutqni tahlil qiluvchi mutaxassislar va antropologlar

tomonidan so'zlovchilar jamoasida til qanday ta'riflanishini tasvirlash uchun ishlatiladigan atama. Bu atama til grammatikasi deb nomlanuvchi tovushlar, sintaksis va semantika majmuini o'zlashtirish uchun amal qiladi.

D.Slobin lingvistik kompetensiya tushunchasini aniq shakllantirilib, "inson nazariy jihatdan gapira oladigan va tushuna oladigan narsa bilan aniq vaziyatlarda haqiqatda aytgani va tushunadigani o'rtasidagi" farqni ko'rsatib berdi

Rus tilshunosligida 80-yillarning oxiri - 90-yillarning boshlarida. A.L. Berdichevskiy lingvistik, madaniy-kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishni taklif qildi. U lingvistik kompetensiyani tarkibiy qismlari kommunikativ kompetensiyani o'zlashtirish uchun asos ekanligini ko'rsatadi. D.I. Izarenkov lingvistik kompetensiyani "barcha darajadagi til birliklarini (fonetik, leksik, derivativ, morfologik va sintaktik) bilish" deb talqin qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy tadqiqot ishida boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarda lingvistik kompetentlikni shakllantirish texnologiyalari, lingvistik vazifalarni qo'llash texnologiyalari va boshlang'ich sinf ona tili darslarida qiziqarli grammatik materiallardan foydalanishning vazifalari ishlab chiqildi. Jumladan, boshlang'ich sinf ona tili darslarida qiziqarli grammatik materiallardan foydalanishning vazifalarini quyidagicha belgilandi:

- akademik fan sifatida ona tiliga qiziqishni rivojlantirishga ko'maklashish;
- o'quvchilarning til o'rganish bo'yicha mustaqil ishlashga bo'lgan ehtiyojini uyg'otish;
- o'quvchilarning umumiy lisoniy rivojlanishini takomillashtirish;
- o'quvchilarning tildan samarali muloqot quroli sifatida foydalanishga qiziqishlari, tafakkur madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga hissa qo'shish;

- topqirlik va zukkolikni rivojlantirishga yordam berish.

“Qiziqarli grammatika” maktab o'quvchilariga ona tili darslarida olingan mustahkam bilim va ko'nikmalarni egallash va mustahkamlashga yordam beradi, rivojlanish, ta'lim va tarbiya birligini ta'minlaydi. Taqiqot jarayonida o'tkazilgan so'rovnoma natijalarini tahliliga asoslanib, shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilariga metodik yordam ko'rsatish maqsadida tajriba maydonlarida treninglar o'tkazildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi turdagi lingvistik vazifalardan foydalanildi:

Yangi materialni o'rganish bosqichidagi lingvistik vazifa:

1-vazifa: quyidagi so'zlarda qo'shimchalarni aniqlang va ularning yozilishini izohlang: qishloqda, akatsiyada, oxirida, Maryamning, jurnalga, anjumanning, hisobot haqida (muammo masala).

2-vazifa: -ga, -ning, -ni, bilan, haqida qo'shimchalarini qaysi tuslovchi otlarga tegishli ekanligini va qaysi holatda ishlatilishini aniqlang (reproduktiv savol).

3-vazifa: berilgan so'zlardagi qo'shimchalarning imlosini qanday tushuntirishni shakllantirish (muammoli vazifa, topshiriq boshida muammoli savol mazmunini albatta takrorlash).

4-vazifa: berilgan so'zlarni qaysi ko'rsatkich bo'yicha birlashtirish mumkin:

a) yaramas, badjah!; katta - ulkan, jasur - qo'rqmas; yugurish - shoshilish; azob - bezovta qilmoq, qiynamoq, hayajonlantirmoq; tez orada - tez. Fikringizni asoslab bering.

b) dushman - do'st, haqiqat - yolg'on, kasallik - sog'lik, shovqin - sukunat, foydali - zararli, qiyin - yengil, qari - yosh, ahmoq - o'tkir, iltimos - g'amgin, shoshil - sekin, boshla - tugat, gapir - jim bo'l, zaif - kuchli, yaxshi - yomon, sekin - tez, uzoq - tez, issiq - sovuq, qiziqarli - g'amgin

Sintaksis.

1-vazifa: so'zlarni boshqa tartibda yozsangiz necha xil ibora olish mumkin? Men, kecha, keldim, uyga, kechqurun.

Yechim. Bu so'zlarning har qanday tartibi yangi jumlani beradi. Barcha jumlar soni besh elementning almashtirishlar soniga teng.

2-vazifa: u, emas, ekilgan, qari, eshak so'zlaridan gaplar tuzamiz.

Har bir so'z har bir jumlagi bir marta kiritilishi kerak; har bir so'z faqat shartda berilgan shaklda qo'llanilishi mumkin; boshqa so'zlardan yoki har qanday tinish belgilaridan foydalanish ta'qiqlanadi.

Mashq qilish. Belgilangan talablarga rioya qilgan holda, berilgan so'zlardan nechta gap tuzish mumkinligini aniqlang. Javobni qanday olganingizni tushuntiring.

“Fonetika va grafika”.

Fonetika va grafika bo'yicha vazifalarni ko'rib chiqamiz.

1-vazifa: so'zni o'qing: ertaklar. Ushbu so'zning har bir tovushi quyidagi gapda necha marta paydo bo'lishini aniqlang: bir paytlar kampir bilan chol bor edi.

Yechim: ushbu vazifada berilgan so'zlarning (tovushlarning) talaffuzini tahlil qilish kerak.

2-vazifa: quyidagi “tovush nisbatlarini” hal qiling. Bu yerda harflar tovushlarni ko'rsatish uchun ishlatiladi, ya'ni kvadrat qavslar bilan ko'rsatilgan ularning transkripsiyasi uchun noma'lum tovushni toping va berilgan tovushni o'z ichiga olgan biron bir nechta shunda nisbatga ega bo'lgan so'z yoki ibora tuzing. Har bir nisbat uchun juftlikdagi tovushlar o'rtasidagi farq nima ekanligini (qisqacha) tushuntiring.

1). Yozishda [b]:talaffuzda so'z oxirida [X] X = ?

2). Yozilishi ikkita harf: talaffuzi I ta tovush =X .

3). Noma'lum tovushlarni toping:

a) asosan u leksikaga oid so'zlarning toq bo'g'inlarida qo'llanadi. Bu bo'g'inlarda yordamchi urg'u bo'lganligi uchun u sifat va cho'zilishi jihatdan o'zgarishlarga uchramagan bo'ladi. U chuqur til orqa undoshlari va bo'g'iz undoshlari bo'lgan so'zlarda qo'llanmaydi. Uning artikulyatsiyasida til uchi pastga egilgan va pastki til uchiga tekkan, tilning o'rta yuzasi old tomonga siqilgan, til ildizi bilan tanglay devori oraliq nisbatan keng bo'ladi. Tilning o'rta bel yuzasi qattiq tanglayga tomon nihoyatda ko'tarilib, uning erkin qismi og'iz bo'shlig'ining old qismiga yoyiladi, chetlari jag' tishlari yuzasiga yopishadi. Bu tovush-X

b) til oldi va o'rtasi yuzalari qattiq tanglaydan sal narilashib, orqa qismi unga nisbatan ham yumshoq tanglayga yaqinroq joylashadi. Tilning yonlari markazga tortilib, yumaloq tus oladi. Til yoni va jag' tishlar oraliq'ida keng yo'l ochiladi. Unda old tishlar oraliq'i va lablar oraliq'i xuddi odatdagiga o'xshash ochiladi, ya'ni past kurak tishlar tepa kurak tishlar orqasida sezilarli oraliq qoldirib joylashadi va lablar sal ochiladi. Til yuzasidan kelgan davo yuqori jag' tishlar asosiga taqalgan yoy shaklidagi til uchiga urilib, qattiq tanglay va lunj tomon bilan orqaroq qaytadi, keyin til yoni bilan og'iz bo'shlig'ining toshiga yo'naladi.

Tahlil va natijalar. Bizningcha, lingvistik vazifalarning tasnifi quyidagi omillar asosida amalga oshirilishi lozim:

1). Til vositalarining semantikasi va stilistikasi asosida lingvistik vazifalarni so'zlarning paydo bo'lishi va qo'llanish maydoni, ularning grammatik-stilistik roli hamda uslubi asosida tasniflash.

2). Muammoni hal etish metodlari asosida. Bu yerda lingvistik vazifalarni hal etishda qo'llanib kelinayotgan beshta an'anaviy usullardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: tavsiflovchi-tasvirlovchi, qiyosiy-tarixiy, taqqoslash, stilistik va estetik tahlil, so'zlarning fonetik-fonologik xususiyatlarini inobatga olish.

Lingvistik kompetentlikni shakllantirishda qator pedagogik texnologiyalar, innovatsion vositalar bilan bir qatorda darslik va o'quv qo'llanmalar ham muhim ahamiyatga ega[8].

Ilmiy - metodik manbalarda bajariladigan topshiriqlar hajmiga nisbatan lingvistik vazifalarning maxsus janrlari - ta'minlangan va ta'minlanmagan vazifalar ajratiladi. Ta'minlangan lingvistik vazifalarda ularni bajarish bilan bog'liq barcha ma'lumotlar ularning shartlarida (topshiriqlarida) ifodalangani, o'quvchi faqat ularni maxsus lingvistik usullar qo'llamagan holda tartibga soladi. Ta'minlanmagan lingvistik vazifalar o'rganilgan materialni tekshirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularda muammoni hal qilish yangi vaziyatda o'zlashtirilgan lingvistik bilimlarni qo'llashni taqozo etadi.

Boshlang'ich ona tili ta'limida asosan ta'minlanmagan lingvistik vazifalardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi asoslandi. Vanihoyat, lingvistik vazifalarning bir darajali va murakkab turlarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir, chunki bu ulardan tilshunoslikning muayyan bo'limlarini o'rganishda va umumlashtirishda - tilni tizim sifatida ko'rish, uning elementlari, tilshunoslik bo'limlari o'rtasida aloqalarni o'rnatish imkonini beradi.

Biz yuqorida lingvistik vazifalarni lingvistik tasnifi haqida fikr yuritdik. Lingvistik vazifalardan ona tili ta'limi jarayonida keng foydalanish mumkin va zarurligini inobatga olib, quyida ularning lingvodidaktik tasnifi haqida fikr yuritamiz.

Lingvistik vazifalardan darsning istalgan bosqichida, har qanday turdagi darslarda foydalanish mumkin. Shu nuqtai nazardan ularning lingvodidaktikada qo'llanadigan quyidagi turlarini ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Yangi materialni o'rganish bosqichida:

- fikrlashga undovchi vazifalar: bunday vazifani bajarishda muhimi yakuniy xulosa emas, balki til materiali bilan ijodiy faoliyat jarayonidir;

- amaliy vazifalar: lingvistik fakt yoki hodisa bo'yicha ko'rsatmalarni amaliy ijodiy bajarish orqali xulosa chiqarishni talab qiladi;

- vazifalar-taxminlar: sabab-natija munosabatlarini o'rnatish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan;

- analogiya o'rnatuvchi vazifalar: til bilimlarini yangi vaziyatga o'tkazishni talab qiladi;

- korrelyatsiyalash vazifalari: til materialini taqqoslash, tasniflash va boshqalar bo'yicha vazifalarni bajarishga qaratilgan.

2. Bilimlarni mustahkamlash va tizimlashtirish bosqichida:

- taqqoslovchi vazifalar: ona tili bo'yicha yangi bilimlari eskilari bilan to'qnashishi natijasida ko'rsatmalar bajariladi;

- alternativ vazifalar: asosli tanlovni talab qiladi.

3. Mustahkamlash va takrorlash bosqichida:

- shakllantirilmagan savolli vazifalar: berilgan shartlardan kelib chiqqan holda savol berish va natijada paydo bo'lgan masalani hal qilish kerak;

- mazmuni o'zgaruvchi vazifalar: o'zgaruvchan shart-sharoitlarni hisobga olgan holda lisoniy hodisa haqida fikr yuritish zarur;

- isbotlashni talab qiluvchi vazifalar: ular berilgan va kerakli narsani aniq tushunishni, dalillarni yig'ish va teskari fikr yuritish qobiliyatini talab qiladi;

- muammoli vazifalar: bir nechta mumkin bo'lgan nuqtai nazarga asoslangan yechimlarni mustaqil ishlab chiqishga qaratilgan.

Morfologiya. 1-vazifa: qiz bola odatda otasini yaxshi ko'radi: "otasini yaxshi ko'radi (kim?) qizi. Ammo ba'zi hollarda (masalan, maxsus intonatsiya bilan yoki otasini emas, balki onasi qizini yaxshi ko'rishini ifodalovchi mazmundagi kontekstda) uni boshqacha tushunish mumkin: "ona (kim?) sevadi (kimni?) qizini.

Vazifa. Yuqorida berilgan shaklga moslashtirib, beshta gap tuzing, ularning mazmunida bosh bo'laklar o'zni almashganda qanday o'zgarishlar kuzatilishini aniqlang va fikringizni asoslang.

Vazifa: doskada so'zlar yozilgan: fonetika, undosh tovushlar, qo'shimchalar. O'quvchilar har bir so'zni o'z bilimlari asosida mustaqil ravishda aniqlashlari kerak. Shundan so'ng o'qituvchi talabalar bilan birgalikda taklif qilingan variantlar va qo'shma muhokamalar asosida xulosa qilinadi.

Ushbu vazifa ona tili darslarida ilgari olingan bilimlardan foydalangan holda so'zlarni aniqlash uchun mustaqil qobiliyatni shakllantiradi.

Ushbu vazifaning boshqa variantidan ham foydalanish mumkin. Doskada so'zlar yozilgan: ot, sifat, fe'l. O'quvchilarning vazifasi o'z tanlovlarni tushunib, so'zlarga ta'rif berib, so'zlarning ma'nosi va ta'riflarni o'zaro bog'lashdir. Shundan so'ng o'quvchilar o'zlarining tanlovlari va ta'riflarini darslikdagi qoida bilan taqqoslashadi.

Ushbu mashq mantiqiy fikrlash va ilmiy adabiyotlardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan, ya'ni bu lingvistik kompetensiyani shakllantirishga asoslangan ko'nikma va malakalarni rivojlantirishdir.

Keyingi vazifa o'quvchilarni ona tilining bo'limlari bilan tanishtirishga qaratilgan bo'lib, buning uchun o'qituvchi bir nechta vazifalardan foydalanishi mumkin:

1. Doskada so'zlar yozilgan: ibora, jumla, tovush, ildiz.

O'quvchilar so'zlarni birlashtiruvchi xususiyatlarga ko'ra guruhlashadi va ular tegishli bo'limlarni aniqlaydilar.

Bunday vazifa o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga, lingvistik kompetensiyani shakllantirishda muhim bo'lgan umumiy va har xil ma'nolarni ko'rish qobiliyatiga yordam beradi;

2. Doskada ona tilining bo'limlari yozilgan: sintaksis, morfemika, fonetika, morfologiya. O'quvchilar har bir bo'lim nimani o'z ichiga olganligini, nimani tavsiflashini, bilimlarini yangilashini nomlashlari kerak. Shundan so'ng ushbu mashq o'qituvchi bilan birgalikda tekshiriladi.

Ushbu vazifa o'quvchilarning ijodiy fikrlashiga yordam beradi, ular o'zlarini yangi sifatda sinab ko'rishadi, bu o'quvchilar uchun muhimdir, chunki olingan bilim va ko'nikmalarni turli vaziyatlarda qo'llash uchun o'zlarini turli rollarda sinab ko'rish kerak.

Umuman olganda, ushbu vazifa o'quvchilarning mantiqiy fikrlashiga, ona tili darslarida ilgari olingan empirik bilimlarning

nisbatiga qaratilgan, shuningdek, ushbu vazifa materialni ma'lum xususiyatlarga ko'ra guruhlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Ona tilining "Fonetika" bo'limi bo'yicha bajarilgan lingvistik vazifalar boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, o'z fikrlarini isbotlash, vazifalarni bajarish uchun mantiqiy fikrlash va tasavvurdan foydalanish qobiliyatini rivojlantiradi. Fonetika o'qitishdagi lingvistik kompetensiya orfografik va intonatsion qoidalardan turli vaziyatlarda foydalana olish ko'nikmasini o'z ichiga oladi. Shundan kelib chiqib, kreativ kompetensiya ham mustaqil va ijodiy fikrlashni ro'yobga chiqaradi[6].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyani shakllantirishda ona tilining "morfologiya" bo'limini o'rganish muhimdir, chunki o'quvchilar bir-biri bilan muloqot qilish yoki savollarga javob berish, ma'lumot uzatishda nutqning turli qismlaridan foydalanadilar, ular esa o'ziga xos xususiyatlarga va foydalanish usullariga ega. "Morfologiya" bo'limini o'rganish uchun o'qituvchi quyidagi mashqlardan foydalanishi mumkin.

1. O'qituvchi o'quvchilarga savollar beradi.

- So'zning qaysi turkumga mansubligi qanday belgilar bilan aniqlanadi?

- Nima uchun so'z turkumlari birlashtirilganligini tushuntiring:

Ism, sifat, son, fe'l, olmosh, bog'lovchi.

Bunday mashq ilgari olingan bilimlarni ko'paytirishga qaratilgan bo'lib, materialni guruhlash, o'xshash va boshqacha aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Qavslarni ochish va qavs ichidagi so'zlardan mos keladiganini qo'ying. Biz (eski, qadimgi) temirdan chelak yasadik. Otlar juda qo'rqib ketishdi va yon tomonga (ketdilar, yugurdilar, yugurdilar).

Shuningdek, quyidagi turdagi vazifalarni bajarish mumkin: a) berilgan matnga ma'nosi o'xshash quyidagi so'zlardan mosini kiriting: chayqalish, chayqalish; quymoq, quymoq. Suv ... chelakdan. Uchqunlar ... bolg'a ostidan. To'lqinlar sokin ... qirg'oq yaqinida. Yomg'ir ... chelak kabi.

b) qarama-qarshi ma'noli (antonim) so'zlar ustida ishlash kerak.

O'quvchilarga berilgan so'zlarni qarama-qarshi ma'noli so'zlar bilan moslashtirish vazifasi berilishi mumkin. Qarama-qarshi ma'noli so'zlarni tanlashda kontekstni yodda tutish va umuman nutqning ma'nosiga mos keladigan so'zni tanlash kerak.

Xulosa va takliflar. Yuqorida ifoda etilgan fikrlar asosida quyidagicha xulosalar chiqarishimiz mumkin: lingvistik vazifa soddalashtirilgan sharoitda o'quvchi ijodiy faoliyatining ko'plab elementlarini modellashtirish, muammoli ta'lim tamoyilini o'zida mujassamlashtiradi; lingvistik tahlil, mantiqiy fikrlash malakalarini shakllantirishning samarali vositasidir.

O'quvchilar ushbu aqliy mehnat faoliyati turini ishtiyoq bilan qabul qiladilar. Chunki shaxsiy tadqiqot natijasida olingan bilim, qoida tariqasida, o'qituvchi tomonidan tayyor shaklda taqdim etilganidan ko'ra yaxshiroq idrok etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Азизов У. Тил билиш тараккиётга элтади. Янги Ўзбекистон, 2022, 9 февраль. – № 40.
2. Казаева Л.И. Лингвистическая компетентность и принципы ее формирования на основе повторов при изучении иностранного языка. Вестник КГУ им. Н.А. Некрасова. - 2010. - № 1. - С. 15-21.
3. Казиева Т.Г. Фонетик услубиятни ўрганишда ўқувчиларнинг креатив компетенциясини ривожлантиришнинг илмий-методик асослари/Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати.- Наманган, 2020.-12 с
4. Киселёва Н.А. «Лингвистические задачи и их классификация», журнал «Языкознание» № 8, 2008 год
5. Uluqov N. Lingvistik kompetentlikni shakllantirish omillari. Til va adabiyot ta'limi jurnali, 2018. – №6. – Б.16.



Kamola MURADKASIMOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, p.f.d
E-mail: Kmuradkasimova@yahoo.com
Shoiraxon BAYBAYEVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi

ToshPDU dotsenti, PhD N.Gulomova taqrizi asosida

PRACTICAL ANALYSIS OF THE "FLIPPED LEARNING" TECHNOLOGY AS A CONSTRUCTIVE MECHANISM

Annotation

In the "Flipped learning" technology, the student studies didactic materials before the educational process, that is, in the process of independent learning (for example, by watching online lectures), and in the process of academic lessons, educational materials are applied experimentally. This pedagogical technology has been used under several terms, such as "Inverted Classroom", "Flipped Classroom", "Classroom Flipp", "Flipp Instructions", and with the rapid development of the internet, it began to be implemented effectively in many educational spheres especially in higher education. The reason why the term "Flipped learning" is preferred over the terms "Flipped classroom" or "Inverted Classroom", due to the reason it covers not only the educational process of classroom lessons, but also the autonomous learning process of students.

Key words: Flipped learning, autonomous learning, 21st century skills, Bloom's taxonomy, educational process.

"FLIPPED LEARNING" TEXNOLOGIYASI TA'LIM JARAYONIDAGI KONSTRUKTIV MEKANIZM SIFATIDA

Annotasiya

"Flipped learning" texnologiyasida talaba o'quv jarayonidan avval ya'ni mustaqil ta'lim jarayonida didaktik materiallarini o'rganadi (masalan, onlayn ma'ruzalarni tomosha qilish orqali), akademik dars jarayonida esa o'quv materiallar eksperimental qo'llaydi. Ushbu pedagogik texnologiyaning bir necha nomlanishi mavjud bo'lib, ular "Inverted Classroom", "Flipped Classroom", "Classroom Flipp", "Flipp Instructions" deb ham yuritiladi. Internet tarmog'i jadal rivojlanishi bilan birga ushbu texnologiya ta'lim tizimida samarali tatbiq etila boshladi, ayniqsa, buni ko'plab nufuzli horijiy oliy ta'lim tizimlarida kuzatishimiz mumkin. Tadqiqotimiz davomida "Flipped learning" terminini foydalanishni "Flipped classroom" yoki "Inverted Classroom" terminlaridan afzal bilganimiz sababi shundan iboratki, ushbu texnologiya nafaqat auditoriya (classroom) darsi ta'lim jarayonini, balki talabalarning mustaqil ta'lim jarayonini ham qamrab olishi maqolada yoritildi.

Kalit so'zlar: "Flipped learning" texnologiyasi, mustaqil ta'lim, XXI asr ko'nikmalari, Bloom taksonomiyasi, ta'lim jarayoni.

ТЕХНОЛОГИЯ "FLIPPED LEARNING" КАК КОНСТРУКТИВНЫЙ МЕХАНИЗМ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА

Аннотация

В технологии "Flipped learning" студент изучает дидактические материалы до учебного процесса, то есть в процессе самостоятельного обучения (например, посредством просмотра онлайн-лекций), а в процессе академического занятия экспериментально применяет учебные материалы. Данная педагогическая технология имеет несколько названий, которые также известны как "Inverted Classroom," "Flipped Classroom," "Classroom Flip," "Flip Instructions." Наряду с быстрым развитием сети Интернет эта технология стала эффективно применяться в системе образования, особенно это можно наблюдать во многих престижных зарубежных системах высшего образования. Причина, по которой мы предпочли использовать термин "Flipped learning" в ходе нашего исследования вместо терминов "Flipped classroom" или "Inverted Classroom," заключается в том, что эта технология охватывает не только аудиторный (classroom) учебный процесс, но и самостоятельный учебный процесс студентов.

Ключевые слова: Технология "Flipped learning", самостоятельное обучение, навыки XXI века, таксономия Блума, образовательный процесс.

Kirish. "Flipped learning" texnologiyasida talaba o'quv jarayonidan avval ya'ni mustaqil ta'lim jarayonida tatbiq etiladi, akademik dars jarayonida esa o'quv materiallar eksperimental qo'llaydi. 1990-yillarga borib taqaladi. J.Baker birinchi marta talabalarga ma'ruza berishdan avval ma'ruza matnini o'zlashtirishga uyga vazifa sifatida topshirgan, hamda ushbu texnologiyaga "Inverted classroom" deb nom bergan. 2000 yillarga kelib esa internet tarmog'i jadal rivojlanishi bilan birga J. Bergman hamda A.Samslar ma'ruzalarga kela olmagan talabalarga videoma'ruza tayyorlab, ularga yuvoradilar. Keyinchalik ular barcha talabalar uchun ham samarali tatbiq etila boshladilar hamda "Flipped learning" va "Flipped classroom" terminlaridan foydalandilar. Biz esa tadqiqotimiz davomida "Flipped learning" terminini sababi shundan iboratki, ushbu texnologiya faqat auditoriya (classroom) darsi ta'lim jarayoninigina emas balki talabalarning mustaqil ta'lim jarayonini ham qamrab olishini hisobga oldik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. J.Bergman, A.Sams, J.Ovemayer va B.Uililar quyidagicha tasnif berganliklarini kuzatamiz. "Flipped learning" yangi texnologik yondashuv bo'lib, talabalar mavzuga doir asosiy fakt va konseptlarni turli

metodlardan foydalangan xolda darsdan tashqari vaqtda mustaqil izlanishlariga undaydi. Bularga o'quv materiallarni o'qish, onlayn modullarni bajarish, hamda video ma'ruzalarni tomosha qilish kabilar kiradi. "Akademik dars jarayoni ma'lumotni ma'ruza sifatida yetkazishdan dinamik interaktiv vazifalar bilan to'ldiriladi, pedagog talabalarni faol akademik o'qishga jalb qiladi",- deydi J.Bergman [1]. Faol akademik ta'lim – bu talabaning mustaqil ta'lim jarayonida o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakani dinamik ravishda auditoriya jarayonida interaktiv-amaliy qo'llashi bilan tushuntiriladi.


O'z ilmiy izlanishlarini ushbu texnologiyani nazariy asoslarini yaratishga sarf etgan yana bir olim K.Klark, "flipped learning" muhim jihati sifatida talabalarning jamoaviy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishi deb qayd etadi. "Flipped learning" texnologik jihatdan jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga juda mos keladi. K.Klark o'z izlanishlarida talabalarning tanqidiy va analitik jamoaviy ishlash ko'nikmalarini an'anaviy sinfda rivojlantirish qiyin deb ta'kidlaydi [2].

E.O'Konner va uning hamkasblari tomonidan yozilgan ilmiy ishda quyidagicha fikrlar keltiriladi. Ularga ko'ra "Flipped learning" texnologiyasi nafaqat faol va hamkorlikdagi ta'lim joriy

etish imkoniyatini ochadi, balki talabalar o'zlari akademik davrida mustaqil ta'limlarini boshqaradilar, talabalar ma'lum bir qiyinchiliklarni bartaraf etishda biri-birlariga tushuntiradilar, hamda pedagog-talaba yoki talabalar o'zaro bir-birlarini mulohazalari va baholari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar [3]. N.Hamdan va P.Mcknightlar "Flipped learning" texnologiyasi to'rt asosdan iborat ekanligini ta'kidlaydilar. Ularga ko'ra F – "flexible environment" (moslashuvchan ta'lim muhiti) ya'ni talaba mustaqil ta'limni qayerda va qachon tashkillashtirishi hamda an'anaviy darslardan farqli dars jarayoni shovqinli va muhokamaga boy muhida o'tishi; L – "learning culture" (Ta'lim madaniyati), an'anaviy darslarda o'qituvchiga yo'naltirilgan ta'limdan farqli talabaga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvidan foydalanish. I – "Intentional content", (belgilangan mazmun) ya'ni talaba mustaqil ta'limda egallashi zarur bo'lgan nazariy material murakkablik darajasi va o'zlashtirish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanish. P – "Professional educators", Malakali pedagoglarga ehtiyoj yanada muhim ahamiyat kasb etadi [4]. Demak, "Flipped learning" texnologiyasida talabalar akademik ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan moslashuvchan ta'lim muhitini yaratilishi o'ta muhim omil sifatida belgilanmoqda, shuningdek, malakali pedagoglarning mahorati ta'lim mazmunini belgilashda hamda talabalarning o'zlashtirish imkoniyatlarini avvaldan taxmin qila olishlari va ularni kuzata olishlari asosida zarur ko'rsatmalarni berishlari esa ushbu

texnologiya muvaffaqiyati garovi sifatida belgilanmoqda.. P.A.Kirshner, J.Sveller va R.E.Klark ko'ra ko'rsatmalar yetarli darajada yetkazilmagan bo'lsa, yoki talabalar tomonidan biron-bir tushunmovchilik yuzaga kelsa, uy vazifalarini bajarish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishiga sabab bo'ladi, bu talabalarning noto'g'ri ma'lumotga ega bo'lishlariga va uni uzoq vaqt xotiralarida saqlab qolishlariga sabab bo'lishi mumkinligi kuzatilgan[5].

Tadqiqot metodologiyasi. Bizningcha "Flipped learning" texnologiyasidan foydalanganda esa talabalar mustaqil ta'lim ko'rsatmalardan olgan ma'lumotlarni akademik dars jarayoni vaqtida turli mashqlar bajarish orqali amaliy qo'llash imkoniyatiga ega bo'lgan holda mavzularni yanada chuqur anglaydilar. Yuqoridagi fikrimizni nazariy jihatdan asoslash maqsadida H.Ahmed ilmiy ishida an'anaviy darslarni "Flipped learning" texnologiyasi tadbiiq etilgan darslar bilan solishtirishda Blum kognitiv darajalar taksonomiyasidan foydalanadi[6]. Ma'lumki, Blum kognitiv darajalar taksonomiyasi konstruktiv yondashuvga asoslangan ya'ni har bir daraja keyingi darajaga ega bo'lish uchun xizmat qiladi hamda 6 darajaga bo'linadi: eslab qolish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, baholash, yaratish. O'z navbatida bu olti daraja yana umumiy ikkiga ya'ni quyi kognitiv daraja (eslab qolish, tushunish, qo'llash darajalarni o'z ichiga oladi) va yuqori kognitiv darajaga (tahlil qilish, baholash, yaratish darajalarni qamrab oladi) bo'linadi. (1-rasmga qarang):




1-rasm. An'anaviy ta'lim va "flipped learning" texnologiyasida Blum taksonomiyasi

Flipped learning" texnologiyasining tarkibiy qismi sifatida elektron texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. Bu esa o'z navbatida bo'lajak mutaxassislarga smartfon yoki boshqa turdagi mobil qurilmalar yordamida yozib olingan ma'ruzalar ko'rish imkonini beradi. Yozib olingan videoma'ruzalar onlayn ta'limni tashkil etish vositasi sifatida onlayn o'quv platformalariga joylashtiriladi. Bu esa o'quvchilarga katta

hajmdagi fayllarni qurilmalariga yuklamasdan materiallardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Tahlil va natijalar. Akademik o'quv jarayonida talaba roli faol subyekt sifatida belgilanadi, aynan talabalar faolligi ushbu pedagogik texnologiyaning konstruktiv ya'ni egallangan bilim va uning maxsulni maqsadini belgilaydi. (3-rasmga qarang):



3-rasm konstruktiv maqsad mexanizmi

"Flipped learning" texnologiyasini o'rganar ekanmiz, C.J.Brame o'z ilmiy ishida 3 ta, J.Bergman esa 7 ta, K.Klark 3ta, S.M.Kim, J.Getman, O.Kheralar esa 6ta texnologik tamoyillarni sanab o'tishgan, ularning ilmiy nazariyalarini umumlashtirgan holda ushbu tamoyillarni sanab o'tamiz [7]:

talabani auditoriya darsidan avval yangi material bilan tanishtirish;

talabani darsga tayyorgarlik ko'rib kelishga rag'batlantirish;

talaba yangi materialni tushunganligini mustaqil tekshirish;

audioriya darsidan avval va dars jarayonidagi bog'liqlikni ta'minlash;

mashqlardagi ketma-ketlikni ta'minlash;

talaba mashqlarni bajarishi uchun yetarli vaqt berish; ta'lim jarayonida hamkorlik va o'zaro yordamni qo'llab-quvvatlash;

foydalanish qulay va talaba uchun tanish texnologiyalardan foydalanish;

Yuqorida biz "Flipped learning texnologiyasi" tarixi, xususiyatlari, mustaqil hamda auditoriya darslarining o'zaro qanday bog'lanishi, pedagog va talab rolini hamda tamoyillarini tahlil qilgan holda, o'z tamoyillarimizni ham taklif etdik. Quydagi jadvalda "Flipped learning" texnologiyasi tamoyillari to'rt jihatdan ya'ni pedagog, talaba, talaba o'zlashtirishi va hamkorlik yuzasidan yoritilishiga zarurat sezdik.

I-jadval

Flipped learning" texnologiyasi tartiblangan tamoyillari

	Flipped learning" texnologiyasi tamoyillari
Pedagog	-talabaga auditoriya darsidan avval yangi mavzu bilan tanishishi uchun material tayyorlash; -talabani darsga tayyorgarlik ko'rib kelishga rag'batlantirish; -audiatoriya darsidan avval va dars jarayonidagi bog'liqlikni ta'minlash; -talaba bilan o'zaro qayta aloqani o'rnatish; -talabani o'rta vaqt taqsimotini belgilash; -talabaga batafsil ko'rsatmalar berish;
Talaba	-auditoriya darsidan avval yangi material bilan tanishish; - mustaqil vaqt taqsimotini belgilash va boshqarish; - ko'rsatmalarga qat'iy rioya qilish;
Talaba o'zlashtirishi	boshlang'ich yoki nazariy ma'lumotlarni darsgacha o'zlashtirish; talaba yangi materialni tushunganligini mustaqil tekshirish; audiatoriya darsidan avval va dars jarayonidagi mashqlarning murakkablashib borishi;
O'zaro hamkorlik	o'zaro hamkorlikda ishlash; o'zaro yordam va qayta aloqa o'rnatish; talaba hamkorligi uchun qulay va tanish raqamli va onlayn texnologiyalardan foydalanish;

Har bir pedagog "Flipped learning" texnologiyasini ta'lim jarayoniga tadbiiq etar ekan, ushbu to'rt jihatga alohida-alohida hamda umumiy jihatdan e'tibor qilishi talab etiladi, shundagina ushbu texnologiyaning muvaffaqiyatli joriylanishi ta'minlanishi mumkin. Yuqoridagilarga qo'shimcha qilgan xolda "Flipped learning" texnologiyasini nazariy jihatdan tahlil qilar ekanmiz, uning 21-asr 4K ko'nikmalarini rivojlantirishi alohida ta'kidlab o'tish lozim. 21-asr 4K ko'nikmalariga Tanqidiy fikrlash, muloqotga kirishish, hamkorlikda ishlash va kreativ fikrlash bo'lib, bunday nom olishiga ingliz tilida ular critical thinking, communication, collaboration, creative thinking skills deb yuritilishidadir [10]. Quyida ushbu ko'nikmalarni tahlil qilamiz. Hamkorlikda ishlash ko'nikmasini (collaboration skills) zarurati belgilangan maqsadlarga hamkorlikda erishish uchun zarur. Ushbu ko'nikma jamoada o'z o'rnini topish, o'z roliga ega bo'lish asnosida yuklatilgan vazifaga ma'suliyat bilan yondashishni rivojlantiradi. Ushbu ko'nikmalarni zamonaviy ta'lim tizimining har bir jabhasida rivojlantirish ta'lim tizimi maqsadi sifatida belgilanmoqda. Muloqot qilish ko'nikmasi (communication skills) – muloqot mobaynida axborotni samarali yetkazishdagi muomaladir. Shu o'rinda talabalar o'z g'oya va qarashlarini izchil ta'sirli bayon eta olishlari va atrofdagilarni o'zlariga ishonтира olishlari bilan ifodalanadi. Shuningdek, onlayn platforma va raqamli texnologiyalar muhitida ham individual yoki guruh faoliyatida ma'lumotlarni bo'lishish va yetkazishda ham muhim ahamiyatga ega. Tanqidiy fikrlash ko'nikmasi deduktiv va induktiv fikrlash, qabul qilingan ma'lumotlarni tahlil qilish, baholash va xukm chiqarish orqali muammolarga yechim topish ko'nikmalari bilan ifodalanadi. Kreativ fikrlash ko'nikmasi ijodiy rivojlanishni va ixtirochilik bilan belgilanadi. Yangi innovatsion g'oyalarni taklif eta olishi, global o'zgarishlarga moslashuvchanligi bilan yangiliklarni qabul qilishi bilan belgilanadi hamda kreativlik darajalari taqlid qilish, moslashtirish, birlashtirish, o'zgartirish va yaratish kategoriyalariga bo'linadi.

Ushbu fikrimiz N.Kurniavati tadqiqot ishida ham ta'kidlanadi. Unga ko'ra "Flipped learning" texnologiyasi bevosita 21-asr 4K ko'nikmalarni rivojlanishi talabalarning hamkorlikda juft yoki kichik guruhlarda ijodiy loyihalar tayyorlashi, onlayn platformalardan vazifalar bajarishi, muammolarga yechim topishligisi hamda guruh muhokamalarida faol qatnashishligisi bilan belgilanadi [11]. "Flipped learning" modeli talabalarning metakognitiv kompetensiyalarini takomillashtirishga yo'l ochadi, bu esa XXI asr bo'lajak kasb egalari qo'yilgan talablardan biri hisoblanadi. Shu o'rinda metakognitiv kompetensiya haqida so'z yuritamiz. Metakognitiv kompetensiya aqliy tuzilma bo'lib, axborotni qayta ishlashni

ixtiyoriy va beixtiyoriy tartibga solishni amalga oshirishni ta'minlaydi, shuningdek, intellektual jarayonlarni ongli ravishda boshqarish imkoniyatini beradi. Metakognitiv strategiyalar talabani individual fikrlash, idrok etish xususiyatlarini xisobga olgan xolda aqliy faoliyat usullaridir. Yuqorida keltirilgan olimlar fikriga asoslangan xolda, "flipped learning" texnologiyasi quyidagi pedagogik taxminlar bilan pedagogik nuqtai nazarlar asosida kelib chiqqanligini ta'kidlash mumkin: an'anaviy darslarda ma'lumot va ko'rsatmalarni yetkazishning kamchiliklari kuzatilgan bo'lib, pedagog akademik dars jarayonida talabalarning ta'lim olish usullarni va o'zlashtirishiga oid gepotezalarini umumiy birlikda qabul qilib shu yo'l orqali ma'lumotlarni taqdim etish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Buning afzalligi shundaki, talabalar o'zlarining materialni o'zlashtirishlaridan kelib chiqib, akademik dars jarayonidan avval o'quv materiallarni ovoz chastotasi va ko'rish tezligi boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu tarzda, ma'lumotni o'zlashtirish darajasi mumkin darajada ortadi, chunki ta'lim oluvchilar tomonidan boshqariladigan video segmentlar o'quv materialini qayta ishlaydigan talabalarni qo'llab-quvvatlaydilar.

Xulosa va takliflar. Biz "Flipped learning" texnologiyasi faol akademik ta'limi deganda talabani mustaqil ta'lim jarayonida taqdim etilgan materiallar yordamida o'zlashtirgan bilimni dinamik ravishda auditoriya jarayonida ko'nikma va malaka darajasiga yetkazishda real hayotiy vaziyatlar yordamida, hamkorlikda interaktiv-amaliy qo'llashi hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bilan tushuntiriladi. Shuningdek, faol akademik ta'lim talabani aktiv ishtiroki (student-talk time)ni ortishiga, o'qituvchi ishtirokini (teacher-talk time)ni esa pasayishiga olib keladi, bu o'z navbatida talabani emotsional holatini hamda o'lashtirish ko'rsatkichini boshqarish va nazorat qilishga yordam beradi. Faol akademik ta'lim jarayonida talaba o'zaro va pedagog bilan qayta aloqasi esa o'zaro muloqotni ta'minlashda o'ta muhim omil sifatida hizmat qiladi. Akademik mustaqillik ta'lim bilan bog'liq bo'lib, agar talabalar o'z ta'limini o'z zimmasiga olganda kognitiv, metakognitiv va affektiv strategiyalardan foydalanadi. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkillashtirishda "Flipped learning" texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq chunki pedagogik texnologiya bu – o'quv jarayonida amaliy qo'llashga mo'ljallangan maqsadli pedagogik tizim loyixasidir deb xulosa qilar ekanmiz, diskursiv kompetensiyasini takomillashtirishda mustaqil ta'limni samarali tashkil etish talabalarning 4C ko'nikmalarni rivojlantirish orqali o'z-o'zini nazorat qilish, o'quv jarayonida o'z xulq-atvorlarini boshqarish, mustaqil qarorlar qabul qilish, tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash va hamkorlikda ishlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Bergmann J., Wilie B. The flipped class: Myths vs. Reality// The Daily Riff-Be Smarter. – 2012. – 1-4 p.
2. Clark K.R. Flipping out: A trend in radiologic science education // Radiologic Technology. – 2014. - №85(6). – 685-687 p.
3. O'Connor E.E., et al. Flipping radiology education right side up // Academic Radiology – 2016. - №23(7). – 810-822 p. <https://doi.org/10.1016/j.acra.2016.02.011>.
4. Hamdan N., Mcknight P. Review of Flipped learning. – Pearson, 2013. – 20 p. DOI: 10.4236/ce.
5. Kirschner P.A., Sweller J., Clark R.E. Why minimal guidance during instruction does not work // Educational Pssychologist. – 2006. – №41(2). – 75-86 p. https://doi.org/10.1207/s15326985ep4102_1.
6. Ahmed H. Flipped learning as a new educational paradigm: an analytical critical study // European scientific journal. - №10(12). – 2016. – 417-444 p.
7. Brame C.J. Flipping the Classroom // Science teaching essentials, 2019 – 121-132 p. DOI:10.1016/B978-0-12-814702-3.00009-3
8. Bergmann J. Solving the homework problem by flipping the learning. – USA: ASCD, 2017. – 100 p.

9. Kim M., Kim S.M., Getman J., Khera O. The experience of three flipped classrooms in an Urban University: an exploration of design principles // *The Internet and Higher Education* - № 22 – 2014 – 53 p Kirschner P.A., Sweller J., Clark R.E. Why minimal guidance during instruction does not work // *Educational Pssychologist*. – 2006. – №41(2). – 75-86 p. https://doi.org/10.1207/s15326985ep4102_1.
10. Anjaniputra A.G., Anam Z. How EFL student tecahers bolster 4C learning skills in lesson planning // *Concept: Community concern for english pedagogy and teaching*. - № 9(1). – 2023. – 27-43 p.
11. Kurniawati N. Initiating flipped classroom informing the 4C skills among english education students // *International journal of language education and culture review*. - №1(1) – 2020. – 74-86 p.



Shoista MURATOVA,
Samarqand davlat Tibbiyot universiteti dotsenti, p.f.d
E-mail: mleyla84@inbox.ru

SamDCHTU professori A. Saidov taqrizi asosida

THE ORIGIN OF CONSCIOUSNESS AND ITS SOCIO-HISTORICAL ESSENCE

Annotation

This article analyzes the emergence of the concept of consciousness, its stages of development, and its socio-historical significance in human life. Philosophical and scientific approaches are considered in response to the question: Is consciousness solely a result of biological evolution, or is it formed under the influence of social relations.

Key words: Consciousness, social history, philosophy, human, thinking, society, human activity, social consciousness, individual consciousness, social relations, mental processes, thinking, interconnection between consciousness and the material world.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ СОЗНАНИЯ И ЕГО СОЦИАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ

Аннотация

В данной статье анализируются возникновение понятия сознания, этапы его развития и социально-историческое значение в жизни человека. Рассматриваются философские и научные подходы к вопросу: является ли сознание результатом исключительно биологической эволюции или оно формируется под влиянием социальных отношений.

Ключевые слова: Сознание, социальная история, философия, человек, мышление, общество, человеческая деятельность, общественное сознание, индивидуальное сознание, социальные отношения, психические процессы, мышление, взаимосвязь сознания и материального мира.

ONGNING PAYDO BO'LISHI, UNING IJTIMOIIY TARIXIY MOHIYATI

Аннотация

Ushbu maqolada ong tushunchasining paydo bo'lishi, uning rivojlanish bosqichlari va inson hayotidagi ijtimoiy-tarixiy ahamiyati tahlil qilinadi. Ong faqat biologik taraqqiyot natijasimi yoki u ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shakllanganmi, degan savollarga falsafiy va ilmiy yondashuv asosida javob beriladi.

Kalit so'zlar: Ong, ijtimoiy tarix, falsafa, inson, tafakkur, jamiyat, inson faoliyati, ijtimoiy ong, shaxs ongi, ijtimoiy munosabatlar, ruhiy jarayonlar, tafakkur, ong va moddiy dunyoning o'zaro bog'liqligi.

Kirish. Inson ongi tabiatdagi boshqa biror mavjudodnikiga o'xshamaydigan murakkab ruhiy va ijtimoiy jarayondir. U nafaqat insonning o'zini anglashi, balki uning atrof-muhit bilan muomalasini, madaniyat yaratishi va tarixiy taraqqiyotini ham belgilaydi. Ammo ong qay tarzda paydo bo'lgan? Uning shakllanishida qanday omillar hal qiluvchi rol o'ynagan? Ong murakkab psixik hodisa bo'lib, o'zining ildizlarini insonning biologik rivojlanish jarayonlaridan olgan. Neyrofiziologiya, psixologiya va biologiya sohalaridagi tadqiqotlar ongning muayyan darajada miya faoliyati bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Lekin ong faqat miya faoliyati natijasi sifatida tushunib bo'lmaydi — u ancha keng va chuqur ijtimoiy mazmunga ega.

Tarixiy nuqtai nazardan qaralsa, ong insonning evolyutsion rivojlanishi davomida mehnat, til, muloqot va ijtimoiy munosabatlar tufayli shakllangan. Inson boshqa mavjudotlardan farqli o'laroq, o'z amaliyotini angalay oladi, uni rejalashtira oladi va kelajakni tasavvur qiladi. Bugungi kunda ongni o'rganishda interdistsiplinar yondashuv — falsafa, psixologiya, neyrobiologiya, informatika, antropologiya kabi sohalarining birgalikdagi tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, sun'iy intellekt va ongli mashinalar haqidagi muammolar ong masalasini yanada dolzarb etib qo'yimoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy psixologiyada ong — insonning atrof-muhit va o'zi haqida bilishi, anglashi, baholashi bilan bog'liq. Z. Freyding psixoxanaliz nazariyasida ong va ongsizlik tushunchalari o'rtasidagi aloqa ko'rsatilgan. Freyd ongni ayniqsa insonning ichki psixologik murakkabliklari bilan bog'laydi. Lev Vigotskiy, ong va nutqning ijtimoiy tabiati, Vigotskiy inson ongning shakllanishida nutqning roliga alohida e'tibor qaratadi, ong nutq orqali shakllanadi va ijtimoiy muloqot natijasida rivojlanadi, bola avvalo tashqi nutq orqali tafakkur qiladi, keyinchalik bu ichki nutqqa aylanadi. Yung Karl Gustav: Arxetiplar va kollektiv ong. Yungning ta'limotiga ko'ra: Inson ongida faqat shaxsiy emas, balki umuminsoniy (kollektiv)

tajribalar saqlanadi. Arxetiplar — bu insonning avlodlar davomida to'plangan tajribalarining ramziy ifodalari.

Ong — bu inson tafakkuri, ongli faoliyati, atrof-muhitni aks ettirish, idrok qilish va ong asosida maqsadga yo'naltirilgan harakatlarni amalga oshirish qobiliyatidir. Ongning paydo bo'lishi tabiiy evolyutsiya va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir.

Inson ongning shakllanishi uzoq tarixiy jarayon bo'lib, u biologik taraqqiyot — ya'ni odamzodning hayvonlardan ajralib chiqishi, mehnat faoliyati, muloqot, tilning paydo bo'lishi va ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog'liq. Mehnat va muloqot, ongning asosiy manbai sifatida, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni murakkablashtirib, tafakkur va til orqali tashqi dunyoni chuqurroq anglash imkonini yaratadi.

Ong ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida faqat yakka holda rivojlanmaydi, balki u insoniyat jamiyatda yashashi davomida rivojlanib, tarixiy tajriba, madaniyat, ma'naviyat orqali boyib boradi. Shu sababli, ong nafaqat individual psixik hodisa, balki ijtimoiy ongning bir bo'lami sifatida jamiyatdagi umumiy tafakkur, dunyoqarash va qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Ongning asosiy funksiyalari:

Aks ettirish (real voqealarni idrok etish)

Rejalashtirish va maqsad qo'yish

Ijod qilish

Muloqot va ijtimoiy aloqalarni o'rnatish

Tadqiqot metodologiyasi — bu ilmiy bilishning nazariy asoslari va usullar tizimidir. Ongning paydo bo'lishi va mohiyatini o'rganishda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

Dialektik metod — ongning harakatdagi, o'zgaruvchan va ziddiyatli taraqqiyotini o'rganish.

Tarixiy yondashuv — ongning evolyutsion va ijtimoiy shakllanish jarayonini tahlil qilish.

Tizimli yondashuv — ongni inson psixikasi, til, jamiyat, madaniyat bilan bir butun tizim sifatida ko'rib chiqish.

Komparativ (solishtirma) metod – inson va hayvon psixikasini solishtirish orqali ongning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish.

Empirik metodlar – kuzatuv, eksperiment, sotsiologik so'rovlar orqali ong va uning faoliyatini o'rganish.

Tahlil va natijalar. Inson psixikasi bilan yuksak tashkil topgan hayvon psixikasi orasida katta farqqa ega bo'lgan ijtimoiy voqelik hukm suradi. Hayvon o'z to'ldasidagi a'zolariga yaqqol holat bilan bog'liq bo'lgan, bevosita favquloddagi vaziyat bilan cheklangan hodisalar yuzasidan «o'zining tili»da xabar uzatishi odatiy hodisa. Odam undan farqli o'laroq nutq vositasida o'z qabiladoshlariga o'tmish (xotiro), hozirgi davr va kelajak to'g'risida ma'lumot (axborot) berish hamda ijtimoiy turmush tajribalarini uzatish imkoniyatiga ega. Insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida til tufayli aks ettirish (in'ikos qilish) imkoniyatlari qayta qurildi, oqibat natijada odam miyasida atrof-muhit timsollari, xususiyatlari aniqroq aks eta boshladi. Buning natijasida yakka hol shaxs kishilik dunyosi tomonidan orttirilgan tajribadan bahramand bo'la bordi, shuningdek, uning uchun noma'lum hisoblangan borliq hodisalar, holatlari, qonuniyatlari to'g'risidagi bilimlarga egalik qila boshladi. His-tuyg'ular, ichki kechinmalar, taassurotlar, hayajonga soluvchi nafasot timsollar yuzasidan zavqlanishi, maroq olish imkoniyatlari vujudga keldi, ularning mazmuni, ma'nosi, mohiyati bo'yicha o'ziga o'zi hisobot berish, ijobiy yoki salbiy ta'sir etishini baholash muammolarini keltirib chiqardi.

Hayvon yaqqollik, bevosita idrok qilishlikni quli bo'lsa, aksincha inson mavhum fikrlashning gultojisidir. Inson bilan hayvon o'rtasidagi bu boradagi tafovut quyidagilarda mujassamlashadi: a) shaxsning xulq-atvori, faoliyati yaqqollikdan mavhum holatga o'tish imkoniyatiga ega; b) favquloddagi vaziyat munosabati tufayli vujudga kelishi ehtimol oqibatni oldindan payqash layoqati mavjud; v) qiyinchiliklar uchrasa, ularni yengish uchun qo'shimcha vositalar qo'llash, o'zgartirishlar kiritish bilan ajralib turadi. Shuning uchun avtomobil ishdan chiqsa, inson uni sozlaydi, yomg'ir yog'sa, narsalarni panaga oladi, ayb ish qilib qo'ysa, himoyalash yo'lyo'riqlarini o'ylaydi, muammo yechimini qidiradi va hokazo. Shaxs favquloddagi vaziyatning quliga aylanmaydi, aksincha u kelajakni ko'ra bilishga qodir, aql-farosot esa bashorat qilish imkoniyatini yaratadi. Faoliyat mahsulini oldindan payqash, fe'l-atvor oqibatini ilgarilab ketib sezish o'quviga egalik bilan inson ustuvorlik qiladi. Hayvonlarning amaliy tafakkuri ularni yaqqol vaziyatdan bevosita ta'sirotda bo'ysunishni taqozo etadi. Shaxsni mavhum fikrlashga nisbatan qobiliyati muayyan vaziyatga bevosita bog'liqlikdan uni xalos etadi. Inson bevosita muhim ta'siriga javob berish bilan qanoatlanib qolmasdan, balki uni kutayotgan ta'sirini ham bartaraf etish qurbiga egadir. Inson psixikasi bilan hayvon psixikasi o'rtasidagi birinchi farq shaxsning o'zi anglagan qadriyatga binoan ongli xatti-harakat qilish qobiliyati mavjudligidir.

Shaxsning hayvondan ikkinchi farqi uning mehnat qurollarini yaratish va saqlashga layoqatli ekanligi bo'lib, oldindan tuzilgan reja bo'yicha ularni yasaydi va ulardan muayyan maqsadni amalga oshirishda foydalanadi hamda keyichalik qo'llash niyatida asrab olib qo'yadi. Ulardan odamlar hamkorlikda foydalanadi, hamkorlik faoliyatida esa qurollar yaratiladi, o'zaro tajriba almashadi, bilimlarni boshqalarga uzatishadi, umumiy saviyaga vorislik tufayli yuksaladi.

Inson psixikasining hayvondan yana bir farqli tomoni shundaki, uning ijtimoiy tajribaning boshqalarga uzluksiz ravishda uzatishida aks etadi. Tajribalarni instinktiv xatti-harakatlar tarzida o'zlashtirish hodisasi ham insonga, ham hayvonga xos odatdir, lekin shaxsiy tajribadan ko'ra ijtimoiy tajribaning ustuvorligi odamning ongli mavjudodga aylanishining asosiy manbai hisoblanadi. Shaxsning ijtimoiy munosabat, ijtimoiy tajriba shakllantiradi, moddiy va ma'naviy qurollarni egallash natijasida unda yuksak insoniy funksiyalar (ixtiyoriy xotira, ixtiyoriy diqqat, mavhum tafakkur) vujudga keladi va rivojlana boradi. Sub'ekt tomonidan kishilik dunyosida yaratilgan madaniy merosni o'zlashtirilishi, ayrim o'zgartirishlar kiritilishi uning kamolotiga sifat jihatidan yuksak bosqichni yuzaga keltiradi. Yuksak funksiyalar, nutqiy faoliyatning takomillashuvi, mehnatning hayotiy ehtiyojga aylanishi, ertangi hayot to'g'risida

mulohazalar tug'ilishi ongning rivojlanishi uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Shu bois inson bilan hayvon o'rtasidagi tafovut tajribaning vorislik funksiyasi kasb etishi bilan yakunlanadi. Jismoniy va aqliy faoliyat kundalik zaruratga aylanishi sababli ong bevosita nazorat funksiyasini bajara boshlaydi, shuningdek, jamiyat, jamoa, tabiat to'g'risidagi tasavvurlarini tushunishi, anglash ham uning tasarrufiga aylanadi.

Xulosa. Borliq voqeliklarini bir tekis in'ikos ettirish vositasi sifatida inson his-tuyg'ular rivojlana boshlaydi. Inson bilan hayvonot olami orasidagi yana tafovut his-tuyg'ular orqali namoyon bo'ladi. Lekin atrof-muhitdagi o'zgarishlarga nisbatan befarqlik har ikkala toifadagi mavjudodlarda hukm surmaydi, biroq tashqi ta'sirlar ijobiy yoki salbiy hissiy qo'zg'atishni vujudga keltiradi. Emotsional holatlar hayvonlarda ustuvor rol o'ynaydi, o'zlarining ularga munosabatlarini bildiradi. Biroq hayvonlardan farqli o'laroq odam o'zining yuksak his-tuyg'ulari (axloqiy, aqliy, nafasot, praksik-lazzatlanish) bilan jamiyatga va tabiatga nisbatan munosabatini bildiradi, jumladan, quvonch, g'am-g'ussa, mehrmuhabbat, achinish, hamdardlik, zavqlanish, faxrlanish, iftixor va boshqalar. Tabiat manzaralari, mehnat mahsuli, turmush lahzalari, ezgulik, armon insonni faolikka undaydi, har bir soniyadan maqsadga muvofiq foydalanish xohishlari motiv vazifasini bajarishga o'tadi. Yuksak his-tuyg'ular inson xulq-atvorining regulatoriga aylanadi, Undagi vijdon, uyat, mas'ullik esa qadriyat tariqasida xizmat qiladi. His-tuyg'ularni boshqarish, nazorat qilish onglilikni taqozo etadi, ko'zlangan maqsadni amalga oshirishning ta'minlashga yordam beradi.

Agarda psixikaning taraqqiyoti biologik evolyutsion qonunlar ta'siri bilan ro'y bergan bo'lsa, inson ongining rivojlanishi ijtimoiy tarixiy taraqqiyot qonunlari tufayli amalga oshgan. Odam faqat ijtimoiy muhitda, shaxslararo munosabatda insoniy fazilatlarini egallab, til, aql, ong yordamida kamol topadi, xolos. Shunga qaramasdan, ong paydo bo'lishining biologik shart-sharoitlari mavjudligi to'g'risida mulohaza yuritish mumkin. Chunki dastlabki ijtimoiy munosabatlarning biologik shart-sharoiti ibtidoiy jamiyatdagi to'dadan iborat edi. Shaxsning biologik shartlarning jihatlaridan tashqari, uning ijtimoiy omillari ham mavjud bo'lib, u muayyan ma'noda ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. Bunga ijtimoiy muhitdan tashqarida (o'rmonda) shakllangan inson farzandlarining qiyofasi yaqqol misoldir.

Muhitdagi keskin halokatli o'zgarishlar tufayli inson o'zining moddiy ehtiyojini qondirish maqsadida mehnat faoliyatini kashf etdi va u ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga, turmush shart-sharoiti yaxshilanishiga, ongning takomillashuviga, fikr almashish, axborot uzatish imkoniyatining tug'ilishiga olib keldi. U faqat qurollardan muvaqqat foydalanishdan voz kechib, avlodlarga qoldirish, asrashni ong ta'sirida ro'yobga chiqara bordi, buning natijasida insonning har xil shakldagi faoliyati ongli faoliyatga aylandi, o'zaro munosabatlar mazmuni, ko'lami kengaya boshladi, shaxsiy mehnat ulushi jamoa ehtiyojini qondirishning asosiy manbaiga aylandi. Tabiatga ta'sir o'tkazish, uni o'zgartirish to'g'risidagi maqsad o'z funksiyasini o'zgartirdi, qo'l esa yangidan yangi mo'jizalar ijodkoridan asta-sekin aks ettirish quroliga, sezish, payqash, paypaslash, his etish organi vazifasini bajarishga o'sib o'tdi.

Kishilik jamiyatida mehnat faoliyatining takomillashuvi, shaxslararo munosabatning yangi shakllarining paydo bo'lishi, til va nutqni vujudga keltiradi, ularning barchasini maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlovchi ong jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Ong faqat faoliyat, xulq-atvor, muomala, his-tuyg'ular regulatori emas, balki yakkahol shaxsning ijtimoiy psixologik xususiyatlarini to'g'ri amalga oshirishni asosiy manbai rolini bajara boshladi.

Shunday qilib, insonning ongi ijtimoiy tarixiy taraqqiyot mahsuli bo'lish bilan birga, u mehnat faoliyatida, ijtimoiy tajribani o'zlashtirishda, hamkorlikdagi o'zaro ta'sirda, tabiatga, jamiyatga nisbatan munosabatlar mohiyatida vujudga kelgan. Buning mahsulati, shakli sifatida individual, guruhiy, etnik (milliy), ijtimoiy ong namoyon bo'lgan va ularning barchasi taraqqiyot tufayli o'zining yangi bosqichlariga o'sib o'tgan hamda keyinchalik fan, texnika yaralishiga puxta zamin hozirlagan.

ADABIYOTLAR

1. Andreeva G., Social Psychology. Moscow: M., 1998.
2. Psychology T.: A Field of Study, 1994.
3. Karimova V., The Foundations of Social Psychology. Tashkent: T., 1994.
4. G'oziyev E. O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2008. <http://www.ziyouz.com/>
5. Muratova, Sh. N. "Social aspects of preparing adolescent boys for family life," Ministry of Education and Science of the Republic of Uzbekistan, pp. 91–95, 19.00.00 No. 10.
6. Muratova Sh. N., "Scientific and theoretical basis of the problem of preparing children for family life and its state of education," Ministry of Education and Science of the Republic of Uzbekistan, pp. 82–86, 19.00.00 No. 10.
7. Muratova Sh. N. and Otan, "Place in foster care," Education, Science and Innovation, Scientific Newsletter, no. 5, pp. 82–86, 2022.
8. Muratova Sh. N., "Socio-psychological aspects of preparing boys for family life," SamDU Scientific News Release, ISSN: 2091–5446, no. 6 (124), pp. 100–105.
9. Muratova Sh. N., "The socio-psychological capabilities of premarital parents in preparing young people for family life," Scientific Journal of Psychology of BUH DU, ISSN: 2181–5291, no. 3, pp. 84–90, 2021.
10. Muratova Sh. N., "Analysis of theoretical approaches to the pedagogical and psychological education of boys in the family," NamDU Scientific News Release, ISN: 2181, no. 6, pp. 409–415, 2019.
11. Muratova Sh.N., "Problems of youth for family life," Mental Health and Education Journal, pp. 282–291.
12. Muratova Sh. N., "Socio-psychological issues of preparing young men for family life," Journal of Educational Research, ISSN: 2660–5562, vol. 2, no. 3, pp. 27–30, March 2021. [Online]. Available: <https://scholarzest.com>.
13. Muratova Sh.N. and Problems of youth for family life. It is also used in the treatment of mental illness, and in the treatment of mental disorders. 282-291.
14. Muratova Sh.N. and "I've been thinking about it for a long time, and I've been thinking about it for a long time. This is a list of the most commonly used commands.It is available online at, ISSN: 2660-5562, Volume 2, No 3, March, 2021, <https://scholarzest.com/p.27-30>.



UDK: 37.04-053

Muxayyohon NAJMIDDINOVA,

University of business and science Pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: muhayyonajmiddinova72@gmail.com

NamDPI dotsenti, PhD M.Badritdinova taqrizi asosida

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF ADEQUATE DECISION-MAKING IN ADOLESCENT EXTERNEMEAL SITUATIONS

Annotation

In this article, the situations that are common in the society today, the management of their behavior in non-situational situations and the psychological mechanisms of adequate decision-making in adolescents were theoretically covered. In our current developing society, we can see that rapid development processes are observed in every aspect. This, in turn, requires an unconventional approach to the individual in various situations. The process of unconventional approach to unexpected situations requires thinking. If we take such psychological aspects into account in our work, not only in interpersonal relations, but also in our work, the work efficiency will increase, the psychological climate in the team will be positive among personnel, and the team environment will be healthy and positive in all aspects.

Key words: Adolescence, accentuation, adaptation, adequate, psychological defense mechanisms, motive, knowledge, skill, individual, extreme, paraextreme, neutral.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ АДЕКВАТНОГО ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ В ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ СИТУАЦИЯХ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация

В данной статье теоретически освещены ситуации, распространенные сегодня в обществе, управление своим поведением в неситуативных ситуациях и психологические механизмы принятия адекватных решений у подростков. В современном развивающемся обществе мы видим, что процессы быстрого развития наблюдаются во всех аспектах. Это, в свою очередь, требует нестандартного подхода к личности в различных ситуациях. Процесс нестандартного подхода к неожиданным ситуациям требует размышления. Если мы будем учитывать такие психологические аспекты в своей работе не только в межличностных отношениях, но и в самой работе, то эффективность труда повысится, психологический климат в коллективе будет положительным среди персонала, а атмосфера в коллективе будет здоровой и благоприятной. позитив во всех отношениях.

Ключевые слова: Подростковый возраст, акцентуация, адаптация, адекватный, механизмы психологической защиты, мотив, знание, умение, личность, крайний, параэкстремальный, нейтральный.

O'SMIRLARDA EKSTEREMAL VAZIYATLARDA ADEKVAT QAROR QABUL QILISHNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda jamiyatda ko'p uchrayotgan holatlar, o'smirlarda nosituativ vaziyatlarda o'zlarining xulq-atvorlarini boshqarishni va adekvat qaror qabul qilishning psixologik mexanizmlarini nazariy jihatdan yoritildi. Hozirgi rivojlanayotgan jamiyatimizda har bir jabhasida tezkorlik rivojlanish jarayonlari kuzatilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu o'z navbatida shaxsga nisbatan turli vaziyatlarda qanday noan'anaviy yondashishni talab etadi. Shaxs kutilmagan vaziyatlarga noan'anaviy yondashish jarayoni albatta tafakkur qilishni talab etadi. Shunday psixologik jixatlarini o'z ish faoliyatimizda inobatga olsak shaxslararo munosabatlarda nafaqat ish faoliyatimizda ish samaradorligi oshadi kadrlar o'rtasida jamoada psixologik iqlim ijobiylashadi mana shunda jamoa muhiti har tomonlama sog'lom va ijobiy tashkil etiladi

Kalit so'zlari: O'smirlik davri, aksentuatsiya, adaptatsiya, adekvat, psixologik ximoya mexanizmlari, motiv, bilim, ko'nikma, individual, eksteremal, paraeksteremal, neytral.

Kirish. Bugungi kunda jamiyatimizda turli yoshdagi kishilarning xulq-atvorlarini baxolash va ularning turli xildagi eksteremal vaziyatlarda o'zlarida psixologik ichki resurs topa olish imkoniyati qay darajada ekanligini bilish juda ahamiyatlidir. Bunday vaziyatlar ayniqsa o'smir yoshdagi bolalarda psixologik jarayonlar xil kuzatiladi. Bunda esa maktab o'quvchilariga insonning atrof-muhit bilan o'zaro munosabati, doimiy ravishda paydo bo'ladigan yangi xavfli va favqulodda vaziyatlarda oqilona harakat qilish shakli sifatida xavfsiz xatti-harakatlarni o'rgatish zarurati dolzarbdir. Xavfsiz xatti - harakatlar deganda biz ichki va tashqi muhit omillari ta'siri ostida sub'ekt tomonidan amalga oshiriladigan o'zaro bog'liq harakatlar va harakatlar tizimini tushunamiz.

Muayyan vaziyatda odamning xatti-harakati, qoida tariqasida, ko'p motivli, ya'ni bir qancha sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Inson uchun sub'ektiv ahamiyatga ega bo'lgan motiv eng samarali hisoblanadi, chunki u o'smirning harakatlari va harakatlariga shaxsiy ma'no beradi. O'qituvchilar o'quvchilarni o'quv materialining ahamiyatini ochib berish, shaxsiy hayotda

xavfsizlikka tayyorgarlik ko'rish zarurligini tushuntirish orqali xavfsiz xulq-atvorning mazmunli motivlarini aniqlashga va xavfsizlik sohasida yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lgan odamlarning misollarini tushuntirishga rag'batlantirdilar va yo'l-yo'riq ko'rsatdilar, xavfli vaziyatlarni muvaffaqiyatli bartaraf etish yo'llarini o'rgatadi. Qidiruv, ijodiy, muammoli xarakterdagi vazifalarning mazmuni o'quvchilarning xavfsizlik, kognitiv faollik va o'z-o'zini takomillashtirishga bo'lgan intilishini rag'batlantirishga qaratilgan. Talabalarning xavfsiz xulq-atvorni o'rgatishga bo'lgan munosabati asta-sekin salbiy yoki befarqlikdan ijobiy, shaxsiy ahamiyatga ega bo'lib o'zgardi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bugungi kunda o'smir va ilk o'spirinlik yoshidagi yigit va qizlarda turli xildagi eksteremal vaziyatlarda o'zlarining qanday tutishlari va mana shunday nosituativ vaziyatlarda adekvat qaror qabul qilishi kerakligini psixologik jixatdan qanday yuzaga kelishini o'rgangan xaqida ko'plab xorij olimlarining tadqiqot muammosi bo'yicha adabiyotlar ro'yxati tuzildi V.N.Moshkin, A.V.Popkov, S.P.Cherniy, N.V.Eliseeva, A.V.Shigayev, V.F.Kupetskova,

R.V.Grigoryan tadqiqotlari natijalarini hisobga olgan holda, u tizimli va funktsional jihatdan ishlab chiqilgan.

Xavfsiz xatti-harakatlarga tayyorligini rivojlantirishning dinamik modeli, didaktik moslashtirilgan ijtimoiy tajribani (diagramma) o'zlashtirish natijasida o'quvchilarning hayotiy muammolarni mustaqil hal qilish tajribasini rivojlantirish uchun sharoit yaratishga qaratilgan kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirishga asoslangan. Xavfsiz xulq-atvoriga tayyorlikni shakllantirish o'spirinlarni real vaziyatga yaqin xavfli vaziyatlarga (ma'lumot, simulyatsiya, dozalangan xavf) izchil ravishda jalb qilish orqali amalga oshiriladi, ulardan muammolarni mustaqil ravishda hal qilish, ularning xatti-harakatlarini tahlil qilish va baholash qobiliyatini talab qiladi.

Xavfsiz xatti-harakatlar, bizning fikrimizcha, quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- xavfni oldindan bilish va bashorat qilish;
- xavfli vaziyatni oldini olish bo'yicha harakatlar tizimi;
- xavfli vaziyatlar bilan ishlash tajribasi.

Mumkin bo'lgan xavfli vaziyatlarni bashorat qilish ularning barqaror aloqalari va xususiyatlarini aniqlash va xavf belgilari va uning keyingi rivojlanishi o'rtasidagi takroriy aloqalar faktlarini to'playdigan hayotiy tajriba asosida amalga oshiriladi.

O'smirlarda xavfli vaziyatlarning oldini olish bo'yicha harakatlar tizimi- tavsiyalar atrof - muhitning holatini kuzatish va nazorat qilishni, xavf paydo bo'lishining oldini olish yoki yo'q qilish uchun o'z xatti - harakatlarini o'zini o'zi tartibga solishni, xavf darajasiga muvofiq xatti - harakatlarni (qochish), xavfdan himoya qilish usullarini qo'llashni o'z ichiga oladi. Ko'rsatilgan harakatlar tizimi tajribada mustahkamlanishi, shaxsning mulkiga aylanishi kerak.

Xavfli vaziyatlar bilan o'zaro munosabatlar tajribasi ostida T. S. Nazaro va

V. S. Shapovalenko tegishli bilim, ko'nikma va malakalarni, bunday xavfli vaziyatlardan chiqish amaliyotining mavjudligini, tanlangan xulq - atvor variantini amalga oshirishga jismoniy va psixo-mantiqiy tayyorgarlikni tushunadilar [5].

V. Mishel [1], vaziyat va nisbatni tahlil qilish shaxsiy o'zgaruvchilar, shuningdek, bir tomondan, odamning xatti-harakati vaziyatga xos bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi, boshqacha qilib aytganda-muayyan vaziyatlarda odam vaziyat omillariga e'tibor qaratadi. Boshqa tomondan, muhim rol vaziyat shaxsiy omillarga bog'liq bo'lishi mumkin. Shunga o'xshash vaziyatni talqin qilishning noaniqligi ushbu muallifga imkon berdi vaziyatlarning ikkita variantini ajratib ko'rsatish: " kuchli " va "zaif" tomonlarini o'rgatadi.

"Kuchli" vaziyatlarda individual va shaxsiy holatlar kamroq bo'ladi xulq-atvor variantlari, bu yerda yetakchi ro'l vaziyat o'zgaruvchilariga beriladi. Shuning uchun, bunday vaziyatlarda odamning munosabati ko'proq vaziyatning o'ziga bog'liq.

"Zaif vaziyatlar" esa shaxslar insonning individual xususiyatlarini namoyon etishga imkon beradi, shuning uchun insonning reaksiyalari uning xususiyatlari bilan ko'proq bog'liq. Shunday qilib, biz barqarorlik haqida gapirishimiz mumkin - vaziyatning beqarorligi. Axir, "barqarorlik" ko'rsatkichi shaxsga ham, vaziyatning o'ziga ham tegishli bo'lishi mumkin.

O'smirlar davrida ularda vaziyat haqida inson hayotidagi o'ziga xos voqea sifatida gapirish, quyidagi mezonlarni aniqlash mumkin uning turlari quyidagilar:

- 1) shaxs uchun vaziyatning mazmuni (ijobiy, salbiy, neytral);
- 2) vaziyatning mavjudligi;
- 3) shaxs faoliyatining maqsadi;
- 4) shaxs faoliyati natijalari;
- 5) turli hildagi vaziyatda odamning xavfsizligi;

Shunday qilib, o'smirlar davrida yigitlar qizlarda turli hildagi nosituativ vaziyat deganda biz ma'lum bir odamning hayotining ma'lum bir nuqtasida uning hayotiga xos bo'lgan sub'ektiv -ob'ektiv holatlarining o'zaro ta'siri va o'zaro bog'liqligini tushunishimiz mumkin. Ushbu yondashuv asosida A. M. Stolyarenko quyidagilarni taklif qiladigan vaziyatlarning taklif qiladi, mezon sifatida ekstremallik darajasini ajratib ko'rsatadi. Ushbu tasnifda 4 turdagi turli vaziyatlar keltirilgan:

tur (normal) taniy oddiy, odamlar uchun maxsus qiyinchiliklarni keltirib chiqarmaydigan, g'ayri oddiy xavflarni o'z ichiga olmaydigan, oddiy faoliyatni talab qiladigan va qoida tariqasida muvaffaqiyatli natija bilan yakunlanadigan oddiy. Odatda, bu holatlar favqulodda yoki ekstremal vaziyatlarni talab etmaydi;

tur (paraekstremal) muvaffaqiyatsizlikka olib keladigan, odamda kuchli ichki stressni keltirib chiqaradigan ekstremal vaziyatlarga yaqin xolatlar;

tur (ekstremal) chegara bilan tavsiflanadi yoki odam boshdan kechirgan ichki kuchlanish va haddan tashqari kuchlanishga yaqin holatlarda ifodalanadi. Bunday vaziyatlarda holatning kamaytirish ehtimoli muvaffaqiyat, harakatlarning buzilishi, istalmagan oqibatlarining boshlanishi bu yerda juda katta ehtimoli bor;

tur (giperekstrem) ichki sabab bo'ladi ko'pincha odamning imkoniyatlaridan oshib ketadigan, ko'p odamlar toqat qilmaydigan, odatiy xatti-harakatlarni buzadigan va ko'pincha xavfli oqibatlarga olib keladigan harakatlar yig'indisidir.

Natijalar tahlili Xavfsiz xulq-atvorning mohiyati o'smir va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirning funktsional tizimi sifatida aniqlangan, xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojni qondirish, hayot va sog'lig'ini saqlash uchun ular uzlarida psixologik kuch topishni talab etadi. Biz o'smirlarning xavfsiz xulq-atvoriga tayyorligining quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatdik:

qiymat-motivatsion: qadriyatlar tizimida xavfsizlik, sog'liq qadriyatlarining ustuvorligi; shaxsiy va jamoat xavfsizligini ta'minlashga ehtiyoj va istakning mavjudligi; xavfsizlik sohasida tayyorgarlik va o'zini o'zi tayyorlash uchun ichki motivatsiyaning ustunligi;

kognitiv: atrof - muhitning mumkin bo'lgan xavf-xatarlari, ularning jismoniy xususiyatlari, xavf sabablari, qoidalari va kundalik hayotda xavfsiz xatti-harakatlar to'g'risida bilimlar tizimi;

operatsion va faoliyat: xavfli vaziyatlarni oldindan ko'rish, ular bilan o'zaro munosabatlarning mumkin bo'lgan oqibatlarini bashorat qilish, xavf darajasi bilan bog'liq holda xavfsiz xatti - harakatlarning mumkin bo'lgan usullarini topish qobiliyati; kundalik hayotda xavfli bo'lmagan xatti - harakatlarni amalga oshirish tajribasi;

tartibga solish: xulq-atvorni hissiy-ixtiyoriy tartibga solish, harakatlarni boshqarish, qaror qabul qilish qobiliyati;

baholash va aks ettirish: xavfli vaziyatni, undagi xatti - harakatlar natijalarini tahlil qilish va baholash, ularning belgilangan maqsadlarga muvofiqligini aniqlash, harakatlarning programasi o'z vaqtida o'zgartirish kiritish qobiliyati [5].

Motivatsion tayyorlikning jiddiyligini aniqlashda S. Shvarts metodologiyasi bo'yicha o'smirlarning qiymat kelib chiqishi o'rganildi [2]. So'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, 12-14 yoshdagi o'quvchilarning ko'pchiligida xavfsizlik boshqa qadriyatlar orasida eng yuqori darajaga ega, ammo 14-yoshdan past (o'g'il bolalar uchun 6 - o'rin va qizlar uchun 3-o'rin). Bu xavfsizlik o'smirlar uchun eng muhim qadriyatlardan biri ekanligini ko'rsatadi.

O'smirlarning xavfsiz xulq-atvoriga tayyorligi tarkibi, shu jumladan qiymat-motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat va refleksiv komponentlar tartibga soluvchi komponentlar bilan to'ldiriladi, chunki maqsadga, shaxsiy tajribaga va vaziyatga muvofiq, o'smirlarning o'zi o'zini tutish darajasini belgilaydi, va uning faoliyatining yo'nalishi, birinchi navbatda, o'z xavfsizligini ta'minlash bo'lib hizmat qiladi. Tayyorlikni shakllantirish mexanizmlari (interiorizatsiya, identifikatsiya va eksteriorizatsiya) turli xil ta'lim shakllari: informatsion (og'zaki) va vizual (vositaviy) og'zaki ta'sirlar va vizual tarzda taqdim etilgan xatti-harakatlar namunalarini kuzatish orqali faollashishi isbotlangan, natijada xavfsiz xulq-atvor normalari va qoidalarni o'rganish, sog'liq va xavfsizlik qadriyatlarini qabul qilish; xavfsiz xulq-atvor usullarini ishlab chiqishga yordam beradigan taqlid orqali nusxa ko'chirish (taqlid qilish) (boshqa shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xavfli vaziyatdagi harakatlar ketma-ketligini sub'yekt tomonidan mexanik ravishda takrorlash); mustaqil (o'zlashtirilgan ko'nikma va ko'nikmalarni yangi vaziyatga o'tkazish, xulq-atvorning yangi usullarini kashf etish orqali) g'ayrioddiy vaziyatdan

muvaffaqiyatli chiqish yo'lini topish orqali, bu xavfni yengish tajribasini boyitadi.

Xavfsiz xulq-atvora tayyorgarlikni shakllantirishning mazmuni va vositalari uning bosqichlariga qarab o'zgaradi. Motivatsion-axborot bosqichida kundalik hayotda xavfsiz xulq-atvor uchun motivatsion va kognitiv asosni shakllantirish, bir tomondan, hayot, hayot xavfsizligi sub'ektlarida shaxsiy xavfsizlik va sog'lig'ini saqlash muammolarini har tomonlama o'rganish orqali sodir bo'ladi. tsikl, fizika, kimyo, biologiya, texnologiya, ijtimoiy fanlar, jismoniy tarbiya va sinfdan tashqari mashg'ulotlar, boshqa tomondan, o'rganilayotgan materialning ahamiyatini ko'rsatish, xavfsizlikka tayyorgarlik ko'rishning shaxsiy hayotiy ehtiyojini tushuntirish va subyektiv tajribani yangilash orqali talabalar, mashg'ulot bosqichi o'smirlarni ma'lumot va stimulyatsiya holatlariga jalb qilish orqali xavfsiz xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Ijodiy bosqich yangilik, g'ayrioddiylik, noma'lum, ajablanish elementlari bilan o'zgartirilgan yoki nostandart xavfli vaziyatda harakatlarni aqliy va taqlid qilish orqali xavfsiz xulq-atvorning shaxsiy tajribasini boyitishni o'z ichiga oladi, bu esa talabalardan mustaqil ravishda, shoshilinch yoki dastlabki mashq qilmasdan, topishni talab qiladi. topqirlik, zukkolik va zukkolikni ko'rsatadigan mutlaqo yangi yechimlar yuzaga keladi.

Ta'lim tizimi o'smirlarning kundalik hayotda o'zini xavfsiz tutishga tayyorligini yaratishi kerak. Tayyorlikni shakllantirish modeli maqsadli, normativ, texnologik va samarali bloklardan iborat. Bu ta'limning motivatsion-axborot, o'quv va ijodiy bosqichlarida o'qituvchilar tomonidan yaratilgan xavfli vaziyatlarga (axborot, stimulyatsiya, dozalangan xavf) izchil sho'ng'ish orqali kompetensiyaga asoslangan yondashuvga asoslangan xavfsiz xatti-harakatlarga tayyorlikni rivojlantirish metodologiyasini ishlab chiqish uchun asosdir. . Og'zaki ta'sirlar va vizual tarzda taqdim etilgan xatti-harakatlar namunalari kuzatish orqali asta-sekin kommunikativ (og'zaki) va vizual (vikariy) o'rganishdan foydalanish; boshqa shaxslar tomonidan ishlab chiqilgan xavfli vaziyatda o'zini tutish usullari va usullarini o'smirlar tomonidan takrorlash orqali o'rganish (taqlid qilish); mustaqil (o'tkazish, kashf qilish orqali) nostandart vaziyatdan o'z yo'lini muvaffaqiyatli topish orqali o'rganish (subyektning xotirasida mavjud bo'lgan xatti-harakatlar variantlari asosida) o'quvchilarning ongliligini kengaytirishdan, funksional savodxonlikni rivojlantirish orqali rivojlanishini ta'minlaydi, o'z-o'zini himoya qilish xulq-atvori qobiliyati shakllanadi.

Ko'pincha, o'smirlarda bunday vaziyatlarda odam stressni boshdan kechir yuzaga keladi. Dastlab "stress" atamasi (ingl. stress-bosim, kuchlanish) texnikadan olingan bo'lib, u jismoniy obyektga qo'llaniladigan va uning kuchlanishiga olib

keladigan tashqi kuchni, ya'ni obyekt tuzilishining vaqtincha yoki doimiy o'zgarishini anglatadi. Ba'zi psixofiziologik ishlarda psixologik stress hali ham texnik fanlar nuqtai nazaridan quyidagicha talqin qilinadi.

Fiziologiyadagi stressning dastlabki tadqiqotchilaridan biri Xans Selye stressni universal javob sifatida aniqladi organizm turli xil stimullarga ega. Bu shuni anglatadiki, ijobiy voqealar (sevgi, muvaffaqiyat kasbiy faoliyat va boshqalar) va salbiy voqealar (yaqin odam bilan xayrlashish, ishdan ayrilish va boshqalar) fiziologik jihatdan bir xil tarzda ifodalanadi.

Xulosa va tavsiyalar. O'smirlar davrida kuzatiladigan vaziyatlarda ularda turli hildagi vaziyatlarda o'zlarida nosituativ vaziyatlarda ruxiyatlarda moslashish (adaptatsiya) jarayoni va adekvat qaror qabul qilishning yuzaga keltiradigan ruhiy holatlar kuzatiladi. O'smirlarda xulq atvorda kuzatiladigan xavfsiz xulq-atvora tayyorlikni shakllantirishning zarur pedagogik shartlari quyidagilardan iborat: o'smirlarni xavfsizlik masalalari bilan bevosita bog'liq bo'lgan fanlar orqali xavfsiz xulq-atvora o'rgatishning kompleks yondashuvi, akademiklarning "Shaxsiy xavfsizligini ta'minlash" va "Sog'lom turmush tarzi" mazmunini amalga oshirish. fanlar: fizika, kimyo, biologiya, texnologiya, ijtimoiy tadqiqotlar, jismoniy tarbiya; maktabning sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlari; voqelikka yaqinlashadigan vaziyatlarda o'smirlarni izchil suvga cho'mishni tashkil etish; xavfsiz xatti-harakatga tayyorligini nazorat qilish kerakligini talab qiladi.

Bunday vaziyatlarda integrativ kurash yondashuviga muvofiq hayotdagi qiyinchiliklarga ham shaxsiy fazilatlar, ham ta'sir qiladi vaziyatlar yuzaga keladigan omillar qatoridandur. Bu subyektiv vakillik shaxs uchun vaziyatlar va insonning reaksiyalarini ham belgilaydigan vaziyatni yengish usullaridandur. Kopingning psixologik maqsadi, T. L. Krukova yozganidek, " qanday qilib biror kishini vaziyat talablariga yaxshiroq moslashtirish mumkin, unga uni egallashga, talablarni yumshatishga yoki bartaraf etishga, ulardan qochishga yoki ko'nikishga harakat qilishga shaxs o'zida ichki psixologik resurs topishini nazarda tutiladi.

Bizning asosiy maqsadimiz o'smirlarning kundalik hayotda turli xil ekologik va boshqa xildagi xavf-xatarlarga duch keladi. U o'z xavfsizligini faqat xavfsiz xatti-harakatlarga tayyor bo'lgan taqdiridagina ta'minlashi mumkin. Xavfsiz hayot uchun barqaror motivatsiya, xavfli vaziyat bilan o'zaro munosabatda bo'lish bo'yicha bilim, ko'nikma va tajriba tizimi, o'z xatti-harakatlarini o'z-o'zini tartibga solish, o'z harakatlarini nazorat qilish va baholash qobiliyatiga ega bo'lgan holdagina o'smir nafaqat o'zini himoya qila oladi, atrof-muhit uchun xavf va tahdidlar, shuningdek, u tomonidan yaratilgan xavfli vaziyatlarni bartaraf etish yoki minimallashtirish bo'yicha ko'nikma va malakalar topadi.

ADABIYOTLAR

1. Кремень, М. А., & Герасимчик, А. П. (2017). Психологические аспекты принятия решения в проблемных ситуациях. Вестник Университета гражданской защиты МЧС Беларуси, 1(4), 479-487.
2. Сорокина, Л. А. (2010). О состоянии готовности подростков к безопасному поведению в повседневной жизни. Образование и наука, (6), 49-58.
3. Каримова В.М. Ижтимоий психология ва ижтимоий амалиёт: Ўқув қўлланма. - Т.: "Университет", 1999.,
4. Davurova, G. Z. A. (2022). Zamonaviy psixologiya talqinida qaror qabul qilish jarayonlari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(8), 294-305.
5. Солнцева, Г. Н., & Смолян, Г. Л. (2009). Принятие решений в ситуации неопределенности и риска (психологический аспект). Труды Института системного анализа Российской академии наук, 41, 266-280.



Bibinor NORMURODOVA,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: normurodovabibinor@gmail.com

O'zMU professori H.Xudayqulov taqrizi asosida

TA'LIM JARAYONIDAGI DARSLARINI O'QITISHDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA FANLARARO ALOQADORLIKNI TA'MINLASH

Аннотация

Hozirgi kunda boshlang'ich maktab ta'limini integratsiya qilish haqida ko'p gapirilmogda. Bu tushuncha kichik maktab o'quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qilish, uning uchun tabiatshunoslik, rustili, musiqa va boshqa o'quv fanlari nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligining qiziqarliligi bilan harakterlanadi. Bolalarning tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog'liqligini ko'rishga o'rgatish kerakligini o'qituvchi sezadi, biladi. Shunday ekan, ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talabiga javob beradimi, uni qanday tashkil etish kerak kabi savollar dolzarb ahamiyat kasb etmogda.

Kalit so'zlar: Obyekt, ta'lim tizimi, ta'lim poydevori, prinsip, reja, yangi tip, predmet, dialektik, modernizatsiyalash, element.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНТЕГРИРОВАННЫХ УРОКОВ И ОБЕСПЕЧЕНИЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ СВОИХ УРОКОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация

В настоящее время много говорят об интеграции начального образования. Это понятие характеризует восприятие окружающего мира младшим школьником в целом, для него характерно не название естествознания, простоты, музыки и других учебных дисциплин, а интересность разнообразия звуков, цветов, объемов предметов окружающего мира. Воспитатель замечает, знает, что детей нужно учить видеть связь между природой и всем в быту. Поэтому такие вопросы, как, отвечает ли интеграция образования современным требованиям, как ее организовать, приобретают все большую актуальность.

Ключевые слова: Объект, система образования, основа образования, принцип, план, новый тип, предмет, диалектика, модернизация, элемент.

IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF INTEGRATED CLASSES AND ENSURING INTERDISCIPLINARY ENGAGEMENT IN TEACHING THEIR LESSONS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation

Currently, there is a lot of talk about the integration of primary education. This concept characterizes the perception of the surrounding world by a younger student as a whole. It is characterized not by the name of natural science, simplicity, music and other academic disciplines, but by the interesting variety of sounds, colors, and volumes of objects in the surrounding world. The educator notices and knows that children need to be taught to see the connection between nature and everything in everyday life. Therefore, the question of whether educational integration meets modern requirements and how to organize it is becoming more and more urgent.

Key words: Object, education system, basis of education, principle, plan, new type, subject, dialectic, modernization, element.

Kirish. Ta'lim asosida jamiyat rivojlanishining obyektiv ehtiyojlari birinchi o'rinda turadi. Ta'lim insonning mehnat olamiga samaraliroq kirishini, jamiyat hayotiga qo'shilishini ta'minlaydi. Mustaqillikka erishib, erkin bozor munosabatlari asosida demokratik huquqiy davlat sifatida shakllanish yo'liga o'tgan O'zbekistonda hozirgi bosqichda Xalq ta'limi tizimiga, pedagogika faniga, yosh avlodga mustaqillik va faollikni, ishbilarmonlik va tadbirkorlikni shakllantirishga jiddiy e'tibor berilmogda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Barcha maktab fanlarida beriladigan ta'limning mazmuni davlat hujjatlarida, o'quv rejasida, o'quv dasturlari va darsliklarida aks etgan. Ana shu hujjatlar respublikadagi barcha maktablar uchun majburiydir.

O'quv rejasi. Maktabning o'quv rejasi maktabda o'rgatish uchun tanlangan o'quv predmetlarini, ularning ta'lim olish yo'llari bo'yicha taqsimlanishini, har bir predmetga ajratilgan soatlar miqdorini va shu soatlarning haftalarga bo'linishini belgilaydi. O'quv rejalarini xalq ta'limi vazirligi tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi hamda respublikadagi barcha maktablar uchun majburiy hisoblanadi. O'quv rejalarini tuzishga predmetli o'qitish prinsipi asos bo'ladi. O'quv rejasi ta'limning mazmunini belgilaydigan eng muhim hujjat bo'lib, unda mazkur o'quv yurtida o'rganiladigan o'quv predmetlarining tarkibi, ularning o'quv yillari va haftalari bo'yicha taqsimlanishi hamda har bir o'quv predmeti uchun ajratilgan vaqtlar miqdori ana shularga muvofiq ifodalanadi.

O'quv rejasining tushuntirish xatida ikkita qoida yoritiladi: o'quv rejasining tuzilishi prinsiplari ta'lim mazmunining tarkibi va strukturasi ta'sir etadigan, uni to'g'ri taylagan omillardan biri sifatida ifodalanadi; ta'lim mazmunining, ta'lim konsepsiyasini aks ettiradigan hujjat sifatidagi o'quv rejasining vazifalarini kengaytirib turib, rejada va o'quv dasturlarida ta'lim mazmunining tarkibi va tuzilishini to'liq yoritib bo'lmaydi. O'quv rejasida o'quv predmetlarining yaxlit kontegratsiyalangan tizimi ikki marta: maktabdagi ta'limning dastlabki va oxirgi pog'onalarida, o'qitishning boshlang'ich va yakunlovchi bosqichlarida ifodalanadi. Maktabning o'rta zvenosida predmetlarni tabaqali o'rganish asosiy o'rin oladi. Ta'limning boshlang'ich bosqichida integratsiyalangan kurslar kiritilishining sababi bolalarda yaqqol tabaqalangan kurslarga qiziqish bo'lmasligi, ya'ni ana shu davrda ular dunyoni yaxlit bilishi va idrok etishidir.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchini bilimlarni o'zlashtirish jarayonining o'zi qiziqtiradi. Predmetni bilishga qiziqish aqliy faoliyatning murakkab shakllari rivojlanishiga va keyinchalik predmetlarning tavsiflanishiga bog'liq holda vujudga keladi. Amaliyotdan ko'rinadiki, yangi tipdagi maktablarni yaratish, ta'lim mazmunidan ortiqcha mafkuraviylashtirish va cheklashlarni chiqarib tashlash orqali ta'limdagi qoliplarning barham topishi ancha tezlashmogda. Lekin ta'lim jarayonining o'zini qayta qurish, o'qituvchi bilan o'quvchilar munosabatining uslublarini o'zgartirish natijalari yaxshi sezilmayotir.

Ta'lim-tarbiya jarayoni o'quv faoliyatining tarkibiy qismi hisoblanib, mazkur jarayonga ham integratsiya jarayonini tatbiq etish yetuk mutaxassis sifatida tayyorlanishi nazarda tutilgan talabalarining barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishishlari uchun sharoit yaratilishini ta'minlaydi. Biroq bunday sharoitning vujudga kelishi ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy subyekti va rahbari bo'lgan o'qituvchilarning integratsiya jarayoni mohiyatini anglash, ulardan pedagogik faoliyatni amalga oshirishda samarali foydalanish borasidagi ko'nikmalarni hosil qilish lozim. Fanlararo aloqadorlik prinsipiga amal qilish ta'lim tarbiya sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, predmetlararo aloqadorlik o'rganilayotgan obyektning har tomonlama chuqur o'rganilishini ta'minlaydi. U pedagogikada uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik va integrativ aloqadorlik darajalarida talqin etiladi.

Uzviylik – o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni asta sekinlik bilan kengaytib, chuqurlashib, mukammaallashib borishini ko'zda tutadi.

Fanlararo aloqadorlik – o'zining mohiyatiga ko'ra keng tushuncha bo'lib, o'rganilayotgani obyektning turli jihatlarini. Xususiyatlarini har tomonlama ochib berilishini nazarda tutadi.

O'zaro aloqadorlik – mohiyatiga ko'ra ikki o'quv predmetlari orasidagi aloqadorlikni ya'ni birinchi o'quv fani bo'yicha o'zlashtirilgan bilim va ish-harakat usullarini ikkinchisida qo'llashni va aksincha qo'llanishini ifodalaydi.

Integrativ aloqadorlik esa nisbatan yuqori darajali aloqadorlik bo'lib, avval zikr etilganlaridan o'quv dasturiga maqsadga muvofiq kiritilganligi bilan farq qiladi va albatta uni ta'minlashni talab etadi. Natijada obyekt haqida tizimli mukammal bilim, ish harakat usullari shakllanishiga imkon yaratadi. Fanlararo aloqadorlik o'rnatish uchun o'quv materialini mazmuni va mantiqan, psixologik. Didaktik, metodik va boshqa jihatlardan tahlil etiladi. Pedagogik amalyotda o'quv materialini mavzular bo'yicha va tarkibiy tahlil etish usullaridan keng foydalaniladi. O'quv materialini mavzular bo'yicha tahlil etish yo'li bilan turli o'quv predmetlarini qaysi mavzulari bir – biri bilan aloqadorligi yuzaki ravishda aniqlansa, tarkibiy tahlil etish orqali o'quv materialining tashkil etuvchi tushunchalari, dalillari, qonuniyatlari, hukm xulosalari, tasavvurlari orasidagi aloqadorlik o'rnatiladi. Aniqlangan predmetlararo aloqadorliklar sxematik jadval, verbal shakllarda qayd etiladi. Fanlararo aloqadorlikning qanday shaklda qayd etilishi undan foydalanuvchining imkoniyatlariga bog'liq. Fanlararo aloqadorlikni amalga joriy etish quyidagi muhim bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin;

Maqsad qo'yib, Fanlararo aloqadorlikning mohiyati, amalga oshirish ketma – ketligi va ketligi va ko'lamini aniqlab olish. Mashg'ulotlar davomida Fanlararo aloqadorlikni bevosita amalga oshirish. Ko'zlangan maqsad bilan olingan natijani qiyoslab, xulosa chiqarish va istiqbol rejalarini tuzish.

Tarbiya jarayoniga integratsiya jarayonini tatbiq etish o'qituvchilarning tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga nisbatan integratsiyalashdan iborat bo'lib, mazkur ishlar mazmunini shakllantirish birqadar murakkab jarayondir. Ta'lim jarayonida talabalarga muayyan o'quv fani to'g'risida ma'lumotlarni berishda vaqt hajmi hat'iy belgilab qo'yilgan, bunday holat o'quv faoliyatini integratsiyalash asosida tashkil etishni birqadar barqarorlashtirishga imkon bersa, tarbiya jarayoniga nisbatan bunga erishish murakkabroqdir. Binobarin, ta'lim jarayonining muayyan bosqichlarida talabalarda bir hator shaxsiy sifatlar shakllantiriladi. Ularni boyitish esa shaxs tarbiyasini uzluksiz davom ettirishni talab qiladi. O'quvchilarga integrallashgan ta'lim

berish uchun fanlarni eng muhim g'oyalarni tanlab, ularni o'quvchilarga mos holda tizimlashtirish kerak. Tizimlashtirilgan materiallar boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabaqalashgan holda o'rgatilishini inobatga olish zarur. Integrativ materiallar quyidagi talablarga javob berishi kerak: ya'ni qiziqarli, ilmiy, o'quvchilar yosh xususiyati, psixofiziologiyasiga mos bo'lishi kerak. Integrativ materiallar-oddiy, sodda tilda yozilgan, tushunarli tarzda bayon etilishi zarur. Integrativ material-tarixiy, milliy, umuminsoniy xarakterga ega bo'lishi lozim. Tabiiy fanlarni integratsiyalab o'qitish quyidagicha bo'ladi:

1. Tayanch ta'lim
2. Integratsiyalashgan dars
3. Mavzulararo integratsiya
4. Fanlarning ichki integratsiyasi
5. Fanlararo bog'lanishdagi integratsiya
6. Vertikal va gorizontalar bog'lanishdagi tabahalashgan fanlararo integratsiya
7. Modellashgan integratsiya
8. G'oyalar integratsiyasi (ham vertikal ham gorizontalar)

O'quv rejalarini tuzishda o'quvchilarning samarali o'zlashtirishlarini ta'minlash uchun auditoriya mashg'ulotlarini aniq tashkil etishni rejalashtirish bilan bir qatorda, auditoriyadan tashqarida o'tkaziladigan bir qancha o'quv-tarbiyaviy tadbirlarni tizimli ravishda tashkil etish ham mo'ljallanadi. Chunki o'quv-tarbiyaviy tadbirlar, pedagogik va boshqa amaliyotlar bevosita o'quv-tarbiyaviy jarayonning takomillashishiga, to'laqonli bo'lishiga yordamlashadi.

O'quv rejalarini tuzishda bo'lg'usi o'qituvchilar pedagogik mahoratining oshib borishini ta'minlash yetakchi omillardan hisoblanadi, ya'ni bu sohani ta'minlaydigan fanlar guruhini yanada takomillashtirib, yangilab berish zarur bo'ladi. Chunki pedagogik jarayon, ta'lim-tarbiya jarayoni o'zgaruvchan bo'lib, hamisha yangi pedagogik, axborot, psixologik, metodik texnologiyalar bilan ta'minlab borishni nazarda tutadi. Integratsiyalashgan o'quv kurslarini joriy etish natijasida ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishlari, mustaqil fikr yuritish olishlari uchun qulay pedagogik muhit vujudga keltiriladi.

O'quvchilarga integrallashgan ta'lim berish uchun fanlarni eng muhim g'oyalarni tanlab, ularni o'quvchilarga mos holda tizimlashtirish kerak.

Tizimlashtirilgan materiallar boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabaqalashgan holda o'rgatilishini inobatga olish zarur. Integrativ materiallar oddiy, sodda tilda yozilgan, tushunarli tarzda bayon etilishi zarur.

Fanlararo aloqadorlik o'rnatish uchun o'quv materialini mazmuni va mantiqan, psixologik. Didaktik, metodik va boshqa jihatlardan tahlil etiladi. Pedagogik amalyotda o'quv materialini mavzular bo'yicha va tarkibiy tahlil etish usullaridan keng foydalaniladi. O'quv materialini mavzular bo'yicha tahlil etish yo'li bilan turli o'quv predmetlarini qaysi mavzulari bir – biri bilan aloqadorligi yuzaki ravishda aniqlansa, tarkibiy tahlil etish orqali o'quv materialining tashkil etuvchi tushunchalari, dalillari, qonuniyatlari, hukm xulosalari, tasavvurlari orasidagi aloqadorlik o'rnatiladi.

Xulosa. Aynan uzviylik asosida tashkil etilgan integratsiya biosferani ilmiy bilish, inson faoliyatini o'rganish, tinchlik uchun kurash bo'yicha global masalalarning yechimini topishda tabiiy fanlarning o'rmini samarali tarzda belgilab berish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva q. Ochilov M., K.Nazarov, S.Fuzailov, N.Bikbaeva «Boshlang'ich maktab darsliklarini yaratish mezonlari. T.: 1999.
2. Mavlonova R.A. Raxmonqulova N. "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi" T.: Ili-Ziyo 2009 y.
3. Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb- hunar ta'limi jarayonida fanlararo uzviylikni ta'minlash muammolari respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi Toshkent – 2009 y.
4. «Ta'lim to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi qonuni. Barkamol avlod-
5. O'zbekiston kelajagining poydevori.-T.: 1998.21-b.
6. O'zbekiston Respublikasining «Boshlang'ich sinf tarbiya va sport to'g'risida» qonuni (Yangi taxirida). 2000.



UDK:316.7.323/324

Zuhal NORSAFAROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi
E-mail: zuhalnorsafarova873@gmail.com
Dildora AXATOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
PhD S.Azamova taqrizi asosida

IMPORTANT TASKS TO PROTECT OUR SOCIETY FROM HARMFUL IDEAS

Annotation

This article analyzes the issue of preventing the spread of harmful ideas in our society. It is emphasized that the strong establishment of the national idea and spirituality in the minds of young people is of great importance in forming immunity against harmful ideologies. The study examines the role of science and education in this process, the importance of state policy in this regard, and effective methods of combating harmful ideas based on historical sources.

Key words: Harmful ideas, ideological threat, national idea, spiritual immunity, education, young generation, state policy, globalization.

ВАЖНЫЕ ЗАДАЧИ ПО ЗАЩИТЕ НАШЕГО ОБЩЕСТВА ОТ ВРЕДНОСНЫХ ИДЕЙ

Аннотация

В данной статье анализируется проблема предотвращения распространения вредных идей в нашем обществе. Подчеркивается, что прочное укрепление национальной идеи и духовности в сознании молодежи имеет большое значение в формировании иммунитета против вредоносных идеологий. В исследовании рассматривается роль науки и образования в этом процессе, значение государственной политики в этом отношении, а также эффективные методы борьбы с вредными идеями на основе исторических источников.

Ключевые слова: Вредные идеи, идеологическая угроза, национальная идея, духовный иммунитет, образование, молодое поколение, государственная политика, глобализация.

JAMIYATIMIZNI ZARARLI G'OYALARDAN HIMOYA QILISH BO'YICHA MUHIM VAZIFALAR

Аннотация

Ushbu maqolada jamiyatimizda zararli g'oyalarning tarqalishining oldini olish masalasi tahlil qilinadi. Milliy g'oya va ma'naviyatning yoshlar ongida mustahkam qaror topishi zararli mafkuralarga qarshi immunitetni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Tadqiqotda ilm-fan va ta'limning bu jarayondagi roli, davlat siyosatining bu boradagi ahamiyati va tarixiy manbalar asosida zararli g'oyalarga qarshi kurashning samarali usullari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Zararli g'oyalar, mafkuraviy tahdid, milliy g'oya, ma'naviy immunitet, ta'lim, yosh avlod, davlat siyosati, globallashuv.

Kirish. Hozirgi zamonaviy jamiyatimiz makonida haqiqat va yolg'on o'rtasidagi chegara tobora xiralashib, bormoqda. Jamiyatni zararli g'oyalardan himoya qilish bugungi globalizatsiya sharoitida dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi natijasida turli mafkuraviy oqimlar, shu jumladan, zararli va buzuvchi g'oyalar keng tarqalmoqda. Ayniqsa, yosh avlodning ongiga ta'sir ko'rsatish orqali milliy qadriyatlarini zaiflashtirishga qaratilgan tashqi tahdidlar kuchayishi yomon oqibatlariga sabab bo'lmoqda. Yosh avlodni zararli g'oyalardan qanday himoya qilish mumkin? O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu savolga birgina yangi O'zbekiston tushunchasi bilan izohlab berdi. O'zbekistonda samarali yechimlar orqali vazifalarni belgilash mumkin. Azaldan hozirga qadar milliy tafakkurimiz negizida shakllanib kelgan, turli g'oyalar va amaliy harakatlar orqali namoyon bo'lgan xalqimizning orzu-umidlari bugungi kunda Yangi O'zbekiston tushunchasida mujassam bo'ldi.[1]. O'zbekiston uchun dolzarb mavzuga aylanmoqda yod g'oyaviy qarashlarga qarshi kurash. Sababi, jamiyatda yoshlarning o'zligini anglashi zararli narsalardan yiroqda bo'lishi juda muhimdir. Zamonaviylashuvning o'sishi zararli g'oyalarning tarqalishini tezlashtirmoqda. Avvalambor, jamiyat tushunchasi, zararli g'oya nima ekanligi va ular o'rtasidagi bog'liqlikni to'g'ri tahlil qilish lozim. Jamiyat tushunchasi bu arabcha jamoa degan ma'noni bildiradi, uning umumiy tasnifi kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmui hisoblanadi. Jamiyatdagi hamma narsa (moddiy va ma'naviy boylıklar, insonlar hayoti uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish va boshqalar) muayyan faoliyat jarayonida amalga oshadi. Insonlar faoliyati va ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi.[2]. G'oya tushunchasi esa, inson olamida

paydo bo'luvchi atrofda qilargalarga ta'sir o'tkazish kuchiga ega bo'lgan. Ma'lum maqsadni ifodalaydigan tushunchalar sirasiga kiradi. G'oya jamiyat ongida turlicha talqin qilinadi. Xususan, milliy g'oya falsafiy g'oya ilmiy va adabiy mafkuraviy singari talqinlari mavjud. Barchasi ijobiy jamiyat uchun foydali maqsadlarni ifodalaydi. Binobarin, milliy g'oya – o'z nomi bilan aytib turgandek, ma'lum bir elatning o'zida mavjud bo'lgan, qadriyatlarini va g'oyaviy qarashlariga aytildi. Jamiyat yoshlari uchun milliy g'oyani bilish o'zlikni anglash mohiyatini tushunish juda muhimdir. O'zligini tushunmaydigan anlamaydigan yosh yod va zararli g'oyalar ta'siriga tushib, uning ta'siridan chiqolmay qoladi. Shu sababli, yod g'oyalarga qarshi immunitet shakllantirish va muhim vazifalarni ishlab chiqish lozimdir.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Yod va zararli g'oyalarning jamiyatga ta'siri oldini olish usullari olimlar tadqiqotchilar tomonidan o'rganilib, kelinmoqda. Zararli g'oyalarning qanday kelib, chiqishi unga qarshi choralar mutafakkir olimlarning bu kabi jarayonlar asarlarida ifodalangan. Yosh avlodga ma'naviy zarar ma'naviy tahdid yetkazish tuzalishi qiyin bo'lgan yara misolidir. Bu yarani davolash jamiyatimizdagi har bir fuqaroning vazifasidir. Sababi, barcha insonlar birdek, loqaydlik, e'tiborsizlik qilmasdan bu jarayonga o'zini fikrni bildirsa ijobiy natija bo'ladi. Mahalla yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin tutadi. O'zbek xalqida "Bir bolaga yetti mahalla otana" degan ibora bor — bu bejiz aytilmagan. Yoshlikda inson hayot yo'lini belgilashda qiynalish mumkin. Ana shunday paytda mahalla faollari uning holatiga befarq bo'lmay, to'g'ri yo'l ko'rsata, o'sha yigit-qiz ongida bo'shliq paydo bo'lmaydi. Aksincha, u o'z oldiga maqsad qo'yib, jamiyatda munosib o'rin egallashga intiladi. Uning bo'sh vaqti samarali va mazmunli o'tadi. Islom Karimov o'z asarida ma'naviy tahdid tushunchasini

birinchi bo'lib tahlil qilgan. U g'oyaviy bo'shliqlar jamiyat rivoji uchun xavf tug'dirishi mumkinligini va ularni samarali to'ldirish zarurligini ta'kidlaydi. Ma'naviy tahdid — bu insoniyatning diniy qarashlari, tili yoki milliy o'zligidan qat'i nazar, uning ongiga ta'sir etish orqali ma'naviy izlanishni to'xtatishga, erkin yashash huquqini cheklashga va ruhiy muvozanatini izdan chiqarishga qaratilgan salbiy ijtimoiy hodisadir. Ushbu tahdidlar jamiyatda axloqiy inqirozga, shaxsiy qadriyatlarining yemirilishiga va ma'naviy tanazzulga olib kelishi mumkin. Shuning uchun uning naqadar xavfli ekanligini bilish kerak. Mutafakkirlar asarlarida yod g'oyalarga qarshi qanday kurashish mumkinligi haqida bayon etilgan. Jumladan, Abdulla Avloniy o'zining bu g'oyaga qarshi asosiy vazifa sifatida ilmiy e'tirof etadi. "Turkiy Guliston Yoxud Axloq" asarida shunday deydi: Alhosil, har bir millatning taraqqiyoti va ta'limi yoshlarning ilm-fan va ma'rifatiga, hunar va san'atiga bog'liqdir. Rasululloh Muhammad (s.a.v) aziz hadisi sharifida: "Ilm o'rganish har bir mo'min erkak va ayol uchun farzdir" deganlar. Boshqa millatlarning o'g'illari va qizlari kechakunduz, yoz-qish demay, ilm yo'lida jonlarini fido qilib, tinimsiz mehnat qilishayotgan bo'lsa, biz esa hali ham uyqudan, g'afatdan chiqmay, jaholatga qarshi kurashishda sustkashlik ko'rsatmoqdamiz. Payg'ambarimiz (s.a.v) shunday deganlar: "Olim bo'l, ilm talab qiluvchi bo'l yoki ilmiy eshituvchi bo'l, hech bo'lmasa ilmga muhabbat qiluvchi bo'l, beshinchisi bo'lmasang, halok bo'lasan" [3]. Uning bu qarashi yod g'oyalarga qarshi asosiy qurol sifatida qaraladi. O'zi bu g'oyalar qaysi degan savol tug'ulishi mumkin? Bular: ommaviy madaniyat, giyohvandlik, ekstremizm terrorizm va boshqalar. Bular, insoniyat ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlod uchun eng katta zararli jaholat botqog'iga botishga sabab bo'ladigan illatdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev "Erkin va farovon, Demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz" nomli asarida ekstremistik g'oyalarga qarshi davlatimizda yetarlicha tajribalarga ega ekanligini bayon etgan. O'zbekiston hududida radikal g'oyalar, nifoq tarqatishga mutlaqo ruxsat berilmaydi. Bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida kuchayib borayotgan qonli mojaro va ziddiyatlar, terrorizm va ekstremizm xavfi bizni doimiy ogoh va hushyor bo'lishga undaydi. Shuning uchun, O'zbekistonning chegaralarini himoya qilish, mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va yurtimizga tahdid soluvchi har qanday yomon oqibatlarining oldini olish kabi vazifalar har doim e'tiborimiz markazida bo'ladi. O'zbekiston xalqining bag'rikengligi va tinchlikka bo'lgan sodiqligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarashda mustahkam pozitsiyada turishni davom ettirmoqda. Lekin zarur bo'lsa, biz mamlakatimizning suvereniteti va mustaqilligiga tahdid soladigan har qanday harakatlarga qarshi qat'iy zarba berishga tayyormiz. Shu bois, xalqimizga murojaat qilib, bu masalada hech qanday ikkilanish yoki shubha bo'lmasligi kerakligini ta'kidlayman. Bizning qudratimiz bunga to'liq yetarli. Jamiyatimizda bu yo'nalishda kosepsual asoslarni belgilash maqsadida 2030 strategiyasi alohida o'rin tutadi. Jumladan, strategiyaning 6-yo'nalishi aynan bu g'oyaviy qarashlarni yengishga samarali yechimdir. Ekstremizm va terrorizmni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish bo'yicha samarali chora-tadbirlar zarur. Jumladan, bu yo'nalishda preventiv mexanizmlarni takomillashtirish, ijtimoiy-ma'naviy muhitni mustahkamlash, yod g'oyalarning ta'sirini kamaytirish hamda ularning ta'siriga tushib qolgan shaxslar bilan tizimli asosda ishlash muhim ahamiyat kasb etadi.[4]. Jamiyatimiz mustaqillikgacha SSR tarkibida bo'lganligi uning ta'siri ostida yashaganligi barchaga ma'lum Abdulla Avloniy o'sha davrni yaqqol tasvirlagan. Maorifdan, fan va madaniyatdan mahrum qolgan xalq jaholat domiga tushadi. Bunday xalq aqliy va ma'naviy ezilishdan najot topolmaydi. Ilm va ma'rifat egalarning fazilatli yondashuvlari tufayli har bir ish chuqur tadqiq va mushohada bilan amalga oshiriladi. Aksincha, johil insonlar har qanday masalaning mohiyatini anglashga o'z bo'ladilar, chunki johillik zohirparastlik va xudbinlikka olib boradi. Aql va ilm sohiblari har qanday jamiyatda qadrlansa-da, jaholat egalari e'tibordan chetda qoladi. Moddiy jihatdan boy bo'lsa ham, ma'naviy jihatdan nochor bo'lgan bunday insonlar jamiyatda halokatli oqibatlariga sabab bo'lishi mumkin. Zero, jaholat insoniyat boshiga tushadigan eng og'ir balolardan biridir. Ilm va aql qancha yuksak bo'lsa, jaholatning tubanligi shuncha

ochiq ko'rinadi.[3]. Avloniy aynan o'sha davr holatidan faqat ilm egallab, chiqish mumkinligini o'zini o'zining aarida falsafiy tadqiq etgan. Ammo, hozirgi globalizatsiya jarayonida xavfli illatlarning ko'payishi og'riqli nuqtalardan biriga aylanib, bormoqda. Avloniy asarida yagona usul sifatida tarbiya va axloq orqali zararli g'oyalarni bartaraf etish kerakligini ko'rish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi global axborot makoni shiddat bilan kengayib borayotgan bir paytda, yoshlarimiz nafaqat ta'lim muassasalari orqali, balki ommaviy axborot vositalari — televizor, radio, matbuot va internet orqali ham turli xil axborotlarga duch kelmoqdalar. Shunday zamonaviy sharoitda ularning ongini bir tomonlama nazorat qilish, ya'ni axborotdan butunlay cheklab qo'yish, ularni "buni ko'rma, uni o'qima" degan yondashuv asosida tarbiyalash kamol talablari va yosh avlodning erkin fikrlovchi inson bo'lib kamol topishi tamoyillariga ziddir. Shu bois, yoshlarning ma'naviy olamida bo'shliq yuzaga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongini sog'lom g'oyalar bilan to'ldirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda "ommaviy madaniyat" niqobi ostida axloqsizlik, zo'ravonlik, shaxsiy manfaatparastlik va yod g'oyalarni targ'ib qiluvchi oqimlar tobora kuchaymoqda. Ular qadimiy an'analar va ma'naviy qadriyatlarga nisbatan tahdid soluvchi xavfli omillarga aylanib bormoqda. Bunday tahdidlarga qarshi faqatgina taqiqlash yoki cheklash bilan emas, balki fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi esa ma'rifat orqali kurashish eng samarali vosita hisoblanadi. Zero, inson ma'naviy jihatdan yuksalgani sayin, uning irodasi ham mustahkamlanadi [5]. Zararli yod g'oyalarni jamiyat ongiga kirib kelishini oldini olishda davlat siyosati asosiy o'rin kasb etmoqda. Jumladan, Bugungi kunda yoshlar va voyaga yetmaganlarni zararli axborotlardan himoya qilish hamda ularning axborotdan foydalanuvchi madaniyatini oshirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Internetda yoshlar uchun milliy kontentni rivojlantirish, ijtimoiy tarmoqlarda madaniy va me'yoriy foydalanishni targ'ib qilish zarur. O'zbekiston hukumati yoshlar va voyaga yetmaganlar uchun axborotlarni tasniflash va milliy axborotni tarqatishda yosh guruhlari mos ravishda tasniflashni ta'minlovchi qonunlar va me'yorlarni ishlab chiqdi. Bu chora-tadbirlar yoshlarni har tomonlama himoya qilish va ularni zamonaviy axborot manbalaridan to'g'ri foydalanishga yo'naltirishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar. "Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zi bilganicha tashlab qo'yilsa, o'sha erda ma'naviyat eng o'z va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha — qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi. Ayniqsa, bugungi kunda xalqaro maydonda turli siyosiy kuchlar o'zining milliy va strategik rejalari erishish uchun «Erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish» niqobi ostida amalga oshirayotgan, uzoqni ko'zlagan siyosatning asl mohiyati va maqsadlarini o'z vaqtida sezish, anglash katta ahamiyat kasb etadi." [6]. "Ayniqsa, bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo'nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi. Faqat ana shunday asosda yoshlarni o'z fikriga ega, turli ma'naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga erishish mumkin. Bu borada ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul va uslublarini ishlab chiqish davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va qo'llanmalarni tayyorlash bugungi kunda muhim vazifamizga aylanib borayotganini chuqur tushunib olishimiz zarur" [7]. Mafkuraviy immunitet tushunchasini keng ma'noda mohiyatini tushunishdan avval immunitet nima ekanligini ilmiy izohda bilish dardkor. "Immunitet — shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli

zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g'oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi. Immunitet (lotincha immunitas – ozod bo'lish, qutilish) tibbiy tushuncha bo'lib, organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o'zini turli ta'sirlardan, tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo'lgan reaksiyalar majmui tushuniladi"[8]. Hozirgi yosh avlod ongida mentalitetimizga yod bo'lgan g'oyaviy qarashlarga qarshi kurashuvchi vaktsina sifatida qarash kerak. Buning uchun tanqidiy tafakkurni rivojlantirish asosiy o'rin kasb etadi. Yoshlar mustaqil fikrlash, turli manbalarni tahlil qilish va o'z qarashlarini asoslash qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak. Shuningdek, milliy madaniyat va tarixni chuqur bilish, mustahkam dunyoqarashga ega bo'lish ham ularning mafkuraviy barqarorligini ta'minlaydi. Boshqalar ta'siriga tushishini oldini oladi. Falsafiy adabiyotlarda bu tushuncha tahlil qilinsa, naqadar, keng ma'noli so'z ekanligini bilsa, bo'ladi. Xususan, yana bir adabiyotda quidagicha ta'rifi mavjud. "Immunitet – muayyan himoya demakdir va u nimaningdir oldini olishga, unga qarshi kurashga qaratilgan bo'ladi. Milliy g'oya asosidagi mafkuraviy immunitet, avvalo, har bir yurtdoshimizning sog'lom e'tiqod va yuksak dunyoqarashga ega bo'lishini taqozo etadi. Mafkuraviy bo'shliqni to'ldirish va mafkuraviy immunitetni shakllantirish barkamol avlod tarbiyasining muhim yo'nalishidir. Bugungi insoniyat turli xil g'oyalar va siyosiy kurashlar butun jahon miqyosida avj olayotgan, g'oyaviy qarama-qarshiliklar keskinlashayotgan bir sharoitda yashamoqda"[9]. Shunday sharoitda har bir jamiyat o'z mustaqilligi va barqarorligini saqlab qolish uchun mafkuraviy immunitetini mustahkamlashi, yosh avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida tarbiyalashi zarur.

Xulosa va takliflar. Jamiyatimizda zararli va yod g'oyalar tarqalishining oldini olish muhim vazifalardan biridir. Globalizatsiya jarayonida yoshlar turli axborot oqimlariga duch kelmoqda, bu esa ularning ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, zararli g'oyalarga qarshi immunitet shakllantirish, yoshlarni milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlar

asosida tarbiyalash zarur. Ilm-fan va ta'lim zararli g'oyalarga qarshi samarali qurol sifatida ko'riladi. Buyuk mutafakkirlar, jumladan, Abdulla Avloniy ham yosh avlodning ilm va ma'rifat bilan tarbiyalanishini jamiyat rivojining asosiy omili deb hisoblagan. Shuningdek, davlat siyosati ham bu borada muhim rol o'ynab, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish uchun qonuniy choralarni ishlab chiqmoqda. Shu boisdan, zararli mafkuralarga qarshi kurashning tizimli yondashuvga asoslangan strategiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashda ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi mustahkamlanishi lozim. Faqat shu yo'l bilan yosh avlodni yod g'oyalardan himoya qilish, ularning ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish mumkin.

Zararli g'oyalardan himoya qilish choralari sifatida quidagi takliflarni bildirish mumkin: Ta'lim tizimini mustahkamlash, Axborot xurujlariga qarshi targ'ibot, Fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik, Oilaviy tarbiya rolini oshirish va so'ngida Mutaxassislar ishtirokini kengaytirishdir. Yuqoridagi takliflardan eng e'tiborlisi oilaviy tarbiya rolini oshirish – ot-onalar uchun ma'naviy tarbiya bo'yicha maxsus qo'llanmalar tayyorlash va seminarlar tashkil etish orqali oilalarda mafkuraviy immunitet shakllanishiga hissa qo'shish mumkin hisoblanadi. Va yana biri hozirgi Globallashib rivojlanayotgan jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib, Mutaxassislar ishtirokini kengaytirish – Psixologlar, sotsiologlar va mafkura mutaxassislari tomonidan tahliliy tadqiqotlar o'tkazish hamda zararli g'oyalarning ta'sir doirasini aniqlab, ularga qarshi kurash strategiyalarini ishlab chiqish o'rinni hisoblanadi. Bu takliflarni jamiyatda qo'llash samarali natijalar kasb etadi.

Zero hozirgi kunda fikrga fikr, g'oyaga g'oya, jaholatga esa ma'rifat bilan javob berish nihoyatda muhim. Har bir inson bu jarayonda faol ishtirok etib, yosh avlodga to'g'ri yo'l ko'rsatishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2017. – 9-b
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: 2021. – 18-b.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 27–56-b.
4. O'zbekiston Respublikasi Hukumat Portali. Davlat dasturi. – Rejim kirish: <https://davlatdasturi.uz/uz-Latn/strategy>
5. Namangan davlat universiteti yuridik fakulteti. Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi. – Namangan: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, 2023. – 76-b.
6. Globallashuv jarayoni, uning ijobiy va salbiy tomonlari. – Rejim kirish: <https://azkurs.org/1-globallashuv-jarayoni-uning-ijobiy-va-salbiy-tomonlari-manav.html>
7. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: "Ma'naviyat" nashriyoti, 2016. – 127-b.
8. Mafkuraviy immunitet. – Oyina <https://oyina.uz/uz/teahouse/1846>
9. Meyliyev U. Jamiyat taraqqiyotida "ommaviy madaniyat", "mafkuraviy immunitet" va ma'naviy hayotni sog'lomlashtirish usullari <https://journalsnuu.uz/index.php/1/article/download/1533/672/>



UDK: 351,71

Qudrat NURULLAYEV,
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senat devoni rahbari
E-mail: mohimboboeva@gmail.com

Siyosiy fanlar bo'yicha fan doktori DSc S. Saidova taqrizi asosida

MAHALLIY VAKILLIK ORGANLARINING BYUDJET JARAYONINI NAZORAT QILISH FAOLIYATI TUSHUNCHASI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mahalliy vakillik organlarining byudjet jarayonini nazorat qilish faoliyati tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlarini nazorat qilish tahlil qilish bag'ishlangan. Mahalliy vakillik organlarining byudjetni nazorat qilish roli, xavfsizlikni ta'minlash, mablag'larning samarali sarflanishi, auditorlik faoliyati va shaxsiy ishtirokini muhim nazorat qilish yoritilgan.

Kalit so'zlar: Mahalliy vakillik organlari, byudjet jarayoni, nazorat qilish, davlat hokimiyati, inson huquqlari, umumjahon deklaratsiyasi, fuqarolik va siyosiy huquqlar, qonunchilik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, qonun, davlat moliyasi.

THE CONCEPT AND SPECIFIC FEATURES OF THE BUDGET PROCESS CONTROL ACTIVITIES OF LOCAL REPRESENTATIVE BODIES

Annotation

This article is devoted to the concept and specific features of the budget process control activities of local representative bodies. The role of local representative bodies in budget control, ensuring security, effective use of funds, audit activities and personal participation are highlighted.

Key words: Local representative bodies, budget process, control, state power, human rights, universal declaration, civil and political rights, legislation, socio-economic development, law, public finance.

ПОНЯТИЕ И ОСОБЕННОСТИ КОНТРОЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЕСТНЫХ ПРЕДСТАВИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ ЗА БЮДЖЕТНЫМ ПРОЦЕССОМ

Аннотация

Статья посвящена понятию и особенностям контрольной деятельности местных представительных органов за бюджетным процессом. Освещены роль местных представительных органов в бюджетном контроле, обеспечении сохранности, эффективного использования средств, контрольной деятельности и личного участия.

Ключевые слова: Местные представительные органы, бюджетный процесс, контроль, государственная власть, права человека, всеобщая декларация, гражданские и политические права, законодательство, социально-экономическое развитие, право, публичные финансы.

Kirish. Bugungi kunda butun dunyoning ko'plab mamlakatlarida davlat hokimiyati institutlari faoliyatini demokratlashtirish va samaradorligini oshirishga bo'lgan ehtiyojlar tobora ortib borayotgan sharoitda mahalliy vakillik organlarining davlat moliyasining shakllanishi, taqsimlanishi va foydalanishi ustidan nazorat faoliyatini yanada takomillashtirish, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi mas'uliyatini yanada oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt, Demokratiya to'g'risidagi Umumjahon deklaratsiyasi, Mahalliy o'zini o'zi boshqarish to'g'risidagi Yevropa Xartiyasi, Hokimiyat va hududiy tuzilmalarning chegaraviy hamkorligi to'g'risidagi Yevropa doiraviy konvensiyasi, Mahalliy darajadagi jamiyat hayotida xorijliklarni ishtiroki to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi, Shaharsozlik Yevropa Xartiyasi, Jamiyat hayotida yoshlarning ishtiroki to'g'risidagi Xartiyaning qoidalarida vakillik hokimiyati rolini belgilash va oshirish masalalari milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosda demokratik-huquqiy taraqqiyotning eng dolzarb, birlamchi va universal shartlaridan biri ekanligi qayd etilgan.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda byudjet jarayoni qonunchiligini takomillashtirish, uning ochiqligi va shaffofligini oshirishning yangi tartib-taomillarini joriy etish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyev 2022 yildagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "Har bir deputat o'zining okrugidagi byudjet hisobidan bo'layotgan qurilishlar, yo'llarni har oyda borib ko'rsa, buyurtmachi va pudratchidan sifatni talab qilsa, bilasizlarmi, ahvol qanday o'zgaradi? Buning uchun sizlarda yetarli vakolat ham, shijoat ham bor" [1] deb ta'kidlagan edi. Shu bois, 2022-

2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida xalq deputatlari Kengashlarining mahalliy byudjetni shakllantirish va nazorat qilish bo'yicha mas'uliyatini kuchaytirish vazifasi qo'yildi. Qolaversa, tegishli mahalliy byudjetlarni ko'rib chiqish va qabul qilish, ularning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining vakolati sifatida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (122-modda) [2] ham belgilab qo'yildi. Ilk bor, "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan mahalliy byudjetlar xarajatlarini xalq deputatlari mahalliy Kengashlari tomonidan tasdiqlanishi belgilab qo'yildi. Shu ma'noda, mahalliy byudjet jarayonini nazorat qilish vakolatining xalq deputatlari Kengashlari tomonidan qanchalik darajada ta'sirchan va samarali amalga oshirilishi pirovard natijada hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda uchrayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga zamin yaratadi. Ushbu holat esa, o'z navbatida, bu borada yangi qonun hujjatlarini ishlab chiqish, mavjudlarini doimo takomillashtirib borishni taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023y.), «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida»gi (1994) [3], «Xalq deputatlari mahalliy kengashi deputatini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini va Senati a'zosini chaqirib olish to'g'risida»gi (2005) [4], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi (2017) [5], «O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi (2017) [6], «2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi

bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to'g'risida»gi (2018) farmonlari, «Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori (2017) va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni mazkur vazifalarning huquqiy asoslari belgilab berilgan deyish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mahalliy vakillik organlarining byudjet nazoratidagi huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonuni hamda «Davlat byudjeti to'g'risida»gi Qonunida mahalliy kengashlarning byudjet siyosatini tasdiqlash, ijrosini muhokama qilish va nazorat qilish vakolatlarini belgilab qo'yilgan. Ushbu vakolatlar quyidagilardan iborat:

mahalliy byudjet loyihasini ko'rib chiqish va tasdiqlash;

byudjet ijrosining choraklik yoki yillik hisobotini tinglash;

byudjet ijrosida aniqlangan qonunbuzarliklar yuzasidan tegishli chora ko'rishni tavsiya qilish.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda belgilangan maqsad va vazifalarni bajarish jarayonida ilmiy-metodik manbalarni o'rganish va tahlil qilish, sotsiologik so'rovnomalar, pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik usullaridan foydalanilgan. Mamlakatimizda xalq deputatlari mahalliy Kengashlari, ulardagi siyosiy partiyalar guruhlarini, doimiy komissiyalari va boshqa tuzilmalarining ijro hokimiyati organlarining mahalliy byudjet jarayonidagi ishtirokini nazorat qilish borasidagi ta'sirini yanada kuchaytirish, mahalliy byudjetni ko'rib chiqish, muhokama qilish va tasdiqlash faoliyatini takomillashtirish, mahalliy byudjet yuzasidan tegishli rahbarlarning hisoboti va axborotlarini xalq deputatlari Kengashlari majlisi muhokamasiga kiritish tartibini takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tahlil va natijalar. Xususan, 2020 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining byudjet sohasidagi vakolatlarini kengaytirish, byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning mas'uliyatini yanada oshirish, mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish va mablag'laridan foydalanishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining erkinligini ta'minlashga qaratilgan yangi byudjet tizimi joriy etildi. Xususan, mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatiga bevosita bog'liq bo'lgan hamda to'liq mahalliy byudjetlar ixtiyorida qoldiriladigan daromad turlari

kengaytirildi. Shuningdek, byudjet mablag'larining bir qismini jamoatchilik fikri asosida yo'naltirish tizimi mutlaqo takomillashtirildi, tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlarida fuqarolarning faolligi yildan-yilga ortib bormoqda. 2023 yildan boshlab yana bir muhim institut – «Mahalla byudjeti» tizimining joriy etilishi esa mahallalarda yillar davomida to'planib qolgan muammolarni joyida hal etish imkoniyatini oshiradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, mahalliy byudjetlar mavqeini yanada oshirish byudjet siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil bo'lganligi bois uni muntazam ravishda qo'llab-quvvatlashga harakat qilinmoqda. Bu esa, amalga oshirilayotgan islohotlar, hayotdagi o'zgarishlar mahalliy vakillik organlari deputatlari mas'uliyatini yanada oshirib, hududlarda islohotlarning samarali amalga oshirilishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birgalikda, navbatdagi yil uchun mahalliy byudjet loyihasini ko'rib chiqish va qabul qilish, ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni har chorakda muhokama qilish va tasdiqlash, mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarini qonun hujjatlarida o'rnatilgan miqdorlar doirasida belgilash, mahalliy byudjetlardan ajratilayotgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan moliyaviy nazoratni tartibga solish hamda byudjet intizomini kuchaytirish kabi vazifalar mahalliy vakillik organlaridan jiddiy mas'uliyat talab etadi. Shunday ekan, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari mahalliy byudjet jarayonida mas'uliyatni his etgan holda byudjet taqsimotida faol va hushyor bo'lishlari lozim.

Ayni shu jihatdan ham Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida ortirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan «O'zbekiston – 2030» strategiyasida barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish; xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatimizning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash, kabi asosiy g'oyalar ilgari surildi.

Ushbu g'oyalar asosida mamlakatimizni isloh etishda milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizni saqlashga, xalqimizning asrlar davomida shakllangan mentalitetiga hurmat bilan munosabatda bo'lishga alohida e'tibor berildi. Bunda zamonaviy demokratik davlat qurishning o'zini oqlagan jahon tajribasini chuqur o'rganish ham alohida ahamiyat kasb etdi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 2022 yil 20 dekabr kunidagi ma'ruzasi.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent.: O'zbekiston, 2023 y.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 05.05.1994 yildagi 1050-XII-son). - Toshkent. www.lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.12.2004 yildagi 704-II-son). - Toshkent. www.lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son). – Toshkent. www.lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.09.2017 yildagi PF-5185-son). – Toshkent. www.lex.uz.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi PF-5308-son «2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to'g'risida»gi Farmoni.
8. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 44 b.; 159 b.; 161 b.



UO'K: 001.32:001.891:1(092)

Sarvar OCHILOV,
O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: sarvarocilov45@gmail.com

O'zXIA dotsenti, PhD R.Isakdjanov taqrizi asosida

HAZRAT ALINING ILM FAZILATI VA ILM EGALLASH HAQIDAGI FIKRLARI

Annotatsiya

Maqolada xulafoi roshidinning to'rtinchisi Hazrat Ali ibn Abu Tolibning ilm fazilati va ilm egallash haqidagi fikrlari tahlil qilingan. Bunda Hazrat Ali devonida o'z ifodasini topgan ilm ahli, ya'ni olimlarning fazl yoki fazilat egalari ekanligi, odamlarni to'g'ri yo'lga boshlashlari, ilmning boylikdan afzalligi, ilm egallash uchun zarur bo'lgan olti omil, so'rab o'rganishning ilm egallashdagi ahamiyati, ilmning kishiga ziynat ekanligi to'g'risidagi fikrlar ko'rib chiqilgan. Bu fikrlarni asoslash uchun Qur'oni karim oyatlari, hadislar, mutafakkirlar va olimlar fikrlariga murojaat qilingan.

Kalit so'zlar: Hazrat Ali, oyat va hadislar, ilm, jaholat, ilm fazilati, olimlar, johillar, boylik, fazl egalari, ilm egallash.

ВЗГЛЯДЫ ИМАМА АЛИ О ДОСТОИНСТВЕ И ПРИОБРЕТЕНИИ ЗНАНИЙ

Аннотация

В статье анализируются взгляды Имама Али ибн Абу Талиба, четвертого из праведных халифов, на достоинство и приобретение знаний. В ней рассматриваются идеи, высказанные в диване Имама Али, о достоинствах ученых, о направлении людей по истинному пути, о превосходстве знания над богатством, о шести факторах, необходимых для приобретения знаний, о значении опроса в приобретении знаний и о том, что знание украшение человека. Для обоснования этих идей применялись ссылки на аяты Священного Корана, хадисы, мнения мыслителей и ученых.

Ключевые слова: Имам Али, аяты и хадисы, знание, невежество, достоинство знания, ученые, невежественные люди, богатство, обладатели достоинств, приобретение знаний.

VIEWS OF IMAM ALI ON THE DIGNITY AND ACQUISITION OF KNOWLEDGE

Annotation

This article analyzes the views of Imam Ali ibn Abi Talib, the fourth of the Rightly Guided Caliphs, on the dignity and acquisition of knowledge. It examines the ideas expressed in Imam Ali's Diwan regarding the virtues of scholars, guiding people on the true path, the superiority of knowledge over wealth, the six factors necessary for acquiring knowledge, the importance of questioning in acquiring knowledge, and the idea that knowledge is an adornment for a person. The article supports these ideas with references to verses from the Holy Quran, Hadiths, and the opinions of philosophers and scholars.

Key words: Imam Ali, verses and Hadiths, knowledge, ignorance, dignity of knowledge, scholars, ignorant people, wealth, people of virtue, acquisition of knowledge.

Kirish. Hazrat Ali ibn Abu Tolib iste'dodli, qobiliyatli, o'ta zukko, donishmand, zehni, kishilarning dillaridagi yashirin sirlarni ham anglab etish darajasida fahm-farosatli inson bo'lgan. Hazrat Alining bu fazilatlarini, yoshligidan Qur'oni karim muhitida, islomiy muhitda o'sganligi, Muhammad payg'ambar o'gitlaridan bahramand bo'lganligi uning ilm egasi bo'lib yetishishiga imkon yaratdi. Rasululloh bir hadislarida *أنا مدينة العلم وعلي بابها فمن أراد العلم فليأت الباب* «Men ilm shahriman, Ali esa uning darvozasidir. Kim ilmni istasa, darvozasidan kelsin» [1] deb, Hazrat Alining ilmiga yuksak baho bergan edilar. Haqiqatan ham, Hazrat Ali islom davri ilmning boshlanishi, Payg'ambarimiz ta'biri bilan aytganda, «ilm shahrining darvozasi» bo'la oldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hazrat Alining ilm fazilati va ilm egallash haqidagi fikrlarini yoritish uchun Hazrat Ali devoniga murojaat qilingan. Hazrat Alining bu boradagi fikrlarini tahlil qilish uchun Qur'oni karim oyatlari va hadislariga, Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliyning "Ihyoi ulumid din", Ali ibn Muhammad Sharif al-Jurjoniyning "Kitob at-Ta'rifot" asarlaridagi fikrlarga asoslanilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni yoritishda ilmiy bilishning obyektivlik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Hazrat Ali ilmning qadriga yetar edi. Shuning uchun ham u she'rlarida ilm va uning fazilati haqida so'z yuritdi. Hazrat Ali bir she'rida ilm va jaholat haqida shunday dedi:

"Jaholatda bo'lish johillar uchun o'limdan burungi o'limdir. Johillarning tanalari qabrga kirmasidan burun qabrga aylanadi.

Ilmi bilan hayot bo'lmagan kishi o'likdir. U (qiyomatda) tirilguniga qadar o'lik bo'ladi" [2].

Bu she'riy satrlar mazmunidan ko'rinadiki, Hazrat Ali jaholatni o'limdan burungi o'lim deb ta'riflayapti. Zero, jaholat dilni o'ldiradi, insonni haqiqatdan yiroqlashtiradi, halokat sari etaklaydi. Shu bilan birga, Hazrat Ali ilmning kishi va boshqa insonlar uchun foydali bo'lishi, buning natijasida kishi insonlar yodida yashab qolishi kerakligini ta'kidlayapti. Aks holda uning ilmi o'ziga qo'shilib ko'milib ketishi mumkin.

Yuqoridagi kabi fikrni mashhur sufiy Fath al-Mo'suliy (vaf. 130/747) ham aytgan. "Fath al-Mo'suliy rahimahulloh (atrofidagilardan) so'radi: "Agarda bemorni taom, ichimlik va dorilardan mahrum qilinsa, u o'lmaydimi?" Unga: "Ha, albatta, o'ladi", deb javob berishdi. U: "Shuningdek, qalb ham donishmandlik va ilmdan mahrum qilinsa, uch kundan so'ng o'ladi", dedi. U haqiqatni aytdi. Darhaqiqat, taom tana uchun ozuqa bo'lganidek, ilm va donishmandlik qalb ozig'i bo'ladi, uning hayoti ularga asoslanadi. Ilmdan mahrum bo'lgan kishining qalbi xastalangan, u albatta o'ladi. Faqat u buni sezmaydi. Chunki dunyo hayotiga bo'lgan muhabbat va u bilan mashg'ul bo'lish uni his-tuyg'udan mahrum qiladi. Bu kuchli qo'rquv jarohatdagi og'riq hissini, og'riq haqiqatda bo'lsa ham, darhol to'xtatgani kabidir" [4]. Yuqorida bildirilgan fikrlardan bilimsizlik yoki jaholat kishining qalbini o'ldirishi, qalbi bo'lgan odam esa o'lik maqomida bo'lishi ma'nosi anglashilgan.

Hazrat Ali yana bir she'rida shunday dedi:

"Fazl ilm ahligagina xosdir. Ular to'g'ri yo'l izlaganlarni to'g'ri yo'lga boshlaydilar.

Har bir kishining bilmagani uning raqibidir. Johillar ilm ahliga g'animdir.

Ilm ol va uning o'rniga boshqa narsa xohlama. Zero, odamlar o'ladilar, ilm ahli esa o'lmaslar" [2].

Hazrat Ali bu satrlarda ilm fazilati haqida so'z yuritgan. U ilm ahlini, ya'ni olimlarni fazl yoki fazilat egalari, deb hisoblaydi. Chunki olimlar ilm bilan shug'ullanishlari natijasida mulohazakorlik, sabr-toqat, bilim doirasining kengligi kabi fazilatlarini o'zlarida mujassamlashtiradilar. Ular narsa va hodisalarning hamda hayotning haqiqatini anglab yetadilar, ilmlari tufayli to'g'ri yo'lni noto'g'risidan ajrata oladilar va odamlarni to'g'ri yo'lga boshlaydilar. Lekin inson uchun umri davomida orttirgan hayotiy bilimi eng foydali bilim sanaladi. Chunki u shu bilimiga tayanib, hayot so'qmog'idan imkoni boricha qoqilmay yurib boradi. Ammo insonning bilmagani uning hayotda qoqilishiga sabab bo'ladi va bu bilmagani uning o'ziga raqib bo'ladi. Biz yuqorida olimlarning odamlarni to'g'ri yo'lga boshlashi haqida gapirgan edik. Johillar esa har doim ilm ahli yo'lga g'ov bo'lib kelganlar, ularga qarshilik qilganlar. Chunki ular johilliklari tufayli boshqalarni ham jaholatda tutishga harakat qilganlar. Shu sababli ular ilm ahliga g'anim bo'lganlar. Lekin ilm fazilatini anglagan insonlar doimo ilm egallaganlar, o'zlarini ilmga bag'ishlaganlar. Shuning uchun ham ilm fidoyilari ichidan ko'plab allomalar yetishib chiqdilar. Ularning nomlari mana hozirgacha hurmat bilan tilga olinadi. Zero, Hazrat Ali aytganidek, «odamlar o'ladilar, ilm ahli esa o'lmaslar».

Qur'oni karimda ilm ahlining fazl egalari ekanligi haqidagi oyati karimalar mavjud. Jumladan, Alloh taolo shunday deydi:

“Alloh sizlardan imon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba)larga ko'tarur” [5]. Mashhur sahobiy Abdulloh ibn Abbos bu oyat borasida shunday degan: “Alloh olimlarga imon keltirganlardan yetti yuz daraja yuqori martaba ato qiladi va ikki daraja o'rtasidagi masofa yayov yurganda besh yuz yildir” [4].

Alloh taolo boshqa bir oyati karimada shunday degan: “Aytin: “Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo'lurmi?!” [5] Bu oyati karimada biladiganlar, ya'ni olimlar bilan bilmaydiganlar, ya'ni johillar teng bo'lmasligi, olimlar fazl egalari ekanligi nazarda tutilgan.

Olimlarning fazl egalari ekanligi hadisi shariflarda ham o'z ifodasini topgan. Rasululloh shunday deganlar: “Alloh kimga yaxshilikni iroda qilsa, uni dinda faqih (teran anglovchi) qilib qo'yadi va unga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi” [6]. Demak, dinda faqih (teran anglovchi) bo'lish Allohning bandaga ato qilgan yaxshiligidir, bunday bandaga Alloh to'g'ri yo'lni ko'rsatadi. Bu banda o'zi to'g'ri yo'lga yurishi barobarida boshqalarni ham to'g'ri yo'lga boshlaydi.

Shuningdek, olimlarning fazl egalari ekanligi to'g'risidagi quyidagi hadisi shariflar ham mavjud: “Darhaqiqat, donishmandlik olijanob kishining sharafini ziyoda qiladi va qulni podshohlar darajasigacha ko'taradi”, “Odamlarning eng yaxshisi agar (boshqalar) muhtoj bo'lishsa, (ularga) foyda keltiradigan, behojat bo'lishsa, o'ziga foyda beradigan imonli olimdir”, “Payg'ambarlik darajasiga eng yaqin odamlar olimlar va jihod ahlidir. Olimlar payg'ambarlar keltirgan narsa (shariatga) odamlarni yo'naltiradilar. Jihod ahli esa, payg'ambarlar keltirgan narsa (shariat) himoyasi uchun qilichlari bilan jang qiladilar”, “Ummatimda (odamlarning) ikki turi borki, agar ular yaxshi bo'lsa, odamlar yaxshi bo'ladi, buzilsa, odamlar ham buziladi. Ular boshliqlar va faqihlardir” [6].

Shu o'rinda quyidagi fikr ibratlidir. “Ba'zi bir donishmandlar aytishgan: “Agar olim o'lsa, dengizdagi baliqlar, samodagi qushlar uning uchun aza tutib yig'laydi. Uning yuzi yo'q bo'ladi, lekin u haqdagi xotira saqlanib qoladi” [4]. Ushbu fikrdan anglashiladiki, olimlar o'z ilmlari tufayli insoniyatga foyda keltiradilar, odamlarning e'tiborini qozonadilar. Shuning uchun ular o'lsalarda, odamlar xotirasida yashab qoladilar. Demak, bu fikr Hazrat Alining “odamlar o'ladilar, ilm ahli esa o'lmaslar” degan fikriga hamohangdir.

Hazrat Alining ilm fazilati haqida yana shunday she'riy satrlari mavjud:

“Biz qudratli Zot (Alloh) (belgilagan) qismatga rozimiz. Bizga ilm, johillarga boylik (bo'la qolsin).

Boylik tez orada yo'q bo'lib ketadi. Ilm esa qoladi, yo'q bo'lib ketmaydi” [2].

Bu satrlardan ko'rinadiki, Hazrat Ali ilmni boylikdan ustun qo'yyapti. Uning fikricha, oqillar ilmni afzal biladilar. Chunki egallangan ilm kishining miyasida o'rashib qoladi, yo'q bo'lib ketmaydi. Kishi o'rgangan sayin uning ilmi ortib boradi, lekin kamaymaydi. Ilmni bitmas-tuganmas xazina deyish mumkin. Johillar esa oqillardan farqli ravishda boylikni afzal biladilar. Lekin boylik kishi qo'lida omonatdir, erta-indin yo'q bo'lib ketishi mumkin. U kishiga bevafoqdir, bugun bor, ertaga yo'q. Demak, shu jihatdan ilm boylikdan afzaldir.

Hazrat Ali yuqoridagi fikriga qo'shimcha ravishda quyidagi fikrni ifodalagan. “Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu Kumaylga dedi: “Ey Kumayl, ilm boylikdan ko'ra afzaldir: ilm seni qo'riqlaydi, sen esa boylikni qo'riqlaysan, ilm – hokim, boylik esa unga tobedir, sarf-xarajatlar boylikni kamaytiradi, ilm esa (uni) sarflash orqali ko'payadi” [4].

Hazrat Ali ilm fazilati haqida fikr bildirgach, ilm egallash haqida so'z yuritdi. Shu o'rinda uning quyidagi she'riy satrlari ahamiyatlidir:

“Ilmni faqat olti (omil) orqali egallaysan. Men senga ular haqida ochiq-oydin xabar berayin.

(Bular) aql-zakovat, katta ishtiyok, sabr-toqat, (bilim) yetariligi, ustoz ko'rsatmasi va uzoq vaqtdir” [2].

Bu satrlarni tahlil qiladigan bo'lsak, Hazrat Ali ilm egallash uchun zarur bo'lgan olti omilni sanab ko'rsatdi, ularni muayyan ketma-ketlikda keltirdi. Bu omillarni ko'rib chiqsak. Hazrat Ali ilm egallash uchun avvalo aql-zakovatning bo'lishini shart qilib qo'ydi. Zero, aql-zakovat egalorigina ilm egallay oladilar. Chunki ilm kishidan aql yuritishni talab qiladi. Aql-zakovat bo'lsa, ilm egallash uchun zarur ikkinchi omil katta ishtiyodir. Chunki ilm egallash uchun kishining o'zida katta ishtiyok bo'lsa, u ilm yo'lidagi qiyinchiliklarga qaramay, g'ayrat bilan ishga kirishadi. Agar kishida aql-zakovat hamda katta ishtiyok bo'lsa, u ilm yo'lga dadil kiradi. Lekin u bu yo'lda qiyinchiliklarga duch keladi, chunki ilm egallash xalqimiz aytganidek, «igna bilan quduq qazish» degani. Shuning uchun shunday vaziyatda kishiga Hazrat Ali aytgan uchinchi omil – sabr-toqat kerak bo'ladi. Yuqoridagi uch omil birlashsa, kishi g'ayrat bilan ilm egallaydi. U o'zidan oldingi olimlarning fikrlarini o'rganadi, manbalar ustida ishlaydi va kishida yetarli bilim hosil bo'ladi. Shu yetarli bilim natijasida kishi shaxsiy ilmiy xulosalar chiqaradi. So'ng u olgan bilimni umumlashtirib, shaxsiy ilmiy xulosalariga asoslangan holda ularni bir risola holiga keltiradi. Demak, bilimning yetariligi ilm egallash uchun zarur bo'lgan to'rtinchi omil bo'la oladi. Endi ilm yo'lga kirgan kishi ustoz ko'rsatmasiga ehtiyoj sezadi. Xalqimiz «ustoz ko'rmagan shogird har nag'maga yo'rg'alar», deb bejiz aytmagan. Ustozi unga ko'rsatmalar berib turadi, uni to'g'ri yo'lga yo'naltiradi. Lekin kishi yuqoridagi omillarning barchasiga ega bo'lgani bilan darrov olim bo'lib qolmaydi. U ko'p o'qib o'rganishi, izlanishlar olib borishi kerak bo'ladi. Bu esa uzoq vaqtin talab qiladi. Ko'rib chiqilgan she'riy satrlar tahlilidan ko'rinadiki, Hazrat Ali o'ta zukko va donishmand odam bo'lgan. U islom dunyosida ilm endi shakllanayotgan bir paytda ilm egallash uchun zarur bo'ladigan omillarni aniq ko'rsatib bergan edi. U ko'rsatib bergan bu omillar mana bugungacha o'z ahamiyatini yo'qotmay kelyapti. Zero, ilm yo'lga qadam qo'yan har bir tolibi ilmida yuqorida zikr etilgan omillar mujassam bo'lsa, ular olimlik rutbasiga sazovor bo'ladilar.

Hazrat Alining ilm egallash haqidagi quyidagi satri ham e'tiborga molik:

“Agar (biror bir) ilmni bilmasang va uni biladigan (kishi)dan so'rab olmasang, bilmaydigan johil bo'lib qolasan” [3].

Ko'rinib turibdiki, bu satrda so'rab o'rganishning ilm egallashdagi ahamiyati ko'rsatilyapti. Ilm egallashda so'rab o'rganishning ahamiyati quyidagi oyati karimada o'z ifodasini topgan: “Agar (bu haqda) bilmaydigan bo'lsangiz, ahli zikrlardan (ya'ni Tavrot va Injilni biladiganlardan) so'rangiz!” [5]

Payg'ambarimiz hadislarda ham bu borada fikrlar bildirilgan: “Ilm xazinalardir, ularning kalitlari savoldir. So'rangiz, chunki bunda to'rt kishi ajr oladi: so'rovchi, olim, eshituvchi va ularni yaxshi ko'ruvchi”, “Bilimsiz odam bilmasligi tufayli sukut saqlamasligi kerak. Olim esa o'z ilmini yashirmasligi zarur” [6]. Yuqoridagi hadislardan ko'rinadiki, ilm xazinalarining kalitlari savoldir, so'rab o'rganish orqali kishiga ilm

xazinalarining eshiklari ochiladi. Kishi biror masala yuzasidan savol bersa, olim unga shu masalani tushuntirib beradi, buni eshitgan odam manfaat ko'radi. Demak, bu o'rinda savol bergan, olim, eshitgan va ularni yaxshi ko'rgan ham birday ajrga sazovor bo'ladi. Ikkinchi hadisda bilimsiz odamning bilimsizligiga rozi bo'lmasligi aytilmoqda. Bunday odam sukut qilmasligi, bilmaganini so'rab o'rganishi, bilimli bo'lishga harakat qilishi kerak. Olim esa ilmini yashirmasdan uni boshqalarga o'rgatishi zarur.

Buyuk bobokalon shoirimiz Alisher Navoiy ham quyidagi satrlarda so'rab o'rganish haqida o'z fikrini ifodalagan:

Bilmaganni so'rab o'rgangan olim,
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

Hazrat Ali ilm egallash haqida yana shunday dedi:

“Ilm ziynatdir. Toki hayotsan, ilm o'rgan, egalla.

Allohga ishonib, ilmga beril, u bilan mashg'ul bo'l. Sabr-toqatli, og'ir-vazmin, ehtiyotkor bo'l.

Agar bir kun ilmga butunlay berilib, sho'ng'ib ketsang ham bunga ishonma.

Dindan bahramand bo'lib, chin taqvodor bo'l va muttasil ilm o'rgan.

Kimda kim odob-xloq qoidalariga rioya qilsa, boshqalar boshliqlikdan ketganda qavm boshlig'i bo'lib qoladi.

Bilsang, hidoyat topgur, ilm (kishiga) ajoyib bir bezakdir. Tolibi ilm uni afzalligidan yaxshi egallaydi” [2].

Hazrat Ali bu she'rida ilm fazilati haqida gapirarkan, kishilarni Allohga ishonib, diniy amallarni bajargan holda muttasil ilm o'rganishga, ya'ni ilm egallashni toat-ibodat bilan qo'shib olib borishga chaqiryapti. Shu bilan birga, u bir kunlik o'qib-o'rganishning kifoya qilmasligini, ilm yo'lida yillab mehnat qilish kerakligini uqtiryapti. Shuningdek, ilm yo'li mashaqqatli bo'lganidan sabr-toqatli bo'lish talab etiladi.

Ilmning kishiga bezak bo'lishi quyidagi rivoyatda ham ifodalangan: “Az-Zubayr ibn Abu Bakr hikoya qildi: “Otam Iroqda bo'lganlarida menga shunday deb yozdilar: “Sen ilm o'rganishga intil. Agar kambag'al bo'lib qolsang, ilm sen uchun boylik bo'ladi, boyib ketsang, u senga bezak bo'ladi” [4].

Ilm fazilati haqida Abu Homid G'azzoliy shunday fikrlarni bildirgan: “Shu nuqtai nazardan ilmga qarasang, uning o'z holicha yoqimli ekanini ko'rsan va u o'z holicha matlubdir. Sen uni oxirat va uning saodatiga yetishtiruvchi hamda Alloh taologa yaqin qiluvchi vosita sifatida topasan va Unga faqat u (ilm) orqali yetishish mumkin. Odam uchun darajada eng ulug' narsa abadiy saodatdir va eng yaxshi narsa unga yetishish vositasidir. Unga faqat ilm va amal orqaligina yetishish mumkin. Faqat qanday ish tutishni bilgachgina amalga erishish mumkin. Dunyo va oxiratda saodatning asosi – bu ilmdir, demak u eng yaxshi amaldir. Qanday ham shunday bo'lmasin, axir narsaning fazilatini ham uning samarasi sharofatidan bilasan! Sen ilm samarasi olamlar Rabbiga yaqinlashish, farishtalar darajasiga erishish va farishtalarga qiyoslanish ekanini bilding. Bu oxiratdadir.

Dunyoda esa, (ilm samarasi) – sha'n va ulug'vorlik, shohlar ustidan hukmronlik, fe'l-atvorda ehtirom zaruratidir. Hatto turklarning nodonlari va arablarning qo'pollari ham fe'l-atvorlarini tajribadan orttirilgan ko'p ilmi bilan ajralib turganlari tufayli oqsoqollarini hurmat qilish uchun tabiatan yaralgan deb topadilar. Hattoki hayvonlar tabiatlariga ko'ra insonning ular

darajasidan ortiq komillik bilan ulardan yuqori turishini his qilganlari uchun insonni hurmat qiladilar” [6].

Yuqorida bildirilgan fikrlardan ko'rinadiki, G'azzoliy ilmga oxirat va uning saodatiga yetishtiruvchi hamda Alloh taologa yaqin qiluvchi vosita sifatida qaragan. Uning nazdida oxirat saodati abadiy saodatdir va unga ilm va amal orqali yetishish mumkin. Demak, oxirat saodatiga yetishish uchun ilmning o'zi yetarli emas, bunda amal ham kerak bo'ladi. Bu yerda amal deganda islom dini ko'rsatmalariga amal qilish nazarda tutilgan. Shuningdek, dunyo va oxiratda saodatning asosi – ilmdir. Shu o'rinda G'azzoliy ilmning samarasi haqida gapirar ekan, oxiratda ilmning samarasi Yaratganga yaqinlashish va farishtalar darajasiga erishish ekanini aytdi. Dunyoda esa u ilm samarasini sha'n va ulug'vorlik, shohlar ustidan hukmronlik, hurmat-ehtiromga sazovorlikda ko'rgan. Bu bejiz emas. Chunki ilm insonning sha'nini yuksaltiradi, uni ulug'vor qiladi, olimlar o'z ilmlari sharofatidan hatto shohlarga ham ta'sir o'tkazadilar, doimo hurmat-ehtiromga sazovor bo'lib kelganlar. Shu bilan birga, G'azzoliy turklarning nodonlari va arablarning qo'pollari misolida hatto nodon hamda qo'pol odamlar ham olim insonlarni tajribadan orttirgan ilmlari tufayli hurmat qilishlarini, inson aqli va ilmi sharofatidan hayvonlardan ustun bo'lgani uchun ularning hurmatiga sazovorligini aytib o'tdi. Bundan ko'rinadiki, G'azzoliy inson uchun ilmning ahamiyatini yaxshi tushungan.

Shuningdek, XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan buyuk mutafakkir Sayyid Sharif Jurjoni ham ilm to'g'risida fikr bildirgan. U bu haqda shunday degan: “Ilm – bu voqelikka muvofiq qat'iy ishonchdir. Donishmandlar aytadiki, u aqlda narsa tasavvurining sodir bo'lishidir va birinchisi ikkinchisidan alohidadir. Aytildiki, ilm – bu undagi narsani idrok qilishdir. Yana aytildiki, sirlikning yo'qolishi ma'lum, jaholat uning ziddidir. Aytildiki, u ta'rifga behojatdir. Aytildiki, ilm umumiy hamda juz'iy jihatlar idrok qilinadigan puxta sifatdir. Aytildiki, ilm qalbning narsa ma'nosiga yetishishidir. Aytildiki, oqil va ma'qul o'rtasidagi maxsus qo'shimchadir, aytildiki, sifat egasi bo'lgan sifatdir” [7].

Sayyid Sharif Jurjoniying fikricha, ilm voqelikka muvofiq kelishi kerak. Shunda u ishonchli bo'ladi. Uning nazarida ilm narsa tasavvurining aqlda voqe bo'lishi va aqlda voqe bo'lgan narsani idrok qilishdir. Ilm orqali umumiy va juz'iy jihatlar idrok qilinadi. Jurjoni yana ilmi qalbning narsa ma'nosini anglab yetishi deb hisoblagan. Shuningdek, ilm oqil va ma'qul o'rtasida turadi. Jurjoni jaholatni ilmning ziddi deb bilgan. Shuning uchun jaholat ahli, ya'ni johillar ilm ahliga doimo qarshi bo'lganlar, ularga dushmanlik qilganlar. Bundan Jurjoni Hazrat Ali kabi johillarning ilm ahliga g'anim bo'lishini nazarda tutgan.

Xulosa va takliflar. Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, islom olamida ilmga katta ahamiyat qaratilgan. Shuning uchun ham Qur'oni karim va hadisi shariflarda ilm fazilati to'g'risidagi fikrlar o'z ifodasini topgan. Shuningdek, islom olimlari va mutafakkirlari ham bu borada qimmatli fikrlarni bildirganlar. Bunga Abu Homid G'azzoliy va Sayyid Sharif Jurjoniylar ilgari surgan fikrlar yorqin misol bo'la oladi. Qolaversa, Hazrat Ali she'riy satrlarida ilm fazilati, ilm egallash, olimlarning fazl egalari ekanligi, ilm egallash omillari haqidagi fikrlarni ifodalagan bo'lib, bu fikrlar bugungi kunda ham dolzarbdir va ularni o'rganish va targ'ib etish ma'naviyatimizni boyitishda katta ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Muhammad ibn Abdulloh al-Hokim an-Nisoburiy. Al-Mustadrak ala sahihayn. – Bayrut: Dor ul-kutubil-ilmiyya, 1990. 3-jild. – B. 138.
2. Divanu-l-imam Ali ibni Abi Talib (karramallohu vajjah). – Qohira: Dor al-kutub al-ilmiyya lin-nashr vat-tavzi', 1993. – 144 b.
3. Divanu-l-imam Ali ibni Abi Talib (roziyallohu anhu). Tahqiq ad-duktur Abdulmajid Humuv. – Bayrut: Dor Sodir, 1431 h. – 2010 m. – 414 b.
4. Абу Хамид Мухаммад аль-Газали ат-Туси. «Ихйа улум ад-дин» (Возрождение религиозных наук). Том I. – М.: Издательский дом «Нуруль Иршад», 2007. – 585 с.
5. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Tarjima va tafsir muallifi: Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2018. – 624 b.
6. Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy. Ihyou ulumid din. – Bayrut: Doru ibn Hazm, 1426 h. – 2005 m.
7. Fozil alloma Ali ibn Muhammad Sharif al-Jurjoni. Kitob at-Ta'rifot. – Bayrut: Maktabatu Lubnon, 1985. – B. 160–161.



UDK:159.9

Asror RAJABBOYEV,
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: asror@urdu.uz

Ma'mun universiteti dotsenti, PhD K.Bekchanova taqrizi asosida

PARENTING DIFFICULT ADOLESCENTS AND THEIR PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS

Annotation

This article analyzes the psychological characteristics of adolescence, the education of "difficult" adolescents and their psychological classification, the individual pathways through which the education of "difficulties" passes in social institutions, self-condemning behavior in adolescents and its classifications, types of condemning behavior, conditional groups based on typological features of "difficult" adolescents, and methods of studying the education of "difficult" adolescents.

Key words: Adolescence, pubertal period, education of "difficult" adolescents, social institutions, self-condemning behavior, desadaptation, depressive state, unruly or unsubstantiated adolescents, capricious nature of adolescents.

ВОСПИТАНИЕ ТРУДНЫХ ПОДРОСТКОВ И ИХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

Аннотация

В данной статье анализируются психологические особенности подросткового возраста, воспитание «трудных» подростков и их психологическая классификация, индивидуальные пути воспитания «трудности», проходящие через социальные институты, самоуничижительное поведение подростков и его классификации, типы осуждающего поведения, условные группы «трудных» подростков по их типологическим особенностям и методы изучения воспитания «трудных» подростков.

Ключевые слова: Подростковый возраст, пубертатный период, воспитание «трудных» подростков, социальные институты, самоуничижительное поведение, дезадаптация, депрессивное состояние, непокорные или необоснованные подростки, капризный характер подростков.

TARBIYASI "QIYIN" O'SMIRLAR VA ULARNING PSIXOLOGIK TAVSIFI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'smirlar yoshining psixologik xususiyatlari, tarbiyasi "qiyin" o'smirlarning va ularning psixologik tasnifi, tarbiyasi "qiyinlik"ni ijtimoiy institutlar orqali o'tadigan individual yo'llari, o'smirlarda o'zini o'zi mahkum qiluvchi xulq-atvor va uning tasniflari, mahkum qiluvchi xulq-atvor tiplari, tarbiyasi "qiyin" o'smirlarni tipologik xususiyatlariga ko'ra shartli guruhlari bo'linishi hamda tarbiyasi "qiyin" o'smirlarni o'rganish usullari to'g'risidagi nazariy ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'smirlar yoshi, pubertat davri, tarbiyasi "qiyin" o'smirlar, ijtimoiy institutlar, o'zini o'zi mahkum qiluvchi xulq-atvor, dezadaptatsiya, depressiv holat, orsizlar yoki subutsizlar, injiq tabiatli o'smirlar.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim jarayonida tarbiyasi "qiyin" o'smirlar iborasi tez-tez uchraydi. Biz tarbiyasi "qiyin" o'smirlar fenomenlarining ayrim jihatlari yoritishga harakat qilamiz. Ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'smirlar davrida ular tomonidan sodir etiladigan har qanday xatti-harakat aktlari: aksilijtimoiy xulq-atvor, pedagogik qarovsizlik, moslasha olmaydigan xulq, axloqsiz xulq, deviant xulq, autodestruktiv (o'zini o'zi fosh qilish) xulq va hokazolar o'tish davrining o'ziga xos odat tusiga qirib qolgan tartib shakli sifatida tan olinadi [6].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ko'pgina adabiyotlar tahliliga ko'ra, IQ (intellekt)ning ko'rsatkich darajasi qanchalik past bo'lsa, tarbiyasi "qiyin"lik darajasi shunchalik yuqori ko'rsatkichga ega. Shu sababli IQ (intellekt) tarbiyasi "qiyin"lik ko'rsatkichi sifatida ma'lum darajada ijtimoiy ma'no kasb etuvchi psixologik jarayon bilan aloqador [2].

Agar o'smirlar yoshining klassik tadqiqotlariga nazar soladigan bo'lsak, unda turli xil nazariyalar, farazlar va fundamental izlanishlar borligini ko'rish mumkin. O'smirlar yoshiga xos yorqin psixologik konsepsiyalardan biri XX asrning boshlarida L.S. Vigotskiy tomonidan yaratilgan madaniy-tarixiy nazariya bo'lib, unda o'smirlar psixologiyasidagi barqaror va tarixiy o'zgaruvchanlik, uning fenomenlariga oid ilmiy konsepsiyalarning interpretatsiyasi berilgan [3].

Tadqiqot metodologiyasi. O'smirlar davrining yirik tadqiqotchilaridan yana biri – nemis faylasufi va psixologi E. Shpranger o'smirlar yoshi qizlarda 14-21, o'g'il bolalarda 13-19 yoshlargacha davom etishini, uning birinchi bosqichi 14-17 yoshlarga to'g'ri kelib, bu yoshda bolalikdan qutulish sodir bo'lishini ta'kidlaydi [5].

O'smirlar yoshini "pubertat davri" deb atagan Sh. Byuler ishlarida ushbu davrning biologik mohiyati ochib berilgan.

Pubertat davri biologik o'sish davri hisoblanib, jinsiy yetilish o'z nihoyasiga yetadi, ammo jismoniy rivojlanish davom etadi. U pubertat davrni ikkiga: psixik va jismoniy davrlarga ajratadi. O'smirlar yetilishiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki qo'zg'atuvchilar undagi o'zidan o'zi qoniqish va xotirjamlikni izdan chiqarib, uni o'ziga jinsni qidirishga undaydi. Biologik yetilish o'smirlarni izlanuvchan qilib qo'yadi va uning «men»ida «u» bilan uchrashish istagi tug'iladi.

Sh. Byuler psixik pubertatlikni tanadan farqlashga harakat qiladi. Uning fikricha, jismoniy yetilish o'g'il bolalarda o'rtacha 14-16, qiz bolalarda esa 13-15 yoshlarga to'g'ri keladi. Albatta, bunday farqlashlarda shahar va qishloq, alohida mamlakatlar va hatto iqlimning ta'siri ham hisobga olinadi. Pubertatlikning quyi chegarasi 10-11 yosh, yuqori chegarasi 18 yosh bo'lishi kerak. Shu ma'noda o'smirlar yoshi dunyoqarash, e'tiqod, nuqtai nazar, prinsip, o'zligini anglash, baholash va hokazolar shakllanadigan davr hisoblanadi.

Kichik maktab yoshidagi bola kattalarning ko'rsatmalari yoki o'zining tasodifiy, beixtiyor orzu-istaklari bilan harakat qilsa, o'smirlar o'z faoliyatini muayyan prinsip, e'tiqod va shaxsiy nuqtai nazar asosida tashkil qila boshlaydi.

O'smirlar yoshining psixologik xususiyatlari alohida namoyon bo'lganda ular "o'smirlar kompleks" va uning kechishi bilan bog'liq tarzda xulq-atvor buzilishi – "pubertat inqiroz" degan nom oladi.

Tarbiyasi "qiyin" o'smirlarning o'zligini anglashda "Men" timsoli alohida o'rin tutadi. Tarbiyasi "qiyin"likning vujudga kelishi va uning kechishini subyekt tomonidan anglanishi ular bilan olib boriladigan psixoprofilaktik, psixodiagnostik, psixokorreksion ishlarining samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [1]. Psixolog, psixoterapevt va, umuman, ta'lim - tarbiya ishlariga

mas'ul xodimlarning barchasi tarbiyasi "qiyin" o'smirlar xulq-atvorining ijtimoiy me'yorlarga moslashuvi yoki moslasha olmaslik strategiyasi o'smir shaxsining himoyaviy-moslashuv mexanizmini aks ettirishini hisobga olishlari zarur.

Tarbiyasi "qiyin" o'smirlarning ijtimoiy institutlar orqali o'tadigan individual yo'li:

1. Ota-ona:

nomaqbul ijtimoiy nufuz;
yomon maishiy sharoitlarda yashash;
ijtimoiy rejaniy yo'qligi;
farzandlarining kelajagiga umidsizlik;
ota-onalik majburiyatlariga mas'uliyatsizlik;
shakllanmagan va ta'sir ko'rsata olmaydigan muhit.

2. Ular bilan yonma-yon yashovchilar (qo'ni-qo'shnilar, mahalla ahli):

qarovsiz uy-joy sharoiti;
omadsizlik va tashkil topmagan ichki madaniyat;
ko'cha bolalari;

3. Bolalar:

salbiy ijtimoiy ko'nikmalar va shakllanmagan xulq-atvor;
ta'limda bilimning yetishmasligi va intellektning sustligi;
ta'lim berishda bilimdonlikning yetishmasligi;
ijtimoiy aloqalarning yetishmasligi;
ijtimoiy umidsizlik;
o'zini o'zi baholashning pastligi.

5. Tengqurlar guruhi:

delikvent ko'nikma va munosabatni o'rnatish;
tengqurlar orasidagi nufuz;
o'zini o'zi baholashning tiklanishi va qaytarilgan

qadriyatlar;

deviant xulqning yuqori tavakkalchiligi.

6. Huquq tashkilotlari bilan jamoatchilik o'rtasidagi aloqaning o'rnatilishi:

sigmatizatsiya;
ijtimoiy rejalarining pasayishi.

7. Mehnat bozori:

ishsizlik yoki doimiy ishning yo'qligi;
kam daromad;
sust ijtimoiy qiymatlilik.

8. Ular ota-ona bo'lishadi:

ular nomaqbul ijtimoiy yo'lni bosib o'tishgan;
yomon maishiy sharoitlarda yashashda davom etadi [4].

Ko'rinib turibdiki, tarbiyalanganlik va tarbiyasi "qiyin"likning ko'rsatkich darajalari keng ijtimoiy doirada hal qilinishi zarur.

Ichki ishlar idoralari faoliyatida esa qonunni buzishi yoki qoidaga xilof ish qilishi darajasiga qarab tarbiyasi "qiyin" o'smirlar jinoiy qonunbuzar va oddiy qoidabuzar (tartibbuzar) guruhlarga ajratiladi [5].

Shaxsning biologik o'sishidagi nuqsonlar, sezgi va irodalarining kamchiliklari, o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentdagi qusurlar tarbiyasi "qiyin"larni keltirib chiqaradi.

Shaxsning ijobiy fazilatlarini tarkib topishida axloqiy sifatning yetishmasligi, o'qituvchi, sinf jamoasi, oila-a'zolari bilan noto'g'ri muloqot, ishyoqmaslik, bo'sh vaqtning to'g'ri taqsimlanishiga va boshqalar salbiy ta'sir ko'rsatadi [4].

Ma'lumki, shaxsning shakllanishi dinamik xususiyatga ega. Shuning uchun uning rivojlanishida goho ilgari ketish, goho taraqqiyotdan orqada qolib ketish holatlari kuzatiladi. Oqibatda, ba'zan o'smirlarning xatti-harakatlarida o'zini o'zi mahkum qiluvchanlik belgilari namoyon bo'lishi kuzatiladi. Ular o'zlarining jismoniy va ruhiy salomatliklari bilan bog'liq xotirjamlikning qadriga yetmaydilar, turli jismoniy shikastlanishlar, ruhiy tushkunliklar natijasi o'laroq o'z istiqbol rejalarini tuza olmaydilar, xuddi shu bois, o'zlarining ijtimoiy mavqelariga putur yetkazadilar. Xulq-atvordagi og'ishlarning ham ma'nan, ham jismonan tanazzuli ular turmush tarzining nosog'lom kechishiga, ularni alkogolizm va narkomaniya illatlari sari yetaklaydi, ba'zan suisidal (o'zini o'zi o'ldirish) holatiga olib keladi.

Tahlil va natijalar. Biz o'zini o'zi mahkum qiluvchi xulq-atvor deganda, nafaqat organizmning jismonan nosog'lomligi, balki o'smir shaxsi rivojidadagi axloqsizligi,

ma'naviy qashshoqlik, turli darajadagi dezadaptatsiyaga olib keluvni shaxs disfunktsiyalarini tushunamiz [5]. O'smir shaxsida disfunktsiyalar kechishi patologik va nopatologik ko'rinishga ega. O'smirlarda o'zini o'zi mahkum qiluvchi xulq-atvor va uning tasniflari quyidagicha ifodalanishi mumkin:

1. O'smir shaxsi buzilishi darajasi: a) old patologik; b) nopsixotik; v) psixotik.

2. Mahkum qiluvchi xulq-atvor tiplari: a) hayotiy talofat; b) jismoniy ziyon-zahmat; v) ma'naviy-axloqiy kamolotga ziyon-zahmat; g) ijtimoiy mavqega ziyon-zahmat.

3. Ijtimoiylashuv adaptatsiya bosqichlari: a) barqaror adaptatsiya; b) parsial adaptatsiya; v) beqaror adaptatsiya; g) dezadaptatsiya [6].

O'smir shaxsidadagi buzilish darajalarini quyidagi misol orqali yaqqol ifodalash mumkin. Masalan, alkogolga nisbatan moyillikni olaylik. Har zamonda ichib turish, ya'ni alkogolga epizodik xususiyatli moyillik, bayramlarda, do'stlar davrasida, vaqtning qiziqarli, maroqli o'tkazish bilan bog'liq holatlar garchi ushbu holat ham o'smir shaxsi shakllanishiga ma'lum darajada ta'sir qilsa-da, albatta patologiya emas. Alkogolni tez-tez qabul qilish oqibatida unga bog'lanib qolish esa patologiya, lekin psixotik daraja emas. Agar alkogolga yoki narkotik moddalarga ruju qo'yish haqiqiy kasallik simptomi darajasiga yetganda, ular bilan bog'liq chuqur o'zgarishlar ("oq alahlash" va "lomka") ro'y bersa, bu psixotik daraja hisoblanadi.

Mahkum qiluvchi xulq-atvor tiplari psixologiyada quyidagilarga ajratiladi:

a) shunday xatti-harakat va xulq-atvor mavjud-ki, bu individum uchun zararli hisoblanib, u o'zini o'zi o'ldirish (suisidal holat) bilan tugashi mumkin. Lekin tavakkalchilik bilan bog'liq sport turlari, jumladan, avto va moto poygalar, alpinizm, boks yo'ni, hayot uchun xavfli kasb-kor; o't o'chiruvchi, kaskader, jamoat tartibi va milliy xavfsizlikni saqlash bo'linmalari ba'zi vakillarining faoliyati (garchi ular nimaga ketayotganlarini chuqur anglagan taqdirda ham, ba'zan o'z xatti-harakatlarining oxiri o'lim bilan tugasa-da), albatta bundan mustasno. Chunki bunday mas'uliyatli kasb egalarida o'ziga ishonch, har qanday vaziyatda o'zini sinab ko'rish va g'alaba nashidasi ustivorlik qiladi;

b) o'z organizmiga jismonan zarar yetkazish bilan bog'liq bo'lgan, depressiv holat (ruhiy azoblanish) natijasida o'ziga o'zi tajovuz qilishi bilan kechadi; v) maqum qiluvchi xulq-atvorning tipi jamiyat tomonidan qabul qilingan umuminsoniy me'yorlarga zid bo'lgan delinkvent xulq-atvor xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Bunda nafaqat umumbashariy me'yorlar, balki umuminsoniy qadriyatlar, diniy me'yorlarni saqlash nazarda tutiladi. Aks holda insoniyat o'zining ibtidoiy ajdodlaridan farq qilmay qolar edi. Garchi inson davr o'tishi bilan biologik tuzilishi nuqtai nazaridan chuqur o'zgarishlarga uchramagan bo'lsa-da, lekin o'zining milliy an'analari, milliy madaniyatiga, milliy axloq me'yorlariga qarshi ish tutar ekan, u ma'naviy qashshoqdir. Zero, to'rti kuchchasi sog'lom o'smirming asosial (aksijimoiy) guruxdagi ishtirokini, axloq tuzatish muassasalariga tushib qolishini, turli ekstremistik guruxlardagi faoliyatini, o'zining hayotini barbod qilishini faqat uning o'zini o'zi mahkum qiluvchi xulq-atvoridagina izlash mumkin;

g) mahkum qiluvchi xulq-atvorning keyingi tipini ijtimoiy mavqega ziyon-zahmat yetkazish, deb atash mumkin. Oddiy bir misol, o'smir o'z ota-onasiga ko'ngilsiz tashvish keltirish maqsadida o'qishni tashlaydi. Bu bilan u o'zini o'zi tasdiqlashga urinadi va hokazo. Qayd etilgan holatlarning barchasida ijtimoiy dezadaptatsiyaning u yoki bu darajalari izohlanadi [1].

Tarbiyasi "qiyin" o'smirlarni, tipologik xususiyatlariga ko'ra, bir nechta shartli guruhga ajratish mumkin:

1. Tarbiyasi "qiyin" o'smirlarning birinchi guruhi orsizlar yoki subutsizlar deyiladi. Ular bila turib qonun qoidalarni buzadilar, noma'qul ishlarni qiladilar. Ular o'zlarining gunohkor ekanliklarini tan olmaydilar. Bunday bolalar betga chopar, o'jar tabiatli, rahm-shafqatsiz, "zo'ravon" bo'ladilar.

2. Ikkinchi guruhga mansub tarbiyasi "qiyin" o'smirlar yaxshi va yomonni tushunadilar, biroq mustaqil e'tiqodga, barqaror his-tuyg'uga ega emasliklari sababli "orqa"da turib qoidani buzadilar. Ular jamoa oldida katta va'da beradilar, biroq,

ma'lum vaqt o'tgandan so'ng, bergan va'dasini butunlay unutadilar.

3. Uchinchi guruhga mansub tarbiyasi "qiyin" o'smirlar shaxsiyatparastlik tufayli qonunbuzarlik, tartibbuzarlik yo'lga kirib qoladilar. Ular qilmishlari uchun afsus-nadomat chekadilar, ruhan eziladilar. Ulardagi axloqqa xilof xatti-harakatlar achinish hissi tarzida namoyon bo'ladi.

4. Injiq tabiatli o'smirlar to'rtinchi guruhga mansub bo'lib, sinfda, tengqurlari orasida o'z o'rnini topa olmaganidan qayg'uradilar. Shu bois ginaxon, arazchi bo'ladilar. Shu ma'noda o'smir tomonidan sodir etilgan jinoyat harakat uning xulqiga emas, balki vujudga kelgan vaziyatga ko'ra sodir etilganda o'smir shaxsining ijobiy sifatleri va jinoyatchilikning sodir etilishiga sabab bo'luvchi omillar to'g'risidagi ma'lumotlar berilmaydi. Shuning uchun ham vujudga kelgan vaziyatlarga bog'liq bo'lgan jinoyatlarning oldini olishda o'smir shaxsining xususiyatlarini, uning ijobiy va salbiy sifatleri hamda xarakterini hisobga olgan holda ish tutish maqsadga muvofiqdir[4].

Tarbiyasi "qiyin" o'smirlarni o'rganishda kinolavhalar, yuridik varaqa, ishontirish, rag'batlantirish, bo'ysundirish,

qo'rqitish singari usullardan foydalaniladi. Tarbiyasi "qiyin" o'smirlar bilan alohida-alohida suhbat o'tkazish ularning ruhiy kechinmalari bilan tanishishning eng samarali usulidir.

O'tkazilgan suhbatlar o'smirlarning psixik dunyosiga shunday nozik ta'sir qilish kerakki, natijada unda vijdon azobi, o'ng'aysizlik tuyg'usi vujudga kelsin. O'smir shaxsiyatiga tegadigan muomalada bo'lish man etiladi. Suhbat davomida iliq psixologik muhit, do'stona munosabat bo'lmog'i shart.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, tarbiyasi "qiyin" o'smirlarni o'rganishga qaratilgan barcha yondashuvlarga, tamoyillarga, yo'l-yo'riqlarga zamonaviy psixologiya fani nuqtai nazaridan yondashish talab etiladi. Bizni qiziqtirayotgan tarbiyasi "qiyin"likni boshlanishi va namoyon bo'lish jarayoni, uni keltirib chiqaruvchi xususiyatlari hamda kechishining asosiy variatsiyalarini chuqur tahlil qilish uning nazariy metodologik asosini tuzish, so'ngra aniqlovchi tajriba majmuasini yaratish, psixokorreksion ruhiy tuzatish va tarbiyaviy ta'sirlar timizining ishlab chiqishga asosi bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Бандура А., Уолтерс Р. Подростковая агрессия: изучение влияния воспитания и семейных отношений. - М.: Эксмо пресс. 2000. - 510 с.
2. Семенюк Л.М. Психологические особенности агрессивного поведения подростков и условия его коррекции: Учебное пособие. - М.: Московский психолого-социальный институт: Флинта, 1998. — 96 с.
3. Степанов В.Г. Психология трудных школьников: Учебное пособие для учителей и родителей. - М.: Академия, 1997. — 320 с.
4. Тулаганова Г.К. Тарбияси қийин ўсмирлар: Психолог мутахассислар, амалий психологлар учун. — Т.: Университет, 2005. - 128 б.
5. Хакимова И.М. Девиант хулқ-атвор психологияси. Ўқув қўлланма. Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академия, 2013. - 155 б.
6. Фурманов И. Психология детей с нарушением поведения. - Владос-пресс КДУ: 2013. - 352 с.



UDK: 101.1:159.9

Rustambek RASULOV,
"University of Business and Science" dotsenti v.b, PhD
E-mail: rustamrasulov07081995@gmail.com

DSc R.Xudoyberganov taqrizi asosida

THE INFLUENCE OF CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS ON THE POLITICAL SOCIALIZATION OF YOUTH OUTLOOK IN UZBEKISTAN

Annotation

In this article, the content of the influence of civil society institutions on the political socialization of the worldview of young people in Uzbekistan, the factors of influence of political social institutions, self-government bodies on the political socialization of young people are shown.

Key words: Political socialization, youth, youth outlook, ideological factors, socio-political institutions, neighborhood, family, youth culture, political etiquette.

ВЛИЯНИЕ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА НА ПОЛИТИЧЕСКУЮ СОЦИАЛИЗАЦИЮ МОЛОДЕЖИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье показано содержание влияния институтов гражданского общества на политическую социализацию мировоззрения молодежи Узбекистана, факторы влияния политических социальных институтов, органов самоуправления на политическую социализацию молодежи.

Ключевые слова: Политическая социализация, молодежь, молодежное мировоззрение, идеологические факторы, общественно-политические институты, соседство, семья, молодежная культура, политический этикет.

O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING YOSHLAR DUNYOQARASHI SIYOSIY IJTIMOIYLASHUVIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar dunyoqarashi siyosiy ijtimoiylashuviga ta'sirining maznun mohiyati, siyosiy ijtimoiy institutlar, o'z-o'zini boshqarish organlarining yoshlar siyosiy ijtimoiylashuviga ta'sir qilish omillari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Siyosiy ijtimoiylashuv, yoshlar, yoshlar dunyoqarashi, mafkuraviy omillar, ijtimoiy-siyosiy institutlar, mahalla, oila, yoshlar madaniyati, siyosiy etiket.

Kirish. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar dunyoqarashiga va ularning siyosiy ijtimoiylashuviga ta'siri masalasi ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinsa, bu jarayonning murakkab va qamrovli ekanligi ayon bo'ladi. Fuqarolik jamiyati institutlari – nodavlat tashkilotlar, kasaba uyushmalari, ommaviy axborot vositalari va madaniyat markazlari kabi ijtimoiy tashkilotlar – yoshlarning ijtimoiy-siyosiy ongi va faolligini oshirishga katta hissa qo'shadi. Ushbu institutlar yoshlar o'rtasida ijtimoiy qadriyatlarini targ'ib qiladi, ularda mamlakat taraqqiyoti va islohotlarga ijobiy munosabatni shakllantiradi. O'zbekiston yoshlari uchun fuqarolik jamiyati institutlari milliy g'urur, vatanga sadoqat va fuqarolik mas'uliyati singari qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonida fuqarolik jamiyatining o'rni o'ziga xos ahamiyatga ega. Ushbu institutlar yoshlarni ijtimoiy masalalarga jalb qilish, ularning o'z fikrlarini erkin ifoda etishi va muammolarni hal qilishda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ayniqsa, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan yoshlarga oid dasturlar bu borada muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, O'zbekistonda yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvini diniy va milliy qadriyatlarga asoslangan ta'limotlar katta ahamiyat kasb etadi. Yoshlar, ayniqsa, madaniy meros, tarixiy qahramonlar, va milliy qadriyatlar orqali ijtimoiy-siyosiy faollikka jalb qilinmoqda. Bu jarayon, yosh avlodning vatanparvarlik tuyg'usi va davlat manfaatlarini himoya qilishga tayyorligini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ilmiy-falsafiy jihatdan qaraganda, fuqarolik jamiyati institutlari yoshlarning dunyoqarashiga axloqiy va ma'naviy tarbiyaning shakllanishida katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, yoshlar nafaqat mamlakat ichida, balki xalqaro miqyosda ham O'zbekistonning imijini targ'ib qilishda faol ishtirok etmoqdalar. Bu esa o'z navbatida

fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan qo'llab-quvvatlanib, yoshlarning xalqaro ijtimoiy-siyosiy maydonda o'zini ko'rsatishiga yo'l ochmoqda.

Asosiy qism. Yoshlarning kelajakda jamiyatda faol, yetuk va mas'uliyatli fuqarolar bo'lib yetishishiga yordam beradi. Ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan, bunday jarayonlar yoshlarning shaxsiy kamolotini yanada chuqurlashtiradi va ularda dunyoqarashning kengayishiga olib keladi. Bu yoshlar nafaqat jamiyatning ijtimoiy faollari, balki kelajak yetakchilari sifatida o'sib, jamiyatning barqaror va demokratik rivojlanishiga xizmat qilishga tayyor bo'ladi. Shu tariqa, fuqarolik jamiyati institutlari yoshlar orasida fuqarolik mas'uliyati, siyosiy bilim va faollikni shakllantirib, ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ta'minlaydi. M.Qirg'izboev: «Fuqarolik jamiyati jamiyatning eng yuqori shakli hisoblanib, inson ulug'vorligini yuksaklikka ko'taradi, uning siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy sohalardagi erkin faoliyatini ta'minlaydi»[1], - deb ta'kidlaydi.

Madaniy-ma'rifiy va ilmiy uyushmalar yoshlarning siyosiy savodxonligini oshirish orqali ularni jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan xabardor qilib boradi. Bunday bilim va ko'nikmalar yoshlarning siyosiy ongini shakllantirib, ularni o'z huquq va vazifalarini anglaydigan va jamiyat rivojiga mas'uliyat bilan yondashadigan fuqarolar sifatida tarbiyalaydi. Fuqarolik jamiyati institutlari O'zbekistondagi yoshlarni ekstremistik ta'sirlardan himoya qilish va ularni milliy va global dunyoqarash bilan boyitishga xizmat qiladigan muhim poydevor hisoblanadi. Bu institutlarning faoliyati yoshlarning kelajakda jamiyatda mas'uliyatli, bag'rikeng va o'ziga ishonchli shaxs sifatida rivojlanishiga, mamlakatning barqaror va xavfsiz rivojlanishiga hissa qo'shadigan avlodni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti SH.M.Mirziyoyev shunday deydi: "Dunyoda terrorizm tahdidlari ayniqsa, so'nggi yillarda

kuchayib borayotgani ularga qarshi asosan kuch ishlatish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotganidan dalolat beradi. Bu borada ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablari bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, bunday tashabbuslar yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda asosiy o'rin tutadi. Fuqarolik jamiyati yoshlar uchun nafaqat siyosiy ongini oshirish platformasini, balki ularga ijtimoiy hayotda bevosita ishtirok etish imkonini beradigan makonni taqdim etadi. Shu tariqa, yoshlar kelajakdagi yetakchilar sifatida tajriba orttirib, milliy va global masalalarda o'z roli va mas'uliyatini yanada chuqurroq anglab boradi. A.G.Chernyavskiyning fikricha, «Davlat boshqaruv tizimining sifati fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga bo'lgan konstruktiv siyosatga qarab baholanadi. Chunki fuqarolik jamiyati o'z-o'zini tartibga soluvchi ijtimoiy tizimgina bo'lib qolmay, balki deterministik davlat boshqaruv shakli hamdir»[3].

O'zbekistonda mahallalar va an'anaviy jamiyat institutlari yoshlar siyosiy ijtimoiylashuvida muhim o'rin tutadi. Mahalla yoshlariga o'zlarini jamoaning ajralmas qismi sifatida his qilish imkonini beradi va shu orqali ularni mahalliy o'zini o'zi boshqarish jarayonlariga jalb etadi. Bu yoshlar uchun o'ziga xos fuqarolik tajribasi bo'lib, ular o'z hududida yuz berayotgan muammolar va ehtiyojlarga nisbatan mas'uliyat his qila boshlaydi. Bunday ijtimoiylashtirish jarayonlari yoshlarning siyosiy faoliyatga bo'lgan qiziqishi va javobgarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Mahalla yoshlari turli tadbirlar va uchrashuvlarda ishtirok etish orqali ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga oid amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradi. Ushbu mahalla faoliyatlari ularga jamoaviy ishlarni tashkil etish, qarorlar qabul qilish va turli masalalarni muhkama qilish kabi fuqarolik faoliyatining asosiy elementlarini o'rgatadi. Bu esa yoshlarning fuqarolik jamiyatining faol a'zosi sifatida shakllanishiga va jamiyatdagi o'z rolini to'laqonli anglashiga yordam beradi. Yoshlar fuqarolik jamiyati institutlari orqali demokratik tamoyillar, huquq va mas'uliyat haqida bilim olishadi, shu bilan birga ular jamiyatda faol va mas'uliyatli o'rin egallash uchun zarur ko'nikmalarga ega bo'ladi. Bu jarayonlar, o'z navbatida, fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishiga, ijtimoiy barqarorlikka va demokratiyaning rivojlanishiga xizmat qiladi. Yoshlarning jamiyatdagi faolligi va mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyorligi O'zbekistonning barqaror va ma'rifati kelajagini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Gegelning ta'biriga ko'ra, «Fuqarolik jamiyati bu eng avvalo, xususiy mulkka asoslangan manfaat(ehtiyoj)lar tizimi, shuningdek, din, oila, tabaqalar, davlat tuzumi, huquq, axloq, burch, madaniyat, ta'lim, qonunlar va subyekt(inson)larning ulardan kelib chiquvchi o'zaro uzviy yuridik aloqalar majmuidir. Insonlar tabiiy, «nomadaniy» holatdan «fuqarolik jamiyatiga o'tishlari lozim. Zero, aynan shu jamiyatda huquqiy munosabatlar asl voqeikka aylanadi»[4].

Madaniy-ma'rifiy uyushmalar va NNTlar orqali yoshlar o'zining madaniy va tarixiy ildizlari bilan bog'lanib, global va milliy darajada o'z o'rnini anglashadi. Bu jarayon orqali yoshlar davlatning barqaror va demokratik rivojlanishiga hissa qo'shishga tayyor, mas'uliyatli fuqarolarga aylanadi. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlari milliy qadriyatlar va demokratiya o'rtasida uyg'unlik yaratib, yoshlar ongida zamonaviy dunyoda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash va mafkuraviy mustaqillikni shakllantiradi. Buni davlatimiz rahbarining Farmoni bilan tasdiqlangan 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi misolida ham ko'rish mumkin. Misol uchun, Harakatlar strategiyasining «Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari» deb nomlangan birinchi yo'nalishida jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish, shu jumladan, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish,

ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish; mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rnini va faoliyati samaradorligini oshirish, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish masalasi ham keyingi besh yillikda ro'yobga kichaytirilishi lozim bo'lgan vazifalardan biri sifatida belgilangan»[5].

Tadqiqot metodologiyasi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning «Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida: «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish, mahalla institutini aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylantirish, fuqarolar yig'inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqlarini ro'yobga chiqarish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish, mahalla institutini yanada takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan»[6].

Oila orqali bolalar va yoshlar axloqiy ko'rsatmalar va ijtimoiy me'yorlar bilan tanishadi. Kattalarning o'zaro hurmati, ijtimoiy mas'uliyat va jamoaviy birdamlik kabi qadriyatlar oilada yetkazilib, bu yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, oila milliy qadriyatlarni singdirish orqali yoshlarni turli destruktiv ta'sirlardan himoya qilishda asosiy poydevor vazifasini bajaradi. Shu tariqa, o'zbek oilasi yoshlar ongida milliy o'zlik va vatanparvarlik tushunchalarini shakllantiruvchi, davlat va jamiyatga sadoqatni mustahkamlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi. Oila yoshlarga milliy va madaniy qadriyatlar asosida jamiyatga hissa qo'shuvchi, mas'uliyatli fuqarolar sifatida yetishish uchun zarur bo'lgan axloqiy va ijtimoiy asoslarni beradi. Shunga muvofiq «fuqarolik jamiyati instituti – maqsadlar mushtarakligi hamda ishtirokchilar ixtiyoriyligi asosida tuzilgan, asosiy faoliyati daromad (foйда) olishga yo'naltirilmagan, davlatdan xoli, siyosiy jihatdan mustaqil va iqtisodiy jihatdan erkin bo'lgan kishilik hamjamiyati tuzilmasidir»[7].

Fuqarolik jamiyatining o'ziga xos xususiyati tinchlik, barqarorlik va o'zaro hamkorlikka asoslangan munosabatlarni rivojlantirishdir. Yoshlar ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirib, fuqarolik jamiyatidagi ijtimoiy institutlarda ishtirok etish orqali jamiyatning tinch va barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi. O'zaro hamkorlik va jamoaviy qadriyatlarni shakllantirish yoshlarning boshqa insonlar bilan ishlash, ularning manfaatlarini hurmat qilish va fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishi uchun mas'uliyat his qilishga o'rgatadi.

Demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishi o'zaro bog'liq bo'lib, ular davlat va jamiyat o'rtasida sog'lom muloqotni ta'minlashga xizmat qiladi. Harakatlar strategiyasida belgilangan asosiy maqsadlardan biri fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirishdir. Shu jarayon orqali O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etish va yoshlarni siyosiy-ijtimoiy hayotga jalb etish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari orqali yoshlar siyosiy ijtimoiylashuvi davlatning demokratik islohotlari bilan birga rivojlanib, fuqarolik jamiyatining barqaror va mustahkam rivojlanishini ta'minlamoqda. Jamoat nazorati bu: «fuqarolar, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining o'z vakolatlarini, vazifa va majburiyatlarini maqsadga muvofiq va samarali amalga oshirishlari ustidan kuzatish, tekshirish, tahlil qilish va ular tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning qonunchilik va jamoat manfaatlariga muvofiqligini baholashga qaratilgan faoliyat hamda fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etish shakli»[8].

Fuqarolik jamiyati yoshlarning siyosiy jarayonlarga ta'sirini oshirishga xizmat qiladi, chunki ular o'z manfaatlarini himoya qilish uchun kerakli fuqarolik javobgarligini his qilishadi. Fuqarolik jamiyatining faol a'zolari sifatida yoshlar siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlarda qatnashishni o'rganib, jamiyat hayotida o'z hissalarini qo'shadi. Bu jarayon ular uchun fuqarolik javobgarligini chuqurroq his qilish, jamiyatga xizmat qilish va muhim ijtimoiy masalalarda o'z ovozi eshittirish imkonini beradi. Fuqarolik jamiyati davlat bilan hamkorlikda demokratik

tamoyillarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ochiq boshqaruv, jamoatchilik fikrini inobatga olish va shaffoflik orqali davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonch mustahkamlanadi. Fuqarolik jamiyati yoshlarni davlat boshqaruvi bilan yaqindan tanishtirib, ularning davlat siyosatiga ta'sirini oshiradi. Bu orqali yoshlar davlat boshqaruvida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lib, o'z dunyoqarashini kengaytiradi va jamiyatning barqaror va demokratik rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari yoshlarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirishda kuchli omil hisoblanadi. Ular yoshlarning siyosiy jarayonlarda ishtirok etishini rag'batlantirib, o'z huquq va majburiyatlarini anglash, shaxsiy va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirish, va demokratik tamoyillarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu orqali yoshlar fuqarolik jamiyatining faol a'zolariga aylanib, jamiyat rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. «Fuqarolik jamiyati turli xil manfaatlar, qarashlar, shuningdek, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari, turli uyushmalar orqali ta'minlanadi. Bu manfaatlar o'zaro aloqalar, kelishuvlar va murosaga kelishish orqali amalga oshiriladi. Ushbu tashkilotlar kishilarning barcha ehtiyoj va manfaatlarini, shuningdek, siyosiy manfaatlarini qondirishda hamda shakllantirishda faol ishtirok etadi, o'z faoliyatini esa jamiyatdagi huquqiy normalar, an'analar orqali muvofiqlashtiradi»[8].

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar dunyoqarashi va siyosiy ijtimoiylashuviga ta'siri demokratik tamoyillar va siyosiy faollikni rivojlantirish orqali mustahkamlanmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar va tashabbuslar fuqarolik jamiyatining keng qamrovli rivojlanishi va davlat boshqaruvida jamoatchilik ishtirokini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu islohotlar huquqiy madaniyatni yuksaltirish va fuqarolik jamiyatining jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga yo'naltirilgan. Demokratik tamoyillar fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishida asosiy o'rinni egallaydi. Fuqarolik jamiyati yoshlarni jamiyat hayotiga jalb qilish, ularni o'z huquq va majburiyatlarini anglashga undash orqali ijtimoiy va siyosiy faollikni oshiradi. Prezident Mirziyoyevning islohotlari yoshlar orasida siyosiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ular orqali yoshlar davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etishni o'rganmoqda. Shu tarzda, demokratik tamoyillarning rivojlanishi orqali fuqarolik jamiyati yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan so'nggi islohotlar, xususan, 2021–2025 yillarga

mo'ljallangan Konsepsiya yoshlarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. NNTlar sonining oshishi va ularning davlatning ijtimoiy sheriklari sifatida rolining kuchayishi yoshlarni jamiyatdagi o'z o'rnini aniqlashga, ijtimoiy o'zgarishlarga o'z hissasini qo'shishga va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga undamoqda. Bu jarayon O'zbekistonda demokratik qadriyatlar va barqaror fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, «Keyingi vaqtlarda jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining roli va ahamiyatini, ijtimoiy faolligini oshirish bo'yicha sezilarli chora-tadbirlar ko'rildi. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan ikki yuz dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun zarur institusional baza yaratildi. Bugungi kunda faoliyat ko'rsatayotgan 9 200 dan ziyod nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarini himoya qilishda, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishishda muhim rol o'ynamoqda»[9].

Xulosa va takliflar. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar dunyoqarashi va siyosiy ijtimoiylashuviga ta'siri keng qamrovli va chuqur ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayon ilmiy va falsafiy nuqtai nazardan turli jihatlardan tahlil qilinadi:

Fuqarolik jamiyati institutlari xalqaro miqyosdagi qadriyatlarini yoshlar ongiga singdiradi, bu esa ularni global masalalar va xalqaro hamkorlikda faol ishtirok etishga undaydi. Bu jarayon orqali yoshlar global fuqarolik ongiga ega bo'lib, ularning dunyoqarashi kengayadi va global miqyosdagi muammolarni tushunishga o'rganadi. Fuqarolik jamiyati yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va ularni mafkuraviy plyuralizmga o'rgatadi. Turli fikr va qarashlarga ochiqlik, tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalari yoshlarning shaxsiy fikr va dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi, ularni jamiyatda faol va ishonchli shaxs sifatida maydonga olib chiqadi. Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, fuqarolik jamiyati institutlari yoshlarni o'z shaxsiyati va ijtimoiy roli haqida chuqurroq mulohaza qilishga, mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga, va har xil ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishga yo'naltiradi. Shu tariqa, fuqarolik jamiyati yoshlarning shaxsiy taraqqiyoti va jamiyatda munosib o'rin egallashi uchun mustahkam zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: назария ва хорижий тажриба. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. - 99 б
2. Мирзиёевнинг Ш.Бирлашган Миллатлар Ташкilotи Бош ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи // Халқ сўзи газетаси, 2017 йил 20 сентябрь.
3. Государство. Гражданское общество. Право: монография // А.Г. Чернявский, Л.Ю. Грудцына, Д.А. Пашенцев; под ред. д-ра юрид. наук, проф. А.Г. Чернявского. — Москва: ИНФРА-М, 2017. — 342 с.
4. Гегель Георг Вильгельм Фридрих. Философия права. Серия: Великие мыслители. - Москва: Мир книги, 2009. - 464с.
5. Қаранг: <http://huquqburch.uz/uz/article/5436/>
6. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 69-модда <http://www.lex.uz/docs/3106223>
7. Ширинов Д.Д. Ўзбекистонда фуқаролик жамияти институти сифатида нодавлат нотижорат ташкilotлари фаолиятини ташкил этишнинг ҳуқуқий асослари. юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021. –Б.18.
8. Холиқова Ш.А. Давлат ҳокимияти фаолияти устидан жамоатчилик назоратини такомиллаштириш масалалари. Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2021. –Б.20.
9. Эргашев И., Холбеков А., Жакбаров М., Умарова Н. Фуқаролик жамияти ва миллий ғоя. – Тошкент: Академия, 2005. – 41-б.



Gulbahor RASULOVA,
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti
E-mail: grasulova@gmail.com

Toshkent amaliy fanlar universiteti professori G'. Hamroyev taqrizi asosida

WORK BOOK IN LITERARY EDUCATION-AS ONE OF THE FORMS OF ORGANIZATION OF THE SYSTEM OF EDUCATIONAL ASSIGNMENTS

Annotation

The article describes the issue of the development of literary education, in particular, important recommendations, conclusions on improving educational assignments, analytical study of the content of questions and tasks in teaching literature, the creation of scientific and methodological foundations for the development of educational tasks that reveal the essence of the work, consideration of criteria for assessing students' knowledge.

Keywords: Literary education, educational content, work essence, art work analysis, teaching assignments, question, assignment, homework, knowledge, skills and qualifications.

РАБОЧАЯ ТЕТРАДЬ В ЛИТЕРАТУРНОМ ОБРАЗОВАНИИ – КАК ОДНА ИЗ ФОРМ ОРГАНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ

Аннотация

В статье изложены важные рекомендации, выводы по вопросу развития литературного образования, в частности по совершенствованию учебных заданий, аналитическому изучению содержания вопросов и заданий при обучении литературе, созданию научно-методических основ разработки учебных заданий, раскрывающих сущность произведения, рассмотрению критериев оценки знаний учащихся.

Ключевые слова: Литературное образование, содержание образования, характер произведения, анализ художественного произведения, учебные задания, вопрос, задание, домашнее задание, знания, умения и навыки.

ADABIY TA'LIMIDA ISH DAFTARI – O'QUV TOPSHIRIQLARI TIZIMINI TASHKIL ETISH SHAKLLARIDAN BIRI SIFATIDA

Annotasiya

Maqolada adabiy ta'limni rivojlantirish masalasi, xususan, o'quv topshiriqlarini takomillashtirish, adabiyot o'qitishda savol va topshiriqlari mazmunini tahliliy o'rganish, asar mohiyatini ochib beruvchi o'quv topshiriqlar ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslarini yaratish, o'quvchilar bilimni baholash mezonlarini ko'rib chiqish bo'yicha muhim tavsiyalar, xulosalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Adabiy ta'lim, ta'lim mazmuni, asar mohiyati, badiiy asar tahlili, o'quv topshiriqlari, savol, topshiriq, uy vazifasi, bilim, ko'nikma va malakalar.

Kirish. Adabiyot o'qitish metodikasida keyingi yillarda bir qator innovatsion yondashuv, pedagogik texnologiyalar qo'llanib kelinadi. Ammo bu borada hali jiddiy o'zgarish ko'zga tashlanmaydi, ya'ni o'quvchilar badiiy asarlar mazmuniga to'la kira olgani yo'q. Hatto ayrim o'qituvchilar ham o'zi o'qitayotgan badiiy asar mohiyati, yozuvchining asarni yozishdan maqsadi nima ekanligi bilmaydi. Adabiy ta'limdagi muhim muammolar qatorida o'quv topshiriqlarini takomillashtirish masalasi ham turadi. Bu borada pedagogik nuqtai nazarda mamlakatimiz olimlari ilmiy izlanishlar olib borgan, biroq metodik jihatlari hali to'la ishlanmagan. Shu o'rinda, H.Suyunov[1]ning adabiyot o'qitishda savol va topshiriqlar ustida ishlashga o'rgatish usullariga doir tadqiqoti adabiy ta'limda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash joiz, ammo mazkur tadqiqotga ham sal kam yigirma yil bo'lyapti. Zamonaviy talablar asosida adabiyot o'qitish metodikasini takomillashtirish, pragmatik o'quv topshiriqlar tizimini ishlab chiqish zarurati mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Shu o'rinda metodist-olim G'.Hamroyevning o'quv topshiriqlarini vazifa va mazmuni jihatidan farqlash va tasniflash nazariyasi haqida alohida to'xtalish lozim[2]. Mazkur tadqiqot ona tili ta'limida o'quv topshiriqlari ishlab chiqishga doir bo'lsa-da bugun tobora integratsiyalashib borayotgan ta'lim tizimida quyi sinflardan boshlab ona tili va adabiyot fanlarini qo'shib

o'qitish amaliyoti kechayotgan bir paytda mazkur tadqiqot adabiyot o'qitish metodikasi uchun ham ahamiyatlidir.

Adabiyotni madaniyatning asosiy sohalaridan biri sifatida baholar ekan metodist olim S. Dolimov bunda asosiy jihat xalqning tarixiy taraqqiyoti, o'ziga xosligini badiiy obrazlarda ifodalash xususiyati ekanligini qayd etadi: "adabiyot birinchi navbatda odamlarni va ularning hayotini tasvirlaydi, bu tasvir esa tarixiy haqiqat va tarixiy voqealar bilan uzviy bog'lanadi"[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan adabiy o'qitish bo'yicha o'quv topshiriqlar tizimidan foydalanib, adabiy o'qitish darslarida o'quvchilar faoliyatini tashkil etish mumkin. Tizimning mazmun tomoni turli janrdagi matnlarga, tashkiliy tomoni innovatsion faoliyat turlariga (tadqiqot, talqin, dizayn, ijodiy, o'yin) asoslangan bo'lib, tajribamiz shuni ko'rsatadiki, zamonaviy - maktab o'quvchilari uchun qiziqarli. Ta'lim jarayonida vazifalar tizimini qo'llash uchun uni qulay va samarali shaklga keltirish kerak. Muammolarni hal qilish uchun o'quvchining faoliyati uchun joy kerakligini hisobga olish kerak. Masalan, o'quvchi matn qismlarini ajratib ko'rsatishi, taklif qilinganlardan to'g'ri javoblarni belgilashi, matn va rasmlarni chizish va hatto ularni manipulyatsiya qilish uchun kesib tashlashi kerak. Shuning uchun, bizning fikrimizcha, o'quv vazifalari tizimi uchun eng mos shakl adabiy o'qitish bo'yicha ish kitobi bo'ladi. Ushbu

turdagi o'quv qurollari maktab amaliyotida faol qo'llaniladi. Ish kitobi maxsus o'quv qo'llanma sifatida tadqiqotchilar tomonidan ko'rib chiqildi, xususan: uni loyihalash muammolari va amalga oshirish samaradorligi. Ushbu tajribani hisobga olish, shuningdek, ushbu turdagi imtiyozlarga nisbatan zamonaviy talablarni umumlashtirish kerak.

Tahlil va natijalar. XX asrning 90-yillarida ta'lim tizimini qayta qurish fonida, ko'plab muqobil maktab dasturlari, darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar. O'sha paytda Ish daftari o'quv qo'llanma sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Ushbu turdagi imtiyozlarning imkoniyatlarini tadqiqotchilar O.A. Nilsson [189;97] va I.E. Unt [192;192] lar o'rganadi. O.A. Nilsson ishchi daftarni o'quvchilarning mustaqil ishi uchun kurs dasturiga qat'iy mos keladigan va butun kursni yoki uning bir qismini qamrab oladigan vazifalar to'plami sifatida belgilaydi. Bunda uch turdagi daftar ajratiladi: ko'p maqsadli (yangi bilimlarni ochish va o'quv topshiriqlarini o'z ichiga olgan), tajribalar o'tkazish uchun kundaliklar, kuzatishlar, matn va topshiriqlarni o'z ichiga olgan qo'shma qo'llanmalar[11]. I.A. Unt faoliyatini boshqarish nuqtai nazaridan bunday daftarlarni ikki guruhga ajratadi:

- o'quvchining mustaqil ishi uchun qo'llanmalar to'plamidan iborat;

- o'quvchining o'qituvchi rahbarligida ishlashi uchun vazifalar to'plamini o'z ichiga oladi.

Darslik bilan bog'lanish nuqtai nazaridan daftarlar ham ikki xil bo'ladi: har qanday darslikka qat'iy aloqador va aniq darslikka aloqador bo'lmagan. Olim mehnat daftarlarini tuzuvchining boy tajribasi va ularni amalga oshirish tajribasiga asoslanib, darslikka bevosita bog'liq bo'lgan va o'qituvchiga bolalarning mustaqil ishlariga rahbarlik qilish va o'quv ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini beradigan optimal daftar deb hisoblaydi [192;116-119].

Daftarlarning o'quv amaliyotiga faol joriy etilishi bilan (1990-yillar) maktabda va universitetda ish daftarlaridan foydalangan holda tashkil etilgan o'quv jarayonini o'rganuvchi ilmiy ishlar paydo bo'ldi.

E.A. Mladkovskayaning dissertatsiya tadqiqotida. o'qish daftarining misolidan foydalanib - maktab uchun ish daftarlarni qurishning didaktik asoslarini ta'kidlaydi [103;77-83]. Muallifning fikricha, ushbu turdagi imtiyozlarni yaratishda quyidagi shartlar bajarilishi kerak:[113;58]

1) og'zaki va vizual ma'lumotlarning kombinatsiyasi;

2) vazifalarni farqlash va individualashtirish;

3) umumiy o'quv malakalarini rivojlantirishga e'tibor qaratish;

4) bolalarning psixofizik farqlarini hisobga olish.

Tadqiqotchi materialni taqdim etish uchun quyidagi tuzilmani taklif qiladi: birinchi navbatda - kuzatish, o'qish, tinglash, keyin - tasniflash va umumlashtirish va nihoyat, o'z-o'zini nazorat qilish. Biroq, muallif fanlarni e'tiborsiz qoldirib, umumiy akademik ko'nikmalarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat beradi.

E.A. Privalova imtiyozlarning yuqori harakatchanligini qayd etadi (metodologiyaning yangi yutuqlarini tezda joriy etish mumkin) [109;78-86]. Uning fikricha, ushbu janrdagi qo'llanmalar nafaqat mustaqil bilim olish, balki o'quvchini «hammualliflik» va «birgalikda yaratish» ga yo'naltirish imkonini beradi. Olim Ish daftarini innovatsion ko'p funksiyali didaktik hodisa sifatida belgilaydi.

R.B. Shilenkov zamonaviy maktabda ta'lim jarayoni o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olishni talab qilishini ta'kidlaydi va ish daftarining asosiy vazifasi turli xil faoliyat turlarini: reproduktiv, qisman izlanish, tadqiqotni tashkil etish qobiliyati deb hisoblaydi [230;178-180].

O'quv jarayonida mehnat daftarlaridan foydalanishga oid yana bir tadqiqot E.Yu. Tyumenseva [118;14]. U ish

daftari yordamida o'quvchilarni kimyo bo'yicha universitetga kirishga tayyorlash usulini ishlab chiqdi. Muallif: E.Yu. Tyumensev qo'llanmasi o'quvchiga turli darajadagi materiallarni, shuningdek, har xil turdagi vazifalarni taklif qiladi: savollarga javob berish va iboralardagi bo'shliqlarni to'ldirish, jadvallar, diagrammalar, chizmalar, diagrammalar yordamida bajariladigan vazifalar, maqolalar uchun eslatmalar va rejalar tuzish, shuningdek matnning asosiy g'oyasini ta'kidlash, muammoli topshiriqlar, testlar.

A.I. Bolotova o'quvchi kognitiv mustaqilligini rivojlantirish uchun matematika ish daftarining samaradorligini o'rgandi [83;12-13]. Model yordamida matematik topshiriqlarni taqdim etish usullari aniqlandi: obyekt rasmi - diagramma - matematik belgi. Ish daftarining har bir varag'i shunday tuzilganki, muammoli vaziyat bayon qilinadi, o'quvchining sa'y-harakatlari model yaratish orqali mustaqil ravishda echim izlashga yo'naltiriladi. Tadqiqotchi o'quvchining kognitiv mustaqilligi ish daftaridan foydalanish orqali samarali rivojlanishini isbotlaydi.

Olimlar ish daftari uchun vazifalar turlarini tavsiflaydilar, lekin vazifalar va topshiriqlar o'rtasida chegaralarni belgilamaydilar. Biz mazkur bo'limda "topshiriq" konstruktsiyasi haqidagi tushunchamizni ko'rib chiqdik. "Topshiriq" tushunchasini talqin qilishda biz D.B. Elkoninning pozitsiyasiga amal qilamiz. O'quv topshiriqning mohiyatini amaliy bilan solishtirganda tasvirlab berdi. Farqi shundaki, ikkinchisini hal qilishda o'quvchi o'z harakatining obyektini o'zgartiradi, ta'lim vazifasi esa sub'ektning o'zida o'zgarishlarni nazarda tutadi [210;144].

Shunday qilib, biz ko'rib chiqayotgan innovatsion ko'p funksiyali didaktik qo'llanma mobil bo'lib, o'quvchilarning mustaqilligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Qo'llanmani loyihalashda siz quyidagilarni bajarishingiz kerak:

- qo'llanmani muayyan darslik bilan bog'lash;

- umumiy o'quv va fan ko'nikmalarini rivojlantirishga

qaratilgan topshiriqlarni tuzish;

- og'zaki va vizual ma'lumotlarni birlashtirish aloqa;

- o'quvchilarning mustaqil ishlariga alohida e'tibor berish;

- tabaqalashtirilgan vazifalar tizimini yaratish.

Ro'yxatda keltirilgan barcha tadqiqotlardan faqat ikkitasi (E.A. Mladkovskaya [103;54-59], A.I. Bolotovaning ishi [83;12].) - maktabda o'tkazilgan ish kitobidan foydalangan holda eksperimentni tasvirlab berdi. Ya'ni, ish daftar - sinflar uchun adabiy o'qish darsliklarining maxsus janri sifatida yetarlicha o'rganilmagan.

Axborot asrida yashayotgan zamonaviy maktab o'quvchisi axborot oqimida harakat qilishni o'rganishi kerak: uni izlash, tizimlashtirish, taqqoslash, umumlashtirish va turli shakllarda taqdim etilgan ma'lumotlar bilan ishlashni bilishi kerak. Bu shuni anglatadiki, daftarda axborot bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan har xil turdagi vazifalar (matnlar, lug'atlar, ro'yxatlar, jadvallar, rasmlar, diagrammalar, diagrammalar, piktogrammalar bilan ishlash) bo'lishi kerak.

O'quvchi o'z faoliyati haqida mulohaza yuritish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak: materialni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarni kuzatish, shuningdek, ta'lim sohasidagi hamkorlikning samaradorligini baholash, o'z kuchli tomonlarini real baholashni o'rganish, yakuniy va bosqichma-bosqich nazoratni amalga oshirish zarur. Buning uchun qo'llanma o'z-o'zini nazorat qilish va o'zini o'zi qadrlash uchun sharoit yaratishi kerak.

Qo'llanma bilan ishlash o'qish uchun ijobiy motivatsiyani qo'llab-quvvatlashi kerak. Bu, ayniqsa, - maktabda juda muhimdir. Shuning uchun ish kitobining vazifalari turli xil kichik vazifalarni o'z ichiga olishi kerak: ochiq javob bilan, bir nechta taklif qilinganlardan to'g'ri

variantni tanlash, chizmalar, diagrammalar, jadvallar asosida, qo'shimcha manbalardan (lug'atlar, ma'lumotnomalar), "chizish", "chizmani yakunlash", "o'ylab topish va yozish", "tuzish" va boshqalar kabi ijodiy ishlar. Badiiy o'qish uchun namunaviy dastur sinfda turli tadbirlarni o'tkazishga qaratilgan.

O'quvchi ishchi daftar yordamida mustaqil bilim olishi kerak, ya'ni qo'llanmaning uslubiy apparati bolaning faoliyatini ma'lum bo'lganlar asosida yangi bilimlarni ochish yo'nalishi bo'yicha yo'naltirishi kerak. Mustaqil bilim olish qobiliyati tarbiyaviy tayyorgarlikning asosiy natijalaridan biridir.

Bizningcha, adabiy o'qish bo'yicha ish daftarchasi alohida hodisadir. Uning fundamental asosini nafaqat daftar muallifi tomonidan o'ylab topilgan vazifalar tizimi, balki topshiriq shartlariga kiritilgan adabiy matnlar ham tashkil etadi. Shuning uchun adabiy o'qish qo'llanmasida badiiy matnlarni tanlashga alohida e'tibor berish kerak. Badiiy asarni idrok etishni yaxshilash uchun o'quvchi hissiyotlardan ma'no kashfiyotiga o'tishi kerak. Bizning fikrimizcha, ish daftari ma'lum bir ta'lim o'quv dasturining dasturiga mos kelishi va shu bilan birga bolaga o'rganish uchun yangi, darslikda bo'lmagan matnlarni taklif qilishi kerak. Aks holda, matnga va umuman daftar ustida ishlashga qiziqish yo'qoladi. Darslik bilan birgalikda ish daftari kurs materiallarini chuqurroq o'zlashtirish uchun sharoit yaratishi kerak. Bundan tashqari, daftar matnlari bolalarning yoshiga mos kelishi va turli uslublar, janrlar, mavzular, vaqt va geografik adabiy qatlamlarni ifodalashi kerak. Matn zamonaviy bola uchun qiziqarli bo'lishi va qo'llanmada faqat bir parcha bosilgan bo'lsa, uni butun asarni o'qishga undashi kerak. Estetik qiymatga ega bo'lgan matn uni mazmun va shakl darajasida o'rganish, yangi bilimlarni ochish uchun imkoniyatlar yaratishi kerak.

Va yana bir talab, bizning fikrimizcha, nafaqat qulaylik uchun, balki ish daftariidan foydalanish samaradorligi uchun ham muhimdir: qo'llanmalarda ham o'quv, ham test ishlarining mavjudligi.

Shunday qilib, biz ish kitoblari va davlat ta'lim standartining talablari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar natijalarini umumlashtirdik. Biz ushbu talablarni qo'llanmaning samaradorligi mezonlari deb hisoblaymiz, chunki ular bajarilsa, yangi ta'lim standartlarining maqsad va strategiyalari hisobga olinadi. Keyinchalik, berilgan asosda tashkil etilgan adabiy o'qish darsliklarining tuzilishi va mazmunini ko'rib chiqish kerak.

Xulosa va takliflar. 1. Biz ishchi daftarni innovatsion ko'p funksiyali o'quv qo'llanmasi, yangi texnologiyalarni joriy etish uchun ochiq, barcha imkoniyatlarga ega deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

1. Суюнов Х. Адабиёт дарсларида ўқувчиларни савол ва топшириқлар устида ишлашга ўргатиш усуллари. Пед.фан.ном. дисс.-я. –Т., 2005. –125 б.
2. Давронов, И. Э. Некоторые аспекты интерпретации понятий «задание» и «упражнение» / И. Э. Давронов. Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2012. – № 8 (43). – С. 323–326.
3. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – М.: Педагогика, 1972. – 576 с.
4. Розысков О.Р. Теоретические основы оптимального применения системы учебных задач в обучении школьников (на материалах гуманитарных предметов). Автореферат дисс...док. пед. наук. – Тбилиси, – 1986. – 50 с
5. Розиков О.Р. ва бошқалар. Дидактика. – Т.: Фан, 1997. – 256 б.
6. Намроев Г'. Ona tilidan o'quv topshiriqlari tuzish metodikasi –Toshkent. Donishman ziyosi, 2021. 157 b.
7. Ҳамроев Ф. Она тили ўқитишнинг самарали усуллари. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. –Т.: Баёз. 2018. 18-6.
8. Матжон С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 27-б.
9. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг асослари / Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, ToshDO'TAU, 2018. – В. 36.
10. Чориев А., Чориев И. Педагогиканинг методологик асоси ва илмий тадқиқот методлари. – Тошкент: Nishon noshir, 2016. – 45-б.
11. Убайдуллаев Н.Х. Ўқув таҳлилида автобиографик битиклардан фойдаланиш. Пед. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ... автореф. – Жиззах, 2022. – 23-б.



UDK: 37.372.8(372.851)

Maxammadjon RO'ZIKOV,
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: ro'zikov@mail.ru

Fizika-matematika fanlari nomzodi, professor A.Yusupova taqrizi asosida

PARAMETRLI MATEMATIK MASALALARNI YECHISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada parametrli masalalarning matematik tahlili, ularni turli mezonlar asosida klassifikatsiya qilish, yechish usullari hamda ularning o'quvchilarda variativ va umum mantiqiy tafakkurni shakllantirishdagi didaktik va metodik ahamiyati keng yoritilgan. Parametrlash usuli orqali masalalarni modellashtirish, tahlil qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish nazariy va amaliy misollar bilan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Parametrli masalalar, variativ va umum mantiqiy tafakkur, parametrlash usuli.

SCIENTIFIC-METHODICAL BASIS OF SOLVING PARAMETER MATHEMATICAL PROBLEMS

Annotation

This article extensively covers the mathematical analysis of parametric problems, their classification based on various criteria, methods of solving them, and their didactic and methodological significance in the formation of variational and general-logical thinking in students. The development of problem modeling, analysis, and decision-making skills through the parameterization method is substantiated with theoretical and practical examples.

Key words: Parametric problems, variational and general-logical thinking, parameterization method.

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РЕШЕНИЯ ПАРАМЕТРИЧЕСКИХ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ

Аннотация

В статье подробно рассматриваются вопросы математического анализа параметрических задач, их классификации по различным признакам, методы их решения, а также их дидактическое и методическое значение в формировании вариационного и общелогического мышления учащихся. Развитие навыков моделирования, анализа и принятия решений проблем с помощью метода параметризации подкреплено теоретическими и практическими примерами.

Ключевые слова: Параметрические задачи, вариационное и общее логическое мышление, метод параметризации.

Kirish. Matematika o'qitish jarayonida parametrli masalalardan foydalanish metodologik vosita sifatida modellashtirishga o'rgatishning muhim qismi hisoblanadi. Bunday yondashuv masaladagi koeffitsientlarni o'zgaruvchilardan farqli o'laroq noma'lumlar sifatida parametrlar orqali (masalaning tuzilishini o'zgartirmasdan) modifikatsiya (o'zgartirish) qilish orqali masalani yechishda umum mantiqiy va variativ tafakkur qilishni anglatadi. Masalani modifikatsiya qilish jarayonida parametrlarni kiritish nihoyatda foydali bo'lib, o'quvchida variativ tafakkur faqat yechimning to'g'riligini aniqlovchi strategiya sifatida emas, balki mustaqil tahliliy vosita sifatida shakllanadi. Parametrlar odatda ikki xil tabiatga ega, o'zgaruvchi sifatida masala shartiga qarab aktiv o'zgaruvchi (ya'ni, zarur holatda o'zgaradi) yoki noaktiv o'zgaruvchi (ya'ni, doimiy qiymatga ega) bo'lishi mumkin. Agar matematik masala orqali hayotiy vaziyat modellashtirilgan bo'lsa ko'pincha bunda oddiy tenglamalarni yechish yetarli bo'lmaydi. Aynan shunday hollarda parametrlardan foydalaniladi. Agar haqiqiy ishlaydigan vaziyat modellashtirilgan bo'lsa, u holda yechim yo'q bo'lishi mumkin emas, chunki real hayotdagi holatning o'zi mavjud bo'lgan yechimga ega. Bunday vaziyatda parametrlarni kiritish yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. Parametrlardan masalani o'zgartirish vositasi sifatida keng foydalanish mumkin. Parametrlar qo'shilishi masalaning yechimga ega bo'lishini kafolatlamaydi, balki parametrlarning o'zgarishi masalaga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashga imkon beradi. Masalan, tenglamaning yechimi cheksiz ko'p bo'lsa, parametr yordamida umumiy holda aniqlanadigan sohaga ega bo'lgan funksional ifodani topish mumkin bo'ladi. Bunda tenglamaning yechimlari parametrga bog'liq funktsiya ko'rinishida ifodalanadi. Parametrlar bilan ishlashning kognitiv (bilish) ta'sirlaridan biri bu o'quvchilarning variativ, umum mantiqiy tafakkur doirasini kengaytirishi bilan bog'liq.

Tadqiqot metodologiyasi qismi. Umum mantiqiy tafakkur – bu inson ongining ob'ektiv dunyo qonuniyatlarini anglash, tahlil qilish va umumlashtirish jarayonida

qat'iy asoslangan, izchil va natijaviy kompleks fikrlash qobiliyatidir. U matematikada aksiomatik sistemalar, isbot nazariyasi va algoritmik tahlil asosida shakllangan formal mantiq tamoyillariga tayanadi (mualliflik ta'rifi).

Variativ tafakkur-o'zgaruvchanlik, shartlarning moslashuvchanligi, matematik ifodalarning umumlashgan shakli va turli holatlarga mos yechimlar tizimini ongli ravishda tahlil qila olish hamda konstruktiv shakllantira olish qobiliyatidir. Ushbu tafakkur turi matematik mantiq, analitik fikrlash, struktura va parametrlar orasidagi bog'liqlikni turli variantlar bilan ko'ra olish, yechimlar soni qanday o'zgarishini nazorat qila olish bilan uzviy bog'liq (mualliflik ta'rifi).

Variativ tafakkur funksional bog'lanishlar, parametrik o'zgarishlar va matematik strukturalarning har xil sharoitdagi holatlarini tahlil qilish, o'zgarishlar (variatsiyalar) jarayonida ularning barqarorlik, moslik, yechimlar mavjudligi yoki yo'qligi, yechimlarning soni, yuzaga keluvchi maxsus holatlar (kritik nuqtalar) kabi matematik xususiyatlarni sistematik va mulohazali tarzda tadqiq etishda namayon bo'ladi. Variativ tafakkur o'quvchining faqatgina konkret misollarni yodlab olishiga emas, balki modellarni o'zgartirish, farazlar bilan ishlash, "agar... bo'lsa" ssenariylarini qurish, ko'plab ehtimollar ichidan optimalini tanlash kabi yuqori darajadagi tafakkur operatsiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, quyidagi tenglama berilgan bo'lsin: $x^2 + ax + 1 = 0$. O'quvchi oddiy tafakkur bilan tenglamaning ildizlarini topish bilan chegaralansa, variativ tafakkur savollarni quyidagicha kengaytiradi:

a parametrning qaysi qiymatlarda ildizlar haqiqiy bo'ladi?

a ning qanday qiymatida tenglama ildizlar teng?

a o'zgarigan sari ildizlar grafigi qanday o'zgaradi?

a ning qanday qiymatida tenglama ildizga ega emas?

a ning qanday qiymatida tenglama cheksiz ko'p ildizga ega?

Demak, matematika ta'limida parametrlil masalalardan foydalanish va parametrlash usullini tadbqiq etish matematik jarayonlarni o'zgarishlar nuqtai nazaridan chuqur anglash, o'zgaruvchilar va parametrlar o'rtasidagi dinamik munosabatni tahlil qilish, shu asosida umumiantiqiy, variativ fikrlash, farqlash hamda qaror qabul qilish kabi tafakkur formalarining universal modelini taqdim etadi. Parametrlash usuli-bu masalaningi ma'lum bir sub'ekti, o'lehami, burchak yoki koordinatani parametr deb olib, ushbu parametrga bog'liq holda masala shartini ifodalash va tahlil qilishni anglatadi.

Tahlil va natijalar. Geometriya masalalarining shartlarini chuqur tahlil qilishda parametrlash usulining o'rmini (N.S. Svirnevskiy, M.S. Adamchuk [1]), chiziqli tenglamalar sistemasini parametrlash orqali o'quvchilarning variativ tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan yangi didaktik yondashuvlar (Luis E. Hernández-Zavala [2]), parametrlil masalalarni yechishda duch kelinadigan qiyinchiliklar tahlili, bunday masalalarni yechish uchun metodik tavsiyalar (I.A. Ledovskix [3]), parametrlil matematik masalalarni yechish usullari, xususan Math-Bridge kompyuter dasturini qo'llash orqali o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish (I.P. Boriskina [4]), ba'zi parametrlil tenglamalarni grafik usulda yechishga oid tavsiyalar (U.A. Soatov [5]) parametrlil masalalardan foydalanish va parametrlash usullining metodik ahamiyatini ko'rsatib, uni an'anaviy usullaridan ustun qo'yadi. Ammo yuqoridagi tadqiqotlarda parametrlil masalalar klassifikatsiya o'rganilmagan. Biz parametrlil masalalar klassifikatsiyaga e'tibor qaratamiz va ushbu yo'nalish boyicha metodik materiallarni taklif etamiz. Chunki, masalalarning yaxshi klassifikatsiyasi uning turi va oson yechish usulini belgilaydi (D. Poya [2]).

Parametrlil masalalarni tizimlashtirishning ko'plab mezonlar mavjud. Masalan, F. Klyayn quyidagi klassifikatsiyani taklif etgan:

Bitta parametr ishtirok etuvchi tenglamalar;

Ikki parametrlil tenglamalar;

Uchta va undan ko'p parametrlil tenglamalar.

Y.M. Kolyagin [4] esa matematika masalalarini ularning tarkibiy qismlari (ya'ni noma'lum elementlar) soniga va masalaning murakkablik darajasiga qarab quyidagi tasniflashni taklif etadi: standart masalalar, o'rgatuvchi masalalar, izlovchi masalalar va muammoli masalalar. Y.M. Kolyagin ta'rifiga ko'ra, parametrlil masalalar "izlovchi masalalar" turiga kiradi.

Tadqiqotlarda parametrlil masalalarni quyidagi mezonlar asosida klassifikatsiya tavsiya etiladi: topshiriq turi va shakli bo'yicha; mavzular bo'yicha; metodlar bo'yicha; murakkablik darajasi bo'yicha.

1. Topshiriq turi va shakli bo'yicha klassifikatsiya.

Parametrlil masalalarni quyidagi ko'rinishlarda ajratish mumkin:

Bu holatda "parametrlil masalani yeching" topshirig'i quyidagicha talqin etiladi:

parametrling berilgan qiymatlari to'plamida umumiy yechimlarni topish;

parametrling qaysi qiymatlarida masala yechimga ega yoki ega emasligini aniqlash;

masalaning barcha yechimlarini aniqlash.

Biz bunga bevosita yechimni topish emas, balki masala yechimlari soni yoki ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlash shartini ham qoshamiz. Bunda asosan quyidagilar so'raladi:

-parametrling shunday maxsus qiymatlarini topingki, ular berilgan shartlarga javob bersin;

-ko'pincha bevosita yechimlarni topish talab qilinmaydi, hatto mumkin ham bo'lmasligi mumkin.

Bunday masalalar yechimlar soni, mavjudligi yoki chegaralanganligi haqidagi shartlarning berilishi bilan aniqlanadi.

2. Mavzu bo'yicha klassifikatsiya. Bu tasnif to'liq o'quv jarayoniga xos bo'lib, u maktab matematikasi kursiga kiritilgan an'anaviy mavzular asosida tuzilgan.

Geometrik masalalarga biz geometriya kursidagi shunday masalalarni kiritamizki, ularni yechishda qandaydir parametrga bog'liq funksiyalarni tahlil qilish talab qilinadi. E'tiborli jihati

shundaki, bu mavzu bo'yicha tasniflash odatda taxminiy xarakterga ega, chunki bir qancha o'zgartirishlar kiritilgandan so'ng masala yechimi ko'pincha algebraik tenglama yoki tengsizliklarga (odatda ikkinchi darajadan yuqori bo'lmagan) keltiriladi. Shuning uchun ular asosiy ilmiy asos (ya'ni poydevor) sifatida ajratiladi. Bu hol trigonometrik tenglamalar uchun unchalik o'rinli bo'lmasligi mumkin, chunki ular davriylik xususiyatiga ega.

3. Yechish usuli bo'yicha klassifikatsiya. Bu tasnif ham o'quv maqsadlariga yo'naltirilgan bo'lib, bu yerda masala yechish usuli bilan birga tasniflanadi. Bunday yondashuv ayniqsa o'quv darajasidagi masalalar uchun o'rinli bo'lib, u yerda taklif etilayotgan usul yagona bo'lishi mumkin, yoki boshqa usullarga nisbatan yaqqol afzallikka ega. Parametrlil masalarni yechish usullari umumiy va xususiy, algebraik va geometrik turlarga bo'linadi. Bizningcha, didaktik jihatdan masalani aynan bir ma'lum usul bilan yechish talabi qo'yilsa xato bo'ladi, chunki, mavjud bo'lgan boshqa usullar ancha qisqa va sodda bo'lishi mumkin. Masalan:

o'quvchilar "harakatga doir masalalarni" tenglama va tenglamalar sistemasi tuzish orqali yechishni bilishlari kerak. Ammo amalda ko'plab shunday masalalar harakat grafigini qurish orqali, ya'ni chiziqli funksiyalar grafigi yordamida ham yechiladi. Demak, bu holatda talab etilgan usulni yagona to'g'ri usul deb hisoblash noto'g'ri bo'ladi.

4. Murakkablik darajasi bo'yicha klassifikatsiya. An'anaviy tarzda birinchi darajadagi masalalar "elementar" (reproduktiv) masalalar deb ataladi. Ularning yechimi odatda asosiy algoritmlarga asoslangan bo'ladi. Ikkinchi darajali-"asosiy" yoki "tayanch" masalalar esa o'quvchining turli faktlar va teoremlarni bilishiga bog'liq bo'ladi. Aytish joizki, bu faktlarning ko'pchiligi darsliklarda berilmagan bo'ladi. Bundan tashqari, ayrim maxsus usullar bilan tanishlik zarur, chunki ularni mustaqil ravishda kashf etish juda qiyin. Aslida, mutlaqo yangi masalalar kam uchraydi - odatda masalalar mavjud bilimlar kombinatsiyasidan iborat bo'ladi va ular tanilgan usullar yordamida yechiladi. Ana shu bilimlar va yondashuvlar "tayanch masalalar" tizimi orqali kiritiladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchisining matematik tayyorgarlik darajasini oshirish uchun unga "tayanch masalalar" ni ko'proq berish lozim. Uchinchi darajali - ijodiy yoki "nostandart" masalalar birinchi va ikkinchi darajalarda kiritilgan g'oyalarga va metodlarga asoslanadi, shuningdek, o'quvchining shaxsiy nazariy topilmalarini ham talab qiladi. Ijodiy masalani yechish-bu tadqiqot jarayoni bo'lib, quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: masala shartini tahlil qilish; masala shartida asosida yotgan g'oyalarni aniqlash; masala shartini kichikroq masalalarga ajratish; yechish rejasini tuzish va uni amalga oshirish. Shu bois, aynan ijodiy masalalar ilmiy-tadqiqot tabiatiga ega haqiqiy muammolarning modellaridir. O'quvchilar kelajakda ana shunday masalalarga duch kelish ehtimoli yuqori. Masalalarni murakkablik darajasi bo'yicha uch darajaga ajratish aksariyat masalalar to'plamlarida an'anaviy yondashuv hisoblanadi. Bu tasnif nafaqat parametrlil masalalarga, balki boshqa barcha turdagi masalalarga ham tatbiq etiladi. Ammo quyidagilarni alohida ta'kidlash zarur:

-masalaning murakkabligi faqat yechuvchi shaxsning subyektiv tajribasiga nisbatan ma'noga ega bo'ladi;

-"oddiy" (reproduktiv) masalalar va "ijodiy" masalalar orasidagi farq - faqat ularni kim yechayotganiga bog'liq.

Endi parametrlil masalalarni yechish usullarini tizimlashtirishga o'tamiz. Bizning fikrimizcha, har qanday matematik masalaning asosida shu masalaning shartida ishtirok etayotgan biror funksiyaning yoki bir nechta funksiyalarning xossalari yotadi. Parametrlil masalalarni yechishda odatda quyidagi usullar ajratib ko'rsatiladi: analitik usul; funksional usul; grafik usul; almashtirish (o'zgaruvchini almashtirish) usuli; o'zgaruvchilar o'rmini o'zgartirish usuli; umumiydan xususiyga o'tish usuli; "teskari yurish" usuli; kombinatsiyalangan usullar. Yuqorida keltirilgan usullar, albatta, parametrlil masalalarni yechishdagi barcha yondashuvlarni to'liq qamrab olmaydi, biroq ular eng ko'p uchraydigan va amaliyotda keng qo'llaniladigan usullardir. Analitik usulning asosiy mazmuni-ekivalent (yoki teng kuchli) almashtirishlar hisoblanadi. Parametrlil tenglama yoki tengsizlik (sistemalar) ni yechishda har bir matematik ifodani

unga ekvivalent bo'lgan boshqa bir ifoda bilan almashtirish orqali yechimga erishiladi. Analitik usulda ko'p hollarda masala shart qismlarga bo'lib tahlil qilinadi, ya'ni masalaning sharti sodda shartlar to'plamiga ajratiladi va yechish usuli aniqlanadi. Masalan, shartda modul ishtirok etsa, uni modul belgisiz ifodalarga ajratish orqali bir nechta sodda holatlar ko'rib chiqiladi. Funktsional usul ko'pincha funktsiyalarning ayrim xossalari (monotonlik, davriylik, jut va toqlik va hokazo) tayaniladi. Biz ushbu usulni takomillashirishimiz xususan, agar tenglama yoki tengsizlikni hosil qilgan funktsiya simmetrik sohada berilsa, uning yechimlarni tanlash muayyan qoidalardan foydalanish mumkin. Parametrli masalalarni yechishning grafik usuli mohiyati argument va parametrning tartiblangan juftlarini evklid fazodagi nuqta koordinatalari sifatida qarashga asoslanadi (geometrik nuqtalar to'plami ko'rinishidagi yechimlarni hosil qiladi). Almashtirish usuli masalaning boshlang'ich shartini yangi o'zgaruvchilar kiritish soddalashtirishga asoslanadi, bu esa yechim jarayonini soddalashtiradi. Ko'pincha bu yondashuv trigonometrik tenglamalar yoki tengsizliklarni yechishda qo'llaniladi, ularni algebraik tenglamalarga keltirib, tahlilni ancha yengillashtiradi. Ammo aksincha holatlar ham bo'lishi mumkin: ba'zi algebraik masalalarni trigonometrik ekvivalentga aylantirish orqali ularni osonroq yechish mumkin bo'ladi. O'zgaruvchilar o'rnini almashtirish usuli noma'lum o'zgaruvchi bilan parametrning o'rnini almashtirishga asoslanadi. Bu ko'pincha noma'lumning darajasi (o'rnini) parametrnikidan ancha yuqori bo'lganda qo'llaniladi. Ushbu o'zgarish masalaning tahlilini osonlashtiradi va yechim algoritmini soddalashtiradi. Umumiydan xususiyga o'tish usulida o'zgaruvchi yoki parametrning qulay qiymatini tanlab olinadi va masalaning umumiy yechimi xususiy hol orqali isbotlanadi yoki umumlashtiriladi. Analogiya usulida berilgan masalaga o'xshash analog topiladi va undan yechim uchun barcha kerakli amallar o'xshashlik asosida foydalaniladi (masala analoglar orqali tahlil qilinadi). Ko'p hollarda har qanday murakkab masalaning ham biror analog yechilgan ko'rinishi mavjud bo'ladi. Teskari yurish usuli ayniqsa, noma'lumlar soni tenglamalar sonidan ko'p bo'lganda (ya'ni shart yetarli bo'lmagan hollarda) foydali bo'ladi. Bunday hollarda masalaning biror komponenti odatda parametr qiymati avvaldan topilgan deb faraz qilinadi va masala shundan keyin tahlil qilinadi. Kombinatsiyalashgan usullar berilgan masalada ishtirok etayotgan funktsiyalarning xos xususiyatlariga asoslanadi (barcha yoki ayrim usullarni birlashtiradi).

Xulosa va takliflar. Biz yuqoridagi usullarni o'rgangan holda parametrik masalalarni yechishning komponentli tahlil usulini taklif qilamiz. Usulning mohiyat murakkab tenglama, tengsizlik, ularning sistemasi yoki modelni oddiyroq, tushunarli, elementar qismlarga ajratib har bir qismini alohida tahlil qilish orqali butunlikni anglashni nazarda tutadi. Ushbu usul qo'llanilganda ekvivalentlik konsepsiyasi muhim rol o'ynaydi. Xususan, $f(x) = g(x)$ va $f_1(x) = g_1(x)$ tenglamalar bir xil

yechimlar to'plamiga ega bo'lsa, ular ekvivalent tenglamalar deb ataladi. Bunda $f(x) = g(x) \Leftrightarrow f_1(x) = g_1(x)$. Hech qanday yechimga ega bo'lmagan tenglamalar ham o'zaro ekvivalent sanaladi. Tenglamani ekvivalent tenglama bilan almashtirish jarayoni ekvivalent o'tish yoki ekvivalent shakl almashtirish deb ataladi. Masalan, masala bir nechta tenglamalar to'plamidan iborat bo'lsa va izlanayotgan o'zgaruvchi kamida bittasini qanoatlantirishi kerak bo'lsa, masala bir nechta ekvivalent tenglamalar majmuasi bilan almashtiriladi. Bunday

$$\begin{cases} f_1(x) = 0 \\ f_2(x) = 0 \\ \dots \\ f_n(x) = 0. \end{cases}$$

tenglamalar majmuasi quyidagicha yoziladi: Bu majmuaning yechimi o'zgaruvchi uchun kamida bitta tenglamani qanoatlantiruvchi qiymatdir. Agar o'zgaruvchi har bir tenglamani qanoatlantirishi kerak bo'lsa, bu holda tenglamalar sistemasini yechish kerak, deyiladi. Tenglamalar sistemasi quyidagicha

$$\begin{cases} f_1(x) = 0 \\ f_2(x) = 0 \\ \dots \\ f_n(x) = 0. \end{cases}$$

yoziladi: $f_n(x) = 0$. Sistemaning yechimi o'zgaruvchi qiymati bo'lib, barcha tenglamalarni bir vaqtning o'zida qanoatlantiradi. Ekvivalentlik konsepsiyasi yordamida tenglama va tengsizliklarni yechish algoritmlarini mantiqiy sxema tarzida ifodalash mumkin. Bu tushuncha mantiqiy inkor (inkor qilingan ifoda) asosida yangi

masalalarni shakllantirish imkonini ham beradi. Agar $A(x)$

mantiqiy ifoda va $\neg A(x)$ uning inkori bo'lsa, u holda mantiqiy inkor qoidalari quyidagicha yoziladi:

$$1. \neg(\forall x \in X : A(x)) \Leftrightarrow (\exists x \in X \neg A(x))$$

$$2. \neg(\exists x \in X : A(x)) \Leftrightarrow (\forall x \in X \neg A(x))$$

Bu qoidalar inversiya usulini (ya'ni faoliyat protseduralarini teskari tartibda amalga oshirishni) qo'llashga imkon beradi. Bunda funktsiyalarni o'zgartirish, masalaga qarama-qarshi nuqtai nazardan yondashish, to'g'ridan-to'g'ri shart o'rniga inkor qilingan shartni tahlil qilish kabi yondashuvlar qo'llaniladi. Masalan, quyidagi masalani olaylik. "Parametrning barcha qiymatlarini topingki, har birida masala sharti hech bo'lmaganda bitta o'zgaruvchi uchun bajarilsin." Bu shartni inkor qilish orqali masalani quyidagicha tahlil qilinadi: "Parametrning barcha shunday qiymatlarini topingki, masala hech qanday o'zgaruvchi uchun yechimga ega bo'lmasin." Keyin bu qiymatlar to'plamining umumiy aniqlanish sohasidan komponentni olish orqali izlanayotgan yechimlar to'plami aniqlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Сви́рневский Н.С. Параметризация геометрических моделей // Моделирование и распознавание 2D/3D образов [Электронный ресурс]. URL: <https://api-2d3d-cad.com/param> (дата обращения: 19.08.2020).
2. Hernández-Zavala L. E., Trigueros M. & Okaç A. (2023). Parametric variation and students' variational thinking in solving systems of linear equations. International Journal of Mathematical Education in Science and Technology, 54(2), 314–337.
3. Ledovskih I.A. (2004). Uravneniya i neravenstva s parametrami: praktikum. Moskva: Prosveshchenie.
4. Boriskina I.P. (2021). The use of Math-Bridge platform for solving parameterized problems. JARTE&S – Journal of Advanced Research in Technical and Educational Sciences, Vol. 2, No. 1.
5. Soatov U.A. (2022). About the methods of solving parametric equations. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES) VOLUME 1, ISSUE 5



UDK: 130.2

Ramz RUSTAMOV,
Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti, PhD
E-mail: ramzrustamov@gmail.com

QarDU professori, f.f.d S.Choriyev taqrizi asosida

THE ROLE OF PROPAGANDA IN MODERN SOCIETY

Annotation

In the new century, the propaganda system has become an integral mechanism that serves to increase the awareness of citizens by disseminating various economic, political, social, and cultural knowledge and information, and, in a broader sense, to shape people's worldview and attitude to the world, and at the same time, this explains the increasing attention of various social institutions to the possibilities of the propaganda system.

Key words: Propaganda system, modern propaganda systems, propaganda tools, social significance of propaganda.

РОЛЬ ПРОПАГАНДЫ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация

Анализируется, что в XXI веке система пропаганды стала неотъемлемым механизмом, который служит повышению осведомленности граждан путем распространения различных экономических, политических, социальных и культурных знаний и информации, а в более широком плане формирует мировоззрение и отношение людей к миру, и в то же время различные социальные институты уделяют все большее внимание возможностям системы пропаганды.

Ключевые слова: Система пропаганды, современные системы пропаганды, инструменты пропаганды, социальная значимость пропаганды.

TARG'IBOTNING ZAMONAVIY JAMIYATDAGI ROLI

Аннотация

XXI asrda targ'ibot sistemasi turli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy bilimlar va ma'lumotlarni tarqatish orqali fuqarolar xabardorligini oshirishga xizmat qiladigan, kengroq tavsiflaganda, kishilarning dunyoqarashini, olamga munosabatini shakllantiradigan yaxlit mexanizmga aylanganligi va shu bilan birga turli ijtimoiy institutlarning targ'ibot sistemasi imkoniyatlariga e'tibori oshib borayotgani ham shuning bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: Targ'ibot sistemasi, zamonaviy targ'ibot sistemalari, targ'ibot vositalari, targ'ibotning ijtimoiy ahamiyati.

Kirish. Targ'ibot sistemasining mazmuni, tarkibi va evolyusiyasini tadqiq qilgan ba'zi mutaxassislar uning o'rta asrlar oxirlarida missionerlik faoliyatining sharofati bilan yuzaga kelganini e'tirof etadilar[1]. Bu mulohazalarga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki masalaga bunday yondashadigan bo'lsak, XVIII asrga qadar hech qanday g'oya va ta'limot tarqatilmagan, jamoatchilik fikriga biror bir tarzda ta'sir ko'rsatilmagan, biror bir ijtimoiy ahamiyatli hayotiy pozitsiyani shakllantirishga harakat qilinmagan, degan bema'ni xulosa chiqarishga to'g'ri keladi. Aslida esa muayyan g'oya, qarash, fikr, fakt, argumentni tarqatish, uni jamoatchilik ongiga singdirish va shu yo'l bilan jamoatchilik fikrini shakllantirish zaruriyati insoniyat taraqqiyotining jadallashirish, ma'lum ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy masalalar echimi targ'ibot sistemasini shakllantirishni taqazo etgan. "Chunki jamoatchilik fikrisiz jamiyat taraqqiyotini amalga oshirib bo'lmazligi oddiy haqiqatdir"[7].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyot paradigmatlari o'zgarib borgan, taraqqiyotning yangi va yangi modellari vujudga kelgani, diniy qarashlar, g'oya va mafkuralar rivojlangani, manfaatlar to'qnashuvi keskin tus olgani sayin targ'ibot sistemasi ham murakkablashib bordi. Xususan, asrlar davomida turli ijtimoiy guruhlar, siyosiy kuchlar, ushbu kuchlarning ijtimoiy-siyosiy manfaatlariga xizmat qilgan ilmiy jamoatchilik targ'ibot sistemasini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor berib keldilar. Ushbu sa'y-harakatlarning samarasi o'laroq targ'ibotning yangi va yangi tiplari, ko'rinishlari yuzaga kela bordi.

Biroq targ'ibot sistemasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlabgina tom ma'noda qudrat kasb qila boshladi. Chunki bu davrga kelib, kishilarning ongi va dunyoqarashiga maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish, ularda muayyan ijtimoiy fikr va pozitsiyani shakllantirish, ma'lum yo'nalishda faoliyat ko'rsatishga undash zaruriyati oshib ketdi. Xususan, jamiyatda faoliyat olib borayotgan siyosiy institutlar - fuqarolarda konkret ijtimoiy-siyosiy pozitsiyani shakllantirishdan, iqtisodiy sub'ektlar - ularni muayyan mahsulot va xizmatlar iste'moliga undashdan, ijtimoiy institutlar - ularni biror bir maqsad-muddao yoxud nuqta-i-nazar atrofida birlashtirishdan, madaniy institutlar - ularning xabardorligi darajasini oshirishdan manfaatdor bo'lib qoldilar. Targ'ibot sistemasi esa ana shunday muddaolarni ro'yobga chiqarishga samarali xizmat qilishga qodir qudrat, o'ziga xos mexanizm sifatida baholandi.

Bu borada uning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish yo'llarini ifodalovchi nazariyalar ham paydo bo'ldi. Mazkur nazariyalardan biri Nyu-Yorkdagi Siyosiy fanlar markazi direktori lavozimida ishlagan Garold Duayt Lassuell tomonidan ishlab chiqilgan. Olimning fikricha, targ'ibot neytral mazmunga ega, u o'z oldiga qo'ygan maqsadiga qarab, ijobiy ham, salbiy ham bo'lishi mumkin. Har qanday fuqaro targ'ibotga o'ta beriluvchan bo'ladi, ijtimoiy muammolar, iqtisodiy inqiroz va siyosiy ziddiyatlarning keskinlashishi ulardagi bu xususiyatni yanada kuchaytiradi. Kishilar targ'ibotni ruhiy xotirjamlik manbai deb qabul qila boshlaydilar. Shu boisdan targ'ibotdan unumli va maqsadga muvofiq foydalanish zarur. G.Lassuell targ'ibotning maqsadi kishilarni yagona muddao atrofida birlashtirishdan iborat deb hisoblaydi. Olim targ'ibot vositalari fuqarolarning ham aql-zakovatiga, ham his-tuyg'ulariga ta'sir qilishga intilishi kerakligini uqdiradi. Buning uchun ommaviy axborot vositalarini ilmiy texnokratyaga bo'ysundirishni, targ'ibot jarayonida kishilarni junbushga keltirishi mumkin bo'lgan turli siyosiy

miflardan, siyosiy stereotiplardan keng foydalanishni taklif etadi[8].

Yozuvchi va jurnalist Uolter Lippman o'z davridagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlar nihoyatda murakkablashib ketganini qayd qiladi. Jarayonlar shu qadar murakkab va sinoatli tus oldiki, oddiy fuqaro uning mohiyatini mustaqil ravishda anglab eta olmaydi. Shu boisdan rivojlanib borayotgan davr destruktiv targ'iboti uni osongina aldashi, g'ayriinsoniy g'oyalarga safarbar qilishi mumkin. U. Lippman Garold Lassuellning ommaviy axborot vositalarini ilmiy texnokratiyaga bo'ysundirish haqidagi mulohazalarini qo'llab-quvvatlaydi, bu targ'ibot samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Shuningdek, yozuvchi Tadqiqotlar byurosini tashkil etishni taklif qiladi. Uning fikricha, bu byuro turli ma'lumotlarni tahlil qilish, uning natijalarini elitaga taqdim etish, aholi bilishi yoki bilmasligi zarur bo'lgan ma'lumotlar doirasini aniqlash bilan mashg'ul bo'lgan darkor[9].

Amerikalik faylasuf, pragmatizm namoyandasi Jon Dyui esa o'z targ'ibot nazariyasini taklif etdi. Uning fikricha, targ'ibotning asosiy maqsadi ma'rifat tarqatish bilan bog'liq bo'lmog'i kerak. Faqat ma'rifat tarqatish orqaligina fuqarolarni g'ayriinsoniy, yolg'ondakam maqsadlardan muhofaza qilsa bo'ladi. Biroq faylasuf ommaviy axborot vositalarini biror bir ijtimoiy guruh ixtiyoriga topshirib qo'yish g'oyasini ma'qul deb bilmaydi. U ta'lim va ommaviy axborot vositalarini isloh qilishni, ular imkoniyatlaridan foydalangan holda ijtimoiy muammolarni muhokama etib borishni maqsadga muvofiq deb biladi[10].

Ijtimoiy zaruriyatga javoban olimlar tomonidan taqdim qilingan nazariyalar asosida muttasil takomillashtirib borilgan targ'ibot sistemasi yangi asrga kelib jiddiy ijtimoiy ahamiyat kasb qilmoqda. Zamonaviy jamiyatlarda uning imkoniyatlaridan turli maqsadlarda keng foydalanilmoqda. O'z muddaolariga erishish ilinjida targ'ibot qudratiga tayanishni ma'qul topgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy institutlar ko'payib bormoqda. Boshqacha aytganda, XXI asrda targ'ibot sistemasi turli maqsadlarga erishishning eng ishonchli vositalaridan biriga aylandi.

Tahlil va natijalar. Avvalo, targ'ibot sistemasi imkoniyatlaridan jamoatchilikda maqbul fikrni shakllantirish maqsadida foydalanish avj olmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamonaviy jamiyatda jamoatchilik fikri muhim funksiyalarni bajarmoqda. U birinchi navbatda ijtimoiy o'zgarishlarning yo'nalishini belgilab beruvchi qudratli manbadir. Zotan, jamiyat a'zolari ehtiyoj va manfaatlarini ifodasi bo'lmish jamoatchilik fikri tomonidan qo'llab-quvvatlangan maqsad-muddaolarnigina ro'yobga chiqarsa bo'ladi. Jamoatchilik ma'qullamagan, o'z maqsadlari ifodasi deb bilmagan maqsadlarga erishib bo'lmaydi. Bunday maqsadlarga jamiyat a'zolarini safarbar qilib, uning sari yo'naltirib bo'lmaydi. Shu boisdan har qanday ijtimoiy o'zgarishlar avvalo jamoatchilikning maqbul munosabatini shakllantirishni, uni tashkillashtirish va boshqarishni taqozo qiladi[7]. Ana shu vazifani amalga oshirishda targ'ibot sistemasi hal qiluvchi rol o'ynaydi, negaki aynan uning imkoniyatlariga tayangan holda jamoatchilikda amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan yangilanishlar xususida maqbul nuqtai-nazarni shakllantirish mumkin bo'ladi. Zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar maqbul jamoatchilik fikrini shakllantirishga yo'naltirilgan targ'ibot ishlaridan boshlanayotgani sababi ham shunda.

Jamoatchilik fikrining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, u jamiyatda muayyan qadriyatlarining ildiz otishiga, xulq-atvor normalarining qaror topishiga zamin yaratadi. Darhaqiqat, jamiyatda keng jamoatchilik ma'qul deb bilgan, uning tomonidan ma'qullangan qadriyatlar va normalargina ommalashadi. Jamiyatning har bir a'zosi jamoat qadrlagan qadriyatlarinigina o'zlashtirishga, uning tomonidan e'tirof etilgan normalarnigina o'z atvori qoidasiga aylantirishga intiladi. Zamonaviy targ'ibot sistemasi esa ijtimoiy institutlarga jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatish orqali maqbul qadriyat va normalarni keng ommalashtirish imkonini bermoqda.

Jamoatchilik fikri - jamiyatda mavjud bo'lgan turli muammolarni bartaraf qilish omili hamdir. Kishilar e'tiboridan chetda qolib kelayotgan muammoni bartaraf qilish bag'oyat qiyin kechadi. Aksincha, ma'lum bir ijtimoiy muammoning jamoatchilik diqqat markaziga tushirilishi uni bartaraf etish sari

qo'yilgan ilk qadamdir. Zamonaviy targ'ibot sistemasi ana shu vazifani nihoyatda ustakorlik bilan uddalamoqda. Turli mamlakatlarda faoliyat ko'rsatayotgan ijtimoiy institutlar jamoatchilikning mavjud muammolarga e'tiborini tortish, ularning sabablari va oqibatlarini ma'lum qilish, kishilarni mazkur muammoni hal qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy dasturlarni ro'yobga chiqarish sari safarbar qilish maqsadida targ'ibot uslub va usullaridan faol foydalanmoqdalar.

Ayrim olimlar jamoatchilik fikrining yana bir imkoniyatini - uning ijtimoiy ziddiyatlarini bartaraf etishdagi rolini ham tilga oladilar[6]. Ma'lumki, ijtimoiy ziddiyatlardan batamom sug'urta qilingan jamiyat mavjud emas. Turli ijtimoiy pozitsiya tarafdorlari, turli tabaqa va sinflar, guruh va toifalar mavjud bo'lar ekan, vaqti-vaqti bilan ularning ehtiyoj va manfaatlarini o'rtasida to'qnashuv yuzaga kelaveradi. Jamiyatning sivilizatsiyalashganligi darajasi ziddiyatlarning yo'qligiga qarab emas, ularning bartaraf etilishi yo'llariga qarab belgilanadi. Fuqarolari ziddiyatli davrlarda o'zaro murosaga kela olgan jamiyatgina ravnaqqa qodirdir. Biroq mazkur murosaga vujudga kelishi uchun avvalo maqbul jamoatchilik fikri shakllantirilmog'i lozim. Bu vazifani ham zamonaviy jamiyatlarda aynan puxta o'ylangan holda oqilona tashkil etilgan targ'ibot sistemalari bajarmoqda.

Xullas, yangi asrda targ'ibot sistemasi jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatish orqali kishilarni ijtimoiy maqsadlar sari safarbar qilish, muhim ijtimoiy dasturlarni ro'yobga chiqarish, jamiyatda maqbul qadriyatlar va xulq-atvor normalarini qaror toptirish, mavjud ijtimoiy muammolar-ni bartaraf qilish, ijtimoiy ziddiyatlar keskinlashuvining oldini olish, fuqarolarni o'zaro murosaga keltirish vositasiga aylandi.

Ko'rinib turibdiki, yangi asrda targ'ibot sistemasi turli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy bilimlar va ma'lumotlarni tarqatish orqali fuqarolar xabardorligini oshirishga xizmat qiladigan, kengroq tavsiflaganda, kishilarning dunyoqarashini, olamga munosabatini shakllantiradigan yaxlit mexanizmga aylandi. Turli ijtimoiy institutlarning targ'ibot sistemasi imkoniyatlariga e'tibori oshib borayotgani ham shuning bilan izohlanadi.

Zamonaviy jamiyatda kishilarning xulq-atvori va faoliyatiga ta'sir ko'rsatishda ham targ'ibot sistemasi imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Holbuki, yillar o'tgani sayin bunga zaruriyat tobora oshib bormoqda. Birinchidan, zamonaviy jamiyatda insonning xulq-atvorini o'zgartirishdan manfaatdor kuchlar, unga qudratli ta'sir o'tkazishga qodir omillar nihoyatda ko'payib ketdi. E'tiborli jihati shundaki, bu omillarning inson ma'naviy olamiga ta'siri turli vositalar yordamida uzluksiz ravishda sodir bo'lmoqda. Yuzaga kelayotgan xulq-atvor modellarining hammasi ham millatning asrlar davomida qaror topgan turmush normalari va qadriyatlariga, jamiyat manfaatlariga mos tushayotgani yo'q, albatta. Masalan, turli mamlakatlarda g'arbona ommaviy madaniyat ta'sirida qaror topayotgan o'ta individuallashgan hamda xudbinlik tamoyillari bilan yo'g'rilgan xulq-atvor modeli milliylikdan va jamoaviylikdan o'ta yiroqligi bilan xarakterlanadi. Xulq-atvorning ayrim modellari esa o'zining ijtimoiy xavfliligi, jamoatchilik manfaatlariga zidligi, axloq normalaridan ayri tushganligi bilan tavsiflanadi.

Bunday vaziyatda faqat targ'ibot sistemasigina maqbul ijtimoiy normalar va qadriyatlarini tarqatish orqali jamiyat a'zolari xulq-atvoriga maqsadli ta'sir ko'rsatish, ularning milliylik bilan yo'g'rilgan hayotiy tamoyillarini qaror toptirish imkonini beradi. Aynan uning imkoniyatlariga tayangan holda kishilar xulqini jamiyat manfaatlarini bilan uyg'unlashtirish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, targ'ibot sistemasi jamiyat a'zolarini g'ayriinsoniy va g'ayriijtimoiy, axloqsiz va bema'ni xulq modellaridan muhofaza qilishda muhim omil vazifasini o'taydi. Xuddi shuning uchun ham bugungi kunda jahonning qariyb barcha mamlakatlarida milliy va ijtimoiy normalarga mos xulq modellarini targ'ib va tashviq qilish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Keyingi yillarda nafaqat an'anaviy jamiyatlarda, balki individual turmush tarzini va xulq-atvor plyuralizmini ulug'lab kelgan jamiyatlarda ham bunday targ'ibotning kuchaygani ko'zga tashlanmoqda.

Ikkinchidan, zamonaviy jamiyatda kishilar faoliyatini ijtimoiy manfaatlarini qondirishga qaratilgan harakatlarga

yo'naltirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Bu zaruriyat mamlakatlarda yolg'iz, keksa, nogiron va yordamga muhtoj kishilarning ko'payib borayotganidan kelib chiqmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda, "AQSHda 1970-yillarda fuqarolarning 17 foizi yolg'izlikda yashagan bo'lsa, bugungi kunga kelib ularning soni 25 foizga etdi. Ular turkumiga nafaqat hayot taqozosi bilan yolg'iz qolgan kimsalar, balki o'z ixtiyori bilan izolyasiyada yashayotgan kishilar ham kiradi. Italiyada jamiyat a'zolarining 27 foizi yolg'izlikda umr kechirmoqda. Yaponiyada fuqarolarning 30 foizi o'z oilasiga ega emas"[4]. Ayrim mamlakatlarda vaziyat bundan ham ayanchli: Shvesiyada aholining 50 foizi yolg'izlikda yashaydi. Jahon mamlakatlarida keksalar soni ham ortmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, jahonda 65 yoshdan oshgan keksalar soni 1950-yilga nisbatan 5,9 foizga ko'payib, 761 million kishiga etgan[5]. Shuningdek, dunyo yurtlarida nogiron va yordamga muhtoj kishilar sonining ko'payotgani ham ko'zga tashlanadi. Shu munosabat jamiyatda yolg'iz, keksa, nogiron va yordamga muhtoj kishilarga madad qo'lini cho'zish, shu ijtimoiy vazifa bilan shug'ullanadigan ijtimoiy mexanizmni takomillashtirish, uning faoliyatiga imkon qadar ko'proq jamiyat a'zolarini jalb qilish zaruriyati tug'ilmoqda. Barcha mamlakatlarda targ'ibot sistemasi mazkur ahamiyatli ijtimoiy vazifani ado etishga xizmat qilmoqda: uning vositasida kishilar volonterlik faoliyatiga, xayriya ishlariga, jamiyat uchun foydali bo'lgan boshqa yumushlarga jalb qilinmoqdalar. Shu nuqtai nazardan fikrlaganda, zamonaviy jamiyatda targ'ibot sistemasi jamiyatni insonparvarlashtirish, insonpar-varlik va oqibatlilik, muruvvat va rahmshafqatlilik tamoyillarini keng ildiz o'ttirish imkonini beradigan o'ziga xos mexanizm, omil vazifasini ham o'tamoqda.

Zamonaviy jamiyatda targ'ibot sistemasi yuqorida tilga olingan to'rt omilni vujudga keltiruvchi manba vazifasini o'tamoqda. Xususan, birinchidan, qariyb barcha mamlakatlarda mazkur sistema imkoniyatlari millat uchun qadrlil bo'lgan g'oyalarni tarqatish, ularni jamiyat a'zolarining e'tiqodiga aylantirish yo'lida safarbar qilinmoqda. Mutaxassislar bunda targ'ibotning ham og'zaki, ham yozma, ham virtual usullaridan unumli foydalanilayotganini qayd qiladilar[3]. Ikkinchidan, bugungi kunda targ'ibot sistemasi kishilar o'rtasidagi

munosabatlarni faollashtirish, shaxslararo hamkorlikni ta'minlash vositasi bo'lib xizmat qilmoqda. Jamiyat a'zolari turli tadbirlarga, ijtimoiy harakatlarga, tashabbuslar ro'yobiga aynan mazkur sistema vositasida jalb etilmoqda. Aynan targ'ibot sistemasi o'zaro ham-korlikka chorlovchi qudrat bo'lib qolmoqda.

Uchinchidan, targ'ibot sistemasi zamonaviy jamiyatda ijtimoiy yordam tizimini harakatga keltiruvchi, unga umumijtimoiy tus beruvchi kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Fuqarolar har qanday xayriya tadbirlariga, o'zaro yordam choralariga, mehr-muruvvat dasturlariga aynan targ'ibot sistemasi vositasida safarbar qilinmoqda. Ahamiyatli tomoni shundaki, mehr-muruvvat tadbirlariga alohida ahamiyat beriladigan O'zbekiston kabi yurtlarda fuqarolarning bu boradagi individual tashabbuslari ham targ'ibot orqali kishilarga ma'lum qilinmoqda.

Masalaning yana bir tomoniga alohida to'xtalib o'tmoq dardkor. Zamonaviy dunyo inqirozlar, ixtiloflar, kelishmovchiliklar, ziddiyatlarning boyligi bilan xarakterlanmoqda. Turli mintaqalarda sodir bo'layotgan bunday inqiroz va ixtiloflar nafaqat shu mintaqalardagi, balki undan yiroq bo'lgan yurtlardagi hamjihatlikka ham tahdid solmoqda. Bunday vaziyatda ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlash masalasi millatlar va elatlar uchun strategik ahamiyatga molik masalaga aylanmoqda. Binobarin, targ'ibot sistemasi ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlash omili vazifasini o'tamoqda ekan, uni strategik masalani hal etishga xizmat qilayotgan vosita sifatida ham baholamoq dardkor.

Xulosa va takliflar. Xullas, zamonaviy jamiyatda targ'ibot sistemasi insonparvar g'oyalarni ommalashtirish, shaxslararo munosabatlarni faollashtirish, o'zaro yordam muhitini vujudga keltirish orqali ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlashga qaratilgan vazifalarni ado etishga xizmat qilmoqda. Kishilik jamiyatda inqirozlar, ixtiloflar, kelishmovchiliklar, ziddiyatlar mavjud bo'larkan, ularning ijtimoiy hamjihatlikka tahdidi saqlanib qolarkan, targ'ibot sistemasi ham o'z ahamiyati va rolini yo'qotmaydi. Asrlar davomida muhim ijtimoiy funksiyalarni bajarib kelgan targ'ibot sistemasi yangi asrda tom ma'noda qudratli ijtimoiy mexanizmga aylandi. Bugungi kunda jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni ado etishda uning imkoniyatlari va salohiyatidan keng foydalanilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Патрихина Т.Н., Шламова Д.А. Пропаганда: сущность научной дефиниции, подходы к класси-фикации.// Молодой ученый, 2015, №4.- 305-308-с.
2. Siertmann C. The Nature of Propaganda.- N.Y., 1969.- P.12.
3. Кареева С.Г., Некрасов С.В., Пинчук А.Н. Пропаганда как метод воздействия на общественное сознание: общий теоретический аспект.// Вестник НГУЭУ, 2020, №4.- 225-226-с.
4. Bekmurodova G.H. Zamonaviy ijtimoiy destruksiya va uning O'zbekistonda namoyon bo'lishi.- Qarshi: QarDU nashr., 2023.- B.75.
5. Гонатаева А.Г., Кирова И.В. Демографическое старение населения: причины и последствия.// Экономика и бизнес: теория и практика, 2023, №9.- 54-с
6. Килмашкина Т.Н. Предупреждение социального конфликта как элемент управления им.// Труды Академии управления МВД России, 2015, №1.- 9-13-с.
7. Yazdonov U.T. Jamoatchilik fikrini tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish zaruriyati.// Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining axborotnomasi, 2019, №1.- 133-135-b.
8. Гнатюк О.Л. Из истории американской коммуникологии и коммуниктивистики: Гаролд Лассуэлл (1902-1978).// Актуальные проблемы теории коммуникации.- СПб.: Изд-во СПбГУ, 2004.- С. 11-20.
9. Липпман У. Общественное мнение.- М.: Литрес, 2023.
10. Бакулев Г.П. Массовая коммуникация: Западные теории и концепции.- М.:Аспект Пресс, 2005.- С.176



Jubatxan SAGINDIKOV,
Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti
E-mail: Jubatxan1948@gmail.com

Falsafa fanlari doktori, prof. R. Mahmudov taqrizi asosida

YOSHLARNING MA'NAVYI YUKSALISHI VA KOMIL INSON BO'LIB TARBIYALANISHIDA MILLIY G'OYANING FALSAFIY AHAMIYATI

Аннотация

Ushbu maqolada yoshlarning ma'naviy yuksalishi va komil inson bo'lib shakllanish jarayonida milliy g'oyaning tutgan o'rni falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Muallif milliy g'oyani yosh avlodni axloqiy barkamol, vatanparvar va ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashda asosiy ma'naviy omil deb e'tirof etadi. Milliy g'oyaning mafkuraviy barqarorlikni mustahkamlovchi, ruhiy immunitetni shakllantiruvchi va komil inson modelini belgilovchi jihatlari ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Yoshlar tarbiyasi, milliy g'oya, komil inson, ma'naviy yuksalish, falsafiy asoslar, ruhiy immunitet, ijtimoiy mas'uliyat.

ДУХОВНОЕ ВОЗВЫШЕНИЕ МОЛОДЁЖИ И ФИЛОСОФСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ В ВОСПИТАНИИ СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕКА

Аннотация

В данной статье с философской точки зрения анализируется роль национальной идеи в процессе духовного возвышения молодёжи и формирования совершенной личности. Автор рассматривает национальную идею как основной духовный фактор в воспитании молодого поколения, направленный на формирование морально совершенного, патриотичного и социально ответственного человека. Научно обоснованы аспекты национальной идеи, способствующие укреплению идеологической стабильности, формированию духовного иммунитета и определению модели совершенной личности.

Ключевые слова: Воспитание молодёжи, национальная идея, совершенный человек, духовное возвышение, философские основы, духовный иммунитет, социальная ответственность.

THE SPIRITUAL ELEVATION OF YOUTH AND THE PHILOSOPHICAL SIGNIFICANCE OF THE NATIONAL IDEA IN THE FORMATION OF A PERFECT PERSON

Annotation

This article analyzes the role of the national idea in the process of youth's spiritual elevation and the formation of a perfect individual from a philosophical perspective. The author recognizes the national idea as a fundamental spiritual factor in educating the younger generation, fostering morally upright, patriotic, and socially responsible individuals. The study scientifically explores the aspects of the national idea that contribute to strengthening ideological stability, shaping spiritual immunity, and defining the model of a perfect person.

Key words: Youth education, national idea, perfect person, spiritual elevation, philosophical foundations, spiritual immunity, social responsibility.

Kirish. Har qanday jamiyatning kelajagi, taraqqiyot yo'nalishi va ijtimoiy barqarorligi avvalo uning yoshlari bilan belgilanadi. Yosh avlodning ongli, vatanparvar, axloqan barkamol va ijtimoiy mas'uliyatga ega bo'lib shakllanishi esa, o'z navbatida, jamiyatning ma'naviy-siyosiy muhitiga, milliy g'oyaviy asoslariga va mavjud tarbiyaviy tizimning puxtaligi bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, yuksak ma'naviyat egasi bo'lgan jamiyat hech qachon tanazzulga uchramaydi.

Zamonaviy ijtimoiy-ma'naviy muhitda yoshlar nafaqat axborot oqimi, balki turli yot g'oyalari, madaniy bosim va iste'molchi dunyoqarashdan ham ta'sirlanmoqda. Ana shunday sharoitda ularni ijtimoiy inqirozlarga qarshi tura oladigan, mustaqil fikrlovchi, o'z madaniy ildizlariga tayanadigan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb vazifadir. Bu esa, o'z-o'zidan, milliy g'oya bilan uzviy aloqador bo'lgan tarbiya falsafasini ilgari surishni taqozo etadi.

Milliy g'oya – bu xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy dunyosi, orzu-intilishlari va hayotiy ideallarining jamlanmasidir. U shaxsning o'zlikni anglashidan tortib, jamiyatda o'z o'rnini topishigacha bo'lgan jarayonni boshqaradigan ichki g'oyaviy kuchdir. Ayniqsa, yosh avlod ongida bu g'oya shunchaki tushuncha emas, balki ruhiy-mafkuraviy immunitet, ijtimoiy mas'uliyat, estetik idrok, axloqiy mezon sifatida faol ishlaydi. Shuning uchun ham, milliy g'oyaning falsafiy mohiyatini anglamasdan, yoshlarni komil inson sifatida tarbiyalash to'liq bo'lishi mumkin emas.

Yoshlarning zamonaviy tafakkurini shakllantirishda milliy g'oyaning roli - bu ularning qadriyatlar asosida fikrlashi,

qaror qabul qilishda axloqiy mezonlarga tayanishi, o'zligini anglashi va shaxsiy rivojlanishida mas'uliyatli yondashuv egallashi bilan namoyon bo'ladi. Bunday yondashuv esa milliy g'oyaning faqat nazariy emas, balki amaliy tarbiyaviy kuchga aylinishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar sharhi. G'afurovning fikricha, milliy g'oya - bu xalqning tarixiy tajribasi, ma'naviy merosi va umumiy orzu-umidlarining falsafiy ifodasidir. U yoshlar ongiga ruhiy tayanch, ma'naviy barqarorlik va o'zligini anglash orqali komil inson sifatida shakllanishga yo'l ochadi. G'afurov milliy g'oyani ma'naviy yuksalishning g'oyaviy asosi deb ta'riflaydi [1]. Qodirovning fikriga ko'ra, komil inson falsafasi axloqiy tozalik, bilimga chanqoqlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi fazilatlar orqali shakllanadi. U milliy g'oyani aynan shu yo'ldagi g'oyaviy-axloqiy kompas sifatida ko'radi. Qodirov yoshlar tarbiyasida bu g'oyani nafaqat mafkuraviy, balki amaliy-pedagogik vosita sifatida talqin etadi [2]. Nazarov esa yoshlarning ma'naviy immunitetini shakllantirishda milliy qadriyatlar va tarixiy ong muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Uningcha, milliy g'oya axloqiy mezonlarni mustahkamlash, yoshlarni turli g'oyaviy xurujlardan himoya qilishda asosiy tayanichdir [3]. Rafiqovning tadqiqotida milliy g'oyaning zamonaviy tarbiya tizimidagi o'rnini ochib berilgan. Unga ko'ra, milliy g'oyani o'quv dasturlariga integratsiyalash, interfaol metodlar bilan yoshlar ongiga singdirish, nafaqat bilim, balki qadriyat asosli tarbiyani shakllantiradi [4]. Karimovning fikricha, vatanparvarlikni yoshlar ongiga singdirishda milliy g'oya g'oyaviy-ruhiy stimulyator vazifasini bajaradi. U yoshlarning shaxsiy qadriyat tizimini

milliylik, tarixiy xotira va kelajak uchun mas'uliyat tamoyillari asosida shakllantirish lozimligini uqtiradi [5].

UNESCO tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, global fuqarolikni rivojlantirishda milliy identifikatsiyaning mustahkam poydevorga ega bo'lishi zarur. Ularning yondashuvida milliy g'oya - shaxsning jamiyat bilan uyg'unligini, ma'naviy iqlimini va tolerantlik ruhini ta'minlovchi vosita sifatida talqin etiladi [6]. Abdug'afforov o'z tadqiqotida milliy o'zlik tushunchasini mafkuraviy immunitetning asosi sifatida ko'rib chiqadi. Uningcha, milliy g'oya yoshlarni globalizmning yot g'oyaviy bosimlariga bardoshli, tanqidiy fikrlovchi va ongli fuqaroga aylantirishda hal qiluvchi omildir [7]. Rasulova milliy tarbiya va oilaning uyg'unligi orqali g'oyaviy yetuklik shakllanishini asoslab beradi. U milliy g'oyani oilaviy tarbiyaning markaziy qadriyatiga aylantirish zarur deb hisoblaydi, ayniqsa yoshlik davrida bu juda muhimdir [8]. Berdievning fikricha, ma'naviyat va komillik mezonlari shaxsning ichki dunyosi, qadriyatlar tizimi va ong darajasi orqali o'lchanadi. Milliy g'oya esa bu mezonlarni aniqlab beruvchi g'oyaviy va axloqiy tamoyillarning manbaidir [9].

Tadqiqot metodologiyasi tahlili. O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo'shilishi natijasida "Milliy tiklanish" va "milliy taraqqiyot" tushunchalarini ijtimoiy-falsafiy talqin qilishda tadrijiy va dinamik jarayon nafaqat iqtisodiy sohada, balki xalqlar ma'naviyati, siyosati va dunyoqarashida ham muhim ijobiy o'zgarishlar keltirdi. Insoniyatning keyingi asrdagi tarixi shundan dalolat beradiki, bunday jarayonga jalb qilingan xalqlar o'rtasida o'zaro ishonch, hamkorlik, o'zaro hurmat va nizolarni o'zaro kelishuv va kelishuv asosida hal etishga intilish mavjud. Bir-birining madaniy yutuqlari qadriyatlarini va tajribalaridan bahramand bo'lish istagi shakllanadi. Xalqlarning bir-biri bilan birlashishga moyilligi yagona, butun bir sivilizatsiyani, sayyoraviy ongni shakllantiradi. Ya'ni, milliylik va umuminsoniylik uyg'unligi jahon sivilizatsiyasida yaqqol namoyon bo'ladi va jahon hamjamiyatining harakat dasturiga

"Milliy tiklanish" konsepsiyasiga ko'ra, milliy urf-odat va an'analar jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlari va manfaatlaridan kelib chiqadi, degan g'oya ularning mohiyati va funksional maqsadini anglash uchun katta uslubiy ahamiyatga ega. Urf-odat va an'analar ijtimoiy hodisa sifatida hayotning turli sohalarida sodir bo'layotgan voqealarning barqarorligi va takrorlanishi tamoyillariga asoslanadi. Ko'p yillar davomida yangi avlodda mehnat ko'nikmalarini shakllantirish, yoshlar mehnatini tartibga solish an'ana va urf-odatlarining muhim vazifasi bo'lib kelgan.

Milliy tiklanish va yuksalish jamiyat taraqqiyoti bosqichlarida erishilgan yutuqlarning eng qimmatli, eng muhim jihatlari saqlab qolgan holda, umumiy inkorni emas, balki dialektik inkorni yangilashni talab qilishini tadqiqotimiz yaqqol isbotlab turibdi.

Tadqiqotimizda nazariy tahlil hamda qiyosiy shahrlash metodlaridan foydalanildi.

Natijalar. Milliy g'oya bu kunning mahsuli emas - u xalq tarixida bosib o'tilgan murakkab yo'l, g'alabalar, iztiroblar va saboqlardan shakllangan. Ayniqsa:

Amir Temurning "Tuzuklari"da yurtga sadoqat va adolat, Alisher Navoiy asarlarida ma'naviy kamol,

Jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalari orqali xalq ongini uyg'otishga bo'lgan harakatlar milliy g'oyaning poydevoridir.

Bu tarixiy meros orqali yoshlar ongiga qadriyatli o'tmishdan kuch olish, tarixiy shaxslar namunasi orqali kamolga intilish ruhini singdirish mumkin. Milliy g'oya yosh avlodga: "Sening ildizing bor, qadriyatlarining buyuk, o'zingni angla!" — degan chaqiriqdir.

Zamonaviy jamiyatda ko'plab yoshlar g'arbana madaniyat, turli tarmoq madaniyati va virtual makon orqali o'zligidan uzoqlashish xavfi ostida qolmoqda. Bunday sharoitda "milliy men" tushunchasi — ya'ni shaxsning o'z tarixiga, tiliga, urf-odatiga, qadriyatlariga ijobiy munosabatini shakllantirish — muhim pedagogik vazifadir.

Milliy g'oya - bu yurakka yaqin bo'lgan ruhiy go'zallikni tarbiyalashning vositasi bo'lishi mumkin. Estetik ongni uyg'otish

orqali esa yoshlar hayotni qadrlashni, mehr-oqibatni, nafislikni anglay boshlaydi. Shu bois, milliy g'oyani estetik shaklda ifodalash - tarbiyaning nafis yo'li hisoblanadi.

Milliy g'oya yoshlar tarbiyasiga faqat nazariy ma'ruzalar orqali emas, balki turli pedagogik metodlar orqali singdirilishi kerak. Bugungi ta'lim metodikasida quyidagi yondashuvlar samarali deb baholanadi:

Integrativ yondashuv — milliy g'oyani tarix, adabiyot, san'at, falsafa kabi fanlar bilan uyg'unlashtirib o'rgatish.

Muammoli ta'lim — "Milliy qadriyat nima?", "Komil inson kim?", "Milliy g'oya va shaxs tarbiyasi o'rtasida qanday bog'liqlik bor?" kabi savollar asosida fikrlashga undash.

Loyiha asosida o'qitish — talabalarga milliy g'oya asosida film, taqdimot, esse, ijtimoiy tadbirlar ishlab chiqish imkoniyatini berish.

Tarbiyaviy debatlar — yoshlar o'rtasida milliy g'oya, globalizm, vatanga muhabbat mavzularida jonli bahslar tashkil etish.

Hayotiy misollar asosida o'rgatish — tarixiy shaxslar, zamonaviy fidoyi insonlar hayotidan misollar bilan milliy g'oyaning real hayotdagi ifodasini ko'rsatish.

Ushbu usullar orqali milliy g'oya yoshlar qalbiga singdiriladi, ularning dunyoqarashi boyiydi, komillikka bo'lgan intilish uyg'onadi.

Yoshlarning ma'naviy yuksalishini ta'minlash, ularni komil inson bo'lib shakllantirishda milliy g'oyani pedagogik jarayonlarga chuqur singdirish uchun quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Milliy g'oya asosidagi tarbiyaviy fanlarni kuchaytirish — maktab va oliy o'quv yurtlarida "Ma'naviyat asoslari", "Milliy g'oya va komil inson" kabi fanlarni yangicha yondashuv asosida o'rgatish.

Ommaviy axborot vositalarida milliy g'oyani targ'ib qilish — yoshlar orasida mashhur bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar, podcastlar, seriallar orqali milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, komillik haqida zamonaviy ruhda kontentlar yaratish.

Pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar ishlab chiqish — milliy g'oyani o'rgatishda amaliy topshiriqlar, interaktiv mashg'ulotlar, kreativ metodlarni jamlagan materiallar taqdim etilishi zarur.

Tarixiy va ma'naviy joylarga sayohatlar tashkil etish — yoshlar ongida milliy o'zlikni uyg'otish uchun tarixiy shaxslar yashagan hududlar, madaniy yodgorliklarga tashriflarni kuchaytirish.

"Komil inson — zamon talabi" shiori ostida tanlovlar, forumlar o'tkazish — yoshlarni ilhomlantirish, ularning ijodiy salohiyatini ochish va ularni ma'naviy faol shaxsga aylantirish.

Milliy g'oya yoshlarda faqat ruhiy yuksalish emas, balki ijtimoiy faoliyatga mas'uliyatli yondashuvni ham shakllantiradi. Bugungi kunda O'zbekiston yoshlarining jamoaviy loyihalarda, ekologik tadbirlarda, "Yoshlar haftasi", "Yoshlar — kelajagimiz" kabi davlat dasturlarida faol ishtiroki bunga dalildir.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra:

So'nggi uch yilda 450 mingdan ortiq yoshlar ijtimoiy loyihalar orqali mahallalarda faoliyat yuritdi. 2022–2024 yillar oralig'ida "Yoshlar ishlari agentligi" tomonidan 30 mingdan ziyod yoshlar milliy tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga jalb qilindi. Yoshlar o'rtasida vatanparvarlik ruhi bilan o'tkazilgan "Vatanni sevmok — imondandir", "Yoshlar ovozi" kabi forumlar 100 mingdan ortiq ishtirokchini birlashtirdi. Bu tadbirlar yoshlar orasida fuqarolik pozitsiyasining shakllanishiga, jamiyatdagi ijtimoiy faollikka va o'zlikni anglashga xizmat qilmoqda. Milliy g'oyaning amalda faol harakatga aylanishi aynan shu jarayonlarda namoyon bo'lmoqda.

Komil inson modeli Sharq tafakkurida doimo markaziy mavzu bo'lib kelgan. Alisher Navoiy o'z asarlarida "kamol" tushunchasini ilm, axloq, sabr, xalqparvarlik va pok niyat bilan bog'lagan bo'lsa, zamonaviy pedagogikada bu modelga quyidagilar kiradi:

Tarixiy talqin (Navoiy, Yassaviy)	Zamonaviy talqin (pedagogika, falsafa)
Qalb pokligi, ilohiy sevgi	Ruhiy barqarorlik, hissiy ong
Ilm va donishmandlik	Hayotiy kompetensiyalar, kreativ tafakkur
Ustoz-shogird an'anasi	Mentorlash, murabbiylik institutlari

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinadiki, komil inson konsepsiyasi doimiy asosda yangilanib boradi, ammo asosiy g'oyaviy mohiyati – xalq, jamiyat va inson uchun yashash tamoyili saqlanib qoladi.

Bugungi o'zbek yoshlarida ushbu modelni shakllantirish uchun maktab va oliy ta'limda ma'naviy-ma'rifiy dasturlar, zamonaviy texnologiyalar yordamida tayyorlangan darsliklar, mentorlik va ustozlik institutlarini kuchaytirish muhim hisoblanadi.

Yana ba'zi real faktlar va dalillar bilan boyitish

UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, milliy identifikatsiyasi kuchli bo'lgan yoshlar global bosimlarga nisbatan ko'proq barqaror turadi, o'zlikka sodiq qoladi va ijtimoiy mas'uliyat darajasi yuqori bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-60-sonli qarori bilan "Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish strategiyasi" qabul qilindi. Bu hujjatda milliy g'oya, tarixiy xotira va komil inson tarbiyasiga alohida urg'u berilgan.

"Ma'naviyat karvoni", "Milliy qadriyatlar haftaligi", "Nuroniyat saboqlari" kabi ko'plab tashabbuslar milliy g'oyaning amaliy hayotga tatbiq etilayotganini ko'rsatadi.

Bugungi global sharoitda ko'plab davlatlar yoshlar tarbiyasida o'z milliy g'oyalariga tayanuvchi strategik dasturlar ishlab chiqmoqda. Bu boradagi ba'zi ilg'or tajribalar O'zbekistondagi yondashuvlar bilan uyg'unlashib, qo'shimcha turtki berishi mumkin.

Yaponiya tajribasi: "kokoro" tarbiyasi

Yaponiya ta'lim tizimida "kokoro" – ya'ni "qalb tarbiyasi"ga alohida e'tibor qaratiladi. U yoshlarni: jamiyat oldidagi burchini anglash,

madaniy xotirani asrash,

o'z xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga tayyorlashga yo'naltiradi.

Bu yondashuv milliy g'oyani estetik, axloqiy va ma'naviy uyg'unlikda yosh ongiga singdirishga xizmat qiladi.

Janubiy Koreya: xalq ongiga singdirilgan "han" falsafasi

Koreyalik yoshlar orasida "han" – ya'ni tarixiy iztirob, fidoyilik va milliy kurash bilan bog'liq g'oya yosh avlodni ruhlandıradi. Ta'limda bu g'oya milliy qahramonlar, urushlar va madaniy yodgorliklar orqali uzluksiz singdiriladi.

O'zbekistonning milliy g'oyasi - buyuk tarixiy meros, madaniyat, din, urf-odat va qadriyatlar majmuasi sifatida zamonaviy pedagogikaga integratsiya qilinayotganligi xalqaro standartlarga mos yo'nalishda ekanligini ko'rsatadi. Asosiysi, bu yo'nalishda uzluksizlik, tizimlilik va amaliy samaradorlik ta'minlanmogi lozim.

Xulosa. Milliy g'oya yoshlarning komil inson bo'lib shakllanishida nafaqat g'oyaviy-mafkuraviy, balki ruhiy, axloqiy va estetik jihatdan keng qamrovli tayanch bo'lib xizmat qiladi. U o'z ichiga nafaqat tarixiy xotira va ma'naviy merosni, balki kelajak avlodga yo'l ko'rsatuvchi falsafiy mezonlarni ham oladi.

Maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki: Komil inson - bu ilmi, ma'naviyatli, jamiyatga foydali va vatanparvar shaxsdir. Milliy g'oya yosh ongiga jamiyat bilan uyg'un yashash, xalq manfaati uchun yashash, o'zligiga sodiq qolish tamoyillarini singdiradi. Tarbiyaviy tizimga milliy g'oya chuqur integratsiyalashsa, yoshlar mafkuraviy barqarorlik, ruhiy immunitet va maqsadga yo'naltirilgan ong egasiga aylanishadi. Demak, milliy g'oya va komil inson tarbiyasi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bu yondashuv nafaqat ta'lim, balki jamiyat taraqqiyotining ma'naviy negizini belgilaydi.

ADABIYOTLAR

1. G'afurov, N. (2021). Milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlar. – Toshkent: Ma'naviyat.
2. Qodirov, A. (2020). Komil inson falsafasi. – Samarqand: Ilm Ziyos.
3. Nazarov, B. (2022). Yoshlarda ma'naviy immunitetni shakllantirish. – "Ijtimoiy fanlar" jurnali, №4.
4. Rafiqova, M. (2021). Milliy g'oyaning zamonaviy tarbiya jarayonidagi o'rni. – "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti", №2.
5. Karimov, D. (2019). Vatanparvarlik va yoshlar ongini shakllantirish. – "Yoshlar falsafasi" jurnali.
6. UNESCO (2020). Global Citizenship and Moral Education. – Paris: Unesco Publishing.
7. Abdug'afforov, H. (2023). Milliy o'zlik va yoshlar mafkuraviy immuniteti. – "Zamonaviy jamiyat" jurnali.



UDK: 32:159.9

Zoxidjon TADJIBAYEV,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
Andijon viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi boshlig'i, mustaqil izlanuvchi
E-mail: ztadjibayev@inbox.ru

PhD R.Xaidarov taqrizi asosida

JAMIYATDA IJTIMOY APATIYA FENOMENI: SABABLAR VA OQIBATLAR

Аннотация

Ushbu maqolada ijtimoiy apatiyani keltirib chiqaruvchi sabablar, oqibatlar haqida batafsil ma'lumot beriladi. Ijtimoiy apatiya tushunchasining tarixiy, falsafiy tariflari tahlil qilinib, jamiyatda ko'plab muammolarni keltirib chiqaradigan ijtimoiy salbiy fenomen sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Apatiya, ijtimoiy apatiya, globallashtirish, jamiyat, siyosat, iqtisod, individualizm, egoizm, ma'naviyat, madaniyat.

ФЕНОМЕН СОЦИАЛЬНОЙ АПАТИИ В ОБЩЕСТВЕ: ПРИЧИНЫ И СЛЕДСТВИЯ

Аннотация

В статье представлена подробная информация о причинах и последствиях социальной апатии. Проанализированы историко-философские определения понятия социальной апатии и ее особенности как социально негативного явления, вызывающего множество проблем в обществе.

Ключевые слова: Апатия, социальная апатия, глобализация, общество, политика, экономика, индивидуализм, эгоизм, духовность, культура.

THE PHENOMENON OF SOCIAL APATHY IN SOCIETY: CAUSES AND CONSEQUENCES

Annotation

This article provides detailed information about the causes and consequences of social apathy. The historical and philosophical definitions of the concept of social apathy are analyzed and analyzed as a socially negative phenomenon that causes many problems in society.

Key words: Apathy, social apathy, globalization, society, politics, economy, individualism, egoism, spirituality, culture.

Kirish. Bugungi global tendensiyalar shiddat bilan kechayotgan murakkab paytda apatiya yoki ijtimoiy apatiya tushunchasi nisbatan yangi, ammo har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etib kelayotgan ilmiy masalalardan biridir. Ilmiy jamoatchilik orasida, ya'ni sotsiolog, psixolog, faylasuf va pedagoglar tomonidan fanning turli tarmoqlari doirasida keng muhokama mavzusiga aylanib ulgurdi. Buning asosiy sabablari "...hozirgi jamiyatda apatiya fenomenining tahlili nafaqat sotsiologik, psixologik, iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-falsafiy fan tarmoqlarida, balki iqtisodiy, siyosiy sohalar va ijtimoiy tuzulmadagi, diniy va siyosiy g'oyalardagi inqirozli hodisalar bilan "apatiya" tushunchasining an'anaviy talqiniga nisbatan ancha kengroq va o'zgacharoq talqin qilinishi bilan ham izohlanadi"[3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Apatiya haqidagi dastlabki ta'limotlar qadimgi yunon faylasuflari Aflotun va Arastu tomonidan ilgari surilgan. Bugungacha apatiya tushunchasi fanning turli sohalarida tadqiq qilingan bo'lib, xususan, zamonamiz olimlaridan yevropalik V.Magun, M.Rudnev, P.Shmidtlar beloruslik Ye.M. Babosov, rossiyalik L. G. Bizov, Ye.V. Veterok, A.A. Zolotareva, Yu.V. Nabok, S.R. Nemov, A.A. Rus va V.N. Argunovalar, shuningdek, o'zbek olimlaridan Q. Nazarov, S. Otamurodov, M. Quronov, Sh. To'rayevlar apatiya masalalariga siyosiy, ijtimoiy, psixologik, ma'naviy tomondan yondashib tadqiqotlar olib borganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Jahon falsafasi qomusi kitobida "Apatiya – (yunoncha apatheia – beparvolik) – insondagi emotsional passivlik, befarqlik, hissiy loqaydlik kabi kayfiyatni ifoda etadi. Bunday holatda inson yon atrofdagi voqea-hodisalarga e'tiborsiz bo'ladi, hech narasaga qiziqish bildirmaydi, uning jismoniy, ruhiy va ma'naviy faolligi pasayadi"[1], deb ta'rif berilgan. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida "apatiya - 1) odamning tevarak atrofidagi voqea va hodisalarga loqayd bo'lib qolish holati; 2) tibbiyotda – tashqi muhitga qiziqmay butunlay beparvo bo'lib qolish bilan ifodalanadigan kasallik

holati; 3) antik falsafada – stoitsizm etikasining asosiy tushunchalaridan biri, qalbning barcha ehtiroslaridan to'la ozod bo'lishini talab etadi"[2], deb keltirilgan.

Apatiya haqidagi dastlabki ijtimoiy-falsafiy qarashlar ilk bor antik davr faylasuflari Aflotun va Arastu tomonidan ilgari surilgan. Antik davr falsafasida apatiya tushunchasi salbiy ma'no anglatmagan, balki qadimgi axloqda bu atama ta'sirning yo'qligi yoki unga befarqlik sifatida namoyon bo'ladigan ijobiy hislatni anglatgan.

Aflotun davridan boshlangan apatiyaning axloqiy kontseptsiyasi kiniklar va megariyaliklar orasida shakllana boshladi, ular apatiyani deyarli to'liq "befarqlik" deb talqin qildilar. Stoiklar esa apatiyani fazilatli holat, ya'ni donolikning muhim xususiyati, "tashqi" narsalarni noto'g'ri baholash natijasida paydo bo'ladigan ta'sirlarni birinchi navbatda, 4 ta asosiy "ehtiroslar": qayg'u, qo'rquv, shahvat va zavqni yengishning ijobiy qobiliyati sifatida tushunishgan.

Antik davrda axloq konseptsiyasining ajralmas qismi sifatida tushunilgan apatiya fenomeni XX asrga kelib jamiyatda salbiy ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'la boshladi. Jumladan, u insonlardagi emotsional passivlik, jamiyatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan befarqlik, loqaydlik kabi kayfiyatni ifoda etadigan buzg'unchi tamoyilga aylandi. Natijada insonning jismoniy, ruhiy va ma'naviy faolligi pasayib, iqtisodiy, siyosiy hamda ruhiy-ma'naviy befarqliklar oqibatida insonlar bilan ijtimoiy muomalalari sovuqlashib, xatto yaqinlari, oilasi, farzandlariga ham loqayd bo'lib qoladi.

Tahlil va natijalar. Bugungi globallashtirish sharoitida insonlar ijtimoiy hayotiga salbiy ta'sirlar ko'plab omillar orqali vujudga kelmoqda. Olimlar fikricha, "bugun jamiyatda uchrayotgan siyosiy madaniyat va fuqarolar faolligi darajasining pastligi nafaqat "elita guruhlar" xulq-atvorida, balki oddiy fuqarolarning kayfiyatlari va xatti-harakatlarida ham namoyon bo'lmoqda"[3]. Texnologik va madaniy taraqqiyotda ilg'or bo'lgan jamiyatlarda fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy

faolliq darajasi ancha past ko'rsatkichlarga ega. Bu esa bir necha ob'yektiv va sub'yektiv omillar bilan izohlanadi. Xususan, buni jamiyatda apatiya holatining ortib borishi bilan ham namoyon bo'lmoqda. Quyida biz apatiyani vujudga keltirayotgan omillarga to'xtalib o'tamiz.

1. Iqtisodiy sabablarga ko'ra: iqtisodiy notenglik va kambag'allik darajasining oshishi odamlarni o'z muammolariga e'tibor qaratishga majbur qiladi, bu esa ijtimoiy jarayonlarga befarqlikni keltirib chiqaradi. Ishsizlik va iqtisodiy noaniqlik ham ijtimoiy apatiyani kuchaytiradi, chunki odamlar o'z hayotlarini yaxshilashga umidlarini yo'qotadilar.

Global iqtisodiy o'zgarishlar, ishsizlik va moliyaviy noaniqliklar insonlarni umidsizlikka olib kelishi mumkin. Masalan, 2008-yilda yuz bergan jahon moliyaviy inqirozi global iqtisodiyotga katta salbiy ta'sir ko'rsatgan murakkab jarayon sifatida tarixda qoldi. Bunday inqirozlar odatda moliyaviy tizimlarning zaifligi, iqtisodiy siyosatdagi xatoliklar va xalqaro moliyaviy bozorlar muvozanatsizligi natijasida yuzaga kelsa-da, davr kishilarda jamiyatning turli jabhalariga nisbatan ijtimoiy, siyosiy apatiyani ortishiga ham sabab bo'ladi.

2. Siyosiy sabablarga ko'ra: siyosiy tizimga nisbatan ishonchsizlik va norozilik, odamlarni siyosiy jarayonlardan chetlashishga olib keladi. Siyosiy apatiyaning kelib chiqishiga ijtimoiy-siyosiy muammolar, siyosiy ta'sirsizlik, huquqiy maqom hamda iqtisodiy xavotirlar sabab bo'lishi mumkin. O'ziga xos muammolar tasniviga ko'ra, odamlar ko'pincha o'z mamlakatlaridagi siyosiy muammolar, urushlar yoki iqtisodiy inqirozlar sababli xorij mamlakatlarga chiqib ketadilar. BMT va mahalliy hokimiyatlarning ma'lumotlariga ko'ra, Sudandagi mojarolar tufayli 20 mingdan ortiq odam halok bo'lgan, 15 million kishi esa ko'chirilgan. BMT Bosh kotibi Antonio Guterresh Sudandagi tinimsiz urushning oddiy fuqarolarga yetkazayotgan oqibatlarini haqida to'xtalib, "Ikki yildan beri davom etayotgan vayronkor urush natijasida Sudan misli ko'rilmagan inqirozga yuz tutmoqda, bunda eng katta zarar oddiy fuqarolarga yetmoqda. Taxminan, 12 million kishi o'z uylarini tark etishga majbur bo'ldi, bu dunyodagi eng katta ko'chirilish inqiroziga aylandi," dedi u. "Shulardan 3,8 milliondan ortig'i qo'shni davlatlarga boshpana izlab ketgan"[5]. Shuningdek, tashkilotning ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda mojarolar, ta'qiblar, zo'raonliklar va inson huquqlari buzilishi tufayli dunyo miqyosida 108,4 million kishi o'z uyini tashlab ketishga majbur bo'lgan[6]. Bundan tashqari so'nggi yillarda Ukrainadagi keng ko'lamli urush, Sudan, Kongo Demokratik Respublikasi va Myanmadagi qurolli mojarolar, Afg'onistondagi mojarolar hamda Somalidagi qurg'oqchilik, suv toshqini kabi omillar tufayli ham odamlar o'z yurtlaridan ketishga majbur bo'lmoqdalar. Natijada ular yangi joyda o'z muammolariga e'tibor qaratishadi va siyosatga qiziqishlari kamayib, ularda apatiya holati vujudga keladi.

Xorijga ishlash uchun ketgan shaxslar ko'pincha o'zlarini siyosiy jarayonlardan chetlatilgan his qilishadi, chunki ular o'z fikrlarini ifoda etish imkoniyatiga ega emas deb o'ylashadi va bu hissiyot, ayniqsa, ularning ovozlari yoki fikrlari e'tiborga olinmaydi deb hisoblashadi. Vaholanki, xalqaro huquq normalariga muvofiq har qanday demokratik davlatda chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari ta'minlanadi. Ba'zi mamlakatlarda esa chetga ketgan fuqarolar saylov huquqiga ega bo'lmaydi, bu esa ularning o'z mamlakatlaridagi siyosiy jarayonlarga ta'sir etish imkoniyatini kamaytiradi.

Yana bir mavjud muammoldan biri ko'plab migrantlar huquqiy maqomga ega emaslar yoki vaqtincha vizalarda yashaydilar, bu esa ularning siyosiy jarayonlarga jalb etilishiga to'sqinlik qiladi. Sababi, xorijiy mamlakatlarda bo'lib turgan shaxslar orasida ob'yektiv va sub'yektiv omillar sababli viza va vaqtincha yashash masalasida noqonuniy holatlarning borligi, shuningdek, mavjud bo'lib turgan ish bilan ta'minlash va iqtisodiy imkoniyatlarni yo'qotib qo'ymaslik vajidan chet davlatlarda bo'lib turgan shaxslar siyosiy nafaollikka tushib qolishga majbur bo'ladilar. Bu esa siyosatga qiziqishni kamaytiradi. Oqibatda saylovlarda ishtirok etish ko'rsatkichi pasayishi natijasida demokratik jarayonlarning zaiflashishiga olib keladi. Yana bir

jihatdan esa, odamlar o'z ovozlari berishga qiziqmasliklari natijasida avtoritar rejimlar kuchayishi mumkin.

3. Ma'naviy-madaniy sabablarga ko'ra: xalqlar o'rtasida milliylik va umuminsoniy tamoyillarining integratsiyalashuvi kabi ijobiy holatlar bilan birga, kishilar axloqi, xalqlarning milliy o'zligi va ma'naviyatiga salbiy ta'sir etuvchi individualizm, egoizm, kosmopolitizm, nigilizm, pessimizm, amoralizm, sinizm va "ommaviy madaniyat" (ommaviy madaniyatsizlik)ning turli ko'rinishlarining keng yoyilishi jamiyatga bo'lgan mas'uliyat hissining pasayishiga ham olib kelmoqda. Jumladan, individualizm g'oyasining noto'g'ri talqin etilishi natijasida insonning shaxsiy hayoti jamoaga, jamiyatga bog'liq bo'lmagan, faqat uning o'ziga tegishli alohida bir hodisa deb qaraydigan, jamiyat manfaatlaridan o'z huquq va erkinliklarini mutlaq ustun ko'radigan ta'limot sifatida talqin qilinmoqda. Bu esa shaxs va jamiyat manfaatlari o'rtasida keskin va jiddiy ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda.

Rossiyalik faylasuv V.G.Fedotova o'zining "Yaxshi jamiyat" nomli asarida jamiyatda shaxsiy individuallikning ommalashishi masalasiga to'xtalib, "shaxsni yaratmasdan individuallashuv, faqat o'zi haqida o'ylovchi xudbin shaxsni shakllantirishdir"[4], deb ta'rif beradi. Odamlar dunyoqarashini boshqarish, ularning qalbi va ongiga ayrim mafkuraviy markazlarning manfaatlariga xizmat qiladigan shu kabi salbiy g'oyalarning populyatsiyasi ko'payishi keskin ortmoqda. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "G'arbcha individualizm sharq kishisiga yot. Jamoa tartibida yashash bizga mos. Mahallalarga alohida e'tibor qaratilayotganining boisi ham shunda. Chunki mahallada kimning qandayligi, o'z kunini halol yoki qing'ir yo'llar bilan ko'rayotgani kunday ayondir. Men G'arb falsafasida ham barcha muammolar yechilgan, demoqchi emasman. Biz ko'p masalalarda G'arb faylasuflarining fikrlari bilan, ayniqsa, individualizm, egoizm qarashlarini ilohiylashtirish bilan kelishmasligimiz mumkin. Lekin ularni hisobga olishimiz, keraklisini e'tirof, keraksizini inkor etishimiz zarur"[3], deb bugungi global jarayonlar ortidan sodir bo'layotgan ma'naviy bo'xronlar haqida ayni haq gapni aytganlar.

Shuningdek, bugun odamlardagi ijtimoiy apatiya holati jamiyatning axloqiy tubanlashuvi, ma'naviy tanazzulini ham keltirib chiqarmoqda. Jamiyatning ayrim qatlamlaridagi moddiy farovonlik ularning ma'naviy taraqqiyotini yuksaltirish o'miga, aks natija ham berayotgan holatlar yo'q emas. Ayniqsa, bu yoshlar orasida yuqoridagi g'oyalar ta'sirida shaxsiy tubanlik, ijtimoiy xudbinlik, bevatonlikni targ'ib qiluvchi va har bir ishga moddiy manfaatdorlik yuzasidan yondashlarning urchishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari, ayniqsa yoshlar orasida ta'lim darajasining pastligi va madaniy tarbiyaning yetishmasligi, Internet va ijtimoiy tarmoqlardan samarasiz foydalanish, behuda vaqt o'tkazish, turli markazlarning manipulyatsiyasi va yolg'on ma'lumotlari, insonlar o'rtasida ishonch va o'zaro aloqalarning yo'qolishi ham insonlarni charchatishi, ularni muhim masalalarga nisbatan befarqlikka olib kelib, ruhiy salomatlikka salbiy ta'sir qilib, apatiya holatini kuchaytirmoqda.

Xulosa va takliflar. Jamiyatida ijtimoiy apatiyaning salbiy oqibatlarini ko'pchilikni passivlikka, ijtimoiy hayotdan uzilib qolishga va davlat idoralari yoki jamiyatning boshqa tuzilmalariga nisbatan ishonchning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Bu esa, bir qancha iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi ehtimoliga ega:

birinchidan, noto'g'ri olib borilgan ijtimoiy va iqtisodiy siyosat tufayli adolatsizlik yuzaga kelib, jamiyatda tabaqaviy farqlar, iqtisodiy nomutanosiblik va adolatsizlik holatlari odamlarda apatiya holatini yuzaga keltirishi mumkin;

ikkinchidan, siyosiy sabablar ko'ra ham odamlarda siyosiy tizimga nisbatan ishonchsizlik va norozilik, ularda asta-sekin siyosiy jarayonlardan chetlashishga olib kelishi, mavjud ijtimoiy-siyosiy muammolar, siyosiy ta'sirsizlik, huquqiy maqom hamda iqtisodiy xavotirlar siyosiy apatiyaning shakllanishiga olib kelishi;

uchinchidan, globallashuv sharoitida kishilar axloqi, xalqlarning milliy o'zligi va ma'naviyatiga salbiy ta'sir etuvchi individualizm, egoizm, kosmopolitizm, nigilizm, pessimizm, amoralizm, sinizm va "ommaviy madaniyat" kabi turli

ko'rinishdagi axloqsizlik va ma'naviy buzulqikni targ'ib qiluvchi g'oya va ta'limotlarning keng yoyilishi ham odamlarda jamiyatga bo'lgan mas'uliyat hissining pasayishiga ham olib kelib, ijtimoiy apatiya holatining ortishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur murakkab fenomen bo'lgan apatiya jamiyatda ko'plab ziddiyatli muammolarni keltirib chiqarishi bilan xarakterlanadi. Uni vujudga keltiruvchi sabablarini aniqlash, tahlil

qilish va oqibatlarini tushunish, bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim, siyosat va ijtimoiy loyihalar orqali odamlarni jamiyatga jalb qilish apatiyani kamaytirishga yordam beradi hamda ijtimoiy befarqlikni bartaraf etish jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur omil deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

1. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob – T.: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2023. – B. 91
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. Tahrir hay'ati: M.Aminov, B.Ahmedov, H.Boboyev va b. T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – B. 378
3. Tashanov A. Vayronkor g'oyalar va buzg'unchi mafkuralar [mant] / T.: “Turon zamin ziyo” nashriyoti. 2015. - B. 26
4. «Хорошее общество». Социальное конструирование приемлемого для жизни общества. — М.: ИФ РАН, 2003. 182 с.
5. <https://trt.global/uzbek/article/f606c26e6de2>.
6. <https://kun.uz/news/2023/06/14/bmt-dunyoda-qochqinlar-soni-110-million-kishiga-yetdi>.



Shavkat TOSHEV,
Tashqi ishlar vazirligi bo‘lim boshlig‘i
E-mail: toshevshavkat@yahoo.com

Professor O. Musayev taqrizi asosida

THE FACTOR OF CULTURAL DIPLOMACY IN THE DEVELOPMENT OF RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND FRANCE

Annotation

The role of cultural diplomacy in the gradual development of relations between Uzbekistan and France, which today have reached the level of strategic partnership, is important. Although diplomatic relations between the two countries were established in 1992, mutual cooperation has long historical roots. If we look at history, the cultural factor has been considered by both countries as the most important component of their foreign policy. Uzbekistan, the cradle of Eastern civilization, on the one hand, and France, recognized as the pearl of European civilization and the center of development, on the other, have always paid special attention to promoting intercultural dialogue.

Key words: Diplomacy, civilization, globalization, cultural and political cooperation, cultural component.

ФАКТОР КУЛЬТУРНОЙ ДИПЛОМАТИИ В РАЗВИТИИ ОТНОШЕНИЙ УЗБЕКИСТАНА И ФРАНЦИИ

Аннотация

Важна роль культурной дипломатии в постепенном развитии отношений между Узбекистаном и Францией, которые сегодня вышли на уровень стратегического партнерства. Хотя дипломатические отношения между двумя странами были установлены в 1992 году, взаимное сотрудничество имеет давние исторические корни. Если обратиться к истории, то культурный фактор обе страны рассматривали как важнейшую составляющую своей внешней политики. Узбекистан, колыбель восточной цивилизации, с одной стороны, и Франция, признанная жемчужиной европейской цивилизации и центром развития, с другой, всегда уделяли особое внимание продвижению межкультурного диалога.

Ключевые слова: Дипломатия, цивилизация, глобализация, культурное и политическое сотрудничество, культурная составляющая.

O‘ZBEKISTON VA FRANSIYA ALOQALARINING RIVOJLANISHIDA MADANIY DIPLOMATIYA OMILI

Annotatsiya

Bugungi kunda strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilgan O‘zbekiston va Fransiya munosabatlarning tadjriy rivojlanishida madaniy diplomatiyaning roli muhim hisoblanadi. Garchi ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik aloqalar 1992-yilda o‘rnatilgan bo‘lsa-da, o‘zaro hamkorlik uzoq tarixiy ildizlarga borib taqaladi. Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, madaniy omilga ikki davlat o‘z tashqi siyosatining eng muhim tarkibiy qismi sifatida qarab kelgan. Sharq sivilizatsiyasining beshigi bo‘lgan O‘zbekiston, ikkinchi tomonda – Yevropa tamaddunining marvaridi va taraqqiyot markazi sifatida e’tirof etilgan Fransiya doimo madaniyatlararo muloqotni rag‘batlantirishga alohida e’tibor berib kelgan.

Kalit so‘zlar: Diplomatiya, sivilizatsiya, globalizatsiya, madaniy va siyosiy hamkorlik, madaniy komponent.

Kirish. Ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy va madaniy hamkorlikga doir ayrim tarixiy voqeaylarni eslashning o‘ziyoq mulohazalarimizga aniqlik kiritadi. Jumladan, XIII asrda Fransiya qiroli Lyudovik IX tashabbusi bilan fransuz sayohatchisi Giyyom de Rubruk Markaziy Osiyo mintaqasiga tashrif buyuradi. O‘rta Osiyo to‘g‘risidagi ilk bilimlarni Yevropada tarqalishida uning «Sharq davlatlariga sayohatlar» nomli kitobi muhim ahamiyat kasb etgan. Kitob vositasida mintaqamiz geografiasini, madaniyatini va turmush tarzi to‘g‘risidagi qimmatli ma’lumotlar yetkazilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XIV asr oxirlarida sohibqiron Amir Temur turli sohalarida, jumladan, madaniy yo‘nalishlarda Yevropa, xususan, Fransiya bilan qit‘alararo aloqalarni rivojlantirishga sharoit yaratib berdi. Sohibqironning Fransiya qiroli Karl VI bilan yozishmalari bu boradagi muhim qadam sanaladi. 1394 va 1399-yillarda Amir Temur huzuriga kelgan Vizantiya imperatorining Konstantinopoldagi muovini Fransuaga Sandro ismli vakil hamroh bo‘lgan. Sandroning qo‘lida Genyaning homiysi bo‘lgan Fransiya qirolining Amir Temur nomiga yozilgan maktubi bor edi. 1402-yilda Karl VI Amir Temur bilan mustahkam siyosiy va madaniy aloqalarni o‘rnatishni o‘zining maqsadi qilib belgiladi. Mazkur maktublarda Amir Temur qirolning Sharqqa nisbatan siyosatini qo‘llab-quvvatlagani holda, o‘z davlati bilan Fransiya o‘rtasida ikki tomonlama hamkorlikni rag‘batlantirishga ham e’tibor bergan.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekiston Mustaqillikka erishgach, Fransiya bilan aloqalarning yangi davri boshlandi. Ushbu jarayonning ikki bosqichda voqeylangani ko‘zga

tashlanadi. Birinchisi 1991-yildan 2016 -yilgacha bo‘lgan davrni, ikkinchi bosqich esa 2016-yildan hozirgi kunga qadar bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oladi.

Tahlil va natijalar. Dastlabki bosqichda uch marotaba O‘zbekiston va Fransiya Prezidentlarining o‘zaro tashriflari amalga oshirilgan. Bularning samarasi o‘laroq ikki tomonlama munosabatlar, xususan, madaniy hamkorlik sohasida muhim bo‘lgan ikki hujjatning imzolashiga erishilgan. Dastlab 199- yil 27-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi va Fransiya Respublikasi o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risida shartnomaning imzolaniishi barcha jabhalarda hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishda keng yo‘l ochib berdi. Keyin esa ikki davlatning madaniy o‘ziga xosligini va iqtisodiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim, ilm-fan, madaniyat va kadrlar tayyorlash sohalarida hamkorlikni kengaytirish va shu asosda ikki xalq o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni va do‘stlikni chuqurlashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi va Fransiya Respublikasi o‘rtasida madaniy, ilmiy va texnikaviy hamkorlik to‘g‘risidagi bitim imzolandi. Bu esa hamkorlik aloqalarining, jumladan, madaniy aloqalarning tadjriy takomillashuviga imkon yaratdi.

2016-yildan hozirga qadar davom etayotgan o‘zbek-fransuz hamkorligining madaniy yo‘nalishi yuqori dinamikasi bilan alohida bosqich sifatida namoyon bo‘ldi. O‘tgan qisqa bir davrning o‘zida to‘rt marotaba Oliy darajadagi sammitlar tashkil etildi. Ushbu mulqotlarda madaniy komponentning eng muhim o‘rinni egallagani e’tiborga sazovordir. Jumladan, 2018-yil oktyabr oyida Prezident Shavkat Mirziyoyevning Fransiya

rasmiy tashrifi arafasida Parij shahrida “Madaniy meros – O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi muloqot ko‘prigi” media-iventi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda mamlakatimizning madaniy merosi va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, madaniy-ma‘rifiy sohalarda samarali xalqaro hamkorlik qilish uchun yaratilayotgan yangi imkoniyatlar taqdim etildi. Tashrif chog‘ida O‘zbekiston rahbari dunyodagi eng mashhur muzeylardan biri bo‘lmish Luvr muzeyiga tashrif buyurib, Amir Temur bobomizning Qirol Karl VI ga yozgan maktubi, Ahmad Yassaviy maqbarasi uchun Sohobqiron yasattirgan shamdonlardan biri, shuningdek, qadimiy qurol-aslahalar, qabrtoshlardagi bitiklar va boshqa buyumlar bilan tanishdi.

O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2022-yil noyabr oyidagi tashrifi tom ma‘noda tarixiy voqea bo‘ldi. Tashrif chog‘ida Fransiyaning yuqoridagi qayd etilgan Luvr muzeyida O‘zbekiston Madaniyat va san‘atni rivojlantirish jamg‘armasi bilan hamkorlikda xalqimizning boy madaniy merosiga bag‘ishlangan “O‘zbekiston vohalarining mo‘jizalari. Karvon yo‘llari chorrahasida” nomli ko‘rgazma tashkil etildi. Bunig uchun to‘rt yil davomida puxta tayyorgarlik ko‘rilganligi uning ahamiyatini belgilovchi omil sanaladi. Shu yillar davomida o‘zbek va fransuz olimlari bir necha bor birgalikdagi ekspeditsiyalari uyushtirishib, ko‘plab arxeologik topilmalarning kashf qilinishiga sababchi bo‘lishdi. Shuningdek, Luvr restavratsiyachilari mamlakatimiz mutaxassislari bilan birgalikda bir nechta bosqichdan iborat keng ko‘lamli tiklash tadbirlarini ham amalga oshirishdi. Natijada davlatchiligimiz tarixining 1500-yildan ortiq davrini qamrab olgan ko‘rgazmada mamlakatimizning 16 muzeyidan 138 ta noyob ashyo, ayni choqda Fransiya, Buyuk Britaniya va AQShning yirik muzeylaridan keltirilgan 31 ta buyum ko‘rgazmadan joy oldi. Bulardan tashqari, Parij Arab institutida «Samarqandga yo‘l. Ipak va oltin mo‘jizalari” nomli ko‘rgazma ham tashkil etilgan. Unda O‘zbekistonning XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oid boy moddiy madaniyati taqdim etildi. O‘zbekistonning 9 ta eng yirik muzeylaridan 300 dan ortiq eksponatlar ilk bor Fransiya davlatida keltirilib, keng xalqaro jamoatchilik e‘tiboriga havola etildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirlar o‘zbek diplomatiyasining “yumshoq kuchi” sifatida nafaqat Fransiya, balki butun Yevropa qit‘asida o‘zbek madaniy merosi va diplomatiyasi salohiyatini keng namoyon etdi. Ko‘rgazmaga yarim milliondan ortiq kishi tashrif buyurgani buni tasdiqlaydi.

Albatta, bunga javoban 2023-yil noyabr oyida Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron Buyuk ipak yo‘lining durdonasi – Samarqand shahriga tashrif buyurdi. Fransuz delegatsiyasining asosiy qismini madaniy-gumanitar va ilmiy doira vakillaridan tashkil topgani xorijda ham O‘zbekiston bilan aloqalarda madaniy hamkorlikka alohida ahamiyat berib kelinayotganidan dalolat beradi.

Joriy yil mart oyida tashkil etilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Fransiya davlat tashrifi ham madaniy-gumanitar sohalarda erishilgan muhim kelishuvlar bilan tarixda muhrlandi. Xususan, Madaniyat va san‘atni rivojlantirish jamg‘armasi bilan Fransiya Madaniyat vazirligi, Madaniy meros milliy instituti va Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti o‘rtasidagi hamkorlik bitimlari, O‘zbekiston-Fransiya universitetini tashkil etish to‘g‘risida hukumatlararo kelishuv, fransuz tilini o‘qitishni kengaytirish to‘g‘risida bayonnoma, musiqa, kino va teatr sohalarida hamkorlik to‘g‘risida deklaratsiyalarning imzolanishi madaniy aloqalar rivojlanishiga qo‘shilgan muhim hissa sanaladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekiston va Fransiya munosabatlarining kun tartibida madaniy hamkorlik va uni muttasil rivojlantirish masalalari doimo muhim o‘rin egallab kelgan. Bu albatta, bir tomondan ikki davlat Prezidentlarining siyosiy irodasi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan o‘z mintaqasining sivilizatsiya o‘choqlari bo‘lgan ikki mamlakat xalqlarining madaniyatlararo muloqot, tarix va o‘zaro kommunikatsiyaga uzviy moyilligidan darak beradi. Bugungi globallashuv va xalqaro munosabatlar tizimida jiddiy ziddiyatlar va o‘zaro ishonchsizlik kuzatilayotgan bir davrda, o‘zbek-fransuz madaniy muloqoti ko‘plab davlatlar uchun xalqlarni birlashtiruvchi kuch sifatida o‘ziga xos namuna bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

ADABIYOTLAR

1. Джиованни дель Пано Карпини. История Монгалов. Гильом де Рубрук. Путешествие в Восточные страны. Перевод Малеина А.И.. М.: Государственное издательство географической литературы, 1957.
2. Xalq so‘zi gazetasining 2018 yil 10 oktyabrdagi soni: <https://xs.uz/uzkr/6531>
3. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi. O‘zbekiston Respublikasi va Fransiya Respublikasi o‘rtasida Do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risida shartnoma. <https://lex.uz/docs/2709970>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sahifasi: O‘zbekiston va Fransiya Prezidentlari Luvrda “O‘zbekiston vohalari xazinalari. Karvon yo‘llari chorrahasida” ko‘rgazmasini ochdilar. <https://president.uz/uz/lists/view/5726>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sahifasi: Shavkat Mirziyoev va Emmanuel Makron O‘zbekistonning boy moddiy madaniyatiga bag‘ishlangan ko‘rgazma bilan tanishdilar. <https://president.uz/uz/lists/view/5727>
6. Керен Люсьен, Саидов Акмал. Амир Темур ва Франция. – Тошкент: “Адолат”, 2016.



UDK:372.891

Nargiza TO‘RAYEVA,
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: turayevan880@gmail.com

O‘zMU dotsenti U.Sodiqov taqrizi asosida

METHODOLOGY FOR PROMOTING NATIONAL VALUES AND CULTURE IN STUDENTS THROUGH FOLK NARRATIVES

Annotation

This article explores the importance of Uzbek folk tales in the educational system and their role in educating the younger generation. How narratives are used as an effective methodological tool in the study of national values and culture has been considered. Folk tales, with their educational and spiritual significance, help to form positive qualities in the minds of students, such as the values of our country, respect for Labor, moral responsibility and Human Relations. Also, the importance of teachers' methodological approaches to the development of national values in students is emphasized. With the help of narratives, teachers will have the opportunity to expand the thinking and understanding abilities of students, acquaint them with national and universal values.

Key words: Folk narratives, national values, culture, upbringing, pedagogy, educational process, educational methodology, students, younger generation, methodological approach of teachers, spirituality, self-awareness, ethical education, Uzbek folk literature, interactive education.

МЕТОДИКА ПРОПАГАНДЫ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И КУЛЬТУРЫ У УЧАЩИХСЯ ЧЕРЕЗ НАРОДНЫЕ СКАЗАНИЯ

Аннотация

В данной статье исследуется значение узбекских народных сказаний в системе образования и их роль в воспитании подрастающего поколения. Рассматривается, как повествование используется как эффективный методический инструмент при изучении национальных ценностей и культуры. Народные сказания, своим воспитательным и духовным значением способствуют формированию в сознании учащихся таких положительных качеств, как ценности нашей страны, уважение к труду, моральная ответственность и человеческие отношения. Также подчеркивается важность методических подходов педагогов в развитии национальных ценностей у учащихся. С помощью повествований учителя получают возможность расширить навыки мышления и понимания учащихся, приобщить их к национальным и общечеловеческим ценностям.

Ключевые слова: Народные сказания, национальные ценности, культура, воспитание, педагогика, образовательный процесс, методика обучения, методический подход учащихся, подрастающего поколения, учителей, духовность, самосознание, этическое воспитание, узбекская народная литература, интерактивное образование.

XALQ RIVOYATLARI ORQALI TALABALARDA MILLIY QADRIYATLARNI VA MADANIYATNI TARG‘IB QILISH METODIKASI

Аннотация

Ushbu maqolada o‘zbek xalq rivoyatlarining ta‘lim tizimidagi ahamiyati va ularning yosh avlodni tarbiyalashdagi o‘rni o‘rganilgan. Milliy qadriyatlar va madaniyatni o‘rganishda rivoyatlarning samarali metodik vosita sifatida qanday foydalanilishi ko‘rib chiqilgan. Xalq rivoyatlari, o‘zining tarbiyaviy va ma‘naviy ahamiyati bilan talabalar ongida yurtimizning qadriyatlari, mehnatga bo‘lgan hurmat, ahloqiy mas‘uliyat va insoniy munosabatlar kabi ijobiy xislatlarni shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, talabalarda milliy qadriyatlarni rivojlantirishda o‘qituvchilarning metodik yondashuvlarining ahamiyati ta‘kidlangan. O‘qituvchilar rivoyatlar yordamida talabalar fikrlash va tushunish qobiliyatlarini kengaytirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Kalit so‘zlar: Xalq rivoyatlari, milliy qadriyatlar, madaniyat, tarbiya, pedagogika, o‘quv jarayoni, ta‘lim metodikasi, talabalar, yosh avlod, o‘qituvchilarning metodik yondashuvi, ma‘naviyat, o‘zlikni anglash, etik tarbiya, o‘zbek xalq adabiyoti, interaktiv ta‘lim.

Kirish. Xalq rivoyatlari — xalqning tarixiy xotirasi, axloqiy meyorlari va madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan eng qadimgi adabiy shakllardan biridir. Ular milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida nafaqat xalqning dunyoqarashi va falsafasini, balki uning ijtimoiy, axloqiy, ma‘naviy qadriyatlarini ham aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan, xalq rivoyatlari talabalarga milliy qadriyatlarni va madaniyatni o‘rganish, tushunish va ularga hurmat bilan yondashishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Xalq rivoyatlari yordamida talabalarda mehnatsevarlik, odob-axloq, vatanparvarlik, hurmat va mehr-oqibat kabi asosiy axloqiy qadriyatlar shakllanadi.

Bu maqolada xalq rivoyatlari orqali talabalarda milliy qadriyatlarini va madaniyatni targ‘ib qilishning metodikasi, uning ta‘limda qo‘llanilishi, shuningdek, o‘quv jarayonida samarali natijalarga erishish uchun qanday usullarni qo‘llash kerakligi tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xalq rivoyatlari va ularning ta‘limdagi o‘rni haqida turli xil ilmiy adabiyotlarda

ko‘plab izlanishlar mavjud. Bu soha pedagogika, psixologiya, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik kabi bir nechta ilmiy yo‘nalishlarni qamrab oladi. Xalq rivoyatlarining pedagogik ahamiyati haqida ko‘plab ilmiy izlanishlar mavjud. Jumladan, B.S. Galievning “Xalq rivoyatlari va ularning bolalar tarbiyasidagi roli” nomli asarida xalq rivoyatlarining axloqiy va estetik tarbiya berishdagi o‘rni tahlil qilingan. Xalq rivoyatlarining pedagogik rolini o‘rganishda N.A. Kablitskayaning “Pedagogik jihatdan xalq rivoyatlarining o‘rni” asari ham muhimdir. Muallif xalq rivoyatlarining nafaqat axloqiy saboqlarni, balki talabalarda fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishda ham ta‘sirchan ekanligini ta‘kidlaydi. Xalq rivoyatlari yordamida milliy qadriyatlarini o‘rgatishning metodikasi haqida Sh.M. Nizamovning “Xalq rivoyatlari va milliy qadriyatlarini o‘rgatish” nomli ilmiy tadqiqotida batafsil ma‘lumot berilgan [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Xalq rivoyatlari asrlar davomida avlodlardan avlodga o‘tilgan. Xalqning hayotiy tajribalarini, axloqiy meyorlarini, ijtimoiy muammolarni hal qilish

usullarini va qadriyatlarini aks ettirgan adabiy shakllardir. Rivoyatlar xalqning dunyoqarashini, axloqiy fazilatlarini va zamonaviy hayotga yondashuvini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ular tilning rivojlanishida, xalq madaniyatining shakllanishida, ijtimoiy va mehnat faoliyatida katta rol o'ynagan.

Rivoyatlar orqali quyidagi milliy qadriyatlar talabalarga yetkazilishi mumkin:

odamiylik va mehr-oqibat – rivoyatlar odamlar o'rtasida do'stlik, yordam, o'zaro hurmat va mehr-oqibatni tarbiyalaydi.

vatanparvarlik – Vatanni sevish, uni asrab-avaylash va milliy an'analarni hurmat qilishni o'rgatadi.

- mehnatsevarlik – mehnatning qadri, uni halol va samarali bajarish talabalarga rivoyatlar orqali yetkaziladi.

- o'zlikni anglash – o'z millatini sevish, uning tarixi va madaniyatini o'rganish orqali o'zligingizni anglashni o'rgatadi.

Shuningdek, xalq rivoyatlari talabalarda boshqalar bilan hamkorlik qilish, ijodiy yondashuvni rivojlantirish va muammolarga ijodiy echimlar topish kabi qobiliyatlarni ham shakllantiradi.

Xalq rivoyatlari orqali milliy qadriyatlarni targ'ib qilishda turli pedagogik metodlar va yondashuvlar mavjud. Bu metodlar talabalarga milliy qadriyatlar bilan tanishtirish, ularni anglash va shu qadriyatlarni hayotda qo'llashni o'rgatish uchun samarali vositalar bo'ladi. Quyida, xalq rivoyatlari orqali talabalarda milliy qadriyatlarini targ'ib qilishning asosiy metodlari keltirilgan:

1. Rivoyatlarni tahlil qilish va muhokama qilish. Xalq rivoyatlari o'qituvchining tahliliy fikrlashni rivojlantirish va talabalar bilan interaktiv muloqot o'rnatish uchun ajoyib vositadir. Talabalar rivoyatlar orqali axloqiy saboqlarni o'rganadilar va bu saboqlarni o'zlarining hayotlariga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Metodika quyidagicha olib boriladi:

- rivoyatlarni o'qishdan so'ng talabalar bilan guruhlar bo'yicha muhokama tashkil etish.

- talabalar rivoyatlar asosida axloqiy meyorlarni tahlil qilib, ularni zamonaviy hayotga qanday tatbiq etish mumkinligini muhokama qilishlari kerak.

- rivoyatlar asosida savollar tuzish va talabalarga bu savollarga javob berish imkoniyatini yaratish. Masalan, 1. Rivoyatda ko'rsatilgan vatanparvarlik va mehr-oqibat qadriyatlarini qanday tushunasiz? 2. Bu qadriyatlarni bizning jamiyatimizda qanday rivojlantirish mumkin? kabi savollar.

2. Ijodiy ishlarga yo'naltirish. Xalq rivoyatlari nafaqat axloqiy fazilatlarini o'rgatadi, balki talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Rivoyatlarni ijodiy tarzda talabalarga taqdim etish, ularga yangi g'oyalar va yondashuvlarni kiritish imkonini beradi. Ijodiy ishlarda talaba o'z fikrlarini erkin ifodalaydi, shuningdek, o'ziga xos yondashuvlarni shakllantiradi. Metodika quyidagicha olib boriladi:

- talabalar rivoyatlar asosida turli ijodiy ishlarni yaratishlari mumkin, masalan, insho yozish, hikoya yozish, rivoyatlarni drammatizatsiya qilish;

- rivoyatlar asosida o'quvchilar sahnalashtirilgan qisqa spektakllar yoki teatr ko'rinishlarini tashkil etishlari mumkin;

- o'quvchilarni ijodiy ravishda xalqqa tegishli yangi rivoyatlar yoki hikoyalar yaratishga undash.

3. Milliy qadriyatlarni tarixiy va madaniy kontekstdan o'rganish. Xalq rivoyatlari nafaqat axloqiy, balki madaniy va tarixiy qadriyatlarni ham o'rgatadi. Rivoyatlar orqali talabalar millatning tarixiy o'tmishiga, madaniy an'analarga chuqurroq nazar soladilar va shu tariqa o'z milliy merosini tushunadilar. Metodika quyidagicha olib boriladi:

- rivoyatlar asosida millatning tarixini, urf-odatlarini, madaniyatini o'rganish;

- rivoyatlar yordamida talabalar o'z millatining o'tmishdagi hayoti, uning qadriyatlari va an'analari haqida

chuqurroq ma'lumotga ega bo'ladilar. Bunday yondashuv talabalarda milliy va madaniy anglashni shakllantiradi;

- talabalar rivoyatlar asosida tarixiy va madaniy an'analarga haqida tadqiqotlar o'tkazishlari mumkin.

4. Xalq rivoyatlarini san'at bilan uyg'unlashtirish. San'at, musiqa, raqslar va she'rlar orqali xalq rivoyatlarini talabalarga taqdim etish ularning estetik va hissiy rivojlanishiga yordam beradi. San'at va xalq rivoyatlarini birlashtirish orqali talabalar o'z madaniyatini chuqurroq tushunadilar. Metodika quyidagicha olib boriladi:

- xalq rivoyatlarini musiqiy va teatr ko'rinishlarida namoyish etish;

- rivoyatlar asosida raqslar yoki san'at asarlarini yaratish;

- talabalar tomonidan milliy san'at shakllarini, masalan, xalq musiqa asboblariidan foydalanishni o'rgatish.

5. Pedagogning roli va metodik yondashuvlar. Xalq rivoyatlari asosida ta'lim berishda o'qituvchining roli muhimdir. O'qituvchi talabalarni rivoyatlar orqali milliy qadriyatlarni o'rganishga undashi, ularni zamonaviy hayotga tatbiq etishda yordam beradi. Metodika quyidagicha olib boriladi:

- o'qituvchi darslarni rivoyatlar asosida qurib, talabalarga axloqiy saboqlarni tushuntiradi;

- o'qituvchi talabalar bilan doimiy muloqotda bo'lib, ularning rivoyatlar haqidagi fikrlarini tinglaydi va ular bilan interaktiv muloqotga kirishadi;

- o'qituvchi talabalarga rivoyatlarni o'rganish va ulardan amaliy maqsadlar uchun foydalanish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Tahlil va natijalar. Xalq rivoyatlari, asosan, xalqning qadimiy hayoti, urf-odatlarini, ahloqiy meyorlari va qadriyatlarini o'zida aks ettirgan adabiy mahsulotlardir. Ular, nafaqat tarixiy ma'lumotlar, balki insoniyatga oid umumiy ahloqiy tamoyillarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek quyidagi natijalarga olib keladi:

1. Rivoyatlar orqali talabalar milliy ruhni, o'ziga xoslikni, xushmuomalalikni, mehnatni qadrlashni o'rganishlari mumkin.

2. Xalq rivoyatlari, talabalarga nafaqat o'z yurtining madaniyatini chuqurroq anglash imkonini beradi, balki umumiy insoniyat qadriyatlarini ham yoritishga yordam beradi.

3. Dars jarayonida rivoyatlarni ishlatish nafaqat talabalarining e'tiborini tortadi, balki ularning badiiy va estetik tasavvurlarini ham rivojlantiradi. Bunda, o'qituvchilarning kreativ yondashuvi, o'quv jarayoniga rivoyatlarni qo'shish orqali, milliy madaniyatni o'rgatishda yanada samarali bo'lishi mumkin.

4. Xalq rivoyatlari orqali milliy qadriyatlarni talabalarga etkazish metodikasi o'zining yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi. Bu yondashuv talabalarni nafaqat milliy an'analarga hurmat bilan qarashga, balki dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

Rivoyatlar, o'z navbatida, talabalarining ahloqiy va madaniy shakllanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, bu metodikaning ta'lim tizimida keng qo'llanilishi zarur. Bunda o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklanadi, chunki ular bu jarayonni qiziqarli, mazmunli va o'quvchilarni o'ylashga undaydigan tarzda olib borishlari kerak. Umuman olganda, xalq rivoyatlari orqali milliy qadriyatlarni targ'ib qilish nafaqat talabalarining ma'naviyati va dunyoqarashini shakllantiradi, balki jamiyatni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Xalq rivoyatlari talabalarda milliy qadriyatlarni va madaniyatni targ'ib qilishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular nafaqat axloqiy meyorlarni, balki milliy urf-odatlar, madaniyat va tarixiy qadriyatlarni o'rganishga imkon yaratadi. O'qituvchilar xalq rivoyatlarini darslarda ijodiy va tahliliy yondashuvlar bilan o'rgatib, talabalarda chuqur axloqiy va madaniy ongini rivojlantiradilar. Bu metodika talabalarga nafaqat o'z millatini sevish, balki uni saqlash va rivojlantirish uchun mas'uliyatni anglashda yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. O'zbekiston. T.: 2021
2. Mahmudov F. O'zbek xalq rivoyatlari va ularning pedagogik ahamiyati. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti. 2020.
3. Xo'jayev U. Yoshlarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarining o'rni. Toshkent: Sharq nashriyoti. 2018.
4. Nazarov A. Xalq rivoyatlari va ularning o'quv jarayonida qo'llanilishi. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti. 2017.
5. Abdullaev A. O'zbek xalq adabiyoti va uning tarbiyaviy ahamiyati. Toshkent: TATU nashriyoti. 2021.



UDK:372.891

Umida TURDALIYEVA,
Namangan muhandislik-qurilish instituti tayanch doktoranti

NamDPI o'qituvchisi PhD F.Xusanova taqrizi asosida

PEDAGOGIK INTERAKTIV TRENINGLAR ORQALI BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqola pedagogik interaktiv treninglar orqali bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish mavzusiga bag'ishlangan. Maqolada kommunikativ kompetensiyaning ta'lim jarayonidagi ahamiyati, uning tarkibiy qismlari va pedagogik interaktiv treninglarning samaradorligi batafsil tahlil qilinadi. Interaktiv treninglar orqali pedagoglarning o'zaro muloqotda ishonch hosil qilish, fikr bildirish va konstruktiv bahs-munozara o'tkazish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishda qanday samarali usullar qo'llanishi mumkinligi ko'rsatilgan. Shuningdek, interaktiv treninglarning amaliy ahamiyati ham ko'rsatilgan, chunki ular pedagoglarning o'z fikrlarini aniq ifodalash, boshqalar bilan samarali aloqalar o'rnatish va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda katta yordam beradi. Maqola bo'lajak pedagoglar uchun metodik qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin, chunki u interaktiv metodlarning pedagogik amaliyotdagi o'rni va ulardan foydalanishning samarali usullarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Kommunikativ kompetensiya, pedagogik metodika, interaktiv treninglar, pedagogik kompetensiya, o'quv jarayoni, kommunikatsiya ko'nikmalari, ta'lim metodlari.

РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ С ПОМОЩЬЮ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИНТЕРАКТИВНЫХ ТРЕНИНГОВ

Аннотация

Данная статья посвящена теме развития коммуникативных компетенций будущих педагогов посредством педагогических интерактивных тренингов. В статье подробно анализируется значение коммуникативной компетентности в образовательном процессе, ее составляющие и эффективность педагогических интерактивных тренингов. Посредством интерактивного обучения показано, какие эффективные методы педагоги могут использовать для развития таких навыков, как уверенность в общении, обратная связь и конструктивное обсуждение. Также показано практическое значение интерактивных тренингов, поскольку они очень помогают педагогам четко выражать свои мысли, устанавливать эффективные отношения с другими и развивать социальные навыки. Статья может служить методическим пособием для будущих педагогов, так как в ней раскрывается роль интерактивных методов в педагогической практике и эффективные способы их использования.

Ключевые слова: Коммуникативная компетентность, педагогическая методика, интерактивные тренинги, педагогическая компетентность, учебный процесс, коммуникативные навыки, методы обучения.

DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCIES OF FUTURE EDUCATORS THROUGH PEDAGOGICAL INTERACTIVE TRAININGS

Annotation

This article is devoted to the topic of the development of communicative competencies of future educators through pedagogical interactive trainings. The article analyzes in detail the importance of communicative competence in the educational process, its components and the effectiveness of pedagogical interactive trainings. Interactive trainings show what effective methods can be used in the development of skills such as educators' confidence in interaction, expression, and constructive debate. The practical importance of interactive trainings is also shown, as they greatly help educators to express their thoughts clearly, build effective relationships with others, and develop their social skills. The article can serve as a methodological guide for future educators, as it reveals the role of interactive techniques in pedagogical practice and effective ways to use them.

Key words: Communicative competence, pedagogical methodology, interactive trainings, pedagogical competence, educational process, communion skills, educational methods.

Kirish. Hozirgi kunda ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga xizmat qiladigan asosiy institutlardan biri sifatida tobora murakkablashib bormoqda. Pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasi zamonaviy ta'lim jarayonida alohida ahamiyatga ega bo'lgan muhim omillardan biri hisoblanadi. Pedagogning kommunikativ kompetensiyasi o'qitish samaradorligini oshirish, talaba bilan samarali aloqalar o'rnatish, shuningdek, talabani ijtimoiy-psixologik muhitga moslashuvini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish uchun samarali metodlardan biri pedagogik interaktiv treninglardir. Ushbu maqolada interaktiv treninglar yordamida pedagoglarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va metodikasi haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kommunikativ kompetensiya haqida turli olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar mavjud. Masalan, A. G. Asmolov fikriga ko'ra, pedagogning kommunikativ kompetensiyasi uning ta'lim

jarayonida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan asosiy komponentlardan biridir. S. I. Yermolayeva esa pedagoglarning muloqotdagi nutq madaniyatining, hissiy-intellektual jihatlarining va ijtimoiy-ko'nikmalarining kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari sifatida muhimligini ta'kidlaydi. M. I. Muxamedov esa interaktiv treninglarni pedagoglar uchun o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish imkoniyatini beruvchi metod sifatida tavsiflaydi. U, shuningdek, bu metod orqali pedagoglar o'z bilimlarini faqat nazariy emas, balki amaliyotda ham mustahkamlashlari mumkinligini ta'kidlaydi. Interaktiv treninglar talabalarni turli pedagogik vaziyatlarga tayyorlashga yordam beradi, bu esa ularning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Pedagogik interaktiv treninglar – bu o'qituvchi va talabalar o'rtasida faol o'zaro aloqalar va muloqot o'rnatishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining usuli hisoblanadi. Interaktiv treninglarda talabalar faqat passiv tomoshabin sifatida qatnashmaydilar. Faol ishtirokchilar sifatida o'qituvchidan mustaqil fikrlar, izlanishlar va bahs-munozaralar

orqali bilim olishadi. Bu usul, shuningdek, bo'lajak pedagoglarning o'zaro muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, konfliktiy vaziyatlarni hal qilish va ijtimoiy muloqotda erkinlikni ta'minlashga yordam beradi. Interaktiv treninglar bo'lajak pedagoglarga pedagogik amaliyotda yuzaga keladigan turli vaziyatlarga tayyor bo'lish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'rgatadi.

Kommunikativ kompetensiya o'z ichiga bir qator elementlarni oladi (1-rasm).



1-rasm. Kommunikativ kompetensiya elementlari

Xulq-atvor va boshqaruv: Talabalar bilan o'zaro aloqada to'g'ri xulq-atvorni namoyon etish, o'quvchilarni ilhomlantirish va ijobiy ijtimoiy muhit yaratish.

Yuqoridagilar asosida kommunikativ kompetensiya, shuningdek, muloqotda muvaffaqiyatli bo'lish, o'zaro aloqalar va fikr almashishni samarali tarzda tashkil etish qobiliyatidir. Bu kompetensiya bir necha tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, har biri muloqot jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun muhim ahamiyatga ega. Kommunikativ kompetensiya elementlari pedagoglar uchun, ayniqsa, o'qitish jarayonida talabalar bilan samarali muloqot o'rnatishda juda muhimdir.

Zero, pedagogik interaktiv treninglar pedagoglarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda bir nechta muhim ahamiyatga ega:

Faol ishtirokni ta'minlash: Interaktiv metodlar pedagoglarni muloqotga jalb qilish orqali ularning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantiradi. Talabalar o'z fikrlarini ifodalashda va guruh ishlari orqali o'rganish jarayonida faol ishtirok etadilar.

Simulyatsiyalar va rol o'ynash: Bu metod pedagoglarga turli pedagogik vaziyatlarni simulyatsiya qilish imkonini beradi. Misol uchun, talabalar o'zlarini o'qituvchi, talaba yoki ota-ona sifatida namoyon qilib, turli vaziyatlarda qanday muloqot qilish kerakligini o'rganadilar.

Case-study (vaziyat tahlili): Pedagoglar o'z kasbiy faoliyatlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni tahlil qilishadi va ularga yechimlar taklif qilishadi. Bu metod pedagoglarni analitik fikrlashga, qaror qabul qilishda aniq, asosli yondashuvni rivojlantirishga o'rgatadi.

Debatlar: Pedagoglar o'zaro muloqot qilish va turli nuqtai nazarlarni himoya qilish orqali fikr almashadilar. Debatlar kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali usul bo'lib, talabalar turli mavzularda erkin va xolis fikr bildirishga o'rganadilar.

Interaktiv treninglar bir qator afzalliklarga ega bo'lib, pedagoglarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga katta yordam beradi:

Talabalarni faollashtirish: Interaktiv treninglar orqali talabalar o'zlarini ta'lim jarayonining faol ishtirokchilari sifatida his qilishadi, bu esa ularning o'z-o'zini ifoda etish va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shaxsiy o'sishni ta'minlash: Har bir talabaga o'z nuqtai nazarini himoya qilish va erkin fikr bildirish imkoniyati beriladi, bu esa shaxsiy rivojlanish va o'zini anglashni ta'minlaydi.

Praktik ko'nikmalarni oshirish: Amaliy mashg'ulotlar va simulyatsiyalar orqali pedagoglar o'z kommunikativ ko'nikmalarini mustahkamlashadi, bu esa ularni haqiqiy pedagogik vaziyatlarga tayyorlaydi.

O'quvchilar bilan samarali muloqot qilish: Treninglarda olingan bilimlar pedagoglarni talabalar bilan ochiq va samimiy aloqada bo'lishga o'rgatadi.

Pedagoglarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda amaliy yondashuvlar:

Nutq madaniyati: Pedagogning o'z fikrini aniq, lo'nda, tushunarli va madaniyatli ifodalash qobiliyati.

Empatiya va hissiy intellekt: Boshqalarni tushunish, ularning his-tuyg'ularini hisobga olish va muloqotda o'zaro hurmatni saqlash.

Muloqot texnikasi: Samarali tinglash, savollar berish, muloqotda o'z nuqtai nazarini aniq va ishonch bilan ifodalash.

Guruh ishlari va hamkorlik: Talabalar kichik guruhlarga bo'linib, birgalikda muayyan masalalarni hal qilishadi. Bu usul hamkorlikni rivojlantirish va guruhda ishlash ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

Interaktiv materiallar va didaktik vositalar: Treninglarda interaktiv materiallar, masalan, videolar, audio fayllar, onlayn simulyatsiyalar va boshqa vositalar qo'llanilishi kerak. Bu vositalar talabalarni yangi bilimlarga qiziqtiradi va o'rganish jarayonini qiziqarli qiladi.

Real-vaziyatlar va masalalar: Talabalar o'zlarining amaliy ishlariga yaqin bo'lgan vaziyatlarni tahlil qilib, ularga tegishli yechimlarni taklif qilishlari zarur. Bu pedagoglarni o'quvchilari bilan yuzaga keladigan turli pedagogik muammolarni samarali hal qilishga tayyorlaydi.

Fikr almashish va tahlil qilish: Har bir interaktiv treningdan so'ng, talabalar o'z tajribalarini va o'rganilgan materiallarni tahlil qilishlari kerak. Bu ularning o'z-o'zini rivojlantirishiga yordam beradi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Tahlil va natijalar. Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik interaktiv treninglarning o'rni va samaradorligini tahlil qilish jarayonida, bir nechta muhim xulosalarga kelish mumkin.

- pedagogik interaktiv treninglar nafaqat o'quvchilarga bilim berish, balki ularning muloqot qilish va boshqa ijtimoiy-ko'nikmalarini rivojlantirishda ham samarali vosita hisoblanadi;

- pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda interaktiv treninglarning o'ziga xos xususiyatlari, metodikasi va amaliyoti katta rol o'ynaydi;

- interaktiv metodlar, jumladan, rol o'ynash, case-study, debatlar va guruh ishlari, pedagoglarning muloqot ko'nikmalarini oshirishda samarali hisoblanadi.

Pedagogik interaktiv treninglar orqali bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning samaradorligi aniq ravishda ko'rsatilgan. Tadqiqotlar va nazariy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlar pedagoglarning muloqotdagi samaradorligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Rol o'ynash, case-study va debatlar kabi metodlar nafaqat pedagoglarning fikr bildirish ko'nikmalarini oshiradi, balki o'zaro aloqalar, guruh ishlari va pedagogik vaziyatlarda qaror qabul qilishda ishonchni ta'minlaydi.

Shuningdek, pedagogik interaktiv treninglar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi, bu esa pedagoglarni real pedagogik vaziyatlarga tayyorlaydi. Treninglar davomida o'qituvchilar o'zlarini turli pedagogik vaziyatlarda sinab ko'rishlari mumkin, bu esa ularga talabalar bilan samarali va to'g'ri muloqot qilish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, bu metodik yondashuvlar pedagoglarni o'zlarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga, o'quvchilarga to'g'ri va samarali ta'lim berish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Pedagogik interaktiv treninglar bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu metod yordamida pedagoglar nafaqat o'z bilimlarini oshiradilar, balki ularni real vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini ham o'zlashtiradilar. Interaktiv treninglar o'zaro muloqotda ishtirok

etish, guruh ishlari va turli pedagogik vaziyatlarda qarorlar qabul qilish orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, bo'lajak pedagoglar uchun bu usul ta'lim tizimida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan barcha ko'nikmalarni egallashda katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston. Toshkent.2022. 212-bet
2. Xolmatova D. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'limdagi o'rni". Toshkent. 2023.
3. Vygotskiy N.. "O'quv jarayonidagi kommunikatsiya va interaktiv metodlar" Moskva. 2020.
4. Ta'limni rivojlantirish milliy dasturi .2024.
5. Rahmonov A. "Pedagogik mahorat asoslari". Toshkent. 2022.
6. Гильманова С.А. Педагогические условия развития иноязычной коммуникативной компетенции студентов неязыковых факультетов. Диссертация на соискание академической степени магистра. –Челябинск, 2019. 147 с.



Aziza TUREMURATOVA,
Qoraqolpoq davlat universiteti pedagogika va psixologiya kafedrasini assistenti
E-mail: azizaturemuratova85@gmail.com

Pedagogika fanlari doktori, prof. O. Jamoldinova taqrizi asosida

ZAMONAVIY TA'LIMDA KO'P VEKTORLI PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOLLABORATIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola zamonaviy ta'limda pedagogik yondashuvlar asosida ko'p vektorli faol ta'lim va o'quvchilarning pedagogik metodlarda kolleborativ ko'nikmalarni oshirish bo'yicha tadqiqotlarning qisqacha nazariy sharhini taqdim etadi. Ushbu ko'p vektorli pedagogik yondashuvlar ta'limning ko'p vektorli mexanizmlaridan pedagogik modellar bilan shakllanishi haqidagi ta'riflari berilgan. Ko'p vektorli pedagogik yondashuvlarga asoslangan ta'lim metodlarivakolleborativ o'qitish shakllarining asosiy xususiyatlari sanab o'tilgan. Hamkorlik (kolleborativ ta'lim) dasturi bilan o'qitish metodlarida qo'llaniladigan o'quv faoliyati turlari haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tilgan: O'quvchilarning kolleborativ ko'nikmalarini shakllantirishda asosan dars jarayonida yangi pedagogik metodlardan foydalanish orqali munozara qilish, erkin fikr bildira olish, tengdoshlar bilan birgalikda o'rganish usullari, ta'limda muammolarni hal qilish, birgalikda ma'lumotlarni to'plash hamda fanga oid qiziqarli o'yinlar orqali tashkil etish dars samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ta'lim, ta'limda vektorli yondashuv, ta'lim metodologiyasi, kolleborativ o'rganish usuli, kichik guruhlarda o'qitish metodi, pedagogik ta'lim modellari, ta'lim mexanizmlari, kolleborativ ko'nikmalar.

ОСНОВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ СОТРУДНИЧЕСТВА УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ МНОГОВЕКТОРНЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В данной статье представлен краткий теоретический обзор исследований по вопросам многовекторного активного обучения и совершенствования навыков совместной работы учащихся педагогическими методами на основе педагогических подходов в современном образовании. Эти многовекторные педагогические подходы определяются формированием педагогических моделей из многовекторных механизмов образования. Перечислены основные особенности образовательных методов и совместных форм обучения, основанных на многовекторных педагогических подходах. Дана подробная информация о видах учебной деятельности, используемых в методике обучения по программе сотрудничества (обучения в сотрудничестве): при формировании у учащихся навыков сотрудничества, обсуждение преимущественно за счет использования новых педагогических методов в ходе урока, Бесплатно выражение, методы взаимного обучения, решение образовательных проблем, совместный сбор данных и организация с помощью веселых научных игр помогают еще больше повысить эффективность урока.

Ключевые слова: Современное образование, векторный подход к образованию, методика обучения, метод обучения в сотрудничестве, метод обучения в малых группах, модели педагогического образования, механизмы обучения, навыки сотрудничества.

THE MAIN MECHANISMS OF DEVELOPING STUDENTS' COLLABORATIVE SKILLS BASED ON MULTI-VECTOR PEDAGOGICAL APPROACHES IN MODERN EDUCATION

Annotation

This article presents a brief theoretical overview of research on multi-vector active learning and improving students' collaborative skills in pedagogical methods based on pedagogical approaches in modern education. These multi-vector pedagogical approaches are defined by the formation of pedagogical models from multi-vector mechanisms of education. The main features of educational methods and collaborative teaching forms based on multi-vector pedagogical approaches are listed. Detailed information on the types of educational activities used in the teaching methods with the cooperation (collaborative education) program was given: in the formation of students' collaborative skills, discussion mainly through the use of new pedagogical methods in the course of the lesson, Free expression, peer learning methods, educational problem solving, collaborative data collection, and organization through fun science-related games help to further increase the effectiveness of the lesson.

Key words: Modern education, vector approach to education, educational methodology, collaborative learning method, small group teaching method, pedagogical education models, educational mechanisms, collaborative skills.

Kirish. Hozirgi kunga kelib O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limning zamonaviy ta'lim dasturlari mexanizmlarida talabalarning dars jarayonlarida ko'p vektorli pedagogik yondashuvlarga asoslangan modellari rivojlanishi kognitiv faoliyatni kolleborativ ko'nikmalarini oshirishda mustaqil ravishda yechimlarni izlash, tadqiqot faoliyati va turli xil ko'nikmalarni takomillashtirishga yordam beradigan pedagogik modellaridan foydalanishni talab qiladi. Talabalarning kolleborativ ko'nikmalarini oshirishda ko'p vektorli pedagogik metodlarni o'rganish ushbu ta'lim maqsadlariga erishishda eng samarali ta'lim metodologiyasi hisoblanadi. Talabalarning kolleborativ ko'nikmalarini shakllantirishda ta'limda vektorli yondashuvlar orqali har xil turdagi o'quv tadbirlari

(muhokamalar, kontseptual loyihalar usuli, guruh bo'lib o'rganish) orqali talabalarda yuqori tartibli fikrlash ko'nikmalarini (sintez, baholash, tahlil qilish, fikr bildirish, tasdiqlash, fikr yuritish) kabi rivojlantiradigan jarayondir. Boshqacha qilib aytganda, ko'p vektorli yondashuvlarga asoslangan pedagogik metodlarni o'rganish – bu ta'lim modellarini tuzish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan, shunchaki ko'rish, tinglash va eslatma olishdan tashqari har qanday harakatlardan kelib chiqishi mumkindir [1]. Talabalarning kolleborativ ko'nikmalarini oshirish uchun ko'p vektorli pedagogik yondashuvlar asosida modellarni o'rganish dasturi davomida o'quvchilarning o'quv jarayonida faol yoki eksperimental ishtirok etishini ta'minlash imkonini beradi. Kengroq ma'noda ta'limda ko'p vektorli pedagogik

yondashuvlarni o'rganish – bu o'quvchilar maqsadli ravishda uning mazmunini tushunishni yaxshilashga, shuningdek, dunyoqarashini oshirish va o'z-o'zini tartibga solish ko'nikmalarini kengaytirishga intiladigan yo'ldir. Innovatsion metodologiyaga asoslangan ta'lim va ta'lim strategiyasini "o'qituvchi va talabalar" ning o'zi tanlagan fanni o'rganish jarayonida uning intellektual va shaxsiy rivojlanishining bevosita istiqbollari belgilovchi prognozga asoslangan umumiy harakatlarining umumiy rejasini sifatida ko'rib chiqish mumkin. Bu pedagogik metodlarni har qanday fan sohasi, shu jumladan ta'lim jarayonining barcha yo'nalishlarida qo'llashimiz mumkin. Ta'lim va tarbiya strategiyasi maqsadni ishlab chiqish, o'qitish mazmunini o'zlashtirish jarayoni, o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash vazifalarini o'z ichiga oladi[2].

Qoraqolpoq davlat universiteti 4-kurs talabolari va 1-kurs talabolari bilan birgalikda o'qitish metodlaridan foydalangan holda dars samaradorligini har taraflama ko'rib tahlil qildik. Talabalarining 80%dan ko'pi kollektiv ta'limning innovatsion pedagogik metodlar yordamida dars jarayonlarini tashkil etishda mumkin bo'lgan sabablarni o'rganib chiqdik: Dars jarayonida talabalar ijtimoiy-psixologik omillar va kognitiv ishtirokning yuqori darajasini ta'minlash qobiliyati yanada oshdi. So'nggi paytlarda ko'p vektorli pedagogik tadqiqotlarda zamonaviy universitet talabalarini o'qitish va tarbiyalashning yangi yondashuvlarini izlashda olimlar talabalarining kollektiv ko'nikmalarini oshirish kabi tushunchalarni ko'rib chiqishga tobora ko'proq murojaat qilmoqdalar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, strategiyalarni tanlashning asosiy tamoyillari quyidagilardir:

- faol ta'lim va o'z-o'zini boshqarish;
- o'quvchining hayotiy tajribasi va tadqiqot amaliyotiga tayanish;

- refleksivlikka e'tibor berish;
- ta'lim jarayonida interaktivlik va hamkorlik dasturi.

Taklif etilayotgan o'quv strategiyalari juda xilma-xildir. Masalan, A. I. Gerzen nomidagi olimlar [3] quyidagilarni taklif qilishadi.

Ekspirimental ta'lim strategiyasi - bu o'zining oldingi tajribasi va boshqa odamlar tajribasini tahlil qilish asosida yangi ma'lumotlar va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish. U aks ettirishni faollashtirishga asoslangan. Ko'pincha kattalar ta'limida qo'llaniladi.

Kontekstli ta'lim strategiyasi - mavzuni va faoliyatning ijtimoiy mazmunini modellashtirish orqali o'rganish. Tanqidiy ta'lim strategiyasi. Axborotni izlash, olingan ma'lumotlarni ongli va obyektiv baholash, shuningdek, yangi ma'lumotlarni aniqlashda o'z qarashlarini o'zgartirish sharoitida o'z fikrini shakllantirishga yordam beradi. Katta axborot oqimi bilan tanqidiy ishlash qobiliyatiga asoslangan.

Kommunikativ ta'lim strategiyalari. Ommaviy muloqot sharoitida guruhdagi suhbat va o'zaro ta'sir dinamikasi uchun namunaviy xatti-harakatlar. Chet tillarini o'qitish jarayonida, muloqot kurslarida qo'llaniladi[4].

Hamkorlikda o'rganish strategiyalari: hamkorlikda o'rganish, hamkorlikda o'rganish, bilimlarni boshqarish, tabiiy o'rganish, onlayn hamjamiyatda o'rganish.

Goodsell A., M. Maher, V. Tinto, B. Smith, J. MacGregor olimlar tomonidan talabalar va o'qituvchilar o'rtasida ko'p vektorli pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirishda e'tibor qaratiladigan jihatlarni aytib o'tgan. Bundan asosiy maqsad zamonaviy ta'lim dasturi asosida talabalardan o'z o'qishlarida kollektiv ko'nikmalarini oshirishda jamoaviy holda ishtirokchi bo'lishlarini talab qiladi, bu quyidagilarni o'z ichiga oladi[5]:

Ko'pgina faol o'rganish strategiyalari uchta toifaga bo'linadi: hamkorlikda o'rganish, kollektiv ko'nikmalar asosida o'rganish va muammoli o'rganish. Tadqiqot pedagogika fanining qoidalarini nazariy tahlil qilish va umumlashtirish usullari asosida olib boriladi. Shu maqsadda o'qitish strategiyasini ishlab chiqish va hamkorlikda o'qitish strategiyasi sifatida hamkorlikda o'qitishni tashkil etish bo'yicha nazariy qoidalar yangilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Pedagogika yo'nalishida ko'p vektorli ta'lim modellarini tashkil etish mexanizmi hamkorlikda

o'rganish vakolloborativ metodlar orqali o'rganish bo'yicha o'xshash usullar bo'lib, ular kichik guruh a'zolari - talabalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning ahamiyatiga qaratilgan. Ta'limning hamkorlik (jamoaviy o'qitish) shakllarining maqsadi - o'rganishning oddiy o'quv harakatlaridan o'rganishni tashkil etishning guruh shakliga o'tishidir. "Kolloborativ ko'nikmalarni oshirishda pedagogik metodlar bilan o'rganish" va "ko'p vektorli yondashuvlar asosida hamkorlikda o'rganish" tushunchalarining ta'rifiga kelsak, ularning farqlarini ta'kidlaydigan ta'riflar va "ko'p vektorli yo'nalishlarga asoslangan holda hamkorlikda o'rganish" tushunchalariga muvofiq ta'riflar mavjud. Talabalarining intellektual sa'y-harakatlari tushuntirishlar, yechimlarni izlash va o'quv metodologiyasini yaratish uchun 2 yoki undan ortiq kishidan iborat guruhlarda birlashtirilgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir[6]. Ushbu maqolada "hamkorlikda o'rganish" atamasi uni birlashtiruvchi ma'noda qo'llaniladi. Hamkorlik jarayoni quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Birinchidan, bu o'ylangan pedagogika yo'nalishida metodlardan to'g'ri foydalanish orqali amalga oshirish mumkin bo'ladi. Metodlarda ko'rsatmalar va tuzilmalarning yo'qligi o'quv maqsadlariga erishishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Ta'limning yuqori sifati aniq o'quv vazifalarini belgilash orqali ta'minlanadi. Hamkorlik bilan o'rganishning ikkinchi xususiyati hamkorlikning davomiyligidir. Hamkorlikdagi o'quv faoliyatida barcha guruh a'zolari maqsadlarga erishish uchun birgalikda harakat qilishlari kerak. YA'ni, agar bitta guruh a'zosi barcha ishini bajarsa, u hamkorlikda o'rganmaydi. Guruhning barcha a'zolariga bir xil topshiriq berilganmi yoki ishtirokchilar birgalikda bitta katta loyihani tashkil etuvchi turli xil vazifalarni bajarishdan qat'iy nazar, barcha talabalar o'quv topshiriqlarini bo'lishishlari kerak. Uchinchidan, dars davomida talabalarining yangi bilimlarni o'rganish mazmunli bo'lishi kerak, bu mavzuni chuqur tushunish, obyektlar va hodisalar o'rtasidagi aloqalarni topish qobiliyati, shuningdek, yangi ma'lumotni mavjud bilimlar bilan bog'lash qobiliyatini shakllantirishda yordam beradi. Shunday qilib, hamkorlikda o'rganish - bu birgalikda ishlaydigan va mo'ljallangan o'quv natijalariga qarab ish yukini teng ravishda taqsimlaydigan ikki yoki undan ortiq talabalar guruhining faolligini ta'minlash uchun eng qulay va samarali usullardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy va psixologik jihatlarga qo'shimcha ravishda, kognitiv soha bilan bog'liq bo'lgan ikkita omil hamkorlikda o'rganish samaradorligiga hissa qo'shishi mumkin - puxta o'ylangan vazifani tanlash va o'quv faoliyati uchun zarur bo'lgan aqliy harakat darajasini oshirishga yordam beruvchi metodologiyalardan foydalanish mumkin[7].

O'quv vazifasi - bu o'qituvchi maqsadli ravishda rejalashtirilgan, o'quvchilarning ta'lim natijalariga erishish uchun nima qilishlari kerakligi to'g'risida aniq ko'rsatmalarga ega bo'lgan akademik faoliyatdir. Hamkorlikda o'rganish bo'yicha puxta o'ylangan vazifalar o'quvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb etishga undaydi. Birgalikda o'rganishni tashkil qilish har xil turdagi o'quv tadbirlarini rejalashtirishni o'z ichiga olishi mumkin.

O'ylangan vazifani tanlashga qo'shimcha ravishda, vazifani kerakli darajada bajarish uchun zarur bo'lgan aqliy harakat darajasi ham hamkorlikda o'rganishda bilimlarni o'zlashtirishni kuchaytirishi mumkin [8]. "Faollik darajasi" talabalarining aqliy investitsiyalari darajasini va ularning o'rganishlarini kuzatish uchun foydalanadigan strategiyalarni hisobga oladi.

So'nggi paytlarda zamonaviy pedagogikada o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashda yangi ko'p vektorli yondashuvlarni izlashda, pedagogik tadqiqotlarda olimlar strategiya kabi tushunchani ko'rib chiqishga tobora ko'proq murojaat qilmoqdalar. Bu pedagogik tadqiqot makonini kengaytiradi va shu tariqa, bir tomondan, muayyan strategiya kontekstida o'qitish turlari va texnologiyalarini ko'rib chiqish, ikkinchi tomondan, o'qitish va tarbiyalashning yangi strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Ushbu ko'p vektorli pedagogikayondashuv doirasida talaba-yoshlarning hamkorlikda o'rganish dasturi asosida kollektiv ko'nikmalarini oshirish bo'yicha ilg'or metodik strategiyasini anglatadi. Ingliz tilidan tarjima qilinganda hamkorlik "umumiy", "birlashgan", "qo'shma"

degan ma'nonlarni anglatadi. Pedagogika fanida "kollaborativ ta'lim metodikasi" atamasi "hamkorlikda o'qitish metodi", "jamiyati o'qitishning pedagogik modeli" ma'nolarini bildiradi. Bu umumiy maqsadlarga erishish uchun talabalarning birgalikdagi faoliyati jarayonini nazarda tutadi, unda bilimlarni almashiladi, talabalar o'rtasida o'rganish va kelishuvga erishiladi. "Hamkorlikda o'rganish" ta'rifi muammoni hal qilish, vazifani bajarish yoki yangi innovatsion g'oyalarni yaratish uchun talabalarning guruh ishini tashkil qilish imkonini beradigan o'quv strategiyasini anglatadi.

Hamkorlikdagi ta'lim - bu talabalarning ijtimoiy holati, kollaborativ ko'nikmalari va hissiy rivojlanishiga yordam beruvchi pedagogikaning zamonaviy ta'lim dasturi hisoblanadi[9].

Hamkorlikda o'qitishning tarbiyaviy ahamiyati hamkorlik pedagogikasi g'oyalari bilan ta'minlanadi, bu bizga o'quv jarayonida barcha subyektlar umumiy faoliyatda do'stlik, o'zaro hurmat, o'zaro yordam va kollaborativ munosabatlari bilan birlashtirilganligini tushunishga imkon beradi. Hamkorlik har bir insonning manfaatlarini va istaklarini hisobga olish, qo'llab-quvvatlash, kelishmovchiliklarni bosqichma-bosqich bartaraf etish va erkin fikr berishni o'z ichiga oladi. Bu konfliktli vaziyatda xatti-harakatlarning eng samarali shakli bo'lib hisoblanadi. Kooperativ ta'lim tarbiyaviy potentsialga ega bo'lib, hamkorlik, nizolarni hal qilish, jamoa, hamkorlar bilan o'zaro munosabatda bo'lish qobiliyati va tayyorligini shakllantirishga yordam beradi. Talabalar hamkorlik tamoyillari asosida birgalikdagi faoliyatni tashkil qilishni va ularda ishtirok etishni o'rganadilar, jamoa bo'lib o'rganish sifatidagi rolini tushunadilar.

Birgalikda o'qitish samaradorligi quyidagi xususiyatlarda ifodalanaadi:

- Talaba yoshlar o'rtasida ijobiy o'zaro bog'liqlik: har bir talaba ishda to'liq ishtirok etishi, boshqalar oldida javobgar bo'lgan o'z vazifasiga ega bo'lishi, ularning yutuqlari guruh samaradorligiga ta'sir qilishini tushinishi kerak;

- Talabalar orasida yuzma-yuz muloqotni tashkil qilish: yordam, bir-birlarining muvaffaqiyatlarini rag'batlantirish;

- Ijtimoiy ko'nikmalar: har bir talaba samarali muloqot usullarini, shaxslararo va guruhdagi o'zaro munosabatlarni o'zlashtiradi;

- Guruhni baholash: guruhning samaradorligini baholashi va uni yaxshilash yo'llarini ishlab chiqishi kerak[10].

Pedagogik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish talabalarning shaxsiyatini ijtimoiylashtirish va tarbiyalash (jamoa ishlab, hamkorlik qilish, etakchilik qobiliyatini rivojlantirish) kabi bir qator pedagogik muammolarni hal qilish uchun jamoaviy faoliyat imkoniyatlari haqida gapirishga imkon beradi. Kollaborativ ko'nikmalarni shakllantirish bilan bir qatorda talabalarning kognitiv qiziqish, faollik, mustaqillik, shaxsning jamoaviy, kommunikativ fazilatlarini, o'qishga mas'uliyatli munosabatni rivojlantirish asosiy vazifalarga aylanadi.

Xulosa va takliflar. Ta'limda ko'p vektorli pedagogik yondashuvlarga asoslangan metodlardan foydalanish dasturini keng darajada oliy ta'lim muassasalari o'quv faoliyatida qo'llash orqali bo'lib, talabalarning o'quv jarayonidagi ishtiroki darajasini oshiradi. Hamkorlik bilan o'rganish o'quvchilarga o'quv dasturi mazmunini o'zlashtirish va turli xil fikrlash, kollaborativ ko'nikmalarini rivojlantirish nuqtai nazaridan o'quv jarayonini jadallashtirishga yordam beradigan tasdiqlangan metodik usuldir. Ushbu pedagogik strategiyalar talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning nisbatan yuqori darajasini targ'ib qilishda umumiydir. Hamkorlikdagi ta'limning samaradorligi ijtimoiy-psixologik omillarning (shaxslararo munosabatlar sifati, psixologik moslashuv, o'rganishga ijobiy munosabat) va o'rganish turlarining uyg'unligi bilan bog'liq ishtirok etishni ta'minlash orqali tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Hamkorlikdagi (kollaborativ) ta'limning yuqoridagi xarakteristikalarini hamkorlikda ko'p vektorli ta'lim yo'nalishlarida katta tarbiyaviy salohiyatga ega degan xulosaga kelish imkonini beradi. O'quv jarayonida pedagogik hamkorlik muhitini yaratish orqali biz talabalar faoliyatining umumiy kommunikativ kontekstiga kollaborativ shakllantiramiz degan fikrdamiz.

ADABIYOTLAR

1. Gogus A. Active Learning / A. Gogus. - Springer reference Encyclopedia of the sciences of learning.-2012. - pp. 77-80 [Electronic resource]. - Access mode - DOI: 10.1007/978-1-4419-1428-6_489 (Accessed 02.10.2021)
2. Felder R, Brent R. Active Learning: An Introduction / R. Felder, R. Brent // ASQ Higher Education Brief. - 2019. - Vol. 2. -No. 4. - P. 1-5 [Electronic resource]. - Access mode <https://www.engr.ncsu.edu/wpcontent/uploads/drive/1YB2KK3wLqP3EhXyYdKtE94mBJzc2rc2/Active%20Learning%20Tutoria1.pdf> (Accessed 09/29/2021)
3. Weltman D., Whiteside M. Comparing the Effectiveness of Traditional and Active Learning Methods in Business Statistics: Convergence to the Mean / D. Weltman, M. Whiteside // Journal of Statistics Education. - 2010. - Vol. 18. - No. 1 [Electronic resource]. - Access mode - DOI: 10.1080/10691898.2010.11889480 (Access date 10/03/2021)
4. Major C. Collaborative Learning: A Tried and True Active Learning Method for the College Classroom / C. Major // New Directions for Teaching and Learning. - 2020. - P. 19-28 [Electronic resource]. - Access mode - DOI:10.1002/tl.20420 (Accessed 10/01/2021)
5. Smith B., MacGregor J. What is Collaborative Learning? / B. Smith, J. MacGregor // Collaborative Learning: A Sourcebook for Higher Education / Goodsell A., M. Maher, V. Tinto, B. Smith, J. MacGregor (Eds.). - Pennsylvania State University: National Center on Postsecondary Teaching, Learning, and Assessment Publishing, 2012 [Electronic resource].
6. Strokova T. A. Individual learning strategy: essence and development technology // Education and Science. 2015. No. 4. P. 17-26.
7. Tarkhanova I. Yu. Interactive strategies for organizing the educational process at the university: a tutorial. Yaroslavl: Publishing house of Yaroslavl State Pedagogical University, 2012. 67 p.
8. Educational strategies and teaching technologies in the implementation of a competence-based approach in pedagogical education taking into account humanitarian technologies: Methodological recommendations. St. Petersburg: Publishing house of the Herzen State Pedagogical University, 2018. 108 p.
9. Pavelieva N. V. Collaborative learning as a model for effective implementation of the educational process // Education. Career.Society.Kemerovo, 2010.No. 3 (29). P. 30-37.
10. Fraisin J. Learning in digital networks: cooperative learning, collaborative learning and pedagogical innovations // Continuous education XXI century. Petrozavodsk: PetrSU, 2016. No. 4 (16). P. 1-18.



УДК:371.3(045)

Sojida TURSUNOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistranti
E-mail: sojida_tursunova@gmail.com

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori Z.Botirov taqrizi asosida

THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE COMPETENCE IN VOCATIONAL EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation

This article analyzes the methodology for developing students' creative competence in vocational education institutions. Developing students' creativity and innovation skills is one of the key tasks for the modern education system. The article discusses the main methodologies, theoretical foundations, and challenges of fostering creative competence. It also proposes solutions such as updating teaching methods, improving teachers' qualifications, and implementing innovative technologies in education. The authors emphasize that improving students' creative thinking and the ability to generate new ideas can contribute to enhancing the quality of the education system. The article aims at the renewal of vocational education and ensuring that students are equipped with skills suitable for the modern labor market.

Key words: Vocational education, competence, creativity, modern education, technology, methodology.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ В ОРГАНИЗАЦИЯХ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Данная статья анализирует методику развития креативной компетентности учащихся в организациях профессионального образования. Развитие у учащихся способности к творчеству и инновациям является одной из важнейших задач современной образовательной системы. В статье рассматриваются основные методологии, теоретические основы и проблемы развития креативной компетентности. Также предлагаются решения, такие как обновление методов преподавания, повышение квалификации преподавателей и внедрение инновационных технологий в образовании. Авторы подчеркивают, что повышение способности учащихся к творческому мышлению и разработке новых идей может способствовать улучшению качества образовательной системы. Статья направлена на обновление системы профессионального образования и обеспечение учащихся навыками, соответствующими современному рынку труда.

Ключевые слова: Профессиональное образование, компетентность, креативность, современное образование, технологии, методология.

KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'QUVCHILARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Аннотация

Mazkur maqola kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini tahlil qiladi. O'quvchilarning kreativlik va innovatsiyalarni ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantirish, zamonaviy ta'lim tizimi uchun muhim vazifalardan biridir. Maqolada kreativ kompetentlikni rivojlantirishning asosiy metodologiyalari, nazariy asoslari va muammolari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, o'qitish metodlarini yangilash, o'qituvchilarning malakasini oshirish va ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish kabi yechimlar taklif qilinadi. Mualliflar, o'quvchilarning kreativ fikrlash va yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatlarini oshirish orqali, ta'lim tizimining sifatini yaxshilashga erishish mumkinligini ta'kidlaydilar. Maqola kasbiy ta'limning yangilanishi va o'quvchilarning zamonaviy ish bozoriga mos malakalar bilan ta'minlanishini ko'zda tutadi.

Kalit so'zlar: Kasbiy ta'lim, kompetentlik, kreativ, zamonaviy ta'lim, texnologiya, metodologiya.

Kirish (Introduction). Kasbiy ta'lim – bu o'quvchilarga malaka va kasbga oid bilimlarni beradigan, ularning jamiyatda faol va muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydigan muhim bir jarayon hisoblanadi. Bugungi kunda texnologiyalarning tez rivojlanishi, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar, globalizatsiya kabi omillar kasbiy ta'lim tizimining yangilanishini taqozo etmoqda. Ayniqsa, kreativlik va innovatsiyalarni rivojlantirish kasbiy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylannoqda. O'quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ularni zamonaviy talablar va ish bozorining ehtiyojlariga mos ravishda tayyorlashda juda muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyotlarda kreativ kompetentlik, umumiy ma'noda, o'quvchilarning yangi fikrlarni ishlab chiqish, muammolarni hal qilishda noan'anaviy yondashuvlarni qo'llash, va tasavvur qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Xususan, U. Shumilov (2003) tomonidan keltirilgan ta'rifga ko'ra, kreativ kompetentlik shaxsning o'z fikrlarini yaratishda, ijodiy va innovatsion g'oyalarni ishlab chiqishda ko'nikmalarini rivojlantirishga asoslangan malakalardir. Bu kompetentlikni rivojlantirish uchun kasbiy ta'limda zamonaviy pedagogik

yondashuvlar va metodikalar zarur bo'lib, ular o'quvchilarga ijodiy jarayonlarni amalga oshirishda yordam beradi.

Kasbiy ta'limda kreativ kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha bir qancha metodologik yondashuvlar mavjud. D. D. Leontyev (1981) tomonidan ta'riflangan "motivatsiya va ijodiy fikrlash" kontseptsiyasi, o'quvchilarning ta'lim jarayonida ijodiy yondashuvni shakllantirishning asosiy vositasi sifatida taqdim etiladi. Uning fikriga ko'ra, kreativ kompetentlikni rivojlantirish uchun o'quvchi faqat bilish emas, balki, muammolarni yechish jarayonida mustaqil fikrlash, yangicha g'oyalar yaratish, va natijalarni yangi shakllarda ifodalash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. O'quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda bir nechta metodologik yondashuvlar qo'llanilishi mumkin:

Kompetentlik yondashuvi – bu metodologiya ta'lim jarayonida o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi o'quvchilarni mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va kreativ qarorlar qabul qilishga o'rgatishdir.

Problemaga asoslangan o'quv metodlari – bu yondashuvda o'quvchilarga haqiqiy hayotdagi muammolarni hal qilish imkoniyati beriladi. O'quvchilar bunday muammolarni hal qilishda o'zlarining kreativ qobiliyatlarini ishlatadilar, yangi g'oyalar va innovatsiyalarni yaratadilar.

Kolaborativ o'qitish – bu yondashuv o'quvchilarning guruhda ishlashini va bir-birlaridan o'rganishini ta'minlaydi. O'quvchilar jamoa sifatida yaratadigan g'oyalar va yechimlar ularning kreativligini rivojlantirishga yordam beradi.

Interfaol metodlar – ta'limda innovatsion metodlardan, masalan, o'yinlar, simulyatsiyalar, loyihalarga asoslangan ishlash metodlaridan foydalanish, o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rag'batlantiradi.

Tahlil va natijalar. Kreativ kompetentlik, aslida, faqat ijodiy fikrlash bilan bog'liq bo'lmagan, balki o'quvchining turli vaziyatlarda yangicha qarorlar qabul qilish, o'z g'oyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatini o'z ichiga olgan kengroq tushunchadir. P. Torrans, E. De Bono kabi psixologlar va ta'limshunoslarning ishlarida kreativlikni rivojlantirishning nazariy asoslari mavjud. Ularning fikriga ko'ra, kreativlik nafaqat san'at, balki ilm-fan, texnologiya va hatto kundalik hayotdagi muammolarni hal qilishda ham muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagi asosiy nazariy g'oyalar ko'rib chiqiladi:

Ijodiy fikrlash – o'quvchilarni turli xil fikrlar va g'oyalar bilan ishlashga, mavjud narsalarni yangi usulda ko'rishga undaydi.

Innovatsion qobiliyatlar – yangi g'oyalar yaratish va ularni amalga oshirishni o'rganish orqali o'quvchilar innovatsion yechimlarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'z-o'zini ifodalash – kreativlik o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin va mustaqil tarzda ifodalashga qaratilgan.

Muammoga tayyorlik – o'quvchilarga xatolardan o'rganish, yangi tajriba olish va muvaffaqiyatsizliklardan qo'rqmaslikni o'rgatish.

Kasbiy ta'limda o'quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar mavjud:

Klassik ta'lim metodlarining ortda qolishi – ko'plab ta'lim tashkilotlarida hali ham eski metodlar va an'anaviy o'qitish uslublari ishlatilmoqda, bu esa kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda.

O'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi – kreativ kompetentlikni rivojlantirish uchun o'qituvchilar maxsus metodik va pedagogik bilimlarga ega bo'lishlari kerak. Biroq, ko'plab o'qituvchilar bunday malakaga ega emas.

Talabalar va ish beruvchilar o'rtasidagi aloqaning sustligi – kasbiy ta'limda o'quvchilarni ish bozorining ehtiyojlariga mos ravishda tayyorlashda uzilishlar mavjud.

Resurslarning etishmasligi – kreativlikni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan o'quv materiallari va texnologiyalar har doim ham mavjud emas.

Taklif etadigan yechimlar:

Ta'lim metodlarini modernizatsiya qilish – o'qitish metodlarini interfaol, problemaga asoslangan va kolaborativ usullarga o'tkazish, o'quvchilarning kreativliklarini yanada rivojlantirish imkonini beradi.

O'qituvchilarning malakasini oshirish – o'qituvchilarga kreativ o'qitish metodlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rgatish, ularni o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kasb-hunar kollejlari va universitetlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish – ish beruvchilar va ta'lim tashkilotlari o'rtasida aloqalarni mustahkamlash, o'quvchilarning talablariga mos keladigan kurslar va o'quv dasturlarini yaratish.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llash – yangi texnologiyalar, masalan, virtual va qo'shimcha reallik vositalari, simulyatsiyalar orqali kreativlikni rivojlantirish.

Tajriba asosidagi ta'lim – o'quvchilarga haqiqiy hayotdagi muammolarni hal qilish imkoniyatini berish, loyiha asosida ishlash, ularning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Xulosa. Kasbiy ta'limda o'quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayoni ta'lim tizimining muhim qismlaridan biri sifatida qaraladi. O'quvchilarning kreativ fikrlash, yangi g'oyalar yaratish, innovatsiyalarni amalga oshirish kabi qobiliyatlarini rivojlantirish, ularga zamonaviy ish bozorida muvaffaqiyatli bo'lish imkoniyatini beradi. Bu jarayonda yangi metodologiyalarni qo'llash, o'qituvchilarning malakasini oshirish va ta'lim tizimini modernizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish nafaqat ularning shaxsiy yuksalishi, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham hissa qo'shadi.

REFERENCES

1. Davlatov K., Vorobev A.I., Karimov I. Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda usulikasi. – T.: O'qituvchi, 1992. – 320 b.
2. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. – T.: "Ilm-Ziyo" nashriyoti, 2012 y. 12 b.t.
3. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika (nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun). – T.: TDPU, 2013 y. 15,25 b.t.
4. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va ped mahorat. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2003 – 176 b.
5. Ashurova S.Yu. Professional'naya kompetentnosts kak ob'ekt otsenki// Molodoy uchenyy. – 2012. - № 4. – S. 414-417.
6. Alimov N.N. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarini texnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash usulikasi (umumkasbiy fanlarni o'qitish misolida). Ped.fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.– T.: 2009.–233 b.



UDK: 159.9(575.1)

Xanjarbek TUXTAXO'JAYEV,
Farg'ona davlat universiteti PhD, professori mustaqil izlanuvchi,
E-mail: khanjarbek.1978@mail.ru

FaDU professori, p.f.n A. Abdullayev taqrizi asosida

DETERMINING THE LEVEL OF INDIVIDUALIZATION IN PHYSICAL CULTURE TRAINING IN PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation

Due to the diversity of students' physical abilities and motivational profiles, the need for an individual approach to physical education classes in pedagogical higher educational institutions has increased. This study aims to assess the current level of individualization in physical education programs, assess student satisfaction, and identify factors affecting the effectiveness of personalized training strategies.

Key words: Individualization, physical education, higher education, pedagogy, curricula, student-centered education.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ УРОВНЯ ИНДИВИДУАЛИЗАЦИИ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ

Аннотация

В связи с разнообразием физических возможностей и мотивационных профилей студентов возрастает необходимость индивидуального подхода к занятиям по физическому воспитанию в педагогических вузах. Целью данного исследования является оценка текущего уровня индивидуализации программ физического воспитания, оценка удовлетворенности учащихся и выявление факторов, влияющих на эффективность персонализированных стратегий тренировок.

Ключевые слова: Индивидуализация, физическая культура, высшее образование, педагогика, учебные программы, личностно-ориентированное образование.

PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDAGI JISMONIY MADANIYAT MASHG'ULOTLARIDA INDIVIDUALLASHTIRISH DARAJASINI ANIQLASH

Аннотация

Talabalarining jismoniy qobiliyatlari va motivatsion profilining xilma-xilligi tufayli pedagogika oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga individual yondashuvga bo'lgan ehtiyoj ortib bordi. Ushbu tadqiqot jismoniy madaniyat dasturlarida individuallashtirishning hozirgi darajasini baholash, talabalarining qoniqishini baholash va shaxsiylashtirilgan mashg'ulot strategiyalari samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Individuallashtirish, jismoniy madaniyat, oliy ta'lim, pedagogika, o'quv dasturlari, talabalariga yo'naltirilgan ta'lim.

Kirish. Zamonaviy oliy ta'limda, ayniqsa, bo'lajak pedagoglar tayyorlanadigan pedagogika oliy o'quv yurtlarida jismoniy madaniyat nafaqat salomatlikni mustahkamlash, balki kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Talabalariga yo'naltirilgan ta'limga o'tish individual yondashuvlarning muhimligini ta'kidlaydi. Biroq, akademik ta'lim ko'pincha individual ta'lim uslublari va imkoniyatlariga moslashgan bo'lsa-da, ko'plab muassasalarda jismoniy tarbiya hali ham umumlashtirilgan modelga amal qiladi.

Inson huquqlari bo'yicha kengash a'zosi sifatida o'z majburiyatlari doirasida: O'zbekiston BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qildi; Markaziy Osiyo davlatlari yetakchilari – ayollar muloqoti shafeligida xotin-qizlar fuqarolik jamiyati tashkilotlari, shuningdek, BMT Ayollar tashkiloti ishtirokida mintaqaviy forum o'tkazildi; "Yoshlarni global harakatlarga jalb qilish" mavzusida

yoshlar huquqlari bo'yicha Butunjahon konferensiyasi tashkil etildi. O'zbekiston tashabbusi bilan Inson huquqlari bo'yicha kengashning pandemiya sharoitida yoshlar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qarori qabul qilindi.

Xulosa. Bundan tashqari, BMT tashkil etilganidan buyon ilk bor O'zbekiston tomonining tashabbusi bilan Samarqand shahrida Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi tashkil etildi. BMT Bosh Assambleyasining 73-sessiyasining asosiy hujjatlaridan biri sifatida ma'qullangan Inson huquqlari bo'yicha Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi. O'zbekiston parlamenti inson huquqlari sohasida "Samarqand ruhi"ni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni tasdiqladi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari izchil shakllanmoqda. Biroq, amaliyotda ushbu institutlarning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash uchun. Huquqiy bazani takomillashtirish, moliya va texnik yordam mexanizmlarini kengaytirish va Fuqarolik ta'limini rivojlantirish zarur. Kelajakda fuqarolik jamiyatining kuchayishi demokratik jamiyatning chuqurlashishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Президента Республики Узбекистан № УП-4947 от 7 февраля 2017 г. «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» - <https://lex.uz/ru/docs/3107042>; Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 г. «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы» - <https://lex.uz/ru/docs/5841077>
2. Falsafa: qomusiy lug'at / Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q. Nazarov. – T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. – B. 432.
3. Qirg'izboyev M. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishi: Siyos. fanl. dokt. ... dis. avtoref. – T., 2007. – B. 18.
4. Falsafa: qomusiy lug'at / Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q. Nazarov. – T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. – B. 52.
5. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning dolzarb muammolari: O'quv qo'llanma / T. Do'stjonov, M. Mirhamidov, S. Hasanov. – T.: Iqtisod – Moliya, 2006. – B. 12.
6. См. подробно на Национальной базе данных законодательства Республики Узбекистан – lex.uz



UDK:324

Akbar UTAMURADOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti professori

Siyosiy fanlar doktori, professor X.Axmedov takrizi asosida

YANGI O‘ZBEKISTON BARQAROR TARAQQIYOTINING AYRIM IJTIMOIIY-SIYOSIIY OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada so‘nggi yillarda O‘zbekistondagi keng ko‘lamli islohotlar va yangilanish jarayonlari, Yangi O‘zbekiston barqaror taraqqiyoti g‘oyasining mazmuni va uni amalga oshirishda BMTning 2030 yilgacha bo‘lgan Barqaror rivojlanish maqsadlari mosligi, bu maqsadlar doirasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy islohotlarning mazmuni, mezonlari hamda misollari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, barqaror taraqqiyot, BMT, Barqaror rivojlanish maqsadlari, O‘zbek modeli, milliy rivojlanish, islohotlar, yangilanish jarayonlari, mezonlar, xalqparvar va ochiq siyosat.

НЕКОТОРЫЕ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В статье анализируются масштабные реформы и процессы обновления, происходящие в Узбекистане в последние годы, содержание идеи устойчивого развития "Новый Узбекистан" и её соответствие Целям устойчивого развития ООН до 2030 года. Также рассматриваются содержание, критерии и примеры социально-политических и экономических реформ, проводимых в рамках этих целей.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, устойчивое развитие, ООН, Цели устойчивого развития, узбекская модель, национальное развитие, реформы, процессы обновления, критерии, народная и открытая политика.

SOME SOCIO-POLITICAL FACTORS OF THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN

Annotation

The article analyzes the large-scale reforms and renewal processes occurring in Uzbekistan in recent years, the content of the "New Uzbekistan" sustainable development idea, and its alignment with the UN's Sustainable Development Goals for 2030. It also examines the content, criteria, and examples of social, political, and economic reforms being implemented within the framework of these goals.

Key words: New Uzbekistan, sustainable development, UN, Sustainable Development Goals, Uzbek model, national development, reforms, renewal processes, criteria, people-oriented and open policy.

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda keng ko‘lamli islohotlar va yangilanish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Bu jarayon “Yangi O‘zbekiston” deb nomlanuvchi yangi davrni boshlab berdi. Yangi O‘zbekiston g‘oyasi faqat siyosiy ifoda emas, balki mamlakat taraqqiyotining barcha sohalarida barqaror rivojlanishga asos bo‘lib xizmat qiluvchi mukammal strategiyadir. Mazkur ma‘ruzada barqaror taraqqiyotga ta‘sir etuvchi ijtimoiy va siyosiy omillar ilmiy tahlil qilinadi. Yangi O‘zbekiston — bu xalq bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yangicha tamoyillar asosida yo‘lga qo‘yish, davlat boshqaruvida ochiqlik, adolat va javobgarlikni ta‘minlashdir. Prezident Sh.M.Mirziyoev tashabbusi bilan joriy qilingan “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan g‘oya mamlakat siyosatining asosiy mehvariga aylandi. “Yangi O‘zbekiston – bu, avvalo, yangicha iqtisodiy munosabatlar, yangicha iqtisodiy dunyoqarash demakdir. Shu bois mamlakatimiz iqtisodiy tizimi to‘liq qayta qurilmoqda, qanchalik og‘ir bo‘lmasin, bozor mexanizmlarini amalda joriy etishni boshladik”[1.]. Yangi O‘zbekiston — bu so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar va yangilanish jarayonlarini ifoda etuvchi tushuncha. Bu tamoyil mamlakat prezidenti rahbarligidagi yangi siyosiy bosqich bilan bog‘liq bo‘lib, mamlakatni demokratik, huquqiy va ijtimoiy adolatga asoslangan davlat sifatida shakllantirishni nazarda tutadi.

Adabiyotlar tahlili. Jahon xalqlarining yangi taraqqiyot bosqichidagi o‘rni, rivojlanish dasturlarining davlatlar taqdiriga ta‘siri, jumladan, Yangi O‘zbekiston barqaror taraqqiyotining ijtimoiy-siyosiy omillari ko‘plab xorijiy va mahalliy adabiyotlar, xalqaro rivojlanish dasturlari va hujjatlarda muhokama qilingan. Quyida ularning ayrimlarini keltirish mumkin: Dresner S. The Principles of Sustainability (2008) Barqarorlikni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik nuqtai nazardan tahlil qiladi; Pearce, D., Barbier, E. & Markandya, A. Blueprint for a Green Economy

(1989) Ekologik barqarorlikning iqtisodiy modellar bilan uyg‘unligi; Sachs, J. D. The Age of Sustainable Development (2015) Har bir SDG uchun aniq indikator va strategik yondashuvlar; BMT Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development(2015) 17 ta maqsad va 169 vazifa asosida jahon mezonlari belgilab berilgan; UNESCAP, ADB, UNEP Green Growth, Resources and Resilience (2012) Osiyo mintaqasi uchun barqaror taraqqiyotning o‘ziga xos mezonlari ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining turli jihatlariga bag‘ishlangan asarlari ushbu maqolaga nazariy asos va metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu asarlar shunisi bilan ahamiyatliki, ular maqolaning fundamental-uslubiy asosini tashkil etib, sohaga tegishli qonun hujjatlari, Prezident farmonlari, qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tadqiqotning meyoriy, huquqiy va uslubiy bazasi bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy mahalliy va xorijiy adabiyotlarda milliy taraqqiyot va uni ta‘minlash omillari, milliy taraqqiyotni harakatlantiruvchi omillar va mexanizmlari, milliy tiklanish muammosining o‘rganilish darajasini sarhisob qilsak, ushbu maqola mavzusi mahalliy falsafiy fanlarda anchagina keng doirada tahlil qilingan. Ularni hal qilish uchun tadqiqot quyidagi usullardan foydalangan, jumladan: muammoli - xronologik – O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichidagi muammolarga qarshi kurash, ularning oldini olishda davlat va jamiyatning imkoniyalari, islohotlarni samarali amalga oshirishning aniq shakllari va usullarini tanlash va qo‘llashni aniqlash qaratiladi. Qiyosiy-tarixiy uslub asosida yangi O‘zbekiston taraqqiyot bosqichlarining murakkab jarayonlari, bosqichlari, muammolari, ularga qarshi turisdagi qiyinchiliklarning ortib borishini ta‘kidlash mumkin. Konkret-sotsiologik tadqiqotlar usuli esa yangilanayotgan jamiyatda shaxs,

jamiyat va davlat manfaatlarining ta'minlanishi, ular bilan aloqador tendensiyalar va o'zgarishlarni aniqlashni ko'zda tusa, mantiqiy usul – davlatning taraqqiyot strategiyalari va rivojlanish jarayonlari o'rtasida aniq munosabatlarni aniqlash imkonini beradi. Mavzu maqolada ushbu usullardan birgalikda foydalanish mavjud muammoni aniqroq va chuqurroq tekshirishga imkon berdi.

Muhokama va tahlillar. Barqaror taraqqiyot — bu iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va ekologik muvozanatni ta'minlaydigan, kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olgan rivojlanish yo'nalishidir. Barqaror taraqqiyot bu — iqtisodiy o'sish, ijtimoiy tenglik va atrof-muhit muhofazasi o'rtasidagi muvozanatdir. Bu tamoyillar BMTning 2030 yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish maqsadlarida (Sustainable Development Goals – SDGs) ham aks etgan. BMT tomonidan 2015 yilda qabul qilingan 2030 yilgacha bo'lgan Barqaror Rivojlanish Yo'nalishlari — dunyo miqyosidagi barcha mamlakatlar uchun mo'ljallangan 17 ta asosiy maqsad va 169 ta vazifani o'z ichiga oladi. Bu maqsadlar ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan[2.]. Ushbu hujjatning 17 ta asosiy maqsadni (SDGs) o'zida mujassam etgan: Qashshoqlikni bartaraf etish, Ochlikka barham berish, Sog'liqni saqlash va farovonlik, Sifatli ta'lim, Jinsiy tenglik, Toza ichimlik suvi va sanitariya, Arzon va toza energiya, Mehnat va iqtisodiy o'sish, Infratuzilma, sanoat va innovatsiyalar, Notenglikni qisqartirish, Barqaror shaharlar va jamoalar, Mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish, Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash, Okeanlar va suv resurslarini muhofaza qilish, Quruqlikdagi hayotni asrash, Tinchlik, adolat va kuchli institutlar, Hamkorlik va global sheriklikni mustahkamlash.

Bu maqsadlarning taraqqiyot omillari sifatida ahamiyati shundaki, ular mamlakatlar rivoji uchun quyidagi muhim omillar bo'lib xizmat qiladi: masalan, inson kapitalini rivojlantirish - sog'liqni saqlash va ta'lim sohasidagi maqsadlar (3 va 4) orqali insonning intellektual va jismoniy salohiyatini oshirishga ko'zda tutadi. Ijtimoiy tenglikni ta'minlash - gender tenglik (5) va kambag'allikka qarshi kurash (1) maqsadlari orqali jamiyatda adolat va barobarlik asoslarini mustahkamlanadi. Iqtisodiy o'sish va innovatsiya - Sanoat, infratuzilma va mehnat bozorining rivoji (8 va 9) iqtisodiy barqarorlikka zamin yaratadi. Ekologik muvozanat va tabiat muhofazasi - Iqlim o'zgarishi (13), suv resurslari (6, 14) va quruqlikdagi hayot (15) bilan bog'liq maqsadlar tabiat va inson hayoti uyg'unligini ta'minlaydi. Tinchlik va samarali boshqaruv - Adolatli sud tizimi va inson huquqlarini himoya qilish (16) hamda davlat institutlari faoliyati samaradorligini oshiradi.

BMTning 2030 yilgacha bo'lgan barqaror rivojlanish maqsadlari mamlakatlar uchun strategik rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beradi. Bu maqsadlarning ijrosi ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish va ekologik muvozanatga erishishda muhim omillar sifatida qaraladi. O'zbekiston ham mazkur maqsadlarni milliy strategiyalar bilan uyg'unlashtirib, "Yangi O'zbekiston" g'oyasi doirasida amalga oshirmoqda. Faktlarga murojaat qilsak, O'zbekistonning Birinchi SDG Obligatsiyasi 2021 yil iyul oyida O'zbekiston hukumati 235 million AQSH dollari miqdoridagi suveren SDG obligatsiyasini chiqardi. Bu obligatsiya orqali jamg'arilgan mablag'lar ta'lim (SDG 4), suv boshqaruvi (SDG 6), sog'liqni saqlash (SDG 3), yashil transport (SDG 11), ifloslanishni nazorat qilish (SDG 11), tabiiy resurslarni boshqarish (SDG 15) va yashil energiya (SDG 7) sohalaridagi loyihalarga yo'naltirildi[3]

Barqaror Rivojlanish Maqsadlarini Integratsiya qilish bo'yicha Tezkor Baholash BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) O'zbekiston hukumati SDG'larni milliy rivojlanish rejalariga integratsiya qilishda yordam berish maqsadida 22 ta strategik hujjatni tezkor baholashni o'tkazdi. Natijada, "Odamlar" va "Farovonlik" sohalariga ko'proq e'tibor qaratilayotgani, "Sayyora" va "Hamkorlik" sohalarida esa kamroq yoritilgani aniqlandi.

O'zbekistonning Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari: rivojlanish va chaqiriqlar 2023 yil sentabr oyida Iqtisodiy Tadqiqotlar va Islohotlar Markazi (CERR) va UNDP hamkorligida "O'zbekistonning Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari: rivojlanish va chaqiriqlar" mavzusida xalqaro davra suhbatini tashkil etildi. Tadbirda SDG'larni amalga oshirishdagi muvaffaqiyatlar va muammolar muhokama qilindi. "Biz

BMTning tuzilmalari bilan hamkorlikni bundan keyin ham izchil davom ettiramiz" [4]. O'zbekistonning ixtiyoriy milliy hisoboti (2020) O'zbekiston hukumati 2020 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotiga SDGlar bo'yicha birinchi Ixtiyoriy Milliy Hisobotini taqdim etdi. Hisobotda 2018 yilda qabul qilingan 16 ta milliy SDG va 125 ta mos vazifalar, shuningdek, ularni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar bayon etilgan[5]. Rivojlanish Moliyasi Baholashi (DFA) Ushbu baholashda O'zbekistonda SDG'larni moliyalashtirish bo'yicha mavjud vaziyat tahlil qilingan. Hisobotga ko'ra, mamlakatga har yili qo'shimcha 6 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiya talab etiladi. Ushbu maqsadlarga muvofiq ravishda Yangi O'zbekiston barqaror taraqqiyotining bir necha asosiy ijtimoiy-siyosiy omillarini ta'kidlash joiz. Ularning Xalqparvar va ochiq siyosat bo'lib, ularning natijasida davlat va jamiyat o'rtasida muloqot mustahkamlandi. "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" tamoyili amalga tatbiq etildi.

Xalqparvar siyosat — bu davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini qo'yish, aholining real ehtiyojlariga mos ravishda davlat qarorlarini qabul qilish jarayonidir. Xalqparvar siyosat inson qadri, ijtimoiy adolatni, teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Davlat va jamiyat o'rtasida ochiq muloqot va ishonchni rivojlantiradi. Bu tushunchaning mohiyatini Inson qadri ustuvor, Xalq bilan doimiy muloqot va Davlat fuqaro uchun xizmat qiladi, degan mazmun tashkil qiladi.

Ochiq siyosat – bu davlatning o'z faoliyatida shaffoflik, hisobdorlik va jamoatchilik nazoratini ta'minlovchi boshqaruv uslubidir. Bu siyosatda davlat fuqarolar, OAV, fuqarolik jamiyati va xalqaro hamjamiyat uchun ochiq va tinglovchan bo'ladi. Mohiyati shundaki, hukumatning hisobdorligi, axborotga ochiqlik va jamoatchilik fikrini inobatga olishni nazarda tutiladi.

Yangi O'zbekistonda xalqparvar va ochiq siyosatning amaliy ifodalarini quyidagilarda ko'rish mumkin: Xalq bilan muloqot – Prezident virtual qabulxonasi (pm.gov.uz) – "Halq qabulxonalarini" orqali muammolarni hal qilish – "Mening fikrim" portali Qonunchilikda ochiqlik– Yangilangan Konstitutsiyada "Inson qadri – oliy qadriyat" tamoyili – Qonun loyihalarini jamoatchilik muhokamasiga qo'yish, Axborotga ochiqlik – Davlat organlari veb-saytlarida hisobotlarni e'lon qilish – Axborot xizmatlarining faolligi va OAVga ochiqdagi Fuqarolik jamiyati bilan hamkorlik– NNTlarning davlat dasturlarida ishtirok etishi – Jamoatchilik kengashlari va so'rovnomalar Xalqaro ochiqlik– TIV va Prezidentning xalqaro tashabbuslari (BRM, O'zbekiston – YEOII va OTB bilan hamkorlik).

Yangi xalqparvar va ochiq siyosat – bu O'zbekistonda inson manfaatlari, ochiqlik, hisobdorlik va fuqarolik faolligini ta'minlovchi zamonaviy davlat boshqaruvi modeli. Ushbu siyosat ijtimoiy adolat, iqtisodiy samaradorlik va xalq ishonchini mustahkamlashda asosiy omil hisoblanadi. O'zbekistonda boshlangan yangi siyosiy islohotlar esa, siyosiy partiyalarning faolligi oshirilishi, parlamentning nufuzi va nazorat funksiyasi kuchaytirilishi hamda sud-huquq islohotlari (adolatli sud tizimi, huquqbuzarliklarga qarshi qat'iy choralar) ta'minlanishini ko'zda tutadi.

"Yangi O'zbekiston"da siyosiy islohotlar mamlakatni demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyati sari olib borishda muhim o'rin tutadi. Bu islohotlar nafaqat mamlakatning ichki siyosiy tizimini takomillashtirish, balki inson huquqlari, so'z erkinligi va xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi davlat boshqaruvi shakllantirishni maqsad qilgan. Bu jarayonning ustuvor yo'nalishlari, nazariy asoslari va amaliy ahamiyati haqida quyidagi ma'lumotlarni ilgari surish mumkin.

Yangi O'zbekistonda siyosiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlari sifatida Xalq irodasini ta'minlash va ishtirokini kuchaytirish, Demokratik saylov tizimini rivojlantirish hamda sud-huquq tizimini faol isloh qilish belgilangan. Bu borada "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" tamoyili asosida davlat boshqaruvi isloh qilinmoqda, elektron hukumat va ochiqlik siyosati keng joriy etilmoqda. Demokratik saylov tizimini rivojlantirishda esa, saylov kodeksi qabul qilindi hamda saylov jarayonlarida shaffoflik va xalqaro mezonlarga muvofiqlik ta'minlanmoqda.

Yangi O'zbekistonda barqaror taraqqiyotga erishish uchun ijtimoiy va siyosiy omillar o'zaro bog'liq va mutanosib ravishda rivojlanmoqda. Inson manfaatini, adolat, ochiqlik va faol jamiyat barpo etish bu jarayonning asosiy ustuvor yo'nalishlaridir. Barqaror taraqqiyot tushunchasiga ko'plab ilmiy ta'riflar berilgan. Barqaror taraqqiyot (Sustainable Development) tushunchasi ilk bor 1987 yilda Brundtland Komissiyasi (WCED — World Commission on Environment and Development) hisobotida ilmiy asosda ta'riflangan: "Barqaror taraqqiyot — bu shunday rivojlanishdirki, u hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirgan holda, kelajak avlodlarning ham o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini cheklamaydi" [6].

Barqaror taraqqiyotning iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, institutsional mezonlari ajratib ko'rsatiladi. A. Iqtisodiy mezonlar - barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari, infratuzilmaning rivojlanganligi, budget muvozanati va moliyaviy barqarorlik va innovatsiya va texnologiyalar darajasini amrab oladi. B. Ijtimoiy mezonlar - kambag'allik darajasi, ta'lim va tibbiyotga kirish imkoniyati, aholi bandligi va daromad tengligi hamda demografik barqarorlik va migratsiya nazoratini o'z ichiga oladi. C. Ekologik mezonlar - tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhit muhofazasi, karbon chiqindilarini kamaytirish hamda biohafza va iqlim o'zgarishiga moslashish siyosatiga qaratiladi. D. Institutsional mezonlar - huquqiy davlat va qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat va korrupsiyaga qarshi kurash hamda samarali boshqaruv institutlaridir.

"Yangi O'zbekiston" tushunchasi, odatda, mamlakatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohotlarning yangi bosqichga ko'tarilishini nazarda tutadi. Bunday islohotlarning nazariy asoslari va amaliy misollari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. «Bugungi kunda O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichga qadam qo'yarmoqda. Biz milliy tiklanishdan-milliy yuksalishga erishishni o'z oldimizga eng muhim va ustuvor vazifa qilib qo'ydik. Bu ulug' maqsadga esa jahon ahli bilan hamjihat va hamkor bo'lib yashash, ochiq demokratik jamiyat qurush, hayotimizda milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini yanda keng qaror toptirish orqaligini erishish mumkinligini biz yaxshi anglaymiz»[7]. Huquqiy davlat va demokratik taraqqiyot: Yangi O'zbekistonda huquqiy davlatni barpo etish va inson huquqlarini himoya qilish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Buning amaliy misoli sifatida Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartishlar va inson huquqlariga oid qonunchilikdagi yangilanishlar ko'rsatilishi mumkin. Misol uchun, odam savdosi, buzuqlik, tortqi a'zolarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar.

Iqtisodiy islohotlarning nazariy asosi bozor iqtisodiyotiga o'tish va xususiy mulkni himoya qilishga asoslanadi. Misol tariqasida, fermerlarga ko'proq imtiyozlar berish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun soliq solish tizimini yengillashtirish. Shuningdek, davlat korxonalarining xususiy lashtirilishi va ozod raqobat muhitini yaratishga qaratilgan choralar. Sotsial taraqqiyot: Yangi O'zbekistonda ijtimoiy sohaga katta e'tibor qaratilayotgani kuzatilmoqda. Masalan, tibbiyot, ta'lim, ijtimoiy muhofaza sohasidagi islohotlar. Yangilangan ta'lim tizimi va tibbiy xizmatlarning xalqaro standartlarga moslashtirilishi. Ta'lim va kadrlar siyosati: Yangi O'zbekistondagi ta'lim sohasidagi islohotlar zamonaviy va inklyuziv ta'lim konsepsiyalariga asoslanadi. Masalan, ta'lim tizimidagi ilg'or usullarni joriy qilish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga e'tibor qaratilgan. Aksariyat davlat universitetlari va ta'lim muassasalarida zamonaviy ta'lim standartlari, shunga asoslangan maxsus treninglar olib borilmoqda. Qonun ustuvorligi va korrupsiyaga qarshi kurash: Yangi O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat organlarining shaffofligini ta'minlash uchun ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda. Misol sifatida, davlat organlari ishining ochiqligini ta'minlash va korrupsiyani kamaytirish uchun joriy etilgan elektron davlat xizmatlari. Bu misollar ijtimoiy islohotlarning nazariy asoslarini amaliy jihatdan ko'rsatib beradi. Ushbu islohotlar, albatta, o'tgan davrlardagi muammolarni hal qilish va davlatni yaxshiroq, ishonchli va barqaror qilib qurishga qaratilgan.

Yangi O'zbekistonda ma'naviy sohadagi islohotlar, asosan, millatning o'ziga xos qadriyatlarini, an'analarni va ma'naviy tamoyillarini tiklashga, yosh avlodni ma'naviy va

axloqiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga qaratilgan. Bu islohotlarning nazariy asoslari ko'plab omillarga, shu jumladan, xalqning tarixi, madaniyati, diniy qadriyatlarini va zamonaviy talablarga asoslanadi. Yangi O'zbekistonda milliy ma'naviyat va an'analarni tiklash, ma'naviy islohotlarning asosida milliy qadriyatlar va an'analarga katta e'tibor berilmoqda. Ma'naviy taraqqiyotning nazariy asosi shuni anglatadiki, har bir millat o'zining tarixiy va madaniy merosini muhofaza qilish va uni kelajak avlodga yetkazishga mas'uldur. Shuning uchun, mamlakatda ma'naviy tafakkurni va milliy ma'naviyatni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilgan. Misol uchun, "Milliy tiklanish" va "O'zbek modelini" yaratishdagi jarayonlar.

Yangi O'zbekistonda yoshlarning axloqiy va ma'naviy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilayotgani ko'rinadi. Buning nazariy asosi esa, insonning o'zi va boshqalar bilan munosabatlarida to'g'ri va axloqiy xulq-atvoriga ega bo'lish zaruratidan kelib chiqadi. Yoshlar uchun ma'naviy qadriyatlarining ahamiyatini tushuntirish va ularni hayotiy masalalarga munosib yondashishga o'rgatish. Axloqiy tarbiyada milliy qadriyatlar, dinimiz va mamlakatimizga xos ma'naviy o'zliklarga asoslanish. Davlat rahbari Sh.Mirziyoyev yaqin yillarda mamlakatimizda yangi ma'naviy makonni va xalqimizning yangi tafakkurini shakllantirish bo'yicha ishlar samarasini yuksak darajaga ko'tarish va bu boradagi faoliyat tizimini yanada takomillashtirish uchun geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qartishi bejiz emas[8,280]. Ma'naviy islohotlarning nazariy asoslaridan biri, insonning ruhiy va ma'naviy rivojlanishiga yo'naltirilgan. O'zbekistonda davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri odamning ichki dunyosi, uning ruhiy va ma'naviy taraqqiyotiga e'tibor qaratilmoqda. Buning amaliy misoli sifatida, yoshlar uchun ma'naviy va diniy tushunishga, ularning insoniy qadriyatlarga va milliy madaniyatga asoslangan hayot yo'lini tanlashiga yordam berishga qaratilgan dasturlar.

Yangi O'zbekistonda diniy-ma'rifiy qadriyatlarga bo'lgan hurmat katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu, har bir insonning o'z diniga va diniy qadriyatlariga amal qilish huquqi borligini, shu bilan birga, madaniy xilma-xillikka ham e'tibor qaratishni nazarda tutadi. Ma'naviy islohotlarning nazariy asosi, diniy erkinlik va uning inson hayotidagi o'rniga asoslanadi va bu yangi ma'naviy makonning muhim jihatlardan biriga aylandi. "Yangi ma'naviy makon nima? Mening nazarimda, u - biz orzu qilayotgan Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma'rifatli jamiyatdir[9]. So'nggi paytlarda ma'naviy axloqni oshirish, shu jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat va jamiyatning shaffofligini ta'minlash hamda adolatni tiklashga qaratilgan islohotlar joriy etilgan. Ma'naviy axloqni oshirishning nazariy asosi — bu odamlar o'rtasidagi ishonch, adolat va ma'naviy qadriyatlarining o'zaro muvofiqligini ta'minlashdir. Buning amaliy natijasi sifatida, yoshlarga haqiqat va adolatga asoslangan hayot yo'lini ko'rsatishga qaratilgan choralar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, bu islohotlar mamlakatning jamiyat taraqqiyotidagi barqarorlik, tinchlik va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Yangi O'zbekistonda ma'naviy sohadagi islohotlar, nafaqat jamiyatni isloh qilish, balki xalqning ma'naviy o'sishini ta'minlashga ham qaratilgan.

Xulosa. Yangi O'zbekiston barqaror taraqqiyoti — bu tub siyosiy islohotlar, keng qamrovli ijtimoiy o'zgarishlar va jamiyatning faol ishtirokini talab qiladigan murakkab jarayondir. Bu jarayonda inson manfaatini, qonun ustuvorligi, fuqarolik jamiyati va milliy-dunyoviy qadriyatlar uyg'unligi asosiy omillar hisoblanadi. Ilg'or siyosiy qarorlar va samarali ijtimoiy dasturlar orqali O'zbekiston barqaror va farovon kelajak sari odimlamokda.

O'zbekiston Barqaror Rivojlanish Maqsadlarini amalga oshirishda bir qator muhim tashabbuslarni amalga oshirmoqda, jumladan, suveren SDG obligatsiyasini chiqarish, milliy strategiyalarni qayta ko'rib chiqish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash. Bu sa'y-harakatlar mamlakatning barqaror rivojlanish yo'lidagi intilishlarini namoyon etadi.

Ilmiy adabiyotlarda barqaror taraqqiyot kompleks tushuncha sifatida qaraladi. Unga turli sohalaridagi mezonlar asosida baho beriladi. Har bir mezon aholi farovonligini oshirish, kelajak avlodlar manfaatlarini himoya qilish va tabiat bilan uyg'un taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi.

Barqaror taraqqiyot – bu ko'p sohalarini qamrab oluvchi, kompleks rivojlanish konsepsiyasidir. Uni baholash uchun

iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va institutsional mezonlar o'zaro bog'liq holda tahlil etiladi. Ilmiy adabiyotlarda bu mezonlar turli nazariy yondashuvlar bilan asoslangan bo'lib, ular hukumatlar, olimlar va siyosiy tahlilchilar uchun dasturilamal vazifasini o'taydi.

ADABIYOTLAR

1. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari Yangi O'zbekiston gazetasi / № 165 (421), 2021 yil 17 avgust,
2. <https://uzbekistan.un.org/uz/sdgs>
3. https://sdgfinance.undp.org/resource-library/uzbekistans-first-sdg-bond-allocation-and-impact-report?utm_source=chatgpt.com
4. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi –Toshkent: 2021. –B.382
5. hlpf.un.org
6. WCED, Our Common Future, 1987
7. Mirziyoev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. «O'zbekiston»NMIU, 2019 y.,339-b.
8. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi –Toshkent: 2021. –B. 280-281
9. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi –Toshkent, O'zbekiston, 2021. –B. 276



UDK: 159.9(575.1)

O'ktam FARMONOV,
CHDPU Maktabgacha ta'lim pedagogikasi dotsenti v.b., PhD
E-mail:uktamfarmonov77@gmail.com

CHDPU dotsenti B.Axmadaliyev taqrizi asosida

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI IJODIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNI TASHKIL ETISH MAZMUNI

Аннотация

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlash bevosita ta'lim-tarbiya masalalari bilan bog'liq bo'lib, bunda pedagogning qiziqishi, ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlaridan kelib chiqib, ularni amalga oshirish har bir bo'lajak o'qituvchidan ta'lim taraqqiyotining maqsadi, vazifalari, muammolari hal qilish, ta'lim-tarbiya sohasida kafolatli natijaga erishish darajasini takomillashtiradi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini ijodiy faoliyatga tayyorlash ta'lim-tarbiya tizimida, uning uslublarini takomillashtirishda metodik ta'minot sifatida xizmat qiladi. O'qituvchining ijodiy faoliyati ta'lim-tarbiya berish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishga erishishda turli metodikalarni qo'llash va takomillashtirish, diagnostika, monitoring olib borish, ta'lim-tarbiya jarayonida insonravarlik, xalqarvarlik, tamoyillariga asoslanish, o'quvchining tayyorgarlik darajasini, psixologik, fiziologik, yosh xususiyatlarini, gigiyenik talablarni hisobga olish, ta'lim-tarbiya jarayonida redagogik texnologiyalarni amalga oshirishda muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: Ijod, ijodiy faoliyat, faoliyat, fikrlashning moslashuvchanligi, tanqidiylik, rivojlanish, loyihalash.

СОДЕРЖАНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

Подготовка будущих учителей начальных классов к творческой деятельности напрямую связана с образовательными вопросами, и исходя из интересов учителя, образовательных и воспитательных целей, их реализация повышает уровень понимания целей, задач и проблем образовательного развития каждого будущего учителя, а также уровень достижения гарантированных результатов в сфере образования. Подготовка будущих учителей начальных классов к творческой деятельности является методической опорой в системе образования и совершенствовании ее методов. Творческая деятельность педагога играет важную роль в обеспечении образования, обучении учащихся самостоятельному мышлению, использовании и совершенствовании различных методик формирования знаний, умений и навыков, проведении диагностики, мониторинга, построении образовательного процесса на принципах гуманизма и народности, учете уровня подготовки, психофизиологических, возрастных особенностей и гигиенических требований обучающихся, внедрении педагогических технологий в образовательный процесс.

Ключевые слова: Креативность, творческая деятельность, активность, гибкость мышления, критичность, развитие, проектирование.

CONTENT OF ORGANIZING THE PREPARATION OF FUTURE PRIMARY TEACHERS FOR CREATIVE ACTIVITY

Annotation

The preparation of future primary school teachers for creative activity is directly related to educational issues, and based on the teacher's interest, educational and educational goals, their implementation improves the level of understanding of the goals, tasks, problem-solving, and guaranteed results of educational development in each future teacher. The preparation of future primary school teachers for creative activity serves as a methodological support in the educational system and in improving its methods. The teacher's creative activity plays an important role in providing education, teaching students to think independently, using and improving various methodologies to achieve the formation of knowledge, skills, and competencies, conducting diagnostics, monitoring, basing the educational process on the principles of humanity and nationalism, taking into account the student's level of preparation, psychological, physiological, age characteristics, and hygienic requirements, and implementing redagogical technologies in the educational process.

Key words: Creativity, creative activity, activity, flexibility of thinking, criticality, development, design.

Kirish. Jahon miqyosida fan-texnika taraqqiyoti, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish va uning kelajagini belgilab borishda insonlar intellektual salohiyati muhimligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga dunyo bo'yicha ilm-fan rivojining bugungi holati, ayniqsa, bu borada yoshlarga bilim berish keng joriy etilgan jamiyatda turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldida ularni jadal egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlashdek vazifani qo'ymoqda. Ta'limni rivojlantirishning zamonaviy sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning yangi, nstandart vaziyatlarda

tezkor harakat qilish, mavjud ma'lumot manbalarini tahlil qilish va atrofda makonni o'zgartirishda ijodiy faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirish vazifasi dolzarbdir. Buning uchun yuqori darajadagi ijodiy faoliyat yuritish talab etiladi.

"Ijodiy faoliyat" hozirgi vaqtda juda muhim va dolzarb bo'lib, bu ilm-fanning jadal ko'p qirrali rivojlanishi, ta'lim texnologiyalarining doimiy o'zgarishi hamda murakkablashishi natijasida boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan mutaxassislarni kelgusi pedagogik faoliyatida ijodiy faoliyat yuritishi shu jumladan davlat darajasidagi

o'zgarishlarning yangilanishiga bog'liq holda ijodkorlik, ixtirochilik, yangilikka intiluvchanlik xususiyatlarini tarkib toptirishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'qituvchi shaxsining ijodiyliigi bu uning o'z faoliyatiga bo'lgan munosabatlarda, barqarorlikda, faollikda, qobiliyatlarida, mahoratlarida taraqqiy etadi va natijalarga erishishi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonining natijadorligini ta'minlashda bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini takomilash hozirda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu sohada ham olimlar salmoqli va keng qamrovli ishlarni olib bormoqdalar. Jumladan Sh.S.Sharipov ishlarida ijodkorlikka oid tushunchalar aniqlashtirilgan va uni amalga oshirish davrlari ishlab chiqilgan. Shu bilan birgalikda talabalarda ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishning ko'p bosqichli dasturlashtirilgan ta'lim jarayoni mazmunini tanlash mezonlari ishlab chiqilgan [1].

O.A.Qo'ysinovning dissertatsiya ishida bo'lajak kasb-ta'limi o'qituvchilarini kompetentli yondashuv asosida kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari yoritib berilgan [2,10].

Ijod - insonning faol faoliyati jarayoni bo'lib, uning natijasida dastlabki sharoitlardan qat'i nazar, moddiy yoki ma'naviy ifodaga ega bo'lgan noyob natija hosil bo'lishini nazarda tutadi. Bu jarayonda ijodkorlik ishlab chiqarishdan aniq farqlarga ega. Ijodiy faoliyat jarayonida olingan natija o'ziga xos bo'lib, bunda muallif o'zining shaxsiy g'oyalarini, hayot to'g'risidagi tushunchalarini o'z asarga kirita olganligi sababli erisha oladi. Shuning uchun ijodiy faoliyat mahsullari alohida qadriyatga ega. Ijodda psixologik jihat muhim o'rin tutadi. Har qanday ijodiy mahsulot yaratish uchun inson ma'lum qobiliyat, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

A.I.Savenkovning ta'kidlashicha, "har bir faoliyat ijodkorlik emas, balki har qanday ijodkorlik faoliyat

hisoblanadi". Faoliyatning o'zi ijodiy jarayonning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi [3].

Pedagogik ensiklopediyada ijodkorlik inson faoliyatidagi faoliyat va mustaqillikning eng oliy shakli sifatida talqin etiladi, u o'zgartirish, takomillashtirish, yangi va o'ziga xos narsalarni yaratish zaruratida namoyon bo'ladi. Ko'pgina pedagog va psixolog olimlarning ilmiy ishlarda ijodkorlik "ijodiy faoliyat" tushunchasi kontekstida ta'riflanadi (V.I.Andreev, T.I.Shamova) [4,5].

D.B.Bogoyavlenskaya ijodiy faoliyatni aqliy qobiliyatlar va motivasion shaxsiy omillarni birlashtirgan intellektual faoliyat deb ta'riflaydi[6].

V.A.Petrovskiy va I.S.Yakimanskaya ijodiy faoliyatni shaxsiy mulk, o'z-o'zini takomillashtirish yo'nalishini belgilaydigan xususiyat, shaxsning o'zini o'zi anglashning zarur sharti deb hisoblaydi. G.I.Shchukina ijodiy faoliyatni o'quvchining holatini va uning faoliyatga munosabatini ifodalovchi shaxsiy shakllanish sifatida tushuntiradi bunda: diqqat, jarayonda faol ishtirok etish, tezkor javob[7,8].

A.I.Karmanchikovning fikriga ko'ra ijodiy faoliyat yangi bilimlarni yaratish jarayonida ichki va tashqi omillarning o'zaro ta'sirini ta'minlashga imkon beradigan shaxsiy xususiyatlar to'plami hamda ijodiy faoliyat - bu shaxsning tashabbusi, samarali faoliyatining amalga oshirilishi mumkin bo'lgan salohiyati deb izohlaydi [9].

Natijalar. Ijodkorlik ongli, maqsadli jarayon bo'lib bu faoliyat jarayonida shahs o'zini o'zi anglash va shaxsiy rivojlanishini amalga oshiradi. Binobarin, insonning ijodiy faoliyati ko'p jihatdan uning faolliigi, aqliy qobiliyatlari, sezgi, tasavvurlari va boshqa shaxsiy fazilatlariga bog'liq. Shularni hisobga olgan holda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlash va ularning intellektual tayyorgarlik jarayoni bosqichlari quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: (1-rasm)



1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashda talabaniing intellektual tayyorgarlik jarayoni.

Bizning nuqtai nazarimizcha, ijodkorlik yangi narsa yaratish jarayoni bo'lib, buning natijasida ushbu faoliyat turini amalga oshiruvchi shaxsda o'zgarishlar ro'y beradi. Sub'yektning ijodiy faoliyati, uning o'ziga xos natijasi uning ehtiyojlari, bilim, ko'nikma va malakalari bilan belgilanadi.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlash uchta asosiy omilni integratsiyalash orqali amalga oshiriladi:

muayyan yo'nalish bo'yicha mutaxassis kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan tayanch kompetensiyalarga mos ravishda tuzilgan va didaktik jihatdan moslashtirilgan bilimlar konsepsiyasiga asoslangan ta'lim mazmunini tashkil etishning maqsadga muvofiq bo'lishini ta'minlaydigan modullilik;

ta'limning maqsadiga mos keladigan o'qitish shakllarini tanlashni belgilab beradigan - ta'limni faoliyatga ko'ra tashkil etish;

ta'lim olish-rivojlanishning uzluksiz jarayonini tashkil etish yo'li bilan inson kamolotining to'la-to'kis bo'lishini ta'minlashga qaratilgan - ta'limni texnologiyalashtirish.

Ta'lim mazmunining tarkibiy qismi bo'lgan ijodiy faoliyat tajribalari talabalarining avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llash orqali tarkib toptiriladi [11]. Shu sababli, o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida bilimlarni tayyor axborot shaklida emas, balki muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish natijasida talabalarining avvalgi mavzularida o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llashiga imkon yaratish, ularda mustaqil va ijodiy fikr

yuritish ko'nikmalarining tarkib topishiga zamin tayyorlashi zarur hisoblanadi. (2-rasm).



2-rasm. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarda ijodiy fikr yuritish bosqichlari.

Shaxs ijodiy rivojlanish darajasi "men qila olaman", "men hoxlayman" refleksiya namoyon bo'ladi va o'z rivojlanishining sababini tushunishda, o'zini o'zgartirish, o'zini takomillashtirish bo'yicha maqsad hamda vazifalarni qo'yish mahoratida namoyon bo'ladi. Bu darajaning psixologik yangiliklari o'zini adekvat aks ettirish, o'z ishlarini analiz qilish mahorati, ularning oqibatlarini oldindan ko'rish bilan nazarda tutiladi.

Ijodiy rivojlanishning oliy darajasi boshqa odamlarga sezdirmasdan samarali mehnat qilishga imkoniyat beradi.

Ushbu daraja o'z faoliyatini loyihalashtirish, mahoratini amalga oshirish, o'z ishlarini bashoratlashda (istiqbollashtirish), o'z nuqtai nazarini himoya qilish, amaliyotda mustaqil va birovga qaram bo'lmay emosional barqarorligini namoyon etadi.

Muhokama. O'qituvchi pedagogik mahoratini aql-idroki, tafakkuri, ijodiy faoliyatsiz yaratib va takomillashtirib bo'lmaydi. O'qituvchi ijodiy faoliyatining har qanday turida ayni bir vaqtning o'zida uning ham aqliy, ham jismoniy mehnati ob'yektiv ravishda ishtirok etadi. Ijodiy faoliyat o'qituvchi hayotining negizi hisoblanadi. O'qituvchi miyasida har qanday fikr, hech qanday qarash va tushuncha o'z-o'zidan tug'ilmaydi hamda rivojlanmaydi. Balki ularning hammasi ma'lum darajada ijodiy fikrlar bilan bog'langan.

Inson yoki jamoaviy faoliyat shakli - avval mavjud bo'lmagan ammo sifat jihatidan yangisini yaratish, rag'batlantirish yo'li hisoblanadi. Ijodiy faoliyatning asl mahsuloti nostandart gipotezani shakllantirish, noan'anaviy bo'lgan muammoli vaziyat elementlarining o'zaro bog'liqligi, bevosita bog'liq elementlarni jalb qilish, ular o'rtasida o'zaro bog'liqlikning yangi turlarini o'rnatish hisoblanadi. Buning uchun zaruriy shartlar sifatida - fikrlashning moslashuvchanligi (hal qilish usullarini o'zgartirish qobiliyati), tanqidiylik (samarali bo'lmagan strategiyalardan voz kechish qobiliyati), tushunchalarni birlashtirish va uyg'unlashtirish qobiliyati, idrokning yaxlitligi. Ijodiy

qobiliyatlarining yaratilishi o'ziga xos bo'lib ijodkorlik katta va yorqin iste'doddan tortib nozik va mukammalgacha bo'lganlarni o'zi ichiga oladi. Ammo ijodiy jarayonning mohiyati hamma uchun bir xil bo'lib ijodning o'ziga xos mazmunida, yutuqlar ko'lamida va ularning jamiyatdagi ahamiyatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlash oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarish, mustaqil bilim olish, izlanish, har bir fanni ongli ravishda mukammal o'rganish usullari va yo'llarini bilib olish, o'z bilimini rivojlantirish xususiyatlarini takomillashtirish bilan bog'liq.

Ijodiy faoliyat talabalarning yuksak madaniyatini shakllantirish, ta'limning vosita va metodlarini egallash, o'z vaqtini oqilona sarflash va rejalashtirish, muvaffaqiyatli bilim olishi, kasbiy shakllanishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash hamda o'zlashtirishida katta yordam beradi. Ijodiy faoliyat talabalarda uyushqoqlik, intizom, tashabbuskorlik, iroda, fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini o'stiradi, mustaqil fikr yuritishga o'rgatadi, o'z mustaqil ish uslubini hosil qilishga imkon beradi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda har bir talaba o'qitilayotgan fanlarni chuqur egallash va mushohada qilish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, shu soha bo'yicha qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish, mavzuga oid turli qarashlar, yondashuvlarni taxlil qila olish, mavzuda bildirilayotgan masalalar haqida o'z munosabatini dadil va malakali ifodalay olish, mavzuga doir referat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyalarini yozish tajribalarini o'zlashtirib olish kabilarni to'g'ri tashkil etishi, bo'sh vaqtini unumli sarflashga xizmat qilish, tegishli fanga oid ilmiy va maxsus adabiyotlar hamda boshqa manbalar bilan ijodiy ishlash faoliyatlarini takomillashtirish bilan tanishish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR

1. Sharipov, Sh. (2000). Talabalar ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishining pedagogik sharoitlari. (Mehnat va kasb ta'limi fakultetlari misolida): Ped.fan.nom. diss.
2. Qo'ysinov, O. (2019). Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari. Ped.fan.dok. diss.
3. Savenkov, A. (2006). Psixologicheskiye osnovi issledovatel'skogo podxoda k obucheniy. Os – 89
4. Shamova, T., Izbrannoye. Sostaviteli: Zubreva, T., Perminova, L., Tretyakov, P. (2004). Syentralnoye izdatelstvo.
5. Andreyev, V. (2000). Pedagogika. Sentri innovatsionnaya texnologiy.
6. Bogoyavlenskaya, D. (2002). Psixologiya tvorcheskix sposobnostey. Izdatelskiy Syentr «Akademiya».
7. Brushlinskiy, A., Petrovskiy, A., Zinchenko V. i dr. (1986). Obshaya psixologiya. Prosvesheniye.
8. Yakimanskaya, I. (1989). Prinsip aktivnosti v pedagogike. Voprosi psixologii.
9. Karmanchikov, A. (2004). Pedagogicheskiye usloviya razvitiya tvorcheskoy aktivnosti uchashixsya v sisteme dopolnitelnogo obrazovaniya: avtoref. dis. kand. ped. nauk. Ijevsk
10. Kuysinov, O., (2018). Developing Professional-Pedagogical Creativity of Future Professional Education Teachers based on Competencial Approach. Eastern European Scientific Journal, 4(2), 257-263.
11. Pardabaev, J., (2020). "STEAM" - Education as an innovative approach to the development of vocational training for students. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Journal, 8(3), 2056-5852.



Zarnigor XAYRULLAYEVA,

International school of finance technology and science instituti tayanch doktoranti

E-mail: zarnigorxayrullayeva01@gmail.com

SHAXSGA IJTIMOY GURUHLAR TA'SIRINING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI VA IJTIMOY BOSIMNING NAZARIY TALQINLARI

Annotatsiya

Maqolada shaxs va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi psixologik munosabatlarni tahlil qilinib, guruh ta'sirining shaxs qarorlariga ko'rsatadigan ta'sir mexanizmlari yoritilgan. Turli nazariy yondashuvlar asosida – E. Dyurkgeymning ijtimoiy faktlar nazariyasi, Z. Freyding ichki nazorat (superego) konsepsiyasi, S. Ashning konformizmga oid tajribalari, L. Festingerning kognitiv dissonans nazariyasi, A. Banduraning ijtimoiy o'rganish modeli, H. Tajfelning identifikatsiya g'oyalari, S. Milgramning bo'ysunish tajribalari va E. Eriksonning identitet shakllanishiga doir qarashlari asosida guruh bosimining psixologik xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda nazariy-analitik metodlar asosida shaxsning ichki psixologik jarayonlari va guruh ta'siriga javob reaksiyalari konseptual jihatdan tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, shaxs ijtimoiy bosimni nafaqat tashqi ko'rsatmalar, balki o'zini guruhda anglash, unga moslashish va ijtimoiy qadriyatlar tizimiga qo'shilish orqali ham qabul qiladi.

Kalit so'zlar: Shaxs, guruh ta'siri, ijtimoiy bosim, psixologik moslashuv, konformizm, identitet, ichki ziddiyat, taqlid, bo'ysunish.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ВЛИЯНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ ГРУПП НА ЛИЧНОСТЬ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ СОЦИАЛЬНОГО ДАВЛЕНИЯ

Аннотация

В статье рассматриваются психологические аспекты взаимодействия личности и социальных групп, а также механизмы влияния группы на принятие индивидуальных решений. На основе различных теоретических подходов — теории социальных фактов Э. Дюркгейма, концепции внутреннего контроля (суперего) З. Фрейда, экспериментов по конформизму С. Аша, теории когнитивного диссонанса Л. Фестингера, модели социального научения А. Бандуры, идеи социальной идентификации Х. Таджфела, экспериментов С. Милгрэма и этапов формирования идентичности Э. Эриксона — проводится теоретический анализ психологического давления социальной среды на личность. В ходе исследования использовались теоретико-аналитические методы, позволяющие раскрыть внутренние психические процессы и реакцию личности на групповое воздействие. Результаты показывают, что восприятие социального давления связано не только с внешними нормами, но и с внутренней потребностью в идентификации, адаптации и принадлежности к группе.

Ключевые слова: Личность, групповое влияние, социальное давление, психологическая адаптация, конформизм, идентичность, внутренний конфликт, подчинение, социальное научение.

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF SOCIAL GROUP INFLUENCE ON THE INDIVIDUAL AND THEORETICAL INTERPRETATIONS OF SOCIAL PRESSURE

Annotation

This article explores the psychological aspects of the interaction between the individual and social groups, focusing on the mechanisms through which groups influence personal decision-making. The analysis draws on various theoretical frameworks, including É. Durkheim's concept of social facts, S. Freud's idea of internal control (superego), S. Asch's conformity experiments, L. Festinger's cognitive dissonance theory, A. Bandura's social learning model, H. Tajfel's theory of social identification, S. Milgram's obedience studies, and E. Erikson's stages of identity development. Using theoretical and analytical methods, the study examines how group influence operates through both external norms and internal psychological processes. The findings suggest that social pressure is perceived not only as an external force, but also as a product of the individual's need for identity, group belonging, and psychological adaptation.

Key words: Individual, group influence, social pressure, psychological adjustment, conformity, identity, inner conflict, obedience, social learning.

Kirish. Zamonaviy psixologiyada shaxsiy qaror, shaxsga ijtimoiy bosimning ta'siri, shaxs va ijtimoiy muhitning o'zaro munosabati dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shaxsning qaror qabul qilishida ijtimoiy ta'sirga nisbatan tutgan pozitsiyasi, ijtimoiy normalarga munosabati ko'plab ichki va tashqi omillar bilan belgilanadi. Ijtimoiy guruhlar tomonidan ko'rsatiladigan psixologik bosim, konformizm, taqlid, kuzatuv orqali o'rganish kabi mexanizmlar shaxsning xulq-atvori, shaxsiy tanlovlari va ijtimoiylashuv jarayoniga yuqori darajada ta'sir ko'rsatadi.

Psixologiyada shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni turli olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, turlicha tahlil qilinadi. Jumladan E. Dyurkgeym ijtimoiy hayotda mavjud bo'lgan umumiy me'yor va qadriyatlarini "ijtimoiy faktlar" deb atab, ularni shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi tashqi psixologik-ijtimoiy kuchlar sifatida talqin qilgan. Z. Freyd esa inson ruhiyatining chuqur qatlamlarida faoliyat yurituvchi ongsiz tuzilmalar-ayniqsa, "superego" orqali jamiyat va guruhlarining bosimi shaxs psixikasiga qanday ta'sir ko'rsatishini izohlagan. S. Ash tomonidan olib borilgan mashhur tajribalar esa odamlar guruh fikriga muvofiqlashishga moyil ekanini amaliy dalillar bilan

ko'rsatib bergan. L. Festinger shaxs ichki fikrlari va tashqi ta'sir o'rtasida yuzaga keladigan ruhiy diskomfortni "kognitiv dissonans" tushunchasi bilan izohlab, ijtimoiy bosimning ruhiy barqarorlikka ta'sirini asoslab bergan. A. Bandura esa ijtimoiy ta'sirning o'rganishga oid jihatlarini o'rganib, kuzatuv orqali o'zlashtirish (observational learning) modeli orqali shaxs xulqining shakllanish mexanizmlarini yoritgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. H. Tajfelning ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi (1970-yil) odamlarning guruhlariga a'zo bo'lishi va bu guruhlarining ularning o'zini qanday his qilishlariga, xulq-atvoriga va qarorlariga ta'sir qilishini tushuntiradi. Tajfelning nazariyasiga ko'ra, shaxslar o'zlarini faqat o'z shaxsiy xususiyatlari orqali emas, balki o'zini guruhga mansub deb his qilgan holda ham aniqlaydi. Mavjud aniq bir guruhga mansublikning bu hissi, ijtimoiy identifikatsiya deb ataladi va bu shaxslar o'rtasidagi guruhlararo farqlarni kuchaytiradi va ijtimoiy tizimlarni shakllantiradi. Tajfelning tajribalaridan minimal guruhlar paradigmasi shuni ko'rsatadiki, odamlar o'zlarini tasodifiy guruhlariga ajratish orqali ham ularning guruhini boshqalarga nisbatan ustun deb hisoblashadi. Ijtimoiy

identifikatsiya nazariyasi, talabalarda ijtimoiy bosimga qanday reaksiya berilishini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Shaxslar guruhning bir a'zosi ga aylanganda, ular o'z qarorlarini ko'pincha guruhning umumiy normasi va ehtiyojlari bilan moslashtiradilar. Guruhning qarashlari va xulq-atvoriga moslashish jarayoni ijtimoiy bosimning bir shakli sifatida ko'rilishi mumkin[1].

Leon Festingerning kognitiv dissonans nazariyasi bitta individning kognitiv tuzilmasi ichida yuz beradi, u yerda ikki element o'rtasida nomuvofiqlik ya'ni dissonans sodir bo'ladi. Bu elementlarni Leon Festinger "bilimlar" yoki "kognitsiyalar" deb ataydi.

Kognitiv dissonans (lotincha:cognition "bilim" va dissonantia "nomutanosiblik", "tartibsizlik", "uyg'unlikning yo'qligi") - shaxsning ongida qarama-qarshi tushunchalar: g'oyalari, e'tiqodlar, qadriyatlar yoki hissiy reaksiyalar to'qnashuvi natijasida yuzaga kelgan ruhiy noqulaylik holati[2]. Festinger nazariyasi qaror qabul qilish jarayonida yuzaga keladigan ichki kognitiv ziddiyatlarni o'rganadi. Festingerning dissonansni kamaytirish usullari shaxsning ijtimoiy bosimga javoban o'z shaxsiy qarorlarini o'zgartirishlarini yoki qarorlarini oqlashini tushunishga yordam beradi.

E. Goffman "O'zini namoyish qilish nazariyasi" (The Presentation of Self in Everyday Life) asarida shaxsni teatr metaforasi orqali tushuntiradi. U shaxslar jamiyatda o'zlarini qanday namoyon etishlarini, rollarni ijro qilishini va ijtimoiy kutishlarga moslashishini tahlil qiladi. Goffman shaxslarning ijtimoiy xatti-harakatlarini teatr sahnasi bilan qiyoslaydi. Bu sahnada har bir kishi o'ziga berilgan rolni ijro etadi va boshqalarning kutgan talablariga moslashadi. Odamlarga o'zini qanday ko'rsatish orqali ijtimoiy muvozanatni saqlashadi.

Goffman odamlar ijtimoiy muhitda o'zlarini boshqalarga qanday ko'rsatishni boshqarish orqali ijtimoiy qabul qilinishga intilishini ta'kidlaydi. Bu jarayon "taassurotlarni boshqarish" deb ataladi va shaxsning o'zini namoyish qilish uslubi ijtimoiy kutilmalar va individual istaklar o'rtasidagi muvozanatni aks ettiradi. Goffman "old sahna"ni shaxsning boshqalar oldida o'zini tutishi, ya'ni ijtimoiy rollarni ijro etishi deb ta'riflaydi. "Orqa sahna" esa shaxsning xususiy hayoti bo'lib, u yerda u haqiqiy his-tuyg'ularini namoyon qiladi[2].

Z. Freyding "Jamiyat va uning noroziligi" (Civilization and Its Discontents, 1930) nomli asarida shaxsiy xulq-atvor va jamiyat o'rtasidagi ichki ziddiyatni superego tushunchasi orqali izohlagan. Uning fikricha, jamiyat va guruhlar tomonidan ilgari surilgan talab va me'yorlar shaxs ong ostiga singib ketadi va ichki nazorat tizimi sifatida ishlay boshlaydi. "Superego bu – jamiyat talablarining ichki vakilidir. U o'z kelib chiqishini tashqi hokimiyatdan olsa-da, vaqt o'tib shaxsiy ichki hukmdorga aylanadi". Ushbu yondashuv asosida shaxsga ijtimoiy guruhlar ta'siri faqat tashqi cheklovlar orqali emas, balki ichki ruhiy mexanizmlar orqali ham amalga oshishi mumkin degan nazariy xulosa asoslandi. Shuningdek, bu g'oya Z. Freyding psixanalitik yondashuvi va ijtimoiy nazorat konsepsiyasi bilan uyg'unlashadi[4].

S. Milgramning 1960-yillarda o'tkazgan "Muallim va shogird" tajribasida shuni aniqlaydiki, "Odamlar ijtimoiy bosimga duchor bo'lganida, ular o'zlarining shaxsiy axloqiy qarorlariga emas, balki autoritar buyruqlarga amal qilishadi. Odamlar odatda boshqa shaxsning ijtimoiy mavqei yoki autoritar holati asosida, hatto o'zlarining axloqiy qarorlariga qarshi bo'lsa ham, buyruqlarga amal qilishga moyil bo'lishadi"[5]. Milgramning tajribasida ishtirokchilar o'zlarining shaxsiy e'tiqodlariga qarshi bo'lishiga qaramasdan, boshqa bir insonga zarar yetkazishni davom ettirdilar, chunki ular o'zlarini buyruqlar beruvchi odamning ijtimoiy bosimiga bo'ysundilar. "Odamlar o'zining axloqiy qoidalarga qarshi bo'lsa ham, yuqori lavozimli shaxslarning buyruqlariga bo'ysunishga tayyor bo'lishadi." deb tajriba nihoyasida xulosa beriladi.

A. Bandura o'zining ijtimoiy o'rganish nazariyasida ijtimoiy bosim va guruhlarining ta'sirini, shaxslarning o'z xulq-atvorlarini boshqalar bilan kuzatib o'rganishlarini va bu jarayonda guruhlarining kutishlariga moslashishlarini o'rganadi. "Shaxslar boshqalarning xulq-atvorini kuzatib, o'z xulq-atvorlarini shakllantiradilar. Ularning qarorlarining shakllanishi, guruhdagi

boshqalar tomonidan qo'llab-quvvatlangan normativlarga moslashishga asoslanadi"[6]. Bandura, o'zining ijtimoiy o'rganish nazariyasida shaxslarning xulq-atvorini shakllantirishda guruhning ijtimoiy kutishlarining rolini o'rganadi. "Ijtimoiy kutishlar, guruhdagi xulq-atvorlar va normativlar shaxsning qaror qabul qilish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi va shaxslar bu kutishlarga moslashishga intilishadi", shaxslar o'zlarini ijtimoiy muhitdagi boshqalar bilan taqqoslash orqali yangi xulq-atvorlarni o'rganishini, guruhning kutishlari va qarorlar qabul qilishlarini ta'kidlaydi. Bu ijtimoiy o'rganish jarayoni, ayniqsa, guruhda mavjud bo'lgan bosimni o'z ichiga oladi. Shaxslar, guruhning kutishlariga mos ravishda o'z xulq-atvorini va qarorlarini shakllantirishga intiladilar.

Solomon Aschning konformizm tajribasida aniqlanishicha, "Agar guruhdagi ko'pchilik noto'g'ri javob bersa, ozchilikda bo'lgan shaxs ko'pincha guruhning noto'g'ri javobiga moslashdi, bu esa ijtimoiy bosimning shaxsning qarorini o'zgartirishdagi kuchini ko'rsatadi"[6]. Tajriba guruhda boshqa a'zolarining xulq-atvori shaxs qarorlarining turli o'zgarishlarga olib kelishi mumkinligini, shaxslar o'z xulq-atvorini, hattoki noto'g'ri qarorlarini ham guruh kutishlariga moslashtirishini ko'rsatadi. "Guruh tomonidan qabul qilinish ehtiyoji guruh a'zolari guruh fikri noto'g'ri ekanini bilsalar-da, ko'pincha shaxslarni moslashishga olib keladi".

Konformizm tajribasining natijalari ijtimoiy ta'sir kuchini namoyish etadi. Biror shaxs javobning to'g'ri ekanini ishonmaganligi uchun, balki guruhdan rad etilish yoki yomonlashishdan qo'rqqanligi uchun noto'g'ri javob beradi. Guruh bosimiga bo'ysunish tendensiyasi ayniqsa guruhning noto'g'ri javobda mutlaq hamfikir bo'lganda yaqqol namoyon bo'ladi, bu esa shaxsni o'z fikrini bildirganda yolg'izlanib qolishiga olib keladi. Konformizm faqat zaiflikning ifodasi emas, balki boshqalar bilan moslashish va ijtimoiy ajralishni oldini olish istagini aks ettiradi.

E. Eriksonning "Hayotiy bosqichlar" nazariyasi shaxsning rivojlanishidagi guruhlarining rolini va ijtimoiy ta'sirni chuqur o'rganadi. "Har bir hayotiy bosqich o'zining ijtimoiy kuchlari va guruhlar ta'sirini o'z ichiga oladi. Shaxsiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan qarorlar va vazifalar ko'pincha guruh tomonidan qo'yilgan normativlar va kutishlarga asoslanadi"[10]. Bu nazariyada guruhlarining ta'siri odamning o'zini anglash, identifikatsiya qilish va ijtimoiy rollarni bajarishdagi muhim vosita hisoblanadi. Masalan, o'sish davrida o'quvchilar guruhlar yoki do'stlar muhitida o'zlarini qanday ko'rsatishlari, o'zgaralarni qanday qabul qilishlari, guruhga qabul qilinish uchun qanday xulq-atvorlarni namoyon etishlari zarur bo'ladi. Bu guruhlar shaxsning o'zini qanday anglashiga, o'zining ijtimoiy roli va mavqeyini qanday his qilishiga bevosita ta'sir qiladi. Shu tariqa, guruhlar faqat shaxslar orasidagi ijtimoiy aloqalar sifatida qolmay, balki shaxsiy rivojlanish va o'zini anglash jarayonida asosiy mexanizm sifatida xizmat qiladi. Aynan shu manbaada "Odamlar guruh ichida o'zlarini tushunadilar. Shaxsiy identifikatsiya va ijtimoiy rolni bajarish guruhda qabul qilinishga, boshqalar bilan o'zaro aloqaga va ijtimoiy boshqaruvga qaratilgandir" deyiladi. Erikson guruhlarining shaxslarning identitetini shakllantirishdagi rolini ta'kidlaydi. Guruh ichida bo'lish shaxsga o'zini qanday anglash va qanday ijtimoiy rollarni bajarish kerakligini o'rgatadi.

Bandura o'zining ijtimoiy o'rganish nazariyasida shaxslarning boshqalar va guruhning xulq-atvorini kuzatib, qarorlar qabul qilishlarini ta'kidlaydi. Bu nazariyada, shaxslar o'zini boshqalar bilan taqqoslash orqali xulq-atvorini o'zgartirishi yoki qarorlar qabul qilishi mumkin degan xulosa kelib chiqadi. Erikson esa guruhlarining shaxsning rivojlanishidagi ahamiyatini ta'kidlaydi, chunki guruhda o'rganish va moslashish shaxsning o'zini anglashiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bularning barchasi shuni ko'rsatadiki, guruh va ijtimoiy bosim shaxsning qarorlarini, xulq-atvorini o'zgartirishda muhim omil bo'ladi. Shaxslar ko'pincha o'z qarorlarini faqat o'zlariga asoslanib qabul qilishmaydi, balki guruhdagi boshqalarning kutishlariga moslashishga ham harakat qilishadi. Bu jarayonda ijtimoiy bosim va guruhning kutishlari shaxsni ichki qarorlarida sezilarli darajada o'zgartirishi mumkin.

Turli xil qaror qabul qilish tushunchalarining har xil talqinlari mavjud, ammo har birida qaror muammoli vaziyatda

yuzaga kelgan noaniqlikni kamaytirishga qaratilgan fikrlar faoliyati sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bu fikrlar faoliyati konseptual fikrlash darajasida amalga oshiriladi. Ko'pincha qaror ham tanlov, ham uning yakuniy natijasi sifatida ikki tomonlama tushuniladi[8].

Qaror qabul qilish jarayoni ham tadqiqot yo'nalishiga ko'ra turli ma'nolarda tadqiq qilinadi. Platonovning ta'rifiga ko'ra, qaror qabul qilish – bu savolga javob olishning psixik hodisasi hisoblanadi[9].

Natijalar. Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, shaxsning ijtimoiy guruh bilan o'zaro munosabati faqat tashqi moslashuv bilan emas, balki ichki psixologik holatlar bilan ham bog'liq. Turli nazariyalar asosida quyidagilarni tahlil qilamiz:

-shaxsning xatti-harakatlari guruh tomonidan yaratilgan "ijtimoiy faktlar" orqali boshqariladi. Bunday holatda shaxs guruh me'yorlarini buzmaslik uchun ularga ixtiyoriy ravishda bo'ysunadi.(E.Dyukgeym)

- shaxs guruh me'yorlarini ongsiz ravishda "superego" orqali qabul qiladi. Natijada, guruhning qadriyatlarini shaxs ongida ichki standart sifatida shakllanadi.(Z. Freyd)

- odamlar guruh fikriga ko'r-ko'rona ergashishga moyil bo'lib, bu holat shaxsiy fikrlarni vaqtincha inkor etishga olib keladi. (S. Ash)

- shaxs guruhga zid fikr bildirsa, kognitiv dissonans (ruhiy noqulaylik) his qiladi va bu holatni bartaraf qilish uchun o'z fikrini guruh fikriga moslashtiradi. (L. Festinger)

- insonlar boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatish orqali ularni o'zlashtiradi. Guruhda dominant bo'lgan xulq modellari shaxsda avtomatik ravishda qabul qilinadi. (A. Bandura)

- shaxs o'zini ma'lum bir guruh a'zosi sifatida anglaganida, ushbu guruh qadriyatlarini va me'yorlariga psixologik jihatdan yaqinlashadi. (H. Tajfel)

- shaxs o'z axloqiy qarashlariga zid bo'lsa-da, ijtimoiy hokimiyat vakiliga bo'ysunishga moyil bo'ladi. Bu esa shaxsga nisbatan ijtimoiy bosim kuchi qanchalik ta'sirchanligini ko'rsatadi. (S. Milgram)

- shaxsiy rivojlanish, ayniqsa o'smirlik davrida, ijtimoiy guruhlar bilan o'zaro ta'sirda shakllanadi. Guruhga tegishlilik hissi shaxsning kimligini anglashida hal qiluvchi rol o'ynaydi va ijtimoiy moslashuv jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatadi. (E. Erikson)

Yuqoridagi natijalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, ijtimoiy guruhlar shaxsga ta'siri murakkab va ko'p bosqichli bo'lib, bu ta'sir ongli, ongsiz, tashqi yoki ichki mexanizmlar orqali yuzaga chiqadi. Har bir nazariyada ta'sir shakli va natijasi turlicha bo'lsa-da, umumiy jihati – shaxsning o'zini guruhga moslashtirishga intilishi kuzatiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, shaxsning qaror qabul qilishida guruh va ijtimoiy bosim juda katta ta'sir ko'rsatadi. Har birimiz o'z qarorlarimizni faqat o'zimiz uchun emas, balki bizni o'rab turgan guruh va jamiyatning kutishlariga moslashib ham qabul qilamiz. Ba'zan bu boshqalar bilan uyg'unlashish va jamiyatning me'yorlariga amal qilish istagi bilan bog'liq bo'ladi. Aksariyat hollarda, har kim o'z fikrini bildirganida, guruhning reaksiyasidan qo'rqib yoki undan ajralib qolishdan tashvishlanib, qarorlarini o'zgartirishga moyil bo'ladi. Bu, bir tomondan, jamiyatda o'z o'rnini topish va boshqalardan tasdiq olish istagi bilan bog'liq.

Shu bilan birga, bizning qarorlarimiz faqat guruh bosimi ostida shakllanmaydi, balki ichki ishonch va qarashlarimiz ham katta rol o'ynaydi. Ba'zan, guruh kutishlariga qarshi turish, o'z fikrini himoya qilish ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shaxs o'z qarorlarini ko'proq mustaqil ravishda, ba'zan esa ijtimoiy bosimga qarshi turib qabul qilishi kerak. Bu, albatta, har bir kishining o'ziga xosligi va ichki kuchiga bog'liq. Shaxsning qarorlarida guruh va ijtimoiy bosimning ta'siri qat'iy bo'lishi mumkin, ammo bu ta'sir shaxsning ichki qarashlari va o'zini anglash jarayoniga qarab o'zgarish holati kuzatiladi. Shunday qilib, har birimiz ijtimoiy bosim va guruh kutishlariga qarshi turish yoki ularga moslashish orasida muvozanatni topishga harakat qilamiz.

ADABIYOTLAR

1. Tajfel H. Differentiation between social groups: Studies in the social psychology of intergroup relations. – London: Academic Press, 1978. – 474 b.
2. Kognitiv dissonans - Vikipediya
3. Goffman, E. The Presentation of Self in Everyday Life. Garden City, NY: Doubleday.
4. Фрейд З. Недовольство культурой / пер. с нем. А. М. Руткевич. — Харьков: Фолио, 2013. — 224 с
5. Milgram S. Behavioral study of obedience. Journal of Abnormal and Social Psychology, 67(4), 371-378.
6. Bandura, A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall. Asch S.E. The Influence of Group Pressure on the Modification and Distortion of Judgment. In G. E. Swenson (Ed.), Theories of Cognitive Learning (pp. 194-207).
7. Erikson, E. (1997). The Life Cycle Completed: Extended Version. W.W. Norton & Company.
8. Гершкович В. А., Морозкина Н. В., Науменко О. В., Аллахвердов В. М. Социальная верификация гипотез при решении задач высокой степени неопределенности // Экспериментальная психология в России: традиции и перспективы. – М.: Институт психологии РАН, 2010
9. Карпов А. В. Психология групповых решений. - М: Институт психологии РАН, 2000
10. Erikson, E. (1997). *The Life Cycle Completed: Extended Version*. W.W. Norton & Company.



UDK: 37.372.8(372.851)

Ulug'bek XONKULOV,
Farg'ona davlat universiteti professori, PhD
E-mail: u_xonqulov@mail.ru

Fizika-matematika fanlari nomzodi, professor A.Yusupova taqrizi asosida

METHODS FOR FINDING THE ROOTS OF TRIGONOMETRIC EQUATIONS WITHIN A GIVEN INTERVAL

Annotation

This article provides an in-depth study of various methods for solving trigonometric equations and finding their roots in a given interval. It provides a theoretical and methodological analysis of such methods as arithmetic, algebraic, geometric, graphical, genetic, and visual-genetic. The advantages and disadvantages of each method are illustrated with experimental examples, and the need to choose methods that are adapted to the individual abilities of students is justified. The article compares the ways to solve trigonometric equations using classical and advanced approaches, which can serve as a practical methodological tool for teachers.

Keywords: Arithmetic, algebraic, geometric, graphic, genetic, visual-genetic.

МЕТОДЫ НАХОЖДЕНИЯ КОРНЕЙ ТРИГОНОМЕТРИЧЕСКИХ УРАВНЕНИЙ В ЗАДАННОМ ИНТЕРВАЛЕ

Аннотация

В данной статье подробно рассматриваются различные методы решения тригонометрических уравнений и нахождения их корней в заданном интервале. В нем анализируются такие методы, как арифметический, алгебраический, геометрический, графический, генетический и визуально-генетический с теоретической и методологической точки зрения. На экспериментальных примерах проиллюстрированы преимущества и недостатки каждого метода, обоснована необходимость выбора методов, адаптированных к индивидуальным возможностям учащихся. В статье сравниваются способы решения тригонометрических уравнений с использованием классических и усовершенствованных подходов, что может служить практическим методическим пособием для учителей.

Ключевые слова: Арифметический, алгебраический, геометрический, графический, генетический, визуально-генетический.

TRIGONOMETRIK TENGLAMALARNING BERILGAN ORALIQQA TEGISHLI ILDIZLARINI TOPISH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada trigonometrik tenglamalarni yechish va ularning ildizlarini berilgan oraliqda tanlashga doir turli metodlar chuqur o'rganilgan. Unda arifmetik, algebraik, geometrik, grafik, genetik va vizual-genetik kabi metodlar nazariy va metodik jihatdan tahlil qilinadi. Har bir usulning afzalliklari va kamchiliklari eksperimental misollar bilan yoritilgan, shuningdek, o'quvchilarning individual qobiliyatlariga moslashgan holda metodlar tanlash zarurligi asoslab berilgan. Maqolada trigonometrik tenglamalarning klassik va ilg'or yondashuvlar yordamida yechimga olib boruvchi yo'llari taqqoslab o'rganilgan, bu esa o'qituvchilarga amaliy metodik vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: Arifmetik, algebraik, geometrik, grafik, genetik, vizual-genetik.

Kirish. O'quvchilarga matematik masalalarni yechish usullarini o'rgatish matematikani o'qitishning muhim vazifalaridan biri sanaladi. Bu faqatgina formulalarni yodlash emas, balki ularni tushunish, qo'llash va turli yondashuvlar bilan yechim topish qobiliyatini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Masalan, trigonometrik tenglamalarni turli usullardan foydalanib yechishga o'rgatish trigonometriyaga oid bilimlarni chuqurlashtirish bilan birgalikda, analitik tafakkurni rivojlantirishga ham muhim ahamiyatga ega. Matematika olimpiadalari va oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlari tarkibiga trigonometrik tenglamalarni yechish va ularning ildizlarini berilgan oraliqda tanlashga oid masalalar kiritilganligi ma'lum. Trigonometrik tenglamalarni yechish bilan bog'liq muammolar tadqiqotchilar tomonidan ko'p marta muhokama qilingan bo'lsada, metodik jihatdan hamon dolzarb bo'lib qolmoqda. Boisi, turli usullarning taklif etilishi o'quvchilar tomonidan bilim olish va tanlash imkoniyatini oshiradi. Har bir o'quvchi o'zining intellektual qobiliyatiga qarab eng qulay usul bilan masalani yechishi mumkin bo'ladi. Agar o'quvchi faqat bir usulni mukammal o'zlashtirib qolgan usullarga e'tibor bermasa, ba'zi murakkab tenglamalarni yechishda qiyalishi mumkin. Masalan, trigonometrik tenglama ildizlarini berilgan oraliqda tanlash va ildizlarini umumlashtirishga oid murakkab masalalarni mavjud standart usullar bilan yechish mumkin emas. Shu nuqtai nazardan analitik fikrlashga ega o'quvchilar algebraik usulni afzal ko'rsa, vizual fikrlaydiganlar esa geometrik usuldan foydalanishi mumkin bo'ladi. Masalani turli usullar bilan yechish orqali o'quvchilar qaysi usul tezroq natijaga olib kelishi, qaysi usul ko'proq vaqt talab qilishini tushunib oladilar.

Tadqiqot metodologiyasi qismi. Trigonometrik tenglamalarni yechish va ildizlarini berilgan oraliqda tanlashning bir necha usullari mavjud bo'lib biz ularni quyidagi guruhlariga ajratamiz: arifmetik usul; algebraik usul; geometrik usul (birlik aylana yordamida yechish); grafik usul; genetik usul. Ushbu usullarning har biri o'ziga xoslikka ega bo'lib, ularning qo'llanilishi matematik ifodaning berilishiga bog'liq.

Arifmetik usul [1] trigonometrik tenglamalarni yechishda qadam-baqadam hisoblash va parametrlarni tanlash orqali yechimni topishga asoslanadi. Bu usulda berilgan tenglamaning umumiy yechimi shakllantiriladi, so'ngra parametrga turli qiymatlar berish orqali mayyan oraliqdagi ildizlar ajratiladi va

Masalan, $\sin x = \frac{1}{2}$ tenglamaning $(-\pi; \pi)$ oraliqqa tegishli ildizlarini topishda

$x = (-1)^n \frac{\pi}{6} + \pi n, n \in \mathbb{Z}$ uchun n parametrga mos qiymatlarini berish orqali $(-\pi; \pi)$ oraliqqa tegishli ildizlarni topiladi.

Algebraik usul[1,2] tenglamani algebraik soddalashtirishlar va trigonometrik ifodalarni shakl almashtirishlar orqali yechishga asoslangan. Bu usul odatda trigonometrik ayniy almashtirishlar orqali tenglamani standart shaklga keltirish orqali amalga oshiriladi. Masalan,

$a \sin x + b \cos x = c$ tenglama quyidagi shakl almashtrish orqali yechiladi. $R \sin(x + \alpha) = c$, bu yerda

$$R = \sqrt{a^2 + b^2}, \quad \operatorname{tg} \alpha = \frac{b}{a}$$

Geometrik usul [2] birlik aylana yordamida trigonometrik funksiya qiymatlarini inobatga olgan holda yechim topishga asoslanadi. Ushbu usul tenglamaning ildizlarini aniq tasavvur qilishga yordam beradi. Masalan, tenglama $\sin x = a$ ko'rinishida bo'lsa birlik aylanani koordinatalar sistemasida $y = a$ to'g'ri chiziqi bilan kesishish nuqtalari topiladi. Topilgan nuqtalar tenglamaning ildizlarini aniqlaydi.

Grafik usul trigonometrik tenglamalarni yechishda funksiya grafigini chizish va ularning kesishish nuqtalarini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Masalan, agar tenglama $\sin x = f(x)$ ko'rinishida bo'lsa, $\sin x$ va $f(x)$ funksiya grafiglarni chizish orqali ularning kesishish nuqtalari topiladi. Kesishish nuqtalari tenglamaning ildizlari bo'ladi.

Genetik usul tenglamani yechishda trigonometrik funksiyalarning o'zgarishi va transformatsiyasini tahlil qilish orqali qabul qilinadigan eng samarali yondashuvni tanlashni nazarda tutadi. Usul tenglamaning asosiy xususiyatlarini chuqur tahlilda matematik nazariyaning tizimli qo'llanilishini nazarda tutadi va optimallashtirish imkonini beradi. Masalan, biz $\sin 2x = 2 \sin x \cos x$ ga o'xshash ayniyatlarni tahlil qilsak, genetik usul barcha mumkin bo'lgan formulalar orqali ushbu ayniyatning mohiyatini ochib berish uchun matiqiy-tuzilmaviy aspektlarini chuqur o'rganish imkonini beradi.


Biz trigonometrik tenglamalar ildizlarini berilgan oraliqda tanlashning vizual-genetik usulini taklif qilamiz. Vizual-genetik usul spirallar usuliga [3] o'xshash bo'lsada, barcha usullar kombinatsiyasi va integratsiyaga qurilgan. Vizual-genetik usul geometrik, grafik va algebraik, genetik usullarni birlashtiradi, trigonometrik tenglamalarning qisqa va aniq yechimini topishni osonlashtiradi va ushbu usulni o'rganishning barcha bosqichlarida (dastlabki, chuqurlashtirilgan) qo'llash mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Trigonometrik tenglamalar ildizlarini berilgan oraliqda tanlash usullari A.G. Mordkovich [1], P.V. Semyonov [1], O.V. Shabashova [2], L.D. Ostroverxaya [3], va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy va metodik ishlarida ko'rib chiqilgan. A.G. Mordkovich va P.V. Semyonov [1] tomonidan yozilgan adabiyotlarda $\sin kx = \alpha$, $\cos kx = \alpha$, $\operatorname{tg} kx = \alpha$ ko'rinishdagi

tenglamalar ildizlarini berilgan oraliqda tanlashning arifmetik va algebraik usuli keltirilgan. O.V. Shabashovaning maqolasida arifmetik, algebraik va geometrik (vizual model yordamida – birlik aylana) usullarining afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilingan [2]. Arifmetik, algebraik va geometrik usullar muayyan yoshdagi o'quvchilar uchun foydali bo'lsada ulardan foydalanish ba'zi tenglamalarni yechishda ko'p vaqt talab qiladi. Shu bilan birga ayrim o'quvchilar trigonometrik ifodalarni shakl almashtrishda qiyinchilikka duch kelishadi. L.D. Ostroverxaya [3] esa trigonometrik tenglamalarni yechishda berilgan intervalga (2π dan katta) tegishli ildizlarni tanlashning eng samarali bo'lgan spiral usulini taklif qiladi. Spirallar usuli trigonometrik funksiyalarning davriylik xossalariiga asoslangan bo'lib, an'anaviy usullarga qaraganda matematik jihatdan samaraliroq va intuitiv tushunarlidir. Vizual tushunish osonligi, grafik usullar orqali natijalarni ko'rish va tahlil qilish imkoniyati mavjudligi bilan ajralib turadi. Lekin spiral usuli an'anaviy usullarga qaraganda biroz murakkab bo'lib, ayniqsa boshlang'ich bosqichda foydalanish, tushunish va qo'llashda ba'zi muammolar bo'lishi mumkin. Biz taklif qilgan usulning qo'llanilishini quyidagi misollar orqali ko'rib chiqamiz.

$$\cos 3x = -\frac{\sqrt{2}}{2} \text{ tenglamaning}$$

1-misol. Quyidagi $[-2; 3]$ kesmaga tegishli ildizlarini toping.



Yechish: Agar $x \in [-2; 3]$

bo'lsa, unda $3x \in [-6; 9]$. Endi tenglamani $3x$ bo'yicha yechamiz, buning uchun birlik aylana (trigonometrik aylana) dan $-\frac{\sqrt{2}}{2}$ foydalanamiz (1-rasmga qarang). Kosinusning qiymati ga teng bo'lishi uchun burchaklar quyidagi holatlarga to'g'ri keladi:


- Musbat yo'nalishda (ya'ni 0 dan 9 gacha birlik aylana bo'ylab buramiz), quyidagi burchaklardan o'tamiz: $\frac{3\pi}{4}; \frac{5\pi}{4}; \frac{11\pi}{4}$.
- Manfiy yo'nalishda (ya'ni 0 dan -6 gacha burishda): $-\frac{3\pi}{4}; -\frac{5\pi}{4}$.

Demak, quyidagi qiymatlar tenglamaning $3x$ bo'yicha yechimlari bo'ladi: $3x = -\frac{5\pi}{4}; 3x = -\frac{3\pi}{4};$

$$3x = \frac{3\pi}{4}; 3x = \frac{11\pi}{4}; 3x = \frac{5\pi}{4}.$$

Endi har bir tenglamani 3 ga bo'lamiz va x ni topamiz: $x = -\frac{5\pi}{12}; x = -\frac{\pi}{4}; x = \frac{\pi}{4}; x = \frac{11\pi}{12}; x = \frac{5\pi}{12}.$

Javob: $-\frac{5\pi}{12}; -\frac{\pi}{4}; \frac{\pi}{4}; \frac{11\pi}{12}; \frac{5\pi}{12}.$



$$\sin\left(2x - \frac{\pi}{4}\right) = -1$$

2-misol. tenglamani yeching va quyidagilarni aniqlang:

- a) eng kichik musbat ildizni toping;
- b) $\left[-\frac{\pi}{2}; \frac{3\pi}{2}\right]$ oraliqqa tegishli ildizlarni toping;
- c) eng katta manfiy ildizni toping;
- d) $\left(-\pi; \frac{\pi}{2}\right)$ oraliqqa tegishli ildizlarni toping.

Yechish: a) Eng kichik musbat ildizni topamiz (2-rasm).

Tenglamani $\left(2x - \frac{\pi}{4}\right)$ ga nisbatan yechamiz va birlik

aylanada $\frac{3\pi}{2}$ qiymatni topamiz. Bundan x ni topamiz:

$$2x - \frac{\pi}{4} = \frac{3\pi}{2}, x = \frac{7\pi}{8}.$$

$$x = \frac{7\pi}{8}.$$

Javob:

b) Agar $x \in \left[-\frac{\pi}{2}; \frac{3\pi}{2}\right]$ bo'lsa:

$$2x \in [-\pi; 3\pi], 2x - \frac{\pi}{4} \in \left[-\frac{5\pi}{4}; \frac{11\pi}{4}\right].$$

Demak, $\left[-\frac{5\pi}{4}; 0\right]$ kesmadagi ildizlar:

$$2x = -\frac{\pi}{2} + \frac{\pi}{4}, 2x = -\frac{\pi}{4}, x = -\frac{\pi}{8}.$$

U holda, $\left[0; \frac{11\pi}{4}\right]$ kesmadagi ildizlar:

$$2x = \frac{3\pi}{2} + \frac{\pi}{4}, 2x = \frac{7\pi}{4}, x = \frac{7\pi}{8}$$

$$-\frac{\pi}{8}; \frac{7\pi}{8}$$

Javob:

c) Eng katta manfiy ildizni topamiz. Birlik aylana bo'ylab manfiy yo'nalishda buramiz. $\sin y = -1$ bo'ladigan birinchi

nuqta $-\frac{\pi}{2}$ bo'lgani uchun

$$2x - \frac{\pi}{4} = -\frac{\pi}{2}, x = -\frac{\pi}{8}.$$

$$-\frac{\pi}{8}$$

Javob:

d) Agar $x \in \left(-\pi; \frac{\pi}{2}\right)$ bo'lsa, $2x \in (-2\pi; \pi)$

$$2x - \frac{\pi}{4} \in \left(-\frac{9\pi}{4}; \frac{3\pi}{4}\right).$$


Demak:

$$2x - \frac{\pi}{4} = -\frac{\pi}{2}, x = -\frac{\pi}{8}.$$

$$-\frac{\pi}{8}$$

Javob:

4-misol. $tg 3x = \sqrt{3}$ tenglamaning $(-\pi; \pi)$ intervalga tegishli ildizlarini toping.



2-rasm

$$x \in (-\pi; \pi)$$

Yechish: Agar

bo'lsa

$3x \in (-3\pi; 3\pi)$ U holda $[0; 3\pi]$ kesmada ildizlarni topamiz (3-rasm) ikkita ildiz ko'rsatilgan:

$$3x = \frac{\pi}{3}; 3x = \frac{4\pi}{3}; 3x = \frac{7\pi}{3}$$

$$x = \frac{\pi}{9}; x = \frac{4\pi}{9}; x = \frac{7\pi}{9}$$

Demak,

Endi

$[-3\pi; 0]$ kesmadagi ildizlarni topamiz:

$$3x = -\frac{2\pi}{3}; 3x = -\frac{5\pi}{3}; 3x = -\frac{8\pi}{3}$$

Demak,

$$x = -\frac{2\pi}{9}; x = -\frac{5\pi}{9}; x = -\frac{8\pi}{9}$$

Javob:

$$-\frac{8\pi}{9}; -\frac{5\pi}{9}; -\frac{2\pi}{9}; \frac{\pi}{9}; \frac{4\pi}{9}; \frac{7\pi}{9}$$

Endi algebraik usulda berilgan misolni yechamiz. Bunda asosiy formulalardan foydalanamiz:

$$3x = \arctg \sqrt{3} + \pi n; 3x = \frac{\pi}{3} + \pi n; x = \frac{\pi}{9} + \frac{\pi n}{3}$$

$n \in \mathbb{Z}$. Buning uchun x ning $(-\pi; \pi)$ intervalga tegishli qiymatlarini topamiz., ya'ni $-\pi < x < \pi$ o'rinli

$$-\pi < \frac{\pi}{9} + \frac{\pi n}{3} < \pi$$

bo'ishi kerak. Bundan

Ushbu

tengsizlikdan

n

topiladi:

$$-9 < 1 + 3n < 9; -10 < 3n < 8;$$

$$-\frac{10}{3} < n < \frac{8}{3}$$

Bu yerda

n parametr $-3, -2, -1, 0, 1, 2$ qiymatlarni

qabul qiladi. Agar $n = -3$ bo'lsa, $x = \frac{\pi}{9} - \pi = -\frac{8\pi}{9}$

; agar $n = -2$ bo'lsa, $x = \frac{\pi}{9} - \frac{2\pi}{3} = -\frac{5\pi}{9}$; agar

$n = -1$ bo'lsa, $x = \frac{\pi}{9} - \frac{\pi}{3} = -\frac{2\pi}{9}$; $n = 0$ bo'lsa,

$$x = \frac{\pi}{9} + 0 = \frac{\pi}{9};$$

$$n = 1$$

bo'lsa,

$$\text{Javob: } -\frac{8\pi}{9}; -\frac{5\pi}{9}; -\frac{2\pi}{9}; \frac{\pi}{9}; \frac{4\pi}{9}; \frac{7\pi}{9}$$

$$x = \frac{\pi}{9} + \frac{\pi}{3} = \frac{4\pi}{9};$$

$$n = 1$$

bo'lsa,

$$x = \frac{\pi}{9} + \frac{\pi}{3} = \frac{4\pi}{9};$$

$$n = 2$$

bo'lsa,

$$x = \frac{\pi}{9} + \frac{2\pi}{3} = \frac{7\pi}{9}.$$

Xulosa va takliflar. O'quvchilarni trigonometrik tenglamalarni turli usullar bilan yechishga o'rgatish ko'plab afzalliklarga ega bo'lsa ham, bu yondashuv o'qitish strategiyasiga bog'liq. Shuning uchun dastlab o'quvchilarga oddiy usullardan boshlash kerak. Keyinroq ularni turli usullar bilan tanishtirish tavsiya etiladi. Har bir o'quvchining qaysi usulda yaxshiroq ishlashini nazorat sinovlari bilan aniqlash maqsadga muvofiq. Trigonometrik tenglamalarni turli usullar bilan yechish o'quvchilarga muammoga har xil pozitsiyada qarash imkonini beradi. Quyidagi jadvalda trigonometrik tenglamalar ildizlarini berilgan oraliqda tanlash usullari eksperimental natijalarga ko'ra solishtirildi.

Usul	Afzalliklari	Kamchiliklari
Arifmetik	Oddiy va aniq	Uzoq vaqt talab qiladi
Algebraik	Algebraik formulalarga asoslangan	Murakkab ifodalar bo'lishi mumkin
Geometrik	Vizual va intuitiv	Barcha tenglamalar uchun qo'llanilmaydi
Grafik	Grafikli tahlil imkoniyati	Grafik chizish talab etiladi
Genetik	Fundamental analizga asoslangan	Yuqori darajadagi tahlil talab qiladi
Vizual-genetik	Eng samarali usullarni birlashtiradi	Har doim qo'llash oson emas

Shunday qilib, qaysi usulni ishlatish o'quvchining bilim darajasi va masalaning murakkabligiga bog'liq bo'ladi. Algebraik usul, agar ildizlar tanlanadigan interval kichik bo'lsa va boshqa usullardan foydalanish noqulay hisob-kitoblar yoki konstruktsiyalarga olib keladigan holatda eng samarali

hisoblanadi. Vizual-genetik usul ildizlar tanlanadigan interval yetarlicha katta bo'lsa qo'llash yaxshi samara beradi. Shu bois taklif etilayotgan ushbu usul hisob-kitoblarning ravshanligi va soddaligi bilan ajralib turadi, o'quvchilarga tushunarli bo'ladi, hamda vaqtni tejaydi.

ADABIYOTLAR

1. Мордкович А.Г., Семёнов П.В. Алгебра и начала математического анализа. 10 класс (профильный уровень): методическое пособие для учителя. - М.: Мнемозина, 2010.
2. Шабашова О.В. Приёмы отбора корней в тригонометрических уравнениях // Математика в школе. - 2004. - № 1.
3. Островерхая Л. Д., Жданова О. К. Отбор корней тригонометрических уравнений методом спирали // Вестник КРАУНЦ. Физ.-мат. науки. 2019. Т. 26. № 1. С. 100-109. DOI: 10.26117/2079-6641-2019-26-1-100-109



UDK: 297(09) Валиди (584.4)

Muminjon XUJAYEV,
Alfraganus universiteti dotsenti, f.f.d
E - mail: mumni_81@mail.ru.

ISFT instituti dotsenti, f.f.n D.Bozarov taqrizi asosida

ОТНОШЕНИЕ МИРЗО УЛУГБЕКА К ФИЛОСОФИИ

Аннотация

В статье проводится ретроспективный анализ общественно-политических, философских и научных взглядов мыслителя Мирзо Улугбека в мусульманском мире. На основе исторических источников анализируется его вклад в распространение суфизма в государстве Тимуридов. Мирзо Улугбек был великим знатоком ислама и обладал большими познаниями в истории науки, провел совет с религиозными и светскими учеными своего медресе и пришел к выводу, что в религиозно-философских учениях суфизма нет противоречия исламу. Как и если общее отношение к исламу в государствах династий Амира Темура и Мирзо Улугбеков, которые исследовали исторические источники, привело к древним и современным исследованиям, то известно этим деятелям суфийского учения.

Ключевые слова: суфизм, учение, ретроспектива, анализ, основание, исследование, история, источник, общественное, политическое, наука, культура, ислам.

MIRZO ULUG'BEKNING FALSAFAGA MUNOSABATI

Аннотация

Maqolada mutafakkir Mirzo Ulug'bekning musulmon dunyosidagi ijtimoiy-siyosiy, falsafiy va ilmiy qarashlari retrospektiv tahlil qilingan. Tarixiy manbalar asosida uning Temuriylar davlatida so'fiylikning tarqalishiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Mirzo Ulug'bek Islom dinining buyuk bilimdoni bo'lib, ilm-fan tarixini juda yaxshi bilgan. U o'z madrasasining diniy va dunyoviy olimlari bilan kengash o'tkazib, tasavvufning diniy va falsafiy ta'limotlarida Islomga ziddik yo'q degan xulosaga keldi. Islomning insonning jismoniy va ma'naviy hayotidagi yuksak rolini tan olgan so'fiylik insonning diniy dunyoqarashida atrofdagi dunyo va uning turi bilan bog'lanishining yagona usuli emas edi va bu Islom ta'limoti uchun ham katta ahamiyatga ega. O'zini anglash uchun muhim bo'lgan axloq, odob-axloq, tabiat va jamiyatga munosabat orqali jismoniy va ma'naviy poklanishni o'rgatadi.

Калит so'zlar: tasavvuf, ta'limot, retrospekt, tahlil, asos, tadqiqot, tarix, manba, ijtimoiy, siyosiy, fan, madaniyat, Islom.

THE ATTITUDE OF MIRZO ULUGBEK'S TOWARDS TO THE PHILOSOPHY

Annotation

The article provides a retrospective analysis of the socio-political, philosophical and scientific views of the thinker Mirzo Ulugbek in the Muslim world. Based on historical sources, his contribution to the spread of Sufism in the Timurid state is analyzed. Mirzo Ulugbek was a great scholar of Islam and having a great knowledge of the history of science and holds a council with the religious and secular scholars of his madrasa and concludes that there is no contradiction to Islam in the religious and philosophical teachings of Sufism. As well as if the common attitude towards to Islam in the states of Amir Temur and Mirzo Ulugbeks' dynasties who has investigate of historical sources has led to the ancient and modern researches it is known to these figures of Sufism doctrine.

Key words: Sufism, doctrine, retrospective, analysis, foundation, research, history, source, social, political, science, culture, Islam.

Суфизм является одним из важнейших явлений религиозно-философской науки, по достоинству от эстетики, он привел в общественно-политическую и духовную жизнь и оказал большое влияние на развитие науки, культуры и литературы, на определение способности мышления и достоинства эстетики в учении ислама.

Признавая высокую роль ислама в физической и духовной жизни человека, суфизм не был единственным способом отношения человека к окружающему миру и себе подобным в религиозном мировоззрении, а также имел большое значение исламского учения. Учит физическому и духовному очищению через нравы, манеры, отношение к природе и обществу, которые важны в самореализации.

Учение суфизма оказало огромное влияние на духовное развитие общества, а наиболее важными периодами суфийского учения в духовном развитии общества, понимании человеческой идентичности являются 13 и 14 века, когда Шейх Сухраварди (ученый, основавший «Ишрак Хикмат в исламской философии Шейх Шахабuddin Сухраварди родился в 549 году хиджры в деревне Сухравард, расположенной недалеко от Зенджана), такие мыслители, как Наджмуддин Кубро, поэты, такие как Фаридуддин Аттар, Ахмед Яссави, Джалалуддин Руми расширили сферу суфийского знания и обогатили его с философией и мудростью.

Хорошо образованные сохранили мир духовного развития. Быть совершенным человеком – одно из самых понятий восточной философии, выражающее понимание отношения членов общества друг к другу и того, как они выполняют свои обязанности перед обществом.

Французский востоковед Терри Зарконе пишет по этому поводу следующее: «Суфии, в отличие от большинства ученых, с пониманием относятся к идеям обновления, и готовы к тяжелой работе, не смешивая обязательства, налагаемые исламскими верованиями, с принципами современной цивилизации» [Зарконе. 1998].

Положительную роль в развитии литературы и науки в этот период сыграл суфизм, когда Амир Темур и Тимуриды взяли на себя продолжение научной и практической деятельности мыслителей эпохи Возрождения, упомянутых выше великих ученых-мистиков и поэтов, и получил широкое признание широкой публикой. «Суфизм, в том числе и накшбандизм, был идеологическим фактором подъема культуры в период Амира Темура и Тимуридов (Мирзо Улугбека). духовной жизни страны, но и во внутривосточной жизни государства путем частого отстаивания интересов культурных людей и развития духовности» [Хайруллаев и др. 1996], сказал академик М. Если это подчеркивает М. Хайруллаева, значение суфизма в развитии духовно-религиозной мысли этого периода Эльяр

Каримов подчеркивает следующим образом: во-первых, в укреплении общественно-политического и экономического положения, и их деятельность переместилась в высшую сферу жизни общества. жизнь; во-вторых, суфизм появился как предвестник прекрасного возрождения, а расцвет среднеазиатского суфизма при династии Тимуридов, в 15 веке. [Каримов. 1996].

В целом, это приводит к тому, что анализ суфизма является хорошим способом исследования того, что Мирзо Улугбек внес большой вклад в наше духовное наследие, а также великий член династии Тимуридов, мудрость религиозных и научных знаний является важной темой освежения. .

М.М. Хайруллаев и М. Хакбердиев утверждают: «Как наука логика имеет универсальный характер, так и процесс обоснования мнения является неотъемлемым признаком общего мышления, независимо от того, кто это, в какое время и в каком обществе находится». Поскольку это продукт человеческого мышления, на процесс рассуждения могут влиять различные факторы.

Потому что человек, живущий в определенном обществе, в духовно-идеологической, национальной среде, в социальном состоянии психического состояния. [Хайруллаев.1993] С этой точки зрения имеется достаточно свидетельств из новейших источников и научных трудов, чтобы определить отношение великого мыслителя, ученого-энциклопедиста Мирзо Улугбека к учению суфиев, достигших своего расцвета в XIV в. -XV вв. Для того чтобы быть уверенным в истинности высказываемых мнений, надо прежде всего соблюдать закон формальной логики, гласящий, что всякое истинное мнение должно иметь в процессе мышления достаточное основание, т. е. всякое мнение, суждение, и суждение должно быть оправдано с помощью доказанного мнения. Именно поэтому для получения новых сведений по интересующей нас проблеме мы обращаемся к источникам, относящимся к тимуридскому периоду, рукописной и печатной литературе.

Если признать, что суфизм возник в основе ислама и развил свое учение на основе Корана и хадисов, то на него также оказали влияние доисламские верования и другие религии. Хусейн Вайз Кошифи, великий мыслитель Востока, основатель ордена молодежи, пишет следующую информативную: «...оказывается, что слово «мистицизм» существовало еще до ислама. Оно упоминается в книге «Унсул Суфия» о том, что первым человеком, получившим имя "Суфия", был Шис, один из детей Адама. Его одежда сделана из зеленой шерсти (шерсть - шерстяная ткань) и после Шиса тех, кто носит шерстяную одежду, называют "суфиями" [Турар. 1993].

В первой половине 20 века великий шейх Моваруннахра Махдуми Азам проповедовал и советовал среди кочевых населения на турецком языке «Улус коче байыр (байгир), дервиш киче байир», а среди городских и сельских жителей персидскими словами, « истинный суфизм чистит хлопок» [Велиди. 1947].

Что касается происхождения слова «суфий», Осман Турар, преподающий суфизм в университете Арзирум в Турции, приводит следующее свидетельство своего соотечественника Исмаила Хакика Измирли, что оно происходит от греческого слова «софос-софия», что означает «мудрость». (философия), до перевода греческих произведений и распространения философии среди мусульман. Абу Хашим умер в 150 г. хиджры - 767 г. н.э. [Турар. 1999]. Вышеупомянутый источник приводит следующий аргумент, основанный на произведении Абдурахмана Джамии «Нафхотуль-унс»: первым человеком, известным под прозвищем «Суфий», был Абу Хашим Ас Суфи из Куфы (умер в 767 г.). В истории суфизма первая такья-ханака была построена христианином эмиром для Абу Хашима в городе Рамла [Турар. 1999].

Усман Турар продолжает свое мнение и пишет, что слово суфий происходит от слова «суф», означающего шерсть, шерсть, а ношение одежды из бесцветной грубой шерсти в те времена было признаком покаяния в грехах.

Согласно сообщению Анаса ибн Малика, «Пророк, мир ему и благословение, обычно откликался на зов человека, ездил верхом на осле и носил шерстяную одежду. Суфии также носили шерстяную одежду, так как это была одежда пророков. и символ тавазе (скромности). Белая шерстяная одежда была принята суфиями в качестве официальной одежды с 3-го века хиджры [Турар. 1999].

Проповедник Кошифи пишет, что первым человеком, который носил хирку, был Хазрат Адам, и цель и первоначальное значение ее заключаются в том, что хирка - это знакомое одеяние. И в то же время в описании цветов кирджи суфиев пишут следующее, что цвета ее разные, и каждый из них относится к определенному состоянию: «Если спросят, к какой категории относится белый цвет, ответьте, что белый цвет - цвет дня, и язык - язык ясной общины, и грудь у них мощная, чистая от грязи и пыли. пример дня всем прояснит».

При этом автор описывает хирки зеленого и землистого цвета, описывая их в описании ткани, из которой они изготовлены, первая - из шерсти, вторая - из хлопка, третья - из войлока, а четвертый из кожи. он пишет о нравах поминовения духов прошлых предков и предков вместе с введением условий ношения, отправления такбира и анализа. Известный турецкий ученый-мистик Усман Турар заявил, что хирка — это одежда, которую носят люди тариката, а традиция ношения хирки восходит к Хазрату Ибрагиму.

Рассказывают, что когда Хазрат Ибрагим был брошен в огонь, Гавриил принес с небес шелковую рубашку и надел ее на него, и Хазрат Ибрагим спасся от огня благодаря его благословению. Он сохранил эту рубашку и носил ее, когда хотел принести жертву Хазрату Исмаилу. Эта рубашка пришла от Хазрата Исмаила к Хазрату Исхаку, от него к Якубу, а от него к Юсуфу, мир ему. Секрет этой одежды суфии видели в хирке и придавали ей духовное значение», — пишет он [Кошифий. 1999].

Анализ вышеупомянутых источников показывает, что вместе с различными цветами туники или хирки следует, что ткани этих одежд сделаны из шерсти, хлопка, кожи и шелка. Поэтому в каждый период люди религиозного ордена носили одежду разных цветов, сотканную из вышеперечисленных тканей, с точки зрения необходимости идти с намерением убить эго и реформировать душу.

Мирзо Улугбек, мудрец мирских и религиозных знаний из династии Тимуридов, подобно своему деду Амиру Темуру и другим мыслителям своего времени, следовал законам Ислама и развивал его в своей династии. Об этом мы можем узнать из отношения Улугбека к хуруфизму, который является шиитской сектой и выступает против суннитской позиции.

В литературе, изданной в более поздние времена, отражено, что Мирзо Улугбек находился в определенных отношениях с религиозно-философскими учениями Хуруфи.

Говорят, что он возник как протест против Тимуридов. На самом деле корень хуруфия связан с учениями с древних времен. Нашу цель интересуют причины, по которым Мирза Улугбек связался с хуруфитами и защитил их.

На наш взгляд, борьба против монгольского произвола и, во-вторых, то, что Иран до этого времени не был самостоятельной страной, а одна его сторона, то есть государство джаланров, находилась в Азербайджане. и он заинтригован этой идеей.

В доказательство этого мнения азербайджанский ученый и философ З.А. Кулизада в своем трактате «Мировоззрение Касими Анвара» под знаменем хуруфийского ислама, является средством борьбы для народов, не связанных с исламом, а также его влияние в философской поэзии Моваруннахра на пропаганду мусульманского Востока, основанную по историческим источникам и рукописям. доказывает это. Например, историческими рукописями о распространении хуруфии в Самарканде являются «Хусейн аль-Йори», «Нома аз писари Фазлуллах Хуруфи» и «Шамсиддин Мухаммад ибн

Абдуррахман Сахави, Шамсиддин Мухаммад, Аль-зуу-аль-Ломеу махли аль-Карни аль-Тасим, Аль-Каир" на основании отчетов.

В одном из таких трактатов, написанном Шамсиддином Мухаммадом ибн Абдуррахманом Сахави, «Яркие огни среди людей в IX веке», описываются заслуги Фазлуллаха Насими, основателя хуруфий, на 174 страницах в Самарканде, в руках было оружие люди слова, то есть священники и светские правители

отмечается, что правящие классы обсуждали с ним пути увеличения влияния ислама в народе и одновременно укрепления своей власти, а в дальнейшем эти идеи обсуждались и отстаивались его детьми с народом Калама. В то же время отношении Мирзо Улугбека к этому философскому течению было оценено его отцом Шахрухом, и мнение о том, что эта секта отравляет не только Мирзо Улугбека, но и чигатайцев и самаркандцев вместе с неарабского народа [Турар.1999].

Потому что, когда в Герате был убит Шахрух, отец Мирзы Улугбека, их представители были отправлены в Самарканд к Улугбеку, утверждая, что убийство было совершено хуруфитами.

Мирза Улугбек обещает своему отцу собрать в Самарканде богословов и ученых для проверки правильности учения Хуруфий с точки зрения Ислама. Мабодо заявляет, что если это учение противоречит исламу, то он собственноручно казнит еретиков [Куллизаде. 1976].

Великий ученый, обладающий глубоким знанием истории науки и религии, провел совет с религиозными и светскими учеными своего медресе и пришел к выводу, что это религиозно-философское учение, т.е.

Хуруфизм не имеет антиисламских идей. Шахрух, очень расстроенный этим, пришел к мнению, что эта теория пагубно действовала не только на Мирзу Улугбека, но и на самаркандцев и отравила их сознание. Из того периода известно, что Хуруфия оказала значительное влияние на учение суфиев Мовароуннахра до мутазилия.

ЛИТЕРАТУРА

1. Therry Zarcon. "Kufi movement: Qearch for Identity and Iclamic Requrgence", "Central Akia Emerging New Order, Har-Anand Publicationk". Нью-Дехли, 1995 йил, 65-бет; Фахриддин Низом. Янгиланиш анъанаси. – «Тафаккур» журналы, 3 – 1998 й. 7-бет.
2. Хайруллаев М.М. Амир Темур ва темурийлар даврида маданият гуллаб яшнашининг асосий омиллари. – «Амир Темур ва унинг жахон тарихидаги ўрни» мавзуидаги Халқаро конференция тезислари. Тошкент: «Ўзбекистон», 1996 й., 52-бет.
3. Каримов Э. Темур ва темурийлар даврида маънавий, диний тафаккурнинг ривожланиши. - «Амир Темур ва унинг жахон тарихидаги ўрни» мавзуидаги халқаро конференция тезислари. Тошкент: «Ўзбекистон», 1996й. 76-бет.
4. Хайруллаев М.М., М.Ҳақбердиев. Мантик. Тошкент: «Ўқитувчи», 1993й. 261-бет.
5. Усмон Турар Тасаввуф тарихи. Турк тилидан Нодирхон Дадахон таржимаси. Тошкент: «Истиклол», 1999 й. 22-бет.
6. Zeki Velidi Togan. Bugunki Türkili (Türkistan) ve yakim tarihi. (Бугунги Туркистон ва унинг якин тарихи) Istanbul. 1947. Cilt 1: Bati ve Kuzey Türkistan. XII, 696 s., 2 harita, 1 var. ilave. - (Türkili (Türkistan) Bilik. № 2). S.113.
7. Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. Турк тилидан Нодирхон Дадахон таржимаси. Тошкент: «Истиклол», 1999 й. 49-бет.
8. Ўша асар. 22-бет.
9. Усмон Турар Тасаввуф тарихи. «Истиклол», 1999, 101-бет.
10. Хусайн Воиз Кошифий. Фугувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тарикати. Форс-тожик тилидан Н.Комилов таржимаси. Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1994, 43-45 бетлар.
11. Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. Тошкент: «Истиклол», 1999, 101-бет. Кули-Заде З. Мировоззрение Касима Анвара. Баку: Элм. 1976. с. 19.
12. Кули-Заде З. Мировоззрение Касима Анвара. Баку: Элм. 1976. с. 23.



Nafisa XUJAYAROVA,
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, PhD
E-mail: xujayarova@inbox.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor M.Shomirzayev taqrizi asosida

INKLYUZIYA GLOBAL TA'LIM TIZIMINING ASOSIY YO'NALISHLARIDAN BIRI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada inklyuziv ta'limning rivojlanishida qator rivojlanayotgan davlatlarda xalqaro donor tashkilotlar, inklyuziv ta'lim bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirgan, ilmiy va nazariy asoslari hamda inklyuziv ta'limni huquqiy darajada mustahkamlash bo'yicha tamoyillari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, inklyuziya, integratsiya, ta'lim siyosati, pedagogika va psixologiya, sotsiologiya va ta'lim menejmenti, strategik yondashuv.

ИНКЛЮЗИВНОСТЬ КАК ОДНО ИЗ ОСНОВНЫХ НАПРАВЛЕНИЙ ГЛОБАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В статье изложены научные и теоретические основы развития инклюзивного образования, а также принципы укрепления инклюзивного образования на правовом уровне международными донорскими организациями в ряде развивающихся стран, которые провели теоретические и практические исследования инклюзивного образования.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, инклюзивность, интеграция, образовательная политика, педагогика и психология, социология и управление образованием, стратегический подход.

INCLUSION AS ONE OF THE MAIN AREAS OF THE GLOBAL EDUCATION SYSTEM

Annotation

The article outlines international donor organizations in a number of developing countries in the development of inclusive education, carried out theoretical and applied research on inclusive education, its scientific and theoretical foundations and principles for strengthening inclusive education at the legal level.

Key words: Inclusive education, inclusion, integration, educational policy, pedagogy and psychology, sociology and educational management, strategic approach.

Kirish. Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo, imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida "Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'lim loyihasi" asosida ish yuritib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ huquqiy xujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"[1]gi qarori va boshqa xujjatlarda kadrlar masalasi, ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, jarayonni metodik va didaktik ta'minlash vazifalari belgilab berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'nggi yillar mobaynida inklyuziv ta'lim ko'plab davlatlarda umumiy tan olingan ta'lim paradigmasiga aylangan. Uning rasmiy huquqiy asoslari qabul qilingan Salamanca Deklaratsiyasi orqali mustahkamlangan bo'lib, ushbu hujjat: adolatli ta'lim tizimini yaratish; inklyuziv jamiyat tamoyillarini shakllantirish; har bir bolaning teng huquqli ta'lim olishini kafolatlash tamoyillarini ilgari surgan.

Biroq, inklyuziv ta'lim joriy etilganiga qaramay, ushbu pedagogik fenomen hanuzgacha qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Ko'plab xorijiy tadqiqotchilar ta'kidlaydiki, butun pedagogika tarixida hech bir masala inklyuziya kabi uzoq va keng ko'lamli bahslarni keltirib chiqarmagan [2].

Inklyuziv ta'lim tushunchasining mohiyati bo'yicha ilmiy qarashlar turlicha bo'lib, uning mazmuni va ta'rifiga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Tadqiqotchilar tomonidan ushbu konsepsiyani talqin qilishda bir necha asosiy nazariy yondashuv shakllangan.

1. Inklyuziv ta'lim – umumiy ta'lim muhitida nogiron bolalarni to'laqonli ishtirokini ta'minlash.

2. Inklyuziv ta'lim – ta'lim olish uchun maxsus sharoit yaratish jarayoni. Boshqa bir guruh tadqiqotchilar inklyuziya tushunchasini maxsus pedagogik xizmatlar va yordam ko'rsatish tizimi bilan bog'liq jarayon sifatida izohlashadi.

"Inklyuziya – bu nogiron bolalarni o'z yashash joylarida joylashgan umumta'lim maktablarida ta'lim olish jarayoni bo'lib, ularga o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olgan holda maxsus pedagogik yordam ko'rsatiladi"[3].

Inklyuziya – ijtimoiy-falsafiy tamoyil sifatida. "Inklyuziya – bu jamiyat va ta'lim tizimining har bir bolaning o'ziga xosligini tan olishga asoslangan falsafiy konsepsiyadir".

"Inklyuziyani umumiy ta'lim tizimiga qo'shimcha element sifatida emas, balki ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida ko'rish lozim. Aks holda, inklyuziv ta'limni samarali joriy etish imkonsiz bo'ladi"[4].

Nemis olimi A. Sander inklyuziv pedagogikani integratsion pedagogikaning keyingi bosqichi deb ta'riflaydi. Unga ko'ra, inklyuziya asosan integratsiya uchun yetarli huquqiy, ilmiy va ijtimoiy asosga ega bo'lgan davlatlarda rivojlanishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Lingvistik nuqtai nazardan, "integration" ingliz tilida "bitta yaxlit tizimga qo'shilish" ma'nosini bildiradi. "Inclusion" esa "qo'shish, kiritish" ma'nosini anglatib, transliteratsiya qilingan holda "inklyuziya" tushunchasini hosil qiladi. Ushbu atama quyidagi so'zlar bilan bog'liq:

"include" – o'z ichiga olmoq,

"including" – qo'shib olgan holda,

"inclusive" – barcha uchun ochiq, istisnosiz [5].

Demak, "integratsiya" va "inklyuziya" tushunchalari mohiyat e'tibori bilan farqlanadi: Integratsiya – nogiron bolalarning umumta'lim tizimiga qo'shilish jarayoni; Inklyuziya – barcha bolalar uchun boshlang'ichdan ochiq, teng imkoniyatlar yaratish tamoyiliga asoslangan ta'lim modeli.

Inklyuziv ta'limning rivojlanishidagi asosiy muammo uni amaliyotda to'liq amalga oshirish masalasidir. Bugungi kunga kelib, inklyuziya quyidagi sohalarida keng tadqiq qilingan:

Falsafa – inklyuziv ta'lim tenglik va huquqiy adolat tamoyillariga asoslanganligini ta'kidlaydi. Ta'lim siyosati – inklyuziya global ta'lim tizimining asosiy yo'nalishlaridan biri

sifatida belgilangan. Pedagogika va psixologiya – o'quv jarayonini ehtiyojlariga moslashtirish uchun turli metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan. Sotsiologiya va ta'lim menejmenti – inklyuziya jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida ko'rib chiqilmoqda.

Bu savollarga aniq amaliy javoblar yo'qligi pedagoglar va ta'lim tizimi uchun asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Inklyuziv ta'lim global miqyosda muhim masala sifatida e'tirof etilgan.

2006-yilda qabul qilingan BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi inklyuziv ta'limni davlat darajasida qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlagan. Ushbu xalqaro hujjat: har bir bolaning ta'lim olish huquqini himoya qiladi; nogiron bolalar uchun maxsus sharoitlar yaratishni majburiy qiladi; hukumatlar tomonidan ta'lim siyosatini inklyuziv tamoyillar asosida rivojlantirishni talab qiladi. Ushbu konvensiya ko'plab davlatlar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirishda asosiy turtki bo'ldi va milliy ta'lim siyosatlarida yangi qonunchilik normalarini shakllantirishga xizmat qildi.

Inklyuziv ta'lim ko'plab davlatlarda ta'lim islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri deb e'lon qilingan. Biroq, ba'zi mamlakatlarning ta'lim qonunchiligida inklyuziyani cheklovchi omillar mavjud.

Inklyuziv ta'limni amaliyotga tatbiq etishda muammolar yuzaga kelishining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

Antidiskriminatsion siyosatning zaifligi – ayrim mamlakatlarda inklyuziya tushunchasi to'liq qabul qilinmagan va qo'llab-quvvatlanmaydi.

Inklyuziyaning maqsadi va mohiyatining noto'g'ri talqin qilinishi – ba'zi davlatlarda inklyuziv ta'lim faqat nogiron bolalar uchun mo'ljallangan deb qaraladi.

Maxsus va umumta'lim tizimlarining uzviy integratsiyasidagi qiyinchiliklar – inklyuziyaning to'liq amalga oshirilishi uchun maxsus ta'lim va umumiy ta'lim tizimlari o'zaro uyg'unlashishi lozim.

Davlatning faol aralashuviga ehtiyoj – inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun hukumat tomonidan aniq huquqiy asoslar va iqtisodiy resurslar ajratilishi kerak.

Bu omillar inklyuziyaning qator mamlakatlarda muvaffaqiyatli joriy etilishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, xalqaro tajribani o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Yaponiya inklyuziv ta'limni amalga oshirishda umumiy va maxsus ta'lim tizimlarining integratsiyalashgan modelidan foydalanmoqda.

Avstraliya hukumati inklyuziv ta'limni mamlakat ta'lim tizimining asosiy yo'nalishi sifatida mustahkamlagan. Mamlakatda "Inclusive Education Policy Statement" (Inklyuziv ta'lim siyosati to'g'risida bayonot) qabul qilingan. Melburn deklaratsiyasi ("Obrazovanie molodeji") – Avstraliya hukumatining barcha ta'lim idoralari inklyuziv ta'lim bo'yicha hamkorlikka chaqiruvchi hujjati hisoblanadi. Hukumat inklyuziv ta'lim siyosatini yagona tizimga keltirish va har bir ta'lim muassasasida amalga oshirish uchun aniq strategiyalar ishlab chiqmoqda.

Bu yondashuv Avstraliyada inklyuziv ta'limning muvaffaqiyatli rivojlanishiga xizmat qilmoqda, chunki u faqat pedagoglarni emas, balki ta'lim tizimining barcha ishtirokchilarini inklyuziv jarayonga jalb qilishga yo'naltirilgan.

Germaniyada inklyuziv ta'lim masalasi davlat siyosati darajasida nisbatan kechroq ko'rib chiqila boshlagan bo'lsada, hozirgi kunda mamlakat hukumati "Milliy harakatlar rejasini" (Nationaler Aktionsplan) deb nomlangan keng qamrovli dastur asosida inklyuziyani ta'lim tizimining barcha bosqichlariga tatbiq etishga kirishgan.

Tahlil va natijalar. Mazkur loyihaning asosiy maqsadi:

ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvni rivojlantirish;

Nogiron bolalar uchun ta'limni yanada qulay va moslashtirilgan shaklda tashkil etish; ushbu strategik yondashuv ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va inklyuziyani jamiyatda qabul qilinishiga erishish yo'nalishlariga asoslangan [6].

UNESCOning 2014–2021-yillar uchun global ta'lim strategiyasi inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha quyidagi

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi 638- son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga

asosiy tamoyillarni belgilaydi: ta'lim sifatini oshirish va inklyuziv yondashuvni uyg'un ravishda rivojlantirish; har bir bolaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini moslashtirish; mamlakatlarning milliy va mintaqaviy xususiyatlarini inobatga olgan holda inklyuziv ta'lim modelini ishlab chiqish. YUNESCO strategiyasining innovatsion jihati shundaki, inklyuziya ta'lim tizimining yangilanishi uchun asosiy talab sifatida ko'rilmogda.

Inklyuziya nafaqat huquqiy-me'yoriy tamoyillar asosida amalga oshirilishi lozim, balki u demokratik jamiyatning asosiy qadriyatlaridan biriga aylanishi kerak.

Britaniyalik taniqli pedagog P. Westwood inklyuziv ta'lim bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirgan[7]. U Buyuk Britaniyada inklyuziv ta'limni huquqiy darajada mustahkamlash bo'yicha quyidagi tamoyillarni ilgari suradi: har bir pedagog inklyuziv sinfda ishlashga tayyor bo'lishi lozim; har bir maktab inklyuziv muhit yaratish uchun barcha zarur sharoitlarga ega bo'lishi kerak; ta'lim ehtiyojlari turlicha bo'lgan bolalarni birgalikda o'qitish jamiyatdagi inklyuziv madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Britaniya modelining ustunligi shundaki, bu mamlakatda inklyuziv ta'limning huquqiy va amaliy jihatlari pedagogik faoliyatning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Demak dunyoning turli mamlakatlarida "maxsus ta'lim ehtiyojlari" tushunchasi turlicha talqin qilinadi[8]:

Germaniya, Gretsiya, Vengriya, Islandiya, Niderlandiya, Ispaniya va AQSh – bu davlatlarda inklyuziv ta'lim asosan nogiron bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning umumta'lim muhitiga qo'shilishi ustuvor vazifa hisoblanadi.

Chexiya, Estoniya, Finlyandiya, Latviya, Norvegiya, Portugaliya va Buyuk Britaniya – bu mamlakatlarda inklyuziya nogiron bolalar bilan bir qatorda kam ta'minlangan oilalar farzandlari va iqtidorli bolalarni ham qamrab oladi.

Avstraliya va Yangi Zelandiya – bu davlatlarda inklyuziv ta'lim qo'shimcha pedagogik yordamga muhtoj barcha bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, individual yondashuv tamoyiliga asoslanadi.

Shvetsiya – bu mamlakatda inklyuziv ta'lim tizimi ehtiyojmand bolalar uchun maxsus sinflar tashkil etish orqali amalga oshiriladi, bu esa bolalarning individual ta'lim jarayoniga moslashuvini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Xulosa va takliflar. O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishda xorijiy tajribadan foydalanish quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratishni talab qiladi. O'zbekistonda inklyuziv ta'limni takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim: inklyuziv ta'limning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati bo'yicha keng targ'ibot ishlarini olib borish; imkoiyati cheklangan bolalar ota-onalari va sog'lom bolalar ota-onalari uchun maxsus ma'rifiy dasturlar ishlab chiqish; majburiy malaka oshirish dasturlarini joriy qilish; o'qituvchilarning inklyuziv madaniyatini shakllantirish bo'yicha trening va seminarlarni tashkil etish; ota-onalarni inklyuziv ta'lim jarayoniga jalb qilish; ota-onalar bilan hamkorlikda imkoiyati cheklangan bolalar uchun maxsus ta'lim dasturlarini ishlab chiqish; oilalarni pedagogik jarayonga jalb qilish bo'yicha maxsus dasturlarni yo'lga qo'yish; bolalarda psixologik, pedagogik va fiziologik xususiyatlarni erta aniqlash; maxsus ta'lim dasturlarini erta yoshdan joriy qilish; pedagoglar, psixologlar, logopedlar va boshqa mutaxassislarining tizimli hamkorligini yo'lga qo'yish; maktab va ijtimoiy xizmatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim nafaqat pedagogik fenomen, balki jamiyatning umumiy ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. U to'liq samara berishi va keng qabul qilinishi uchun jamiyatda inklyuziya tamoyillarini chuqur shakllantirish zarur[9]. Buning uchun quyidagi asosiy shartlar bajarilishi lozim: inklyuziv qadriyatlarini bolalikdan shakllantirish; nogiron va maxsus ehtiyojlanga ega bolalarni ijtimoiy qabul qilish darajasini oshirish; pedagoglarning inklyuziv madaniyatga moslashuvi va metodik tayyorgarligini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir[10].

- ta'lim berishga oid normativ hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori;
2. Beacham, N., Rouse, M. Student teachers' attitudes and beliefs about inclusion in inclusive practices / N. Beacham, M. Rouse // *Journal of Research in Special Educational Needs*. - 2012. - Vol. 12. - P.3-11.
 3. Пихтовников Г.Л. Творческий потенциал молодого рабочего// Состояние и пути реализации в производственном коллективе: Дис... канд. филос. наук. -М., 1989. -175 с.
 4. Матюшкин А.М. Загадки одаренности: проблемы практической диагностики. - М.: Шк.-Пресс, 1993. - 127 с.
 5. Берне Р. Развитие Я-концепции и воспитания. - М.: Прогресс, 1986. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. - М.: Педагогика, 1989.-192 с
 6. Niemeyer, M. The rights to inclusive education in Germany/ M. Niemeyer // *The Irish Community Development Law*. – 2014. - Vol. 3(1). – P49-64.
 7. Weswood, P. Commonsense methods for children with special needs. - Routledge, 2007. - 542p.
 8. Sultanmurodovna, K. N., & Zebuniso, Q. (2025). Pedagogical Theories on the Education of Children with Disabilities. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 39, 147-149.
 9. Sultanmurodovna, X. N. (2023). Technology for the development of professional competence based on a creative approach. *Confrencea*, 3(03), 28-31.
 10. Begmatova Sevara Nematovna "The role and significance of specific competence types in the training of future teachers in modern education" ISBN 978-1-64945-234-4 DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.7527949>. CUTTING EDGE-SCIENCE 2022 Shawnee, USA November December.



UDK: 1(091):821.512.133.09

Rahmatullo XAIDAROV,
Andijon davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: tillo.r@mail.ru

PhD Sh.Amirxo 'javev taqrizi asosida

ALISHER NAVOIYNING KOMIL INSON KONSEPSIYASI VA YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIIY-MADANIY HAYOT UYG‘UNLIGI

Аннотация

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning komil inson haqidagi qarashlarining konseptlari, Navoiyning “Komil inson konsepsiyasi” va Yangi O‘zbekiston sharoitida komil insonni tarbiyalash masalasidagi ijtimoiy-madaniy munosabatlar tizimli tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Inson, kamolot, konsepsiya, konsept, din, falsafa, Islom, muhit, jamiyat.

КОНЦЕПЦИЯ АЛИШЕРА НАОИ О СОВЕРШЕННОМ ЧЕЛОВЕКЕ И ГАРМОНИИ ДУХОВНОЙ И КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье систематически анализируются концепции взглядов Алишера Навои на совершенного человека, «Концепция идеального человека» Навои и социокультурные отношения в проблеме воспитания совершенного человека в условиях Нового Узбекистана.

Ключевые слова: Человек, совершенство, концепция, концепт, религия, философия, Ислам, окружающая среда, общество.

ALISHER NAVOIY'S CONCEPTION OF A PERFECT HUMAN AND THE HARMONY OF SPIRITUAL-CULTURAL LIFE IN THE NEW UZBEKISTAN

Annotation

This article systematically analyzes the concepts of Alisher Navoi's views on the perfect person, Navoi's "Concept of the Ideal Man" and sociocultural relations in the problem of raising a perfect person in the conditions of New Uzbekistan.

Key words: Man, perfection, concept, religion, philosophy, Islam, environment, society.

Kirish. Dunyodagi bugungi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy globallashuv sharoitida inson va uning hayoti, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy dunyosi va axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan turli ijtimoiy-madaniy omillar uchraib turibdi. Mazkur destruktiv omillarni bartaraf qilishda milliy, diniy-falsafiy va umuminsoniy qadriyat bo'lgan ilmiy meroslardan unumli foydalanish, jahon falsafiy tafakkuri tarixida muhim o'rin tutgan mutafakkirlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari, bugungi ijtimoiy mazmundagi muammolarga yechim sifatida ma'naviy va nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ayni shu ma'noda, jahon falsafasi tarixida muhim o'rin tutgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy falsafiy merosini o'rganish, mutafakkirning inson kamoloti borasidagi qarashlari muhim nazariy va amaliy ahamiyatga molik masalalardandir.

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asarida inson konsepsiyasini o'rganish uchun a) teologik ta'limotlarni o'rganish; b) insonning paydo bo'lishi va kamolot sari intilishi; v) inson borliqda ideallashuvi masalasiga falsafiy izoh berishni ma'qul topdik. Alisher Navoiyning falsafiy qarashlarida insonni bilish shakli va metodlari (gnoseologiya), borliq dunyo manzarasi (ontologiya), xulq-atvor me'yorlari, prinsiplari, etika kabi masalalar teologik konsept asosida bayon etilgan. Markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekistonda navoiyshunoslik maktablari faoliyat yuritayotgan bo'lsa-da, Navoiyning inson qanday yashashi kerak?, ijtimoiy hayot me'yorlariga qanday amal qilishi darkor?, inson tabiat bilan qanday munosabatda bo'lishi, insonning moddiy va ma'naviy yaratuvchanligi kabi masalalar "Hayrat-ul abror" asarining namunasida o'rganilmaganligi tadqiqotimizning dolzarbligini ko'rsatishi bilan birga, ijtimoiy zarurat va ma'naviy buyurtma ekanligini ham ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Alisher Navoiyning inson konsepsiyasida strukturaviy jihatdan borliq haqidagi ta'limot, ya'ni ontologiya - insonga doir bo'lgan nazariyalar, xususan, tafakkur tarzi haqidagi ta'limotlar - "inson va inson", "inson va ijtimoiy guruh", "inson va tabiat", "inson va muhit" munosabatlarining aloqadorlikda rivojlanishi - inson o'zi, atrof-dagilar, muhiti darajasida kechayotgan jarayonlarni bilishi

to'rt ustun tarzida o'z ifodasini topgan. Bunda insonning tabiat va jamiyatda mavjud nomaqbul xulq-atvorni isloh qilishi asosiy maqsad qilib olingan. Agarda ratsional bosqichda inson tafakkuri vositasida jarayonlarni xissiy bilish bosqichiga nisbatan xis etish, idroklash, tafakkur qilish kabilar orqali mohiyatini chuqur anglab olsa, ma'naviy faoliyatning mahsuldorligi ta'minlanadi. Shuning uchun bo'lsa kerakki, bunda giposteziyalashuv hodisasi vujudga kelib, munosabatlar tomonlarning ayrim xususiyatlarini fikran mustaqil mohiyatiga aylantirish, ularga ob'yektiv xossalar berish jarayoni kuzatiladiki, buni ma'naviy yaratuvchanlik deb ko'rsatsak bo'ladi. Jumladan, "Inson va tabiat - Inson va tarix(din) - Inson va jamoa - Inson va muhit" munosabatlar majmuasida kamolotga erishish uchun asos sanaladigan xossa ifodalangan.

Kamolotga erishishda mazkur kompendium yaratuvchi inson faoliyatini ta'minlash uchun amal qilishi Navoiyning falsafiy-teologik yondashuvida oliy idealga erishuvchi yo'l sifatida belgilangan. Komil insonni tarbiyalash masalasi bo'yicha yaratilgan falsafiy ta'limotlarda asosiy e'tibor insonning o'ziga qaratiladi. Toki insonning kamolotga intilishi ehtiyoj sifatida namoyon etilmasa, mazmundorlik ta'minlanmagan bo'ladi. Bu immanent "Men"dek ko'rinishga ega bo'lib, insonning munosabatlar tizimida o'zini ifoda etishi rag'batlanuvchi kuchga ega bo'lishni ta'minlaydi. Navoiy kamolotga erishishda e'tiqodning shakllanganligiga alohida e'tibor qaratadi. Irratsional diniy bilim ratsional ilmiy bilimdan aynan e'tiqod tufayli amal qilishini ta'kidlab, F.D.Shleyermaxer diniy bilim ilmiy ma'noda ilmiylikka da'vogarmas, chunki teologiyada (ilohiyotda) o'zlashtirish va o'zlashtirganga amal qilish e'tiqod va qayg'urish bilan bog'liqdir [1].

Tadqiqot metodologiyasi. "Inson va jamiyat", "Inson va muhit" bog'liqligi komillikni ta'minlashda muhim funksional ahamiyat kasb etib, jamiyatning ma'naviy hayoti insonlarning qadriyatlarini ifodalanishi, ma'naviy madaniyatining ko'rinishi tarzida amal qilinishini nazarda tutadi. Navoiy Islomning asosiy kategoriyalaridan foydalanib, kamolotni me'yoriy rivojlanishini belgilab o'tgan. Bu o'rinda, T.Malikning "Odamiylik mulki" da

keltirilgan yondashuvi ham diniy-axloqiy va madaniylik jihatidan e'tiborlidir. Muallif asarda "Odamning kamoli faqat sog'liq va kuchdan iborat bo'lmay, balki jismonan, aql va axloq va insonning yuksalishidan iborat. Odamning jismi, aqli va axloqi turli kasallik va nuqsonlardan uzoq bo'lishi lozim",[2] dedi. Bu asnoda, P.Brajenas reallikda ifodalangan muammolarni badiiy ta'limotlar asosida yechimini topish insonning ichki resurslarini asosiy maqsad sari mobilashtirish deb hisoblaydi. Shu jihat bilan Navoiyning "Komil inson konsepsiyasi"ga e'tibor qaratsak, islomiy hikoyalar, islomiy rivoyat va islomiy hikmat "Inson-Tarix (Din)" tarzidagi munosabatlarda amal qilishini kuzatishimiz mumkin. Yangi O'zbekiston sharoitida komil insonni tarbiyalash masalasi ijtimoiy-madaniy munosabatlarning maqsadlaridan sanalishini nazarda tutsak, komil inson konsepsiyasining integrativ modelini yaratish masalasi dolzarblashadi. Bu holat o'z navbatida faylasuf, sotsiolog, pedagog olimlarni inson va jamiyat masalalari doirasida tadqiqotlar radiusini kengaytirib, o'lchov birligiga ega bo'lgan metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Tadqiqotimizning vazifalaridan kelib chiqqan holda "Siz o'zingizdagi qaysi jihatlarni boshqalarga ibrat deb bilasiz?" degan savolga respondentlarning 52% (416 nafar) kamtarlik va odam ajratmaslikni ko'rsatib o'tgan. Yana 34% (272 nafar) respondent sabrli va mehribonlikni alohida ko'rsatib o'tgan. Respondentlarning har ikkala guruh javobining asosida yuksak ma'naviy fazilatlar mujassamlashgan bo'lib, bunda ideal muhim rol o'ynaydi. Bu masala Sharq falsafasida alohida o'rin tutib, sharqona komil inson konsepsiyalarining tarkiblari sifatida ifodalangan[3]. Navoiyning "Komil inson konsepsiyasi"da komil inson diniy-falsafiy va ijtimoiy-falsafiy mazmunda ifodalangan bo'lib, har qanday vaziyatda insonning ma'naviy qiyofasi ulug'lanadi. Jumladan, qanoatga urg'u berib, "Kimki qanoatni o'ziga kasb qilgan bo'lsa, bilki, qanoat uni boy qiladi. Oltin, kumush bilan zebu ziynatlarni boylik deb bilma, balki haqiqiy boylik qanoat boyliklaridir. Qanoat oltini hech qachon yo'qolmaydi. Ana shu oltinni qo'lga kiritib, shu orqali boyishga harakat qil. Kulbada qanoat qilib o'ltirgan darvesh ta'magir podshohdan afzaldir"[4]. Uningcha, qanoat nomaqbul harakatlarni amalga oshirishdan saqlovchi sanalib, uni o'zi uchun kasb qilgan inson "Inson – inson", "Inson – jamiyat" kabi munosabatlarda o'zining nafsini nazorat qila oladi. Bu masalaga bugungi zamon nazari bilan yondashsak, aynan qanoatni o'zi uchun kasb qilmaganlar: noqonuniy yerfurushlik; pulni kalbakilashtirish; aldov yo'li bilan bironing mulkiga egalik qilish; o'g'irlik sodir etish kabi ijtimoiy ma'qullanmagan jinoyatlarga qo'l urishlari kuzatiladi.

Alisher Navoiy e'tiqod va iymonni ma'naviy jihatdan insonning rivojlanishini ta'minlash uchun asos deb hisoblab, iymonli va e'tiqodli kishi o'zining xulq-atvorini hamisha nazorat qila olishini ko'rsatib o'tgan. Jumladan, "Har qanday odamning boshiga taqdir bir g'am solsa-yu, lekin uning bir hamdard do'sti bo'lmasa, sirini saqlash uchun tikib qo'ygan lablaringni ipini so'ka olmasa, ko'nglida bor gaplarni bironing to'ka olmasa, dard uning tanasidan chiqqan shu'lani alangalatib, tutunini osmonning naryog'iga o'tkazib yuboradi. Balo tig'i ko'ksini yorib, dard uni bir nafasda halok qiladi. Osmon g'am shamoli bilan joniga urib, umrining xirmonini (ko'kka) sovuradi"[4].

Ijtimoiy falsafada jamiyatning ma'naviy hayoti tizim sifatida o'rganilib, jamiyatning boshqa sohalar bilan aloqadorligi regulativ funksiyani ta'minlash bilan belgilanadi. S.E.Krapivenskiy bu masalaga tarixiy-falsafiy tarzda yondashib, "Ma'naviy hayot genetik jihatdan jamiyatning boshqa sohalarining hayoti bilan bevosita aloqadordir"[5], deb ko'rsatib o'tadi. Navoiyning Komil inson konsepsiyasida ham jamiyatning hayotini ta'minlovchi va rivojlantiruvchi inson ekanligi belgilangan bo'lib, aynan "Inson-inson", "Inson-siyosiy hokimiyat", "Inson-ijtimoiy makon" kabi munosabatlar tarzida vujudga keladigan ziddiyatlar, qiyinchilik tarzida insondan o'rganish, moslashish, o'zgartirish va rivojlantirish kabilarini taqozo etadi. Tadqiqotchisi T.Norov Alisher Navoiyning gumanistik qarashlarini O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan uyg'unligini o'rganib, "...inson kamolotga yetishguncha juda ko'p azob uqubat, zaxmat chekishini ta'kidlaydi. Qisqa umr davomida odamlar kibru havoga, amal-mansab, o'rin-maqom talashib, umrning qanday o'tganini bilmay qoladilar, deydi

Navoiy"[6], deb ko'rsatgan. Masalani falsafiy mushohada etsak, jamiyat hayotidagi o'zgarish u yoki bu tarzda insonning zimmasida yangi ko'rinishdagi muammoni yuklaydi. Agarda insondagi ma'naviy asos mustahkam poydevorga ega bo'lsa, bu o'zgarishlarga moslashish oson kechadi. Shu sababli bo'lsa kerakki, Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror"da iymon, e'tiqod va ishonchga alohida urg'u berib, quyidagicha izohlaydi:

"Buki ko'ngul dersen erur bu yurak,

Ism ko'ngul birla anga mushtarak"[7].

Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar dinamikasining mohiyatiga e'tibor qaratsak, barcha bunyodkorlik inson kamolotini ta'minlashga qaratilganligini kuzatish mumkin. Bunda uy-joy bilan ta'minlash, sog'liqni saqlash, ta'lim-tarbiya berish, ijtimoiy yordam ko'rsatish, kambag'allikdan chiqarish, xususiy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish kabi masalalardan ko'rinib turibdiki, davlat siyosati darajasida ifodalanishini ijtimoiy davlatni barpo etishni nazarda tutmoqda. Navoiy esa inson kamolotini ta'minlash asosida nafaqat jamiyat taraqqiyotini, balki komil inson modelini dinamik ekanligini, u yoki bu ijobiy sifatlarini o'zlashtirish bilan ta'minlashga ishongan.

M.Muhiddinov "Hayrat ul-abror"dagi so'fiylik g'oyalari tadqiq qilib, "Navoiy insonni ikki asos – modda va ruhdan iborat deb, insonning qalbini Alloh ilmi, qudrati va nurining maxzani deb qaraganlar. Inson ana shu maxzanni kashf etishi, ruhini kamol toptirib, poklanib, foniylikka yetib, ilohiy olamga yetishishi kerak. Komil inson – ilohiy ilmlarni egallagan, qalbi nurli, har narsadan ogoh odam. Ammo bu yo'l bag'oyat mushkulliklar bilan, Alloh sari poklanib borish bilan amalga oshadi"[8], deydi. Bizningcha ham Navoiy merosida bunyodkorlikning zamirini ma'naviylik tashkil etib, inson tanasining jismoniy rivojlanishi (go'zalligi) va ruhiy faoliyati (psixik) tashkil etishi ta'kidlanadi. Bu masala jahon falsafa tarixida afsuski o'z ifodasini topmagan. Bugungacha Alisher Navoiyning Komil inson konsepsiyasi falsafiy ta'limotlar tizimida o'z aksini topmagan. Bizningcha, bu masalani bir nechta sabablari bor:

birinchidan, komil inson konsepsiyasining sharqona modellari va uning strukturasi bugunga qadar tizimlashtirilmagan; ikkinchidan, Navoiyning barcha ijod namunasi bilan ma'naviy inson va taqvodor inson konseptlari asosida komil inson konsepsiyasining falsafiy talqini bugungi davrning talab va ehtiyojlari asosida talqin etilmagan. Bunda axloqiy ong, axloqdagi umuminsoniylik masalalari ham alohida e'tiborga olinishi lozim. Chunki axloq Navoiyning qarashlari bo'yicha, jamiyat hayotini ta'minlashda muhim atribut sanalishi, ijtimoiy davlatdorchilikda esa, davlatning regulativ funksiyasi doirasida amalga oshiradigan muhim vazifa sanaladi. Ko'rinib turibdiki, jamiyatning ma'naviy ehtiyoji unda ifodalangan, aniqrog'i jamiyat ravnaqini ta'minlash jarayonida yuzaga kelgan muammoning ijtimoiy jabhasi bilan bog'liqdir. Navoiy ma'naviy inson va taqvodor inson kabi konseptlarni ayri holda tasvir etmagan bo'lsa-da, Haqqa erishish uchun inson qaysi sifatlarini o'zlashtirishi va qaysi xulq-atvorni bajarilishini tasvirlab bergani ijtimoiy ongni shakllantirishga qaratilganidir. Chunki jamiyatda ifodalanadigan ijtimoiy ong o'z funksiyasi doirasida inson kamolotini ham ta'minlash uchun mantiqiy jihatdan xizmat qila oladi[9].

Tahlil va natijalar. Y.Jumaboyev "O'rta Osiyo etikasi ocherklari" nomli asarida inson "... o'z burchini ado etish, dushman ustidan g'alaba qilish yo'lida qahramonlarcha o'z jonlaridan kechishga, har qanday mashaqqatlarga bardosh berishga, sevgi, muhabbatdan kechishga, o'z qabiladoshlarining or-nomusi uchun to oxirigacha kurashishga shay"[10] turganliklarini qayd etadi. Navoiy esa bu masalaning ildizini insonning siyratida ko'radi. Shu jumladan bo'lsa kerakki, "Mevali daraxtning shohi qancha meva bermasin, tergan kishi unga shuncha ko'p tosh otadi. Kon qancha ko'p pok gavhar bersa, konchi uning ko'ksini shuncha ko'p chok qiladi. Sham uying ichu tashini qancha yaxshi yoritasa, uy egasi uning boshini shuncha ko'p uzadi"[4]. Shu tarzda ma'naviyat xulq-atvorning mazmun va mohiyatini belgilovchi sanaladi. M.K.Mamardashvili "Как я понимаю философию" nomli asarida ijtimoiy borliq o'zida ichki element tarzida harakatlarning mazmunini ifodalaydi[11], deb tizimli aloqadorlikning amal qilishini ko'rsatib o'tgan. Navoiy

ham o'z zamonasida mavjud bo'lgan muammolarni ma'naviy inson va taqvodor inson konseptlarini ideallashtirish bilan tasvirlab bergan. Natijada ijtimoiy ongning shakllanishida bugun va kelajak tarzida vaqt oralig'ini makon va zamon tarzida tasvirlab bergan. Har qanday yaratuvchanlikning sub'yekti ham, ob'yekti ham inson sanalishini nazarda tutgan mutafakkir kamolot uchun ideal muhimligini anglab, Haq taoloni yaratuvchanlik va bunyodkorlik, barchasini bilguvchi va tartibga keltiruvchi tarzida idrok etib, Odam va Havoni yaratuvchisi va kamolotini ta'minlovchisi ekanligini aynan islomning asosiy manbasi Qur'oni karimda ko'rgan. Navoiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini o'tmish va bugun tarzida o'rgangan tadqiqotchilar ham bu masalani e'tirof etib, ma'naviy inson konseptidan ko'ra, taqvodor inson konseptini ustuvor qo'yishadi. Bu masalani "Hayotdan keyingi hayot" nomli asar muallifi Raymond Moudi rivojlanishda tashqi omillarning ta'sir darajasining sezilarli va sezilarli emas tarzida o'rganib, aynan idealga intilish keyingi hayotning mazmundorligini ta'minlovchi sanalishini ko'rsatib o'tgan[12].

Tadqiqotchi zarurat tarzida insonda ifodalanishi shart bo'lgan sifatlarni alohida belgilab o'tmagan bo'lsa-da, Navoiyning merosida turli hikoyalarning kulminatsion nuqtasi tarzida insoniylik, ma'naviylik va taqvodorlik o'zaro bog'liq, bir-birini ta'minlovchi va rivojlantiruvchi ekanligi asoslab berilgan. Asoslashda esa ma'naviy inson va taqvodor inson konseptlari me'yorni ifodalab beruvchi va tartibga keltiruvchi tarzida belgilangan.

Masalaga ratsional nuqtai nazar bilan yondashsak, jamiyat rivojlanishida ma'naviy inson va taqvodor inson modellarining roli belgilovchi ekanligini kuzatishimiz mumkin. Chunki Navoiyning komil inson konsepsiyasida quyidagi prinsiplar belgilovchi va ta'minlovchi sanaladi: xulq-atvorda

kuzatiladigan xossalarning birligi; xulq-atvorda invariantlikning ifodalanganligi; xulq-atvorda krossituativlikning ifodalanishi.

Xulosa va takliflar. Bugun turli vositalar asosida milliylikka putur yetkazuvchi va iste'molchi inson modelini targ'ib qilinishini avj olganligini inobatga olsak, ma'naviy inson konsepti nafaqat milliy qiyofada balki, milliy hayot tarzida ham ifodalanib, reguliyativ hamda yo'naltiruvchi funksiyalarni bajara oladi:

birinchidan, komillik masalasiga tarixiy-falsafiy tarzda yondashganda, ma'naviy hayot genetik jihatdan jamiyatning boshqa sohalarining hayoti bilan bevosita aloqador bo'lib, Navoiyning "Komil inson konsepsiyasi"da takomillashgan tarzda ifodalanib, jamiyatning ma'naviy hayoti insonlarning xulq-atvorida kuzatiladigan xossalarning birligi; xulq-atvorda invariantlikni ifodalanganligi; xulq-atvorda krossituativlikni ifodalanishi tarzida namoyon etilgan;

ikkinchidan, "Hayrat ul-abror"da tasvirlangan komil inson modeli Yangi O'zbekistonning ma'naviy hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bog'liqlik fe'l-atvor ko'rinishida o'z aksini topgandir. Bu o'z navbatida "Siyosiy amaliyot – Mafkuraviy tamoyillar – Inson - Ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat = Ijtimoiy-siyosiy jarayon" asosida bunyodkor insonning yaratuvchanligini namoyon etishida, a) ma'naviyat (individual, jamiyat ma'naviyati); b) ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar muhayyo etilishi shartligini ko'rsatadi.

uchinchidan, Mir Alisher Navoiy ilmiy merosida bunyodkorlikning zamirini ma'naviylik, insonning jismoniy rivojlanishi (go'zalligi) va ruhiy faoliyati tashkil etilishi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, yozuvchiy olimlar oldiga barkamol yoshlar masalasiga bag'ishlangan risolalar sonini ko'paytirish va targ'ib qilish vazifasini qo'yadi.

ADABIYOTLAR

1. Шлейермахер Ф.Д. Речи о религии к образованным людям, её презирающим. Монологи. –СПб.: «Алетейя», 1994.
2. Тоҳир Малик. "Одамийлик мулки" – Ҳусну хулқ" (Ахлоқ китоби). – Т.: "Тоҳир МАЛИК номидаги нашриёт уйи", 2022. – Б. 15
3. Шарқ фалсафаси. Масъул муҳаррирлар: Иброҳимов Н.И., Аҳмедова М.А. Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006. – Б. 231-248
4. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. (Яхшилар ҳайрати). Насрий баён қилувчи А.Ҳайитметов. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. –Б. 59
5. Крапивенский С.Э. Социальная философия: Учебник для студентов вузов. – М.: Гуманит. Изд. Центр ВЛАДОС, 1998. –С. 215
6. Норов Т.О. Алишер Навоий инсонпарварлик қарашларининг мустақил Ўзбекистон ижтимоий-сиёсий ҳаёти билан уйғунлиги // Диссертация автореферати. –Т.: 2019 – Б.14
7. Алишер Навоий. Ҳамса. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 13
8. Муҳиддинов М. "Ҳайрат ул-аброр"да сўфийлар сиймоси". Алишер Навоий ва XXI аср. –Т.: «ZEBO PRINTS» МСНВ bosmaxonasi. 2021 – Б. 29
9. Ильенков Э.В. диалектическая логика. – М.: 1984. –С. 165
10. Жумабоев Й. Ўрта Осиё этикаси очерклари . – Т.: "Ўзбекистон", 1980. –Б. 19
11. Жумабоев Й. Ўрта Осиё этикаси очерклари . – Т.: "Ўзбекистон", 1980. –Б. 19
12. Moode R.A. Life After Life: The Investigation of a Phenomenon-Survival of Bodily Death. N.-Y., 1976. P.36



UDK: 330.342.2

Siroj HAMRAYEV,
Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
E-mail: sirojbek84@mail.ru

F.f.d., professor J.Ramatov taqrizi asosida

MAMLAKATIMIZNING HOZIRGI DAVRDAGI YANGILANISHI JARAYONIDA MULKDORLIK TAMOYILLARINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Аннотация

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mulkdorlik tamoyillarining rivojlanishiga alohida e‘tibor qaratilgan. Xususiy mulkni huquqiy jihatdan himoyalash, xususiy sektorni rivojlantirish uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar, ijtimoiy ongda xususiy mulkchilik madaniyatini shakllantirish, moliyaviy infratuzilmani qo‘llab-quvvatlash kabi ustuvor yo‘nalishlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Mulkdorlik, tadbirkorlik, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizm, taraqqiyot, strategiya, ishbilarmonlik, inson, sarmoya, iste‘mol.

PRIORITY AREAS FOR DEVELOPING OWNERSHIP PRINCIPLES IN THE CURRENT PROCESS OF RENEWAL OF OUR COUNTRY

Annotation

This article focuses on the development of ownership principles in the process of reforms being implemented in the Republic of Uzbekistan. Priority areas such as legal protection of private property, creation of favorable conditions for the development of the private sector, formation of a culture of private ownership in social consciousness, support for financial infrastructure are highlighted.

Key words: Ownership, entrepreneurship, socio-economic mechanism, development, strategy, business acumen, person, investment, consumption.

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПРИНЦИПОВ СОБСТВЕННОСТИ В ТЕКУЩЕМ ПРОЦЕССЕ ОБНОВЛЕНИЯ НАШЕЙ СТРАНЫ

Аннотация

В статье рассматривается развитие принципов собственности в процессе реформ, проводимых в Республике Узбекистан. Выделены такие приоритетные направления, как правовая защита частной собственности, создание благоприятных условий для развития частного сектора, формирование культуры частной собственности в общественном сознании, поддержка финансовой инфраструктуры.

Ключевые слова: Собственность, предпринимательство, социально-экономический механизм, развитие, стратегия, деловая хватка, человек, инвестиции, потребление.

Kirish. Jahon xalqlari va zamonaviy ilg‘or mamlakatlar iqtisodiyotining natijadorligini, harakatchanligi va dinamikligini ta‘minlash, sohani rivojlantirishda tadbirkorlikning o‘ziga xos o‘rni borligi allaqo‘chona isbotlangan. U bugungi taraqqiy etgan mamlakatlar hayotining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi va bizning yurtimiz iqtisodiyoti uchun ham eng muhim omillardan biri sifatida o‘z samaradorligini ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ham, aynan hozirgi davrda mamlakatimizda bu masalaga katta e‘tibor berilayotgani aslo bejiz emas. Bu borada mamlakatimizdagi tadbirkorlik sohasiga oid ba‘zi raqamlar va dalillarni keltirishning o‘ziyoq ushbu fikrni yaqqol isbotlaydi. Mamlakatimizda 2023-yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan xususiy korxonalar va firmalar soni 418,7 mingtani tashkil etdi. Xususan, bu ko‘rsatkich Toshkent viloyatida 38876 ta, Samarqand viloyatida 37680 ta, Farg‘ona viloyatida 36359 tani tashkil qilmoqda. Tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 14,1 birlikni tashkil qilmoqda. Bu ko‘rsatkich Samarqand viloyatida 11,8 birlik, Toshkent viloyatida 15,2 birlik, Farg‘ona 11,9 birlikni tashkil qilmoqda. 2023- yil yanvar-sentabrda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 25,9 foizni tashkil etdi.

Bularning barchasi muhtaram Prezidentimizning ushbu sohaga alohida e‘tibori qaratilgani, bu jabhada islohotlarning aniq-tiniq strategiyasi amalga oshirilayotgani bilan izohlanadi. Xususan, bundan ikki yil oldin nihoyatda yaxshi bir tajriba – Tadbirkorlar kuni arafasida Prezidentimizni sohaning eng ilg‘or vakillari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvlari, ya‘ni to‘planib qolgan masalalarga birgalikda yechim topish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgani va ushbu an‘ana davom ettirilayotgani buning yaqqol dalilidir.

Mamlakatimiz ishbilarmon doiralari vakillari bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari uchun 2023 yil alohida ahamiyatga ega yillardan biri sifatida esda qolarli bo‘ldi. Xususan, 18 avgust kuni Toshkent shahridagi “Tashkent City Congress Hall” xalqaro kongress markazida O‘zbekiston tarixida uchinchi marta O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan «ochiq muloqot» tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur “ochiq muloqot”da belgilangan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan davlat rahbarining 292-sonli qarori qabul qilindi va ushbu hujjat bilan 42 ta banddan iborat «yo‘l xaritasi» tasdiqlandi. Unda tadbirkorlikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha 57 ta tashabbus ilgari surilgan. Qaror bilan 5 ta yo‘nalish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi va unga asosan 11 ta qonun, 15 ta Prezident qarori, bitta Prezident farmoni, 10 ta Vazirlar Mahkamasi qarori, 10 ta amaliy chora-tadbir, 3 ta chora-tadbir rejasi hamda 1 ta Shaharsozlik normalari va qoidalari qabul qilinishi belgilandi. Biroq, bu sohada olimlar va mutaxassislarining diqqatini tortayotgan va dunyoning qariyb barcha mamlakatlariga xos bir qator muammolar, ya‘ni, mulkdorlik va tadbirkorlik sub‘yektlarining barqaror faoliyatini ta‘minlash maqsadida davlatning strategik siyosati to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lishi, tijorat faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar o‘rtasida monopolistik tendentsiyalar yuzaga kelish holatlariga barham berish, bu sohada adolatsiz raqobatning oldini olish va korrupsiya holatlarini bartaraf etish kabilar bilan bog‘liq masalalar dolzarb ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Ayni paytda, mulkdorlik va tadbirkorlik sub‘yektlarining kapital qo‘yilmalari, moliyasi, soliqlari va kreditlari bilan bog‘liq murakkab me‘yoriy hujjatlarning mavjudligi, texnik va axborot bazasining past darajasi, ichki bozorning yetarli darajada

himoyalanganligi, bozor infratuzilmasi zamonaviy texnologiyalarga ega emasligi, qonunchilik bazasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, amaldagi qonunchilikda qator kamchiliklar mavjudligi, bu boradagi qonun hujjatlarining yetarli darajada yoritilmaganligi bilan bog'liq ba'zi muammolar saqlanib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, mavzuning dolzarbligi bozor iqtisodiyotining qonuniy talablari va mavjud kamchiliklarning mavjudligini o'rganish bilan bog'liq, albatta.

Bugungi kunda, Yangi O'zbekistonni rivojlantirish sharoitida, iqtisodiyot tizimini yo'naltirish, tartibga solish, tartibga solish siyosatini olib borayotgan hukumatimiz tomonidan mulkdorlik va tadbirkorlikni shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq ko'plab ko'p yo'nalishli va tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, istiqloqlarning ilk davridayoq mamlakatimizda milliy taraqqiyotimizning manfaatlariga mos tamoyillar asosida milliy qadriyatlarga tayanish va shu omillarga alohida e'tibor qaratish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Shu bois, mustaqillik yillarida buyuk allomalarimizning butun jahonda hayrat bilan o'rganilayotgan merosini tiklash hayotiy ehtiyojga aylandi. Ayniqsa, Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burxoniddin Marg'inoniy, Xoja Buhouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Az-Zamaxshariy, Bobur, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon va boshqa ko'plab buyuk siymolarimiz ilmiy-adabiy merosini o'rganish mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyatining milliy-ma'naviy negizlarini tashkil etmoqda. Afsuski, sobiq ittifoq davrida jamiyatni sun'iy tarzda turli sinflarga ajratib, xususiy mulkni yo'qotish g'oyasi amaliyotga tatbiq etildi. Mustabid jamiyatning siyosiy va mafkuraviy maqsadlariga xizmat qilgan bu g'oya avvalo jamiyat a'zolarini mulkdan begonalashtirdi, qolaversa mulk egalari esa zararli qatlam sifatida qarashni shakllantirdi, uchinchidan, hayotda mulkdan begonalashish tuyg'usini shakllantirib, "Mulk hammaniki, ayni paytda hech kimmiki" degan aqida odamlar ongiga singdirildi. Bu esa o'z navbatida, mulkning egasi yo'q bo'lishiga, mulkdorlar yo'qotilishiga, o'rta sinf shakllanmasligiga olib keldi va oqibatda odamlarda mulkka nisbatan egalik hissini barham toptirdi. Faqatgina mamlakatimizning mustaqillikka erishishi ushbu yo'nalishlarda muhim burilish imkonini berdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur jarayonning nafaqat milliy, balki umuminsoniy jihatlari, butun jahon xalqlariga xos xususiyatlari ham bor, albatta. Bu jihatdan, alohida ta'kidlash joizki, butun insoniyat XXI asrga qadam qo'yar ekan tabiat va jamiyat bilan bog'liq o'nlab global muammolarga duch keldi. Albatta bular birdan paydo bo'lgan muammolar emas edi. O'tgan asr ikkinchi yarimlaridan boshlab jahonda ro'y bergan voqealar, hayotga, turmushga sof ratsionalistik yondashuvning avjlanib boraverishi, ayniqsa iqtisodiy foyda olish va boyluk orttirishni muttasil rag'batlantirib turuvchi tamoyillarni kuchaytirdi.

Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko'ra, ushbu yo'nalishdagi qonuniyat shundan iboratki, istiqloqlarga erishgan har bir xalq o'z oldiga ulug' va istiqbol maqsadlarni qo'yadi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatiga kirib keladi va undan o'ziga xos o'rin egallaydi. Ayni paytda, bunday rivojlanish jarayonlarini bosib o'tish mustaqillik yo'lini talagan barcha xalqlarga xos jarayon bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda bu boradagi o'zgarishlar va yangilanishlar tayanadigan asosiy paradigmalarda o'zining yaqqol ifodasini topgan. Ayni paytda bu jamiyatimiz rivojida yangi davr tamoyillari ustuvor bo'layotganini isbotlaydi.

Zamonaviy tadbirkorlarga xos ma'naviy yetuklikning shartlaridan biri insoniy sifatning uyg'unligi masalasidir. Kishining ichki va tashqi dunyosi, sog'lom fikr va oqilona so'zi bilan amaliy faoliyati, tili bilan dili birday bo'lishi yetuklik mezonini va shart-sharoitidir. Bunday uyg'unlikka erishgan odam baxtiyor bo'ladi. Har bir shaxsni ilk yoshligidan boshlab mantiqiy fikrlashga o'rgatish hayot talabidir. Xo'sh, bu jihatdan, "tadbirkor ma'naviyati" nima o'zi? Uning mohiyati va namoyon bo'lish xususiyatlari nimlarga bog'lik? Tadbirkorlarga xos bu tushunchaning qanday jihatlarga diqqat qilish kerak. Mazkur savollar va ularning javoblari mavzuning mazmun-mohiyatini hamda uning tadbirkorlik uchun ahamiyatini aks ettiradi, albatta.

Hozirgi davrda mavjud bo'lgan ijtimoiy-falsafiy fanlarda yurtimizda amalga tatbiq etilgan qonun ustivorligi tamoyili tadbirkorlarning huquqiy ongini yuksaltirish, tashabbuskorlik va tadbirkorlik xususiyatlarini jonlantirishda katta rol o'ynadi. Shu kabi, bevosita davlat nazorati ostida amalga oshirilgan kuchli ijtimoiy siyosat mamlakatimiz tadbirkorlarida og'ir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardan ahillik, bahamjihatlik bilan chiqib keta olish, bu borada davlat va jamiyat birdamligining mohiyatini chuqur anglagan holda harakat qilish madaniyatini shakllantirdi.

Ta'kidlash kerakki, respublikani rivojlantirishning konseptual dasturi asosida amalga tatbiq etilgan islohotlar natijasida mamlakatimizda tadbirkorlar huquq va erkinliklarini ta'minlash kafolatlarini bera oladigan moddiy va ma'naviy asoslar yaratildi. Bu borada mustaqillikni chuqur anglash sodir bo'lmoqda. Ayni paytda bu, bugungi O'zbekiston bundan 30 yil ilgari O'zbekiston emasligi, uning xalqi, tadbirkorlari, iqtisodiyoti, siyosiy, huquqiy munosabatlari, ijtimoiy hayoti, madaniyati, ma'naviyati o'tgan asr oxirlaridan keskin farq qilishini anglatadi.

Bu borada birgina Prezidentning tadbirkorlarga yordam ko'rsatishda davlat xizmatlarining ta'sirini yanada oshirishga doir qarorining o'ziyoq hozirgi yangi davr ruhini va ma'no-mazmunini anglatuvchi yorqin misol bo'la oladi. Unda belgilanganidek, Davlat xizmatlari markazlari tomonidan faoliyati to'xtagan takilotlar ruxsatnomalari bekor qilinishi fikrimizni tasdiqlaydi.

Globalashuv jarayonida mafkuraviy kurash o'zining yuqori nuqtasiga chiqayotgan bugungi kunda, turli ma'naviy ta'sirlar avvalo, tadbirkorlarning ongini zaharlash va ularni o'z manfaatlariga yo'lida foydalanish oqibatlariga bizga shuni yana bir bor isbotlamodaki, avvalo mana shu qatlam orasida milliy g'oya targ'botini keng ko'lmda yoyish, uning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan turli ma'rifiy tadbirlar, debatlar, ta'lim tizimi va xilma-xil targ'ibot texnologiyalaridan foydalanish kutilgan natijalarni berishi mumkin.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda mulkdorlik va tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'proq yordam berish maqsadida mavjud sanoat zonalarini bilan bog'liq tashabbuslarni amalga oshirish jadallashtiriladi, tegishli tarmoqlarda bunday zonalarining soni va ko'lami kengaytiriladi. Moliyaviy qo'llab-quvvatlashni ko'paytirish, logistika infratuzilmasini takomillashtirish va davlat xizmatlaridan arzon foydalanishni ta'minlash orqali startap kompaniyalarning raqobatbardosh yetakchi biznes tashkilotlariga aylinishi ta'minlanadi. Ushbu oddiy imtiyozlar va arzon echimlarni ko'proq sanoat zonalarida tarqatish orqali O'zbekistonda mulkdorlik va tadbirkorlikning rivojlanishi tezlashadi.

Ushbu rivojlanishning barqarorligini ta'minlash uchun O'zbekiston korxonalarini uchun ilg'or tajribaga asoslangan sifatli biznesni o'qitish, mulkdorlik va tadbirkorlik sub'yektlarining ehtiyojlariga mos ravishda kasb-hunar ta'limi tizimini tashkil etish, shuningdek, ilmiy-texnikaviy rivojlanishni ta'minlash yo'lga qo'yiladi. Yangi biznes-inkubatorlar startaplarga biznes ehtiyojlariga ko'ra konsalting xizmatlarini ko'rsatish uchun yaratiladi (menejment bo'yicha treningdan tortib investorlarga kirish uchun tarmoq bo'yicha treninglargacha). Bu bilan O'zbekistonning innovatsion startaplari professional boshqaruv tufayli yuqori darajaga chiqadi. Xuddi shu maqsadda mulkdorlik va tadbirkorlik birlashmalari ushbu yo'nalishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni diqqat bilan kuzatib boradi, ularning samaradorligi va tegishli tashabbuslarini, keltiradigan foydalarini aniqlaydi, to'siqlar mavjud bo'lsa, ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqadi.

Qayd etilgan innovatsion tashabbuslar oliy o'quv yurtlari va texnik kasb-hunar ta'limi muassasalarini uchun takrorlanadi. Texnik kasb-hunar ta'limi muassasalarida yosh avlod va ish bilan band bo'lgan shaxslarni o'qitish natijasida O'zbekistonda mulkdorlik va tadbirkorlik tafakkurining rivojlanishi ta'minlanadi. Mulkdorlik va tadbirkorlik kontsepsiyasini universitetlarning ta'lim dasturlariga (o'quv rejalari) kiritish orqali O'zbekistonda tadbirkorlik ruhini yanada mustahkamlash uchun shart-sharoit yaratiladi, ta'lim muassasalarini tamomlagan iqtidorli talabalarning o'zlari egallab turgan tarmoqlarida o'z bizneslarini boshlashlari rag'batlantiriladi. Bu borada tegishli davlat

muassasalari va ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilib, amaliy fanlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Xulosa va takliflar. Natijada O'zbekiston mulkdorlik va tadbirkorlik sohasida qulay raqobat muhiti, davlat-xususiy sheriklikning yangi bosqichi, yuqori malakali kadrlar salohiyati va doimiy rivojlanayotgan noneft sektoriga ega davlatga aylanadi.

Shu nuqtai nazardan, kichik va o'rta korxonalar mamlakat iqtisodiy rivojlanishi va raqobatbardosh tovar va xizmatlarning yetakchi kuchiga aylanadi, ishlab chiqarish korxonalarini hisobiga mamlakatning asosiy iste'mol tovarlari bo'yicha importga qaramligini minimallashtiradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2024. – B. 56.
2. «O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni. - Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son; 25.10.2023 y., 03/23/871/0797-son); - <https://lex.uz>.
3. Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida O'RQ-328-son O'zbekiston respublikasi qonuni. -<https://lex.uz>.
4. "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni // <https://lex.uz/docs/1101278>.
5. "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. <https://lex.uz/docs/116757>.
6. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2010.
7. «Har bir oila-tadbirkor» dasturini amalga oshirish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 iyundagi PQ-3777 sonli qarori. <https://lex.uz/docs/3772869>.
8. "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.06.2020 y. PQ-4742-son Qarori. - <https://lex.uz>.



UDK:301:085:15 (021)

Jamol EGAMBERDIYEV,
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: jamolegamberdiyev.com@gmail.com

NavDU dotsenti, PhD D.Umurzoqov taqrizi asosida

ONLINE GAMES - AS A FACTOR SLOWING DOWN THE DEVELOPMENT OF ADOLESCENT PERSONALITY

Annotation

This article provides information on online games, the history of internet addiction, data obtained from research conducted by scientists, the impact of online games on adolescent psychology, their causes, as well as recommendations and suggestions for solving this problem.

Key words: Online gaming, gaming addiction, internet addiction, causes of addiction, ludomania, consequences of gaming addiction.

ОНЛАЙН-ИГРЫ КАК ФАКТОР, ЗАМЕДЛЯЮЩИЙ ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОСТИ ПОДРОСТКА

Аннотация

В данной статье рассматриваются онлайн-игры, история возникновения интернет-зависимости, данные, полученные в ходе исследований, проведенных учеными, влияние онлайн-игр на психику подростка, причины этого влияния, а также рекомендации и предложения по решению данной проблемы.

Ключевые слова: Онлайн-игра, игровая зависимость, интернет-зависимость, причины зависимости, лудомания, последствия игровой зависимости.

ONLAYN O'YINLAR – O'SPIRIN SHAXSI KAMOLOTINI SEKINLASHTIRUVCHI OMIL SIFATIDA

Аннотация

Ushbu maqolada onlayn o'yinlar, internetga qarmalikning paydo bo'lishi tarixi, olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar jarayonida olingan ma'lumotlar, onlayn o'yinlarning o'spirin ruhiyatiga ta'siri, ularning sabablari hamda bu muammoning yechimi bo'yicha tavsia va takliflar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Onlayn o'yin, o'yinga qaramlik, internetga qaramlik, qaramlik sabablari, ludomania, o'yinlarga qaramlik oqibatlarini.

Kirish. Qayd etilgan mavzuning dolzarbligi o'spirinlik davrida onlayn o'yinlarga qaramlikning psixologik jihatlarini o'rganishning obyektiv zarurati bilan bog'liq. O'spirinlarning internetga qaramligi ularning ruhiy salomatligi uchun xavf omili bo'lib, psixologik qiyinchiliklarga, xulq-atvorning buzilishiga va tajovuzkorlikning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Zamonaviy jamiyatda Internetning qo'llanish sohasi shunchalik kattaki, hozirda uning mavjudligi haqida tasavvurga ega bo'lmagan odamni uchratish juda qiyin. Shubhasiz, Internetning imkoniyatlari keng - bu ham ma'lumot izlash, ham muloqot, ham ish, ham ko'ngilochar, ammo Internetdan foydalanishning ijobiy jihatlarini bilan bir qatorda, uning zararlari haqida ham munozaralar paydo bo'ldi[2].

O'spirinlar va bolalarda o'yin qaramligi jiddiy muammo bo'lib, ota-onalar, o'qituvchilar va sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan e'tibor va qo'llab-quvvatlashni talab etadi. O'yin vaqti bilan hayotning boshqa jihatlarini o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, shuningdek, maktab o'quvchilarida sog'lom odatlar va qiziqishlarni rivojlantirishga e'tibor qaratish muhimdir.

Ayni paytda, onlayn o'yinlarga qaramlik, ludomania, pul sarflashga qaramlik kabi kimyoviy bo'lmagan addiksiyalar bilan bir qatorda kasalliklar tasniffa kiritilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur muammoning mohiyati psixologlarning bir nechta ishlarida keng yoritilgan, masalan: A. Chistaya, K. Yang, A. Goldberg, D. Grinfeld, A. Voyskunskiy va boshqalar. Psixologlar o'tkazgan tadqiqotlarga ko'ra, o'spirinlar addiktiv xulq-atvorning shakllanishi uchun eng zaif guruhdir. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ko'p vaqtini internetda o'tkazadigan yoshlarning ulushi yildan-yilga ortib bormoqda: 2006-yilda o'spirinlarning 6 foizi kuniga kamida to'rt soat, 2010-yilda 22 foizi, 2018-yilga kelib esa yarmidan ko'pi internetda bo'lgan, hozirgi kunga kelib, bu lush 68 % ni tashkil qilmoqda.

2021-yilgi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'spirinlar orasida internetga qaramlik 7,1-10,4 foizni tashkil etadi - so'rovnomada iste'mol qilinadigan kontent turlari hisobga olingan. 2022-yilda yangi ma'lumotlar to'plandi: umumiy

internetga qaramlik - 7,2%; kompyuter o'yinlariga qaramlik - 10,4%; ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik - 8% [3].

JSST tadqiqotlariga ko'ra, jamiyatga qaramlik va u bilan bog'liq psixologik muammolar har o'ninchi o'spirinda uchraydi. Bu ko'rsatkich ham o'tgan yillarga nisbatan o'sdi: 2018 yildagi 7 foizdan 2022 yilda 11 foizgacha. Yana 12 foizga yaqin o'spirinlar kompyuter o'yinlari tufayli psixologik muammolarga duch kelgan.

Germaniyaning Charite universiteti olimlari onlayn o'yinlarga qaramlikni boshqa patologik moyilliklar, masalan, alkogolizm bilan taqqoslab o'rganishdi. Tajriba davomida 20 kishidan iborat guruh sevimli video o'yinlaridan olingan skrinshotlarni ko'rib chiqdi. Ma'lum bo'lishicha, ularning reaksiyasi spirtli ichimliklarga qaram odamlarning reaksiyasiga o'xshash ekan [1].

Haqiqatan ham, miyaning aynan bir xil hududlari kompyuter o'yinlari bilan shug'ullanish istagiga ham, boshqa patologik moyilliklarga ham javob beradi, deb tasdiqladi amerikalik neyrobiologlar. O'yin buzilishi sog'liqqa shunchalik zarar yetkazmaydi, uning rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik, o'z vaqtida tashxis qo'yish va chora ko'rish muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Inson hayoti, sayyoradagi barcha tirik mavjudotlar kabi, atrofimizdagi dunyoga bog'liq va barchamiz ma'lum darajada unga moslashamiz. Bu bog'liqlik ijobiy va salbiy, ochiq va yashirin bo'lishi mumkin. Masalan, barchamiz oziq-ovqat iste'mol qilish zaruriyatiga bog'liqmiz - bu bog'liqlik ijobiy, chunki u bizning omon qolishimizga yordam beradi. Garchi ma'lum sharoitlarda u ham destruktiv bo'lishi mumkin. Internetga qaramlik haqida ham shunday deyish mumkin [1].

“Internetga qaramlik” “onlayn o'yinlarga qaramlik” atamasini 1996-yildayoq doktor A.Goldberg asossiz ravishda uzoq, ehtimol patologik, Internetda bo'lishni tavsiflash uchun taklif qilgan.

Internet (onlayn o'yinlar)ga qaramlik hodisalarini psixologik o'rganishning asoschilari ikki amerikalik: klinik psixolog K. Yang va psixiatr A. Goldberg bo'lishi mumkin. 1995-

yilda A. Goldberg Internet (onlayn o'yinlar)ga qaramlikni aniqlash uchun diagnostika mezonlari to'plamini taklif qildi. 1997-1999-yillarda ushbu muammo bo'yicha tadqiqot va maslahat-psixoterapevtik veb-xizmatlar yaratildi. 1998-1999-yillarda K. Yang, D. Grinfeld va K. Surrat birinchi monografiyalarni nashr etdilar. 1998-yil oxiriga kelib, internetga qaramlik amalda qonuniylashtirildi - so'zning tor ma'nosida klinik yo'nalish sifatida emas, balki tadqiqot sohasi va odamlarga amaliy psixologik yordam ko'rsatish sohasi sifatida namoyon bo'ldi [4].

Ushbu muammoning 400 dan ortiq holatini o'rgangan Internet (onlayn o'yinlar)ga qaramlik markazi (Pittsburg-Bredford universiteti) direktori doktor K. Yang modem va Internetga kirish imkoniyatiga ega bo'lgan har bir kishi Internetga qaram bo'lib qolishi mumkin, deb hisoblaydi. Doktor K. Yangning so'zlariga ko'ra, odatiy kompyuterist stereotipiga qarama-qarshi o'laroq, o'rta ma'lumotli o'ttiz besh yoshlardagi ayol internetga qaram bo'lib qolgan. Hozircha yetarlicha ishonchli ma'lumotlar yo'q, ammo K. Yangning dastlabki hisob-kitoblariga ko'ra, internetdan foydalanuvchilarning 1 foizdan 5 foizigacha unga qaram bo'lib qolgan [3]. K. Yang Internetga qaram odamlarni o'rganib, ular ko'pincha chatlar (37%), MUDs (ko'p foydalanuvchili o'yinlar) (28%), telekonferensiyalar (15%), E-mail (13%), WWW (7%), axborot protokollari (ftp, gopher) (2%) [1] dan foydalanishini aniqladi. Keltirilgan Internet xizmatlarini muloqot bilan bog'liq bo'lgan va muloqot bilan bog'liq bo'lmagan, balki ma'lumot olish uchun ishlatiladiganlarga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga chatlar, telekonferensiyalar, E-mail, ikkinchi guruhga axborot protokollari kiradi. K. Yangning ta'kidlashicha, ushbu tadqiqotda "Internet-mustaqillar" asosan Internetning ma'lumot to'plash va ilgari o'rnatilgan tanishlarni saqlash qo'llanilgan beradigan jihatlardan foydalanishi ham aniqlangan. Internetga qaram bo'lganlar asosan Internetning yuqori darajadagi interaktiv muhitda yangi odamlar bilan uchrashish, ijtimoiylashish va fikr almashish imkonini beradigan jihatlardan foydalanadilar." Ya'ni, internetga qaram bo'lganlarning aksariyati muloqot bilan bog'liq internet xizmatlaridan foydalanadi.

Tahlil va natijalar. O'yin qaramligi patologik holat bo'lib, o'yinga haddan tashqari va nazorat qilib bo'lmaydigan ehtiyoj bilan tavsiflanadi. U kundalik hayotda jiddiy muammolarga olib keladi, jumladan, o'qishdagi qiyinchiliklar, ijtimoiy munosabatlar va jismoniy salomatlikning yomonlashuviga sabab bo'ladi.

Tibbiyotda bu patologiya "o'yin buzilishi" sifatida tan olingan va Xalqaro kasalliklar tasnifining 10-qayta ko'rib chiqilgan nashrida (KKT-10) F63.0 kodi bilan tavsiflangan. U zararli odatlar va xulq-atvordagi og'ishlar bilan bog'liq ruhiy va xulq-atvor buzilishlari guruhiga kiradi.

O'yinbozlik xulq-atvor ustidan nazoratni yo'qotish, o'yinlarni hayotning boshqa muhim jihatlardan ustun qo'yish, ularga nisbatan kuchli intilishning paydo bo'lishi, o'yinlarda o'tkaziladigan vaqtning ko'payishi bilan tavsiflanadi. Kasallik insonni yakka qo'yishi, o'quv va kasbiy faoliyat samaradorligining pasayishiga, shuningdek, uyqu buzilishi, to'yib ovqatlanmaslik va jismoniy faollikning yetishmasligi kabi jismoniy muammolarga olib kelishi mumkin.

O'spirinlar o'yinbozligi (ludomania) bilan ko'plab oilalar to'qnash keladi. Rossiya Federatsiyasida vaqtining ko'p qismini internetda o'tkazadigan maktab o'quvchilari soni 55 foizni tashkil etadi. Ota-onalar bolalarni ijtimoiy tarmoqlar va virtual makon ta'siridan himoya qilishga harakat qilishadi, ammo ko'pincha bunga kuchlari yetmaydi. Bunday o'spirinlarga kasallikdan xalos bo'lish uchun mutaxassislar yordami zarur bo'ladi.

O'spirinlarning onlayn tarzidagi pul o'yinlariga qiziqishi eng katta xavf tug'diradi. Bu muammoni ifodalash uchun maxsus atama - gambling kiritilgan. Qaram bo'lishga qizlarga qaraganda o'g'il bolalar ko'proq duch kelishadi. Maktab o'quvchilarining taxminan 40 foizi qimor o'yinlari qanday xavf tug'dirishini tushunmaydi. Ota-onalar bolani bunday "xobbi"dan himoya qilishlari kerak. Ammo odatda ular o'z ishlari va maishiy muammolar bilan shunchalik bandki, o'quvchining gadgetlarga "bog'lanib qolganini" e'tiborsiz qoldirishadi.

Shuni tushunish kerakki, bolalar yangi qiziqishlar borasida ko'proq mutaassib bo'ladilar. Kompyuter o'ynash yoki pul tikish orqali ular ko'plab yangi his-tuyg'ular va adrenalin to'loqini boshdan kechirishadi, keyinchalik esa bularni yana his qilishni xohlaydilar. Ha, kattalar bilan ham vaziyat taxminan shunday. Ammo shuni hisobga olish kerakki, bolalarda hali ruhiyat mustahkamlanmagan, shunga ko'ra patologiyaning rivojlanish xavfi bir necha baravar ortadi.

O'spirinlarda onlayn o'yinlarga qaramlik belgilari

O'spirinlardagi o'yinbozlikni erta aniqlash muhim. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, kasallikning birinchi belgilari 10 yoshda paydo bo'ladi. Agar boshida buzilishni payqamasangiz, keyinchalik bu jiddiy muammolarga olib keladi.

Ota-onalar bolalarning xatti-harakatlaridagi quyidagi holatlardan ogoh bo'lishlari kerak:

O'spirin ko'pincha o'yinda o'tkazgan vaqtini nazorat qila olmay qoladi. U rejalashtirganidan ko'proq o'ynaydi va to'xtashga qiynaladi.

O'yinlar bola hayotida asosiy ustuvorlikka aylanadi. U o'zining maktab va kundalik vazifalariga e'tibor bermaydi va vaqtini gadgetlar bilan o'tkazishni afzal ko'radi.

Bolalardagi o'yinbozlik o'yinlarda o'tkaziladigan vaqtning asta-sekin ko'payishi bilan birga kechadi. Ular o'z ehtiyojlarini qondirish uchun ko'proq va tez-tez o'ynaydilar.

O'spirin sport, sevimli mashg'ulotlari, tengdoshlari bilan muloqot qilish yoki o'qish kabi boshqa faoliyatlarda ishtirok etishdan bosh tortadi. U o'zini yakka qo'yadi, do'stlaridan uzoqlashadi, ko'pincha tengdoshlari bilan ziddiyatga boradi. Maktabdagi o'zlashtirishi yomonlashadi.

Ludomaniaga chalingan bolalarning kayfiyati o'zgaradi. Ular jahldor, tajovuzkor bo'lib qoladilar, ayniqsa, agar ularga o'yinni rad etishsa yoki unda o'tkaziladigan vaqtini cheklashsa.

Uzoq vaqt davomida gadgetlar bilan o'ynash uyqu muammolari, ishtahaning buzilishi, bosh og'rig'i, ko'rish o'tkirligining pasayishi va jismoniy holatning yomonlashishi kabi bolalar o'yinbozligining jismoniy alomatlarini keltirib chiqaradi.

Qaramlikka chalingan o'spirin ko'pincha muammoni rad etadi va uni tan olmaydi. U o'yin faoliyati haqida gap ketganda jahldor va jizzaki bo'lib qoladi. Harakatli o'yinlar bilan bog'liq har qanday mavzuni muhokama qilishdan qat'iy bosh tortadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu belgilar o'yinga qaramlikning turli bosqichlarida namoyon bo'ladi va o'spirinning individual xususiyatlariga qarab farq qiladi. Agar siz bolada ludomaniya rivojlanishiga shubha qilsangiz, tashxis qo'yish va davolash uchun psixiatrga murojaat qiling.

Xulosa va takliflar. O'spirinlarda o'yinga qaramlikning oldini olish bir nechta muhim jihatlarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, ota-onalar farzandlarining kompyuter, planshet yoki mobil qurilma oldida o'tkazadigan vaqtini nazorat qilishlari kerak. O'yinlarga cheklovlar qo'yish va bolaning jismoniy faollik bilan ham shug'ullanishi, do'stlari bilan muloqotda bo'lishi va yaxshi o'qishni kuzatib borish tavsiya etiladi.

Maktab o'quvchilarini texnologiyalardan foydalanishning sog'lom odatlariga, jumladan, Internetda xavfsiz xulq-atvor qoidalariga, gadgetlardan me'yorida foydalanishga va onlayn o'yinlarga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatish muhimdir. Ota-onalar ular bilan o'yinlarga haddan tashqari berilib ketishning zararli oqibatlarini muhokama qilishlari va boshqa sevimli mashg'ulotlar: sport, sevimli mashg'ulot yoki ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishni rag'batlantirishlari mumkin.

Maktablar va ta'lim muassasalari ham o'quvchilarni o'zini boshqarish ko'nikmalariga o'rgatish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va bo'sh vaqtini o'tkazishning muqobil shakllarini taqdim etish kabi profilaktika ishlarini olib borishlari kerak.

O'spirinlarning onlayn o'ynashiga qarshi ota-onalarga yana bir necha foydali maslahatlar:

- shaxsiy namuna ko'rsating, kompyuter yoki smartfon qarshisida uzoq o'tirmang;
- oilangiz bilan ko'proq vaqtini toza havoda o'tkazing, bog'da sayr qiling, shahar tashqarisiga chiqing;
- bolaning o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish uchun rivojlantiruvchi saytlarga ustunlik bering;
- o'quvchining bo'sh vaqtini qiziqarli va foydali tashkil qiling.

Ruhiy yoki hissiy muammolari bo'lgan, shuningdek, stress yoki ijtimoiy ajralishni boshdan kechirayotgan bolalarda onlayn o'yinlarga qaramlikka moyillikka e'tibor qaratish

muhimdir. Bunday hollarda o'spirinlarda onlayn o'yinlarni o'z vaqtida qo'llab-quvvatlash va oldini olish uchun mutaxassislardan yordam so'rash kerak.

ADABIYOTLAR

1. Лукьянченко Н.В., Родительский фактор психологического неблагополучия подростков
2. Решмидт Х. Психотерапия детей и подростков. Москва «Мир», 2000
3. Бандура А., Уолтерс Р. Подростковая агрессия. Изучение влияния воспитания и семейных отношений.
4. Кекелидзе, З.И., Посттравматическое стрессовое расстройство у детей и подростков.



Gulchexra ERJANOVA,
Qoraqalpogiston qishloq xojaligi va agrotexnologiyalar instituti asisstanti
Email: ErjanovaG1503@gmail.com
Sevinch RAXMATULLOYEVA,
Qoraqalpogiston qishloq xojaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

Falsafa fanlari nomzodi, dotsent J.Sagindikov taqrizi asosida

SHAXSNING XULQ-ATVORI, QADRIYATLARI, DUNYOQARASHI, SHAXSIY RIVOJLANISHI VA BOSHQA ODAMLAR BILAN MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA OILA TUZILISHINING ROLI

Аннотация

Ushbu maqolada shaxsning xulq-atvori, axloqiy qadriyatlarini, dunyoqarashi, shaxsiy rivojlanishi va boshqa insonlar bilan munosabatlarini shakllantirishda oila tuzilishining ijtimoiy-psixologik roli chuqur tahlil qilinadi. Muallif oila ijtimoiy institut sifatida inson hayotidagi fundamental ta'sirini yoritgan holda, turli xil oila modellarning (an'anaviy, ajrashgan, qayta tuzilgan) bola ruhiyati va axloqiy ijtimoiylashuviga qanday ta'sir ko'rsatishini ilmiy asosda izohlaydi. Oila muhitidagi psixologik xavfsizlik, kommunikatsiya madaniyati, ijtimoiy rollar va hissiy qo'llab-quvvatlash omillari shaxsning kelajakdagi ijtimoiy moslashuvi, shaxslararo munosabatlari va axloqiy pozitsiyasini belgilovchi mezonlar sifatida tahlil etiladi. Maqolada oilaning madaniy-ma'naviy kapitali, qadriyatlar merosi va tarbiya metodlari orqali shaxs taraqqiyotiga qiladigan bevosita va bilvosita ta'siri ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Shaxs tarbiyasi, oila tuzilishi, xulq-atvor, qadriyatlar, dunyoqarash, psixologik xavfsizlik, kommunikatsiya madaniyati, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy rollar.

РОЛЬ СЕМЕЙНОЙ СТРУКТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ ПОВЕДЕНИЯ ЛИЧНОСТИ, ЦЕННОСТЕЙ, МИРОВОЗЗРЕНИЯ, ЛИЧНОСТНОГО РАЗВИТИЯ И ВЗАИМООТНОШЕНИЙ С ДРУГИМИ ЛЮДЬМИ

Аннотация

В данной статье глубоко анализируется социально-психологическая роль структуры семьи в формировании поведения личности, её нравственных ценностей, мировоззрения, личностного развития и взаимоотношений с другими людьми. Автор, рассматривая семью как социальный институт, освещает её фундаментальное влияние на жизнь человека и научно объясняет, как различные модели семьи (традиционная, распавшаяся, реконструированная) влияют на психику ребёнка и его нравственную социализацию. Психологическая безопасность в семейной среде, культура коммуникации, социальные роли и эмоциональная поддержка рассматриваются как важнейшие факторы, определяющие будущую социальную адаптацию личности, её межличностные отношения и нравственные установки. В статье раскрывается прямое и косвенное влияние семейной культурно-духовного капитала, наследия ценностей и методов воспитания на развитие личности.

Ключевые слова: Воспитание личности, структура семьи, поведение, ценности, мировоззрение, психологическая безопасность, культура коммуникации, личностное развитие, социальная адаптация, социальные роли.

THE ROLE OF FAMILY STRUCTURE IN SHAPING INDIVIDUAL BEHAVIOR, VALUES, WORLDVIEW, PERSONAL DEVELOPMENT, AND RELATIONSHIPS WITH OTHERS

Annotation

This article provides an in-depth analysis of the socio-psychological role of family structure in shaping an individual's behavior, moral values, worldview, personal development, and relationships with others. The author highlights the fundamental influence of the family as a social institution in a person's life and scientifically explains how different family models (traditional, divorced, restructured) affect a child's psyche and moral socialization. Psychological safety within the family environment, the culture of communication, social roles, and emotional support factors are examined as key determinants of future social adaptation, interpersonal relationships, and moral stance. The article also explores the direct and indirect impacts of the family's cultural and spiritual capital, the legacy of values, and educational methods on personal development.

Key words: Personality development, family structure, behavior, values, worldview, psychological safety, communication culture, personal growth, social adaptation, social roles.

Kirish. Insoniyat taraqqiyotining butun tarixi davomida oila har doim jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib kelgan. Oila nafaqat biologik avlodning davomchiligini ta'minlovchi muhit, balki har bir insonning shaxsiyati, dunyoqarashi, axloqiy mezonlari, ijtimoiy munosabatlari va umuman hayotga bo'lgan qarashlarini shakllantiruvchi asosiy psixologik va sotsiokulturniy makondir. Ayniqsa, shaxsning ijtimoiylashuvi, ya'ni u boshqa insonlar bilan muomala qilishga tayyor bo'lgan ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishida oilaning tuzilishi va funktsionalligi beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globallashuv, axborot xurujlari va texnologiyalar tezkor rivojlanayotgan bir davrda oila institutining shakli, mazmuni va ichki mexanizmlari o'zgarib bormoqda. Shu bilan birga, shaxs tarbiyasidagi eng asosiy va ta'sirchan muhit sifatida oila o'zining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini yo'qotmagan. Zero, oiladagi munosabatlar, axloqiy qadriyatlar, mehnat va mas'uliyatga bo'lgan munosaba, tenglik va mehr-oqibat tuyg'ulari

bola ongida ilk bor aynan oilaviy makonda shakllanadi. Shuning uchun ham shaxsning xulq-atvori, ijtimoiy qadriyatlarga munosabati, shaxsiy rivojlanish sur'atlari va jamiyat bilan integratsiyalashuvi to'g'ridan-to'g'ri oila muhitiga bog'liqdir.

Adabiyotlar sharhi. Axmedovanning fikricha [1], oila insonning ruhiy shakllanishida asosiy ijtimoiy maydon bo'lib xizmat qiladi. U oilani shaxsning dastlabki psixologik ijtimoiylashuvi, axloqiy tasavvurlari va hayotiy qadriyatlarining shakllanishida fundamental omil sifatida baholaydi. Axmedova, ayniqsa, oila ichidagi psixologik muhit — mehr, e'tibor, quvnoqlik, ishonch kabi hissiy omillar bolaning sog'lom shaxs bo'lib kamol topishida beqiyos rol o'ynashini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlari oiladagi zo'ravonlik va e'tiborsizlik bola shaxsiyatiga qanday salbiy ta'sir ko'rsatishini amaliy misollar orqali ochib beradi. Jo'raev va Mavlonovning fikricha, shaxs jamiyatning ijtimoiy mahsuli bo'lishi bilan birga, uni faol qayta shakllantiruvchi subyektdir [2]. Ular shaxs va jamiyat o'rtasidagi

o'zaro bog'liqlikda oilaning o'rni haqida to'xtalar ekan, oilani "ijtimoiylashuvning birinchi bosqichi" sifatida ataydilar. Ularning nuqtayi nazaricha, oila tuzilishi va ichki ijtimoiy rollar taqsimoti shaxsning keyingi ijtimoiy munosabatlar va xulq-atvor me'yorlarini qabul qilishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mualliflar, ayniqsa, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, gender roli va madaniy kapitalning oilada shakllanishini asosiy sotsiologik indikator sifatida ko'rsatadilar. Rasulovanning fikricha [3], bola axloqiy qadriyatlar tizimini avvalo oilada o'zlashtiradi. U oilaviy muhitda beriladigan tarbiya usullarini (masalan, rag'batlantirish, izohlash, o'rnak bo'lish) bolaning ijtimoiy qadriyatlarga munosabatini belgilovchi psixopedagogik asos deb hisoblaydi. Rasulova oilaviy namuna (model)ning ta'sirini alohida ta'kidlaydi – ya'ni bola o'zining kelajakdagi xatti-harakatlarini ko'p hollarda ota-onaning hozirgi fe'l-atvoriga tayanib shakllantiradi. Uning fikricha, axloqiy sifatlarining barqaror shakllanishi uchun oila ichidagi muloqot sifati va ota-onaning pedagogik madaniyati hal qiluvchi omillardandir. Karimovanning fikricha [4], oila jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning ichki tuzilishi va funksiyalariga tashqi omillar (ishsizlik, migratsiya, gender tengsizlik) kuchli ta'sir o'tkazadi. U oilaning sotsiologik strukturasi – ya'ni ierarxik tuzilishi, rollar bo'linishi, avtoritetlar dinamikasi – bolalarning shaxsiy dunyoqarashi va qadriy orientatsiyalariga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Karimova shuningdek, zamonaviy oilaning transformatsion tendensiyalarini ko'rsatib, oilaviy inqiroz holatlari shaxs psixologiyasiga qanday xavf tug'dirishi haqida tahliliy dalillar keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Xulq-atvor – bu insonning o'zini tutish uslubi, jamiyatdagi qoidalarga amal qilishi, ijtimoiy vaziyatlarga qanday reaksiya bildirishidir. Bu ko'rinishlar, odatda, bolalikdan boshlab tarbiyalanadi. Ota-onaning kundalik hayotdagi harakati, nutqi, muammolarga munosabati, mehnatga yondashuvi, boshqalarga nisbatan sabr-toqatli yoki tajovuzkor munosabati — bularning barchasi bola ongiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, bola ilk yoshlarida o'zini atrofidagi kattalar, eng avvalo, ota-onasi orqali idrok qiladi. Agar ota-ona o'zaro hurmat, mehr, sabr, mas'uliyat tamoyillari asosida yashasa, bu holat bolada mustahkam axloqiy pozitsiyaning shakllanishiga olib keladi.

Oila xulq-atvor me'yorlarini o'rgatishning birlamchi maktabi sifatida harakat qiladi. Avvaliga bu me'yorlar ongiz ravishda taqlid orqali, so'ngra esa mustaqil ongli ravishda o'zlashtiriladi. Agar bola oilada hamkorlik, izzat-hurmat, halollik, adolat kabi qadriyatlar asosida tarbiyalansa, bu uning ijtimoiy xatti-harakatida aks etadi. Aksincha, oilaviy ziddiyatlar, zo'rvonlik, e'tiborsizlik mavjud bo'lgan muhitda ulg'aygan bola tajovuzkor, befarq yoki ichki beqaror shaxsga aylanishi ehtimoli yuqoriroq bo'ladi.

Qadriyatlar – bu inson hayotining yo'nalishini belgilovchi ichki tamoyillar bo'lib, ularning manbai ko'p hollarda oilaviy an'analar, diniy-falsafiy qarashlar va madaniy kodlar bilan bog'liq. Ota-onaning milliy qadriyatlarga munosabati, til va madaniyatga hurmati, vatanparvarlik ruhi, mehr-oqibatli munosabatlar – bularning barchasi bola shaxsiyatida ildiz otadi. Oilada kitobxonlik, mehnatsevarlik, poklik, kattalarga hurmat, hayoshlik kabi qadriyatlar ustuvor bo'lsa, bola o'z hayot falsafasini shular asosida quradi.

Dunyoqarash esa insonning tashqi dunyo haqidagi umumiy tasavvuri, mavjud hodisalarga beriladigan ichki bahosi, hayot maqsadlariga bo'lgan yo'nalishidir. Oila bu tasavvurlarni muayyan shaklga keltiruvchi ijtimoiy muhitdir. Ota-ona dunyoni qanday ko'rsa, u bilan qanday munosabatda bo'lsa, bolaga ham shunday idrok yetkaziladi. Bu esa bola hayotiga nisbatan umidli, pozitiv yoki aksincha – pessimistik, xavotirli munosabat shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Oilaning ijtimoiy-ma'naviy kapitali yuqori bo'lsa, ya'ni unda madaniy faoliyat, kitob o'qish, san'at, tarixiy bilimlar rivojlangan bo'lsa, bola dunyoqarashi keng, fikrlovchi, tahlil qiluvchi shaxs sifatida voyaga yetadi.

Shaxsiy rivojlanish – bu insonning o'z-o'zini anglash, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish, maqsadlarga erishish, psixologik barqarorlik va ijtimoiy faoliyatdagi o'sishini ifodalaydi. Bola bu yo'ldagi ilk qadamlari bilan aynan oilada tanishadi. Ota-ona

tomonidan bolaning har bir harakati, tashabbusi, fikri qadrlansa — unda o'ziga bo'lgan ishonch ortadi. Mustaqil fikrlashga yo'l beriladigan, har bir xatolik muhokama yo'li bilan tushuntiriladigan oila muhitida ulg'aygan bola tanqidni to'g'ri qabul qiladi, o'z ustida ishlashga intiladi, muammolarga kreativ yondasha oladi.

Shuningdek, shaxsning boshqa insonlar bilan munosabat qurish qobiliyati ham oilada shakllanadi. Bola ota-onasi, opa-ukalari, bobo-buvi, yaqin qarindoshlari bilan bo'lgan muloqotda muomala me'yorlarini, mehr-shafqat, kechirimlilik, hamdardlik, adolat, murosa, kompromiss kabi muhim ijtimoiy kompetensiyalarni o'zlashtiradi. Oilada berilgan bu ijtimoiy "sarmoya" bola maktab, do'stlar va keyinchalik ish jamoasida ham muvaffaqiyatli integratsiyalashiga xizmat qiladi.

Natijalar. Oila - strukturaviy jihatdan turlicha shakllarga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy tizimdir. An'anaviy yadro oilalar (ota, ona va farzandlar) bilan bir qatorda keng oilalar (bobo, buvi, amakilar, tog'alar ishtirok etadigan turlar) ham mavjud. Shuningdek, so'nggi yillarda jamiyatda ajrashgan, yolg'iz ota yoki onalar rahbarligidagi oilalar, qayta tuzilgan (rekonstruktiv) oilalar, nikohsiz birga yashash holatlari ko'p uchramoqda. Har bir oila modeli farzandning ruhiy-psixologik rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

An'anaviy to'liq oilada bolalar odatda hissiy jihatdan barqarorroq bo'ladi, chunki ular ikki ota-onaning muvozanatli mehr-muhabbati va o'zaro muloqoti doirasida ulg'ayadilar. Bu kabi oilalarda bola hayotiy rollarni (masalan, erkak va ayol o'rnini, rahbarlik va itoat etish o'rtasidagi muvozanatni) tabiiy holatda idrok etadi. Keng oilalarda esa avlodlararo qadriyatlar uzviyligi ta'minlanadi - ya'ni farzand nafaqat ota-onasi, balki bobo-buvi, katta akalar, xolalar orqali ham axloqiy va ijtimoiy tajriba bilan tanishadi.

Ammo hozirgi zamon oilalarining shakli o'zgarishlari - ajrashgan ota-onalar oilasi yoki bitta ota yoki onaning rahbarligidagi oilalar - shaxsning psixologik portretiga muayyan ta'sir ko'rsatadi. Bu holatlarda bolada ichki bo'shliq, e'tiborga chanoqlik, rol noaniqligi, tengdoshlari bilan ijtimoiy tenglashish muammolari vujudga kelishi mumkin. Biroq bu holatlarni ijobiy yo'nalishga o'zgartirishning imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu ota-onaning pedagogik savodxonligi, ota-onalar o'rtasidagi madaniy ajralish, hissiy ehtiyojlarni to'ldirish mexanizmlaridan to'g'ri foydalanishga bog'liq.

Oiladagi ijtimoiy rollar taqsimoti shaxs shakllanishida juda katta ahamiyatga ega. Bola oilada qanday rol o'ynayotganini his qiladi: u kerakmi, e'tiborlimi, muhimmi, yoki befarq va nazoratsizmi? Farzand o'zini doimiy e'tibor markazida his qilsa, unda o'ziga ishonch, tashabbuskorlik, liderlik, tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilishga qobiliyatli shaxs rivojlanadi. Aksincha, e'tibordan chetda qolgan yoki doimiy tanqid ostida yashovchi bolalar befarq, ichki tortinchoq, yoki tajovuzkor shaxsga aylanishi ehtimolga yaqin.

Oiladagi psixologik xavfsizlik muhitini ta'minlash - bu shunchaki zo'rvonlik yo'qligi emas, balki har bir a'zoning fikri qadrlanishi, his-tuyg'ulari e'tiborga olinishi, hissiy qo'llab-quvvatlash mavjud bo'lishidir. Bunday oilalarda bola o'zini erkin ifoda eta oladi, qarorlar qabul qilishda ishtirok etadi, muvaffaqiyatlari quvonch bilan qabul qilinadi, xatolari esa jazoga emas, tarbiyaga aylantiriladi.

Ayniqsa, yosh bolalar uchun bu muhit intellektual salohiyatni ochish, mustaqil fikrlash va shaxsiy qarorlar qabul qilishga asos yaratadi. O'zini tinglashadi, tushunishadi, qadrlashadi degan ishonch bilan ulg'aygan shaxs jamiyatga ham ijobiy, ishonchli va ijtimoiy faol shaxs sifatida kirib boradi.

Shaxsning boshqa odamlar bilan bo'lajak munosabati avvalambor oiladagi ichki muloqotdan kelib chiqadi. Agar oilada muloqot o'zaro eshitish, hurmat, yumshoq ohang, bag'rikenglik tamoyillariga asoslangan bo'lsa, bola muloqotning bu shaklini normal me'yor sifatida qabul qiladi. Keyinchalik u maktabda, ko'cha-do'stlar muhitida, kasbiy jamoada ham murosalari, sabrli, tinglay oluvchi, tushuntira oluvchi shaxs bo'lib yetishadi.

Ammo oiladagi muloqot tajovuzkor, buyruqbozlikka asoslangan, kritik, hayqiriq va urush-janjallar bilan kechsa, bola bu uslubni me'yor deb qabul qiladi. Bu esa shaxsning keyingi ijtimoiy hayotida yaqin munosabatlar o'rnatishda, insofli

muomala qilishda, ijtimoiy konfliktlarni hal etishda muammolar keltirib chiqaradi.

Ota-onaning bolani eshitishi, his qilishga urinishlari, qiziqishlarini tushunishga intilishi - bu murakkab psixologik jarayon bo'lsa-da, shaxsning ijtimoiy barqarorlik asoslarini mustahkamlaydi. Shu sababli, oiladagi kommunikatsiya madaniyati nafaqat axloqiy tarbiyaning, balki psixologik sog'lomlik va ijtimoiy moslashuvchanlikning tayanchidir.

Xulosa va munozara. Oila - bu inson hayotidagi eng birlamchi, eng asosiy va eng ta'sirchan ijtimoiy institutdir. Shaxsning xulq-atvori, qadriyatlari, dunyoqarashi, shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy munosabatlarining shakllanishida oila

muhitining o'rni beqiyosdir. Oiladagi sog'lom psixologik muhit, ijtimoiy tenglik, axloqiy saboqlar, ma'naviy-ruhiy yondashuvlar insonning keyingi hayotida muvaffaqiyatli, barqaror va ijtimoiy mas'uliyatli shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlaydi.

Shu sababli, zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimi o'z faoliyatini oila bilan uzviy aloqada olib borishi, ota-onalarni pedagogik jihatdan tayyorlash, oilaviy qadriyatlar targ'ibotini kuchaytirish orqali jamiyatning sog'lom ijtimoiy-madaniy poydevorini barpo etishi zarur. Oila - bu jamiyat ko'zgusi, uning sifati esa butun kelajak avlodning shaxsiy fazilatlarini bilan bevosita bog'liqdir.

ADABIYOTLAR

1. Axmedova, N. Sh. Oila va yoshlar muammolari: ijtimoiy-psixologik yondashuv. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 212 b.
2. Jo'raev O. T., Mavlonov, T. S. Shaxs va jamiyat: sotsiologik yondashuv. – Toshkent: Ma'naviyat, 2016. – 188 b.
3. Rasulova, M. M. Bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishda oilaning o'rni. // Pedagogik ta'lim: muammo va yechimlar. – 2020. – №4. – B. 91–94.
4. Karimova, R. T. Oila sotsiologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 240 b.
5. Juraeva, D. T. Shaxs taraqqiyotida ijtimoiy muhit va oilaning ta'siri. // O'zbekiston fanlari akademiyasi axborotnomasi. – 2019. – №2. – B. 55–59.
6. Xudoyberganov, N. H. Inson psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2021. – 296 b.



Bahodir ESHBEKOV,
O'zbekiston jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi, PhD
E-mail: bahodireshbekov727@gmail.com

Siyosiy fanlar doktori, professor F.Xatamov taqrizi asosida

SIYOSIY KOMMUNIKATSIYA VA INTERNET KOMMUNIKATSIYASI: SIYOSIY-NAZARIY YONDASHUV

Annotatsiya

Maqolada siyosiy kommunikatsiya va internet kommunikatsiyasi fenomenlariga zamonaviy siyosiy-nazariy yondashuvlar nuqtai nazaridan tahliliy yondashilgan. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarning yangi avlod siyosiy kommunikatsion platforma sifatida shakllanishi, ularning siyosiy diskursni shakllantirishdagi roli, shuningdek, raqamli kommunikatsiya vositalarining siyosiy hokimiyat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi an'anaviy interaktiv modelni transformatsiyalashdagi ta'siri atroflicha o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Kommunikatsiya, siyosiy kommunikatsiya, muloqot, internet, siyosat, siyosiy diskurs, fuqarolik jamiyati, axborot xavfsizligi, raqamli savodxonlik, Xalq qabulxonalari, inson manfaatlari.

POLITICAL COMMUNICATION AND INTERNET COMMUNICATION: A POLITICO-THEORETICAL APPROACH

Annotation

The article provides an analytical approach to the phenomena of political communication and internet communication from the perspective of modern political and theoretical frameworks. Specifically, it explores in depth the emergence of social networks as a new generation of political communication platforms, their role in shaping political discourse, as well as the impact of digital communication tools on transforming the traditional interactive model between political authority and civil society.

Key words: Communication, political communication, dialogue, internet, politics, political discourse, civil society, information security, digital literacy, People's Reception Offices, human interests.

ПОЛИТИЧЕСКАЯ КОММУНИКАЦИЯ И ИНТЕРНЕТ-КОММУНИКАЦИЯ: ПОЛИТИКО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Аннотация

В статье представлен аналитический подход к феноменам политической коммуникации и интернет-коммуникации с точки зрения современных политико-теоретических концепций. В частности, подробно рассмотрено формирование социальных сетей как политической коммуникационной платформы нового поколения, их роль в формировании политического дискурса, а также влияние цифровых средств коммуникации на трансформацию традиционной модели взаимодействия между политической властью и гражданским обществом.

Ключевые слова: Коммуникация, политическая коммуникация, общение, интернет, политика, политический дискурс, гражданское общество, информационная безопасность, цифровая грамотность, Народные приемные, интересы человека.

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida inson manfaatlari, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash masalalari turibdi. Bu boradagi eng muhim mexanizmlardan biri sifatida Prezidentning Xalq qabulxonalari va virtual qabulxonalari faoliyat yuritmoqda. Ular fuqarolar bilan hokimiyat o'rtasidagi bevosita va ochiq muloqotni yo'lga qo'ygan, davlat boshqaruvida xalq ishtirokini kuchaytirgan inqilobiy vositalardan biri sifatida baholanishi mumkin. Frantsuz faylasufi M. Fuko ta'kidlaganidek, "hokimiyat bu faqat kuch emas, balki u doimiy ravishda til orqali amalga oshiriladigan va oqlanadigan jarayondir"[1]. Shu ma'noda siyosiy kommunikatsiya — bu hokimiyat diskursining vositasi. Masalan, siyosatchilar o'z chiqishlarida "xalq", "tinchlik", "taraqqiyot" kabi tushunchalarni tez-tez ishlatadilar. Bu so'zlar orqali ular o'z harakatlarini ma'naviy jihatdan asoslashadi, o'z siyosatini "haqiqat" sifatida ko'rsatishga urinadilar.

Shu ma'noda, O'zbekistonda ham oxirgi yillarda internetning siyosiy kommunikatsiyadagi o'rni sezilarli darajada oshishi, OAV va bloggerlarning faoliyatidagi ochiq muloqot, Prezident murojaatnomalari, elektron hukumat tizimlari — bularning barchasi siyosiy kommunikatsiyaning raqamli tus olgan yangi bosqichidir. Shu bilan birga, bu sohada etik me'yorlar, axborot xavfsizligi va raqamli savodxonlik kabi dolzarb muammolar mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Siyosiy g'oyalar va kommunikatsiya jarayonlarining dastlabki shakllari insoniyat tarixining qadim bosqichlaridanoq shakllangan bo'lib, bu boradagi ilk nazariy qarashlar qadimgi yunon faylasuflari — Aflotun (Platon) va Arastu (Aristotel) asarlarida chuqur tahlil etilgan. Ularning siyosat, jamiyat va hokimiyat o'rtasidagi o'zaro

munosabatlarga oid fikrlari zamonaviy siyosiy kommunikatsiya nazariyasining asosiy tamoyillarini shakllantirishda g'oyaviy zamin bo'lib xizmat qilgan.

Sharq uyg'onish davri mutafakkirlari — Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Nizom-ul mulk kabi allomalar o'z asarlarida siyosiy boshqaruv, adolatli jamiyat, davlat va fuqarolar o'rtasidagi muloqot madaniyati, axborotning ijtimoiy nazorat vositasi sifatidagi rolini chuqur falsafiy tahlil etganlar. Ayniqsa, Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" haqidagi ta'limoti "davlat boshqaruvida muloqot va axborot oqimining rolini e'tiborga olish zarurligini ta'kidlagan holda, kommunikatsiyaning siyosiy strukturani shakllantirishdagi ahamiyatini ko'rsatib bergan"[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy izlanishda tadqiqotning metodologik negizini zamonaviy siyosiy tahlilga xos bo'lgan yondashuvlar tashkil etadi. Jumladan, tizimlararo yondashuv, strukturaviy-funksional tahlil hamda siyosiy hodisalarni tipologik jihatdan tasniflash usullari asosiy analitik vosita sifatida qo'llanilgan. Bu uslublar siyosiy kommunikatsiyaning murakkablik darajasi, ko'p qatlamli tuzilmasi va uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aniqlash hamda izchil tahlil qilish imkonini yaratadi.

Tahlil va natijalar. Kommunikatsiya bo'lmagan joyda siyosat ham mavjud bo'la olmaydi. Aristotel siyosiy hayotni inson tabiati bilan bog'lagan holda, "inson — ijtimoiy mavjudot" deya ta'riflagan edi. Unga ko'ra, siyosat bu ijtimoiy mavjudotlar o'rtasidagi muvozanatni saqlab turuvchi vositadir, ya'ni siyosiy muloqot — ijtimoiy tartibning shakllanishi va saqlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Kommunikasiya (lot. *communicatio* - umumlashtiraman, bog'layman) degan ma'noni anglatadi. "Kommunikatsiya" atamasi (lotincha *communicatio* - umumiyashtirmoq, bog'lamoq, muloqot qilmoq) eng umumiy tushuncha hisoblanadi. "XIX asrdayoq kommunikatsiya odatda o'zining muhandislik-texnik ma'nosida "yo'llar, yo'llar, joylarni bog'lovchi vositalar" (V. Dal ta'rifiga ko'ra), harbiy-muhandislik kommunikatsiyalari sifatida qaralgan. XX asr boshlarida keng ilmiy muomalaga kiritilgan bu atama ijtimoiy-gumanitar bilimlarning turli sohalarida qo'llanilishi natijasida ijtimoiy mazmun kasb etdi" [2].

Kommunikasiyaning yana bir alohida turi bu siyosiy kommunikatsiya bo'lib, siyosiy institutlarni bir-biri bilan bog'lovchi vosita hisoblanadi. Bu turdagi kommunikatsiya orqali siyosiy qarorlar legitim asosda shakllanadi, ijtimoiy murosaga erishiladi va siyosiy jarayonlarning ochiqligi hamda hisobdorligi ta'minlanadi. Shu bois, siyosiy kommunikatsiya nafaqat axborot tarqatish, balki siyosiy irodani shakllantirish va siyosiy tizimlararo integratsiyani kuchaytirish vositasi sifatida ham talqin etiladi.

"Siyosiy kommunikatsiya" atamasi hozirgi mazmuni bilan yaqindagina siyosiy ilmlar lug'atida paydo bo'ldi. Politologik matnlarda ushbu tushunchaning bevosita qo'llanilishi ilk bor XX asr boshlarida yashagan F.Ratselga borib taqaladi: "siyosiy munosabatda axborot uzatish barcha kommunikasion xizmatlar ichidan eng muhimi sanaladi" [3].

Siyosat sohasidagi kommunikatsiya yoki siyosiy internet kommunikatsiya boshqa kommunikasion jarayonlar kabi uchta maqsadni ko'zlashi mumkin: "axborotni uzatish, fikrni o'zgartirish, xabardor bo'lganlarning xatti-harakatlarini o'zgartirish, ammo bu jarayonda asosiy narsa, shubhasiz, xatti-harakatlarning o'zgarishi, chunki u jamiyatdagi hokimiyat va boshqaruv munosabatlarining o'zagi hisoblanadi" [4]. Biroq, siyosiy kommunikatsiya jarayonida eng muhim omillardan biri sifatida insonlarning xulq-atvori va ijtimoiy-siyosiy faoliyatidagi transformatsiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan xatti-harakatlar dinamikasidagi o'zgarishlar ijtimoiy tuzilmalarda hukumat va fuqarolar o'rtasidagi boshqaruv-ijtimoiy aloqalar poydevorini shakllantiradi hamda siyosiy legitimlikning qay darajada barqaror bo'lishini belgilaydi. Shu jihatdan qaralganda, ommaviy axborot vositalari siyosiy maydonda strategik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Axborot oqimlari ustidan nazorat o'rnatish, ularni yo'naltirish yoki manipulyatsiya qilish mexanizmlari axborot jamiyatida hokimiyatni amalga oshirish, uni saqlab qolish yoki yangi kuchlar tomonidan egallash uchun zarur geosiyosiy va kommunikasion resursga aylanmoqda. Bu holat siyosiy maydonda raqobatning yangi bosqichini yuzaga keltirib, ommaviy kommunikatsiya vositalari (OKV)ning faqat axborot tarqatuvchi emas, balki ijtimoiy ong va siyosiy qarorlarni shakllantiruvchi kuch sifatidagi rolini yanada kuchaytiradi.

Siyosiy kommunikatsiya haqidagi zamonaviy nazariy qarashlar ildizi uzoq tarixga ega. Kommunikasiyaning antik davrdan buyon siyosiy ta'sir vositasi sifatida tushunilganligi haqida bizgacha yetib kelgan qadimiy yunon va rim manbalari guvohlik beradi. Platon hayoliy davlat haqidagi mulohazalarida "ma'rifiy maqsadlarda miflarni "qayta yozib olish" va xudolarning odamlar oldida yaxshi ko'rinishga ega bo'lmagan joylarini olib tashlash" [5] ni taklif qilgan. Arastu birinchi bo'lib, "oliy "umumiy farovonlik"ka erishishga yo'naltirilgan "muloqot"ni tahlil qilib, siyosiy faoliyat kommunikasion aspekti" [6] ga e'tibor qaratdi.

Natijada siyosatning kommunikasion mohiyati haqidagi alohida tasavvurlar "umumiy huquqiy tartibot"ni o'rnatish maqsadini ko'zlaydigan siyosiy muloqot haqida gapirgan. Siseron asarlarida huquqiy tushuncha ega bo'ldi. Lekin, bugungacha siyosat sohasida axborot ta'siri va o'zaro ta'sirlashuv jarayonlarini anglash va nazariy o'rganishda siyosiy kommunikatsiya hali-hanuz tadqiqotlarning nazariy metodologik obyekti sifatida o'rganilmagan.

Siyosiy kommunikatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishda, eng avvalo, uni siyosiy makonda kechayotgan faoliyat yoki institutsional jarayon sifatida anglash zarur. Ushbu fenomenni chuqur anglash uchun, avvalo, "kommunikatsiya" atamasining semantik va kontseptual mazmunini aniqlab olish lozim.

Xorijiy va mahalliy siyosatshunoslikda bu konsepsiyaga turlicha yondashuvlar mavjud. Tadqiqotlarda "kommunikatsiya" atamasi ba'zida axborot oqimini ifodalovchi neytral hodisa sifatida, ba'zida esa siyosiy kuchlarning strategik vositasi sifatida talqin qilinadi. Shunga qaramay, bu atama hanuzgacha ilmiy hamjamiyatda bahsli mavzulardan biri sifatida o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Bu holat, birinchi navbatda, "kommunikatsiya" tushunchasining tarixiy va nazariy evolyutsiyasi bilan bog'liq. Ya'ni, mazkur atama har bir tarixiy davrda, turli siyosiy kontekstlarda, har xil mazmuniy yuklama bilan qo'llanilgan. Ayniqsa, global axborot makonining kengayishi va siyosiy kommunikatsiya vositalarining texnologik transformatsiyasi ushbu tushunchaning kontseptual doirasini yanada murakkablashtirib yubordi.

Bu jarayonni nazariy jihatdan tahlil qilganda, siyosiy kommunikatsiya Antonio Gramshi ta'riflaganidek, "hegemoniya"ni shakllantirish vositasiga aylanadi. Ya'ni, siyosiy hokimiyat ommaviy ongda o'z hukmronligini qabul qildirish orqali ijtimoiy konsensus yaratadi" [14]. Habermasning "ijtimoiy ommaviylik" nazariyasiga ko'ra esa, "siyosiy kommunikatsiya – fuqarolarning jamoaviy fikr shakllanishiga xizmat qiluvchi, axborotning erkin almashinuvi asosida siyosiy qarorlar legitimligini ta'minlovchi asosiy maydon hisoblanadi" [15].

Bugungi global siyosiy realitetda siyosiy kommunikatsiya shunchaki informatsion faoliyat emas, balki siyosiy rejimlar o'zini saqlab qolish strategiyasi sifatida qaralmoqda. Bu jarayonda siyosiy diskurslar, framing (muammoni belgilash), spin (axborotni burish) kabi texnikalar orqali siyosiy haqiqat ijtimoiy ongda shakllantiriladi.

Davlat boshqaruvi samaradorligi ham bevosita siyosiy kommunikatsiyaning ochiqligi, izchilligi va ishonchiligi bog'liq. Komponentlararo (davlat – jamiyat – OAV – siyosiy partiyalar) kommunikativ muvofiqlik mavjud bo'lgan tizimlarda boshqaruvga bo'lgan ijtimoiy ishonch yuqori bo'ladi, bu esa o'z navbatida siyosiy tizimning legallik resurslarini boyitadi.

Shuningdek, siyosiy kommunikatsiya orqali siyosiy irodaning ijtimoiy ongda anglashuvi va qabul qilinishi ta'minlanadi. Bu jarayonni M. Veberning legitimlik tiplari nuqtai nazaridan qaraganda, "kommunikatsiya - an'anaviy, xarizmatik va ratsional-huquqiy legitimlik uslublarini o'zida mujassamlashtirgan vosita sifatida maydonga chiqadi" [13].

Siyosiy kommunikatsiyaning samaradorligi — bu faqat texnologik yoki tashkiliy masala emas, balki siyosiy tizimning ochiqligi, pluralizmi va ishtirokchilik darajasi bilan bevosita bog'liqdir. U siyosiy kuchlar o'rtasidagi muloqotni tashkil etish, ommaviy ongga ta'sir o'tkazish, ijtimoiy konsensusga erishish, va eng asosiysi — siyosiy qarorlar jarayonini ijtimoiy qonuniyatlarga mos tarzda olib borishda hal qiluvchi o'ringa ega.

Bugungi globallashuv va raqamli siyosiy makon sharoitida siyosiy kommunikatsiya faqat davlat idoralari bilan cheklanmaydi; u raqamli platformalarda shakllanayotgan yangi siyosiy identifikatsiyalar, fuqarolik faolligi va axborot strategiyalari orqali siyosiy realitetni qayta formatlash vositasiga aylanmoqda. Siyosiy kommunikatsiyaning samarali olib borilishi — bu demokratik legitimlikni mustahkamlash, ijtimoiy kelishuvni ta'minlash hamda davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni kuchaytirishning kalitidir. Bu borada rus politolog-olimi S.V.Paulovning fikrlari diqqatga sazavor; "siyosiy kommunikatsiya bir vaqtning o'zida siyosiy tizimning elementi va siyosiy jarayonning muhim tarkibiy qismi bo'lishi bilan birga, ikki tomonlama xususiyatga ega degan xulosaga kelishimiz mumkin. Siyosiy va ijtimoiy institutlarning o'zgarishi natijasida siyosiy kommunikatsiyaning roli sezilarli darajada o'zgaradi: tizim elementlari va atrof-muhit o'rtasida ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlarning aylanishini ta'minlaydigan texnik vositadan siyosiy aloqa siyosiy kommunikatsiyani uzatishning mustaqil jarayoniga aylanadi, jamiyatning turli siyosiy subyektlari va institutlari o'z rollari va funktsiyalarini samarali bajarishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarning barqarorligini ta'minlaydi" [7].

Shu jihatdan, siyosiy kommunikatsiyani chuqurlashtirish va uni institutsional darajada takomillashtirish — har bir taraqqiyotgan davlat uchun strategik vazifa hisoblanadi. Ko'plab sharq mamlakatlari, xususan, "Markaziy Osiy davlatlarida dodxohliklavozimlari joriy qilingan bo'lib, dodxohning vazifasi

xalqni arzi-holini hukmdorga yoki joylardagi hokimlar, voliyarga yetkazish bo'lgan" [8]. Shu muloqot orqali hukmdorlar yoki joylardagi xukumat vakillari ijtimoiy muammolarni hal qilib, siyosiy hokimiyat barqarorligini ta'minlab kelgan. Bu o'z davrida halq bilan muloqotning bir ko'rinishi bo'lgan.

Xulosa va takliflar. Mustaqillik davrida, ayniqsa, Prezident Sh.M.Miziyoyev boshqaruvga kelgandan keyin joriy qilingan xalq bilan muloqotning mutlaqo yangi shakli "Xalq qabulxonalari"ning joriy qilinishi, mamlakatimizda anhadan buyon yig'ilib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy-maishiy muammolarni aniqlanishiga va tezkor yechimlarini topilishiga asos bo'ldi. Yurtimizda fuqarolarning qonuniy manfaatları hamda

inson huquq va erkinliklarini himoya qilishda Xalq qabulxonalari va virtual qabulxonalarning ahamiyati beqiyos [9]. Ushbu tizimning asosi bo'lgan "Prezident virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalari bevosita davlat rahbariga murojaat qilish, xalq bilan doimiy muloqot olib borish, odamlarni qiyab kelayotgan muammolarni o'z vaqtida samarali hal etishning ta'sirchan mexanizmiga aylandi" [10]. Biz bu o'rinda, xalq bilan muloqotning ilgari mamalakatimiz tarixida bo'lmagan shakli, vrtual shakliga o'tilishi, siyosiy kommunikasiyaning tezkor aloqa tarziga e'tiborni qaratishimiz muhim. Zero bu tizim faqat takomillashib kelmoqda. Bu esa zamon talabi va ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlar omilidir.

ADABIYOTLAR

1. Фуко Мишель. Интеллектуалы и власть: Избранные политические статьи, выступления и интервью. - М.: Праксис, 2002. — Ч. 3. — с.170.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. - 160 b.
3. Ratzel F. Politische Geographic. – Oldenburg, 1903; Цыганков П.А. Международные процессы в условиях глобализации: проблема эффективной коммуникации // Вестник Московского университета. Серия 18: Социология и политология. - 1999. - № 4. – С.57.
4. Грачев М.Н. Политическая коммуникация: теоретико-методологический анализ: Автор.диссер. на соискание ученой степени док. полит.наук.- М.: Моск. пед. гос.универ, 2005.-с.6.
5. Платон. Государство // Платон. Филеб,Государство, Тимей, Критий. - М.: Мысль, 1999. 420 с.
6. Аристотель. Политика. // Аристотель. Сочинения: В 4 т. Т.4. – М.: Мысль, 1983. 644 с.
7. Аристотель. Сочинения: В 4-х т. Т. 4 / Пер. с древнегреч.; общ. ред. А. И. Доватура. - М.: Мысль, 1983. - Б. 830.
8. Паулов С. В. Политическая коммуникация как способ формирования социальных связей //Авт. дисс. канд. полит. наук. - Санкт-Петербург,2009. –С.7.
9. Додхох хакида // <https://qomus.info/encyclopedia/cat-d/dodxoh-uz/>
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 январдаги ПФ-5633-сонли «Аҳоли муаммолари билан ишлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони. <https://lex.uz/docs/4208064>
11. Hasanov S. Xalq qabulxonalari faoliyatini ilmiy va amaliy jihatdan o'rganmasdan turib ularni takomillashtirish mushkul // https://pm.gov.uz/oz/lists/view/820?sort=closed_at
12. Сейдабуллаева Н.Т. Сиёсий коммуникация тушунчаси ва унинг мазмун-моҳияти. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA. Date: 1st February, 2023. –pp.56-64.
13. Wæraas, Arild. (2018). On Weber: Legitimacy and Legitimation in Public Relations. // Public Relations and Social Theory. 2nd Edition – 2018. – pp.21.
14. Hegemony in Gramsci // <https://scholarblogs.emory.edu/postcolonialstudies/2014/06/20/hegemony-in-gramsci/>
15. Habermas, Jürgen (2006): "Political communication in media society: Does democracy still enjoy an epistemic dimension? The impact of normative theory on empirical research". In: Communication Theory. 16 (4), 411–426.



Nagima YUSUPOVA,
ISFT instituti katta o'qituvshisi
E-mail: nagimausupov@gmail.com

NamDPI dotsenti, PhD B. Ataxanov taqrizi asosida

REFORMS TO IMPROVE THE QUALITY OF HIGHER EDUCATION TODAY - AS A FACTOR OF SOCIAL DEVELOPMENT

Annotation

This article analyzes the reforms being implemented in Uzbekistan to modernize the higher education system and their impact on social development. Factors such as improving the quality of education, introducing educational programs in line with international standards, strengthening the capacity of teaching staff, creating an innovative environment for students, and ensuring equal opportunities in education are highlighted. The article emphasizes the role of reforms as a factor serving social stability and the development of the country.

Key words: Higher education, quality of education, reforms, social development, innovative environment, international standards, credit-module system, pedagogical potential, competitiveness, equal opportunities in education.

BUGUNGI KUNDA OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ISLOHOTLAR – IJTIMOIIY TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri tahlil qilinadi. Ta'lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarga mos ta'lim dasturlarini joriy etish, pedagog kadrlar salohiyatini kuchaytirish, talabalar uchun innovatsion muhit yaratish va ta'limdagi teng imkoniyatlarni ta'minlash kabi omillar yoritilgan. Maqolada islohotlarning ijtimoiy barqarorlik va mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi omil sifatida o'zining alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, ta'lim sifati, islohotlar, ijtimoiy taraqqiyot, innovatsion muhit, xalqaro standartlar, kredit-modul tizimi, pedagogik salohiyat, raqobatbardoshlik, ta'limga teng imkoniyatlar.

РЕФОРМЫ ПО ПОВЫШЕНИЮ КАЧЕСТВА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ СЕГОДНЯ - КАК ФАКТОР ОБЩЕСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация

В статье анализируются реформы, реализуемые в Узбекистане по модернизации системы высшего образования, и их влияние на общественное развитие. Выделены такие факторы, как повышение качества образования, внедрение образовательных программ в соответствии с международными стандартами, укрепление потенциала преподавательского состава, создание инновационной среды для студентов, обеспечение равных возможностей в образовании. В статье подчеркивается роль реформ как фактора, служащего социальной стабильности и развитию страны.

Ключевые слова: Высшее образование, качество образования, реформы, общественное развитие, инновационная среда, международные стандарты, кредитно-модульная система, педагогический потенциал, конкурентоспособность, равные возможности в образовании.

Introduction. In the context of globalization, the development of each country depends, first of all, on its educated, capable and qualified personnel. The higher education sector plays a decisive role in training these personnel. Today, reforming the higher education system in Uzbekistan and bringing its quality to the level of international requirements has become one of the priority areas of state policy. It is natural that these reforms will affect not only the education system, but also every layer of society, becoming an important factor in social development. Today, work aimed at improving the quality of education is gaining momentum all over the world. Since the development and prospects of society largely depend on personnel, the tendency to realize that education plays a key role in this has increased. From this perspective, achieving the quality and effectiveness of education is important. We will witness the activation of various approaches to understanding the philosophical essence of the reforms implemented in our country in recent years in the coming decades. In particular, there are many scientific studies focused on cognitive analysis.

The reforms in the higher education system implemented in our country in recent years are significant in that they are ultimately aimed at improving the quality of higher education. This, in turn, requires further improvement of the system of training highly qualified personnel that meets the high requirements of the formation of civil society and recognized

standards, and the study of advanced modern technologies, innovative educational and upbringing processes in deepening the processes of radical reform and modernization of the education system.

As is known, the concept of quality of education received its international name at the World Conference on Higher Education and Further Improvement of Its Quality, held in Paris in 1998. At this conference, with the participation of 29 countries, it was emphasized that ensuring the quality of education is a long-term strategic task of educational institutions. There is no single approach or methodology in scientific and philosophical literature to explain the philosophical essence of the concept of quality of education. According to theoreticians, philosophers, and practitioners who study the higher education system and its processes, it is very difficult to give a single definition of the quality of education. Because there are a number of objective and subjective factors that affect it, which make it difficult to give a single definition. That is, we all know that factors such as the characteristics of each region, the mentality of the nation, its historical roots, the stages of the formation of the education system over a long history, the influence of cultures and civilizations cannot fail to have their impact. Also, given that there is no ideal education system in the world, life, due to the reforms being carried out in this regard and the day-to-day development of social relations in society, imposes new and new

requirements on us, which requires constant improvement of the "Quality of Education". The emergence of new discoveries and inventions even creates the need for social changes in education.

Experts include the following factors in ensuring the quality of education: a) educational institutions; b) professors and teachers; c) students, graduates; d) parents; d) consumers, personnel customers. In 1998, the World Conference on Higher Education organized by UNESCO adopted the "World Declaration on Higher Education for the 21st Century". This declaration defined the concept of quality of education as follows: "Quality is a multidisciplinary concept in higher education, which includes all functions and types of activities, educational and academic programs, scientific research and scholarships, providing educational institutions with qualified and qualified personnel, students who work independently on their own, buildings, structures, material and technical base, devices and equipment, and employment of graduates." If we turn to the opinions of scientists, Jim Collins emphasizes: "The leaders of large companies began the reorganization process by recruiting the right people for their team and getting rid of the unnecessary ones. Then they chose which direction to swim. The main idea is that people decide everything, the word "who" is more important than the word "what". Because people are a strategy, an organizational structure, a tactic. Companies today need to create their own foundations for moving to a new qualitative stage.

Literature review. In my opinion, the fundamental answer to this question is the issue of personnel. In short, these thoughts of Jim Collins are consistent with the statement that today the quality of personnel training should correspond to the quality of education. For this, it is necessary to train highly qualified personnel capable of carrying out innovative activities in educational institutions. In short, without more thorough training of personnel, without appreciating them, it is impossible to achieve success in any field.

The development of science, technology and engineering in modern society imposes on the higher education system the following tasks, among which are a) high-quality and guaranteed training of personnel; b) ensuring the mobility of professors and teachers and students; d) improving the methods of evaluating educational programs in the activities of higher educational institutions, and others. In our country, a number of legal and regulatory documents have been developed and actively implemented in the past three years to improve the quality of the higher education system. If we pay attention to the philosophical essence and content of the priority tasks set out in the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On Approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030" of October 8, 2019, as one of such important strategic documents, we will see that the main goal is to determine the priority areas of systemic reform of higher education in the Republic of Uzbekistan, to raise the process of training highly qualified personnel with modern knowledge and high spiritual and moral qualities, independent thinking to a qualitatively new level, to modernize higher education, and to develop the social sphere and economic sectors based on advanced educational technologies. Based on the purpose of the Decree, the following tasks are envisaged to be implemented consistently. That is, these include tasks such as: "developing public-private partnerships in the field of higher education, increasing the coverage of higher education by more than 50 percent based on the organization of the activities of state and non-state higher education institutions in the regions, creating a healthy competitive environment in the field; introducing advanced standards of higher education based on international experience, including a gradual transition from education focused on acquiring theoretical knowledge in curricula to an education system focused on the formation of practical skills; raising the content of higher education to a qualitatively new level, establishing a system for training highly qualified personnel who can make a worthy contribution to the sustainable development of the social sphere and economic sectors, and find their place in the labor market."

It can be said that the active implementation of the tasks set out in the decree in the future will undoubtedly serve not only to improve the quality of the higher education system, but also to increase the prestige and authority of our country in the world and to achieve the level of development of the leading countries of the world. Also, by increasing the coverage of higher education of our country's population, as envisaged in the decree, one of the basic laws of philosophy, namely "quantitative changes with qualitative changes", will establish the cultivation of quality personnel and develop a healthy competitive environment among personnel, which ultimately will serve to meet the needs of society for quality personnel. For this, it is necessary to increase the effectiveness of the educational process and further improve the quality of education by introducing modern pedagogical technologies into the educational process. In this regard, President Sh.M. Mirziyoyev gave the following instructions: "...in my opinion, it is necessary to solve two main tasks: first, the material and technical base of scientific institutions should be significantly strengthened to the level of advanced foreign centers and in accordance with the requirements of scientists. Of course, this must take into account the needs of the state and its target objectives;

Important practical steps have been taken to expand the participation of the higher education system in developing the higher education system, providing our country's steadily growing economy with highly qualified personnel, and addressing issues of strategically integrated development of all regions and sectors.

Analysis and results. Psychologist T.V. Volodina noted that "in order to improve the professional activity of a teacher, it is necessary to perceive the pedagogical process as a system." Thus, the quality of personnel being trained in the higher education system largely depends on the professional dedication of professors and teachers working in the higher education system. If we study the existing problems in the higher education system of Uzbekistan based on statistical data, we will witness the existence of social problems that are waiting for an adequate solution. If we analyze as of January 1, 2013, the coverage of the number of students in the higher education system was 9%, which is low compared to regional and international standards and sharply differs from the situation at the primary and secondary levels of the education system of Uzbekistan (where almost 100% of the school-age population is covered). The centralized planning system determines both the number of students in higher education institutions (universities and institutes) and their fields of study. The number of places in higher education institutions in each direction is determined by state resolutions, and students are selected based on the results of national tests conducted by the State Testing Center under the Cabinet of Ministers. With almost 100% coverage of the secondary education system and 9% of higher education, 9 out of 10 school graduates cannot enter university, the demand for higher education is high, and competition for each place offered at universities exceeds 6 people. 60% of students entering universities are men (in recent years, the share of women in universities has decreased, unlike in other countries in the region. There were various reasons for this). Although such issues have led to partial changes in the last three years, they still do not fully meet international standards. This can be attributed to the fact that a number of bureaucratic obstacles still remain. Even the modernizations of 2019 have not stopped the shortage of highly educated personnel in Uzbekistan.

Conclusion. In conclusion, the reforms being implemented in the higher education system of Uzbekistan are not only improving the quality of education, but also increasing the intellectual and social potential of the entire society. These reforms are one of the main factors ensuring social stability, economic development, the development of young people into qualified specialists, and the country's competitiveness in the international arena. If consistent efforts in this direction are continued in the future, there is no doubt that the social development of Uzbekistan will be stable and long-term.

REFERENCES

1. Kaipbergenova, D. (2017). The importance of material designing in language teaching. вестник каракалпакского государственного университета имени бердаха, 34(3), 62-63.
2. Kaipbergenova, D. (2016). Chet tili o‘qituvchilarining kasbiy vazifalari va pedagogic mahorati haqida. Вестник Каракалпакского государственного университета имени Бердаха, 33(4), 48-50.
3. Каипберганава, Д. О. (2020). Совершенствование практики организации системы повышения квалификации на основе дистанционного обучения. In Инновационное развитие: потенциал науки и современного образования (pp. 211-213).
4. Каипбергенова, Д. О. (2016). The role of language learning strategies in learning foreign languages. Молодой ученый, (12-4), 83-85.
5. Айтбайев, М. (2024). Mahmud Zamaxshariyning borliq haqidagi qarashlari. O‘zMU xabarlari , 1 (1,9), 44-46.
6. Айтбайев, М. (2024). Mahmud Zamaxshariyning “Atvoq uz-zahab” asarida falsafiy-axloqiy masalalar yechimi. Tamaddun nuri jurnali, 7(58), 198-202.



UDK: -930.85

Nargiza YUSUPOVA,

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti

E-mail: nargizayusupova1976@gmail.com

PhD M. Qirg'izboev taqrizi ostida

KEY ASPECTS OF THE AESTHETIC ESSENCE OF UZBEK ETHNIC MUSIC

Annotation

The article is devoted to an in-depth study of the aesthetic aspects of Uzbek ethnic music. It highlights musical heritage values such as Shashmaqom, which is protected by UNESCO, while also addressing the challenges faced by ethnic music in the modern era, including the decline in the number of traditional performers, decreasing interest among the youth, and the impact of globalization. Proposed solutions include creating digital archives, organizing festivals, and improving music education. The article will be of interest not only to specialists in ethnic music but also to any reader who values cultural heritage.

Key words: Uzbek ethnic music, maqom art, Shashmaqom, UNESCO heritage, music schools, national culture, preservation of musical heritage.

ОСНОВНЫЕ АСПЕКТЫ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ СУЩНОСТИ УЗБЕКСКОЙ ЭТНОМУЗЫКИ

Аннотация

Статья посвящена глубокому изучению эстетических аспектов узбекской этномызыки. В ней освещаются такие ценности музыкального наследия, как Шашмаком, охраняемый ЮНЕСКО, а также рассматриваются проблемы, с которыми сталкивается этномызыка в современную эпоху, включая сокращение числа традиционных исполнителей, снижение интереса среди молодежи и влияние глобализации. В качестве решений предлагаются создание цифровых архивов, организация фестивалей и улучшение музыкального образования. Статья будет интересна не только специалистам в области этномызыки, но и всем читателям, ценящим культурное наследие.

Ключевые слова: Узбекская этномызыка, искусство макома, шашмаком, наследие ЮНЕСКО, музыкальные школы, национальная культура, сохранение музыкального наследия.

O'ZBEK ETNOMUSIQASINING ESTETIK MOHIYATINING ASOSIY JIHLTLARI

Annotatsiya

Maqola o'zbek etnomusiqasining estetik jihatlari chuqur o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada Shashmaqom kabi YUNESKO tomonidan himoyalangan musiqiy meros qadriyatlarini yoritilish bilan birgalikda, zamonaviy davrda etnomusiqaning qiyinchiliklari, jumladan an'anaviy ijrochilar sonining kamayishi, yoshlarning qiziqishining pasayishi va globalizatsiya ta'siri kabi muammolarga haqida gap boradi. Ushbu muammolarga yechim sifatida raqamli arxivlar yaratish, festivallar tashkil etish va musiqa ta'limini yaxshilash kabi takliflar berilgan. Maqola nafaqat etnomusiqasohasidagi mutaxassislar, balki madaniyat merosini qadrlashni istagan har qanday o'quvchi uchun qiziqarli bo'ladi.

Kalit so'zlar: O'zbek etnomusiqasi, maqom san'ati, shashmaqom, YUNESKO merosi, musiqa maktablari, milliy madaniyat, musiqa merosini saqlash.

Kirish. O'zbek etnomusiqasi – Markaziy Osiyo madaniyatining noyob durdonasi bo'lib, u ming yillik tarix davomida shakllangan estetik qadriyatlar tizimini o'zida mujassam etgan. Etnomusiqasohasidagi nafaqat san'at turi, balki xalqning ruhiy holatini, tafakkurini va madaniy o'zligini ifodalovchi omildir. Mazkur maqolada o'zbek etnomusiqasining estetik qadriyat sifatidagi mohiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy davrda globalizatsiya ta'siri ostida milliy musiqiy an'analarning saqlanishi dolzarb muammoga aylanganligi sababli, etnomusiqaning estetik mohiyatini o'rganish ahamiyati ortib bormoqda.

Bugungi kunga kelib O'zbekiston milliy madaniyat merosini qayta tiklash va rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtai nazardan, etnomusiqaning estetik qadriyatlarini o'rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham juda muhimdir.

Tadqiqotning maqsadi: O'zbekiston hududlarida tarqalgan etnomusiqasohasidagi janrlarining estetik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning milliy madaniyatdagi o'rnini aniqlash.

Tadqiqotning ahamiyati:

Tadqiqot natijalari musiqiy merosni saqlash, ta'lim jarayonida qo'llash va globallashtirish davrida etnomadaniy plyuralizm rivojlanishida undan foydalanish, milliy musiqiy merosni tizimlashtirish, zamonaviy etnomusiqaning umuminsoniy estetik qadriyatlar tizimida tutgan o'rnini e'tirof etish, madaniy turizmni rivojlantirishda etnomusiqadan samarali foydalanishda ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. F.Karomatov[12], R.Abdullayev[1], O. Matyoqubov[4], Sh. Abdurashidov[2], A. Hoshimov[7] etnomusiqaning an'anaviy jihatini tahlil qilish ekan o'zbek etnomusiqasohasidagi san'atining tarixi, rivoji va zamonaviy holatini tahlili, o'zbek folklor musiqasohasidagi o'ziga xos xususiyatlari, maqom musiqasohasidagi an'anaviy va zamonaviy talqinlari, musiqa ta'limining ahamiyati, musiqa tarbiyasohasidagi ahamiyati, musiqaning inson ruhiyatiga ta'siri, musiqa tinglash va ijro etish jarayonining estetik jihatlari tahlil qilish orqali an'anaviylikka urg'u beradi.

Ulardan farqli ravishda Amerikalik olim J. During o'zining "Cyentral Asian Maqam Traditions"[3] asarida maqomning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali uning zamonaviy davrga kelib qanday o'zgarishi, rivojlanishi, yangi ijro usullarining shakllanishi haqida fikrlar bayon etadi. Shu orqali J. During etnomusiqaning zamonaviy interpretatsiyalarini o'rgangan.

B. Nettl o'zining "The Study of Ethnomusicology"[5] asarida etnomusiqaning kelajagini va bu sohada muammolarni, shuningdek, yangi yondashuvlar va tadqiqotlar istiqbollari haqida fikrlar bildiradi. B. Nettlning o'zbek etnomusiqasi bevosita muhokama qilmasa-da, olim etnomusiqasohasidagi keng qamrovli yondashuvlar va metodologiyalarni taqdim etadi. Bu esa o'zbek musiqasohasini o'rganishning muhim asoslari va umuminsoniy estetik tamoyillarni yaratadi.

O'zbek etnomusiqasohasini umuminsoniy qadriyat sifatida saqlash masalasi UNESCO hujjatlari[2] orqali bir necha bor aks etgan.

O'zbek etnomusiqasiga oid yuqoridagi ilmiy adabiyotlar o'rganilishi natijasida quyidagi jihatlar kam e'tibor qaratilganini ko'rishimiz mumkin: sovet davri ma'lumotlari yetarli

o'rganilmagan, ayol ijrochilarning roli kam yoritilgan, milliy mualliflar asarlarida gender tahlili keltirilmagan.

Metodologik yondashuvlar nuqtai-nazardan:

Manba	Metodologik jihat	Qo'shgan hissasi
F. Qaromatov (1985)	Tarixiy-tasviriy	O'zbek musiqasining tizimli tasnifi
O. Matyoqubov (1998)	Maqom nazariyasi	Shashmaqom tizimining tahlili
B. Nett (2005)	Qiyosiy metod	Markaziy Osiyo musiqasining umuminsoniy jihatlar
UNESCO (2008)	Hujjatlashtirish	Dunyo merosi sifatida qadrlash mezonlari

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola umumqabul qilingan metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, estetik-falsafiy tahlil, ketma-ketlik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbek etnomusiqasi xalqning ijtimoiy-maishiy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga bog'liq holda asrlar davomida shakllangan. Etnomusiqasi madaniyati inson hayotining turli sohalarida – oilaviy hayot, xo'jalik faoliyati, diniy marosimlar va tabiiy hodisalar bilan bog'liq. Folklor ijrochilari – qo'shiqchilar ijtimoiy va estetik vazifalarni birlashtirganlar.

1. Etnomusiqaning estetik qadriyat sifatidagi o'rni Har bir xalqning etnomusiqasi uning madaniyatining ajralmas qismi sanaladi. O'zbek etnomusiqasi ham qadimiy an'analar, milliy ohanglar va ma'naviy qadriyatlar bilan boyitilgan bo'lib, u o'zida his-tuyg'ularni hamda tarixiy voqealarni, urf-odatlar va qadriyatlarni aks ettiradi.

Bu musiqaning asosiy jihatlaridan biri shundaki, u o'z tinglovchisiga huqur emotsional ta'sir o'tkazish xususiyatiga ega. Ohanglar orqali yaratilgan san'at asarlari sevgi, qayg'u, baxt, quvonch, shodlik kabi tuyg'ularini uyg'tib, tinglovchilarga ijrochilarning va umuman xalqning ichki dunyosi bilan aloqaga kirish imkonini beradi. Etnomusiqasi turli marosimlarda ham muhim rol o'ynaydi. Undan turli ijtimoiy tadbirlarda, jumladan: to'ylar, bayramlar, marosimlarda keng foydalaniladi. Undagi lirizm, badiiy ifoda va hissiyotlar tinglovchiga estetik zavq bag'ishlaydi. Jumladan, maqom san'ati, ashula va laparlar, xalq qo'shiqlari xalqning estetik didini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, O'zbek etnomusiqasi zamon talablarga moslashib, rivojlanishga intiladi, bu esa uning dolzarbligini saqlab qolishga yordam beradi. Zamonaviy ijrochilar an'anaviy elementlardan foydalangan holda yangi tovush yaratib, madaniy ta'sirlar xilma-xilligini ko'paytiradilar. Bu esa o'z navbatida O'zbek etnomusiqasining estetik qadriyatini kuchaytirib, uning asl ildizlarini saqlab qolishga yordam beradi.

O'zbek etnomusiqasi faqat musiqasi sifatida emas, balki ijtimoiy va madaniy qadriyat sifatida xalqni birlashtirish va tarixiy xotirani saqlashga hissa qo'shadigan muhim jihatlardan biridir.

2. O'zbek etnomusiqasining turlari va ularning estetik xususiyatlari. O'zbek etnomusiqasi o'z ichiga turli janrlarni oladi:

Maqom san'ati – falsafiy mazmun va badiiy teranlik bilan ajralib turadi.

Xalq qo'shiqlari – hayotiy voqealarni aks ettirib, xalqning ichki dunyosini yoritadi.

Dostonlar va ternalar – epik janr sifatida qahramonlik, mehr-oqibat va insoniy fazilatlarini tarannum etadi.

Baxshichilik san'ati – jonli ijro an'analari asoslangan bo'lib, improvizatsiya va badiiy ta'sir kuchi bilan ajralib turadi.

Afsungarlik qo'shiqlari va shamanizm ta'siri: Qadimda odamlar tabiatga ta'sir qilish vositasi sifatida afsungarlik qo'shiqlaridan foydalanishgan. Bu qo'shiqlar Navro'z, ekin ekish, hosil yig'ish va tabiiy hodisalarga bag'ishlangan bo'lib, ular shamanizm an'analari bilan mushtaraklikka ega.

Etnomusiqasi to'y-qo'shiqlari va ularning ahamiyati: Zamonaviy o'zbek etnomusiqasida to'y-qo'shiqlari muhim o'rin tutadi. Bularga beshik to'y, sunnat to'y, muchal to'y, nikoh to'y kabi marosimlarda ijro etiladigan qo'shiqlar kiradi. "Yor-yor", "Kelin salom" kabi an'anaviy qo'shiqlar ushbu jarayonda asosiy ahamiyatga ega.

Motam-marosimi qo'shiqlari: Dafn marosimida "Yig'i" singari motam qo'shiqlari ijro etiladi. Bu qo'shiqlar ijrochining his-tuyg'ularini ifodalash uchun xizmat qiladi.

3. Etnomusiqaning jamiyatga estetik ta'siri Etnomusiqaning estetik qadriyat sifatida jamiyat hayotiga ko'rsatadigan ta'siri quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Ruhiy poklanish va estetik zavq – O'zbek etnomusiqasi insonni ichki uyg'unlikka yetaklaydi.

Madaniy merosni asrab-avaylash – Milliy musiqiy an'analar kelajak avlodga estetik qadriyat sifatida yetkaziladi.

Ijodiy tafakkurni shakllantirish – Musiqasi orqali insonlar badiiy did va ijodiy qobiliyatni rivojlantiradi.

4. Zamonaviy madaniyat va etnomusiqasi uyg'unligi Bugungi kunda O'zbek etnomusiqasi zamonaviy musiqasi bilan uyg'unlashib, yangi janr va uslublarda rivojlanmoqda. Pop, jazz va boshqa janrlarga etnomusiqaning elementlari singdirilib, yangi musiqiy yo'nalishlar paydo bo'lmoqda. Bu esa milliy musiqamizning nafaqat saqlanib qolishiga, balki yangi avlod orasida ommalashishiga xizmat qiladi.

1. O'zbek etnomusiqasining tabiat bilan bog'liqligi:

O'zbek etnomusiqasining estetik qadriyatlarining asosida uning tabiat bilan uzviy bog'liqligi yotadi. Bu musiqiy asarlarning quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

Cholg'u vositalarining yasaliishi: Dutor, tanbur, qo'biz kabi asboblari yog'och, teri va ip kabi tabiiy materiallardan tayyorlanadi.

Tematikasi: "Bog'", "Daryo", "Bulbul", "Rayhon" kabi va umuman olganda ona tabiatni ifodalash, e'zozlash mazkur kuy-qo'shiqlarda markaziy o'rinni egallaydi.

Misol: Farg'ona vodiysining "Suvora" qo'shig'ida daryo oqimining jo'shqinligi va ritmi "Suvora" musiqasining usullarga aylangan.

2. Mazmuni va badiiy-ifodaga boyligi:

Etnomusiqasi badiiy-ifodaning quyidagi jihatlarini o'z ichiga oladi:

Madhiya yo'nalishida: "Vatan", "Ona", "Ota", "Farzand" oilaviy va milliy ahilchilikni, birodarlikni mustahkamlashga yordam beradi;

Liriklik: "Yor-yor", "Sevgi-muhabbat" mavzuidagi qo'shiqlar;

Epiklik: "Alpomish", "G'orog'li" kabi dostonlardagi musiqiy epizodlar;

Falsafiylik: Shashmaqomdagi "Saraxbor" kabi maqomlarning chuqur ma'nolari.

Masalan: Buxoro maqom maktabida har bir maqom inson hayotining bir bosqichini ramziy ifodalaydi.

3. Shakli jihatdan analiz qilsak:

Etnomusiqaning estetik qamrovini quyidagi unsurlar ta'minlaydi:

Nazariy tizim:

Maqomlar (Shashmaqom, Xorazm maqomlari)

Ashula turlari (Katta ashula, Lapar, Yalla)

Ijro uslublari:

Buxoro – didaktik va ravon

Xorazm – jo'shqin va harakatli

4. Ijodiy erkinlik va an'anaviylik uyg'unligi

O'zbek etnomusiqasining noyob estetik jihatlaridan biri – improvizatsiya bilan qat'iy an'analarning uyg'unligidir:

Ruxsat etilgan chegaralar: Har bir maqomning muayyan nag'masi strukturaga ega.

Ijrochi erkinligi: "Barmoqlar bilan ishlash" (melodik ornamentlik) va "Usul o'zgartirish" kabi ijodiy imkoniyatlar.

Diqqatga sazovor jihat: Toshkent "Katta ashula" ijrochilarining har biri o'ziga xos betakror, original hisoblanadi.

5. Ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyati

Etnomusiqa estetikasi faqat badiiy emas, balki tarbiyaviy funksiyalarga ham ega:

Axloqiy qadriyatlar: "Vatanparvarlik", mehnatni ulug'lash, ota-ona mavzudagi qo'shiqlar;

Ijtimoiy birdamlikka bag'ishlangan: "Navro'z", "Sumalak" marosim qo'shiqlarining birlashtiruvchi roli

Kasb-hunar targ'iboti: "Chakki qo'shig'i", "Paxta terish qo'shig'i" kabi mehnat qo'shiqlari;

Qiyosiy tahlil: Xorazm "Lapar"lari xalq orasida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita bo'lib xizmat qilgan.

6. Zamonaviylik va an'anaviylik muammosi

Zamonaviy sharoitda etnomusiqa estetik qadriyatlarini saqlashda quyidagi muammolar yuzaga kelmoqda:

Avlodan-avlodga o'tishning kamayishi (an'anaviy ijrochilarning asosiy tarkibi 50-60 yosh atrofida);

Elektron musiqa tashkili (yosh avlodning katta qismi "mumtoz" musiqani emas, "aralash" uslubni afzal ko'rishadi);

Kommertsiallashuv xavfi (turistik ko'rgazmalarda original nusxalarning o'zgartirilishi).

Viloyatlar etnomusiqa estetik jihatlari:

Buxoro musiqiy maktabi:

Shashmaqom tizimining murakkabligi;

Ijrochilik uslubining nozikligi;

Estetik tamoyillar: falsafiy chuqurlik, ramziylik.

Farg'ona musiqiy maktabi:

Katta ashula janrining xususiyatlari;

Lirik ohangdorlikning ustunligi;

Xalq qo'shiqlarining keng tarqalishi.

Xorazm musiqiy maktabi:

Xorazm maqomlarining o'ziga xosligi;

Raq va musiqa uzviy bog'liqligi;

Ritmik tuzilmalarning murakkabligi.

Qiyosiy tahlil natijalari:

1. Umumiy xususiyatlar:

Barcha viloyatlarda maqom va ashula janrlari insoniy fazilatlarini ulug'lashga qaratilgan;

Musiqa va she'riyatning uzviy bog'liqligi;

An'anaviy cholg'u asboblarning o'xshashligi (dutor, tanbur, doira).

2. Mintaqaviy farqlar:

Buxoro: intellektual chuqurlik, murakkab nazariy tizimga ega;

Farg'ona: hissiyotlarning ochiq ifodasi, liriklik ekanligi; Xorazm: raqsga moslashuvchanlik, ritmik xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Xulosa. O'zbek etnomusiqa – badiiy ifoda vositalarining noyob uyg'unligi (maqom, ashula, lapar) orqali milliy estetik qadriyatlarini yetkazadi. Viloyatlararo farqlar quyidagilarda ko'rinadi: Buxoro etnomusiqa nazariy jihatdan boy, murakkab tizimga ega, Farg'ona etnomusiqa emotsionallik, lirik ohanglar koproq uchraydi, Xorazm etnomusiqa ozining ritmik jihatidan raqsga mos ekanligi bilan ajralib turadi.

Takliflar:

Musiqa ta'lim tizimida viloyat an'alarini alohida o'rganish dasturini joriy etish;

YUNESKOning nodir meros ro'yxatiga qo'shimchabir nechta etnomusiqa namunasini kiritish uchun ariza topshirish;

Har yili "O'zbek etnomusiqa festivali"ni o'tkazish;

Musiqa maktablarida an'anaviy usullarni o'qitishni kuchaytirish;

Raqamli arxivlar yaratish (masalan, "O'zbek etnomusiqa" mobil ilovasi);

Yoshlar uchun zamonaviy aranjirovkalarni ishlab chiqish.

O'zbek etnomusiqa xalqimizning bebaho madaniy boyligi bo'lib, u san'atning estetik qadriyat sifatida jamiyatga beqiyos ta'sir ko'rsatadi. Uning tarbiyaviy, badiiy va estetik jihatlari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu sababli, milliy musiqiy merosimni asrab-avaylash va rivojlantirish muhim vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev R. O'zbek maqomlarining estetik jihatlari. // San'atshunoslik. - 2018. - №3. - B.45-52.
2. Alimov T. O'zbek xalq cholg'u asboblari tarixi. - T.: Sharq, 2005. - 178 b.
3. Daring J. Central Asian Maqam Traditions. - Berlin: Verlag, 2002. - 245 p.
4. Matyoqubov O. Maqomlar haqida. - T.: O'zbekiston, 1998. - 215 b.
5. Nettl B. The Study of Ethnomusicology. - Urbana: University of Illinois Press, 2005. - 588 p.
6. Qaromatov F. O'zbekiston musiqa san'ati: Tarixi va zamonaviyligi. T.: "Fan", 2006.
7. Hashimov A. Xorazm maqomlarining o'ziga xosliklari // O'zbekiston tarixi. - 2019. - №2. - B.78-85.
8. Elektron manbalar: unesco.org/ich/en/shashmaqom-music.
9. O'zbek xalq musiqasi arxivi. www.uzbekmusic.uz.